

U. HAMDAMOV, A. QOSIMOV

JAHON ADABIYOTI

TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

ULUG'BEK HAMDAMOV, ABDUG'OPIR QOSIMOV

JAHON ADABIYOTI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT-2017

UO‘K: 821(100)(075)

KBK 83.3(0)ya7

H 24

H 24 U.Hamdamiy, A.Qosimov. Jahon adabiyoti. (O‘quv qo‘llanma). -T.: «Barkamol fayz media», 2017, 352 bet.

ISBN 978-9943-5142-0-1

“Jahon adabiyoti” fani talabalarga dunyo adabiyotining umumiy manzarasi, davrlari, yo‘nalishlari, sara namunalari, atoqli namoyandalari hayoti va ijodi, qolaversa, jahon adabiyotshunosligining asosiy mazmun-mohiyatidan saboq beradi. Mazkur o‘quv qo‘llanma yuqorida nazarda tutilgan yo‘nalishlar mazmunini qamrab oladi.

Дисциплина «Мировая литература» даёт студентам общее представление об этапах, направлениях, о лучших образцах всемирной литературы, о жизни и творчестве её знаменитых представителей. Данное учебное пособие охватывает содержание вышеуказанных направлений.

The scientific discipline “World literature” defines general picture of world literature, main directions, life and literary biography of basic representatives, selected samples, moreover, it depicts the main sense of literature studies. This textbook covers above-mentioned directions in all perspectives.

UO‘K: 821(100)(075)

KBK 83.3(0)ya7

Taqrizchilar:

B.Karimov – f.f.d., prof.;

D.Quronov – f.f.d., prof.



ISBN 978-9943-5142-0-1

© «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida, axborot texnologiyalarining tez sur'atda taraqqiy etishi, xususan, internet tizimining har bir xonadonga kirib borishi bir qator ijobiy jihatlar bilan birga turli ko'rinishdagi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqdaki, yoshlarda ularga qarshi immunitetni shakllantirish dolzarb muammoga aylandi. Shu bois, ta'lim tizimida adabiyot tarixini o'rganish barobarida yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, yuksak umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini oshirishni talab etiladi. Shundan kelib chiqib, zamonaviy talablar bo'yicha yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish, ularni ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, o'qitishning ilg'or texnologiyalaridan foydalanish davr talabidir.

Oliy ta'lim tizimida, asosan, filologik yo'nalishlar dasturiga kiritilgan "Jahon adabiyoti", "Jahon va turkiy xalqlar adabiyoti" singari fanlar bo'yicha o'zbek tilida darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish masalasi ham o'ta dolzarb hisoblanadi. Chunki jahon adabiyoti bilan tanishish o'z milliy adabiyotimizni munosib baholash imkonini beradi. Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar o'quv dasturlari, darslik va uslubiy qo'llanmalarni zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797-sonli Qarori asosida tayyorlangan.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'limning ijtimoiylashuvi bo'limida ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning adabiy-estetik dunyoqarashini boyitish, ularda go'zallik tuyg'ularini shakllantirish adabiyotning tarixiy va nazariy xususiyatlarini jamiyatimizda olib

borilayotgan ishlar orqali amalga oshirishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Zero, mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek, "Bugun biz yashayotgan Internet va yuksak texnologiyalar asrida adabiyot va san'at, madaniyatimizning o'rni va ta'sirini nafaqat saqlab qolish, balki qanday qilib uni kuchaytirish mumkin, degan to'g'ri va odilona savollar barchamizni, birinchi navbatda, xalqimizning eng ilg'or vakillari bo'lgan ijod ahlini o'ylantirishi zarur..."¹ Shu jihatdan, o'z millati adabiyoti bilan bir qatorda Jahon adabiyotining sara namunalarini o'qib tahlil qila oladigan yetuk adabiyotshunos, tarjimon va murabbiylar yetishtirish juda muhimdir.

O'quv qo'llanma adabiy-estetik qadriyatlarning milliy va umum-bashariy jihatlarini, jahon adabiyoti tarixini o'rganishning millat hamda jamiyat ravnaqidagi o'rnini talabalarga tushuntirish, ularda badiiy asarni to'laqonli tushunish, tahlil va tadqiq etish malakasini hosil qilish, jamoatchilikni jahon adabiyotidagi mazmun va shakl, mavzu va g'oyaning mohiyati bilan tanishtirishga ko'maklashish, jamiyatning ma'naviy manzarasini adabiy-nazariy tafakkur orqali aks ettirish, jahon adabiyoti durdonalarini chuqur o'rganish orqali talabalarining badiiy tafakkurini o'stirish borasida ko'rsatmalar beradi.

Yangi fan dasturi asosida jahon adabiyoti tarixi bo'yicha oliy o'quv yurti talabalari uchun yagona o'quv adabiyotini tanqidiy yondashgan holda qayta ishlab chiqish vaqti allaqachon yetdi. Chunki chet el adabiyoti tarixi bo'yicha shu kungacha foydalanib kelingan adabiyotlar ham qisman bo'lsa-da, zamon talabiga javob bermay qoldi. Ayniqsa, antik davrdan XXI asrgacha bo'lgan adabiyot tarixidan yagona qo'llanmaning yo'qligi talabalarga noqulayliklar tug'dirib kelmoqda.

Taqdim etilayotgan kitobda ana shu bo'shliqni to'ldirishga, jahon adabiyoti tarixiga hozirgi zamon nuqtayi nazaridan baho berishga baholi qudrat harakat qilindi. O'quv adabiyotining asosiy maqsadi

¹ Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir / Xalq so'zi. 2017. 4 avg.

talabalarga jahon adabiyotida sodir bo'lgan barcha jarayonlar haqida to'liq va batafsil ma'lumot berish emas. Chunki ushbu o'quv predmeti uchun ajratilgan dars soatlari ham chegaralangandir. Maqsadimiz jahon adabiy jarayonining muhim jihatlari, uning asosiy vakillari haqida ma'lumot berish, bo'lajak filolog, tarjimon va pedagoglarga ushbu adabiyotni o'rganishlarida ko'mak berishdan iborat. Talabalarda xorijiy mamlakatlar adabiy jarayoni haqidagi tasavvurni shakllantirish murakkab va mas'uliyatli vazifa sanaladi. Xorij adabiyotini yaxshi bilish, tahlil qila olish ko'nikmasini qiyoslash orqali o'zbek adabiyotini yanada teran his qilishga yordam beradi.

Qo'lingizdagi kitob ana shu mas'uliyatli vazifani ado etish maqsadida yaratildi. Qo'llanmadagi yozuvchi-shoirlar haqidagi ijodiy-biografik ma'lumotlarga tartib berishda, qo'yilayotgan muammolar qamrovini kengroq olishda N.Tronskiy, A.Jirmunskiy, O. Gasset, Y. Borev, V. Lukov, A.Alimuhammedov, O.Qayumov, Q.Azizov, D. Zatonskiy, X. Boltaboyev, M. Mahmudov, Q. Yo'ldoshev, M. Xolbekov, D. Quronov singari mualliflarning darslik, qo'llanma va tadqiqotlari hamda xorijiy manbalarga (3 qismdan iborat "World literature", Laura Getty, PhD, Kyoughye Kwou, PhD) murojaat qilindi.

Qo'llanmaning avvalgilardan farqli tomoni G'arbiy Ovrupa va Amerika adabiyotidan tashqari, talabalarning dunyo adabiyoti bo'yicha tasavvurlarini boyitishga yo'naltirilgan yangi mavzular kiritilganligida ko'rinadi. Xususan, "Qadimgi Sharq adabiyoti", "Mif va badiiy ijod", "Avstraliya, Okeaniya, Afrika, Kanada mamlakatlari adabiyoti", "Modernizm", "Postmodernizm", "Jahon adabiyotining zamonaviy muammolari" singari mavzularga oid ma'lumotlarning bayon etilganligi talabalarning mazkur fan bo'yicha to'liqroq tasavvurga ega bo'lishiga yordam beradi, deb umid qilamiz.

Jahon adabiyoti bo'yicha umumiy o'quv qo'llanma o'zbek tilida ilk bor nashr etilayotganligi uchun ayrim kamchiliklarning uchrashi ehtimoldan xoli emas. Mualliflar qo'llanma yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalar uchun avvaldan minnatdorchilik bildiradilar.

QADIMGI SHARQ ADABIYOTI

REJA:

1. Shumerlar – sivilizatsiya beshigi.
2. Mixxatlardagi tarix.
3. Shumerlar adabiyoti “Bilgamish” dostoni.
4. Akkadlar: Bobil va Ossuriya adabiyoti.
5. Qadimgi Misr adabiyoti.
6. Avesto – Markaziy Osiyo va Eronning mushtarak yodgorligi.
7. Qadimgi hind eposlari.
8. Xitoy ierogliflaridagi adabiyot. Konfutsiy va Dao qonunlari.

Tayanch soʻz va iboralar: shumerlar, akkadlar, Bobil, Ossuriya, Bilgamish, Avesto, Maxobxorot, Ramayana, Panchatantra, Kalila va Dimna, piramidalar kitobi, sarkafaglar kitobi, marhumlar kitobi, Konfutsiy va Dao qonunlari.

Shumerlar. Yaqin-yaqin vaqtlargacha bashariyatning madaniyat oʻchogʻi Gʻarb, qadim Yunoniston, qadim Rim deb kelindi va shunday talqin etildi. Ming yillar mobaynida shu qarashga suyanilib, madaniy, maʼnaviy, ilmiy ishlar yurgizildi. Ijtimoiy fanlar boʻyicha tadqiqotlarning indallosi mazkur qarash boʻldi. Albatta, buning oʻziga yarasha asosli sabablari bor boʻlib, ilmning qoʻli yetib borgan joy – Zevs rahnomaligida ilohlar makon tutgan Olimp togʻini oʻz bagʻriga olgan Yunoniston edi. Ammo keyingi, qariyb, bir asr davomida yangi arxeologik qazishmalarda qoʻlga kiritilgan topilmalar natijasida ilgari surilayotgan ilmiy fikrlar yuqoridagi qarashning umri bitganligini, ilk madaniyat oʻchogʻi antik madaniyat emas, balki Sharq ekanligini koʻrsatmoqda. U ham boʻlsa, shumerlar dunyosi, shumerlar madaniyati, shumerlar adabiyotidir. Ushbu xulosaga

ham olimlar birdaniga kelgani yo‘q, albatta. Yangilikni birdaniga tan olmagan, tan olishni istamagan olimlar talay bo‘ldi, ular haligacha bor. Bu orada dogma qarashlarga tahrir kiritadigan olamshumul ahamiyatga molik topilmalar, ilmiy izlanishlar ko‘payaverdi. Natijada amerikalik olim Samuel Kramerning “Tarix Shumerda boshlanadi”² degan tadqiqot kitobi dunyo ilmiy jamoatchiligi e‘tiborini shumerlarga qaratdi. Axir, bir necha ming yillar mobaynida insoniyat tarixida bunday xalq yashab o‘tganini bilmas edi-da. Faqat XIX asrga kelib, Bobil (Vavilyon) mixxatlarining siri ochilgandagina olimlar shumerlar haqida ilk xabar topishdi.

Shunday qilib, shumerlar madaniyatidan so‘z ochguvchi mixxatlar bashar ahlining madaniyat beshigi Yunoniston emas, balki shumerlar ekanini isbot qildi. Toir Eftining Rossiyada amalga oshirgan, O‘zbekistonda chop etilgan “Shumerlar va etruslar – insoniyat tamadduni ibtidosidagi qadimiy turkiylar”³ deb nomlangan tadqiqoti so‘nggi yillarda yaratilgan va ayni shu masalaga ko‘p jihatdan oydinlik kiritishi mumkin bo‘lgan tadqiqotlardan yana biri hisoblanadi. Kitobcha shumer mixxatlarini o‘qigan va shumer tili-ning turkiy til bilan genetik qarindoshligini aniqlagan Genri Roulinson, Yuliusa Opperto, Arno Peblya va Samuel Nao Kramer xotirasiga bag‘ishlanadiki, shuning o‘zidayoq bu kitobning yo‘nalishi, ahamiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi. 2012-yilda Toshkentda o‘zbek olimi Zoir Ziyotovning “Shumerlar va Turon qavmlari”⁴ degan kitobi nashr etildi. Kitob bejiz bunday nomlanmagan. Unda bashariyatga tamaddun eshiklarini ilk ochgan shumerlar bilan Turon qavmlari o‘rtasidagi aloqaga ishora qilinmoqda. Albatta, shumerlarning kelib chiqishi haqida bir-birini inkor va tasdiq etadigan ko‘plab qarashlar borligini yodda tutmoq kerak⁵.

² История начинается в Шумере. – Москва: Наука, 1991.

³ Шумерцы и этруски – древние тюрки у истоков человеческой цивилизации. – Тошкент: Нисо полиграф, 2013.

⁴ Шумерлар ва Турон қавмларн. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2012.

⁵ Qarang: Эргашев Ш. Қадимги цивилизациялар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.

Shumer tamadduni hozirgi Iroq territoriyasida joylashgan ikki daryo oralig'ida paydo bo'lgan. Bu daryolarning nomi Dajla (Tigr) va Frot (Yefrat) d'r. Lekin olimlarni "shunday katta tamaddunni barpo etgan xalq, shaharlar qayerga g'oyib bo'ldi?" degan savol o'ylatib keladi. Chindanam, ular qayerga ketishgan? Undan ham qizig'i, shumerlar qayerdan kelishgan? Ular kim o'zi?.. Yuqorida nomlari zikr etilgan tadqiqotlar bashar ahlining tarix haqidagi qarashlariga jiddiy tahrirlar kiritadi, uni o'ylashga, fikr yuritishga chorlaydi. Ulardan kelib chiqadigan xulosalardan asosiysi shuki, dunyo tamaddun o'choqlaridan biri, balki eng qadimiysi bo'lmish shumerlar madaniyati hamda shumerlarning qadim ajdodlari turkiy qavmlardir. Ayniqsa, Toir Eftining "Shumerlar va etruslar – insoniyat tamadduni ibtidosidagi qadimiy turkiylar" nomli tadqiqotida bugun Markaziy Osiyoda yashayotgan o'zbeklar, qozoqlar, turkmanlar, qirg'izlar, Kavkazdagi ozarbayjonlar, Turkiyadagi turklar va boshqa turkiy qavmlar bilan shumerlarning ildizi bir ekanligi to'g'risidagi fikr har tomonlama himoya qilinadi. Buning qay darajada haqiqat ekanligini hali yangidan yangi ilmiy tekshirishlar aytib beradi, lekin nima bo'lganda ham shumerlar madaniyatining borligi va u hozirgacha topilgan madaniyatlar ichida eng qadimiysi ekanligining o'ziyoq uning barcha madaniyatlarning sarchashmasi mavqeyiga olib chiqadi.

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasida shunday satrlar bor:

Tarixingdir ming asrlar

Ichra pinhon o'zbekim.

Senga tengdosh Pomiru

Oqsoch Tiyonshon o'zbekim.

Xalqi tarixidan faxr hissini tuygan, uni behad sevgan shoir bu she'ri bilan "Ey o'zbekim, sening tarixing ko'hna Pomiru Tiyonshonga teng!" demoqda. Ammo she'r yozilgan payt – sobiq

sho'rolar imperiyasi davrida shumerlar haqida ko'p gapirilmas, shumerlarning turkiy qavmlarga aloqasi haqida, boz ustiga, lom-mim deyilmas edi. Shuning uchun ham "O'zbekim" qasidasida tarixning shumerlar qismiga e'tibor qilinmaganini to'g'ri tushunish lozim. Binobarin, shoir Erkin Vohidov "O'zbekim" qasidasini bugun yozganda, shumerlarni chetlab o'tmasligi haqiqatga yaqin. Chunki she'rda tilga olingan O'rxun-yenisey obidalari eramizning VI va VII asrlariga to'g'ri keladi, shumerlar tarixi esa eramizdan oldingi to'rt minginchi yillarning ikkinchi yarimiga borib taqaladi. Oradagi farq juda katta. Bugungi sana bilan shumerlar ilk paydo bo'lgan davr orasidagi farq esa, ayrim olimlarning qayd etishicha, qariyb 6000 yilga teng.

Xo'sh, qanday asoslarga tayanilib, shumerlar turkiylarning ajdodi degan inqilobiy fikr maydonga tashlanmoqda? Avvalo, tilga. Shumerlar va turkiy tillar orasidagi qarishdoshlikka. Ma'lumki, sobiq sho'ro davrida shumer tilining turkiy tillar bilan solishtirilishiga qarshilik qilib kelingan edi, bu qarash hozirgacha postsovet terri-toriyasida saqlanib qolgan. "Nima uchun?" degan savol tug'iladi. Balki qadim tamaddunning ildizlari bilan turkiy xalqlar ildizlaridagi qarindoshlikni, demakki, turkiylarning dunyoga ilk madaniyat bergan xalqlardan bo'lib chiqishini qabul qilish birdaniga oson kech-magandir. Lekin baribir, oyni etak bilan yopib bo'lmaydi. Niho-yat, ming-ming yillar osha bo'lsa-da, bu borada dadil ilmiy fikrlar o'rtaga tashlandi: AQSH va Ovrupa olimlari bunday to'siqlarni yengib o'tib, ilk bor bu ishga qo'l urdi, shumer-etruslarning turkiylardan kelib chiqqanini isbotlaydigan qator dalillarni ilmiy jamoatchilikka ma'lum qildi. Etruslar Italiya madaniyatiga asos solgan xalq ekan-ligini, yana shumerlar, etruslar va qadimgi Misr xalqlarining ruhiy aloqadorligi haqida ham kitobda so'z yuritiladiki, bularning bari turkiy xalqlar tarixining naqadar ajabtovurligiyu teran tomirlarga egaligidan xabar beradi.

Javoharlal Neru 1955 va 1961-yillarda O'zbekistonga kelga-nida olgan taassurotlarini "Hindistonning kashf etilishi" kitobida

qoldirgan edi. Kitobda aytilgan quyidagi ma'lumotga e'tibor qiling: "Mening asl urug'- aymog'im kelib chiqishi jihatidan kashmirlik hisoblanadi. Kashmirga bundan 4300 yil avval O'rta Osiyodan kelganlar sug'orma dehqonchilikni yo'lga qo'yib, yangi yerlar ochganlar, ekinzorlarni tashkil etib, xo'jalik yuritishni yo'lga qo'yanlar va bu bilan dunyo tamaddudini rivojiga katta hissa qo'shganlar. Bu haqda olimlarimiz tomonidan chuqur kuzatishlari asosida ko'plab asarlar yozilgan"⁶. Chindan ham shumerlar hozirgi Iroq territoriyasida joylashgan ikki daryo oralig'ida eramizdan oldingi 4 va 3 ming yillik oralig'ida o'z madaniyatiga asos solib, taxminan m.o. 1750-yillargacha hukm surgan. Keyin tashqi kuchlar ta'sirida sekin-asta parchalangan. Bu parchalarning bir qismi Misrga, bir qismi Hindistonga, bir qismi esa Italiyaga o'tib ketadi. Bir qismi ikki daryo oralig'ida qoladi. Javoharlal Neru ilgari surayotgan 4300 yil oldingi o'rta osiyoliklar haqidagi fikr 4000–5000 yil nari-berisida shumerlarning dunyoga o'tkazgan ta'sirini yodga soladi.

Dunyoda birinchi yozuv shumer mixxatlari hisoblanadi. Mixxatlar loydan yasalgan g'ishtchalar (tablitsalar)ga bitilgan. U keyingi 100 yil ichida topilgan. Manbalar Bobil (Vavilyon) madaniyati tilidan tashqari bus-butun holda shumerlardan (mixxatlardan) ko'chirilgani aytiladi. Demak, Bobil dunyoga madaniyat berdi, deganda bu madaniyatning asli shumerlarga oid ekanligi endi ayon bo'lib qoldi. Shumerlar deyarli hamma narsani ilk bor yaratganlar. Dunyoning yaratilishi haqida miflar to'qishgan, dehqonchilik, chorvachilik, ustachilikni kashf qilishgan. Qum va tuproqdan g'ishtlar yasab, imorat solishni eplashgan. Yana savdo-sotiqni, ayirboshlashni, o'rmonchilikni puxta egallashgan, urush va tinchlik, sulh va uning shartlarini, er va xotin haqlarini yaxshi tushunib, kerak bo'lganda ularning huquqlarini hozirgi notarial idoralarda amalga oshirilganidek, qonun bilan himoyalab qo'yishgan, deyiladi manbalarda.

⁶ Shumerlar va Turon qavmlari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2012. – B. 13.

Taxminan 5–6 ming yil muqaddam shumerliklar dunyo miqyosidagi toshqin to‘g‘risida yozishgan. Mixxatlar bular haqida, yana ilk kemani kim qurganligi haqida, toshqin haqida batafsil ma’lumot beradi. Shumerlar eposlar, dostonlar, qo‘shiqlar bitishgan. Ulardan namunalar saqlanib qolgan. Masalan, “Bilgamish” dostoni. Bu asarlarda olam va odamni Tangri yaratganligi haqida kuylanadi. Qizig‘i shundaki, “Injil”dagi hikoyalar “Bilgamish”dagi hikoyalar bilan judayam o‘xshash. Olimlarning fikricha, “Injil”dagi ayrim hikoyalar shumer hikoyalari ta’sirida bitilgan. Bu ish mixxatlarni ko‘chirib oluvchilar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa kerak, deb taxmin qilinadi. “Injil”da nomlari zikr etilgan Nuh, Muso, Yoqub haqidagi rivoyatlarning ilk namunalari aynan shumerlar adabiyotidan, o‘sha mixxatlarga bitilgan rivoyatlardan topilgani bugungi o‘quvchini lol qoldiradi. Yana aytish joizki, asarga qiyosiy tipologik mezonlar bilan yondashilganda, dunyo xalqlarining ko‘pgina eposlarining ildizlarini ham aynan “Bilgamish” dostonidan topish mumkin bo‘ladi. Chunonchi, Homerning “Iliada”, “Odisseya”, hindlarning “Maxob-xorat”, “Ramayana”, o‘zbek xalqining “Alpomish” va boshqa shuning kabi ko‘plab dostonlar ildizlari aynan “Bilgamish”ning tuproqlaridan suv ichadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Bilgamish” dostoni

Shumerlar sivilizatsiyasi topilganda, ular yashagan joylarda arxeologik qazishmalar olib borishar ekan, olimlar bu qadar katta xazinaga duch kelishini hatto tasavvur ham qilmagan edilar. Turli-tuman ro‘zg‘or buyumlari, ish va harbiy qurollar, g‘ishtlar kabilardan tashqari, ko‘pdan ko‘p osori atiqalar, o‘sha davr kishilarining nafaqat turmush tarzidan, balki ulkan ma’naviy hayotidan ham xabar berib turar edi. Topilgan yozma yodgorliklarning aksariyati hozirda dunyoning ko‘plab muzeylariga tarqab ketgan. Ularning umumiy

soni taxminan 1 mln.dan ortiq deyiladi manbalarda. Yozma yodgorliklar (asosan, mixxatlar) ning taxminan 90–95 foizi xo‘jalik yuritish bilan bog‘liq bo‘lsa, qolgan qismi shumer adabiyotiga tegishlidir. S.Kramerning fikricha, badiiy asar bitilgan taxtachalar 5000 tadan ziyoddir. Shumerlar adabiyoti haqida o‘zbek olimi Zoir Ziyotov shunday yozadi: “Shumer adabiyoti o‘zlari zamonida yozilgan “sof shumer” asarlariga va shumerlarning merosi sifatida, albatta, ularni ulug‘lab yozilgan keyingi toifa asarlarga bo‘linadi”. Xo‘sh, Nineviyada ilk topilgan “Bilgamish” dostoni qaysi toifa asarlarga kiradi? Z.Ziyotov keyingi toifaga deydi. Lekin shunday bo‘lsa-da, doston shumerlar madaniyati negizida paydo bo‘lganiga ko‘ra, uni shumer adabiyoti sirasida ko‘rish va qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki doston yoshini m.o. 2600–2700-yil deb belgilanishiga qaramay, uning dastlabki sof shumerlar variantini olimlar 3700-yil deb bilishadi. Bundan tashari, dostonning dastlabki og‘zaki variantining yoshi 4500-yildan 6000-yilga qadar tarix bag‘riga qirib ketishi haqida qarashlar mavjud. Zero, Bilgamish tarixiy shaxs bo‘lib, 4500–6000-yillar muqaddam Mesopotamiyadagi Uruk (Erex) shahrining birinchi sulolasi tarkibidagi hukmdorlardan biri o‘laroq yashab o‘tgan. Bilgamish Shumerda shu darajada mashhur shaxs bo‘lganki, tiriklik chog‘laridayoq u haqda afsonalar to‘qilgan. Dostonning bir qancha sujet chizig‘i mavjud. Biz hozir shulardan bittasiga – 11 bitikka qisqacha to‘xtalamiz. Shuning o‘ziyoq bu Sharq dostonining nechog‘li ahamiyatli ekanini, tarixiy, adabiy va estetik qiymatini, o‘rnini yaqqol ko‘rsatishga kifoya qiladi. “Bilgamish” dostonining Shumer va Bobil variantlari bor bo‘lib, ular bir-birlaridan sujet chiziqlari borasida farq qiladi.

O‘n birinchi bitik

“Bilgamish” dostonining 11-bitigi 11 ta taxtachani egallaydi va u juda yaxshi saqlanib qolgan. Xo‘sh, taxtachada nima bitilgan? Ilk bor angliyalik tadqiqotchi Smit tomonidan o‘qilgan taxtachada

shunday yozuvlar bor edi: "Nizir tog'iga kelib kema to'xtadi. Shunda men kaptarni uchirib yubordim. Kaptar uchib ketdi va qo'nishga joy topolmay kemaga qaytib keldi". Bu jumlar nasroniylarning muqaddas kitobi – "Injil"dagi Nuh to'foni voqeasini yodga solardi. Bu o'xshashlikdan avvalo olim, keyin voqeadan xabar topgan dunyo afkor ommasi hayratga tushdi. Navbatdagi tadqiqotlar esa muqaddas kitoblarda zikr etilgan ayrim rivoyatlarning ildizlari aynan shumerlar sivilizatsiyasidan qolgan taxtachalardagi yozuvlar mazmuni bilan uyg'un ekanligini ko'rsatdi. Bu uyg'unlik esa jahon aro olamshumul voqea bo'lib tarqaldi.

Xullas, "Bilgamish" dostoni 11-bitigining qisqacha mazmuni quyidagicha edi:

Bilgamish hayot suvini qidirib, dunyoning hech kim yashamaydigan chekka bir joyiga borib qoladi va u yerda donishmand Pir Napishtimga duch keladi. Bilgamish undan: "Menga o'xshaysan-u, nega bu yerlarda hamma narsadan voz kechib yuribsan?" deya so'raydi. Shunda donishmand Pir Napishtim Bilgamishga javob aytadi: "Men senga barcha sirni ochaman, Bilgamish, ma'budlarning hukmini ham yashirib o'tirmayman. Sen Frot yoqasidagi Suripak (Shuruppak) shahrini bilarsan... U yerda ma'budlarning miyasiga dunyoni suvga bostirish kelib qoldi. Buyuk ma'budlar kengash qurdilar, kengashda ularning bobokalonlari ma'bud Anu, ularning maslahatchisi, qattiqqo'l ma'bud Bel (dunyoni suvga bostirish fikri shuning miyasidan chiqqan), ularning qirg'in keltiruvchi arvohi ma'bud Ninib, ularning sarkardasi ma'bud Nergal, jahonning hukmdori bor edi. Ma'bud Ea, bundan chiqib, ma'budlarning hukmlarini, kambag'allarga ham, boylarga ham barobar yetkazar edi: "Kulba! Qamish kulba! Qasr, g'ishtin qasr! Tingla, kulba! Qasr, tingla! Suripaklik Ubartutuning o'g'li! Uyni yiqit-da, kema yasa, mol-mulkingni tashla, joningni saqla! Boylingndan voz kech, hayotingni qutqar. Kemaga turli navdan, hayot urug'laridan ortib ol o'zing bilan. Kema eniga ham, bo'yiga ham, pastga ham cho'zilib ketaversin. Dengizdan bermalol suzib ketaversin". (A. Fayzullo tarjimasi).

Kemani qurgan inson Pir Napishtimning o'zi edi. Bitikda to'fonning batafsil tasviri beriladi. Olti kun jala quyadi, deyiladi. Yettinchi kun to'xtaydi. (Bu tasvirlar Nuh to'foni, dunyoning yaratilishi muddati haqidagi "Injil"dagi rivoyatlarni esga soladi. Qur'onda ham bu haqda alohida oyatlar keltiriladi). Ma'bud Ea Pir Napishtimga deydi: "Kechqurun bo'rilar hukmdori dahshatli jala yuborganida kemaga kirib ol-da, eshikni mahkam yop"... To'fonning birinchi kuni... (ikki-uch qatorni o'qib bo'lmaydi)... Bamisoli odamlar bilan qirg'inbarot jang o'yini o'ynayotgandek... Aka-ukaga qaramaydi; odamlar bir-birini o'ylamaydi. Osmondagi ma'budlarning o'zlari ham qo'rqib ketishgan, ular ma'bud Anu (arshi a'loda) uyiga berkinib olishgan; ko'ppak katagiga pusib kirganday, ma'budlar falak qafasi ichiga kirib g'ujanak bo'lib olganlar. Alamdan Pir Napishtim qattiq faryod soladi: "E voh!.. Atrofga alanglardim: Hamma yoq dengiz edi! Bir kecha-kunduzdan keyin orolga o'xshagan bir joyga suzib chiqdim. Kema Nizir tog'i (Qur'onda Judiy tog'i deyiladi) tomon suzib kelardi. Nizir tog'i uni tutib qoldi va kema endi chayqalmayotgandi". Yettinchi kun Pir tongda kabutarni qo'liga olib uchi-radi. Keyin qaldirg'ochni, keyin qarg'ani. Kabutar va qaldirg'och qaytib keladi, lekin qarg'a qaytmaydi. Tog' ustiga qo'nib don yeya boshlaydi. Ular xalos bo'lgan edilar.

Shunda dunyoni suv bostirgan ma'bud Bel darg'azab bo'ladi. "Tirik qolganlar qanaqa maxluqlar o'zi?! Bitta ham odam bolasi tirik qolmasligi kerak!" Ea deydi: "Sen – ma'budlarning qudratli rahnamosisan. Ammo ma'bud degani ham odamzot ustiga shunaqangi balo-qazo to'fonni yuboradimi? Gunohkor o'z gunohi, qotil o'z qilmishi uchun jazolanishi kerak, bu to'g'ri, ammo sal insof qilsang-chi, hammani qirib tashlash yaxshimi? Hamma butunlay qirilib bitmasdan bundoq rahming kelsin!.." Shunda Bel o'ziga keladi. Pir Napishtim aytadi: U (Bel) kemaga chikdi, qo'limdan tutdi va o'sha yoqqa boshladi; xotinimni ham birga yetakladi, uning qarshisida tiz cho'kishga majbur qildi; bizga murojaat qilib, o'rtamizga turib oldi va bizni duo qildi: "Shu paytgacha Pir Napishtim (banda) inson

edi, endi u ham, xotini ham bizga o'xshab ma'budlar sirasiga kiradi. Pir Napishtim olis yoqlarda, daryolarning mansablarida istiqomat qilsin... Ular meni qo'llariga ko'tardilar-da, olisdagi yurtlarga, daryolarning mansablariga olib ketdilar”.

“Bilgamish” dostonining bu matni fanda “Nineviya” varianti deyiladi... Bu nusxa ham shumerlarning asl nusxasidan emas, balki eski Bobil variantidan olingan va to'ldirilgan nusxadir. Asl shumer nusxasi bu nusxadan va “Injil”dan ikki ming yillar oldin yozilgan edi, og'zaki holda og'izdan-og'izga o'tib yurgani esa undan ham ilgari paydo bo'lgan, deb yozadi o'zbek olimi Zoir Ziyotov (“Shumerlar va Turon qavmlari”).

Bilgamishni G'arbda Gilgamish deyishadi. Hatto rus manbalarida ham shunday keladi. Nega? T. Eftining fikricha, bu ish chalg'itish uchun atay qilingan. Axir, Bilgamish so'zining o'zagi “bilge”, ya'ni “bilim”dan olingan. Bilgamish degani bilimlar egasi, hamma narsani bilguvchi ma'nosiga keladi va bu, so'z, shubhasiz, turkiy so'zdir. Doston bosh qahramonining ismi turkiycha bo'lib, u turkiyda ana shunday chuqur ma'noni bildirar ekan, demak, Gilgamishning asli Bilgamish ekanligi dunyo sivilizatsiyasining avvalida turkiylarning kelishini ko'rsatar edi. Ammo bu qarashni qabul qilish ko'pchilik olimlar uchun albatta oson emasdi.

Aytilganlardan ko'rinib turibdiki, Sharq adabiyoti namunasi bo'lmish “Bilgamish” dostoni shu choqqacha G'arbu Sharq, Shimolu Janub sarhadlarida yaratilgan epik dostonlarning debochasi bo'lib, uning sujetidan keyinchalik juda ham ko'plab boshqa asarlar, jumladan, dostonlar dunyoga kelgan.

Akkad adabiyoti. Akkad – Mesopotamiyadagi Frot daryosi bo'yida joylashgan shahar. Sargonakkad II podshohligi davrida poytaxt bo'lgan. Akkad atamasi shu nomdan olingan. M.a. III mingyillikda semit tillariga mansub aholi Mesopotamiyaga ko'chib o'tgan, ular dastlab mamlakat janubida joylashgan bo'lsa-da, vaqtlar o'tib kengaygan va butun mamlakat Akkad nomini olgan. Akkad so'zi shahar, mamlakat va qavm ma'nolarini bildiradi. Mesopotamiyada

Akkad davri deb yuritilgan vaqt m.a. 2350–2150-yillar orasiga teng keladi, deyiladi manbalarda.

Qadimgi Bobil va Ossuriya adabiyotiga nisbatan Akkad adabiyoti nomi qoʻllanilgan. Bu adabiyotning ildizlari shumerlar adabiyotidan suv ichadi. Akkad adabiyoti m.a. III mingyillikda oʻzining ilk yozuvlariga ega boʻlgan. Vaqtlar oʻtib shumer tili va adabiyoti oʻz oʻrni aynan akkad tili va adabiyotiga boʻshatib bergan. Hozirgi kunimizgacha yetib kelgan matnlarning bir qismi mualliflari saqlanmagan. “Bilgamish” dostoni akkادلarda ham boʻlgan. Bu variantning badiiy jihatdan ancha baland saviyada ekanligi qayd etiladi. “Enuma elish” dostoni dunyoning yaratilishi, iloh Erra haqidagi doston esa vaboga qarshi kurash haqidadir. Ammo Akkad miflaridan joy olgan ilohlar timsollari shumer mifologiyasidagi ilohlar proobrazlari vositasida yaratilganligi ularning asl manbasi (shumerlar) haqida yetarlicha maʼlumot beradi. Xususan, quyosh maʼbudi Shamash shumerlardagi Utgudan, Ishtar esa Inannadan taʼsirlanib yaratilgan.

Bobil adabiyoti namunalari sifatida “Inanna yer ostida”, “Bobil teoditsiyasi” kabi dostonlarni sanash mumkin. “Bobil teoditsiyasi” falsafiy doston boʻlib, u shartli nomlangan. Qadimshunoslar dostonni miloddan avvalgi 1400 va 800-yillar orasida yozilgan, deb taxmin qilishadi. Asarda hayotda koʻp qiynalgan oddiy bir hasratchi odam bilan donishmand oʻrtasidagi savol-javob bayon etiladi. Tushuncha hosil qilish uchun quyidagi qisqa parchaga nazar tashlash kifoya:

Hasratchi:

Ey dono, quloq sol, aytib beray Koʻnglimdagi qaygʻu-alamni.

(Men quling) ey dono, seni sharafloy, Dunyoda sen kabi dono qaydadir?

Senga teng keluvchi olim qaydadir? Maslahatchi qani? Dardimni aytsam. Kamina oilada kenjasi edim, Otamdan ayrildim taqdir hukmi-la. Borsa-kelmas tomon onam ham ketdi. Himoyasiz qoldim yetimlik ila.

Dono do'st:

Do 'stim, aytganlaring qayg'uli holdir, Lekin sen baribir yaxshi niyat qil. Oqil odam bo'l-u tentak bo'lmagil, Ochiq chehrali bo'l, g'amga botmagil. Hammaning ota-onasi ketar bir kuni "Xubur" daryosidan nari – sohilga...

Hasratchi:

Do 'stim, qalbing daryo, suvlari doim Mayjlanguvchi dengizga mengzar. Sendan so'raydigan gaplarim ko'pdir. Omad yuz o'girdi, quvvatdan qoldim, G'am-u hasrat ichra hayotdan toldim.

Dono do'st:

Aqling joyida-ku, so'zlaring chalkash, Chiroyli chehrangni ko'rga o'xshatma.

Ne tilasang, bir kun yetasan, Toat-ibodat qil, shafqat qilurlar, Ketgan yaxshi kunlar qaytib kelurlar.

Hasratchi:

Bosh egaman senga, dono so'zingga, Qornin hashak bilan to'ldirgan eshak Ilohiy so'zlarni tinglaganmi hech? Tirik odamni yeb quturgan arslon, Qurbonlik qilganmi ilohasiga?

Mol, dunyosi bisyor badavlat odam, Tillo tortib bermagan-ku ilohasiga? Qancha qurbonlik va ibodat qildim, Eshitmas iloham tilaklarimni.

Dono do'st:

Donolar hikmatin tinglagan odam Hurmoga o'xshaydi, yombi tilloga. Ekinzor dalani toptab, ezganlar, (Dehqon yo ovchining) o'qiga uchrar,

Chohga tushar ul qonxo'r arslon.

Mol, dunyosi oshib ketganni Gulxanda yoqadi zamon podshohi. Sen bularning izidan borma.

Tangri rizoligin so'ra, yaxshisi.



Hasratchi:

*So 'zlarining rohatbaxsh shabboda kabi,
Nasihating dardga malhamdir.*

Xullas, shumerlar madaniyati va adabiyoti bashariyat tarixining hozircha fanga ma'lum bo'lgan eng qadimiy qismi bo'lib, uni tadqiq etish hali ko'pdan ko'p chalkash muammolarga oydinlik kiritishiga shubha yo'q.

Qadimgi Misr adabiyoti

“Piramidalar kitobi” eramizdan 3 ming yil oldingi davrga oid bo'lib, marhumlarga bag'ishlangan. Marhum u dunyoda nimalar qilishi kerakligi haqida devorlarga yozuvlar shaklida bitilgan. Demak, kitobning mohiyati marhum kulti bilan bog'liq, ya'ni o'limni yengib o'tish, vaqt ustidan g'olib kelish, manguликka erishish to'grisidadir. Tahlillar bu matnlarning folklor ohanglari bilan uyg'unligini ko'rsatmoqda. Uyg'unlik takrorlarda, parallelizmlarda, alliteratsiyalarda, arxaizmlarda, unli va undosh tovushlarning qaytarilishida ko'rinadi.

“Sarkafaglar kitobi” (m.o. XV asr) “Piramidlar kitobi”ning davomi. Mazmuni “Piramidlar kitobi” ning mazmuniga o'xshaydi. O'rta Misr tilida yozilgan.

“Marhumlar kitobi” (m.o. XV asr) didaktik adabiyot bo'lib, yangi Misr tilida yozilgan. Marhum tilidan “Men o'ldirmadim, o'g'irlamadim, bekorchilik gap aytmadim, mol talashmadim” deya aytiladi. Bunda gunohlar katta-kichikligiga qarab emas, shaklning kelishiga qarab sanaladi. Qabr toshlarida marhumning ismi, kimligi, fir'avn oldidagi xizmatlari, ezgu ishlari bitilgan. Masalan, Sheshi nomli koin (majusiylar ruhoniysi) qabr toshiga quyidagilar yozilgan: “men haqiqatni gapirdim, men to'g'ri ish qildim, men yaxshilikdan so'zladim va yaxshilikni takrorladim. Men aka va singilni yarashtirib qo'yish uchun hukm chiqardim, men o'jizni kuchlidan himoya qildim, men ochga non, yalang'ochga kiyim berdim, qayig'i

yo'qqa qayiq yasab berdim. Men otamni hurmat qildim, onamga yaxshi munosabatda bo'ldim, ularning bolalarini tarbiyaladim". Mazkur uchinchi manbada jahon adabiyotida ilk bor "san'at" so'zi ishlatiladi. Bu matn esa m.o. XXV asrga oid bo'lib, Isesi nomli kohin qabr toshiga yozilgan: "Olimlik bilan maqtanma. Bir o'zim hamma narsani bilaman deb o'ylama. Maslahatni faqat donishdan emas, hamma joydan qidir. San'at chegara bilmaydi. Axir, rassom o'z mahoratining so'nggi nuqtasiga yetishmog'i mumkinmi?". Misrliklar uchun bu kabi yozuvlar nihoyatda muhim sanalgan. Dushmanlariga jazo berish uchun raqiblari haykallaridagi nomlarni o'chirib, o'rniga boshqa ismlarni yozib qo'yish ularga kifoya qilgan. Ikkinchi ming yillikning oxirlariga tegishli "Kotiblarni madh qilish" asari Goratsiyning "Exegi monumentum" va A.S. Pushkinning "Haykal" she'rlariga xamirturish bo'lgan. Mana o'sha asardan parcha: "Donishmand kotiblar// Ilohlarning muovnlari// Kelajakni bashorat qilishgan// Ularning nomlari abadiy saqlanib qoladi// Ular o'z ishlarini yakunlab ketishdi// Ularning hamma yaqinlari unutildi// Ular o'zlariga misdan piramidalar yasashmadi// Bronzadan qabr toshlari ham// O'zlaridan keyin merosxo'rlar qoldirishmadi// Nomlarini ko'tarib yuradigan farzandlar ham// Ammo ular o'z meroslarini bitiklarda qoldirishdi// Bitiklar ularning kohinlariga aylandi// Maktub taxtalari esa o'g'illarga// Ularning piramidalari hikmatlar kitobi// Ularning bolalari esa qamishdan yasalgan qalam// Ularning umr yo'ldoshlari qattiq toshlar//... Kitoblar uylardan kerakliroq// Mag'ribdagi maqbaradan zo'rroq// Hashamatli saroydan hashamatliroq// Ibodatxonadagi yodgorlikdan yaxshiroq" (A. Axmatova amalga oshirgan ruscha variantidan U.Hamdamiy tarjimasini).

Imxotep – Papiirusga yozuv bitgan ulug' kotiblardan biri (m.o. XXVIII a.). Imxotep yana birinchi piramida yaratuvchisi hisoblanadi (fir'avn Josefning zinapoyali piramidasi). U misrliklar tomonidan ilohiylashtirilgan arxitektor, astronom, shifokor, ehtimol, jahon adabiyotining ilk yozuvchisi hamdir (u qoldirgan matnni aniqlab isbot qilish qiyin bo'lsa ham), deyiladi manbalarda.

Osiris haqida afsona. Bu misrliklarning bosh afsonasi bo'lib, unda o'lgan va qayta tirilgan iloh haqida so'z boradi. Osiris Misr podshohi. U odamlarga ko'p foydali, ezgu ishlarni o'rgatadi: ekish, non pishirish, musallas tayyorlash, asal olish, davolash, ibodatgohlar qurish, din, mis va oltin olish, odamxo'rlikdan tiyilish.. Ammo Osirisning g'alabasi sha'niga berilayotgan ziyofatda akasi Set (cho'l va yot mamlakatlar ramzi) bir sarkafag olib kelib, kimga sig'sa, o'shanga sovg'a qilishini aytadi. Sarkafag Osirisga to'g'ri keladi. Chunki undan yashirincha (uxlab yotganda) andoza olingan bo'ladi. Osiris uni kiyishi bilan Set sarkafagni yopib, Nil daryosiga tashlaydi. Osiris o'ladi. Set uning tanasini 14 ga bo'lib, butun Misr bo'ylab sochib yuboradi. Shunda Osirisning singlisi va xotini parchalarni to'plab, ulardan iloh Gorni yaratishadi. Gor ulg'ayib, otasini kim o'ldirganini biladi va Setga qarshi kurashib, uni yengadi. Ammo o'zi ham ko'zidan ayriladi. Ko'zini qayta qozonib (quyosh ramzi), uni Osirisga beradi. Osiris uni yutib, tiriladi (tabiatning qayta jonlanishi). Osiris haqidagi afsona tufayli har yili bahorning kelishi qutlanadigan bo'ladi. M.o. 1970-yilga tegishli papirus bitigida jahon adabiyotida birinchi marta dramatik asar epizodiga duch kelinadi. Bu epizodda qahramonlarning replikalari remarklar yordamida beriladi. Personaj monologi ham mavjud. Unda Osiris va Setning qurolsiz jangi yoritiladi.

Qadimgi Misr adabiyotida sayohat, masal kabi janrlarning ilk kurtaklarini ko'rish mumkin. Yana Injil va Platonning asarlarida (dialog) Misr adabiyoti ta'siri yaqqol seziladi. Misr adabiyoti matnlari-dan birida uchraydigan "Yaxlit bir narsa mo'jizasini yuzaga chiqarish uchun pastda joylashgan tepadagiga uyg'un, pastdagi esa tepadagiga muvofiq" degan qarash analogiyaning ulug' qonuni hisoblanib, bu qarash yevropaliklar dunyoqarashini yangi zamonlarga qadar belgilab kelgan.

Qadimgi Markaziy Osiyo va Eron adabiyoti

Avesto hozirgi tilda “asosiy kitob” ma’nosini bildiradi. M.o. IX va VI asrlarda paydo bo’lgan, Sharq xalqlarining diniy, ma’naviy, falsafiy, adabiy mushtarak yodgorligidir. G’arb olimlari uni Eronda paydo bo’lgan deyishadi. Lekin keyingi vaqtlardagi ilmiy izlanishlar Avestoning avval Xorazm (Markaziy Osiyo) da paydo bo’lib, so’ng Eron va Hindistonga tarqalgan, deya taxmin qilishga asos beradi. Uning asoschisi Zardusht, ergashuvchilar esa zardushtiylar sanaladi. Zardushtiylar Ahuramazdaga sig’inish bilan birga quyosh, olov, suv, zamin va taqdirga topinishgan. Hozirgi kunda zardushtiylikning dunyo bo’ylab 129 000 dan ziyod vakillari bor. “Avesto” matni 21 ta kitobdan iborat bo’lgan. Unda dunyoni boshqaruvchi ikki kuch – Ahuramazda va Ahriman haqida batafsil so’z yuritiladi. Ahuramazda ezgulik, Ahriman esa yovuzlik homiysi. Ular o’rtasida mangu jang boradi. Ahuramazdaning 6 tajalliysi bor: 1. Vohu Mana (ezgu niyat), 2. Asha Vaxishta (eng yaxshi haqiqat), 3. Spenta Armayti (muqaddas halollik), 4. Xshatra Varya (tilakli hokimiyat), 5. Xarvatat (butunlik), 6. Umuratat (uzoq umr, abadiy hayot). Ushbu olti ideal insonlarning ma’naviy kamolotga erishishi uchun eng oliy qadriyat hisoblangan.

“Avesto” matnida dastlab ohang uyg’unligi saqlangan. Keyinchalik matnning 5 dan 3 qismi yo’qolgan (Aleksandr Makedonskiy O’rta Osiyoga bostirib kelganda “Avesto” ni yo’q qilishga harakat qilgan va bunga qisman erishgan. VII asrdan boshlangan arablar bosqini davrida yana shu hol yuz bergan. Umuman, bir xalq boshqa xalqlar ustiga bostirib borib, ularni yengib, ustidan hukmronlik qilar ekan, odatda, mahalliy xalq tarixini, tarixni bilguvchilarni, ziyolilarni, o’qimishlilarni yo’qotishga urinadi. Yaqindagina parchalanib ketgan sho’rolar hukumati ham xuddi shunday siyosat yurgizgan edi). Natijada ritmik strukturaga putur yetgan. Shunga qaramay, o’rta asrlarda gotik romanlar va M. Bulgakovning “Master va Margarita” romanlarida shu konsepsiyaga ergashilganligi kuzatiladi.

“**Maxobxorat**” eposining nomi ulug‘ jang, degan ma’noni bildiradi. Doston m.o. X-IV asrlarda vujudga kelgan bo‘lib, milodiy taxminan IV asrlarda yozib olingan. “Maxobxorat” va “Ramayana” qadimgi hind adabiyotining cho‘qqisi hisoblanadi. “Maxobxorat” 200 ming misradan iborat bo‘lib, hajman “Iliada” va “Odisseya”dan 8 marta ko‘pdir. Asarning asosiy sujeti shundayki, aka Panduning besh o‘g‘li uka Dxishtrotrning yuz o‘g‘li o‘rtasida taxt talashish natijasida nizo kelib chiqadi. Taxt qonunan besh o‘g‘ilning to‘ng‘ichi Yudxishtarga tegishli bo‘lsa-da, hiyla-nayrang bilan Dxishtrotrning o‘g‘li Duryodxon uni egallab oladi. O‘rtada muhoraba (jang) boshlanadi. U 18 kun davom etadi va besh o‘g‘ilning g‘alabasi bilan yakunlanadi. Yudxisht mamlakatni uzoq vaqt adolat bilan boshqarib, asar so‘ngida ukalari va umumiy xotinlari bo‘lmish Draupadi bilan birga ilohlar olamiga kirish uchun muqaddas tog‘ cho‘qqisiga ko‘tariladi.

“**Ramayana**” eposi til xususiyatlariga ko‘ra “Maxobxorat” yozilgan davrdan keyinroq vujudga kelgan. Lekin asar voqealari – Ram, Krishnaning qahramonliklari va uning ma’bud deb tan olinishi ancha qadimroq vaqtlarda yuz bergan, shoir Valmiki “Ramayana” dostonining asosiy muallifi deb taxmin qilinadi manbalarda. Ammo dostonning to‘liq shakllanishiga boshqa shoirlar ham hissa qo‘shgan. Doston sujeti markazida Ram, uning xotini Sita, devlar va jinlar mamlakati hukmdori – o‘n boshli dev Ravana (ehtimol, o‘n buyuk lashkarboshilari borligi uchun shunday deyilgandir) turadi. Ram 14 yilga taxtdan uzoqlashtiriladi, ukasi Lakshman va xotini Sita bilan sargardon hayot kechiradi. Keyin kimsan – Ayyodxya davlati shohi-

⁷ Eng qadimgi adabiyoti “Veda”lardir. Diniy va marosimiy matnlardan iborat “Veda”lar m.o. XVIII–XIII asrlarda Hindistonga kirib kelgan oriy qabilalar madaniyati bilan sintezlashuv negizida paydo bo‘lib, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchiga yod oldirish yo‘li bilan o‘rgatilgan. Veda–bilim degani. Undan xudolar madhi, qahramonlik afsonalari, pandnomalar, falsafiy sharhlar o‘rin olgan.

ning o'g'li Ramning sevikli xotini Sitani devlar hukmdori Ravana o'g'irlab olib kelib, unga uylanmoqchi bo'ladi. Sita turli bahonalar bilan to'yni kechiktiradi. Bu vaqt oralig'ida Ram va ukasi Lakshman, jangchilari, shamol ma'budi hamda donishmand maymun Xonuman yordamida devlar makoniga yetib keladi. Jangda Ramning qo'li baland keladi. Doston sujeti shulardangina iborat emas. Unda oilaviy mojarolar tufayli davlatning zaiflashuvi masalasi, adolatli podshoh va kuchli davlat munosabatlari oilaviy ziddiyatlar bilan birgalikda ta'sirli aks ettirilgan. "Ramayana" va "Maxobxorot" dostonlarini buyuk hind adibi Robindranat Thakur Homerning "Iliada" va "Odiseya" dostonlariga qiyoslaydi. Qadimgi hind eposlari jahondagi juda ko'p tillarga tarjima qilingan. "Ramayana" dostonini yozuvchi va tarjimon Muhammad Ali o'zbek tiliga tarjima qilgan.

"Panchatantra" hamda "Kalila va Dimna". Qadimgi hind adabiy-estetik tafakkurining nodir durdonalaridan biri "Panchatantra" (Besh kitob) asari milodning III-IV asrlarida vujudga kelgan. Janubiy hind o'lkasida Amora-shakti (o'lmas qudrat egasi) nomli dono podshoh bo'lib, uning bir-biridan ahmoq uchta o'g'li bo'ladi. 12 yil mobaynida o'z ona tili grammatikasini o'qib ham uqishmabdi. Ota donishmand vazirlarini to'plab, maslahat solibdi. Vazirlar uch o'g'il tarbiyasini donishmand Vishnu-sharmanga topshirishni maslahat beribdi. Vishnu 6 oy muhlat so'rab, shahzodalarga "Panchatantra" hikoyalarini aytib beribdi. Boshqa bir manbada esa "Panchatantra" m.a. IV asrda noma'lum muallif tomonidan yozilganligi aytiladi. Unga ko'ra, "Iskandar va Pur jangidan so'ng hindlar makedoniyalik istilochilarni qirib tashlab, o'zlarining shahzodasi Dobshalimni podshoh qilib ko'taradilar. Ammo u kib-ru havo va dabdabaga berilib, xalqqa jabr-zulm qila boshlaydi. Shunda vazirlar yashirin tarzda yig'ilib, donishmand brahman Boydaboni chaqirib, undan podshohni adolat va insofga, yaxshilikka da'vat qiluvchi bir hikmat yozib berishlikni iltimos qiladilar. Shunda Fil bilan To'rg'ay hikoyasi yuzaga keladi. Fil daryo bo'yiga suv ichgani kelganida o'zi bilmagan holda to'rg'ay uyasidagi jajji tuxumlarni sindirib yuboradi. To'rg'ay

filga o‘z dardini aytsa, fil takabburlik bilan qo‘pollik qiladi. To‘rg‘ay o‘rmondagi do‘sti qarg‘ani ishga solib, filning ko‘zini cho‘qitib ko‘r qiladi. So‘ng qurbaqalarga aytib, ko‘rmayotgan filni jarlikka qulatib yuboradi. Hikoyadan maqsad zolim har qancha qudratli bo‘lmasin, jazosiz qolmasligini eslatishdir. Donishmand Boydabo zolim Dobshalim bilan uchrashib, unga yaxshi so‘zlarni aytib, dilini eritadi. Shoh uning nasihatlarini tinglashga rozilik bildiradi. Donishmand hikmatlarida aytilishicha, inson boshqa jonivorlardan to‘rt xislati bilan farqlanadi: u turli ilmlarni bilishi (1), go‘zal xulqli va shirinsuxan bo‘lishi (2), vazminlik bilan oqilona ish tutishi (3) va adolatli (4) bo‘lishi kerak. Asar davomida shu kabi bir qator hikmatlar keltiriladi. Hind donishmandlari ming yillar davomida bu hikmatlarni aytib jahon xalqlariga yetkazganlar. Qadimgi Hindistonda adabiy-estetik tafakkur mifologik inon-e‘tiqodlarni va umuminsoniy ideallarni ilgari surgan”⁸. “Panchatantra” atoqli tarjimon Ibrohim G‘afurov tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan.

“**Kalila va Dimna**” eposi “Panchatantra”, “Xitopadeshe” va shu kabi boshqa asarlar bilan ildizi bir ekanligi aytiladi⁹. Chunonchi, masalan, “Kalila va Dimna” va “Panchatantra”ni chog‘ishtirib o‘qib ko‘rishning o‘ziyoq bu fikrni isbot qiladi. “Kalila va Dimna” VI asrda Eron shohi Anushiravon davrida Hindistondan Eronga keltirilib, forsiyga o‘giriladi. Tarjima asnosida Sharq an‘anasiga ko‘ra tahrirlar, qo‘shishlar, qisqartirishlar amalga oshiriladi. Natijada “Panchatantra”dan birmuncha farqli bo‘lgan “Kalila va Dimna” asari dunyoga keladi. Asar keyinchalik ko‘plab, jumladan, arab, rus, tojik, ozarbayjon va o‘zbek tillariga ham o‘girilgan. O‘zbek tiliga eng so‘ng olimi Suyuma G‘aniyeva tomonidan amalga oshirilgan. Asar pand-nasihatga yo‘g‘rilgan ertak, masal, rivoyat va hikoyatlardan iborat bo‘lib, hayvonlar, qushlar vositasida odamlarning qilmishlari va qilmishlarning oqibatlaridan hikoya qiladi. Eng

⁸ Qarang: Boltaboev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013.

⁹ Kalila va Dimna. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2012. – B. 254.

muhiimi, unda shunday majoziy yo‘l tanlanganki, natijada epos barcha zamonlar uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda.

Qadimgi Xitoy adabiyoti

Ilk bitiklardagi adabiyot. Birinchi ierogliflar m.a. XV asrga oid bo‘lib, suyakdan yasalgan tablichkalarda ilohlar irodasini ifoda qilgan: “Bolalarga don ekishni buyurish”, “O‘ttizta odam va o‘nta buqani qurbonlikka keltirish”, “Agar odamlarning boshini qurbonlikka keltirsang, shoh yordam oladi” kabi. Keyin bu tablichkalar olovga tashlangan hamda ularda qanday yoriqlar paydo bo‘lishiga qarab ilohlarning munosabat-javobi haqida xulosa qilishgan.

“I Szin” (O‘zgarishlar kitobi). Nasroniylar uchun “Injil” qanday ahamiyatga molik bo‘lsa, xitoyliklar uchun bu kitob o‘shanday qimmatli hisoblanadi. Bi kitobning mazmuni, afsonaga ko‘ra, dengiz yuzasiga chiqib qolgan toshbaqaning kosasiga suvratlar shakli (geksagramma) da chizilgan. Kitob o‘ziga xos fol kitobi hisoblanadi. Kitob m.a. XXI asrdan m.a.VI asr oralarida vujudga kelgan degan har xil qarashlar mavjud. Hatto uni Konfutsiy nomi bilan bog‘lashadi. Asar sekin-asta sayqal topib, fol kitobidan falsafiy traktatga aylangan. 64 ta geksagrammada aks etgan hayot bosqichlaridan inson taqdiri bunyod bo‘ladi, degan qarash ilgari surilgan. Mas., 1. Ijod. 2. Ado etish. 3. Ilk qiyinchiliklar. 4. G‘o‘rlik. 5. Kutish zarurati va h.k...

“Shi Szin” – qo‘shiqlar kitobi. Qadimgi xitoy she‘riyati hisoblanib, XII-VII asrlarga oid. Undan turli-tuman janrlardagi qo‘shiqlar o‘rin olgan. Didaktika, totem, marosim, qarg‘ish, kult yo‘nalishidagi va yana boshqa mavzulardagi qo‘shiqlar mif hamda folklor ruhi bilan qo‘shilib ketgan.

Xitoyda epopeyaning yo‘qligi dunyoqarash bilan, undagi antropotsentrizm bilan bog‘liq. Xitoyliklar go‘zallikni alohida bir shaxs va uning tuyg‘ulari bilan emas, balki tabiat va jamiyat bilan bog‘liq holda ko‘rishadi. Shu negizda ikki dunyoqarash paydo bo‘lgan: konfutsiylik (jamiyatga qaratilgan nigoh) va daosizm (tabiatga qaratilgan nigoh).

Konfutsiy qonunlari. Ulug‘ mutafakkir Konfutsiy (Kun Fu szi, ya’ni muallim m.a. 552/551–479) ning 3000 taga yaqin o‘quvchisi bo‘lgan. Ularga og‘zaki dars bergan. Ammo uning ta’limoti avlodlar tomonidan yozib olingan va Konfutsiy qonunlari (O’n uch qonun, “Shi san szin”) bizgacha yetib kelgan. U 13 kitobdan iborat bo‘lib, ayrimlari “Suhbatlar va mulohazalar”, “Ulug‘ ta’limot”, “O‘rtalik haqida ta’limot” deya nomlanadi. Konfutsiyning asosiy g‘oyasi dao bo‘lib, bu yo‘l insonni ezgulikka olib boradi. Buning uchun u inson qarshisiga 5 ta talabni qo‘yadi: 1. Burch. 2. Insoniylik. 3. An’anaga sadoqat (Me’yorni bilish). 4. Jasorat (Hayotini o‘rtaga qo‘yib bo‘lsa ham ezgulikni himoya qilish). 5. Bilim (Tabiatni emas, balki insonni bilish).

Dao qununi. “Dao de szin” (Dao – yo‘l, de – ezgulik. Ezgu yo‘l haqida kitob). Bu qonun Lao-szi (m.a.VI-V a.) ga oid deb qaraladi. Shu bilan birga, keyingi davrlarga tegishli degan qarashlar ham yo‘q emas. Dao qununi Konfutsiy qonunlariga zid mohiyatda turadi. Bu qonunlar asrlar davomida to‘planib, milodiy 1019-yilda e’lon qilingan. Uning mohiyati faoliyatda emas, balki tabiat bilan qo‘shilib, unga singib ketishda: “Dao hech narsa qilmaydi, lekin qilinmagan hech qanday ish yo‘q”.

Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:

1. Qadimgi Sharq adabiyoti deganda qaysi adabiyot tushuniladi?
2. Shumerlar adabiyotining o‘ziga xosligi nimalarda ko‘rinadi?
3. “Bilgamish” dostoni mazmunini gapirib bering.
4. Akkad adabiyoti haqida tushuncha bering.
5. Qadimgi Hind, Xitoy, Markaziy Osiyo va Eron adabiyotlari haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar

1. Луков Вл. А. История литературы (Зарубежная литература от истоков до наших дней). – Москва: Академия, 2008.

2. Эргашев Ш. Қадимги цивилизациялар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
3. Эфти Т. Шумерсы и этруски – древние турки у истоков человеческой цивилизации. – Ташкент: Нисо полиграф, 2013.
4. Зиётов З. Шумерлар ва Турон қавмлари. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2012.
5. Крамер С. История начинается в Шумере. – Москва. Наука. 1991.
6. Болтабоев Ҳ., Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2013.
7. Панчатантра. – Тошкент: “Yangi asr avlodi”, 2013.
8. Калила ва Димна. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 2012.
9. Авесто. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 2015.

MIF VA BADIYIJ IJOD

REJA:

1. Mif va uning paydo bo'lishi.
2. Mif va ertak.
3. Mif va badiiy adabiyot.
4. Qadimgi xalqlar miflari va ularning o'ziga xosligi.
5. Qadimgi yunon miflari.
6. Mifologik maktab.
7. Folklor, mif va yozma adabiyot mushtarakligi.

Tayanch so'z va iboralar: *Mif, mif va badiiy ijod, mif va ertak, qadimgi xalqlar miflari, mif va jahon adabiyoti, mifologik maktab: aka-uka Grimmlarning "Nemis mifologiyasi" asari, mif, folklor va zamonaviy adabiyot munosabatlari.*

Mif va uning paydo bo'lishi

Mif (yunoncha mythos – rivoyat, hikoya, masal) – xalq og'zaki ijodining eng qadim davrlarida paydo bo'lib, odamlarning olam haqidagi o'sha paytdagi tasavvurlarini aks ettiradi. Ammo tasavvurlarni shunchaki aks ettirmaydi, balki aniq obrazlar vositasida bo'rttirib aks ettiradi. Miflar olam va odam haqidagi rivoyatlar bo'lishiga qaramay, zamonaviy inson tushunchasidagi san'at hodisasi bilan bir hodisa emas. Miflar o'z vaqtida odamlarning tafakkur shakli hisoblanib, ular vositasida atrof-javonibni, olam-u odamni, tabiat hodisalarini bilishga urinishgan. Miflar vositasida "olam yoki odam qanday yaralgan, nega kunduzi quyosh chiqib kechqurun botadi, shamol qayerdan paydo bo'ladi-yu chaqmoq nima o'zi?" degan savollarga javob izlangan. Deylik, yunonlar chaqmoq chaqishini Zevsning, dengizdagi dahshatli dovullarni Poseydonning g'azablangani bilan izohlaganlar, inson taqdiridagi turfa evrilishlarda ilohlarning aralashuvini ko'rganlar. Mifologiya esa miflarni o'rganuvchi fan hisoblanadi.

Sodda til bilan aytganda, ertalab quyosh chiqadi, odamlar uygʻonishadi. Kechqurun quyosh botganda, odamlar uyquga tolishadi. Osmonda esa yulduzlar paydo boʻladi. Har doim shunday boʻlgan. Qadimda ham, hozir ham shu hodisalar takrorlanadi. Lekin qadimda bu hodisalarga boshqacha qarashib, quyoshning chiqishi va botishi, dengiz suvlarining koʻtarilishi va tushishi, suv toshqini, quyosh va oyning tutilishi, vulqonlar otilishini tushunmoqchi boʻlishgan. Tushunish va tushuntirish yoʻlidagi urinishlar miflarni paydo qilgan.

Mif haqida rus olimi A.F. Losev oʻzining “Filosofiya. Mifologiya. Kultura”¹⁰ kitobida mifni qadimiy odam uchun gʻoya yoki tushuncha emas, balki reallik, hayotning oʻzi sanalgan, deb yozadi.

Miflar hamma xalqlarda bor. Ular qayerdadir bir-birlaridan farq qilsa, qayerdadir oʻxshaydi, qayerdadir sujet chiziqlari kesishadi, qayerdadir biron bir detal mushtarak chiqib qoladi. Xoʻsh, nima uchun? Albatta, bu borada xalqlarning geografik jihatdan joylashuv oʻrni, turmush tarzi va darajasi koʻp narsani belgilab beradi. Masalan, dengiz boʻyida yashagan xalqlarning miflarida suv, baliq, kit kabi atributlarning qatnashishi, voqealar ularning ishtirokida sodir boʻlishi tabiiydir. Xuddi shunday, Avstraliya miflarida kenguri va itning koʻp uchrashi ham geografik joy bilan bogʻliq hodisa. Bir xil turmush tarzi, bir xil muammolar ham mushtarak miflarni, ulardagi oʻxshash sujet chiziqlarini paydo qilgan. Ayni paytda, xalqlarning bir-birlaridan taʼsirlanishi, bir-biridan oʻrganish faktini ham inkor qilmaslik kerak. Masalan, rim miflarida yunon miflarining, yunon miflarida esa shumer miflarining izlari bor.

Mif va ertak

Ertak muallifi oʻquvchini qiziqtirish uchun har xil poetik usullardan foydalanib ish koʻradi – ertak toʻqiydi, lekin oʻzi voqealarga ishonmaydi. Uning maqsadi oʻquvchini jalb qilish, unga badiiy-estetik zavq ulashish. Mif yaratuvchisi esa oʻz rivoyatlariga ishonadi. Mifda

¹⁰ Лосев А. Философия. Мифология. Культура. – Москва: Политическая литература, 1991.

ishonch – eng muhim atribut. Mif voqealariga ishonch bo‘lmasa, mif tabiatini to‘liq tushunib bo‘lmaydi. Mifning vazifasi u yoki bu voqea mohiyatini tushuntirishdir. Mif qadimda insonni o‘rab turgan olamni tushuntirishning asosiy yo‘li bo‘lgan. Nafaqat qadimda, balki hozir ham badiiy adabiyot mifga murojaat qilib turadi. Atrof-javonibda sodir bo‘layotgan voqealar mohiyatini mif vositasidagina tushuntirib berishga ehtiyoj sezadi. Umuman, miflar mag‘zini chaqmasdan turib, badiiy adabiyot mohiyatini to‘liq tushunish va tushuntirish mumkin emas.

Uyg‘onish davriga qadar Ovrupa antik va nasroniy miflarini bilar edi. Uyg‘onish davrida buyuk geograflar dunyo kezdilar. Amerika, Afrika, Okeaniya kabi mamlakatlar topildi va ularning ham o‘z miflari borligi ayon bo‘ldi. Etnograf va folklorchilar ularni yozib olishdi. Yunon miflari poetik olamning birinchi yuksak obrazi bo‘lsa, bular bolalarcha sodda miflar edi. Ularda dunyo, yulduzlar, inson, hayvon va o‘simliklarning yaralishi haqida so‘z boradi.

Shumer miflari. Olimlar shumerlardan qolgan merosni uchga bo‘lishadi: miflar, dostonlar va madh-maqtovlar. Shumerlar “Oy ma’budining tug‘ilishi”, “Cho‘kichning yaratilishi”, “Enki va dunyoning tartibi”, “Enki va Ninxursag yoki jannat haqida shumer afsonasi”, “Enki va Ninmax yoki odamning yaratilishi”, “Enki va Eredu”, “Inanna va Enki”, “Dumuzi va Inannaning nikohi”, “Bilgamish va Endiku”, “Endiku Bilgamishning xizmatkori va do‘sti”, “Boqiy hayot qidirgan Bilgamish” kabi qator mif-afsonalar yaratishgan. “Bilgamish” dostoni markazida turgan qahramon garchi hayotiy asosga ega bo‘lsa-da, dostonning ko‘plab sujet chiziqlari, unda ishtirok etayotgan ilohlar, qahramonlar turli afsonalar mahsuli hisoblanadi.

Misr miflari. “Yerning paydo bo‘lishi”. Ko‘plab xalqlar miflarida azalda hamma joyda suv bor bo‘lgan deyiladi. Ularga ko‘ra mazkur dunyoviy ummondan yer paydo bo‘lgan. Misrga oid mif talqini-cha, Nun (xaos) quyosh ma’budi Rani paydo qildi (Bu hozirgi ilmiy qarashlarga ham to‘g‘ri keladi). Ra havo (Shu ma’budi) va namlik (Tefnut) ni yaratdi. Havo va namlik yer (Gora ma’budi) va osmon

(Nut ma'budasi) ni yaratdi. Demak, misrliklarning "Yerning paydo bo'lishi" mifi bo'yicha yer ana shu tarzda paydo bo'lgan ekan.

Avstraliya miflari. Ular avloddan avlodga birinchi qush, hayvon va o'simlikning kelib chiqishi haqidagi rivoyatlarni aytib kelishadi. Eng ko'p kenguru va it haqidagi miflar tarqalgan. Aborijenlar kenguruni odam-kengurudan paydo bo'lgan deb ishonishgan. "Kenguru va it" mifiga ko'ra, kenguru va it azalda odam bo'lishgan ekan. Kunlardan bir kun ular daryoga kelib qolishadi. Sohilda qum bor edi. Kenguru-odam kenguru-itga "Meni qumga itga o'xshatib chiz" dedi. U chizadi. Keyin bunisi unisiga deydi: "Meni qumga kenguru-ga o'xshatib chiz". Shunday qilib, ularning biri kenguruga, boshqasi esa itga aylanib qolishgan ekan.

Shimol va Amerika miflari. "Birinchi kit qanday paydo bo'lgan?" deb nomlangan mifda kit, tyulen kabi dengiz hayvonlari ishtirok etadi. Shimolning ibtidoiy odamlari uchun kit muqaddas maxluq hisoblangan. Ovchilarga uni ummon ma'budasi Sedna yuborgan, deb bilishgan. Agar Sedna odamlardan xafa bo'lsa, kit va tyulen yubormagan. Kitni ovlashib, maydalashib, bir qism go'shtni o'zlariga, bir parchasini suyagiga qo'shib ummonga, ma'budaga otishgan. Otilgandan kit yana qayta tiriladi va Sedna uni bizga beradi, deb ishonishgan.

Afrika miflari juda sodda, beg'ubor bo'lgan. Chunonchi, ularning olamning yaratilishi bilan bog'liq mifini olaylik. Unga ko'ra, Bushmen-san qabilasi quyoshning yaratilishini shunday tushuntiradi: ulkan bir maxluq bor bo'lib, bir qo'lini ko'tarishi bilan qo'ltig'i ostidan quyosh chiqadi, yer yuzi nurga chulg'anadi. Mabodo, u qo'lini tushirsa, olamni zulmat qoplab oladi.

O'rta Osiyo miflari. "Avesto", "Kitobi Dada Qo'rqu", "O'g'uznoma" kabi ko'hna asarlarda O'rta Osiyoda yashaydigan xalqlarning, jumladan, turkiylarning mifologik dunyoqarashi aks etgan afsonalar o'rin olgan. "Avesto"da Ahuramazda va Ahriman, biri ezgulikning, boshqasi esa yovuzlikning ramzi bo'lib keladi. "Kitobi Dada Qo'rqu" va "O'g'uznoma"dagi afsonalarda O'rta Osiyo

xalqlarining totemizm, animizm, fetishizm bilan bog'liq qarashlari yaqqol ifodalangan.

Qadimgi yunon miflari. Barcha xalqlarning adabiyoti singari yunon adabiyoti ham og'zaki xalq ijodi zaminida paydo bo'lgan. Yunon folkloridan juda kam namunalar saqlanib qolgan bo'lsa ham, shularga asosan qadimda yunon xalqining anchagina boy og'zaki adabiyoti bo'lganligini aniqlash mumkin. Ibtidoiy jamoa kishilari-ning tabiat haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi afsona va asotirlar yig'indisi qadimgi yunon mifologiyasi tashkil etadi.

Uyg'onish davri (XIV-XVII a.) Ovrupa ilmu adabiyotida antik qahramonlarga qaytish, ularga murojaat qilish kuzatiladi. O'qimishli insonlar tilida ilohlar, qahramonlarning nomlari tez-tez takrorlanadi. Ularni yod etish, o'rganish, ularga taqlid qilish rusumga aylanadi. Odamlarning tilida iloh Mars urush, Venera (Afrodita) muhabbat, iloha Nemezida qasos, Minerva donishmandlikning ramziga aylana-di. Bu hol rus adabiyotiga ham ko'chgan. Chunonchi, A.S.Pushkin o'z she'rlarida ko'p bor san'at homiysi Apollonga murojaat etadi.

Antik davr madaniyati, jumladan, yunon mifologiyasining jahon xalqlari taraqqiyotiga, san'at-u adabiyotiga ko'rsatgan ta'siri juda katta. Lekin aytish joizki, yunon miflari ham yo'q joydan paydo bo'lgan emas, balki u ham o'z vaqtida Sharq mifologiyasi, xususan, shumer madaniyati, mifologiyasi bulog'idan yetarlicha suv ichgan. Afsuski, shu choqqacha bu tarixiy haqiqat ko'zdan panada qolib keldi. Chunonchi, yunon mifologiyasida uchraydigan ayrim mavjudodlar ildizlarini shumer adabiyotida uchratamiz. Misol uchun, yunonlarning boshi insonniki, tanasi otniki bo'lgan kentavri yoki boshi ho'kizniki, tanasi insonniki bo'lgan minotavriga o'xshash mavjudodga shumerlarning "Bilgamish" dostonida duch kelamiz. Bilgamishni jazolash uchun ilohlar tomonidan loydan yasab yuborilgan Eabanining ham boshida shoxi, orqasida dumi bo'lib, yarim odam, yarim hayvon tarzida tasvirlanadi. Bunday o'xshashliklarning faqat tasodifga yo'yib bo'lmaydi. Shunga qaramay, yunon miflarining zamonaviy inson tasavvuri va tafakkuriga ko'rsatgan ta'sir daraja-

si mislsizdir. Mifning paydo bo'lishi nafaqat olamni, ayni paytda, insonning o'z o'zini anglashga bo'lgan urinishi bilan ham bog'liq hodisa edi. Mif-afsonalar yurtma yurt kezib yuradigan qo'shiqchilar tomonidan ijro etilgan. Ularni yunonlar **aedlar** deb atashgan. Aedlar afsonalardan tashqari, turli madhiyalar va qo'shiqlarni ham ijro etishgan. Mif, qo'shiq va madhiyalar esa zamonlar o'tishi bilan Homer, Hesiod kabi ko'plab shoirlar tomonidan ulkan dostonlarga aylantirilgan. Miloddan oldingi V asrgacha yashab ijod qilgan Esxil, Sofokl, Evripid kabi ulug' yunon dramaturglari o'z asarlarini, xususan, tragediyalarini ilohlar va qahramonlar haqidagi qadimgi miflar negizida yaratganlar.

Ammo mif bir joyda qotib turmaydi, aksincha, ijtimoiy ongning o'sishi bilan u ham baravar harakatlanadi, davr muammolarini tushuntirib beradigan holga keladi. Mas., Zevs va uning atrofidagi ilohlar shunday evrilish natijasida paydo bo'lgan. Ilohlariga qadar yer yuzini zaminu osmon bolalari – Titanlar, dahshatli maxluqlar – devlar, tog'day katta yuz qo'lliklar, oyoqlar o'rniida ulkan ilonlar osilib turadigan Gigantlar, bir ko'zli Sikloplar boshqargan ekan. Ular kimlar edi? Miflarda aytilishicha, tabiatning yovuz kuchlari bo'lib, dunyoni boshqarganlar. Nihoyat, chaqmoq va osmon ilohi Zevs kelib, ularni jilovlagan va dunyo hukmronligini o'z qo'lga olgan. Zevs va uning yonidagi yangi ilohlar endi odam shaklida tasavvur etilgan. Ularga insonlik sifatlari berilgan: ilohlar xuddi odamlar kabi talashib-tortishishgan, yarashgan, har biri o'z ishi bilan mashg'ul bo'lgan, ya'ni o'ziga ajratilgan "xo'jalik ishi"ni yurgizgan. Yangi ilohlarning odamlardan birgina farqi shuki, ular abadiy yashar edilar.

Ma'lumki, ibtidoiy jamoa tuzumida insonlar qabila-qabila bo'lib yashaganlar. Lekin vaqtlar o'tib qabilachilik tuzumi yemrilishi va harbiy aristokrat qatlamning kuchayib borishi natijasida oddiy tabaqaning ahvoli yanada og'irlashadi. Tabiat kuchlari qarshisidagi vahima ustiga boylarning zulmi kelib qo'shiladi. Ayni shu hol o'sha vaqtda odamlarning diniy e'tiqodida tub burilish yasaydi. Bu buri-lish yer yuzi hukmdori bo'lmish ilohlarni inson qiyofasida tasav-

vur qilinishiga olib keladi. Olimp tog'i ma'budlari qadimgi odamlar tasavvurida ana shunday paydo bo'lgan. Paydo bo'lib, olamni o'zaro bo'lib olishgan:

1. Zevs – ma'budlar ma'budi. Chaqmoq va bulutlar sultoni.
2. Poseydon – dengizlar hukmroni.
3. Aid – oxirat xoqoni.

(Bu uch ma'bud aka-uka bo'lib, oliy darajali ma'budlar hisoblanadi).

4. Hera – Zevsning rafiqasi: ma'budlar malikasi, osmon ma'budasi, homilador xotinlar, kelin-kuyovlar rahnamosi.

5. Hefest – otash ma'budi, temirchilar piri (Heraning to'ng'ich o'g'li).

6. Ares – qonli urushlar ma'budi (Heraning ikkinchi o'g'li).

7. Apollon – yorug'lik, san'at, poeziya va musiqa ma'budi.

8. Artemida – qamar ma'budasi, o'rmonlar va o'rmonlarda yashovchi jonivorlar malikasi.

9. Afina – shaharlar homiysi.

10. Afrodita – go'zallik ma'budasi (Olimp sultonining zebo qizi).

11. Quyosh ma'budi (Gelios),

12. Hermes – ma'budlar jarchisi.

Bulardan tashqari, Latona (Zulmat ma'budi), Uran (Osmon), Erot (sevgi va go'zallik ma'budi, Afroditaning o'g'li) kabi yana boshqa ma'budlar ham bor. Ular Olimp tog'i cho'qqisida joylashgan muhtasham qasr-qal'alarda viqor va go'zallik ichra abadiy yashaydilar. Ma'budlarni odam qiyofasida tasavvur etish mif voqealariyu qahramonlarini hayotga yaqinlashtirdi, o'lim sharbatini totguvchi oddiy odamlarga xos bo'lgan bir talay ojizliklar bilan "siyladi".

Nargiz haqida mif. Nargiz tug'ilganda taqdirdan fol ochuvchi: "Bu bola o'zini ko'rgungacha yashaydi", deydi. Ushbu bashorat hammaga bema'ni bo'lib tuyuladi. Bola behad ko'rkam bo'lib o'sadi. Ko'rganki bor, uni sevib qolardi. Shulardan biri Exo edi. U Nargizning ortidan soyadek ergashadi. Ammo ko'plar qatori rad ja-

vobi oladi. Exo alamidan g'orga kirib ketadi va dard chekib qurib, ovozigina qoladi. Jismi esa toshga aylanadi. Kim u yerga kirib gapirsa, faqat exo – aks-sado qaytadi. Hamma to'planib, qasos ma'budasi Nemezidga "Nargizni jazola!" deydi. Nemezid istakni bajaradi: "Nargiz o'zini sevib, o'ziga yetolmay azob cheksin", deydi. Kunlardan bir kun Nargiz ovdan qaytayotib chanqaydi va suvga boradi. Suvda o'z aksini ko'rib esa, sevib qoladi. Suvdagi aksga yetolmay, yig'lab iztirob chekadi. Shunday azoblanadiki, axiyr qovjirab quriydi... Odamlar ancha vaqtdan keyin sohilda bir gulni topib olishadi: Oq Nargiz gulni.

Bu afsona keyinchalik adabiyotda turfa ko'rinishlarda yashaydi. Chunonchi, Rim shoiri Ovidiy "Metamorfoza" asarida Nargiz gulni qanday paydo bo'lishi haqida batafsil yozadi.

Pandora haqidagi mif. Zamonaviy dunyoda urushlarning ko'payib ketganini Pandora qutisining ochilib ketishi bilan bog'lashlar ham bor. U qanday quti edi? Pandora kim? Pandora – Prometey ma'budlardan olovni o'g'irlagani uchun insonlarni, xususan, erkaklarni jazolash maqsadida yaratilgan ilk ayol. Demak, mifga ko'ra, Pandoragacha ayol zoti bo'lmagan. Pandora Prometeyning ukasiga xotin bo'ladi. Prometey ukasi Epi-meteyning uyida hamma narsa muhayyo bo'lib, burchakda bir quti ham bo'ladi. Pandoraga shu birgina qutiga tegma, qolgan hamma narsa seniki, deya buyuriladi. (E'tibor bering, ushbu mif Odam Ato va Momo Havoning yerga tushish sababini yodga soladi!) Ammo ayolni o'sha quti o'ziga tortaveradi. Yursa-tursa, o'sha qutini o'ylaydi. Qiziqish o'zining haddi a'losiga yetadi. Nihoyat, u o'sha qutini ochib yuboradi. Natijada qutiga qamab qo'yilgan yovuz ruhlar tashqariga otilib chiqadi. Pandora shoshib qutini yopadi, qutining tubida zaifgina umid qolib ketadi. Shundan beri dunyoda urushlar, musibatlar, kulfatlar arimas ekan. Lekin umid bor, u qutining ichida turibdi. Mifning mohiyatiga chuqurroq kirsak, har bir insonning botinida ana shunday Pandora qutisi borligi, uning ochilib ketmaslik tadorigini ko'rib yashash esa har bir kishining o'z qo'lida ekanligi ayonlashadi.

Mifologik maktab. Mif XIX asrga kelganda ilmiy o'rganildi, uning tabiati, genezisi, mazmun-mohiyati, yo'nalishlari haqida ilmiy mulohazalar o'rtaga tashlandi. Natijada fanda mifologik maktab nomi bilan ataladigan alohida yo'nalish paydo bo'ldi. U haqida o'zbek adabiyotshunos olimlari – D. Quronov, Z. Mamajonov va M. Sheraliyevlar tomonidan tayyorlangan “Adabiyotshunoslik lug'ati”da quyidagilarni o'qish mumkin: “Mifologik maktab – XIX asr Yevropa adabiyotshunosligida vujudga kelgan ilmiy yo'nalish. M.m.ning falsafiy negizini F.Shelling, A.Shlegel va F.Shlegel kabi mutafakkirlar ta'limoti tashkil etadi. Bu mutafakkirlar estetikasida miflar juda katta o'rin tutadi. Ularga ko'ra, adabiyot va san'atning vujudga kelishiga miflar asos bo'lgan, mif – poeziyaning javhari-dir. Ma'lumki, romantizm ekzotikaga moyillik bilan xarakterlanadi, ayni shu narsa xalq og'zaki ijodiga qiziqish kuchayganining bosh omili bo'ldi. Zero, klassitsizm davri sig'ingan antik etalonlardan, ma'rifatchilik topingan aql kultidan bezgan romantizm vakillari xalq og'zaki ijodida chinakam ekzotika, bitmas-tuganmas xazinani ko'rdilar. Shuning uchun xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va nashr qilish, ularni atrofficha tadqiq etish ishlari avj oldi. Bunda nemis olimlari – aka-uka Grimmlar, ayniqsa, jonbozlik ko'rsatdilar: 1812-yilda ular to'plagan ertaklarning ilk jildi chop etildi; folklorshunoslik sohasidagi tadqiqotlari asosida “Nemis mifologiyasi” (1835) asari yaratilib, unda M.m.ning nazariy qarashlari tugallashaklantiirildi. Aka-ukalar adabiyotning paydo bo'lishini nemis romantizm falsafasidagi *xalq ruhi* tushunchasi bilan bog'laydilar: g'aybdan ilhomlantiriluvchi *xalq ruhi* avval miflarni yaratadi, keyin esa miflardan epos, ertak, lirik qo'shiq va sh.k. boshqa janrlar tug'iladi; ilohiy ilhom tufayli yaralgani uchun ham folklor – *xalq ruhining* anglanmagan irod mahsuli, uning shaxssizligi ham shu bilan bog'liqdir. Aka-uka Grimmlar turli xalqlar folklorini qiyosiy o'rganishadi, ularda kuzatiluvchi o'xshashliklarni esa, xuddi barcha hind-Yevropa tillari uchun umumiy bobo til (sanskrit) bo'lgani kabi, barcha xalqlar (xususan, hind-Yevropa xalqlari) uchun umumiy

qadimgi mifologiya mavjud bo'lgani bilan izohlashadi. Yevropa-ning turli mamlakatlarida ko'plab izdoshlari bo'lgan M.m.ning ilmiy izlanishlari, asosan, ikki (etimologik va analogik) yo'nalishda kechdi. Birinchi yo'nalish (A.Kun, M.Myuller, F.Buslayev va b.) o'z oldiga qadimgi miflar mazmunini tiklash, ularning paydo bo'lish sabablarini aniqlashni maqsad qilib qo'ysa, ikkinchisi (V.Shvars, V.Manxard va b.) turli xalqlar folklorini qiyosiy o'rganish orqali o'xshashliklarni aniqlash yo'lidan bordi. M.m.ning bir qator qarashlarini keyingi davr adabiyotshunosligi inkor qilgan bo'lsa-da, u adabiy nazariy tafakkur taraqqiyotida sezilarli iz qoldirdi. Jumladan, xalq og'zaki ijodi namunalarini yozib olish va chop etish ishlarining yo'lga qo'yilgani, mifologiya, folklor va yozma adabiyot namunalarini qiyosiy o'rganishning boshlab berilgani bevosita M.m. faoliyati bilan bog'liqdir. Shuningdek, M.m.ning nazariy qarashlarini ijodiy rivojlantirib (*ritual-mifologik tanqid*) yoki inkor qilgan holda (*sayyor sujetlar nazariyasi*) yangi yo'nalishlarning maydonga chiqqani ham uning adabiyotshunoslik rivojiga jiddiy ta'sir etganini ko'rsatadi"¹¹.

Folklor, mif va yozma adabiyot mushtarakligi. Bu uch tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Chunki mifologik qarashlardan folklor kelib chiqqani kabi, yozma adabiyot ham, o'z navbatida, har ikkalasi bulog'idan hali-hanuz suv ichib keladi. Jahon adabiyotida mif va folklorda aks etgan g'oyalarga suyanib, ulardan ta'sirlanib yozilgan asarlar ko'p. Homerning "Iliada" va "Odisseyasi", Esxilning "Zanjirband Prometey", Safoklning "Shoh Edip", Evripidning "Medeya", Dantening "Ilohiy komediya", Navoiyning "Lison ut-tayr", Gyotening "Faust", Tomas Manning "Sehrli tog'" romani asarlarining negizida mif yotadi. Yoki Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani boshqa ko'plab ildizlar qatori, o'zbek xalq og'zaki ijodidan oziqlanganligi, yozuvchining o'z e'tirofidan tashqari, asarning shundoq kompozitsiyasidan bilinib turadi. Mazkur tamo-

¹¹ Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B.175–176.

yil hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Bugungi o'zbek adabiyotida ham qadimgi afsonalarga murojaat qilish tez-tez uchrab turibdi. Kengesboy Karimovning "Ulug' dasht bo'rilari", Xurshid Do'stmuhammadning "Sizif" kabi romanlari, Nazar Eshonqulning "Vola" kabi hikoyalarda Sharq va G'arb afsonalariga yangi, zamonaviy mazmun yuklashga harakat qilingan. K.Karimovning romanida bo'ri afsonasiga murojaat bor. Ma'lumki, qadimgi turklar, italyanlar va kavkazliklarda bo'riga alohida munosabat mavjud bo'lib, bu kult ming yillar mobaynida shakllangan. Chunonchi, qadimgi turklarning bo'ri haqidagi turki afsonalaridan biriga ko'ra, turkiylarning 92 urug'i ota bo'ridan tarqagan ekan. Yoki yana bir boshqa asotir aytadiki, turkiylar ona bo'ri va dushman tomonidan qirib tashlangan urug'dan tirik qolgan 10 yoshli o'g'il boladan so'ragan. Ona bo'ri joni omon qolgan bolani qo'l-oyoqlari kesib tashlangan holda topib oladi. Uni bo'ri parvarishlab boqib oladi. Oradan vaqtlar o'tib esa, ona bo'ri bolalaydi. Afsona turkiylarning ana shu tarzda paydo bo'lganligini aytadi. Bo'ri kultining tug'ilish sababi shunday izohlanadi. K.Karimovning romanida shu asotir keltiriladi va yozuvchi badiiy niyatining ochilishiga xizmat qildiriladi. "Xo'sh, zamonaviy yozuvchi nima uchun miflarga murojaat qiladi?" degan haqli savol tug'iladi. Axir, miflar qadim tafakkur shaklining mahsuli bo'lsa, undan keyin bashar ahli diniy va ilmiy tafakkur shakllarini bildi. Hozirda chaqmoq chaqishi yo shamol turishini hech kim Olimp tog'idagi ilohlarning kayfiyatiga, kun va tunni esa bahaybat devning qo'lini ko'tarib tushirishiga bog'lamaydi. Bularning hammasiga bugungi insonning aniq ilmiy isbotlari bor. Ya'ni ilmiy tafakkur insoniyatni xurofotning to'ridan xalos qildi. Lekin nega haligacha miflar yashayapti?.. Chunki shunday miflar borki, ularning zaminida bugungi kun muammolariga eng qisqa va eng ishonarli javoblar yashiringan bo'ladi. Hozirda, yuksak darajada rivoj topgan zamonaviy dunyoda ham bashariyat qarshisida shunday shafqatsiz (javoabsiz) savollar paydo bo'lib turadiki, ularning yechimiga eng ko'p miflar yaqin kelishi kishini hayratlantiradi. Shuning uchun ham biz miflarga mu-

rojaat qilamiz. Yuqorida keltirilgan “Pandora” haqidagi mifni yoki Bilgamishning boqiy hayot suvini qidirishidan soʻzlaguvchi afsonani oling. Yoki ijod tabiatini tushuntirib berishga qaratilgan mifafsonalar ham Gʻarbda, ham Sharqda mavjud. Yunon mifiga koʻra, jazoga mustahiq etilgan odam misdan yasalgan hoʻkiz ichiga solinib, ostidan olov yoqiladi. Mis hoʻkiz qizib, jazolanuvchiga misl-siz azob beradi. U dod soladi. Ammo hoʻkizning ogʻzi-yu burnida shunday maxsus teshkichalar bor boʻlib, odamning faryodi ulardan chiqarkan, quloqqa yoqadigan xush nolaga aylanadi. Bu yoqda – maydonda esa, ishtiyoqmand xaloyiq yoqimli nolani jon quloqlari bilan eshitib huzurlanadi. Bu mifni mis hoʻkiz ichida faryod chekayotgan odam – ijodkor, uning ohu nolasidan rohatlanayotganlar esa oʻquvchi, deya tushunish-tushuntirish ham mumkin. Olmon shoiri Heynening bir sheʼrini Choʻlpon quyidagicha tarjima qilgan edi:

Hamma esnab turdi, quloq solmadi
Qaygʻumni gapirib bergan vaqtimda.
Meni alqamagan kishi qolmadi
Dardimni nazmga tergan vaqtimda.

Qaysi bir jihatlari bilan xuddi shu mifga oʻxshab ketadigan Sharq afsonasi bor. F. Attorda u “Qaqnus umrining uzunligi va uning ahvoli hikoyasi” deb nomlanib, quyidagicha talqin qilinadi: *“Qaqnus Hindistonda yashaydigan turfa ajib bir qushdir kim, uzun va qattiq tumshugʻi bor. Tumshugʻida xuddi nay kabi bir qancha teshiklar mavjud. Bu teshiklar yuztaga yaqin. Qaqnusning boshqa qushlar kabi jufti yoʻq, u bolalamaydi. Tumshugʻining har bir teshigidan oʻzgacha ovoz chiqaradi, har bir ovozida oʻzgacha nola, oʻzga bir sir bor. Har bir teshikdan turli-tuman ohang-u navolar chiqarib, nola chekkach, barcha qushlar, qushlarga emas, barcha jonivorlar, hatto suvda baliqlar bundan beqaror boʻladilar. Barcha vahshiy darrandalar jim boʻlib, bu ovozdan oʻzgacha holatga tushadilar. Faylasuflar unga hamroz boʻlib, ovoziga qarab musiqa ilmini*

yaratdilar. U qariyb ming yil umr ko'radi, ammo o'limi vaqti yaqinlashayotganini oldindan sezadi. O'limi yaqinlashgach, ko'ngliga g'ulg'ula tushib, atrofiga ko'p-ko'p o'tin yig'adi. O'tinlar o'rtasiga o'tirib olib, o'tli nolalar chekadi. Keyin har bir teshikdan, boshqa-boshqa dardli navhalar chiqaradi, yuz teshikdan yuz xil navha-soz chiqaradi. Navha chekayotganda o'lim alamidan lahza-lahza titrab turadi. Bo'zlab nola chekishidan hayratlanib, qushlar va hayvonlar uning oldiga yig'iladilar va hayotdan umidlarini uzgandayin, behol bo'lib qoladilar. Keyin umrining so'ngida ajab hol yuz beradi: uning nolasi zo'ridan tumshug'idan qon oqa boshlaydi, bir nafas tin olib, so'ngra qanotlarini bir-biriga ura boshlaydi. Shunda uning qanotidan o't chaqnab chiqadi, keyin butun vujudini o't qoplab yona boshlaydi, olov o'tinlarga o'tadi va birga-birga yonib cho'g'ga aylanadilar. Keyin cho'g'lar sovib kul bo'ladi. Kul ichida bitta kichkina cho'g' qoladi va u kichkina qaqnus bo'lib dunyoga keladi".¹²

Sharqda shoirlar ko'pincha ana shu qaqnus qushga mengzatiladi. U oh-u faryod chekadi, lekin tumshug'idagi teshiklar bois, uning nolasi xuddi yoqimli kuydek eshitiladi. Ko'rinib turganidek, G'arb-u Sharq afsonalarida talay kesishadigan nuqtalar bor bo'lib, ular ijod va uning tabiatini bir qadar tushunishimizga yordam beradi.

Xullas, dunyoda ming yillar mobaynida bashariyat xotirasida saqlanib kelayotgan mif va afsonalarning o'rni, ayniqsa, san'at-u adabiyot uchun beqiyosdir. Dostonnavislar, dramatik va lirik shoirlar, yozuvchilar, rassomlar, haykaltaroshlar, rejissorlar o'z asarlarida ushbu ma'naviy buloqdan qonib-qonib suv ichdilar, hanuz ichmoqdalar.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. *Mif nima?*
2. *Badiiy adabiyotda mifning o'rni haqida so'zlab bering.*
3. *Qadimgi miflar haqida nimalarni bilasiz?*
4. *Mif va jahon adabiyoti munosabatlari haqida gapiring.*

¹² Internet materiali. Fariduddin Attorning «Mantiqut-tayr»idan'.

5. *Mif va ertakning qanday o'xshash va farqli jihatleri bor?*
6. *Ijodkor nima uchun hozirgacha mifga murojaat qiladi?*

Adabiyotlar

1. Лосев А. “Философия. Мифология. Культура”. – Москва. Политическая литература, 1991.
2. Kun N. Qadimgi Yunonistonning afsona va miflari. – Toshkent: O'zbekiston, 2013.
3. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
4. Saidov U. Sharq va G'arb: madaniyatlar tutashgan manzillar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
5. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. – Toshkent: Mumtoz so'z. 2013.
6. Qosimov A., Xo'jayev S. Jahon adabiyoti. – Farg'ona: Farg'ona nashriyoti, 2016.
7. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1969.
8. Фрезер Ж. Золотая ветвь. – Москва. Политическая литература, 1980.

ANTIK DAVR YUNON ADABIYOTI

REJA:

1. Antik davr adabiyoti haqida ma'lumot.
2. Qadimgi yunon adabiyoti va uning jahon adabiyoti tarixidagi ahamiyati.
3. Qadimgi yunon miflari va Homer dostonlari.
4. Yunon lirikasi. Alkey va Sapfo ijodi.
5. Qadimgi yunon dramasi.
 - 5.1. Esxil.
 - 5.2. Sofokl.
 - 5.3. Yevripid.
 - 5.4. Aristofan.

Tayanch soʻz va iboralar: Antik davr, Qadimgi Yunoniston, miflar, Homer, "Odisseya", "Iliada", Hesiod, Ezop masallari, lirika, Alkey, Sapfo, drama, Dionis marosimlari, Esxil, Sofokl, Yevripid, Aristofan.

Antik davr adabiyoti haqida ma'lumot

"Antik adabiyot" atamasi Ovrupadagi ikki quldorlik jamiyati – Yunoniston va Rimda yaratilgan badiiy ijod namunalariga nisbatan tatbiq etiladi. Miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda Yunonistonda paydo boʻlib, keyinchalik yuksak kamolot bosqichiga koʻtarilgan bu adabiyot milloddan avvalgi III asrda Rim madaniyatining tarkib topishida katta rol oʻynagan. Aslida yunon va Rim adabiyotidan avval madaniyat beshigi boʻlgan Sharq mamlakatlari, xususan, Misr, Eron, Xitoy, Hindiston, Bobil kabi qadimgi davlatlarda badiiy ijod taraqqiy etgan. Fikrimiz isboti sifatida qadimgi Misr ehromlariga bitilgan falsafiy sheʼrdan parchani keltirish mumkin:

*"Bugun ko'zlarimda o'lim:
 Xuddi og'ir xastalikdan tuzalayotgan,
 Kasal odamday.
 Bugun ko'zlarimda o'lim:
 Xuddi mirra daraxti xididay,
 Xuddi shamolli kunda qayiq yelkani ostida o'ltirganday.
 Bugun ko'zlarimda o'lim:
 Xuddi erkaklar urushdan qaytayotganda,
 Yuraverib ochilgan so'qmoqday.
 Bugun ko'zlarimda o'lim:
 Xuddi ko'kdan choyshabni olganday,
 Unda inson ilgari tasavvurida ham bo'lmagan narsaga erishadi.
 Bugun ko'zlarimda o'lim:
 Xuddi uzoq yillik asirlikdan so'ng,
 O'z uyini ko'rmoqchi bo'lgan odamning istagiday."*

Biroq Ovrupa xalqlari madaniy taraqqiyot yo'lida asosan Yunon-Rim madaniyati bilan aloqador bo'lganliklari bois, shu xalqlar bunyod etgan madaniy merosni eng qadimiy deb hisoblaganlar. Shu bois "antik" atamasi (lotin tilida "antiquus" – "qadimgi") Ovrupaning eng qadimgi madaniy yodgorliklari, jumladan, adabiyotiga tatbiqan qo'llanib kelinadi.

Demak, antik adabiyotning tarixiy chegarasi miloddan avvalgi VIII–VII asrdan milodiy V asrgacha bo'lgan 1200 yillik davrni o'z ichiga oladi.

Yunon adabiyoti Ovrupa xalqlarining qadimiy adabiyotidir. Bu bilan qadimgi Sharq adabiyoti unsurlari yunonlarga hech qanday ta'sir o'tkazmagan degan fikrdan yiroqmiz. Yunon folklari qo'shni xalqlar folklari ta'sirida boyigan. Mana shu folklar zamirida paydo bo'lgan yunon adabiyoti mustaqil ravishda taraqqiy etgan. Hozir bizga ma'lum bo'lgan badiiy shakllarning ko'pchiligi, uslub vositalarining bir qanchasi yunonlarning kashfiyoti sanaladi.

Rim adabiyoti yunon adabiyotidan keyin rivojlandi. U yunon adabiyoti tajribalariga tayangan holda taraqqiy etdi. Shu bilan birga, antik jamiyatning keyingi bosqichlarida paydo bo'lgan yangi muammolarni hal etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Ovrupa adabiyotining yuzlab, minglab namunalari unutilib, faqat mutaxassislarning mulkiga aylanib qolgani holda Homer dostonlari, yunon dramasi namunalari, buyuk Rim shoirlarining asarlari hamon badiiy qimmat va estetik ahamiyatini yo'qotmagan. Mazkur asarlarning jozibasi ulardagi yuksak mahoratdagina emas, balki shu adabiyotni yaratgan xalqlarning his-tuyg'ulari va orzu-umidlarining ifoda etilganligida hamdir. Qadimgi yunon-rim adabiyotida insoniyatning asriy muammolari qalamga olingan. "Ular botirlik jasoratini, kurash ishtiyoqini, vatan mehrini, insonning qudratini kuylaganlar, ulug'laganlar, pastkashlik, qo'rqqoqlik, sotqinlik va shu kabi chirkin illatlarga nafrat ko'zi bilan qaraganlar"¹³. Shu bois uzoq o'tmishda yaratilgan bo'lishiga qaramay, yunon-rim adabiyoti namunalari turli tarixiy davrlarda ham jozibasini yo'qotmay hammaga manzur va ma'qul bo'lib kelmoqda.

Ovrupa xalqlari o'z taraqqiyotlari davomida bir necha bor yunon-rim san'ati va adabiyotiga murojaat etib, ular asosida o'zlarini bezovta qilgan tuyg'u va g'oyalarni hal etishga uringanlar. Ma'jusiylilik kuchli ta'qib ostida bo'lgan o'rta asrlarda ham antik mavzular Ovrupa adabiyotidan chiqib ketgan emas.

XIV asrda Italiyada tug'ilib, keyin Ovrupaning boshqa mamlakatlariga yoyilgan Uyg'onish davrining ulug' allomalari antik dunyo ilm-u fani, san'at va adabiyoti, falsafiy ta'limotlari ko'magida bashariyatni jaholat uyqusidan uyg'otishni maqsad qilganlar. Gumanistlar antik zamon yodgorliklarini to'plash va nashr etishga katta e'tibor qaratdilar. "Uyg'onish" so'zining dastlabki ma'nosi ham "Qadimgi ma'daniyatni tiklash" demakdir.

XVII asrdagi Ovrupa klassitsizm adabiy oqimi esa antik dunyo badiiy ijodiga taqlidan paydo bo'ldi va rivojlandi. Xususan, Ovrupa

¹³ Антик адабиёт тарихи – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б.6.

sahnasida 100–150 yil davomida antik davr tragediyalari mavzusi asosiy o‘rin egalladi. Mazkur davr ijodkorlari antik adabiyoti namunalari va adabiyot nazariyasidan (ayniqsa Arastuning “Poetika” asariga katta e‘tibor qaratilgan) o‘z adabiy konsepsiyalarini yaratishda ijodiy yondashib unumli foydalanganlar. Klassitsizm drama-sida keng tatbiq etilgan “uch birlik” (zamon, makon, harakat birligi) qonuni aynan shunday yondashuvning natijasidir.

XVIII asrning 2-yarmidan boshlab, antik adabiyotga bo‘lgan munosabat birmuncha o‘zgardi. Mutlaq hokimiyatga qarshi bosh ko‘targan burjua rahnamolari antik davr adabiy, tarixiy va falsafiy yodgorliklaridan o‘zlarini qiziqtirgan ozodlik va erkinlik g‘oyalari-ni topdilar. Yunon polislari va Rim respublikasining buyuk yoki afso-naviy namoyandalari siymosida respublika tuzumining ideal obrazla-rini ko‘rganlar, xususan, Plutarx va Tit Liviy, respublika tuzumi uchun kurashchilar Demosfen va Sitseron, imperatorlar istibdodini fosh qil-gan Tatsit va Lukan hamda Rim satiriklari shular jumlasidandir.

Fransuz inqilobi davridagi (1789–1794) adabiyot, teatr hatto xalq amaliy san’ati ham antik libosga burkangan edi. Fikrimizni inqilob adabiyoti yorqin vakili Andre Shenening quyidagi so‘zlari tasdiqlay-di: “Qadimgilarning bo‘yoqlaridan foydalanib, mash’alalarimizni ularning siyosiy gulxanlaridan alangalatamiz va yangi ruh bilan yo‘g‘rilgan antik she‘rlarni yaratamiz”.

Xullas, yangi Ovrupa sivilizatsiyasiga qadimgi yunon va Rim madaniyati zamin tayyorlagan. Ko‘plab buyuk so‘z san’atkorlari, xususan, Dante, Petrarka, Mikelanjelo, Shekspir, Milton, Bayron, Rable, Kornel, Rasin, Molyer, Volter, Lessing, Gyote va Shillerlar an-tik davrning g‘oyalari, badiiy obrazlarini o‘z asarlarida qo‘llaganlar, yangicha talqin berganlar.

Buyuk rus adib va tanqidchilari Pushkin, Gogol, Belinskiy, Tur-genev va Tolstoy ham antik dunyo adabiyotini yuksak baholaganlar, xususan Belinskiy do‘stlaridan biriga yozgan maktubida qadimgi yunon va Rim shoirlariga yuksak baho berib, quyidagicha fikr bildi-radi: “Iliada”...men uchun shunday bir huzur manbaiki, uning kuchi-

dan ba'zan allaqanday totli qiynoqda behol bo'lib qolaman... Tushunmagan ko'p narsalarimni Plutarx tufayli tushunib oldim. Yunon va Rim zaminida eng yangi bashariyat ulg'aygan ekan.

Markaziy Osiyo antik dunyo bilan ko'p asrlar davomida madaniy-adabiy aloqada bo'lganligi tarixiy, ilmiy manbalardan ma'lum. O'z vaqtida ellinizm madaniyati yurtimiz madaniyatining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan bir qatorda Yunon-Baqtriya hukmronlari davrida sharq xalqlarining faol ishtiroki bilan sharqiy ellinizm madaniyati vujudga keldi. "Biz hozirgi zamonda yurtimizning ming-ming yillik tarixini, tamomila yo'qolib ketgan ba'zi bir adabiy asarlarimiz ("To'maris", "Shiroq", "Zarina va Striangiya", "Zariadr va Odatida" dostonlari) izlarini antik zamonda o'tgan Yunon-Rim tarixchilari (Gerodot, Polien, Diodor, Xares) asarlaridan topib olamiz"¹⁴, – deb yozadi o'zbek adabiyotshunos olimi N.M. Mallayev.

X-XI asrlarda boshlangan madaniy rivojlanish natijasida ilmfanda katta yutuqlarga erishildi. Bu davrda jahon madaniyatining rivojlanishiga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shgan buyuk allomalar Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy faoliyat ko'rsatdilar. "Ikkinchi Aristotel" yoki "Al muallim as-soniy" ("ikkinchi muallim") nomini olgan Forobiy, "Uchinchi Aristotel", "fan sardori", "falsafa sultoni" nomlarini olgan Ibn Sino yunon olimlari, faylasuflarining ilmiy, falsafiy asarlariga tavsirlar yozib, ularni sharhlab berganlar.

Sharq va G'arbni birlashtirmoqchi bo'lgan Aleksandr Makedonskiy haqida ko'plab tarixiy, badiiy, ilmiy asarlar yaratilib, uning shaxsiyati, insoniyat tarixidagi o'rni haqida turlicha talqinlar berilgan. Hazrat Navoiy qalamiga mansub "Saddi Iskandariy" dostonida shoh Aleksandr timsoli o'ziga xos, takrorlanmas, yangicha talqin qilindi. Daho shoir Iskandar obrazi orqali zamondoshlarini qiynayotgan, hayajonga solayotgan ma'naviy-axloqiy muammolarga e'tiborni qaratadi.

¹⁴ Антик адабиёт тарихи – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б.6.

XX asrning 30–40-yillaridan boshlab O‘zbekistonda antik adabiyotni o‘rganish, mazkur davrda yashab ijod etgan ijodkorlarning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish ishlari jonlandi. Xususan, Oybek, A.Alimhammedov, H.Sulaymonovlar tomonidan qadimgi yunon adabiyoti tadqiq etila boshlandi. Shundan so‘ng, antik davr adabiyotidan o‘zbek tiliga qilingan dastlabki tarjimalar paydo bo‘la boshladi. Bu borada Oybek, Asqad Muxtor, Erkin Vohidovlar samarali faoliyat ko‘rsatdilar. Mohir tarjimon Q.Mirmuhammedovning ko‘p yillik mehnati natijasida Homerning “Iliada” va “Odissey” dostonlari o‘zbek tiliga o‘girildi.

Qadimgi yunon va Rim davri ijodkorlari, faylasuflarining asarlari-dan qilinayotgan tarjimalar salmog‘ining oshib borayotganligi antik davr madaniyatiga bo‘lgan qiziqishning hali-hamon yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Qadimgi yunon adabiyoti va uning asosiy xususiyatlari

Adabiyot xalq hayotining ko‘zguvidir. Shuning uchun antik adabiyotni o‘rganishni ham uni yaratgan xalqlar hayotini o‘rganishdan boshlash lozim bo‘ladi. Bu xalqlar qadimgi yunonlar va rimliklardir.

Miloddan oldingi II mingyillikda Yunoniston hududi va Egey dengizidagi orollarda ikki yirik markazlar nomi bilan Krit-Mikena deb atalgan, qadimgi madaniyat paydo bo‘lgan. Qadimgi yunonlarning tasavvuri bo‘yicha “muqaddas” Olimp tog‘iga makon qurgan ma’bud va ma’budalar haqidagi miflar ham aynan shu davrda yaratilgan. Krit-Mikena adabiyotining birinchi davri xalq og‘zaki ijodining uzoq asrlarini qamrab olgan bo‘lib, m.o. IX asrda yakunlanadi. Ushbu davr ijodi namunalari bizgacha yetib kelmagan va u haqidagi ba’zi ma’lumotlarni keyingi davr adabiyotidan, Qadimgi Misr va xett hujjatlaridan (Kichik Osiyoga hujum qilgan qabilalarning nomlari “*axayvasha*” va “*danauna*” tarzida berilgan bo‘lib, Homerning eposlarida ular yunonlarning “*axey*” va “*danay*” qabilalari deb ataladi) topish mumkin. Arxaik davrda bir necha asrlar

davomida shakllangan va m.o.VI asrda yozib olingan Homerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlari to‘laligacha yetib kelgan yagona namunalari hisoblanadi. 10 yil davom etgan Troya urushi va undan keyingi o‘n yillik voqealari aks etgan bu dostonlar epik qo‘shiqlar va rivoyatlar asosida maydonga kelgan. Agar *epos* – insonni o‘rab turgan olam va undagi voqealar haqida hikoya qilsa, *lirika* shaxsning ichki dunyosini hamda shoir va lirik qahramonning kechinmalarini ochib beradi. “Lirika” atamasi torli cholg‘u asbobi lira nomidan kelib chiqqan bo‘lib, “musiqi jo‘rligida ijro etilgan she’r” degan ma’noni anglatadi. Lekin bu atama ancha keyin – m.av. III-II asrlarda Aleksandriya olimlari tomonidan iste’molga kiritilgan. Unga qadar “Melika” (*melos-qo‘shiq*) atamasi torli cholg‘u, birinchi navbatda 7 torli lira jo‘rligida ijro etiladigan qo‘shiqlarni ifoda etgan. Qadimgi yunon she’riyatida lirikaning ikki asosiy turi shakllangan bo‘lib, bular yakka xonanda tomonidan ijro etiluvchi – *monodik lirika* va ko‘pchilik tomonidan kuylanuvchi *xor lirikasi*. Shoir Pindarning asarlari *xor lirikasining* ilk namunalari bo‘lsa, *monodik lirikani* Sapfo va Anakreont she’rlarida kuzatish mumkin. Yunonlar lirik she’riyatni qo‘shiq, musiqi va hatto raqs bilan bog‘liq ravishda tasavvur qilganlar. Asta-sekin lirikaning *yamb* va *elegiya* deb atalgan turlari faqat o‘qishga moslashtirilgan janrga aylanib bordi.

Qadimgi yunon she’riyatida qofiya bo‘lmagan. Lirik asarlar ohangdorligini ta’minlovchi yagona vosita vazn bo‘lgan. Shu bois poeziyada vazn turlari takomillashib borgan. Alkey va Sapfo singari shoirlar nomi bilan ataluvchi vazn turlari jahon she’riyatidan abadiy o‘rin egallagan.

Miloddan oldingi VII-VI asrlar she’riyatida shaxsning fikr va o‘ylarini diniy-axloqiy yondashuv asosida talqin etish kuchli edi. M.o. VI asrda Ioniya bayoniy uslubdagi proza dunyoga keldi. Tarixiy va oddiy kishilar obrazlari aks etgan novellalar va Ezop nomi bilan bog‘liq masallar yaratildi. Afina madaniyatining rivojlangan davri m.o. V-IV asrlarga to‘g‘ri kelib, dramatik janrlar, ayniqsa, tragediya rivojlandi. Afina demokratiyasining qaror topishi davri

ning yirik shoiri Esxil o'z tragediyalarida ijtimoiy va axloqiy masalalarni qalamga olgan bo'lsa, Sofokl erkin inson timsolini yaratdi. Komediya an'anaviy shakllarni saqlagani holda, yangi ijtimoiy-satirik mazmun bilan boyidi, taraqqiy etdi. Bu davrda Aristofan asarlari yunon siyosiy va madaniy hayotida o'tkir satira sifatida maydonga chiqdi. Individuallashtirilgan personajlar bilan bir qatorda umumlashma hajviy obrazlar paydo bo'ldi. Miloddan oldingi II asrda Rim istilosi natijasida Yunoniston madaniy hayoti tushkunlikka yuz tutib, faqatgina milodning birinchi asriga kelib, jonlanish paydo bo'ldi va IV asrda qadimgi yunon adabiyoti inqirozga uchradi.

Qadimgi yunon adabiyoti quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Krit-Mikena yoki Egey madaniyati (miloddan oldingi 2 ming yillikdan miloddan oldingi XII asrgacha).
2. Homer davri adabiyoti (m.o. IX-VIII asrlar).
3. Yunon adabiyotining arxaik davri (m.o. V asr boshlarigacha).
4. Antik davr – m.o. V-IV asrlar. Ellin polislarining gullab-yashnash davri.
5. Ellinizm davri (ellin jamiyati adabiyoti) – m.o. VI-I asrlar.
6. Rim imperiyasi davridagi yunon adabiyoti – m.o. I asr oxiridan.

Qadimgi Sharq va Yangi davr Ovropa adabiyotini bir-biri bilan bog'lab turuvchi antik davr, yunon adabiyoti o'z ahamiyati jihatidan jahon adabiyotining bir bo'lagi hisoblanadi.

Qadimgi yunon miflari va Homer dostonlari

Barcha xalqlarning adabiyoti singari Yunon adabiyoti ham og'zaki xalq ijodi zaminida paydo bo'lgan. Yunon folkloridan juda kam namunalar saqlanib qolgan bo'lsa ham, shularga asosan qadimda yunon xalqining anchagina boy og'zaki adabiyoti bo'lganligini aniqlash mumkin. Ibtidoiy jamiyat kishilarining tabiat haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi afsona va asotirlar yig'indisi qadimgi yunon mifologiyasi tashkil etadi.

Antik davr madaniyatining, jumladan, yunon mifologiyasining jahon xalqlari taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri beqiyosdir. Yunon xalqining miflari umumbashariy madaniyatning asoslaridan biri bo'lib, u hozirgi zamon kishisining tasavvuri va tafakkuri tarziga chuqur kirib borgan. Mif(yunoncha mythos – rivoyat, hikoya, ma-sal) – xalq og'zaki ijodining eng qadim davrlarida paydo bo'lgan, voqelik(olam)haqidagi tasavvurlarni aniq obrazlar vositasida aks ettiruvchi rivoyaviy asarlardir. Mifologiya ko'plab miflardan tashkil topadi. Miflar olam va odam haqidagi hikoyalar bo'lsa-da, ularni tom ma'noda so'z san'ati hodisasi deb bo'lmaydi. Ular qadimgi odamlar uchun tafakkur shakli bo'lib, miflar vositasida olam sir-sinoatlari(olamning yoki insonning yaratilishi, quyosh chiqishi va botishi, shamol esishi va momaguldirak sababi va h.)ni bilishga intil-ganlar. Deylik, yunonlar chaqmoq chaqishini Zevsning, dengizdagi dahshatli dovullarni Poseydonning g'azablangani bilan izoh-laganlar, inson taqdiridagi turfa evrilishlarda ilohlarning aralashu-vini ko'rganlar.

Qadimgi yunon mifologiyasi yerda hayotning paydo bo'lishini, tabiatdagi hodisalarning yuz berishi sabablarini tushuntirishga bo'lgan urinishi sifatida, inson o'z atrof-muhitidagi o'rnini aniqlash-ga o'rij bo'lgan davrda paydo bo'lgan edi. Miflar yaratilishining o'zi insonning ijodga va o'z-o'zini bilib olishga qo'ygan ilk qadami edi. Tadrijiy suratda yunon zaminining turfa viloyatlarida vujudga kelgan ayrim asotirlardan qahramonlar va ularga homiylik qilgan ma'budlarning taqdirlari haqida butun boshli turkumlar tarkib top-gan. Yurt kezib yurgan aed – qo'shiqchilar tomonidan ijro etilgan barcha afsonalar, madhiyalar va qo'shiqlar zamonlar o'tishi bilan Homer, Hesiod va boshqa ko'plab shoirilar tomonidan dostonlarga aylantirilgan. Eramizgacha V asrda yashagan qadimgi buyuk yunon shoir-dramaturglari – Esxil, Sofokl, Yevripidlar o'z tragediyala-rini xudolar va qahramonlar haqidagi qadimgi asotirlar mazmuniga asoslanib yaratgan edilar.

Zamonlar o'tishi bilan olam haqidagi mifologik tasavvurning o'rnini ilmiy bilimlarga va tabiat hodisalarini o'rganish natijalariga asoslangan qarashlar egalladi. Ilgari sirli tuyulgan ko'plab hodisalar ilmiy jihatdan asoslab berildi. Biroq shunga qaramay, miflar yo'qolib ketmadi, ular o'z hayotini adabiyotda davom ettirdi. Zevs, Prometey, Gerakl va boshqa qadimgi miflarning qahramonlari, turli davr yozuvchilarining asarlarida umrlarini davom ettirdilar.

Ma'lumki, tarixiy o'tmishdagi muhim voqealar to'g'risidagi qahramonlik dostonlari hamma xalqlarda, jumladan, o'zbek xalqida ham bor. Qadim yunon eposlarining ijrochilari o'n minglab satrlarni yoddan biladigan quvvai hofizasi noyob odamlar bo'lgan, ular turkum-turkum dostonlarni avlodlardan avlodlarga olib o'tib, unga o'z davrlarining ta'sirini, yuqi va unsurlarini singdirib boyitib, asarlar bilan birga o'z san'atlarini ham, usul va an'analarini ham meros qilib qoldirib kelganlar.

Homer ana shunday ijrochilarning eng so'nggilaridan, to'g'rirog'i dostonchilikning yangi davrini boshlab bergan xalq dahosi edi. U katta epik merosni saqlabgina qolmay, uni butun antik dunyoning ma'naviy sarchashmasi sifatida poetik tizimga solib, ikki o'lmas eposni ijod etdi. "Iliada" va "Odisseya" dostonlari yunon adabiyotining eng qadimgi yozma yodgorliklari hisoblanadi. Mazkur dostonlarning yaratilish vaqti, paydo bo'lishiga sabab bo'lgan sharoit haqida hech qanday ma'lumotlar yetib kelmagan. Har ikki doston bilan bog'liq ana shunday muammolar majmui "Homer masalasi" deb ataladi.

Homer o'zi afsonaviy shaxs. Uning tarjimai holidagi deyarli barcha faktlar bahsli. Bu nom qadim yunon tilida "ko'zi ojiz", "so'qir" degan ma'noni beradi. Demak, kuychi homerlar ko'p bo'lgan. Ammo ulardan biri, haqiqiy Homer butun antik dunyoda mashhur bo'lib, Homer vatani degan sharaflı nom uchun talashgan shaharlar o'nlab hisoblanadi. Bir qarashda, bu – umumlashgan bir nom. Ammo voqealari, davri, uslubi, obrazlar dunyosi jihatidan bir-birlarining davomi bo'lgan ikki dostonning har biri 24 qo'shiqdan iborat, bir

vazndagi buyuk eposlarning bu nomga qiyos qilinishi hamma jihatdan shu qadar tabiiy ediki, Homerning real shaxsligiga hech kim dalil bilan e'tiroz bildirilmadi.

“Homer masalasi” hali ham tamom hal qilingan emas. Chunki bu eposlarning yaratilishida yagona muallifning mavqeyini kamsituvchilar hali ham bor. Tahrir qilgan, tartibga solgan, goho esa hech qanday Homer bo'lmagan, bu dostonlar xalq qo'shiqlari sifatida, badiha tariqasida vujudga kelgan, degan fikrlar ham ilgari surilgan.

Homerni ikki dostonning yagona muallifi sifatida tan olishda fanga eposlarning o'zidagi yaxlit badiiy butunlik, noyob iqtidorga xos ijodiy individuallik, yuksak badiiy vositalarning betakrorligi yordam berdi.

Har ikki doston sujeti Troya urushi, ya'ni yunonlarning Troya (yoki Ilion) shahriga yurishi haqidagi afsonalardan olingan. Ularga ko'ra Troya shahzodasi Paris Sparta shohi Menelay saroyida mehmon bo'ladi. Lekin u Menelayning bir talay boyliklarini va malika Yelenani o'g'irlab ketadi. Bundan g'azablangan Menelay va ukasi, Miken podshosi Agamenon barcha yunon viloyatlaridan katta qo'shin to'playdi va Troyaga yurish qiladi. Biroq o'n yil davomida Agamemnon qo'shini Troya shahri darvozasi oldida samarasiz jang olib boradi. Faqat ayyorlik yo'li bilan – yog'och ot ichida yashiringan holda shaharga kirib uni kulini ko'kka sovuradilar. Yelena Menelayga qaytariladi. Lekin yunon jangchilarining ortga qaytishi oson kechmaydi. Ularning ko'pi yo'lda yoki qaytganidan so'ng halok bo'ladilar, ba'zilar uyga qaytguncha dengizlarda sarson-sargardon kezadi. Ana shu voqealar asos bo'lgan afsonalar yunon mitologiyasining Troya turkumiga asos bo'lgan. Biroq bu turkumga kirgan afsonalar to'liq emas, balki ikkita kichik voqeasigina hikoya qilinadi. Agar “Iliada”da Troya urushining o'ninchi yilidagi bir hodisa tasvirlangan bo'lsa, “Odisseya” dostonida ham shu holatni ko'ramiz. Asarda Odisseyning urushdan qaytishi, o'zga yurtlarda sarson-sargardon bo'lishi va nihoyat o'ninchi yili vataniga qaytib kelishi haqida hikoya qilinadi.

Homer dostonlarini, ayniqsa "Iliada"ni o'qiganda, shunday katta miqyosli ma'lumotlarning ajoyib mahorat bilan puxta kompozitsiya qilinganligini ko'ramiz. Ko'p qavatli sujet chiziqlari, barcha mavzu va motivlar, barcha personajlarning taqdirleri bosh g'oyaga xizmat qilib, ma'nodor yakun topadi. Dostonning tuguni, fojeaning badiiy yechimi, barcha badiiy vositalar bosh mavzu va bosh qahramon ob-razi atrofida birlashgan jips tizimni tashkil etadi.

Yunon xalqining yashash tarzi, xislat va fazilatlarini ifoda etgan "Iliada" va "Odisseya" dostonlari qadim zamonlardanoq mo'tabar kitoblarga aylangan: baxshilar ularni turli bayramlarda ijro etganlar, o'quvchilar ularni o'qib savod chiqarganlar. Homer dostonlarining adabiy usullari yunon shoirlari uchun o'zgarmas namuna sifatida xizmat qilgan. Ko'plab jahon tillariga tarjima qilingan "Iliada" va "Odisseya" dostonlari olimlar, adiblar va muxlislar diqqatini hamon o'zlariga jalb etib, ularni ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga, go'zallik namunalari bilan ibrat olishga undaydi. Jumladan, XX asrning buyuk irland yozuvchisi Jeyms Joys "Uliss" (Odisseyning ikkinchi nomi) romanini yozishda "Odisseya" dostoni tizimidan foydalangan.

Qadimgi yunonlar nazarida Homer qatorida turadigan ikkinchi ulug' shoir **Hesiod (m.o.VIII-VII asrlar)** hisoblangan. Hesiodning hayotiga doir ma'lumotlar kam bo'lsada, tarix sahifalarida saqlanib qolgan. U qadimgi yunon adabiyotidagi hayoti haqida aniq ma'lumotlar yetib kelgan birinchi ijodkor sanaladi. Uning otasi Kichik Osiyoning Kim degan yerida tug'ilgan, keyinchalik Yunonistonning asosan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi Beotiya viloyatiga ko'chib o'tgan. Shoir o'zi haqidagi ba'zi bir ma'lumotlarni qadimgi yunon adabiyotidagi didaktik eposning birinchi namunasi bo'lgan "Mehnat va kunlar" dostonida keltiradi, ya'ni u otasi kabi yoshligidan dehqonchilik bilan shug'ullangan, shu bilan birga Yevbeya orolida o'tkazilgan rapsod(baxshi)lar musobaqasida qatnashib, faxrli sovrinni qo'lga kiritgan. Hesiod qadimgi yunonlar nazarida Homer bilan bir safda turuvchi ulug' shoir bo'lgan.

Yunon qahramonlik eposi o'z ichiga didaktik elementlarni ham qamrab olgan, jumladan, Homer dostonlaridagi Nestorning o'git va nasihatlari didaktik poeziyaga misol bo'la oladi. Biroq Hesiodning "Mehnat va kunlar" dostoni inson mehnatining ulug'vorligi, adolatning barqarorligi va mehnat ahlining tirikchiligi yo'lida uchraydigan boshqa turli-tuman masalalar haqida inisi Persga qarata aytilgan pand-nasihatlar tarzida yozilgan *birinchi didaktik* asardir.

"Mehnat va kunlar" dostonining ijodkori hayotning jamiki boyliklari faqat mehnat tufayli bunyod etilganligini asarning boshidan oxiriga qadar qayta-qayta takrorlaydi. Doston o'zining zamonaviy mazmuni, ajoyib realistik lavhalari bilan yunon adabiyoti tarixida favqulodda muhim o'rinni egalladi.

Mazkur asarda Hesiod mustahkam oila xususidagi qarashlarni ham bayon etadi. Unga ko'ra er kishi ishq-muhabbat ehtiroslaridan o'zini tiyishi, o'ttiz yoshga to'lganda yosh qizga uylanishi lozim deb maslahat beradi. Chunki yosh qizlarni nozik axloq qoidalariga o'rgatish oson kechadi. Hesiod oilada o'g'il bittadan ko'p bo'lsa to-morqani taqsimlashda muammolar paydo bo'lishidan ogohlantiradi.

"Mehnat va kunlar" dostonidan tashqari yana ikkita doston – "Teogoniya" va "Ayollar jadvali" asarlari Hesiod nomi bilan bog'lanadi.

"Teogoniya" ("Ma'budlarning paydo bo'lishi") dostonida qadimgi yunonlarning Xaos va yerdan paydo bo'lgan koinot, Uran (Osmon), Kron va Zevs boshqargan turli ma'budlarning kelib chiqishi haqidagi tushunchalari, mifologik e'tiqodlari bayon qilinadi. Muallifning ta'kidlashicha, Zevs taxtni ko'plab jinoyatlar sodir etgan otasidan tortib oladi va hokimiyatini mustahkamlash uchun Kronning qarindoshlari bo'lgan titanlarga qarshi mashaqqatli kurash olib boradi. Titanlar va dahshatli maxluq Tifoyga qarshi olib borilgan janglarning bayoni, Samoda va yerda odil tartib o'rnatgan qudratli hamda dono hukmdor Zevsni ulug'lash asarning kulminatsiyasini tashkil qiladi.

"Ayollar jadvali" ham mazmun jihatidan "Teogoniya" dostoniga ancha yaqin bo'lib – asar biror ma'buddan atoqli qahramon farzand ko'rgan ayollarga bag'ishlangan. Dostondan turli hajmdagi parcha-

lar saqlanib qolgan bo'lib, ahamiyatli jihati shundaki, ularda Homer dostonlarida uchramaydigan, lekin keyingi davrlarda xor lirikasi va tragediyalarda keng foydalanilgan miqlar keltirilgan.

M.o. VI asrda didaktik epos negizida falsafiy doston janri shakllandi va Hesiodning "Teogoniya" asari an'analari shoir-faylasuflar Ksenofan (tax. m.o. 565 – 470 y.), Parmenid (m.o. VI asr oxiri – V asr boshlari), Empedokl (tax. 495 – 435 y.) tomonidan davom ettirildi.

Antik davr tanqidchiligi Hesiod bayon uslubiga xos quruqlikni inkor etmagan holda dostonlarning tarbiyaviy ahamiyatiga yuksak baho berganlar. Tarixchi Gerodot (m.av. V asr) ikki daho shoir – Hesiod va Homer ellinlarga ma'bud va ma'budalarning kelib chiqish tarixini bayon qilish bilan birga ularning ismlariga epitetlar bilan ta'rif berganini ta'kidlagan edi.

Ezop (Akadroz)(tax. mil.av. VI asr) Masalchilikning otasi deb hisoblangan yarim afsonaviy Ezop – miloddan oldingi VI asrda yashagan. Rivoyatlarga qaraganda, aslida u frigiyalik qul bo'lib, keyinchalik ozod qilingan. Lidiya shohi Krez saroyida xizmatda bo'lgan, Delfada yerli xalq bilan bo'lgan janjaldan qoyadan uloqtirib o'ldirilgan. Antik davrda ma'lum bo'lgan deyarli barcha masallarining sujeti Ezopniki deb hisoblangan. Ular miloddan avvalgi V-IV asrlardan boshlab to'planib, yozib olingan va "Ezop masallari" kitobiga kiritilgan. Milodiy X-XV asrlardagi qo'lyozmalarda 300 dan ortiq shunday masal saqlanib qolgan.

Aksariyat sujetlari Shumer og'zaki va yozma adabiyotiga borib taqaluvchi Yaqin Sharq masallariga yaqin turuvchi Ezopning nasriy masallari g'oyaviy jihatdan tushkunlik va umidsizlik ruhida yozilgan, personajlari (asosan, hayvonlar) o'ta shartli. Voqealar ixcham bayon qilinib, pand-nasihat bilan yakunlangan, tili sodda, jonli tilga yaqin. Masalchining ismi bilan yashirin ma'nosi bo'lgan fikrlar *ezop tili* deb atala boshlagan. Ovropa masalchiligi sujetining asosini Ezop masallari tashkil etgan. Ezopning ta'sirini keyingi davr masalchilarining deyarli barchasida, jumladan, fransuz yozuvchisi Lafonten (XVII asr), nemis adibi Lessing (XVIII asr), rus masalnavisi

Krilovda sezish mumkin. “Dehqon bilan o‘g‘illari”, “Bog‘bon bilan o‘g‘illari”, “O‘g‘ri bilan onasi”, “Yolg‘onchi cho‘pon” masallardagi sujet va motivlarni o‘zbek xalq ertaklari (“Birlashgan o‘zar” ertagi), A. Navoiyning “Hayrat ul abror” asaridagi “Yolg‘onchi cho‘pon” hikoyatida uchratish mumkin.

Qadimgi Yunonistonda she‘riyatning oddiy turlari hisoblangan yamb va elegiya bilan birga VII-VI asrlarda monodik, ya‘ni, yakkaxon lirika ham taraqqiy etgan. She‘riyatning bu turi xalq adabiyoti va musiqaning ta’siri ostida paydo bo‘lgan. Kichik Osiyoning g‘arbiy qirg‘og‘idagi Lesbos orolida tug‘ilib o‘sgan ikki ulug‘ shoir – Alkey va Sapfo o‘zlari ixtiro etgan turli-tuman vaznlar bilan monodik lirikani yuksak san‘at darajasiga ko‘targanlar.

Alkey (m.av. 630–640 yy. tug‘.) Lesbos orolining poytaxti Mitilena shahrida badavlat oilada tug‘ilgan. Shoir, taxminan miloddan oldingi VII – VI asrlar o‘rtasida ijod qilgan. Bu davrlarda zodagonlar bilan quyi tabaqa o‘rtalaridagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar juda keskinlashib ketgan edi. Uning ijodida siyosiy kurashlar, fuqarolar urushi, muhojirlar hayotini aks ettirish asosiy o‘rinni egallagan bo‘lsada, muhabbat mavzularida ham juda ko‘p jo‘shqin misralar yaratgan. Lesboslik shoira binafsha soch, nozik tabassumli, Sapfo sharafiga ham she‘rlar bitgan.

*Binafsha soch ey Sapfo,
Hushtabassum, musaffo.
Senga bir so‘z aytgim bor,
Ammo yo‘l qo‘ymaydi or.*

(Erkin Vohidov tarjimai)

Alkey o‘z she‘rlarida Lesbos taxtiga o‘tirgan Pittakni tanqidga olganligi sababli uzoq o‘lkalarda quvg‘inda yashashga majbur bo‘lgan.

Yakkaxon lirikaning vazni rang-barang, baytlari esa g‘oyatda nafis bo‘lgan. Shoir ixtiro qilgan turli-tuman vaznlar bilan monodik lirikani mislsiz yuksak san‘atkorlik cho‘qqisiga ko‘tardi. Alkeydan

keyin jahon she'riyatida abadiy o'rnatilgan bir vazn hamon ulug' shoirning nomi bilan ataladi.

Alkey o'z she'rlarida ertangi kunga katta umidlar bog'lamaydi. O'zi yashayotgan polisni to'liqlar taloto'pi ichra dengizda suzayotgan kemaga qiyoslaydi. Shoir siyosiy mazmundagi she'rlardan tashqari, quvonch va qayg'u, muhabbat izhori, qahraton qish va jazirama yoz mavzularida, dasturxon atrofidagi guruh qo'shiqlarini ham yaratgan. Bu qo'shiqlar ijodkorning ulfatlari oldida o'z tuyg'u hamda fikrlarini bayon etish vositasi bo'lgan. Ularning aksariyati qayg'u va alamlarni unutish uchun mayxo'rlik qilishga undov bilan tugallanadi. Alkey o'z qo'shiqlarida "may bor joyda haqiqat bor", "may-insonlar ko'zgusi" degan iboralarni qo'llagan.

Qadimgi Yunonistonda Alkey she'rlarining g'oyat keng tarqalganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Shoirning asarlari Aleksandriya olimlari tomonidan mazmuniga qarab, o'n jildga ajratilgan.

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, Alkeyning she'rlari o'zining muhtasarliligi, tilining ravonligi, misralarning nafis va ohangdorligi hamda o'ldovlarning rango-rangligi bilan antik dunyo kishilarini o'ziga qaratgan etgan va keyingi davrlar adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Sapfo (m.av 612-yili tug'ilgan) Alkeyning zamondoshi va vatan-doshi bo'lgan shoir Sapfo zodagon oilasida tug'ilgan. Mitilana hukmroni Pittak davrida bir necha yil Sitsiliya orolida qurg'inlikda bo'lgan. Vataniga qaytib kelgach, maktab ochib, bu yerda yosh qizlarni turli bilimlarga: musiqa, ashula, raqs va she'r to'qishga o'rgatadi. Maktabda nafaqat Yunonistonning uzoq-yaqin yerlaridan, hattoki boshqa mamlakatlardan kelgan qizlar ta'lim olgan.

Qadimgi manbalarda Sapfoning o'nta kitob yozgani haqida ma'lumotlar keltirilgan. Biroq bularning barchasi, nasroniy ruhoniylarining amriga ko'ra, IX asrda yondirib yuborilgan. Alkey ijodi uchun asosan ijtimoiy-siyosiy voqealar zamin bo'lgan bo'lsa, Sapfo she'riyati asosiy mavzusi shaxsiy kechinmalar, yurak tuyg'ulari bilan chegaralangan; deyarli yagona mavzu – sevgi va go'zallikdir.

Bizgacha yetib kelgan she'riy parchalarda muhabbat nash'asi, yor vasliga yetish shodliklari haqida hikoya qiluvchi misralar bor. Lekin Sapfoning aksariyat baytlaridan xotin kishining yurak dardlari – rad etilgan muhabbat, ayriliq, hijron, rashk va intizorlik sadolari eshitiladi, shoira o'zining muhabbat yo'lida chekkan iztiroblari, dog'u hasratlari haqida nola qiladi. Antik davr kishilari ulug' shoirani faqat dardmand ma'shuqa sifatida taniganlar.

Sapfoning ikkita she'ri to'la holda yetib kelgan. Afroditaga atalgan mazkur she'rlardan birida, shoira sevgi ma'budasiga iltijo qilib, ishq dardida o'rtangan qalbiga tasalli berishini, musibatli damlarda ko'makdosh bo'lishini so'raydi. Ikkinchi she'rda esa Sapfo mahbuba husnining sehrli jozibasini ta'riflaydi. Antik dunyoda o'tgan qalam ahli orasida ishq sharorasini bunchalik jo'shqin ifodalagan birorta shoirni topib bo'lmaydi.

*Tangri ulkim, sening jamoling,
Husn ichra buyuk kamoling
Ko'z oldida erur har zamon.
Bahra olur takallumingdan,
Lazzat topur tabassumingdan,
Muhabbating mulkiga sulton.
Sening chehrang, go'zal dilrabo,
Ko'z oldimda bo'lganda paydo
Ko'ksim yonur, tilim bo'lur lol.
Goh muz titroq chirmashar tanga,
Goh vujudim chulg'ar alanga,
Men behudman, men oshuftahol.
Borlig'imda otash hayajon,
Ko'z oldimni qoplab zimiston,
Oyog'imda turolmam xasta.
Boshlarimdan quyar sovuq ter,
So'lgan o'tman, tortar meni yer,
Nafasim yo'q, so'naman asta...*

(Erkin Vohidov tarjimai)

Ishqiy she'rlardan tashqari Sapfo epitalamalar (nikoh to'yi qo'shiqlari) ham ijod qilgan. Qadimda o'zimizning "yor-yor"lar qabilidagi bunday qo'shiqlarni qiz-juvonlar, yigitlar aytib kelinchakni kuyovning uyiga kuzatib borganlar.

Sapfo ijodining butun mohiyati, olamshumul tarixiy ahamiyati she'riyatda insonning ichki hissiyot dunyosini, go'zallik olamini ochganligidadir.

Shoiraning yunon she'riyatining vazn doiralari yanada kengaytirishi natijasida lirikaning ravon va ohangdor bo'lishiga keng yo'l ochildi. Sapfo she'rlari atoqli shoir E.Vohidov tomonidan o'zbek tiliga o'girildi.

Qadimgi yunon dramasi

Miloddan oldingi VII-VI asrda shakllangan yunon quldorlik jamiyati V asrda o'zining yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. V-IV asrlar adabiyoti Afina shahri joylashgan viloyat nomi bilan "yunon adabiyotining attika davri" deb ataladi. Afina davlatini boshqargan Perikl(500—429) poytaxtga butun Yunonistondan faylasuf, olim, shoir, haykaltaroslarni to'pladi.

Taraqqiyot bosqichi mobaynida barcha xalqlar qo'shiq aytib, raqs tushib bajaradigan turli rasm-rusumlar bo'lgan. Drama adabiyotning alohida turi sifatida antik davrda shakllandi. Dramada asosiysi hikoya yoki bayon qilish emas, harakat bo'lgan(yunoncha drama so'zi "harakat" ma'nosini bildiradi). Dramada ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro suhbatlar — dialoglar, munosabatlar, ularning xatti-harakatlari, qarama-qarshiliklar va ularning yechimi tasvirlanadi.

Yunon dramaturgiyasining barcha turlari — tragediya, komediya, satirlar dramasi dehqonlarning homiylari bo'lgan ma'budalar Demetra va Kora sharafiga kuylagan qo'shiqlar hamda may, shodlik va hosildorlik ma'budi, taka qiyofasidagi Dionisga bag'ishlangan marosimlar asosida maydonga kelgan. Afsonalarda hikoya qilinishicha, Dionis Zevs bilan Semela degan qizdan tug'ilgan. Dionis o'zining

odamsifat, ammo dumdor, echki tuyoq hamrohlari – satirlar bilan birga dunyoni kezib yurgan paytlarida, insonning og‘ir va g‘amgin hayotini ko‘radi-da, odam bolasini baxtiyor va xushnud qilish niyatida, ma‘budlar taomi amvroziyani keltirib bermoqchi bo‘ladi. Ma‘budlar buni sezib qolgach, Dionis amvroziyani yerga ko‘mib qochadi. Birmuncha vaqtdan so‘ng bu yerda tok novdalari unib chiqadi, uning mevalari odamlarga baxt va shodlik keltiradi. Bundan qahrlangan Zevs, o‘g‘lini Olimp tog‘idan badarg‘a qiladi. Yerda Dionis og‘ir musibatlar chekib, vafot etadi. O‘g‘lining o‘limidan so‘ng Zevs uning gunohlaridan kechib, Dionisni ma‘budlar qatoriga qabul qiladi. Dionis odamlarga har yili ikki marta o‘z sharafiga bayram o‘tkazishni vasiyat qiladi. Shundan e‘tiboran Dionis hosildorlik, may, shodlik va sarxushlik rahnamosi bo‘lib qoladi. Ularga bag‘ishlangan maqto‘v qo‘shiqlar – diframblarni kuylovchi xorga shoir Fespis birinchi aktyorni qo‘shgandan so‘ng u dramatik janrga aylandi. Tragediya prolog (ekspozitsiya)dan boshlangan va orkestrga xor chiqib, tomoshabinlarga voqeaning mohiyatini aytib bergan. Shundan keyin dialogik qismlar – aktyorning korifey(xorning rahbari) bilan yoki ikki-uch aktyorning suhbatlari bilan davom etgan va “eksod”(xotima) bilan yakunlangan. Aristotelning yozishicha, tragediya “trago” va “oide” so‘zlaridan kelib chiqib, “taka qo‘shig‘i”ma‘nosini anglatadi. Yunon shoir-dramaturglari, jumladan – Esxil, Sofokl, Yevripidlar ham o‘z tragediyalarini xudolar va qahramonlar haqidagi qadimgi asotirlar mazmuniga asoslanib yaratgan edilar.

Bayramlardagi hushchaqchaq hazillardan “comos” va “oide”(komediya), ya‘ni masxarabozlar qo‘shig‘i paydo bo‘lgan. Keyinroq tragediya va komediya o‘rtasida “satirlar dramasi” shakllandi. Bu janrning ijodkori m.o. V asrda yashagan shoir Pratim hisoblanadi.

Dramaning barcha turlari diniy marosimlardan paydo bo‘lganligi sababli, qadimgi yunonlar bularning barchasiga yuksak e‘tiqod bilan qaraganlar. Teatr tomoshalari davlat tasarrufidagi muhim siyosiy

hamda tarbiyaviy tadbirlardan biri sanalgan. Ikkinchidan, Dionisiy marosimlari bilan bog'liq bo'lganligi uchun ushbu tomoshalar yiliga uch marotaba o'tkazilgan va bir necha kun davom etgan. Yunonlar bu marosimlarga shunchaki bir ermak deb emas, balki muhim diniy bayram deb qaraganlar. Qadimgi Yunonistonda barcha o'yinlar singari, teatr tomoshalari ham musobaqa shaklida o'tkazilgan. Tragediyanavis shoirlar mazmunan bir-biri bilan bog'liq 3 ta tragediya va 1 ta satirlar dramasini hakamlar hay'atiga taqdim etganlar. Komediyanavis shoirdan faqat bitta asar talab etilgan.

Yunon adabiyotining barcha janrlari kabi, tragediyaning mavzulari ham asosan mifologik afsonalardan olingan. Agarda dastlabki davrlardan bu mavzular Dionis haqidagi rivoyatlar bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, keyinchalik shoirlar boshqa ma'budlar va qahramonlar haqidagi afsonalarga murojaat qila boshlaganlar. Biroq shu bilan birga, tragediya mualliflari mavzu tanlaganlarida ham, faqat zamona talablariga hamohang miflarni olib, ularni birmuncha o'zgartirib, moslashtirib, shular misolida o'z davrlarining muhim masalalarini hal etishga intilganlar, mifologik qahramonlarning kurash va to'qnashuvlari, ularning xatti-harakatlari o'sha davr tomoshabinlari uchun axloq va odobning namunasi, ijtimoiy xulqning andazasi sifatida talqin etilgan; ana shu afsonaviy qahramonlarning qilmishlari timsolida tragediyanavis shoirlar o'z zamondoshlarini yuksak ma'naviylik, vatanga sadoqat, insoniy burch g'oyalari tarbiyalashni ko'zlaganlar.

Esxil ijodi (mil.av 525–456-yy). Bizga ma'lum bo'lgan qadimgi yunon fojeanavisi Esxil chin ma'noda "tragediyaning otasi" deb tan olingan.

Shoirning hayotiga doir ma'lumotlar kam saqlanib qolgan. U taxminan 525-yili Elevsin shahrida yirik zamindor oilasida dunyoga keldi. Bu yillar yunonlarning fors istilochilariga qarshi mustaqillik uchun kurash olib borgan davri edi. Shoir o'z hayotida yirik ijtimoiy va siyosiy voqealarning shohidi bo'lgan(Marafon yaqinidagi forslar ustidan qozonilgan g'alaba(m.o. 490-y.), m.o. 483-yili Salamin oroli

yaqinida fors flotining tor-mor qilinishi, 479-yili forslarning Plateyadagi mag'lubiyati, Afina davlatida pul munosabatlarining mustahkamlanishi).

Keyinchalik o'z mamlakatidagi mavjud tartiblardan norozi bo'lgan Esxil Afinani tark etib, Sitsiliyada qo'nim topadi va m.o.456-yilda Gela shahrida vafot etadi.

Qahramonlik afsonalarini (asosan Homer asarlari sujetidan foydalangan)asosiy manba qilib olgan Esxil 21 yoshida ilk bor dramatik shoirlar musobaqasida qatnashadi va 40 yoshida birinchi marta g'alaba qozonadi.

Qahramon hayoti uchta tragediyada aks ettiriladi va mifologik sujet asosida yozilgan satirlar dramasi bilan yakunlangan. Qadimgi adabiyotshunoslarning zikr etishlaricha, u 90 ga yaqin tragediya yozgan bo'lib, bizgacha faqat 7 tasigina yetib kelgan("Iltijogo'ylar", "Eroniylar", "Zanjirband Prometey", "Fivaning yetti dushmani", "Oresteya" trilogiyasini tashkil qiluvchi "Agamemnon", "Xoefforlar", "Evmenidalar").

Aristotelning "Potika"sida yozilishicha, Esxil birinchi bo'lib, aktyorlar sonini bittadan ikkitaga oshirgan, xor partiyasini kamaytirgan va dialog asarning asosiy elementiga aylantirilgan.

Shoir ijodining ilk namunasi "Iltijogo'ylar" tragadiyasi bo'lib, bizgacha uning birinchi qismi yetib kelgan. Asar sujeti shoh Danyayning 50 ta qizi haqidagi afsonadan olingan. Yunon adabiyotidagi zamonaviy mavzuda yaratilgan yagona asar, "Eroniylar" tragediyasi Eron-yunon urushiga bag'ishlangan.

Esxilning saqlanib qolgan tragediyalari uning ijodini uchta davrga bo'lish imkonini beradi: 1) Ilk pyesalarida ("Iltijogo'ylar", "Eroniylar") asosiy rolni xor ijro etadi. 2) "Zanjirband Prometey", "Fivaning yetti dushmani" asarlarida markaziy qahramon obrazi gavgdalanadi, dialogga katta o'rin beriladi. 3) "Oresteya" asarida kompozitsiya birmuncha murakkablashtiriladi, ikkinchi darajali obrazlar asar dramatzimini kuchaytirishga xizmat qiladi. Uchinchi aktyordan foydalanila boshlanadi.

“Zanjirband Prometey” qadimgi yunon afsonalari asosida yaratilgan. Ularda hikoya qilinishicha, Prometey suv va tuproqdan dastlabki odamlarni bunyod etgan. Ma’buda Afina esa jonbaxsh nafasi bilan ularga hayot bag’ishlagan. Lekin ma’budlar hukmdori (Olimp) odamlarni butunlay yo’qotib yuborishga qasd qiladi: odamlardan olovni yashirib, ularni sovuqda, zulmatda tutadi.

Titanlardan bo’lgan Prometey, Olimp mehrobidan muqaddas olovni o’g’irlab, odamlarga keltirib beradi. Shundan boshlab yerda yangi hayot quloq yozadi, endi odamlar o’zlarini erkin va qudratli his qila boshladilar. Bu “shakkoklikdan” g’azablangan Zevs uni qoyaga zanjirband qilishni buyurib, ming yillar davomida azoblaydi. To Gerakl kelib ozod etmagancha zanjirband Prometeyga Zevsning qanotli iti – jeztumshuqli burgut misli ko’rilmagan azoblarni beradi, har kuni uning jigarini cho’qib, qonini ichadi...

Esxil o’z asarlarida ma’budlarni yoki biror maqsad yo’lida kurashuvchi, bukilmas irodali kishilarni tasvirlaydi. “Zanjirband Prometey” hamon inson tafakkurining mangu durdonasi, qadimiy yunon fojia-navisining nodir asari sifatida yashab kelmoqda.

Sofokl (mil.av. 496–406-yy.) Sofokl m.o. 496-yili Afina yaqinidagi Kolon degan joyda, qurol-aslaha korxonasi xo’jayinining oilasida tug’ilgan. Adabiy faoliyatini ancha erta boshlagan bo’lib, m.o. 468-yili birinchi marta dramaturg sifatida maydonga chiqadi, 28 yoshida adiblar musobaqasida o’z ustoz Esxilni mag’lub etib, Plutarx qo’lidan qimmatbaho sovrin olgan va hammasi bo’lib musobaqalarda 24 marta g’olib bo’lgan.

Sofokl m.o. 441-yili oliy lavozim – strateglikka saylanadi. Hukmdor Perikl bilan yaqin do’stona munosabatda bo’lgan. U butun umrini shonu shavkatda o’tkazib, m.o. 406-yili vafot etgan. O’limidan keyin buyuk zotlarga ko’rsatiladigan izzat-ikrom ko’rsatilib, har yili qabri ustida qurbonlik qilish taomilga aylangan. Shoirning 123 ta pyesasidan yettitasigina saqlanib qolgan. 1912-yili “Izquvarlar” satirlar dramasidan katta parcha topilgan.

Sofokl Esxil boshlagan ishni davom ettirib, tragediyani tantanalilik lirik qo'shiqdan chinakam dramaga aylantirishda katta hissasini qo'shdi. Agar Esxil asarlarida oliy kuchlar inson yurish-turishida faol ishtirok etgan bo'lsa, Sofokl qahramonlari mustaqil harakat qilib, boshqa kishilarga nisbatan munosabatlarini ham o'zlari belgilaydi. Shoirni to'liqlantirgan muammolar endi avlod taqdiri bilan emas, balki alohida shaxs taqdiri bilan bog'liq bo'ldi. Bu mazmunan bog'langan trilogiyalardan voz kechishga olib keldi. Sofoklda har bir asar alohida badiiy yechim va muammoga ega bo'ldi.

Dramaturg o'z ijodi davomida xorni chiqarib tashlamagan bo'lsa ham unda xor qo'shiqlari qisqarib bordi va bu voqealar sur'ati tezlashdi. Sofokl tomonidan kiritilgan yana bir yangilik – dramaga uchinchi aktyorning kiritilishi bo'ldi. Aristotelning “Poetika” da xabar berishicha, buyuk dramaturg sahna san'ati nazariyasi bo'yicha ham ko'p yangiliklar kiritgan: xor tarkibini o'zgartirgan, musiqiy parchalar joriy etgan, teatr dekoratsiyasi qo'llagan. Gyotening aytishicha, “Sahna san'atini Sofoklchalik hech kim bilmagan”.

Uning “Shoh Edip”, “Antigona”, “Edip Kolonda” tragediyalarining sujeti afsonalarning Fiva turkumidan olingan. “Elektra”, “Filoklet”, “Ayaks” asarlari Troya afsonalari mavzusida yozilgan bo'lsa, “Traxinalik ayollar” Gerakl haqidagi rivoyatlar asosida yozilgan.

Qahramonlarning tabiatini chuqurroq ochish maqsadida Sofokl turli usullarni qo'llaydi. Ulardan biri taqqoslash usulidir. Ikki qahramonni yonma-yon qo'yib tasvirlashning eng mohir namunasini “Antigona” tragediyasida ko'ramiz. Sofokl ajoyib obrazlari bilan bir qatorda, dramatik voqealarni ustalik bilan bir-biriga bog'lagan san'atkor sifatida ham mashhur.

Sofokl “Shoh Edip” tragediyasida yunon san'atining “kuch va vositasigina emas, zamini ham bo'lgan” mifologiyadan keng foydalangan. Odatda miflarning bir qancha variantlari bo'lib, dramaturglar ularni o'zgartirib, o'z g'oyalarga moslab, ijodiy qayta ishlaganlar. “Shoh Edip” bunga misol bo'la oladi. Edip haqidagi mif

Homerning "Odisseya"sida ham bor edi. Ammo Sofokl unga juda aniq psixologik ishlov beradi, uni "qismat fojeasi"dan chinakam insoniy dramaga aylantiradi. Edipning o'z umri sirlarini bilish jarayoni unga mudhish taqdirni ochibgina qolmay, o'z aybiga iqror bo'lishga ham olib keladi. Inson o'z qilmishlariga o'zi mas'uldir: inson bezavol va beajal tangrilardan shu bilan farqlanadiki, uning hayoti doimiy kurashlarda, har qanday g'ovlarni, qismatni yengib o'tish uchun intilishda o'tadi.

Mifda mana shu qismat birinchi o'rinda turadi. Sofokl tragediya-sida esa taqdir qahramon yo'lida bir rishta xolos. Edip umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan chuqur va murakkab obrazga aylanadi.

Antik davrdagi hech qaysi dramaturgning asari jahon adabiyoti-da "Shoh Edip" tragediyasi kabi chuqur iz qoldirmagan. Bu asar ta'sirida XVIII asr oxiri XIX boshlarida Ovrupa adabiyotida "Taqdir tragediyasi" deb atalgan adabiy oqim paydo bo'ldi va u Shekspirning "xarakterlar" tragediyasiga qarshi qo'yildi.

Yevripid (mil.av. 480–406-yy) Qadimgi yunon tragediyasining yana bir vakili Yevripid Afina yaqinidagi Salamin orolida tug'ilgan. Antik davr adabiyotining uch buyuk vakili haqida quyidagi rivo-yat bog'lab turgan: Salamin yaqinidagi g'alaba nishonlanayotganda (m.o. 480) Esxil g'olib askarlar safida bo'lgan. G'alaba bayramida uyushtirilgan o'yinlarda Sofokl o'zini ko'rsatgan va xuddi shu kuni dehqon Mnesarx oilasida Yevripid dunyoga kelgan.

M.o. V asr oxirida komediyana vislar shoiriga ko'p ta'na va malo-matlar yog'dirdilar. U Makedoniyaga ko'chib ketishga majbur bo'ladi va shu yerda vafot etadi.

Yevripid teatr musobaqalarida uch marta g'olib chiqqan. O'z davrida qadrlanmagan shoir keyingi asrlarda(ellinizm davrida) xalqning eng sevimli tragik shoiriga aylanadi. U jami 92 ta asar yozgan bo'lib, bizgacha 19 tasi yetib kelgan. Masalan: "Alkesti-da", "Medeya", "Geraklidlar", "Ippolit", "Elektra", "Andromaxa", "Troyalik ayollar" tragediyalari. Bu asarlarning barchasi Sofokl va Esxil singari mifologik afsonalar mavzusida yozilgan. Yevripid o'z

asarlarida zamonasining turli-tuman muammolari bilan birga psixologik muammolarni ham qo'yadi. Yunon shoiri jahon adabiyotida avvalambor, ayollar obrazi va ularning psixologik qiyofasini mahorat bilan tasvirlagan adib sifatida mashhurdir.

Uning eng kuchli tragediyalaridan biri m.o. 431-yili Afina shahrida qo'yilgan "Medeya" hisoblanadi. Asar sujeti "Argonavtlar" haqidagi afsonadan olingan. Bir qancha yunon pahlavonlari Yason boshchiligidagi oltin qo'y junini olib kelish uchun "Argo" kemasida Kolxida eliga jo'naydilar. U yerda podshoning qizi, quyosh ma'budi Geliosning nabirasi go'zal Medeya Yasonni sevib qoladi, uni deb ota-onasi, vatanidan voz kechadi, akasini o'ldiradi. Oltin qo'y junini Yunonistonga olib kelgach, ular turmush quradilar. Bir qancha muddat o'tgach, Yason Korinf shohi Kreontning qizi Glafkaga uylanmoqchi bo'ladi. Yevripidning asari xuddi ana shu joydan boshlanadi. Bevafoqlikdan g'azablangan Medeya eridan qasos olishga ahd qiladi, kelin, uning otasi va o'z farzandlarini o'ldirib ajdaholar qo'shilgan aravada uchib ketadi. Agar "Medeya" haqoratlangan sevgi va rashk haqidagi asar bo'lsa, "Ippolit" jinoyatkorona, qabih sevgi haqidagi tragediyadir. Afina podshosi Tezeyning oldingi xotinidan qolgan o'g'li Ippolitni o'gay onasi Fedra sevib qoladi. Yigit uning sevgisini rad etgach, Fedra o'z joniga qasd qiladi. O'limidan oldin yozib qoldirgan maktubida u Ippolitni tajovuzda ayblaydi. Otasi tomonidan la'natlangan Ippolit halok bo'ladi.

Yevripid juda katta mahorat bilan burch va ehtiros o'rtaqidagi kurashdan azoblangan qahramonlar ruhiyatini tasvirlaydi.

Qadimgi Attika komediyasi. Aristofan (m.o. 445/446–385-yy.)
Miloddan oldingi V – IV asrlar butun Yunoniston, xususan, Afina davlati uchun kuchli ijtimoiy va madaniy taraqqiyot davri bo'lgan. Ammo shu bilan birga, demokratiya tuzumining ziddiyatlari, ayrim ijtimoiy guruhlar o'rtaqidagi qarama-qarshiliklar keskinlashib bordi. Dastlabki komediyana vis shoirilar o'zlarining asarlarida ana shu nuqsonlarni fosh etishga, kulgi va satira yordamida ularni bartaraf etishga intilganlar. Shunday qilib, "Qadimgi Attika komediyasi"

deb atalmish maxsus adabiy oqim maydonga keldi. O'tkir siyosiy jo'shqinlik, demokratiya dushmanlariga qarshi murosasizlik – qadimgi attika komediyasining asosiy xususiyatidir. Mazkur janrda ijod qilgan ko'pdan-ko'p shoirlar orasida faqat uch kishining nomi bizga ma'lum. Bular – Kratin, Evpolid va Aristofandir.

Qadimgi yunon komediyana-vis shoirlari orasida bir necha asarlari bizga qadar yetib kelgan yagona shoir Aristofandir. Uning ijodida komediyaning mazmun ko'lami benihoya kengaydi, shakliyi jihatdan yuksaklikka ko'tarildi. Aristofanning hayoti haqida bizgacha juda kam ma'lumot yetib kelgan. Shoir taxminan miloddan avvalgi 445–446 yili Attika viloyati yaqinidagi Egina orolida tug'ilgan. U o'zining adabiy faoliyatini juda erta boshlagan va 20 yoshga yetar-yetmas komediyana-vislar musobaqasida qatnashib ikkinchi o'rinni egallagan. Qirq yilcha davom etgan ijodiy faoliyati davrida qirqdan ortiq asar yozgan. Aristofanning komediyalaridan 11 tasigina u yoki bu darajada saqlanib qolingani bo'lib, ular ijtimoiy-tarixiy davr bilan bog'liq ravishda uch davrga bo'linadi:

a) Birinchi davrda(427–421 yy., Peloponness urushining birinchi bosqichi) – urushlardan charchab, ruhiy umidsizlikka tushgan oddiy dehqon, o'zi bilan o'zi sulh tuzib, tinch hayot nashidasini surishi haqidagi “Axarnliklar”(425); davrning taniqli siyosatchilaridan biri Kleon satira qilingan “Chavandozlar”(424); qarz botqog'idan qutilish uchun sofistlardan ta'lim olgan qahramon haqidagi “Bulutlar”(423); sudlashishni yaxshi ko'ruvchi qariya haqidagi “Arlar”(422); qo'ng'izda Olimp tog'iga chiqib, kuch bilan tinchlik ma'budasini yerga olib tushgan musallas paz to'g'risidagi “Tinchlik” komediyalari yozilgan.

b) Ikkinchi davr(414–405 yy.). 421-yildan 414-yilgacha fanga hech qanday ma'lumot ma'lum emas. Bu yillarda asosan ijtimoiy-satirik mavzularda komediyalar yozilgan bo'lsa kerak, deb taxmin qilish mumkin. Ikkinchi davrda osmon va yer o'rtasida qushlar bilan hamkorlikda shahar qurgan ikki afinalik haqidagi “Qushlar”(414), ayollarning urushga qarshi isyoni haqidagi “Lisistrata”(411), Yevripid

kulgu ostiga olingan “Ayollar Fesmoriy bayramida”(411) va yana yevripid tanqid qilingan “Qurbaqalar”(405) komediyalari yozilgan.

d) Uchinchi davr(392–388 yy.)da asosan maishiy, utopik idallalar ulug‘langan komediyalar yozilgan, ularda dialoglar xordan ustunlik qiladi. “Ayollar xalq yig‘inida”(392), “Boylık”(“Plutos”)(388) komediyalari shunday asarlar sirasiga kiradi.

Aristofanning ijodi asosan uzoq davom etgan urushlar davriga, buning natijasida Afina demokratik davlatining to‘xtovsiz yemirilib, inqrozga uchray boshlagan paytiga to‘g‘ri kelgan. Bu paytdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ziddiyatlar, ma’naviy, axloqiy, falsafiy muammolarning keskinlashuvi shoir ijodida o‘zining yorqin ifodasini topgan. Uning asarlaridagi ajoyib dramatik holatlar, qahramonlar qiyofasini tavsiflash mahorati, komediyalariga sohib yuborilgan hazil-mutoyibalar, favqulodda pichinglar, ohori to‘kilmagan qochiriqlar, beqiyos so‘z o‘yinlari, shuningdek barcha asarlariga xos sodda, tiniq, o‘ynoqi va muxtasar til, rohatbaxsh lirik parchalar – Aristofanning yuksak mahoratidan darak beradi. Rus tanqidchisi V.G.Belinskiyning ta’kidlashicha, Aristofan – eng olijanob, g‘oyat musaffo va qadimgi Yunonistonning eng so‘nggi ulug‘ shoiri bo‘lgan.

1954-yili Jahon Tinchlik Kengashining qaroriga binoan Aristofanning 2400 yilligi nishonlandi.

Umuminsoniy badiiy merosning ajralmas qismi bo‘lgan antik adabiyot, xususan qadimgi yunon adabiyotida tilga olingan ko‘plab mavzu va muammolar XXI asrda ham dolzarb bo‘lib, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:

1. Antik adabiyot deganda qanday adabiyot tushuniladi?
2. Yunon adabiyoti qanday davrlarga bo‘linadi?
3. Mifologiya yunon adabiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
4. Qadimgi yunon yozma adabiyotining ilk vakili va uning asarlari haqida nimalar bilasiz?
5. Drama janrining paydo bo‘lishida Dionis marosimlari qanday rol o‘ynagan?

6. Qadimgi Yunonistonda o'tkazilgan dramatik shoirlar musobaqalari haqida nimalarni bilasiz?

7. Esxil va Sofoklning yunon dramasiidagi o'rni.

8. Antik davr adabiyotining adabiyot tarixidagi ahamiyati haqidagi fikringizni bayon eting?

9. Antik adabiyot va qadimgi sharq adabiyoti aloqalari haqida nimalarni bilasiz?

10. Buyuk ajdodlarimizdan kimlar antik davr olimlarining asarlariga tafsirlar yozgan?

11. Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) obrazining o'zbek adabiyotidagi talqini haqida ma'lumot bering?

12. Qadimgi yunon adiblari asarlarini o'zbek tiliga o'giran tarjimonlardan kimlarni bilasiz?

Adabiyotlar

1. A History of Ancient Greek literature. Gilbert Murray. 2008. D.Appleton and company. P.460

2. Алимухамедов А. Антик адабиёти тарихи. – Т.: Уқитувчи, 1980.

3. Тронский И.М. История античной литературы. – М. Высшая школа, 1988

4. Qosimov A. Xo'jayev S. Jahon adabiyoti: Antik davrdan XVII asrgacha. – Farg'ona: 2016.

5. Болтабоев Х., Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 1-жилд: Қадимги давр. – Т.: Mumtoz soz, 2012.

6. Кун Н. Қадимги Юнон афсоиа ва ривоятлари. – Самарқанд: Зарафшон, 2005.

7. Ҳомер. Илиада. – Т.: F.Ғулом ном. адаб. ва санъат нашр. 1998.

8. Ҳомер. Одиссея // Jahon adabiyoti, 2001, №8.

9. Эзоп. Масаллар. – Т.: Akademnashr, 2011.

10. Эсхил. Занжирбанд Прометей. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1976.

11. Софокл. Шоҳ Эдип. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.

12. Плутарх. Сайланма. – Т.: Yangi asr avlodi, 2006.

13. Сапфо. Алкей. Анакреонт. Шеърлар // Jahon adabiyoti, 2005. №11

RIM ADABIYOTI

REJA:

1. Rim adabiyotining taraqqiyot bosqichlari.
 - 1.1 Birinchi Rim shoirlari.
 - 1.2 Plavt ijodi.
2. Ichki urushlar davri adabiyoti.
 - 2.1 Sitseron.
3. Rim adabiyotining "oltin davri". Goratsiy ijodi.
 - 3.1 Vergiliy – Rimning ulug' shoiri.
 - 3.2 Goratsiy ijodi.
 - 3.3 Ovidiy ijodi.
4. Imperia davri. Rim adabiyoti.

Tayanch soʻz va iboralar: lotin tili, Liviý Andronik, Plavt, Sitseron, notiqlik, Avgust davri, Goratsiy, "Qasidalar", Vergiliy, "Eneida" dostoni, Ovidiy, "Metamorfozalar" dostoni

Rim adabiyotining taraqqiyot bosqichlari

Miloddan oldingi IV asrning oxiri – III asrning boshlarida Rim davlati Italiya yerlarining asosiy qismini egallab, qulchilik asosi-ga qurilgan demokratik polis tuzumini joriy etdi va bir necha asr davomida jahongirlik siyosatini olib bordi. Birin-ketin Sitsiliya, Karfagen, Makedoniya (m.o. 148 y.), Yunoniston (m.o. 146 y.), Ispaniyaning bir qismini oʻzlariga tobe qildilar va Kichik Osiyoning gʻarbiy qirgʻoqlarida mustahkam oʻrnashib oldilar. Shunday qilib, II asr oʻrtalarida Rim dunyoning eng qudratli davlatiga aylandi.

Yunon xalqi inqirozga yuz tutgan bir davrda, Oʻrta yer dengizining gʻarbiy qirgʻogʻida antik dunyo adabiyotining ikkinchi tarmogʻi – Rim adabiyoti paydo boʻla boshladi. Mazkur adabiyot lotin tilida yaratildi. Rim adabiyoti yunon adabiyoti erishgan barcha yutuqlar-

dan va shu bilan birga, ellinizm davri adabiyotining bu xazinaga qo'shgan qator yangiliklardan to'la-to'kis foydalanib, ham shaklan, ham mazmunan yana bir daraja yuqori bosqichga ko'tariladi va keyinchalik, yangi dunyo Ovrupa adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan qudratli bir adabiyotga aylandi. Uyg'onish davrining ijodkorlari, XVII asr yozuvchilari o'z faoliyatlarida asosan Rim adabiyoti namunalariga taqlid etadilar. G'arbiy Ovrupada XVIII asrga qadar antiklik Rim davri bilan bog'liq holda talqin etildi.

Yunonlarning odat-taomillari, asbob-anjomlari, kiyim-kechaklari rimliklarning turmushiga juda tez kira boshladi. Rimning madaniy hayotida yunonlarning xizmati singmagan deyarli hech qanday soha bo'lmagan deyish mumkin. Hattoki birinchi Rim shoiri Liviy Andronik (m.av.284–204 y) ham yunonistonlik bo'lgan. Yunon maktab-larida izohli o'qishda asosan Homer dostonlaridan foydalanilgan. Shu bois Liviy Andronik "Odisseya" dostonini lotin tiliga tarjima qilgan. Mazkur tarjima Rim adabiyotining birinchi yozma yodgorligi bo'lishi bilan birga, qariyb ikki asr davomida maktablarda asosiy o'quv kitobi bo'lib xizmat qilgan.

XVII asr klassitsizm tragediyalariga xos bo'lgan "libos" Esxil, Sofoklga qaraganda ko'proq Rim dramaturgi Seneka ijodi ta'sirida shakllangan bo'lgan bo'lsa, mazkur davr Ovrupa eposi Homer dostonlari ta'sirida emas, Vergiliyning "Eneida"si asosida yaratildi.

Rim she'riyatining *oltin asri* m.o. I asrning o'rtalaridan melodiy I asrning boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda Rim tarixining muhim voqealari sodir bo'ldi. Fuqarolar urushi davomida m.o. 31-yili Aksium yaqinidagi jangda siyosiy arbob va sarkarda Mark Antoniyning qo'shini, keyinchalik Avgust faxriy unvonini olgan Oktavian askarlari tomonidan tor-mor etildi. Oktavian Avgust Rim imperiyasining yagona hukmdoriga aylandi.

Rim adabiyotining bu davrida publitsistika gullab-yashnadi, buyuk Rim shoirlari – Goratsiy, Vergiliy, Ovidiylarining she'riy asarlari yozildi. Goratsiy lirikasi, Vergiliy va Ovidiyning epik dostonlari Rim she'riyatining oltin merosi bo'lib qoldi.

Rim adabiyotini lotin tili taraqqiyoti davrlariga mos ravishda quyidagi asosiy davrlarga ajratish mumkin:

I. Qadimgi davr – Rimda yunonlar namunasi asosidagi adabiyot paydo bo'lguniga qadar (m.av.240 yilga qadar)

II. ~~Antik~~ **Amalik** davr – Sitseron adabiy faoliyatiga qadar (m.av.240–81-yillar)

III. Rim adabiyotining oltin davri:

a) Sitseron davri – Rim nasrining gullab yashnashi (m.av. 81–43-y)

b) Avgust davri – Rim she'riyatining gullab yashnashi (m.av. 43–14-y)

IV. Rim adabiyotining kumush davri – imperator Trayan vafotiga qadar (14–117-y.)

V. Imperatorlikning so'nggi davri (117–476-y.).

Rim adabiyotining ilk vakili sifatida IV asr oxiri va III asr boshlaridagi taniqli davlat arbobi Appiy Klavdiy nomi tilga olinadi. U rimda birinchi bo'lib, adabiyotning mafkura vositasi sifatidagi rolga yuksak baho bergan va yozuvchi sifatida ham tanilgan. Uning Rim tarixida mashhur bo'lgan tinchlik sulhi tuzishga qarshi qirol Pirrga qarata so'zlagan nutqi (279 yil) siyosiy risola sifatida nashr etilgan. Bundan tashqari, Appiy Klavdiy ibratli fikr, aforizmlardan iborat to'plam chop ettirgan bo'lib, ulardan bizgacha uchta aforizm yetib kelgan. Ulardan biri hozirda Ovrupa xalqlari maqoliga aylangan "Har kim o'z baxtining me'mori" iborasidir.

Birinchi Rim shoirlari. Yuqorida birinchi Rim shoiri sifatida e'tirof etilgan Liviy Andronikning lotin tilidagi "Odissey" si Ovrupa adabiyoti tarixidagi birinchi badiiy tarjima namunasi sifatida baholanadi. U asar tarjimasiga erkin yondashadi. Ko'p o'rinlarda misralar qisqartirilgan, tashlab ketilgan, obrazlar o'zgartirilgan, yunon mifologiyasidagi ma'budlarning nomlari lotin ma'budlari nomi bilan almashtirilgan. Andronikdan keyin ham tarjima sohasida originalning butun xususiyatini saqlab qolish emas, balki asarni Rim davlatining madaniy ehtiyojiga moslashtirish tamoyili yetakchilik qildi.

Tarjimonlikdan tashqari Andronik lotin tilida tragediya va komediyalar ham yozgan. Bizgacha yetib kelgan parchalar asosida tragediya va komediya mavzulari. Evripid, Menandr, Filemon asarlaridan olinganligi ma'lum bo'ldi.

Ikkinchi Rim shoiri Gney Neviiy (m.av. 270–200-y) Andronikdan farqli ravishda Rim xalqining turmushini yaxshi bilgan (Kampaniyada tug'ilgan), ikkinchi Pun urushi ishtirokchisi edi.

Neviiy ijodining cho'qqisi – "Pun urushi" dostonidir. Doston yaqinda bo'lib o'tgan birinchi Karfagen urushi voqealariga bag'ishlangan. Biroq asarda, xuddi Homer dostonlarida bo'lgani kabi, real tarixiy hodisalar mifologik afsonalar bilan chatishgan holda tasvir etiladi. Jangnomaning boshlanishida o't ichida qolgan va halokatga mahkum etilgan Troya shahrini ko'ramiz. Ulug' qahramon Eney ma'budlarning amri bilan o'z yurtini tashlab ketishga majbur bo'ladi. Dengiz safarining og'ir mashaqqatlarini yengib, qahramonning Karfagen shahriga, malika Didona huzuriga qarab yo'l olishlari va, nihoyat, Eneyning avlodi Romul tomonidan Rimning barpo etilishi – asar davomida mufassal tasvirlanadi. Shunday qilib, Rim xalqining troyaliklardan tarqalganligi haqidagi rivoyatga birinchi marta badiiy tus bergan shoir Gney Neviiydir.

Dastlabki Rim shoirlari orasida eng yirigi Kvint Enniy (239–169 yy.) bo'lgan.

Enniy o'z ijodining boshlang'ich davrlarida Livii Andronik hamda Neviiy yo'llarini davom ettirib, asosan, yunon komediyasi va tragediyalarini lotin sharoitiga moslashtirish bilan shug'ullangan.

Enniy o'zining o'tkir poetik mahoratini "Annallar" ("Solnomalar") dostonoida yana ham kengroq namoyish qilgan. 60 ming misradan iborat 18 bobli (bizga qadar uning 1200 misrasi yetib kelgan) salmoqdor bu asar Eneyning Troyani tashlab qochishidan boshlanib, to shoirning zamonasiga qadar davom etgan butun, Rim tarixini o'z ichiga oladi.

"Annallar"ning muallifi Rim elining ikkinchi Homeri bo'lish orzusida ekanligini izhor qiladi. Enniy, darhaqiqat, Homer dostonlari

usulidan epitetlar, o'xshatishlar va boshqa poetik vositalardan katta ustalik bilan foydalanib, ko'zlagan maqsadlariga erishishda ajoyib muvaffaqiyatlar qozonadi. Biroq Enniy o'zining dostonchilik janriga kiritgan bu yangiliklari bilan cheklanib qolmasdan, lotin she'riyati qurilishini ham tubdan o'zgartirib, eski saturn vaznini yunon gekzimetri bilan almashtiradi. Birinchi marta Enniy tomonidan joriy etilgan bu islohot, Rim poeziyasining kelgusi taraqqiyoti yo'lida juda katta imkoniyatlar tug'diradi.

Plavt ijodi. Plavt (tax. m.o. 250–184-y) Rimning ulug' komediyana-
yana-
visi Tit Makk Plavt Italiyaning Umbriya viloyatida tug'iladi. Uning hayotiga doir ma'lumotlar juda oz. Kambag'al oilada dunyoga kelgan shoir, yoshligida Rimga kelgan va teatrdan sahna ishchisi bo'lib ishni boshlab, keyinchalik o'z kuchini aktyorlik mahorati bo'yicha sinab ko'rgan. Sayyor teatr bilan Yunoniston safarida bo'lib, yunon tilini o'zlashtirgan va yunon mualliflarining pyesalarini lotin tiliga o'g'irgan, shundan so'ng o'zi ham komediyalar yozishga kirishgan. U o'zining aksariyat asarlarida bizgacha yetib kelmagan yunon komediyalarining sujet va obrazlaridan foydalangan, ularni Rim hayotidan olingan voqealar hamda detallar bilan boyitgan. Plavt o'zidan oldin ijod qilgan shoirlarning (Andronik, Nevii, Enniy) usullarini davom ettirib, o'z ijodida muttasil yangi yunon komediyasi vakillarining (Felimon, Difil, Menandr) asarlarini Rim sahnasiga moslashtirish bilan shug'ullangan. Yunon komediyalarini Rim jamiyatining keng ommasi didiga moslashtirish maqsadida u *kontaminatsiya* usulidan keng foydalanib, mazmun jihatidan bir-biriga yaqin ikkita pyesani birlashtirib yuboradi va yo'l-yo'lakay asar to'qimasiga o'zidan qiziq-qiziq iboralar, maroqli hodisalar kiritib, dramatik holatlarning keskin, voqealarning o'ynoqi bo'lishiga erishadi.

Plavt komediyalaridagi voqealar yunon shaharlarida bo'lib o'tib, ismlari ham yunoncha bo'lsada, Rim tomoshabini o'zini, urf-odatlarini va axloqini har doim tanigan. Qadim zamonlarda yuzdan ortiq komediyani Plavt nomi bilan bog'lab kelganlar. Ammo miloddan

oldingi I asrda Rim olimi Varron shulardan faqat yigirma bittasini Plavt qo‘li bilan yozganligini aniqlaydi.

Plavt komediyalari juda kulgili, ular qiziqarli sahnalar, hazillar, zukko va quvnoq iboralarga boy bo‘lib, asarlarining qahramonlari boylar va kambag‘allar, qullar va savdogarlar bo‘lgan. Ularning har biri o‘z xarakteri va o‘ziga xos xulq-atvoriga ega edi.

Plavtning eng o‘tkir va maroqli asarlari “Maqtanchoq jangchi”, “Xumcha”, “Psevdol(“Aldamchi qul”)” komediyalaridir. Plavt o‘z faoliyatini faqatgina komediya doirasi bilan chegaralagan va eng muhimi, asarlarining deyarli hammasi bizga qadar yetib kelgan birinchi Rim komediyana vis shoiridir. Uning she‘riyat bobidagi mahorati yuksak tahsinga sazovor. Shoirning asarlarida hech qachon bir vazndagi o‘lchov uchramaydi. Sahna sirlarini nihoyatda chuqur bilish ham Plavtning muhim fazilatlaridandir.

“Xumcha” komediyasidan ruhlangan XVII asr fransuz dramaturgi Molyer “Xasis” komediyasini yaratdi. “Xumcha” komediyasining qahramoni xasis Yevklion obraziga o‘xshash personajlarni ko‘plab yozuvchilarning asarlarida uchratish mumkin – fransuz yozuvchisi Balzakda (“Gobsek”), ingliz yozuvchisi Ch.Dikkensda (“Nasrdagi Rojdestvo qo‘shig‘i”dagi Skruj), rus yozuvchisi Gogolda (“O‘lik jonlar”dagi Plyushkin), o‘zbek adiblaridan S.Ayniyning “Qori Ishkambasi”, A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani qahramonlaridan biri Solih Mahdum, S.Ahmadning “Ufq” romanidagi Orif oqsoqollar shular jumlasidandir.

Ichki urushlar davrida Rim adabiyoti

Eramizdan oldingi II asrning o‘rtalaridan boshlab, Rim jamiyatida keskin sinfiy ziddiyatlar paydo bo‘la boshlaydi.

Uzluksiz urushlar vaqtida qo‘lga kiritilgan behisob qullarni shafqatsiz ekspluatatsiya qilish natijasida quldorlar bilan qullar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni tobora kuchaytirib, nihoyat, Rim imperiyasining turli yerlarida, jumladan Sitsiliya, Kichik

Osiyo va boshqa viloyatlarda dahshatli qullar qo'zg'olonining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Spartak rahbarligida boshlanib, so'ngra Italiya tuprog'ining hamma yerlariga yoyilgan va to'rt yil (74–71) davomida butun Rim davlatini zilzilaga keltirgan qullar isyoni bu qo'zg'olonlarning eng yirigi edi.

60 yilda davrning yirik sarkardalari Pompey, Yuliy Sezar hamda Krass o'rtalarida birinchi uchlik ittifoqi-triumvirat tuziladi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, yakka hukmronlikka intilgan Pompey bilan Sezar o'rtalarida yangi fuqaro urushi boshlanib, raqibi ustidan g'alaba qozongan Sezar ulug' davlatning yagona hokimi darajasiga ko'tariladi. Biroq Sezarning tantanasi faqatgina besh yil (49–44) davom etadi. Respublikachilar til biriktirib, uni o'ldiradilar.

Sezarning eng yaqin sarkadasi Antoniy bilan asrandi o'g'li Oktavian o'rtalarida uning o'rnini egallash uchun keskin kurash boshlanadi. Qariyb o'n yil davom etgan yangi fuqarolar urushi, nihoyat, eramizdan oldingi 31 yilda Oktavianning g'alabasi bilan tugaydi.

Rimda respublika tuzumining yemirilishiga va imperatorlik idora usulining barpo etilishiga sabab bo'lgan yuz yillik ijtimoiy kurashning muhim voqealari shulardan iborat. Keskin sinfiy kurashlar falsafada, adabiyotda va, nihoyat, notiqlik san'atida o'zining yorqin ifodasini topadi.

Sitseron (m.av 106–43). O'zining otashnafasligi bilan Demosfen darajasida turadigan va antik dunyoning ikkinchi ulug' so'z ustasi sifatida tanilgan notiq Mark Tulliy Sitserondir. Rim so'z ustalari orasida ikki xil notiqlik usuli keng tarqaladi; bulardan biri – Osiyo usuli, ikkinchisi – Attika usulidir. Osiyo usuliga ergashuvchi notiqalar so'zning hayajonli, jimjimador bo'lishiga, jumalarning ohangdorligiga katta e'tibor beradilar; attikachilar esa yunon so'z san'atining yirik vakili Lisiy hamda ulug' tarixchi Fukidid singari jumalarni qisqa tuzishga, so'zlarning sodda bo'lishiga intiladilar.

Sitseron o'zining salkam qirq yil davom etgan ijtimoiy va adabiy faoliyati mobaynida turli-tuman mavzularga bag'ishlab behad ko'p asarlar yozgan. Shulardan bir qanchalarining nom-nishonsiz

yo'qolib ketganligiga qaramay, bizga qadar yetib kelganlarining o'zi ham antik dunyoda o'tgan har qanday yozuvchining asaridan ziyo-daroqdir. Sitseronning asosiy kasbi – notiqlik. Shuning uchun ras-miy yig'inlarda sud majlislarida so'zlagan nutqlari uning ijodida eng muhim o'rin tutadi. Ma'lumotlarga qaraganda, qadimgi zamonlarda Sitseronning 150 ga yaqin nutqi nashr etilgan bo'lsa, bizga qadar shu-lardan 58 tasi yetib kelgan. Bulardan tashqari, falsafiy mavzularga yozilgan 12 ta asar, notiqlik nazariyasi va tarixiga doir 7 ta risola va 800 ga yaqin maktub asrlar osha bizgacha yetib kelgan.

Sitseron so'z san'ati nazariyasiga atab yozgan asarlar orasida "Orator haqida", "Brut" va "Orator" mazmunda ham, shaklda ham eng qimmatbaho asarlar hisoblanadi. Mazkur asarlarning har birida Sitseron notiqlik san'atining eng yirik masalalaridan tortib mayda-chuyda qonun-qoidalariga qadar diqqat bilan birma-bir ko'zdan kechiradi. Sitseronning aytishicha, notiq shunchaki so'zamol, sud ishlarining ikir-chikir qonunlarigacha biladigan qonunparast emas, balki bekamu ko'st davlat arbobi bo'lmog'i darkor. Shu sababli bu kasbga intilgan har bir odam faqatgina ritorika ilmiga taalluqli ibti-doiy bilimlarni o'rganish va o'zining tabiiy iste'dodiga ishonish bilan cheklanib qolmasdan, muttasil mutolaa qilmog'i, beto'xtov madani-yat cho'qqilariga intilmog'i lozim. Tinglovchilarning ruhiga chuqur ta'sir ko'rsatishning eng birinchi vositasi sifatida yozuvchi ham-madan burun axloq, mantiq, psixologiya fanlarini har tomonlama mukammal o'rganishni va, umuman, mavjud falsafiy ta'limotlardan keng xabardor bo'lishi tavsiya etadi.

Nutq uslubi haqida Sitseron "Kimki jo'n narsalar haqida oddiygi-na, kundalik voqealar haqida – o'rtamiyona, ulug' hodisalar haqida – shavq-zavq bilan gapirsa – shu odam so'z san'atining chinakam ustasidir" degan fikrni bildiradi.

Rim respublikasining so'nggi yillari, zamonasining atoqli davlat arboblari, muallifning yor-do'stlari, shaxsiy hayoti, tabiati, sevinch va tashvishlari haqida qimmatbaho ma'lumotlar beradigan man-balardan yana biri – Sitseronning maktublaridir.

Sitseron lotin tili va, xususan, lotin nasrining rivojiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Ovrupa madaniyatining rivoji va ravnaq topishi yo'lida ko'rsatgan xizmatlari jihatidan boshqa Rim yozuvchilari Sitseronga tenglasha olmaydi.

Uyg'onish davriga kelganda Sitseron merosiga murojaat juda ham ortib ketadi: ulug' gumanistlar o'zlarining falsafiy va adabiy faoliyatlarida lotin tilining benuqson namunasi sifatida, faqatgina, Sitseron uslubiga ergashadilar. XVIII asrning ma'rifatparvarlari Volter, Didro, Monteskye va boshqalarning ijodida ham Sitseronning ta'siri kuchli bo'lgan.

Katull. Miloddan avvalgi II asrning oxiri va I asrning kirishida boshlangan ichki ixtilof va urushlar natijasida Respublika tuzumi-ning muqarrar halok bo'lishini sezgan ko'pgina respublika tarafdorlari, kurashni ortiq davom ettirish befoyda ekanligini tushunib, siyosiy ishlardan o'zlarini chetga oladilar. Rim jamiyatining oliy tabaqalari o'rtasida xuddi ellinizm davrida bo'lgani kabi, shaxsiy hayotga moyillik, ijtimoiy masalalarga aloqasi bo'lmagan san'at va adabiyotda ovunchoq axtarish kayfiyatlari kuchayib ketadi. Bu kayfiyat mazkur ijtimoiy guruh kishilari o'rtasida maxsus adabiy oqimning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Sitseron bu oqimga mansub adiblarni neoteriklar, ya'ni yangi shoirlar deb atagan.

Neoteriklar o'z faoliyatlarida yolg'iz ellinizm adabiyoti qonun-qoidalariga, ayniqsa bu davrning ulug' shoiri Kallimax ijodiga ergashadilar. Binobarin, ular ham Kallimax singari doston, tragediya kabi yirik janrlarni inkor etib, faqatgina kichik hajmdagi asarlarni – epilliylar, epigrammalar, elegiyalarni targ'ib qiladilar va o'zlari ham muttasil shu janrlarda asar yozadilar. She'rning tashqi bezagiga, tilning nafisligiga, vaznning rango-rangligiga va, eng muhimi, qahramonlarning ruhiy kechinmalariga ortiq darajada e'tibor berish – neoteriklarning asosiy xususiyatlaridandir. Binobarin, lotin adabiy tilini taraqqiy ettirish, she'riyatni shu paytga qadar ko'rinmagan yangi-yangi vaznlar bilan boyitish borasida ularning xizmatlari juda kattadir.

Neoteriklar harakatining rivojlangan vaqti eramizdan oldingi I asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Bu oqimning yirik namoyandalari Valeriy Katon, Litsiniy Kalv, Gelviy Sinna hamda Valeriy Katull bo'lgan. Bularning ichida hammadan ko'ra kengroq shuhrat taratgani va asarlari bizga qadar bir daraja to'la holda yetib kelgani – Gay Valeriy Katulldir (87–54).

Shoirning shuhratini yer yuziga faqat uning lirik she'rlari hamda epigrammalari yoygan.

Katullning lirik she'rlari, asosan, Klodiya degan rimlik go'zal ayolga bag'ishlangandir. Klodiya 58 yilda Sitseronning surgun qilinishini talab etgan atoqli xalq tribuni Klodiyning singlisi, senator Metellning rafiqasi bo'lgan. Uning o'zi ham zamonasining anchagina nozik tabiat, dono va o'qimishli ayollaridan biri sifatida mashhur edi. Katull o'zining she'rlarida ma'shuqasining ismini ochiq atamadan, Sapfoga nisbatan berib, ulug' yunon shoirasining yurti Lesbos nomiga monand Lesbiya deb ataydi.

*Kvintiya go'zalmish. Yo'q. U faqat kelishgan.
Oq yuzli va tik qomat. Bir-bir ta'riflay, ammo-
Go'zal demayman uni, Kvintiya xush bichim,
Lekin unda otash yo'q, o't yo'q dilni yoquvchi.
Go'zallik Lesbiyada. U barchani lol etgan,
Barcha jononlar sehrin jam aylagan o'zida.*

(Erkin Vohidov tarjimasi)

Biz uning asarlari orasida ishq-muhabbat, yor-do'stlik mavzularida yozilgan lirik she'rlar bilan bir qatorda, zamonasining ba'zi bir ijtimoiy voqealarini fosh etuvchi asarlarni ham uchratamiz. Respublika tuzumining kundan-kunga yemirilib borayotganini, axloq va odobning barbod bo'layotganini ko'rgan shoir, albatta, bu falokatlarga beparvo qarab turolmaydi va butun nafratlarini she'rga solib, zamonasining nopok kishilari va hatto, Pompey, Sezar kabi zo'ravonlarni hamda ularning yaqin odamlarini sharmanda qiladi.

Shoir o'zining zahrini hammadan ko'ra ko'proq Sezarning yirik amaldori va hamtovog'i Mamurraga sochadi.

Ikki ablah yaramas bo'lmishlar apoq-chapoq

Biri mushuk Mamurra, birisi suyuq Sezar.

Qorong'uda topishgan bu ikki naxs vujud

Kir maishat, zinoning sira ketmas dog'i bor.

(Erkin Vohidov tarjimai)

Epigrammani kamolotga yetkazib, Rim poeziyasining maxsus janri darajasiga ko'targan adib ham Katull bo'lgan. Lotin tilida lirik poeziya yaratish tarixining o'zi ham Katull nomi bilan bog'liqdir. Katull o'zidan oldin o'tgan qalam ahlari singari ko'hna tarix qatlamlarini axtarib, afsonaviy bahodirlarning sarguzashtlarini emas, balki o'zining alam-sitamlari, sevinch va armonlarini qog'ozga ko'chirishni afzal ko'radi. Shu yo'sin shoir o'zining hissiyotlarini tasvirlash orqali, umuman barcha odamlarga xos ruhiy holatlarni, ehtiroslar kurashini shu qadar noyob ustalik bilan ko'rsatadiki, bu jihatdan antik dunyoda o'tgan kamdan-kam lirik yozuvchilar Katull bilan tenglasha oladilar. Uning lirikasi nihoyatda rango-rang, iborolari sodda, sermazmun va badiiy tasvirga boydir.

Rim adabiyotining "oltin davri"

Eramizdan oldingi 31 yilda Yunonistonning g'arbi-janub qirg'og'idagi Aksium jangida Oktavian qo'shinlarining Antoni qo'shinlari ustidan g'alaba qozonishi natijasida eski respublika tuzumi tamomila yemirilib, Rim tarixining yangi davri – yakka hukmronlikka asoslangan imperatorlik saltanati boshlanadi. Zamonasi-ning anchagina o'qimishli kishisi va san'at ishlariga bir daraja yaqin turgan Avgust, adabiyotining kattakon targ'ibotchilik imkoniyatlarini yaxshi tushunadi va hokimiyatni qo'lga olgan kunlaridan boshlab, o'zining idora usullarini xalq ommasiga ma'qul qilish maqsadida

shu imkoniyatlardan keng suratda foydalanishga kirishadi. San'at va adabiyot ishlarini uyushtirishda mehnatlari singgan va shu yo'lda Avgustga juda katta xizmat ko'rsatgan kishilar orasida eng mashhuri Metsenatdir. Nomi keyinchalik san'at va adabiyot homiysi timso-liga aylanib ketgan bu odamning o'zi ham uncha-muncha she'r yozar, adabiy harakatlarda yaqindan qatnashar edi. Metsenat Vergiliy hamda Goratsiy kabi shoirlarning noyob iste'dodini payqab, shular ishtirokida maxsus yozuvchilar to'garagi tashkil etiladi. Rim hayotining badiiy ijod markazi hisoblangan bu to'garak, yangi imperiya adabiyotining shakllanishi va rivoj topishida benihoyat muhim rol o'ynaydi. Respublika tuzumidan imperatorlik sistemasiga o'tish paytidagi adabiyotning asosiy xususiyati madhiyabozlikdan iboratdir. Ammo shunga qaramay, Oktavian zamonasi, Rim poeziyasining badiiy jihatdan bemisl yuksak darajalarga ko'tarilgan "oltin davri" bo'lgan. Darhaqiqat Avgust saltanati yillarida ijod qilgan Vergiliy, Goratsiy, Ovidiy kabi ulug' shoirlar o'zlarining asarlari bilan Rim poeziyasining klassik davr yunon adabiyotidan qolishmaydigan va keyinchalik jahon adabiyoti taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazishga qodir bo'lgan kamolot bosqichiga olib chiqadilar.

Vergiliy (m.o. 70 y) Rimning eng ulug' shoiri Publiy Vergiliy Maron miloddan oldingi 70 yilda Italiyaning shimolidagi Mantuya shahri atrofida tug'ilgan. Vergiliy oldin Kremonda, keyinchalik Milan, Rim shaharlarida tahsil oladi; ritorika, falsafa bilimlarini, ayniqsa adabiyotni chuqur o'rganadi. Biroq tabiatan yumshoqligi, uyatchanligi, notiqlikka qiziqishi va iste'dodining yo'qligidan faqat bir marta sud ishida qatnashib, tez orada o'z yurtiga qaytib ketadi, bu yerda dehqonchilik qiladi va adabiyot bilan shug'ullanadi. 41-yilda Oktavian Avgust o'zining qo'shinini Italiyaning shimoliga joylashtiradi, Vergiliyning mansabdor muxlislari uni imperator bilan tanishtiradilar. Shoir Avgust saltanatiga chuqur samimiyat va xayrixohlik bilan qaragan va o'z asarlarida Avgust saltanatini kuylovchi, uning ishlarini tarannum etuvchi ulug' saroy shoiri darajasiga ko'tariladi.

Rim eposi asoschisi Vergiliyning “Eneida” dostoni, Homerning dostonlari bilan tenglashtirilgan.

Vergiliydan hammasi bo‘lib uchta asar yetib kelgan. Bularidan birinchisi “Bukolikalar”(cho‘pon she‘rlari), ikkinchisi “Gerogikalar”(dehqon qo‘shiqlari) va uchinchisi “Eneida” dostonidir. Mazkur asarlardan tashqari bizga qadar “catalepta”, ya’ni “mayda-chuyda she‘rlar” deb ataluvchi yana bir to‘plami saqlanib qolgan. Bu to‘plamga kirgan she‘rlarning ko‘pchiligi neoteriklar, ayniqsa, Katull usulida yozilgan turli-tuman vazndagi she‘riy asarlardan iborat.

Vergiliyning birinchi yirik asari “Bukolikalar” o‘nta she‘rdan iborat to‘plamdir. Bu to‘plamga kiritilgan she‘rlarning ko‘pchiligi eklogalar, ya’ni she‘riy parchalar deb ham ataladi. “Bukolikalar” muallifining diqqat makazida turadigan asosiy masala – dehqonchilik ishlarining boshqa kasblarga nisbatan a‘lologini, oddiy qishloq hayotining go‘zalliklarini madh etishdan va shu yo‘sin yer egalari-ning manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Vergiliyning dehqonchilik haqida yozilgan ikkinchi asari – “Georgikalar” dostoni ham mazmun jihatidan birinchi to‘plamga juda yaqin turadi. Didaktik mazmundagi ushbu asar yirik-yirik to‘rt qismdan iboratdir. Bu qismlardan birinchisi g‘allakorlikka, ikkinchisi bog‘dorchilik va tokchilikka, uchinchisi chorvachilikka va to‘rtinchisi asalarichilikka bag‘ishlanadi.

Doston muallifining otashin vatanparvarligi, qishloq hayotiga bo‘lgan jo‘shqin muhabbati, ayniqsa dehqonlarga samimiy xayrixohlik bilan qarashi – asarning yuksak badiiy mahorat bilan yozilishini ta‘minlagan.

Vergiliyni Rim she‘riyatining cho‘qqisiga olib chiqqan, uning shuhratini yer yuziga taratgan ulug‘ asari “Eneida” dostonidir. Qadimgi ma‘lumotlarga qaraganda, shoir asar ustida o‘n yil ishlagan va uni m.o. 19 yilda tugatgan. “Eneida” dostonining butun voqeasi Troya shahri tor-mor qilinganidan so‘ng bosh qahramon Eneyning o‘z hamrohlari bilan birga Italiyaga qarab yo‘lga chiqishi, uning

dengizda tortgan og‘ir mashaqqatlari, nihoyat manzilga yetib keli-shi, Rim davlatini barpo etilish yo‘lida olib borgan kurashlari tasviri-dan iborat. Asar har biri olti bobdan(qo‘shiqdan) iborat, ikki qismga ajratib yozilgan. Birinchi olti bob qahramonning Troyadan chiqib Italiyaga yetib kelish davrida kechirgan sarguzashtlariga, keyingisi Italiya tuprog‘idagi janglariga bag‘ishlanadi.

Vergiliy o‘z asarini oxiriga yetkazolmagan bo‘lsa kerak. Chun-ki dostonda troyaliklar bilan rutullar o‘rtasidagi urushdan keyingi voqealarni, masalan, troyaliklarning lotinlarga qo‘shilib, har ikkala xalqning totuvlashib ketganini, Eneyning Laviniyaga uylanishi, ular-dan Iulning tug‘ilishi, Iul naslidan Romul hamda Rem degan egizak bolalarning dunyoga kelishi, shular tomonidan Rim shahrining barpo etilishi va nihoyat, dastlabki Rim podshohlari avlodlarining(Yuliy Sezar, Oktavian Avgustning ajdodlari) tarqalishi haqidagi afsonalar-ni ko‘rmaymiz.

Vergiliyning Rim she‘riyatini rivojlantirishda hissasi beqiyos. Yunon dostonchiligining eng murakkab bo‘lgan gekzamert vaznini lotin she‘riyati talablariga moslashtirishga ko‘plab shoirlar uringan-lar, biroq bu o‘lchovni mislsiz kamolot bosqichiga ko‘tarish faqat Vergiliyga nasib qilgan.

Goratsiy (m.o. 65) Vergiliyning zamondoshi va do‘sti, Avgust davrining ikkinchi ulug‘ shoiri Kvint Goratsiy Flakk miloddan ol-dingi 65 yilda Italiya janubidagi Vinuziya shaharchasida tug‘ilgan. Uning otasi soliq yig‘uvchi bo‘lib, Apuleyada uncha katta bo‘lmagan mulkka egalik qilgan. Goratsiy avval Rimda, keyin Afinada saboq oladi, o‘tmishdagi ulug‘ yunon shoirlarining asarlarini qunt bilan o‘rganadi. O‘zining aytishicha, ilk she‘rlarini yunon tilida yozgan. Uning dastlabki she‘rlariyoq kitobxonlarga, shu jumladan Vergiliy-ga manzur bo‘ladi. Aynan Vergiliy uni adabiyotning atoqli homiysi Silniy Metsenat bilan tanishtiradi. Shoir sevgi-muhabbat, do‘stlik, hayot oqimining tez oqarligi haqida yozdi. Avgustning muruvvati va Metsenatning himmatlari tufayli Goratsiy tez orada muhtojlik tashvishlaridan qutulib, dorilamon hayot kechira boshlaydi.

Goratsiy she'riyatning turli janrlarida ijod qildi: oda, satira, madhiya, nomalar shular jumlasidan. Shoir ijodida san'at va she'riyatning jamiyatdagi o'rni masalalariga katta e'tibor qaratilgan. "Avgustga noma"da she'riyat insonni shakllantirishi, unga taskin berishi, dardiga davo bo'lishi haqida so'z yuritilsa, "She'riyat san'ati haqida" nomasida asarni qanday qurish va so'z boyliklaridan umumli foydalanish, xarakterlarni qanday yaratish haqida maslahatlar beradi. Uning mashhur "Haykal o'rnatdim men" qasidasida ijodkor va she'riyatning umrboqiyligi mavzusi qalamga olingan.

Goratsiyning ijodiy merosi bizgacha deyarli to'la holda yetib kelgan. Ular quyidagilar:

1. "Epodlar" deb ataluvchi 17 she'rdan iborat bitta to'plam.
2. "Satiralar" deb ataluvchi 18 she'rdan iborat ikkita to'plam.
3. "Qasidalar" deb nomlanuvchi 103 she'rdan iborat to'rtta to'plam.
4. "Nomalar" deb ataluvchi 23 she'rdan iborat ikkita to'plam.
5. "Bayram madhiyasi" she'ri.

Goratsiy ijodida favqulodda o'rin tutadigan shoh asari shubhasiz, uning "Qasidalar"idir. To'rt majmuadan iborat bo'lgan qasidalarining birinchi uch qismini shoir miloddan avvalgi 23 yilda, to'rtinchi qismini 13 yilda nashr qildiradi. Shoirning o'zi to'rtala to'plamga kirgan asarlarining barchasini "qo'shiqlar", "she'rlar" deb atagan bo'lsa ham, antik davrda "qasida" nomi bilan mashhur bo'lgan.

"Qasidalar" muallifi qadimgi yunon shoirlari ixtiro etgan rang-barang va murakkab she'riy vaznlardan ustalik bilan foydalangan va shu orqali Rim she'riyatining shaklini boyitib, unga turli-tuman go'zal va nozik taronalar bag'ishlagan. Qasidalar mazmun jihatidan ham, janr jihatidan ham benihoyat xilma-xildir.

Goratsiy ijodining butun mazmuni – xoh "Epodlar" da bo'lsin, xoh "Satiralar"da bo'lsin, xoh "Qasidalar"da bo'lsin – asosan shod-xurramlikni, yor-do'stlikni, may va ishq-muhabbatni targ'ib qilishdan iboratdir. Uning fikricha inson uchun bularning birortasidan saqlanishning hech qanday zaruriyati yo'q.

Goratsiy lotin tilida mutlaqo yangi lirika yaratdi. Qasidalaridagi fikriy teranlik, shakliy rang-baranglik, uslubining nafisligi, ixchamligi, sodda va ravonligi – ulug‘ shoir tomonidan Rim she’riyatiga kiritilgan yangiliklarning yorqin namunasidir. Shoir o‘z ijodiga yakun yasab, “Qasidalar” uchinchi majmuasining “Haykal” nomli mashhur 30-qasidasida Rim she’riyatining taraqqiyoti yo‘lidagi buyuk xizmatlarini, inchunun, lirik shoir sifatida abadiy barhayot qolajagini e’tirof etar ekan, g‘urur bilan yozilgan bu so‘zlarda hech qanday mubolag‘a bo‘lgan emas.

Ulug‘ rus shoiri A.S.Pushkinning mashhur “Haykal” she’rining yaratilishiga Goratsiyning “Haykal o‘rnatdim men” (“Exegi monumentum”) qasidasi turtki bo‘lgan. Ruschada uni “Pamyatnik nerukotvorniy”, “Poxvala pissam” deya atashgan. Antik davrning bu qasidasidan ilhomlangan M.Lomonosov, G.Derjavin, V.Kapnist, A.Vostokov, S.Tyutchev kabi XVIII asr mualliflari ham haykal mavzusida o‘z qasidalarini yozishgan. Ammo faqat Pushkinning qasidasi davrlar osha sevib o‘qilmoqda.

Ovidiy (m.o. 43 – m. 17 yy) Rim she’riyatining oltin davri Ovidiy ijodi bilan bog‘liq. Shoir Rim yaqinidagi Sulmon shaharchasida chavandoz (Qadimgi Rimda ikkinchi tabaqa hisoblangan) oilasida dunyoga kelgan elegiyanavis shoir. Rim elegiyasiga shoir Gall asos solgan bo‘lsa, Tibull va Propersiylar uni rivojlantirdilar, Ovidiy esa yuqori darajaga olib chiqdi. Boshqa rimlik shoirlar singari Ovidiy ham yunon she’riyatini qadrlagan va o‘z asarlarini yaratar ekan, unga qayta-qayta murojaat qilgan. “Yo‘q! Homer o‘lmaydi... Sofoklning tragediyalari hech qachon unutilmaydi”, – deb yozgan edi Ovidiy.

Shoirning “Ishqiy elegiyalar” (“Amores”) to‘plami 3 qismdan iborat bo‘lib, Korinna ismli ma’shuqasiga bag‘ishlangan. “Qahramon ayollar” – mashhur afsonaviy ayollarning(masalan, Penelopanning Odisseyga, Fedra – Ippolit, Lidiya – Yason, Britida – Axill, Dido – Eney) o‘z oshiqlariga yozgan nomalari to‘plami. Didaktik xarakterdagi “Sevgi san’ati” poemasi garchi didaktik doston qabilida yozilgan bo‘lsada, aslida sevgini madh etuvchi asardir. Doston uch

qismdan iborat bo'lib, I va II qismlarda ma'shuqalarni qayerlardan axtarish va qay tartibda ularning iltifotlarini qozonish haqida erkaklarga maslahatlar berilsa, III qismda ayollarga maslahatlar beriladi. Bundan tashqari Ovidiyning "Fasta"("Oynoma"), "Ishqning davosi", "Yuz uchun vositalar", "Pontdan maktublar", ("Qora dengizdan maktublar") kabi asarlari ham ma'lum.

"Metamorfozalar" epik dostoni Ovidiy ijodining cho'qqisi, Rim adabiyotining ulug' yodgorliklaridan. Yirik-yirik 15 bobdan, gekzometr vaznidagi 12 ming misradan iborat salmoqdor bu dostonda Yunon va Rim mifologiyalarida benihoya ko'p uchraydigan afsonaviy evrilishlar – ma'bud va ma'budalarning, suv va o'rmon parilarining, ayniqsa, odamlarning jonivorlarga, o'simliklarga, tosh va tog'larga, hatto yulduzlarga aylanib qolishlari haqidagi rivoyatlar hikoya qilinadi. Dostonning ichiga ana shunday rivoyatlardan qariyb 250 tasi kirgan.

Oxiri evrilish bilan tamomlangan afsonalarni qalamga olgan shoirlarni Yunon va Rim adabiyotlarida, ayniqsa ellinizm davri poeziyasida ko'plab uchratish mumkin. Biroq ularning birontasi shu mavzudagi rivoyatlarga Ovidiy singari nafis badiiy sayqal berib, ularning har birini uzviy suratda bir-biri bilan bog'lab, "Metamorfozalar" singari go'zal va yaxlit epik doston yarata olgan emas.

"Metamorfozalar" asarida benihoya ko'p va turli-tuman shaxslarni – ma'bud va ma'budalarni, titan va parizodlarni, podshoh va bahodirlarni, arbob va sarkardalarni, san'atkor va shoirlarni, oddiy odamlarni uchratamiz; ravish-raftori bir-biriga to'g'ri kelmagan mahzun va masrurlarga, mo'min va mag'rurlarga, telba va donolarga, fosiq va foruqlarga duch kelamiz; qanchadan-qancha insoniy ehtiroslar, sevgi va g'azab, sadoqat va xiyonat, rashk va himmat, pastkashlik va olijanoblik, ta'ma va himmat, ochko'zlik va saxiylilik, mardlik va qo'rqqoqlik, adolat va qallobliklarning shohidi bo'lamiz. Shoir shu qahramonlarning har birini, xususan, ularning ruhiy holatlarini alohida-alohida mushohada etib, qalblariga chuqur ko'z tashlab, ruhiyatlarini ajoyib iste'dod va poetik mahorat bilan tasvirlaydi, yorqin bo'yoqlarda qiyofalarini chizadi.

Bayonotning erkin va ixchamligi, tilning ravshanligi, majoziy vositalarning ajib husnkorligi, she'riy vaznlarning ravon, o'ynoqi va rango-rangligi "Metamorfozalar" dostonini antik dunyo adabiyoti-ning eng jozibador badiiy yodgorliklari darajasiga ko'targan.

Seneka (taxm. m.av. 4 – milodiy 65-yy) Lutsiy Anney Seneka I asrda yashab ijod qilgan Rim faylasufi, yozuvchisi, taniqli davlat arbobi. Ispaniyalik taniqli tarixchi Senekaning farzandi bo'lgan Lutsiy siyosatga erta kirib kelgan. Saroy fitnalarida ishtirok etganligi uchun sakkiz yilga Korsika oroliga surgun qilingan. Orolidan qaytarilgach, bo'lajak imperator Neronga murabbiy etib tayinlangan. Neron taxtga o'tirgandan so'ng(54 y.) juda katta nufuzga ega bo'ldi, davlatni boshqarishda bevosita ishtirok etdi, dunyo-dunyo boylik orttirdi. Imperatorga qarshi uyushtirilgan fitnada qatnashganlikda ayblanadi va shogirdi bo'lgan Neronning buyrug'iga binoan o'zini o'ldiradi.

U o'z dunyoqarashi bilan stoiklar oqimining yirik namoyandalaridan hisoblanadi. Stoitsizm miloddan avvalgi IV asrda Yunonistonda paydo bo'lgan va keyinchalik Rimda taraqqiy etgan buyuk ta'limotlardan. Uning vakillari xudojo'ylik, kamtarlik, taqdirga bo'ysunish, erkinlik va tenglik, o'tkinchi dunyo lazzatlariga hirs qo'ymaslik, komillikka intilish kabi g'oyalarni ilgari surishgan. Senekaning falsafiy, axloq-odob mavzuida yaratilgan "Muruvvat haqida", "Baxtli hayot haqida", "Lutsiyga axloq haqida nomalar" kabi dunyoga mashhur risolalari hamda "Aqldan ozgan Gerkules", "Troyalik ayollar", "Medeya", "Fedra", "Edip", "Agamemnon", "Fiest", "Gerkules Etada", "Finikiyalik ayollar" va "Oktaviya" kabi o'nta tragediyasi saqlanib qolgan.

Shoirning deyarli barcha tragediyalari uning falsafiy dunyoqarashlari, ma'naviy va axloqiy e'tiqodlariga asoslangan bo'lib, stoiklar falsafasi tarannum etiladi.

Seneka dramaturgiyasining xususiyatlari "Medeya" tragediyasida aniq-ravshan namoyon bo'ladi. Asar buyuk yunon tragediyanavisi Yevripidning "Medeya"siga taqlidan yozilgan bo'lsa-da,

ular o'rtasida katta tafovut mavjud. Yevripidning asarida Medeya o'z farzandlarini sevgan mehribon ona, vafodor rafiqqa sifatida tasvirlanadi. Medeyaning ruhiy iztiroblari shu qadar teran va chuqur tavsif qilinadiki, tomoshabin va o'quvchida achinish va xayrixohlik uyg'otadi. Senekaning tragediyasi qahramoni esa, bemehr, qahri qattiq ona, o'ziga qarshi bo'lgan har qanday narsani yanchib tashlashga qodir, insoniylik qiyofasini yo'qotgan yovuz jodugar. Asarda o'z ifodasini topgan g'oya – dunyoning bevafoqligini uqtirish, ehtiroslariga berilishning ayanchli oqibatlarini ko'rsatish va har qanday hirsni jilovlab turish zarurligini targ'ib etish, qahramonning qilmishlarini qattiq qoralashdan iborat.

Seneka axloqiy-falsafiy mavzularda bir qator risolalar yozgan. U ko'plab ma'naviy bilimlardan, kundalik hayotiy jarayonlardan naf keltirishi mumkin bo'lgan ta'limotlarni ajratib olgan. Senekaning fikricha, falsafa – dilning malhamidir. Uning yozishicha, donishmandlar ana shu malham bilan o'z ruhlarini davolaydilar, o'zgalarning qalbida ham himmat, muruvvat, qadr-qimmat, sadoqat, iroda, matonat hislarini tarbiyalaydilar. Stoitsizm ta'limotining tarafdori sifatida u ushbu ta'limot qoidalariga amal qilgan holda, chinakam baxtni moddiy boylikda emas, balki ruhiy osoyishtalikni izlashda, deb hisoblagan.

Senekaning asarlari Ovrupada o'rta asrlar va Uyg'onish davridan boshlab keng yoyildi va shuhrat qozondi. Uning tragediyalari Uyg'onish davri yozuvchilariga, ayniqsa fransuz klassitsizmi vakillariga katta ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, Kornel, Rasin kabi fransuz tragediyanavislarining asarlarida bu o'zining yorqin ifodasini topdi.

Xullas, Rim adabiyoti yunon adabiyoti erishgan barcha yutuqlardan va shu bilan birga, ellinizm davri adabiyotining bu xazinaga qo'shgan qator yangiliklaridan to'la-to'kis foydalanib, ham shakl, ham mazmun jihatidan yana bir daraja yuqori bosqichga ko'tariladi va keyinchalik, yangi dunyo Ovrupa adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan qudratli bir adabiyotga aylanadi. Darhaqiqat, Uyg'onish davrining qalam ahlilari, XVII asr yozuvchilari o'z

faoliyatlarida yolg'iz Rim adabiyoti namunalariga taqlid etadilar. Faqat XVIII asrga kelib gumanistlar (Lessing, Gyote, Shiller) bevosita yunon adabiyotiga murojaat qila boshlaydilar. Binobarin, qariyb besh asr davomida Ovrupa xalqlari badiiy ijodining shakllanishida asosiy rol ni yunon adabiyoti emas, balki Rim adabiyoti o'ynaydi.

Rim adabiyoti namoyandalarining asarlaridan namunalar o'zbek tiliga ham tarjima qilingan. Bu borada Oybek, E.Vohidov, M.Ali, S.Xo'jayev tomonidan qilingan tarjimalar ahamiyatlidir.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Qadimgi Rim davri adabiyotining asosiy taraqqiyot bosqichlari.
2. Liviy Andronikning Rim adabiyoti rivojidagi o'rni.
3. Sitseronning notiqlik faoliyati.
4. Oktavian Avgust davri adabiyotining o'ziga xosliklari.
5. Stoiklar falsafasi va Seneka ijodi.
6. Rim adabiyotining jahon adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni.

Adabiyotlar

1. A History of Ancient Rome. Mary Beard. 2015. Liveright. P.608
2. Алимухамедов А. Антик адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1980.
3. Тронский И.М. История античной литературы. – М.:Высшая школа, 1988
4. Qosimov A. Xo'jayev S. Jahon adabiyoti: Antik davrdan XVII asrgacha. – Farg'ona, 2016.
5. Болтабоев Х., Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 1-жилд: Қадимги давр. – Т.: Мумтоз сўз, 2012.
6. Антик адабиётдан хрестоматия. Рим адабиёти / Ойбек МАТ, XV том. – Т.: Фан, 1980.
7. Сенека. “Нома I”, “НомаII”, “Нома VII”, // Jahon adabiyoti, 2005. №11.
8. Сенека. “Нома XXXXI” // “Jahon adabiyoti”, 2006. №7.
9. Кай Валерий Катулл. “Лесбияга”, “Чумчуқнинг ўлимига” // Jahon adabiyoti, 2013. №1.

O'RTA ASRLAR G'ARB ADABIYOTI

REJA

1. O'rta asrlar adabiyotining asosiy xususiyatlari.
2. G'arbiy Ovrupa qahramonlik eposi.
3. XII-XIII asrlarda ritsarlik-kurtuaz adabiyoti.
4. Shahar adabiyoti.
5. Fransua Viyon ijodi.

Tayanch so'z va iboralar: Lotin tili, qahramonlik eposi, kelt eposi, saga, Beovulf dostoni, Sid haqida qo'shiq, Roland haqida qo'shiq, diniy mavzudagi dramalar, ritsar-kurtuaz adabiyoti, ritsarlik romanlari, shahar adabiyoti, fablio, "Tulki haqida roman", Fransua Viyon.

Ovrupa o'rta asrlar davri deyarli ming yillikni qamrab olgan bo'lib, V – XIV asrlarni o'z ichiga oladi. Rim imperiyasining qulashidan Uyg'onish davrigacha davom etadigan o'rta asrlar adabiyoti ilk (V – X asrlar) va so'nggi (XI – XIV asrlar) bosqichlarga ajratiladi.

Rim imperiyasi parchalanib ketgandan keyin, Ovrupa, Osiyo va Shimoliy Afrikaning unga qarashli bo'lgan hududlarida xalqlarning buyuk ko'chishi boshlandi. Bu jarayon urushlar, kurash, yangi davlatlarning shakllanishi bilan birga sodir bo'ldi.

Rimliklardan qabul qilingan lotin tili Ovrupaning turli mintaqalarida yashovchi turli millat vakillarini birlashtiruvchi omil bo'ldi. Ushbu tilda o'rta asr olimlari va faylasuflari o'z asarlarini yozdilar. Lotin tili ilm-fanning rasmiy tiliga aylandi. Ma'naviyat va ma'rifatning markazi cherkov hamda XII-XIII asrlarda paydo bo'lgan universitetlar bo'lib qoldi. Ularda bo'lajak olimlar, mutafakkirlar, kashfiyotchilar, ilmiy risola va tarixiy xronikalar mualliflari tahsil oldilar.

Ovrupa o'rta asrlar adabiyotining shakllanishida 3 ta omil muhim rol o'ynagan: 1) xalq ijodi; 2) antik davr adabiyoti; 3) xristianlik.

O'rta asrlarda Ovrupa mamlakatlarida milliy adabiyotlar shakllandi, bu davrda ayniqsa, ritsarlik she'riyati va romanlari, shahar adabiyoti rivojlandi. Xalq-qahramonlik eposlari o'rta asrlar adabiyotining noyob namunalari sanaladi. "Beovulf" dostoni ilk o'rta asrlarda anglosaksonlar tomonidan yaratilgan bo'lsa, feodal munosabatlari shakllangan davrda Fransiyada "Roland haqida qo'shiq", Germaniyada "Nibeluenglar haqida qo'shiq", Ispaniyada "Sid haqida qo'shiq"lar yaratildi. Bu asarlarda davr muhiti o'z ifodasini topgan bo'lib, sodir bo'lib o'tgan voqealar poetik shaklda, badiiylashtirilib berilgan. Odatda, qahramonlik eposi namunalarida real voqealar badiiy to'qima bilan uyg'unlashib ketadi.

Ovrupa va jahon adabiyotining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan adabiyotlardan biri sanaluvchi fransuz adabiyoti negizida o'rta asrlarda keng tarqalgan ko'plab asosiy janrlar va yo'nalishlar shakllandi (milliy qahramonlik eposi, trubadurlar she'riyati, ritsarlik romanlari, shahar adabiyoti janrlaridan – fablio, misteriya va b.).

O'rta asrlarda qahramonlik va qahramon shaxsi haqidagi tasavvurlar antik davrga nisbatan birmuncha o'zgardi. Agar qadimgi yunonlar qahramonlik haqidagi tasavvurlarini ma'budlar va ularning farzandlari bilan bog'lagan bo'lsalar, o'rta asr qahramonlik dostonlarida asar qahramoni qilib, o'z Vatani va qiroliga sodiq bo'lgan jasur kishi tanlanadi. Qadimgi yunon qahramoni Gerakl – Zevsning o'g'li, Axill – ma'buda Fetidaning farzandi. "Roland haqida qo'shiq" dostonining qahramoni – "aziz Fransiya" va imperator Karl uchun jasorat ko'rsatgan mard va fidokor ritsar. Qahramonlik haqidagi tushuncha ham o'zgardi: endi bu shaxsning yuksak, oliy maqsad yo'lidagi xatti-harakatlarini badiiy ifoda qilish edi.

O'rta asrlar qahramonlik eposi asarlarining mualliflari haqidagi masala hali-hanuz bahsli-munozarali bo'lib qolmoqda. Ular jamoaviy-individual ijodning natijasi bo'lib, mualliflarning nomlari bizgacha yetib kelmagan. O'rta asr qahramonlik dostonlarining aso-

sida afsonaviy-tarixiy qahramonlar va ularning faoliyati haqidagi xalq afsonalari yotadi.

G'arbiy Ovrupa qahramonlik eposi

Eposning dastlabki namunalari zamonaviy Britaniya hududida yashagan kelt qabilalari tomonidan yaratilgan. V asr boshlarida kelt (irland) qabilalari Rim imperiyasining zaiflashganidan foydalanib, mustaqillikni qo'lg'a kiritdilar. Ilk o'rta asrlarda kelt qabilalari hayoti haqidagi xalq she'riyati negizida qahramonlik eposi shakllandi. Eposlarni kuylovchilar 2 guruhga – lirik she'riyatni kuylovchi bardlar va epik she'riyat bilan shug'ullanuvchi filidlarga bo'lingan. Filidlar o'z qissalarini nasrda bayon qilganlar, keyinroq ular "saga"(qissa) nomini olgan. Sagalarning ta'sir kuchini yanada oshirish uchun filidlar she'riy parchalar kiritganlar.

Kelt eposining qahramonlik qissalari ular qiroli Konxobar va uning jiyani Kuxulinning sarguzashtlariga bag'ishlangan. Bizgacha ushbu qissalarning bir nechtasi yetib kelgan bo'lib, "Usnex o'g'illarining quvilishi", "Mak-Dato cho'chqasi haqida qissa", "Kualngendan buqa o'g'irlash", "Kuxulinning Ferdiad bilan jangi", "Kuxulinning xastaligi", "Kuxulinning o'limi" shular jumlasidan.

Qahramonlik eposi bilan bir qatorda maishiy, sarguzasht, fantastik mavzularda ham qissalar yaratildi: "Beyli haqida qissa", "Etaynga muhabbat", "Febelning o'g'li Branning suzishi".

Qadimgi kelt(irland) eposi G'arb adabiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, undagi sujet, obrazlardan keyingi davr adiblari unumli foydalandilar.

Ingliz o'rta asrlar adabiyoti. Hozirgi inglizlarning ajdodlari V asrda mamlakatga Ovrupadan ko'chib o'tgan anglo-sakslar bo'lib, qadimgi adabiy yodgorliklar Britan orollarini normannlar tomonidan zabt etilishiga qadar (1066-yil) bo'lgan muddatda yaratiladi. Ingliz tilidagi adabiyotlar (ingliz adabiyoti degan tushunchaning o'zi ham), asosan, anglosakslar nasroniylik dinini qabul qilganlaridan

keyin paydo bo'ldi. O'sha paytlarda rohiblar xalq ichida yurib qahramonlik doston (poema)larini yozib olganlar (ular ichida eng mashhuri VII asrda qog'ozga tushgan "Beovulf" asaridir). Qahramonlik dostonlaridan tashqari, ilk o'rta asrlarda adabiyotning boshqa janrlarida ham asarlar (diniy risola va traktatlar, ritsarlikning she'rlari, solnomalar) yaratila boshlandi.

XI-XII asrlarda Angliya hududini hozirgi fransuzlarning ajdodlari hisoblanmish normannlar bosib oldi. Begona til va madaniyatning suqilib kirishi tufayli yuz bergan murakkab vaziyatlar oqibatida bu davrda ingliz adabiyoti uch tilda yaratila boshlandi: diniy adabiyotlar – lotin tilida, qadimiy solnomalar, rivoyatlar, qadim o'tmish voqealari – ingliz tilida, she'r va dostonlar – fransuz tilida (ularning ko'pchilik qismi bizgacha yetib kelgan). Angliya hududi normannlar istibdodidan qutulganidan so'ng mamlakatda yagona milliy til – ingliz tili vujudga keldi (XIV asr).

"Beovulf" dostonining qo'lyozmasi X asrga doir bo'lib, u ingliz tiliga asos bo'lgan anglosakson tilida yozilgan. "Beovulf" dostoni o'rta asrlar ilk davrining bizgacha yetib kelgan eng birinchi namunasi hisoblanadi. Doston Britaniya orollariga ko'chib o'tgan majusiy angl va sakslarning rivoyatlari negizida paydo bo'ldi. Doston aynan mana shu og'zaki rivoyatlar negizida nasroniylik davrida yozib olingan va asarning muallifi ma'lum emas. "Beovulf" dostonining qo'lyozmasi Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi.

Doston qadim german rivoyatlari asosida, anglosakslar Britaniyaga ko'chib o'tguncha bo'lgan davrda yaratilgan. Asar voqealari Boltiq dengizi sohillarida bo'lib o'tadi.

Ikki qismdan iborat dostonda geatlar qabilasi jasur bahodiri Beovulfning Daniyani dahshatli dengiz maxluqi Grendeldan qutqarishdagi qahramonliklari hikoya qilinadi. Beovulf o'zining o'n to'rt ritsarlari bilan qirol Xrotga yordam berish uchun Daniyadan kelganda, Grendel ularni dengiz qo'riga tortib ketib nobud qiladi. Beovulf uning ustidan g'olib keladi va o'z vataniga qaytib ketadi. U o'z yurtida ellik yil saltanatni boshqaradi va yerlariga olovpurkar ajdaho

bostirib kirganda, uni jangda yengadi, biroq o'zi ham maxluqning zaharli tishlaridan yaranib vafot etadi.

Dostonda ertak motivlari mavjud bo'lib, unda turli maxluqlar va ajdaholar ishtirok etadi, shu bilan birga doston matnida bo'layotgan hodisalarga Xudoning aralashishi va Injildagi ismlar(Avel, Noy) uchraydi, Grendel esa Kainning avlodidan deyiladi. Bularning barchasi muallifga nasroniy dinining ta'siri katta bo'lganidan dalolat beradi.

Fransiya o'rta asrlar adabiyoti. Zamonaviy Fransiya hududida qadimda kelt xalqlari guruhiga mansub bo'lgan gall qabilalari istiqomat qilgan bo'lib, ular keyinchalik rimliklar tomonidan bosib olingan. V asrga kelib german qabilalaridan bo'lgan franklar gall yerlarini bosib olganlar va tez orada ular mahalliy xalqlarning ta'sirida assimillatsiyaga uchraganlar.

Uzoq vaqt mobaynida hozirgi Fransiya hududi Frank davlati tarkibida bo'lgan. Buyuk Karl (768–814) qirolligi davrida mamlakat har tomonlama rivojlanib qudratli davlatga aylangan. Karlning vafotidan keyin mazkur davlat parchalanib ketishi natijasida (843-yil) Reyn daryosining g'arbiy hududida Fransiya davlati shakllana boshlagan. Buyuk Karlning nabirasi “taqirbosh” laqabli Karl bu davlatning birinchi qiroli hisoblanadi.

Aynan IX asrda fransuz tili shakllana boshladi. Agar katolik cherkovining tili lotin tili bo'lsa, oddiy xalq “roman” tilida so'zlashgan. Bu tilning shakllanishiga gallar va german qabilalarining ta'siri bo'lgan bo'lsa-da, uning asosini “vulgar lotin”i tashkil etdi. Asrning boshlaridayoq (813-yil) Tur ibodatxonasidagi diniy va'zlar xalqqa tushunarli bo'lishi uchun roman tilida o'qila boshlangan edi.

Bizgacha o'rta asrlar adabiyotidan epik dostonlar, kichik hajmdagi lirik she'rlar, roman va diniy mavzudagi dramalar, latifaga yaqin turuvchi hikoya – fabliolar yetib kelgan.

Qahramonlik eposi. O'rta asrlar qahramonlik dostonlari (fr. chansons de geste) ning sujetlari real tarixiy voqealar asosiga quril-

gan bo'lib, ularni ijod qilish jarayonini ikki bosqichga ajratish mumkin: xalq ijodiyoti tarixiy voqealarga poetik ishlov bergan bo'lsa, keyinchalik u shoirlar tomonidan birlashtirilib sayqallangan.

Baxshi (jongler) ritsar va qirollarning jasoratlari, o'zaro qarama-qarshiliklar, nizolari haqidagi qo'shiqlarning muallifi va ijrochisi bo'lgan.

Fransuz epik dostonlarini shartli ravishda uch turkum(sikl)ga ajratish mumkin: 1. Qirollik turkumi. Bu turkumdagi dostonlar markazida Buyuk Karl obrazi bo'lib, u Fransiyaning ramzi sifatida tasvirlangan. 2. Goran de Monglarga bag'ishlangan dostonlarda ideal vassal tarannum etiladi. 3. Feodallar o'rtasidagi nizolarga bag'ishlangan Doon de Mayans yoki feodal turkumi.

“Roland haqida qo'shiq” dostoni XI-XIV asrlarda Fransiya paydo bo'lgan ko'plab dostonlar orasida eng mashhuri sanaladi. Mualliflarining nomi saqlanib qolmagan bu dostonlarni *truver*¹⁵lar yozishgan, ularni joglerlar arfa yoki viola musiqa asboblari jo'rligida ijro qilishgan. Aksariyat dostonlar qirol Buyuk Karl va uning safdoshlari amalga oshirgan “ulug'” ishlarga bag'ishlangan.

“Roland haqida qo'shiq” da ham Karl va uning sodiq ritsari Roland madh qilinadi. Doston 1100-yillarda yaratilgan bo'lib, unda Karlning Ispaniyaga qilgan yurishi haqida hikoya qilinadi. Bu voqealar aks ettirilgan XVIII asr solnomasi matnida qirol Karl armiyasining ar'ergardi¹⁶. Pireney tog'larida tor-mor qilinganligi, halok bo'lganlar orasida Breton chegara qo'shinlarining boshlig'i Xroulend bo'lganligi haqida xabar beriladi. Bu tarixiy voqea dostonning markaziy mavzusiga aylanadi. Biroq asarda ko'p narsalar o'zgartirilgan: yosh qirol Karlning 778-yillarda bo'lib o'tgan yurishi yetti yilgi urush sifatida, uning o'zi esa yoshi ulug' mo'ysafid qilib tasvirlanadi, ar'ergardga hujum qilgan basklar o'rnini saratsin¹⁷lar egallagan.

¹⁵ Truver(fr. trouver) – ixtiro qilmoq, topmoq.

¹⁶ Ar'ergard – qo'shinning chekinishini pana qiluvchi guruh.

¹⁷ Truver(fr. trouver) – ixtiro qilmoq, topmoq.

Dostonda franklarning Ispaniyaga yurishi bilan bog‘liq ko‘plab voqealar keltirilgan: saratsinlar bilan olib borilgan muzokaralar, Ganelonning xiyonati, Rolandning kam sonli qo‘shini bilan saratsinlarning son jihatidan yigirma barobar ko‘p qo‘shiniga qarshi Ronseval dasarida olib borgan jangi. Ronseval dasaridagi jang asarning kulminatsiyasi bo‘lib, aynan shu epizodda Rolandning jasorati, sodiq do‘sti Oliverning aql-zakovati, ularning vatan manfaatlari uchun fidokorligi namoyon bo‘ladi. Oliver o‘q tegib o‘ldi, o‘n ikkita jasur per¹⁸lar halok bo‘ldi, yaralangan arxiyepiskop Turpin yiqildi. Og‘ir yaralangan Roland jang maydonida yolg‘iz qoladi va o‘z qilichi Dyurendal, burg‘usi Olifant bilan vidolashadi.

Doston 291 she‘r bandi(bu bandlar *tirada* deyiladi)dan iborat bo‘lib, ular yagona vazn bilan birlashtirilgan. Aksariyat bandlar oxirida o‘ziga xos naqorat bo‘lgan “Aoy” xitobi yangraydi.

Ritsar-kurtuaz adabiyoti

X-XII asrlar davomida Fransiya, shuningdek, G‘arbiy Ovrupaning ko‘p mamlakatlarida feodallashish jarayoni tugallangan, feodal ishlab chiqarish usuli qaror topgan edi. Davlat tepasida qiroʻl turar va u boshqa feodallar uchun sin‘yor – syuzeri hisoblanar edi.

Qiroʻlning vassallari – katta yer egalari graf, gersog, yepiskop va boshqalar o‘z grafliklari doirasida mustaqil hukmron edilar. Ular ko‘pincha qiroʻlga ham itoat qilmas edilar. Kichikroq baronlar yirik graf va gersoglarni sin‘or deb ataganlar. Baronlarga kichikroq feodal va ritsarlar bo‘ysunganlar.

Ritsar o‘z xo‘jayiniga sodiq, uning mol-mulki va manfaatlarini himoya qiluvchi jangchi edi.

O‘rta asrlar sharoitida ritsarlik harbiy-feodal zodagonlarning o‘ziga xos muhim xususiyatlarini belgilardi. Asta-sekin unga yangi rasm-rusmlar ham paydo bo‘la boshlaydi. Endi ritsardan o‘z sin‘origa sodiq, rostgo‘y bo‘lish bilan birga, dinni himoya qilish,

¹⁸ Ar‘ergard –qo‘shinning chekinishini pana qiluvchi guruh.

zaiflarga yordam berish vazifalari ham talab etila boshladi. Dabdabali ritsar qoidalarini yaratishda XII-XIII asrlarda yuzaga kelgan ritsar adabiyoti ma'lum rol o'ynadi.

Ritsar adabiyoti o'rta asrlarda feodalizmning markazi bo'lgan Fransiya va vujudga keladi va G'arbiy Ovrupaning boshqa mamlakatlarida shakllanayotgan ritsar adabiyoti uchun namuna xizmatini o'taydi.

Avvallari saxiylik ritsarning jangovar kurashida qo'shimcha bir holat edi. XII asrda esa u ritsar adabiyotida ifodalangan qahramonning asosiy xususiyatiga aylanadi. Ritsar faqat mard bo'lishi bilan kifoyalanmasdan, shu bilan birga kurtuazcha nozik didli, ko'rkam, sezgir va xushmuomala bo'lishi kerak, degan talab ham qo'yiladi. Shuningdek, insoniy his-tuyg'ularni qadrlash, ayollarga nozik iltifot, romantik sevgi kechinmalarini madh qilish rasm bo'lib qoladi.

X asr boshlarida Janubiy Fransiyaning Provans viloyatida feodal sin'orlari dunyoviy ritsar madaniyatining ifodasi bo'lgan kurtuaz poeziyasi yuzaga keladi. Bu adabiyot saroyga xos "kurtuazcha" nafislik, odob-tavoze, xonimlarga nisbatan xushmuomalalikni talab qiladi. Ayollar kulti – ayollarni ulug'lash Provans shoirlari – trubadurlar ijodida asosiy o'rin egallaydi.

Trubadurlar lirikasining asosiy janrlari: 1) kansona – sevgi qo'shig'i bo'lib, unda muhabbat va diniy mavzu yoritiladi, bu janrdagi she'rlar nafisligi va bandlarning murakkabligi bilan ajralib turadi; 2) sirventa – asosan siyosiy xarakterdagi, qisman shaxsiy masalalar-ga bag'ishlangan munozara yo'sinidagi qo'shiqdir. Shoir unda o'z dushmaniga qarshi hujum qiladi; 3) tensona – sevgi, adabiy-falsafiy mavzularda ikki shoir o'rtasida bo'lgan she'riy dialogdan iborat; 4) alba yoki tong qo'shig'ida ritsar o'z do'stining kuzatuvi ostida tunda sevgani bilan uchrashgani borishi kuylanadi. Tong yorisha boshlashi bilan do'sti "Tong" qo'shig'ini aytadi va ritsarni ogohlantiradi; 5) pastorela – mavzusi jihatidan alba kabi alohida voqeani aks ettirgan lirik qo'shiq bo'lib, ko'pincha u suhbat-dialogdan tashkil topgan kichik pyesani eslatadi, unda ritsar bilan cho'pon qizning uchrashuvi

hamda ular o'rtasidagi munozara tasvirlanadi. Qo'shiqning kirish qismida ritsar qizni tabiat quchog'ida uchratib unga mulozamat qila boshlaydi. Qiz ritsarning so'zlariga ishonib, unga o'z ixtiyorini topshiradi, biroq ritsar uni tashlab ketadi, yoki aksincha, qiz ritsarga jiddiy zarba berib, uni haydab yuboradi; 6) motam qo'shig'i – biron-ta obro'li sinor yoki yaqin kishining vafotiga shoirning qayg'usini bayon etgan she'rdir.

Trubadurlar lirikasi XII-XIII asrlar mobaynida rivoj topdi. Uning eng gullagan davri XII asrning oxirlariga to'g'ri keladi. Shu davrda ijod etgan yirik trubadurlardan biri Bernard de Ventadorndir (tax. 1140–1195-yy.). Shoir Bertran de Born (tax. 1140–1215-yy.) ijodida siyosiy muammolar yoritiladi.

Ritsarlik lirikasida kuylangan sevgi, turmush quvonchlari kurtuaz-ritsarlik romanining ham asosiy mavzusi edi. Ritsarlik romanida muhabbat feodal axloqi tamoyillariga bo'ysunilgan tarzda ko'tarinki ruhda, fantastik bo'yoqlarda tasvirlanadi. Shuningdek, qahramonlarning ruhiy kechinmalari tasviriga ham alohida e'tibor beriladi. Ritsar xonimga bo'lgan sevgisi tufayli jangovar sarguzashtlarga otlanadi, lekin endi ritsar vatan manfaatini emas, balki o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab qahramonlik safarlariga chiqadi.

Kurtuaz-ritsarlik romani ham Fransiyada vujudga kelib, so'ngra boshqa yerlarga tarqalgan. U mavzusiga qarab 2 turkumga ajratiladi: 1) antik turkum; 2) breton turkumi. Birinchi turkumga antik manbalar asos bo'lib xizmat qilgan ("Aleksandr haqida roman", "Eney haqida roman", "Troya haqida roman"). Ikkinchi – breton turkumiga esa fantastika va ishqiy voqealarga boy bo'lgan kelt ertaklari asos bo'lib xizmat qilgan ("Artur" yoki "Dumaloq stol" romanlari, "Iven yoki yo'lbars ritsar", "Tristan va Izolda").

Shahar adabiyoti

O'rta asr shaharlarida ishlab chiqarishning o'sishi hunarmandchilikning rivojlanishiga olib keldi. XII asrdan boshlab savdo-sotiq

va hunarmandchilik markazi sifatida shaharlarning mavqeyi osha boshladi. Shaharlarning rivojlanishi barobarida feodal aloqalarga qarshi bo'lgan burjua sinfi shakllandi. Borliqqa nisbatan ideal qarashda bo'lgan ritsarlik she'riyatidan farqli ravishda, shahar adabiyoti hushyor, hozirjavob va real hayotga yaqinligi bilan ajralib turadi. Shahar adabiyoti ritsar adabiyotidagi janrlarni aynan o'zicha qabul qilmasdan, ularni qayta ishlaydi va faqat shaklini o'zgartirish bilan kifoyalanmasdan, uslubiga ham qator o'zgarishlar kiritadi. Ritsar poeziyasidagi o'ta nafislik va san'atpardoqlik xalqchil va real tasvir-lar bilan almashinadi.

Go'zal xonim uchun har qanday sarguzashtlardan qaytmaydigan va o'z nayzasini sindirishga ham tayyor turadigan ritsar o'rnini endi aql-idrokli, epchil va mehnatni qadrlaydigan qahramonlar egallay boshlaydi. Bu yangi qahramonlar zehni o'tkir va chaqqon dehqon, xushchaqchaq jonglyor, hiylakor xizmatchi va boshqalar bo'lib, ular e'tiborli guruhdan chiqqanligi bilan gerdayadigan hukmron tabaqa vakillari, xususan, ochko'z va firibgar cherkov knyazlari va monax-lar ustidan kuladilar.

Shahar adabiyotida yangi janrlar paydo bo'ldi. Ana shunday janrdan biri fablio hisoblanadi. Fablio kichik she'riy hikoya bo'lib, uning asosiy maqsadi tinglovchilarni kuldirib, ko'nglini ko'tarishdan iborat bo'lgan. Fablioning stili (uslub) mukammal bo'lmagan, ak-sariyat hollarda ularning qofiyasi sodda edi. Hikoyalarda hayot-dan olingan qiziqarli voqealar, latifalar bayon qilingan. Fablioning markazida chaqqon, abjir, aqlli qahramon turadi. Keyinchalik alo-hida fabliolar bunday qahramon atrofida birlashtirilib, yaxlit holatga keltirilgan va shu tarzda roman paydo bo'lgan. Turli e'tirozlarni bir qahramon atrofiga jipslashtirish natijasida o'rta asrlarning eng mashhur asari "Tulki haqida roman" paydo bo'lgan.

Fablio ma'lum darajada keyingi davr Ovrupa adabiyotiga ta'sir ko'rsatdi. Molyerning "Zo'raki tabib" komediyasida, Lafontenning "Ertaklari"da fablio sujeti, uslubi ko'rinadi. Germaniyada fablio-ning ta'siri ostida zamonaviy hajviy ruhdagi realistik **hikoya-shvank-**

lar yuzaga keladi. Ayniqsa, Shtrikkerning “Pop Amis” haqidagi hikoyalar turkumida fablioniing ta’siri yaqqol ko‘rinadi.

“Tulki haqida roman” shahar adabiyotining xarakterli asarlaridan biri hisoblanadi. U Ovrupa xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan tulki-ning qilmishlari to‘g‘risidagi ertaklar asosida yuzaga kelgan.

Salkam bir asr (XII asrning oxirlari-XIII asrning boshlari) mobaynidagi voqealarni qamrab olgan bu roman-epopeyaning yaratilishida ko‘p mualliflar qatnashgan. Turli hikoyalardagi qahramonlar xarakterining umumiyligi bu hikoyalarning birlashib, yagona roman sifatida shakllanishiga imkon bergan.

Shaharlarning rivojlanishi shahar tabaqalarining feodal hukmronlariga qarshi kurashini ham keskinlashtiradi. Shahar tabaqalari adabiyotdan o‘z dushmanlariga qarshi kurash quroli sifatida foydalanadilar. Masalan, “Tulki haqida roman” da epchil, dono va tadbirkor tulki Renarning qo‘pol va qonxo‘r bo‘ri Izengrim bilan olib borgan kurashlari tasvirida roman mualliflari shaharliklarning manfaatini ifodalab, hukmron feodal din ahllariga qarshi yovsiz o‘t ochadilar. Feodal olamining vakillari – vahshiy tabiatli qo‘pol kuchlar epchil tulkiga masxara bo‘ladilar. Qirol arslon Nobol, saroy voizi eshak Boduen, qirollik armiyasining jarchisi xo‘roz Shanteklar, beso‘naqay ayiq Bryon (yirik feodal), yovuz, qo‘pol va ochko‘z bo‘ri Izengrim (o‘rta darajadagi ritsar) obrazlarida feodal hukmronlarining xulq-atvorlari fosh qilinadi. Tovuq, quyon, chittak va boshqalar oddiy kishilar obrazi sifatida beriladi.

Fransuzcha “Tulki haqida roman” feodal tartiblariga qarshi o‘tkir satira edi. U Ovrupa ning ko‘p tillariga tarjima qilinadi.

Fransua Viyon (1431–1463-y. keyin) ijodi

Fransua Viyon ijodi o‘rta asrlar fransuz she’riyatini yuksak cho‘qqilarga ko‘targan va istiqboldagi muvaffaqiyatlarining darakchisi bo‘lgan deyish mumkin. Viyonning hayoti va ijodi o‘rta asr dunyoqarashi inqirozining tipik namunasi hisoblanadi. Kambag‘al

oilaning farzandi bo'lgan Fransua de Monkorbe uni tarbiyalagan uzoq qarindoshi, Parij kapellani¹⁹ Gilom Viyonning familiyasini qabul qiladi. 1453-yili o'qishni tugatib, magistr darajasini oladi. 1455-yili ruhoniylardan biri bilan janjallashib qolib, uni xanjar bilan urib o'ldiradi. Xibsga olingan Fransua o'zini himoya qilganligini isbotlay olgani uchun ozodlikka chiqariladi. Bir yildan keyin bir necha sheriklari bilan katta o'g'irlik sodir etgach, Parijdan qochadi. Parijdan ketar ekan, u hazilomuz "Kichik vasiyat" poemasini yozadi va hamtovoqlariga o'zining mayda-chuyda buyumlari va sud jarayonini vasiyat qilib qoldiradi.

Shu paytdan boshlab Viyonning 6 yil davom etgan darbadarlik hayoti boshlanadi. U 1457-yilda shahzoda Karl Orleanskiy tomonidan uyushtirilgan shoirlar ko'rigida ishtirok etadi. Shundan keyin shoir kokilyarlar²⁰ guruhiga qo'shiladi, o'g'rilar jargonini o'rganadi, hatto bu tilda balladalar ham yozadi. 1461-yili noma'lum sabablarga ko'ra Myon-syur-Laur shahri qamoqxonasiga tushadi.

1462-yili Viyon Parijga qaytadi va o'zining "Katta vasiyat" dostonini yozadi, shu yilning noyabr oyida yana qamoqxonaga tushadi, dekabr oyida Papa mahkamasining kotibiga suiqasdda ayblanib, o'lim jazosiga mahkum etiladi. Aynan shu kunlarda u mashhur "Osilganlar haqida ballada"sini yozadi. 1463-yilning 5-yanvarida o'lim jazosi bekor qilinib, 10 yilga Parijdan badarg'a qilinadi. Viyonning shundan keyingi hayoti haqida ma'lumotlar saqlanib qolmagan.

Viyonning eng asosiy adabiy merosi darbadarlikda yozilgan bir nechta she'rlarini ham o'z ichiga olgan "Katta vasiyat" dostoni hisoblanadi. Asarda shoir turli buyumlar bilan birgalikda bir necha insonlarga o'z she'rlarini ham vasiyat qiladi. Shu tarzda asar Viyonning haqiqiy "poetik vasiyati"ga aylanadi.

Shoirning ijodi Masho maktabi an'analari bilan bog'liq bo'lsa ham, undagi obrazlar tizimi, mavzu ko'lami, his-tuyg'ularning xarakteri, ya'ni uslubi va dunyoqarashi tubdan farq qiladi. Hayotning

¹⁹ Katoliklarda xonaki cherkov ruhoniysi.

²⁰ Tilanchilik, bosqinchilik bilan shug'ullangan yersiz qolgan dehqonlar, qochoq askarlar.

o'tkinchiligi, foniylilik, har qanday go'zallikning nobud bo'lishi g'oyasi shoir she'riyatining asosini tashkil qilgan.

Bir qarashda Viyon poeziyasi o'rta asrlar uchun an'anaviy bo'lib tuyulishi mumkin, u balladalar, rondo(she'rning ayrim misralari ma'lum tartibda takrorlanadigan turi), qo'shiqlar yozdi, mavzu, ohang, badiiy usullarini meros qilib oldi. Biroq ularga ko'r-ko'rona ergashmadi, balki ularni kengaytirib, mavzu ko'lamini chuqurlashtirdi, falsafiy ruh bag'ishladi. Shuning sababidan Viyon she'riyati, o'tmishdoshlari bilan qiyoslaganda, haqiqiy poetik inqilob bo'ldi.

1456-yili shoirning yumor, kinoya, hazil-mutoyibaga yo'g'rilgan "Le"(yoki "Kichik vasiyatnoma") dostoni yaratildi.

Viyonning asosiy asari – "Vasiyatnoma", keyinchalik shoirning hayotlik paytidayoq uni "Katta vasiyatnoma"(1461-y.) deb atay boshlaganlar: doston 186 she'riy band, 16 ta ballada, 3 rondodan iborat.

Viyon ijodining ta'siri XVI asrdan boshlab fransuz adabiyotida yaqqol namoyon bo'ladi. Rable, Lafonten, Molyer, T.Gote va Gyu-golar uning ijodi ta'sirida bo'lgan bo'lsalar, Bualo hamda Volter uning ijodiga yuqori baho berganlar.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Ovrupa o'rta asrlar adabiyotiga ta'sir ko'rsatgan omillarni ayting?
2. O'rta asrlar adabiyoti qanday davrlarga bo'linadi?
3. Kelt eposi qanday xususiyatlarga ega?
4. "Beovulf" dostonining asosiy xususiyatlari.
5. "Roland haqida qo'shiq" dostoni qahramonlik eposining namunasi sifatida.
6. Ovrupa xalqlari qahramonlik eposi va "Alpomish" dostoni o'rtasidagi umumiy va o'ziga xosliklar haqida ma'lumot bering.
7. Ritsarlik poeziyasining paydo bo'lish asoslari va asosiy janrlari?

8. Kurtuaz-ritsarlik romanlari qanday turkumlarga bo‘linadi?
9. Fablio – shahar adabiyotining xarakterli janri sifatida.

Adabiyotlar

1. European literature and the Latin Middle Ages. Ernst Robert Curtius 2013 Princeton University Press. P.662
2. Қаяумов О. Чет эл адабиёти. – Т. : Ўқитувчи, 1987.
3. Qosimov A. Xo‘jayev S. Jahon adabiyoti: Antik davrdan XVII asrgacha. – Farg‘ona, 2016.
4. Гюнтер де Бройн. Тристан ва Изолда. – Т. : Ўзбекистон, 1994.
5. Англия шеърляти. Халқ балладалари. «Кузғун учар кузғун томон...», «Робин Гуд Шерифни қандай меҳмон қилгани ҳақида», «Эшикни ёп, кампир!»// Jahon adabiyoti, 2014. №5.

G'ARB UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI

REJA

1. Ovrupa Uyg'onish adabiyoti asoslari,
2. Italiya Uyg'onish adabiyoti.
 - 2.1 Dante Aligeri ijodi;
 - 2.2 Petrarka ijodi;
 - 2.3 Bokachcho ijodi.
3. Fransiya adabiyoti. Rable ijodi.
4. Ispan adabiyoti. Servantes ijodi.
5. Angliya adabiyoti. V.Shekspir ijodi.

Tayanch so'z va iboralar: Renessans, gumanistlar, Antik adabiy merosi , Dante Aligeri , " Ilohiy komediya", Petrarka, Bokachcho, "Dekameron", Rable, "Gargantuya va Pantagryuel".

Ovrupa o'rta asrlar tamaddunining yakunlanishi insoniyat tarixida Uyg'onish(yoki ilm-fanda qabul qilingan, fransuz atamasi Renessans) nomini olgan ajoyib davr bilan bog'liq. Uyg'onish antik yoki o'rta asrlarga nisbatan ancha qisqa muddat davom etgan bo'lsa-da, fan va madaniyatda erishilgan ulkan yutuqlar uni alohida bir bosqich sifatida e'tirof etish imkonini beradi.

XIV asrning o'rtalarida Italiyada, XV asrning ikkinchi yarmida Fransiya, Angliya, Ispaniya, Germaniya va Niderlandiyada katta iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar yuz berdi. Ovrupaning turli mam-lakatlarida yuz bergan bu protsessni italyanlar – Kvinkvechento, fransuzlar – Renessans, nemislar – Reformatsiya, umuman olganda Uyg'onish deb ataganlar. O'rta asrlar feodalizmi sharoitida shakllana boshlagan kapitalistik munosabatlar G'arbiy Ovrupada Renessans (Uyg'onish) harakatining paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Madaniyat tarixida Renessans nomi bilan yuritiladigan ushbu harakat dastlab

Italiyada (XIV) va keyinchalik Ovrupaning boshqa mamlakatlarida ham yuzaga keladi.

Ishlab chiqarish shakllarining yangi kurtaklari—manufakturaga o'tish, buyuk geografik kashfiyotlar (Ovrupa uchun Amerikaning kashf etilishi, Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi) va dunyo miqyosida savdo-sotiqning rivojlanishi absolutizmning g'alabasi natijasida feodal tarqoqlikka chek qo'yilib, milliy davlatlarning paydo bo'lishi, buyuk dehqonlar urushi va xalq qo'zg'olonlari — bular ijtimoiy hayot va ijtimoiy tushunchada qator yangiliklar tug'diradi.

Antik madaniyat ta'sirida Italiyada san'at mislsiz darajada yuksaldi. Italiya, Fransiya, Angliya, Ispaniya va Germaniyada yangi zamon adabiyoti vujudga keldi.

Uyg'onish davri madaniyatining ahamiyati uning feodal tuzumi va cherkovga qarshi g'oyaviy kurash olib borishi bilan belgilanadi. Shaxs erkinligi va uni cherkov sirtmog'idan ozod etish hamda dunyoviy madaniyat yaratish uchun o'z bilim va kuchlarini sarf etgan bu titanlar — o'zlarini gumanistlar (lotincha — humanis, ya'ni insoniylik) deb atadilar.

Inson shaxsini ulug'lash, kishi ongini dinning sarqitlaridan tozalash, tabiat va jamiyatni inson manfaatlariga xizmat ettirish uyg'onish davrining muhim xususiyatlari hisoblanadi.

Uyg'onish davrining xususiyatlaridan yana biri antik madaniyatga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Gumanistlar o'zlarining ilg'or fikrlarini asoslash va kelajakka ishonch bilan qadam tashlash uchun antik davr ulug' siymolari ijodiga murojaat qiladilar. Ular rim va yunon adabiyoti janrlarining turli uslub shakllarigagina emas, balki ularning tarixiy manbalari, g'oyaviy mazmuniga ham diqqatlarini qaratdilar. Italyan olim va yozuvchilari, jumladan birinchi gumanist Bokachcho unutilib yuborilgan qadimgi qo'lyozmalarni qidirib topishga kirishdilar.

Uyg'onish davrining yana bir xususiyati shundaki, gumanistik adabiyotning rivoj topishi va uning realistik mazmunda bo'lganligidadir. Gumanistlar antik manbalardan tenglik va adolat

uchun kurash g'oyalariini oldilar. Antik adabiyotning bunday xususiyatlaridan ta'sirlanish F.Rablening "Gargantyua va Pantagryul", M.Servantesning "Don Kixot", V.Shekspir va Q.Marloning tragediyalarida yaqqol gavdalanadi. Xalq turmushidan olingan tematik obraz va folklor motivlari Bokachcho va M.Novarskaya ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Uyg'onish davri vakillari yangi gumanistik ideallar uchun kurashda antik meros bilan bir qatorda ikkinchi zo'r manba – xalq ijodidan ham foydalanganlar. Xalq yaratgan asarlarning mazmuni, obrazlar sistemasi, shakli, jamiyat hayotining turli tomonlarini xalq nuqtayi nazaridan baholashi bilan gumanistlarga katta ta'sir etgan. Tenglik, adolat, vijdon erkinligi g'oyalari va hayotni sevisish, dunyo lazzatlaridan foydalana olishni gumanistik yozuvchilar faqat folklordagina topadilar. Uyg'onish davrining eng buyuk gumanist yozuvchilari Bokachcho, Ramble, Servantes va Shekspir ana shu tuganmas manbadan to'la foydalanganlar.

Ovrupa mamlakatlari gumanizmi va realistik san'atining shakllanishida antik va xalq elementlari bilan bir qatorda italyan gumanizmi va adabiyoti ham katta rol o'ynagan. Uyg'onish davri avval Italiyada XVI asrda boshlangan bo'lib, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Angliya va boshqa mamlakatlarda san'at va adabiyotning rivojlanishida antik meros, xalq ijodi bilan bir qatorda italyan gumanizmi, Petrarka va Bokkachcholarining roli ham nihoyatda katta bo'lgan. Antik madaniy meros bilan qiziqish, xalq ijodidan foydalanishning o'zi ham boshqa Ovrupa mamlakatlarida italyan gumanizmi ta'siri ostida boshlangan edi.

Ovrupa Uyg'onish harakatining ilk vatani – Italiyada kapitalistik sanoatning dastlabki shakli – manufaktura yuzaga keladi. Mamlakatning bir qancha shaharlarida savdo-sotiq tez sur'atlar bilan rivojlanadi. Venetsiya va Genuya savdo bilan mashhur bo'lgan bir vaqtda Florensiya sanoat va bank ishlari bilan shuhrat qozonadi. Bu yerda jun va ipakchilik sanoati avj oladi. Ishchilar bir korxonaga birlashtiriladi va ularni ekspluatatsiya qilish kuchayadi. Binobarin,

bu davr dastlabki kapital to'plash davri edi. Italiyada shahar-respublika tartiblarining g'alaba qilishi, hunarmandchilikning va savdosotiqning tez rivojlanishi Renessans harakatining hammadan oldin shu mamlakatda yuzaga kelishiga zamin hozirladi.

Mamlakat madaniy hayotida misli ko'rilmagan yangiliklar yuz bera boshlaydi. XIII-XVI asrlar mobaynida Italiya shaharlarida 22 universitet ochiladi; ularda ilohiyot ilmi emas, balki huquqshunoslik, meditsina fanlari o'rgatiladi. Antik tarix, adabiyot va san'atni o'rganish dunyoviy fanlarning rivojiga, shubhasiz, jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zgarishlar XV-XVI asrlarda buyuk geografik kashfiyotlarni keltirib chiqaradi. Matematika, fizika, astronomiya fanlari sohasida erishilgan qator yutuqlar Uyg'onish davrida faqat gumanitar bilimlar emas, balki tibbiyot fanlarining ham rivojlanganligidan darak beradi.

Italiya Uyg'onish davri adabiyoti — dunyoni insonparvarlik nuqtaiy nazaridan talqin qilish, insonning o'zini Parvardigor yaratgan eng oliy va mahbub jonzot sifatida tasdiqlashi, odamzodning kuch-qudratiga ishonch, hurfikirlik, xurofotlarga nafrat omili sifatida dunyoga keldi. Bu davr italyan adabiyotining atoqli namoyandalari Franchesko Petrarka va Jovanni Bokachcholardir. Petrarka lotin tilini o'rta asrlarda paydo bo'lgan vulgar so'z qatlamlaridan tozalagan bo'lsa, Bokachcho nasrda adabiy tilning yaratuvchisi bo'ldi.

Italiyadagi Uyg'onish davrining eng gullab-yashnagan vaqti XVI asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Yagona italyan adabiy tili-ning shakllanish jarayoni aynan shu davrda yakunlandi.

Uyg'onish davrida italyan tasviriy san'atida ham jiddiy burilish sodir bo'ladi. Shaharlarning taraqqiy etishi natijasida arxitektura, haykaltaroshlik va rassomlik san'ati, badiiy adabiyot kamol topadi. Italyan gumanist yozuvchilari klerikal ruhdagi adabiyotdan foydalanib, diniy sujetlarni real voqelikka bog'lashga intiladilar. Yangi tematikaga murojaat etish badiiy tasvir usullarini ham o'zgartiradi. Bu hol, shubhasiz, o'rta asr adabiyotidagi allegorizmdan realizmga

qarab yo‘l ochadi. Garchi yangi zamonning birinchi shoiri Dante ijodida hali simbolistik tasvirlar mavjud bo‘lsa ham, lekin u asta-sekin kamayib boradi. Dastlabki gumanistlar – Petrarka va Bokachcho asarlarida mavhum simbolik iboralar ikkinchi o‘ringa qo‘yilib, realizm esa birinchi o‘ringa chiqariladi, voqelikni tipik ravishda, xarakterli detallar bilan aks ettirishga kirishiladi.

Italiya Uyg‘onish davri adabiyotini o‘rganish florensiyalik mashhur shoir **Dante Aligeri(1265–1321)** ijodidan boshlanadi. U ikki katta davr oralig‘ida yashab ijod qildi. Dante o‘rta asrlarning so‘nggi va shu bilan birga yangi zamonning eng avvalgi shoiri edi.

Dante XIII-XIV asrlarda Italiyaning asosiy madaniy markazi bo‘lgan Florensiyada tug‘ildi. U she‘riyatga erta kirib keldi va ijodining ilk davrida provans shoirlari ta‘sirida asarlar yaratdi. She‘riyatda fors tili hukmron bo‘lgan bir muhitda Alisher Navoiy o‘zbek tilida ijod qilganday, Dante ham o‘z ona tili – italyan tilida ijod qilgan.

Dante sevgilisi Beatrichega bag‘ishlab “Yangi hayot” she‘riy to‘plamini (1283–1292) chop ettirdi va unga 30 ta sonet(o‘n to‘rtlik) va kanson(qo‘shiq) kiritdi. Shoir to‘plamda Florensiya go‘zali Beatrice Portinarining o‘lmas she‘riy obrazini yaratdi. She‘rlar xronologik tartibda joylashtirilib, ularning mazmuni nasriy hikoyalar, falsafiy izohlar bilan sharhlangan.

Shoir to‘qqiz yoshligida ilk bora o‘zi bilan tengdosh bo‘lgan Beatricheni uchratib, yoqtirib qoladi. To‘qqiz yildan so‘ng ular yana uchrashadilar, qizning ochiq chehra bilan ta‘zim qilishi shoirni hayajonga soladi. Shu kuni u tush ko‘radi va uni birinchi sonetida tasvirlaydi. “Yangi hayot” to‘plami G‘arbiy Ovrupa adabiyotidagi birinchi avtobiografik qissa bo‘lib, unda shoir sevgan qalbnining nozik ruhiy kechinmalarini ustalik bilan tahlil qila olgan.

Dante Beatrichening vafotidan so‘ng ilmiy-falsafiy masalalar bilan shug‘ullanadi. 1305-yili u roman tilshunosligi bo‘yicha dastlabki tadqiqot hisoblanuvchi – “Xalq nutqi haqida” risolasini, 1307–1308-yillari o‘zining mashhur “Ziyorat” traktatini yaratadi.

“Illohiy komediya” – Danteni butun dunyoga ma‘lum-u-mashhur

qilgan, italyan she'riyatining buyuk durdonalaridan bo'lib, shoirning o'zi asarni "Komediya"(o'rta asrlarda qayg'u, g'am bilan boshlanuvchi, xursandchilik bilan yakunlanuvchi har qanday asar komediya deb atalgan) deb nomlagan. "Ilohiy komediya"ga kirgan dostonlar "Do'zax", "Arosat (A'rof)" va "Jannat" deb atalgan.

Dante tasvirlagan "Do'zax" (asarning birinchi qismi) yer markaziga voronka shaklida o'yib tushirilgan joy bo'lib, unda 9 pog'onali chuqurlik bor. Gunohkor jonlar shu pog'onali chuqurlarda azob chekadilar. Pastki pog'onaga tusha borgan sari jon qattiqroq azoblanadi. Muhimi shu yerdaki, Dante o'zining siyosiy muxoliflarini do'zaxga tashlaydi, ayniqsa, xristian dini ruhoniylarini qattiq qoralaydi va ularni do'zaxning so'nggi pog'onalariga joylashtiradi.

Dantening tasviricha, "A'rof" (poemaning ikkinchi qismi) yer kurrasiga qarama-qarshi joylashgan. Yer bilan uni katta okean ajratib turadi. Okean o'rtaqidagi orolda baland tog' bor. Tog' yetti pog'onali bo'lib, ulardan o'tib borayotganida aybdorning bittadan gunohi yuviladi, 7 pog'onadan ko'tarilganda 7 gunoh (mag'rurlik, ichi qoralik, g'azab, umidsizlanish, tamagirlik, mechkaylik, buzg'unchilik) yo'qoladi va u jannatga chiqadi. "Jannat" ham 9 qavatga bo'linadi, jon qancha yuqori pog'onaga ko'tarilsa, u go'yo xudoning shuncha ko'p marhamatiga muyassar bo'ladi.

Dante tabiat hodisalari tasviriga alohida ahamiyat beradi. "Do'zax" dagi qayg'uni aks ettirgan bo'yoq va zulmat "A'rof"da ochiq va moviy osmon bilan almashadi. Dante "Jannat" dagi bog'larni o'z vatanidagi yashnagan go'zal bog'lar bilan taqqoslaydi.

Dantening "Ilohiy komediya" sining kompozitsiyasi puxta ishlangan. Asar tuzilishida uchlik (poemaning uch qismdan tashkil topishi, uch yirtqich hayvon, iblisning uch yuzliligi, hatto she'rlarning tersina – uch misrali ekanligi) troitsa haqidagi xristian ideyasi simvoli sifatida ko'rinsa ham, lekin asarning yaratilishida antik adabiyot manbalari asosiy rol o'ynaydi.

"Ilohiy komediya" nafaqat Dantening, shuningdek, butun o'rta asrlar g'arb she'riyatining eng nodir asaridir. Osiyoda "Ramayana"

va "Shohnoma", "Go'ro'g'li" va "Xamsa" kabi buyuk asarlar dunyo madaniyati va she'riyatida qanday ahamiyat kasb etgan bo'lsa, "Ilohiy komediya" Ovrupa va jahon madaniyati va she'riyatida shunday ahamiyat kasb etdi.

Buyuk italyan shoiri **Franchesko Petrarka (1304 – 1374)**ning ijodi ilk Uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Uning ota-onasi Florensiyalik bo'lib, Dante kabi Oq gvellflar partiyasi tarafdorlari bo'lgan va shahardan quvg'in qilinib qolgan. Aretsso shahrida tug'ilgan Petrarka, huquqshunoslikni Italiya universitetlarida o'rgandi, biroq yurist bo'lib ishlamadi. Antik madaniyat, uning tarixiga qiziqqan bo'lajak shoir, lotin tilini mukammal o'rgandi. U o'z hayotini qadimgi davr olimlari, rimlik shoir va faylasuflarning qo'lyozmalarini tadqiq etishga bag'ishlashga qaror qildi. Kutubxonalarga kirib ishlash imkoniyatini unga ruhoniylar berar edi. Kardinal Jovanni Kolonni bilan birga Ovrupaning ko'plab mamlakatlari va shaharlarida bo'lgan Petrarka, bir necha yil Fransiyaning janubida yashadi va o'zining sevimli mashg'uloti bilan shug'ullandi. 1342-yili Rimda unga dafna daraxti yaproqlaridan shuhrat chambari taqdim etildi. Bu milliy shoirga bo'lgan yuksak ehtirom edi. 1327-yilning 6-aprelida Avinon shahrida uning hayotidagi muhim voqealardan biri sodir bo'ldi. Bu yerda u ilk bora Laura bilan uchrashdi. Go'zal xonimning qiyofasi bir umrga qalbiga muhrlandi. Shoir unga bag'ishlab ko'plab she'rlar, sonetlar bitdi. Lauraga bag'ishlangan she'rlari ikki qism: "Madonna Lauraning hayoti" va "Madonna Lauraning o'limi" dan iborat bo'lgan "Qo'shiqlar kitobi" (1358) to'plamida jamlangan.

"Afrika" epik dostoni va buyuk rimliklar hayotiga bag'ishlangan "Mashhur kishilar haqida" asari Petrarkaning qalamiga mansub. Shoir tiriklik chog'laridayoq Italiya adabiy dunyosining yetakchisiga aylandi.

Biroq Petrarka jahon adabiyoti tarixida, avvalo, sonetlar muallifi sifatida nom qozondi.

Sonet janri XIII asrda italyan she'riyatida paydo bo'ldi. Dantening Beatrichega bag'ishlangan she'rlari sonet shaklida yozilgan

bo'lsa-da, bu janrni XIV asrda Petrarka yuqori pog'onaga ko'tardi. Ovrupadagi ko'plab mamlakat shoirlari uning an'analarini davom ettirdilar.

Sonet janri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat: sonet o'n to'rt misradan iborat bo'lishi kerak. Ular to'rt bandga bo'linadi: ikkita birinchi va ikkinchi bandlar to'rt qatorli bo'lib, katrena deb ataladi, uchinchi va to'rtinchi bandlar uch qatorli tersetlardan iborat. Petrarkaning sonetlari aynan shu tarzda qurilgan:

*O, bu bol takallum, o, qarash qiyg'och,
Ko'rgummi sizni bot, eshitgummi bot?
Quyida xuniga cho'mgan Muhabbat,
Taqdiridan rozi o, bu, sumbul soch!*

*O, bu, ajib chehra, qahri boshda toj,
Zorman-u ko'rgani, cho'chirman, hayhot!
O, bu ishq choyshabi va'da qilgan tot!
Yotsam yondiradir, xohlasang-da, qoch!*

*Navozish va sehr-u jodu ko'rsatib,
Qiyo boqur ahyon-ahyonda bir-bir,
Ma'no qorishadir bor hayotimga.*

*Va shu on hasad-la olay, deb tortib –
Shu zarra haqqim bor, fortuna-taqdir,
Beomon g'animday shoshar oldimga.*

(Shukur Qurbon tarjimasi).

Italyan sonetlarida katrenalarning birinchi misra uchinchisi bilan qofiyadosh bo'lsa, ikkinchisi to'rtinchi misra bilan qofiyalanadi – *abab abab* yoki ikkinchi varianti – *abba abba*.

Tersetlarda ham misralar ikki xil ko'rinishda qofiyalanadi: I variant – *cde ded*; II variant – *cde cde*. Petrarka ko'proq ikkinchi variantdan foydalangan.

Odatda, sonet shunday quriladiki, birinchi katrenada bildirilgan fikrga ikkinchi katrenadagi mulohaza qarama-qarshi qo'yiladi; sonet mulohazalarni tugallovchi o'y-fikrlar bilan yakunlanadi.

Bokachcho (1313–1375). Jovanni Bokachcho Parijda, italiyalik badavlat savdogar va fransuz ayoli oilasida tug'ildi. Bolaligida Italiyaga olib kelingan Bokachcho oldin savdo maktabida, keyin Neopolitan universitetining huquqshunoslik fakultetida o'qiganiga qaramay, adabiyot hayotining mazmuniga aylandi. U she'rlar, poemalar, romanlar muallifi bo'lsa-da, hikoyalari bilan mashhurlikka erishdi. Bokachcho Florensiya shahrining siyosiy hayotida faol ishtirok etdi, Florensiyaning Romanedagi elchisi bo'ldi. Dantening "Ilohiy komediya"si ta'sirida "Muhabbat xayollari" poemasini yozib, boqiy baxt-saodat, huzur-halovatga erishish yo'llarini izlash haqidagi fikr-mulohazalarini bayon qiladi. Adib Petrarka kabi antik davr madaniyatini chuqur o'rgandi; "Iliada" dostonini asliyatda o'qish maqsadida qadimgi yunon tilini o'rgandi.

Qiziqarli voqealarni kiftini keltirib so'zlab berish qobiliyati bor bo'lib, o'z hikoyalari sujetini hayotning o'zidan topar, qahramonlari turli tabaqa vakillari edi. *Italyan badiiy prozasi va novella janrining asoschisi bo'lgan Bokachcho, novellada hikoya janriga oid turli xususiyatlarni: afsona va rivoyatlar, ertaklar, masallarni birlashtirdi.*

Yozuvchi novellalar to'plami bo'lgan "Dekameron"(yunoncha *dekameron* so'zi o'n kunlik ma'nosini anglatadi) asari ustida 1352–1354-yillarda ishladi. Kitobning nomi uning kompozitsion qurilishi bilan bog'liq bo'lib, u o'n qismdan iborat, har bir qismda o'ntadan novella berilgan. Ular o'nta hikoyachi – yetti erkak va uch ayol tomonidan o'n kun davomida so'zlab beriladi. Asarning kirish qismida o'nta yigit va qiz Florensiyada tarqalgan vabo epidemiyasidan qochib, shahar tashqarisidagi bog'li koshonada to'planadilar. Ular har kecha navbatma-navbat turli hikoyalarni so'zlab beradilar. Har kun uchun ma'lum mavzu tanlangan: baxtsiz muhabbat, oqilona javoblar, ayyor odamlar, bevafo xotinlar, muruvvatli va saxovatli kishilar, inson boshiga tushgan mushkul sinovlar, taqdirning bevafoqligi haqida.

Xarakteriga ko'ra novellalar turlicha bo'lib, "Dekameron"da sarguzasht novellalar (Landolfo Rufalo haqida – ikkinchi kun, to'rtinchi novella), novella-latifalar (Cheska haqida – oltinchi kun, sakkizinchi novella), psixologik novellalar (Federigo delya Alberiga – beshinchi kun, to'qqizinchi novella)ni uchratish mumkin.

Keyingi davrlarda Bokachcho novellalari sujetlariga ko'plab yozuvchilar, jumladan, Shekspir, Molyer, ispan dramaturgi Lope de Vegalar murojaat qildilar. Rus kompozitori D.Bortnyanskiy Federigo haqidagi sujet asosida "Lochin" operasini yaratdi.

Fransuz Uyg'onish adabiyoti

Fransuz Uyg'onish adabiyoti o'z rivojlanishida Italiyaga xos xususiyatlarga ega bo'lish bilan birgalikda, farqli tomonlari ham mavjud edi.

Fransuz burjuaziyasi bir qadar ortda bo'lgani sababli gumanistik harakatda faol ijtirok eta olmadi. Fransuz Uyg'onishiga Italiyaning ta'siri katta bo'ldi. Qirol Fransisk I davrida Italiya renessans madaniyati faol import qilindi. Qirol (1515–1547) Leonardo da Vinchi, Andrea del Sarto, Benvenuto Chellinilarni o'z saroyiga taklif qildi. Dante, Petrarka va Bokachcholarning asarlari tarjima qilindi.

Fransuz gumanistik harakatining atoqli arboblari biri qirol Fransisk I ning singlisi Margarita Navarrskaya (1492–1549) edi. Italian, yunon, lotin tillarini yaxshi o'zlashtirgan, ma'rifatli ayol bo'lgan Margarita ko'plab she'r va novellalar yaratgan. Uning mashhur asari "Geptameron" novellalar to'plami edi. Margarita Navarrskaya homiyligida faoliyat yuritgan to'garakda shoir Klemen Maro, yozuvchi Bonaventura Deperelar faol ishtirok etdilar.

Fransua Rable (1494–1553). "Gargantyua va Pantagryuel"ning muallifi Fransua Rable uyg'onish davridagi eng yirik fransuz yozuvchilaridan biridir.

Fransuz gumanizmining yirik namoyandasi bo'lgan yozuvchi Shinonda tavallud topgan. Yoshlik yillarida monastirda diniy bilim-

lar bilan bir qatorda qadimiy yozuvlar va huquqqa oid risolalarni o'rgandi. Ma'lum bo'lmagan sababga ko'ra, monastirdan ketib, meditsinani o'rgana boshlagan va 1532-yili Lion gospitalining shifokorlar lavozimida ishlay boshlagan. Parij yepiskopi, kardinal Jan dyu Belle, qirol Fransisk I qo'lida xizmat qilgan va 1553-yili Parijda vafot etgan.

Fransua Rable tibbiyot, huquqshunoslik, arxeologiyaga oid bir qator ilmiy asarlar muallifi. Yozuvchi sifatida "Gargantyua va Pantagryuel" romani bilan shuhrat qozondi. Romanni yozishga 1532-yili Lionda chop etilgan "Gargantyuaning buyuk va bebaho xronikasi" nomli xalq kitobi turtki bo'ldi.

Shu yili Rablening "Buyuk dev Gargantyuaning o'g'li, dipsodlar qiroli shavkatli Pantagryuelning dahshatli ishlari va qahramonliklari" kitobi yozildi.

Yozuvchi xalq kitobidagi sxemani saqlab qolib, undan ko'plab obrazlar va sujet motivlarini oldi. Shu bilan birgalikda epopeyaga Pantagryuelning do'sti va hamrohi Panurg obrazini olib kirdi.

1534-yili yozuvchi o'zining "Pantagryuelning otasi buyuk Gargantyuaning dahshatli hayoti" nomli asarini e'lon qildi. Roman epopeyaning birinchi kitobi sifatida yozilgan bo'lib, yozuvchi manbadan ba'zi motivlarini (Gargantyua va uning ota-onasi bahaybatligini, uning ulkan otda yurishini, Notr-Dam ibodatxonasidan qo'ng'iroqlarni o'g'irlashini) ishlatgan holda, asosan, o'z ijodiy fantaziyasiga tayandi. Asarda eski tarbiya usullari tanqid qilinadi va unga gumanistik pedagogika qarama-qarshi qo'yiladi. O'g'irlangan qo'ng'iroqlarni qaytarib berishni so'rab nutq so'zlagan magistr Ianotus de Bragmardoning nutqi – "sarbonnachilar"ning baland-parvoz ritorikasiga parodiyadir. Shundan so'ng Pikrokolning bosqinchilik rejalari – feodallar, qirollar va feodallar urushlari tanqid qilinadi, satira ostiga olinadi. Urush fonida jismoniy va ma'naviy sog'lomlik, hayotga ishonch ramzi sifatida ruhoni monax Jan og'a paydo bo'ladi. Roman Janning rejasi asosida barpo etilgan Telem

abbatligining ochilishi bilan yakunlanadi. Bu yerga odil va oqil, madaniyatli, ozod shaxslar to'planadilar.

"Pantagryuelning qahramonona hayoti haqidagi 3-kitob" 1546-yili paydo bo'ldi. U oldingi kitoblardan anchayin farq qiladi, chunki bu paytga kelib qirol Fransisk I ning siyosati o'zgargan edi. Reaksiya g'alaba qozondi. Erkin fikrlovchilar va kalvinistlar ta'qib ostiga olingan edilar. Kitobda Pantagryuel tomonidan zabt etilgan dipsodlar mamlakatidagi tinch, osoyishta hayot ko'rsatilgan, ya'ni unda zamonaning bosqinchilik siyosatiga antitezani ko'rish mumkin. Shundan keyin o'z mulklarida uch yillik daromadni ikki hafta ichida sarf qilib yuborgan Panurgning sarguzashtlari hikoya qilinadi. So'ngra har qanday voqealarga yakun yasaladi va asosiy o'ringa botanika, tibbiyot, huquq haqidagi suhbat va mulohazalar chiqadi. Bu suhbat va mulohazalarga Panurgning uylanish yoki uylanmaslik haqidagi ikkilanishlari sabab bo'ladi. Bu suhbatlar jarayonida Panurg aqlli gap ayta olmaydigan turli "faylasuf"lar, barcha masalalarni suyak tashlab hal qiluvchi sudya Bridua bilan uchrashadi.

1548-yili 4-kitob yozilib, to'rt yildan keyin esa uning kengaytirilgan varianti paydo bo'ldi. Romanda Panurgning Xitoyga safari haqida hikoya qilinadi. Yo'lda sayyohlar Prokuratsiya (sudbozsudlashishni yaxshi ko'ruvchi), Karemprenan (katolik ro'zadorlar), Kolbasa, Papefiglar (papaga fig ko'rsatuvchilar), Papimanlar ("papa tarafdorlari"), messer Gaster ("oshqozon") kabi orollarda bo'ladilar. Kitobda diniy fanatizmni qo'llab-quvvatlovchi, ya'ni qirol siyosati tanqid ostiga olinadi.

1564-yili, ya'ni Rablening o'limidan 10 yil keyin 5-kitob nashr etildi. Roman yozuvchi qo'lyozmalari asosida do'stlari tomonidan nashrga tayyorlangan bo'lib, unda Panurg sayohatining nihoyaga yetishi haqida hikoya qilinadi.

Rable o'z romani bilan badiiy realizmni yanada kengaytirdi va chuqurlashtirdi, fransuz tilini rivojlantirishda katta xizmat ko'rsatdi. "Gargantyua va Pantagryuel" fransuz Renessansining eng demokratik asari hisoblanadi. Adibning keyingi davr yozuvchilariga

ko'rsatgan ta'siri beqiyosdir. Molyer, Lafonten, Lesaj, Volter, Balzak, A.Frans, R.Rollan uning asarlaridan ilhomlanganlar, ijodiga murojaat qilganlar.

Ispan adabiyoti

Ispaniya Uyg'onishi (shuningdek, 1580–1640-yy. ispan qirollari qo'l ostida bo'lgan Portugaliya) o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi. XV asrning ikkinchi yarmida bu yerda kapitalistik munosabatlar shakllana boshladi, sanoat va tashqi savdo aloqalari o'sdi, feodal munosabatlar inqirozga yuz tutdi.

Ispan ma'rifatparvarligi va gumanizmining o'ziga xos tomonlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– rekonkista harakatining Ispaniyani turli viloyatlarida turli davrlarda bo'lishi oqibatida mustaqillikka erishgan ispan viloyatlarida qonunlar, urf-odatlar turlicha bo'lishiga olib keldi. Qaytarib olingan yerlarda va bu yerda barpo bo'lgan shaharlarda dehqonlar va shaharlar bir-biridan farq qiluvchi huquq va erkiqlikka ega bo'ldilar. Natijada turli viloyatlar bilan qirollik o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'ldi.

– XVI asrda Ispan sanoati keskin qisqardi. Buning asosiy sababi Amerikaning ochilishi va mamlakatga oltinning ko'plab keltirilishi bo'ldi. Ispanlar uchun o'zida ishlab chiqarishdan ko'ra chetdan tovar olib kelish qulay edi. Dehqonchilikka ham putur yetib, yer katta feodallarning qo'liga o'ta boshladi. Ko'plab dehqonlar baxt izlab yangi yerlarga keta boshladilar.

Ispan absolutizmi (ayniqsa, qirol Karl I davrida) dunyo hokimligiga intilar ekan, bunda uni harbiy kuch va katolik cherkovi qo'llab-quvvatlar edi. Lekin Ispaniya XVII asrning ikkinchi yarmida Ovrupa ning ikkinchi darajali davlatiga aylanib qoldi. Ispaniya Uyg'onishi quyidagi davrlarga bo'linadi:

– Ilk Uyg'onish davri (1475–1550-y.);

– Rivojlangan Uyg'onish davri (1550-XVII asrning boshlari).

Ispan Renessans she'riyatida lirika va epik doston turlari rivojlandi. XVI asrning 30-yillarida shoirlar Boskan va Gosilaso dela-Ve-

lar italyan poetik formalarini (kansona, elegiya, eklog, noma, sonet) ispan adabiyotiga olib kirdilar.

Servantes (1547–1616y.). Barcha zamonlar va barcha xalqlar adabiyotining eng ulugʻ asari deya eʼtirof etilgan “Don Kixot” romani-ning muallifi Migel de Servantes Saavedra Ispaniyaning Alkala de Enares shahrida tabib oilasida tugʻilgan. Universitetni tamomlagach, papaning Ispaniyadagi elchisi kardinal Akvaviva xizmatiga kiradi. Kardinalning oʻlimidan keyin Italiyadagi ispan armiyasi safiga qoʻshiladi va 1571-yili Lepanto jangida ishtirok etib, qahramonlik namunalarini koʻrsatadi, chap qoʻlidan yaralanadi. 1574-yili Ispaniyaga qaytayotib Jazoir korsar(qaroqchi)lari qoʻliga tushib qolib, 5 yil asirlikda boʻladi. Vataniga qaytgach, teatr uchun pyesalar, badavlat odamlarga bagʻishlab sheʼrlar yoza boshladi. 1597-1603-yillarda qamoqda, hayotining oxirgi 15 yili moddiy qiyinchiliklarda oʻtdi.

1605-yili “Ayyor Idalgo Lamanchlik Don Kixot” dohiyona romanining birinchi qismi chop etilgan boʻlsa, 1616-yili romanning ikkinchi qismi yozib tugatildi. Adibning “Ibratli novellalar” (1613) nomli hajviy hikoyalari, podachilar hayotidan yozilgan “Galateya” romani va “Persiles ham Sigizmunda” kabi asarlari ham dunyo oʻquvchilarining diqqat markazida turadi.

Mana toʻrt yuz yildirki, har bir zamon va har qaysi makonda “Lamanchlik Don Kixot” xilma-xil tushuntiriladi, har bir xalq, har bir kitobxon uni oʻz dunyoqarashi va saviyasiga qarab baholaydi, talqin etadi. Roman haqida minglab ilmiy kitoblar yozilgan, yuzlab taqlidiy asarlar yaratilgan, uning asosida koʻpdan-koʻp baletlar, operalar, drama va kinofilmlar, musiqiy asarlar, haykal va rangtasvir asarlari yaratilgan.

Antik klassik va Uygʻonish davri adabiyoti bilan yaqindan tani- shish, harbiy xizmat va urushlarda qatnashish, Jazoiridagi besh yillik tutqunlik hamda boshqa koʻp muhtojlik va mashaqqatlar Servantes dunyoqarashining gumanistik xarakterda shakllanishiga va uning yirik realist yozuvchi boʻlib yetishishiga taʼsir qildi. Servantesning adabiy dahosi uning «Don Kixot» asarida yorqin ifodalangan.

«Don Kixot» romanining yaratilishi ispan madaniy hayotida juda katta voqea bo‘ladi. Asarning muqaddimasida Servantes «ritsar romanlarini sidirg‘asiga fosh etish» va ularning «qulay deb turgan istehkomini ag‘darish»ni asosiy g‘oyaviy maqsad qilib qo‘yadi.«Don Kixot», garchi o‘rta asr ritsar romanlariga parodiya sifatida yaratilsa ham, lekin uning mazmuni nihoyatda keng bo‘lib, butun feodal jamiyati va uning urf-odatlariga qaqshatqich zarba bergan ochiq satiraga aylanadi. Asar yozilgan paytda ham, undan avvalgi 5–6 asr mobaynida ham Ovrupa xalqlari adabiyotida ritsarlar hayotiga bag‘ishlangan roman, dostonlarga qiziqish katta bo‘lgan. Xalq orasida ritsarlar hayotiga, jangovar qahramonliklarga, jasoratga to‘la hayotga intilish, ehtiyoj kuchli edi.

Ovrupa romantizmining yirik namoyandalari Gyugo, Bayron va boshqa yozuvchilar ham bu o‘lmas asarga yuqori baho berganlar. Servantes va uning «Don Kixot» romani haqida ko‘plab qimmatli fikrlarni bayon qilgan kishilardan biri Genrix Geyne edi. U Servantesni Shekspir, Gyote qatoriga qo‘ydi. Servantes o‘rta asr ritsar romanlariga qaqshatqich zarba beribgina qolmasdan, yangi tipdagi realistik romanchilikka asos soldi. Xalqning turmushini yaxshi bilish, gumanistik g‘oyalarni targ‘ib qilish uchun unga keng imkoniyatlar yaratdi, ijodining kamol topishiga yordam berdi. Bunday yutuqqa u asarining tanqidiy yo‘nalishi bilangina emas, uning badiiy qimmatini tufayli ham erishdi.

Angliyada Uyg‘onish adabiyoti

Angliyada gumanistik madaniyat yaratish uchun kurash XV asrda boshlangan bo‘lsa-da, Oq va Qizil gul feodal urushlari uning taraqqiyotini deyarli bir asr orqaga surdi. Gumanistik g‘oyalarning markazi avval Oksford, keyin Kembrij universitetlarida edi. Tyudorlar sulolasidan bo‘lgan Genrix VII va Genrix VIII lar davrida mutlaq hokimiyat kuchaydi. Mamlakatni qirolicha Yelizaveta (1558–1603) boshqargan yillarda Angliya iqtisodiyoti tez sur‘atlar bilan rivojlan-

gan. 1588-yili ispanlarning Buyuk Armadasini tor-mor qilgan Angliya uchun dengiz yo'llarining barchasi osonlik bilan ochila boshladi.

Ilk ingliz Uyg'onish davrining namoyandasi Tomas Mor (1478–1535) edi. Uning eng mashhur kitobi "Yangi Utopiya oroli haqida" (1516-y.) asaridir. "Utopiyada" yozuvchi o'z davridagi jamiyat haqida tanqidiy fikrlar bildirgan.

T.Mordan keyin utopiya mavzusida bir qator asarlar yaratildi. T.Kamponellaning "Quyosh shahri", F.Bekonning "Yangi Atlantida", Garingtonning "Okean", E.Kabening "Ikariyaga sayohat" asarlari shular jumlasidandir.

Genri Govard Sarri, asosan, sonet janrida ijod qildi. Petrarka sonetlaridagi Laura sujetlarining qahramoni Jeraldining o'ziga xos proobrazi bo'lib xizmat qildi. Genri Sarri ingliz adabiyotiga oq she'rni olib kirdi, "Eneida"ni ingliz tiliga tarjima qildi. Keyinchalik K.Marlo va U.Shekspir ham o'z tragediyalarida oq she'rdan foydalandilar. XVI asrda Angliyada dramaturgiya gullab yashnadi. Ingliz teatri xalq manfaatlarini ifoda qilganligi sababli, xalq orasida katta shuhrat qozondi. Asr oxiriga kelib Angliyada 20 dan ortiq teatr mavjud edi. Bu davrda Kristofer Marlo tragediya janrida samarali ijod qildi.

Uyg'onish davrida Angliyada dunyoviy mazmundagi realistik, milliy xarakterdagi boy adabiyot yaratiladi. Bu davrda antik avtorlarning turli asarlari bilan bir qatorda italyan, fransuz, ispan va nemis tillaridagi qator asarlar ingliz tiliga tarjima qilinadi.

Kristofer Marlo (1564–1593) kenterberilik etikdo'zning o'g'li bo'lib, Kembrij universitetida ta'lim olgan, lotin, grek tillari, adabiyoti va turli fanlarni astoydil o'rgangan tom ma'nodagi gumanist edi. U 1587-yili Londonga keladi va faoliyatini dramalar yaratish bilan boshlaydi. Shu yiliyoq "Sohibqiron Temur" tragediyasini yaratadi, pyesaning muvaffaqiyati nihoyatda katta bo'lganidan ikkinchi qismini ham yozadi. Birin-ketin dramaturg "Doktor Faustning fojiali tarixi", "Maltalik yahudiy", "Eduard II", "Parij qirg'ini" va "Karfagen qirolichasi Didona" tragediyalarini yaratib, ingliz dramatik san'atida burilish yasaydi. Katta talant egasi bo'lgan Marlo Yeliza-

veta tuzumi uchun xavfli edi. 1593-yili u maxfiy politsiya agentlari tomonidan o'ldiriladi. Ingliz Uyg'onish davri tragediyasining asoschisi Marlo ijodi erksevarlik va demokratiya ruhi bilan sug'orilgan edi. Uning "Sohibqiron Temur" asari Amir Temur haqidagi birinchi badiiy asar hisoblanadi. Umuman, ingliz dramasi, shu jumladan, Shekspir ham Marlodan ko'p narsani o'rgandi. Lir, Makbet, Koriolan, afinalik Timon obrazlarining prototiplari Marlo qahramonlaridir. Undan tashqari, pyesa kompozitsiyasini tuzish, voqealarni taqsimlash, tragediyalarda oq she'rni qo'llash kabi badiiy usullarni italyan adabiyotidan o'rganib, ingliz dramasi birinchi qo'llagan va shu yo'l bilan dramatik poeziyaning ta'sirchanligini oshirgan Marlo Shekspirgacha bo'lgan dramaturgiyaning yirik vakilidir.

Vilyam Shekspir (1564–1616). Vilyam Shekspir 1564-yilda Angliyaning Stretford shaharchasida qo'lqopsoz kosib Jon Shekspir oilasida dunyoga kelgan. U dastlabki ma'lumotni "Grammatika maktabi"da olib, lotin tilini o'rganadi va qadimgi Rim shoirlarining asarlarini katta qiziqish bilan o'qiydi.

1587-yili London teatriga ishga kirib, sahna xizmatchisidan rejissyorgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan. Aynan shu davrdan Shekspirning ijodiy faoliyati boshlangan. Dastlab pyesalarni qayta ishlab sahnalashtirish bilan shug'ullangan bo'lsa, keyinroq o'zi dramatik asarlar yoza boshladi va tez orada dramaturg sifatida nom qozondi. 1599-yilda Shekspir "Globus" teatriga qabul qilindi va o'zining eng sara asarlarini ushbu teatrdan sahnalashtirgan.

Shekspirning adabiy faoliyati uch davrga bo'linadi. Hammasi bo'lib u ikki poema, 154 sonet va 37 pyesa yaratdi. Shekspirning adabiy faoliyati "Venera va Adonis", "Lukretsiya" poemalari va qator sonetlar yozishdan boshlangan. Har ikki poemaning sujeti antik davr tarixi va mifologiyasidan olingan bo'lsa ham, ularda Uyg'onish davri ruhi aks etgan. "Venera va Adonis" (1593) poemasi kishining his-tuyg'ulari va tabiat manzaralari real tasvirlangan. Kitobda muhabbat va go'zallik ma'budasi Veneraning ko'rkam yigit Adonisga muhabbati aks ettiriladi. Biroq yigit Veneraning ehtirosli sevgisiga

e'tibor bermaydi. Uning istaklarini rad qiladi. Ovg'a mehr qo'ygan Adonis Veneraning ogohlantirishlariga quloq solmaydi. Natijada bir kuni ov qilib yurgan vaqtida uni yovvoyi to'ng'iz yorib halok etadi. Veneraning hayotga bo'lgan ehtirosi poemaning markaziy mavzusi-dir. Bu ma'buda tabiat ramzi hisoblanadi. Yam-yashil dalalar, go'zal o'tloqlar, qushlarning yoqimli sayrashlari Veneraning hayotbaxsh intilishlari bilan uyg'unlashib ketadi. Adonisning o'limi uning tabiatga zid xatti-harakatlarining oqibati deb qaraladi, poemada bu dunyo quvonchi o'rta asr tarkidunyochiligiga qarshi qo'yiladi.

Shekspir 1609-yilda 154 sonetdan iborat to'plamini nashr ettirdi. Uning ilk sonetlarida Italiya Uyg'onish davri poeziyasining dastlabki vakili Petrarkaning ta'siri ko'rinsa ham, lekin Shekspir ijodiy evolutsiyasi davomida bu janrning shartli belgilari doirasini yorib chiqib, sonetlarni yangi mazmun bilan boyitdi. Shekspir sonetlari zamondosh Renessans shoirlari Sidney va Spenser sonetlaridan farq qiladi. Chunki ularning lirik ijodida umumlashtiruvchi holat yo'q edi. Shekspirning lirik qahramoni o'ziga xos xususiyatlari bilan namoyon bo'luvchi takrorlanmas hayotiy obrazlardir. Shoir Uyg'onish davri kishilarining asosiy xususiyatlari – sevgi va do'stlik, ularning xushchaqchaq hayotga intilishlari, fikr va his-tuyg'ularini aks ettiradi.

“shirin so'z” deb ataganlar. To'plamning 66-sonetida lirik harorat tovushlar garmoniyasi orqali to'la ochiladi. Bir o'rinda nafrat, qiziqqonlik, ikkinchi holda vazminlik hukmron. Uning ba'zi sonetlarida dramatik va lirik holat uyg'unligi namoyon bo'ladi.

Shekspir merosini olimlar uch davrga bo'lib o'rganadilar. Birinchi davrga adibning 1591–1601-yillarda yozgan “Venera va Adonis” (1593), “Lukretsiya” poemalari (1594), 154 sonet (1609) va tarixiy xronikalari kiradi.

Dramaturgning XVI asr tarixchisi Xolenshadning “Angliya, Shotlandiya va Irlandiya xronikalari” (1377) dan olingan ma'lumotlar asosida yozilgan 10 ta dramasi tarixiy xronikalar deb atalgan turkumini tashkil etadi.

Shekspirning “Richard III” (1592), “Genrix IV” (1600), “Genrix V” (1599) tarixiy dramalari xronika janrining yuksak namunalari sanaladi Shuningdek, Shekspir bu davrda o‘zining “Tit Andronik” (1594), “Romeo va Juletta” (1595), “Yuliy Sezar” (1599) fojialarini, “Qiyiq qizning quyilishi” (1594), “Yoz oqshomidagi tush” (1599–1595), “Venetsiyalik savdogar” (1595), “Vindzorlik nozaninlar” (1597), “Yo‘q narsadan bir talay g‘avg‘o” (1598–1599), “Bu sizga yoqadimi?” (1599–1600), “O‘n ikkinchi kecha yoki turfa hangomalar” (1690) nomli komediyalarini ham yaratgan.

Adib ijodining ikkinchi davriga uning 1601–1608-yillarda yaratgan mashhur sahna asrlari kiradi. Ular “Hamlet” (1600–1601), “Otello” (1604), “Qirol Lir” (1605–1606), “Makbet” (1606), “Antoniy va Kleopatra” (1607), “Koriolan” (1608), “Afinalik Timon” (1608) fojialaridir.

Shekspir ijodining uchinchi davriga mansub asar “Perikl” (Periklus) 1608–1612-yillarda yozilgan, “Sembelin” (1609–1610), “Qish ertagi” (1610–1611), “Bo‘ron” (1611) tragikomediylari hisoblanadi.

Shekspir tragediyalarining eng mashhuri “Hamlet” tragediyasi hisoblanadi. Tragediyada tasvirlangan O‘rta asr Daniyasi shartli, ramziy ma’noga ega bo‘lib, Daniya orqali butun Angliya, qirol saroyi, ingliz aristokratiyasi tasvirlanadi. Dramaturg o‘z davri ruhini chuqur anglab yetgan va uni san’at vositalari orqali ifodalay olgan. Shekspir o‘z zamonasi oldinga surgan masalalar, voqea va xarakterlarni yuksak ijtimoiy-falsafiy umumlashtirishlar darajasiga ko‘tardi, kichik davlatda bo‘lib o‘tgan shaxsiy masala orqali Renessansning so‘nggi davrlarida Ovrupa mamlakatlarining hammasida ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy krizis, umumjahon tarixiy ahamiyatiga ega bo‘lgan ziddiyatlar, asrlar davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar almashishi jarayonini ifoda ettirgan. Albatta, tragediyaning mazmuni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bu jarayonni tasvirlamaydi, ammo personajlarning psixologiyasi, fikr-tuyg‘ulari, xatti-harakatlarida chuqur ma’no bor, pyesada ana shu ulkan o‘zgarishlarning kishilar

ongiga qanday ta'sir etayotganligi badiiy vositalar orqali aks ettirilgan. Hamlet uchun masala qirolni qatl etilishi, o'ch olishda emas, balki nima uchun shunday bo'ldi, insonning burchi, yashashning ma'nosi nimadan iborat ekanligini anglab yetishida.

Shekspir "Hamlet"i shoh asar deb tanilishining sababi unda jamiyatning eng katta muammolari – tarix, davlat, siyosat, falsafa, axloq, odob, estetika, din masalalarini qamrab, bularning hammasini san'at tili bilan insonning ruhiy kechinmalari orqali berilishidir.

Dunyo adabiyoti tarixida hali hech qaysi asar haqida shunchalik ko'p va shunchalik qarama-qarshi tadqiqot yaratilgan emas (1877–1935-yillar orasida ikki mingdan ortiq kitob va maqolalar yozilgan).

Shekspir asarlari XX asrning 30–40-yillaridan boshlab, taniqli o'zbek adiblari tomonidan ona tilimizga tarjima qilina boshlangan. Ayniqsa, uning asarlari G.G'ulom, M.Shayxzoda, Uyg'un, B.Boyqobilov, J.Kamol tomonidan mahorat bilan o'zbek tiliga o'girilgan.

Demak, Uyg'onish davrida Ovrupa madaniyati, ilm-fani, san'ati beqiyos darajada rivojlandi va yuksaldi. Antik merosni o'zlashtirgan Uyg'onish davri vakillari poetik prinsplarni shakllana boshlagan milliy adabiyotlar nuqtai nazaridan idrok qildilar. Adabiyot va jamiyat munosabatlari, so'z san'atining ijtimoiy hayotdagi o'rni va vazifalari yangicha talqin qilinib, nasroniy cherkovining adabiyotga ta'siri susaya bordi. Aynan shu davrda "Adabiy til" tushunchasi paydo bo'ldi va uning umumxalq tili bilan munosabati masalasiga oydinlik kiritildi, badiiy ijodning individual tabiati, san'atkorning ijodiy erkinligi e'tirof etildi, poeziya mavjudligining asosi sifatida inson – ijodkor markazga qo'yildi. Natijada jahon adabiyoti tarixida muhim bosqich sanalgan Uyg'onish adabiyoti keyingi davrlar adabiyotiga ijobiy ta'sirini o'tkazdi.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Uyg'onish davri tushunchasi. Sharq va G'arb Uyg'onishidagi o'ziga xosliklar?
2. Italiya uyg'onish adabiyotining asosiy bosqichlari?
3. Dante Aligerining Uyg'onish adabiyotida tutgan o'rni?
4. "Dekameron" asari g'arb novellachiligi taraqqiyotidagi ahamiyati.
5. Petrarka she'riyatning qaysi janrini rivojlantirdi?
6. F.Rable "Gargantuya va Pantagryuel" romanida qanday muammolarni ko'tarib chiqdi?
7. Ispaniya ilk Uyg'onish davrida she'riyatining qaysi turi rivojlandi? Servantesning «insoniyat tarixidagi eng buyuk asari».
8. Kristofer Marlo o'zining qaysi asari bilan sohibqiron Temur timsoliga murojaat qilgan?
9. «Shekspir masalasi» deganda nima tushuniladi?
10. Shekspir ijodining asosiy davrlari haqida ma'lumot bering.
11. Shekspir sonetlarining asosiy xususiyatlari.

Adabiyotlar

1. The Renaissance. Walter Pater. 2000. The Modern library. P.249
2. Қажомов О. Чет эл адабиёти. – Т.: Ўқитувчи, 1987.
- 3: Qosimov A. Xo'jayev S. Jahon adabiyoti: Antik davrdan XVII asrgacha. – Farg'ona, 2016.
4. Сулаймонова Ф. Шекспир Ўзбекистонда. – Т.: Фан, 1978.
5. Шекспир. Танланган асарлар. Беш жилдлик. 1-жилд. – Т., 2008.
6. Шекспир. Сайланма. 3-жилд. – Т., 2008.
7. Ф.Рабле. Гаргантюа ва Пантагрюел. – Т.: "Ёш гвардия", 1970.
8. Шекспир сонетлари. // Jahon adabiyoti, 2013. № 8.
9. Шекспир. "Ҳамлет". // Jahon adabiyoti, 2013. № 10.
10. Дунёнинг буюк романлари. Мигел де Сервантеснинг "Дон Кихот" романи ҳақида // Jahon adabiyoti, 2016. № 3.

KLASSITSIZM ADABIYOTI

REJA:

1. XVII asr – Ovrupa madaniy hayotidagi muhim davr.
2. Fransuz adabiyoti:
 - a) Kornel ijodi;
 - b) Molyer ijodi.

Tayanch iboralar: Mutlaq hokimiyat, klassitsizm, Uch birlik qonuni; Barokko; Pyer Kornel; «Sid» tragediyasi; Molyer – komediyani; «Tartyuf».

XVII asr Ovrupa tarixidagi murakkab, ziddiyatli va shu bilan birga muhim davr hisoblanadi. Bu davr “o‘tish davri” deb ham ataladi. Feodalizmdan kapitalizmga o‘tish amalga oshirilganligi bois yangi burjuaziya munosabatlari shakllandi. Bular o‘z davri uchun progressiv ahamiyatga ega edi. Lekin burjuaziya munosabatlari ekspluatatsiyaning yangi shakllarini olib keldi.

Gollandiya va Angliya Ovrupa davlatlari orasida iqtisodiy rivojlanish borasida oldinga chiqib oldi. Bu davlatlarda kapitalizm tez sur‘atlar bilan rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ispaniya va Portugaliyaning avvalgi iqtisodiy qudratiga putur yetdi.

Davlatlardagi progressiv tarixiy rivojlanish hech qanday to‘siqlarsiz amalga oshirildi, deb bo‘lmaydi. Feodal-katolik tartibi G‘arbiy Ovrupa xalqlari hayotiga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Bu davrda cherkov tomonidan ko‘rsatiladigan qarshilik kontrreformatsiya deb ataladi.

XVII asrda Ovrupa ilm-fani katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Odamlar ongiga katta ta‘sir ko‘rsatgan fan yutuqlaridan – Galiley, Kampanella va Kaplerlar tomonidan Olam tuzilishining galeotsentrik tizimini ishlab chiqarilishini ko‘rsatish mumkin.

XVII asrda falsafa fanida yanada oldinga siljish ko‘zga tashlanadi. Bekon («Inson insonga dushman»), Spinoza, Dekart («Men fikr qilyapman, demak, mavjudman») va boshqa faylasuflar faoliyati shu davrga to‘g‘ri keladi.

Shu bilan birga cherkovning ta’siri hali kuchli edi.

Davrining ilg‘or vakillaridan bir qanchasi inkvizitsiya qurboni bo‘ldilar. 1619-yil faylasuf Vaninini o‘tda yondirdilar. 1662-yili fransuz shoiri Klod Le Pti qatl etildi. Kampanella o‘z hayotining 33 yilini qamoqda o‘tkazdi.

Hayotning murakkablik va qarama-qarshilikka to‘laligi bu davr adabiyotining ham ziddiyatli rivojlanishiga olib keladi. XVII asrda Ovrupada renessans realizmi, barokko klassitsizm va shu singari uch asosiy adabiy yo‘nalish baravariga rivojlandi.

Bu davrda Renessans realizmiga xos bo‘lgan hislatlar yangi, yuksak darajada davom ettirildi (Lope de Vega ijodi).

Barokko o‘rta asr madaniyati tushkunligi natijasida kelib chiqqan, absolutizm kuchayib borayotgan davrda feodal-katolik reaksiyasi ta’sirini aks ettirgan adabiy yo‘nalishidir. Barokkochilar realistlardan farqli o‘laroq, atrof-muhit bilan uyg‘unlik bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Inson sir va jumboqlarga to‘la dunyoda yashaydi, tabiatning dahshatli va shafqatsiz kuchlari oldida inson zaif va ayanchli jonzo, deb qaraladi.

Barokkochilarda tasvir nozik va bejirim tusga kiradi. O‘quvchini hayratga solish maqsadida g‘aroyib metafora, taqqoslashlarga keng o‘rin berilgan. Uning yorqin ifodachisi dramaturg Kalderondir.

Barokko adabiyotida diniy g‘oyalar asosiy o‘rinni egallaydi. Mutaxassislar klassitsizmning paydo bo‘lishini 1515-yil – italyan yozuvchisi Trissinoning “Sofonisba” tragediyasi yaratilishidan boshlab belgilashadi. Trissino bu asarni antik tragediya namunalariga tayanagan holda, sujet voqealarini antik Rim tarixchisi Tit Liviy asarlaridan olib, Arastu “Poetika” sida qo‘yilgan talablarga rioya qilgan holda yaratgan edi. Xuddi shu narsa, antik adabiyotni etalon deb bilish, undagi obrazlar va poetik shakllardan foydalanib va antik davrda

ishlab chiqilgan qoidalarga amal qilgan holda ijod qilish talabi klassitsizmning asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi.²¹

Lyudovik XIV (1643–1715) zamonasida absolutizm mustahkamlanadi. Anarxiyaga chek qo'yish, juz'iy narsalarni umumiylikka bo'ysundirish absolutizm himoyachilari ilgari surgan muhim masalalardandir. Siyosatdagi singari adabiyotda ham qatiqqo'llik bilan ish tutiladi. Barcha ijodiy jarayonlar ma'lum qoidaga itoat ettiriladi.

Klassitsizm yozuvchilari absolut hokimiyat mamlakat milliy birligi manfaatlariga mos keladi, deb uni mustahkamlash g'oyasini qo'llaydilar. Ular qirollik siyosati bilan hisoblashishga majbur bo'lganliklaridan qisman saroyga bog'liq ham edilar. Lekin bulardan qat'i nazar, ular ijodida davlat manfaatlarini ko'zlash hamma vaqt birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun klassitsizm nazariyachilari va yozuvchilari mamlakat xalqi ruhini aks ettiruvchi adabiyot yaratishga intiladilar. Bu badiiy ijodning shakllanishida davrning ilg'or ratsionalistik falsafasi, xususan, Dekartning "haqiqatini anglash uchun yagona mezon aql-idrokdir", degan qarashlari katta ta'sir ko'rsatadi. Shunga binoan, ular idrokni san'atga ham to'g'ri yo'l belgilab beruvchi birdan-bir mezon deb hisoblab, uni his-tuyg'uga qarshi qo'yadilar.

Fransiyada klassitsizm adabiy yo'nalish sifatida to'la qaror topib, adabiy jarayonda yetakchi mavqe egallagan bo'lib, fransuz klassitsizmi Ovrupadagi boshqa xalqlar adabiyotlariga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Fransiyada klassitsizm madaniyatining gullab-yashnashiga asos bo'lgan qator omillar mavjud edi. Klassitsizm davlat va millat manfaatlariga to'la mos edi. Mazkur sharoitda klassitsizm hukumat tan olgan rasmiy va chin ma'noda yetakchi badiiy metod bo'lib qoldi. Fransuz klassitsizmining gullab-yashnashiga asos bo'lgan yana bir muhim omil Dekart ta'limoti bo'lib, u XVII asr fransuz falsafiy tafakkurining cho'qqisi hisoblanadi. Dekart falsafada ratsionalizm oqimining asoschisi, unga ko'ra, haqiqatning

²¹ Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. -B.136.

bosh mezon va manbai ongdir. Ya'ni Dekart haqiqat manbai borliqda yoki tajribada emas, balki tafakkur qurilmalarida deb biladi. Shundan kelib chiqqan holda klassitsizmning asosiy tamoyillari belgilanadi. Ularga ko'ra, san'at aql tomonidan qat'iy tartibga solinishi kerak, badiiy asar aqlga muvofiq va aniq tahlilga imkon beradigan tarzda qurilishi lozim, san'at asarining kuchi tafakkur qudrati va mantig'i bilan belgilanadi.

Olamga xos muayyan qonuniyat asosidagi tartibot san'atda ham bo'lishi lozim deb bilgan klassitsizm nazariyotchilari badiiy ijodda belgilangan qoidalarga og'ishmay amal qilishni talab etadi.

Klassitsizm yozuvchilari mutlaq hokimiyat mamlakat milliy birligi manfaatlariga mos keladi deb, uni mustahkamlash g'oyasini qo'llaydilar.

Ular mualliflar tabiatga taqlid qilish kerak degan prinsipni ilgari surdilar. Lekin voqelikni «qo'pol» tomonlariga emas, balki faqat go'zal tabiatga taqlid qilishga chaqiradi. Klassitsizm qahramonlar xarakteri umumiy va biryozlamadir.

Klassitsizm nazariyasi bo'yicha butun adabiy janrlar «yuksak» (tragediya, epos, qasida) va «tuban» (komediya, satira, epigrama) janrlarga bo'linadi.

«Yuksak» janrlarda davlat ishlari, qirol va hukmron tabaqa va-killarining harakatlari tantanali uslubda tasvirlanishi kerak. «Tuban» janrlarda esa uchinchi toifa vakillarining kundalik turmushi kulgili manzaralarda aks ettirilishi lozim. Klassitsist yozuvchilar asar tili-ning aniq, obrazlarning ratsional, kompozitsiyasining pishiq, uslub-ning qo'pol iboralardan holi bo'lishiga katta e'tibor beradilar. Biroq go'zallikni idrok qilishda yagona mezon sifatida iste'dodga ortiqcha baho beradilar. Qahramonlarning oldindan belgilab qo'yilgan sxema va logik qonunlarga ko'ra «yaxshi» va «yomon»ga ajratilishi nati-jasida xarakterlarning hayotiyliги chegaralab qo'yilgan.

Klassitsizm muhim o'rin egallagan drama janrida 3 birlik qonuniga rioya etish talab etiladi:

1) zamon (voqea bir kunda bo'lishi kerak) birligi;

- 2) makon (hodisalar bir joy, bir binoda bo'lishi kerak) birligi;
- 3) harakat (yagona sujet yo'li) birligi.

Klassitsizm antik adabiyotga taqlid qilish asosida kelib chiqqan yo'nalish hisoblanadi. "Gumanistlar qadimgi yunon va rim madaniyatini o'rganish va uning ilg'or g'oyalarni targ'ib etishda jiddiy ish qildilar. Biroq ularning antik san'at haqidagi nazariyalarida bir qator nuqsonlar mavjud edi. Bunga sabab o'rta asrlar adabiyotidagi milliy xususiyatlarni e'tiborga olmaslikdir. Shuning uchun klassitsizm Fransiyadan boshqa mamlakatlarda o'z rivoji uchun zamin topolmadi"²².

Klassitsist yozuvchilar Rim va yunon san'atining yuqori bosqichiga ko'tarilgan davrda yaratilgan asarlariga ergashib, o'sha davr adabiyotining namunalari va qoidalarini o'zgarmas, hamma davr uchun bir xilda xizmat qiluvchi va o'rnak bo'luvchi ijodan iborat, deb ulug'lab, ularning nazariy qarashlari va amaliy yutuqlarini qabul qildilar. Biroq mavhum g'oyalarni ideallashtirish, davrning real hayotidan uzoqlashib, xalq turmushidan ajralib qolish, janrlarni qattiq logik qonunlarga bo'ysundirish klassitsizm adabiyotini cheklab qo'ygan edi.

XVII asr fransuz adabiyoti

XVII asr fransuz adabiyotining rivoji va o'ziga xos xususiyatlari ana shu tarixiy davr sharoitlari bilan bog'liq. XVII asrda Fransiya Ovrupadagi eng qudratli mamlakat edi.

XVII asr fransuz adabiyoti va san'atida klassitsizm uslubi o'z taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga ko'tariladi. Klassitsizm feodal tarqoqligi o'rniga kelgan mustahkamlanib boruvchi va qattiq qonun asosida ish tutayotgan absolyut hokimiyatning rasmiy adabiy stili edi. Absolyutizm tartiblarini o'rnatuvchilardan Rishle adabiyotda ham qat'iy formalarga e'tibor qilish talabini qo'yadi. U yozuvchilarning adabiy qoidalarga rioya qilishlari ustidan nazorat olib borish

²² Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. -B.136.

vazifasini fransuz akademiyasiga yuklaydi. Bu akademiya tilni ham davlatga bo'ysundirishi va yagona fransuz tili lug'atini tuzib chiqishi kerak edi.

Fransiyada klassitsizmning rivojlanishiga sabab bo'lgan ikkinchi omil o'sha davrning yirik mutafakkirlari Dekart bilan Gassendi filosofiyasining ta'siri edi. Dekartning ratsionalizmi shundan iborat ediki, u haqiqatni tajribadan, moddiy dunyodan emas, balki aql-idrokdan qidirdi. Uningcha, idrok-haqiqatning yagona o'lchovi. Klassitsizm nazariyachilari aql-idrok kuchiga qattiq ishonadilar va o'z qarashlarini shunga asoslaydilar.

1715-yilgacha Ovrupa adabiyotidagi uch adabiy yo'nalishdan klassitsizm Fransiyada juda ravnaq topdi. Fransuz klassitsistlari antik adabiyot tajribasini milliy an'analar bilan uyg'unlashtira oldilar. (Boshqa davlatlarda bunday bo'lmadi).

Renessans realizmi badiiy nasr, asosan, roman janrida davom etdi. Barokko esa aristokratik adabiyotda, shuningdek, Rasin ijodining so'nggi davrida («Ataliya») aks etdi. Klassitsizm esa asosiy yo'nalish edi.

Klassitsizm nazariyotchilari aql-idrok kuchiga qattiq ishonadilar va o'z qarashlarini shunga asoslaydilar. Fransuz klassitsistining birinchi vakili shoir Malerb (1555–1628) dir. U Genrix IV davrida saroy shoiri, Reshelpe davrida Fransiya xazinaboni bo'lib xizmat qildi. O'z qasidalarida qirol hokimiyati va uning siyosatini madh etdi.

Bualo (1636–1711). Klassitsizmning yirik nazariyachisi shoir Nikolya Bualo Parijda tug'ilgan. 1673-yilda Lyudovik XIV Bualoni saroy tarixchisi qilib tayinlaydi. 1684-yilda u fransuz akademiyasiga a'zo bo'lib saylanadi.

Bualoning muhim asari «Poeziya san'ati» nomli didaktik poemasidir, shoir bu asarida klassitsizm adabiy uslubining qoidalarini asoslab berdi. Bualo Dekartning falsafiy metodini badiiy adabiyotga tatbiq etdi. Klassitsistlar estetikasi uchun xarakterli narsa aql-idrokka tayanishdir. Bualoning fikricha, aql-idrok san'atning oliy maqsadi bo'lgan go'zallikni yaratadi. Aql-idrok vositasi bilan Bualo antik jamiyatda yaratilgan, go'yo hamma davr uchun bir xil qimmatga ega

bo'lgan, lekin o'rta asrlarda yo'qolib ketgan va endi faqat yuqori guruhlariga ma'lum bo'lgan oliy badiiy didni tushunadi. Uning shahar va saroyini o'rganingiz, degan shiori shundan kelib chiqadi. Bualo saroy doirasidagi kishilar talabiga javob beradigan asar yozishga chaqiradi. U mutlaq hokimiyat g'oyalarining kuychisi edi. Shuning uchun ham hamma «tuban», «qo'pol» narsalarni rad etgan Bualo xalq va uning oddiy turmushini aks ettirgan Molyerni yoqlamaydi.

Klassitsizm adabiyotining yirik vakili dramaturg *Per Kornel (1606–1684)* Ruan shahrida sud chinovnigi oilasida tug'ildi. Iuzit maktabida o'qidi. Huquqshunoslikni o'rganib, advokat bo'lib ishladi. Ma'lum bo'lishicha, bir kuni Kornelning do'sti uni o'z sevgan qizi bilan tanishtiradi. Qiz esa Kornelni yoqtirib qoladi. Ana shu voqeaning kulgili tomoni uni komediya yozishga undaydi. Shunday qilib, «Melita» komediyasi yaratildi. Shundan so'ng «Beva», «Qirollik», «Maydon», «Sud galereyasi» komediyalari yaratiladi. Ammo Kornelga uning tragediyalari shuhrat keltiradi. 1635-yilda «Medeya» tragediyasi antik yozuvchilar Evripid va Senekaning Mediya haqidagi asarlari sujetidan olinadi. Ammo voqea asosida mifologik tarix yotsa ham, Kornel o'z zamonasi aristokratiyasini yaramasiliklarini fosh etadi.

Kornel 1636-yilda fransuzlar faxriga aylangan «Sid» tragediyasini yaratdi va Fransuz Akademiyasi tragediyani sinchiklab o'rganib chiqadi. 1639–1641-yilda u «Goratsiy», «Sinna» asarlarini yozdi. 1652-yilda ijodiy omadsizlikka uchragandan so'ng «Pertarit» tragediyasi muvaffaqiyatsizlikka yuz tutib, Kornel 7 yil ijod qilmadi. 1659-yilda «Edip» tragediyasini yozdi. 1662-yilda Parijga ko'chib kelib yozishni davom etadi, ammo uning shuhrati so'na boshlayotgan edi. Bu davrda yangi iste'dod – Rasin shon-shuhratga ega bo'layotgan edi. Kornel 1674-yilda umuman yozishni bas qiladi va 10 yildan so'ng 1684-yilda vafot etdi. Bir kuni Kornel bir necha yil bo'lmagan teatrga keladi. Uni tanib aktyorlar o'yinni to'xtatishadi. Zalda to'xtovsiz qarsaklar yangraydi. Ammo shon-shuhrat Kornelga moddiy manfaatdorlik keltirmaydi. U umrining oxirida moddiy qiyinchilikda hayot kechiradi.

Kornel tragediyalarning asosiy personajlari qirollar yoki buyuk qahramonlardir. Uning fikricha, hokimiyatga ega bo'lgan buyuk, kuchli va erkin shaxslar o'z his-tuyg'ularini namoyon etishda ham mustaqil harakat qilib, insoniy jihatlarni o'zlarida to'liq mujassamlashtira oladi. Kornel nuqtayi nazari bo'yicha, asosiy dramatik konflikt aql va tuyg'u, iroda va xohish, burch va ehtiros o'rtasida bo'lib, bunda aql, iroda va burch g'olib bo'ladi. Dramaturgning tarixiy tragediyalari ham XVII asr Fransiya mutlaq hokimiyati manfaatlari-ga xizmat qiladi.

«*Sid*» *tragediyasi* (1636). Kornelning «Sid» ini rus tiliga tarjima qilgan Kateninga Pushkin «Men seni va talabchan Kornelimni qutlayman. «Sid» ni uning eng yaxshi tragediyasi deb hisoblayman» (1822) deb yozgan edi.

Asar sujeti ispan bahodiri Rodrigo Dianis haqidagi o'rta asr qahramonlik eposi va Gilen de Kastroning «Sidning yoshligi» pyesasi-dan olingan. Ammo Kornel bu mavzuni zamonasiga yaqinlashtirib, mustaqil orginal asar yaratdi.

Sujet: Don Gomes graf Gormasning qizi Ximena bilan Don Dionning o'g'li Rodrigo bir-birini sevadi. Ota ham qizini Rodrigoga berishga tayyor. Lekin... Ikki feodal urush o'rtasida tortishuv Don Gomis Rodrigoning otasini haqorat qildi. Keksa Don Diego o'ch olish-ni o'g'liga topshiradi. Rodrigo uchun bu juda og'ir: 1. Sevgilisidan ayrilishi. 2. Oila haqorati. Rodrigo qizning otasini duelda o'ldiradi. Ximena qirol huzuriga borib, otasini qotilini jazolashni so'raydi. Ular ikkisi ham urf-odatlar, ota oldidagi burch va yoshlik tuyg'usi o'rtasida azob chekadilar. Shu vaqtda Rodrigo davlatga bostirib kelgan marvlarga qarshi kurashda zo'r qahramonliklar ko'rsatadi. Dushman tomon ham uning botirligiga qoyil qolib «Sid», ya'ni janob deb ataydi. Ximena qancha talab qilsa ham qirol hanuz qahramonni, Rodrigoni jazolashga botinolmaydi. Ximena Rodrigoni o'ldirgan odamga turmushga chiqishini aytadi. Qirol jangda kim g'olib bo'lsa, qiz o'shaniki bo'ladi deb shart qo'yadi. Qiz talabgori Sancho duelda yengiladi. Qirol maslahati bilan Rodrigo bilan Ximena topishadi.

XVII asrning birinchi yarmida Fransiyada feodal o'zboshimchaliklarni tugatish, yagona milliy davlat-mutlaq hokimiyatni mustahkamlash uchun kurash avj olgan bir vaqtda Kornel o'z ijodida feodal tartiblarning yemirilishi muqarrarligi va markazlashgan kuchli davlat barpo etish zarurligini aks ettiradi. Jumladan, "Sid" tragediyasida qonga qon degan eski urf-odat o'rniga vatan oldidagi fuqarolik burchini bajarishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Haqiqiy xalq qahramoni Rodrigo "oddiy kishilarning umidi va tayanchi" sifatida o'z vatanini dushman hujumidan saqlab qoladi.

Kornel klassitsizmning uch birlik qonuniga amal qilsa-da, unga yuzaki holda bo'ysunadi. «Sid»da vaqt birligi, makon birligi bir oz buziladi. Rodrigo Ximena bilan otasini o'limidan so'ng saroyda emas, qizning uyida uchrashadi.

Kornel qahramonlari nafaqat jang maydonida, balki o'z hislari bilan kurashda ham g'alaba qozonuvchi irodali kishilardir.

Napoleon Kornel ijodini juda qadrlagan: «Kornel hozir yashagan-da, men uni shahzodaga aylantirardim» degan edi.

Rasin (1639–1699). 1667-yilda «Andromaxa» tragediyasi sahna-ga qo'yiladi. Kornel tragediyalarining qahramonlari o'z xarakterlari – g'oyalari bilan tomoshabinni asir etgan bo'lsa, Rasin tragediyada insonlar qanday bo'lsa, shundayligicha (Kornel qanday bo'lishi haqi-da) tasvirlaydi.

Rasin 1658-yilda Parijga keladi. 1664-yilda «Fivaida» tragediyasi shuhrat keltirmaydi. 1665-yilda yozilgan «Aleksandr» tragediyasi, «Britanik» – hokimiyatni suiiste'mol qilish, despotizm asorati haqidagi tragediyalar bo'lib, ularda Rim tarixi – Neron hukmronligi davri tasvirlandi.

1677-yilda «Fedre» tragediyasi yaratildi. Asarning sujeti qadimgi yunon mifidan olingan. (Evripidda «Ipolit») 1670-yilda Kornel va Rasin bir sujetda ikki asar – «Tit va Berenika», «Berenika» tragediyalarini yaratadilar. Bu musobaqada Rasin pyesasi ustun chiqadi. «Berenika» tragediyasida Rasin shaxsiy manfaat va ijtimoiy burch bir-biriga zid kelmasligi va monarxiya tuzumining gumanizmiga zid ekanligini ko'rsatadi. Saroy intrigalari natijasida Rasinning eng

yaxshi tragediyasi – «Fedra» muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Bundan so‘ng yozuvchi dramaturgiyani tashlaydi. 12 yildan so‘ng qizlar pansionini boshlig‘i De Montenoi xonim iltimosi bilan «Esfir» tragediyasini yaratadi. 1661-yil so‘nggi asari – «Ataliya»ni yaratadi. Uning so‘nggi asari Lyudovik XIV ni g‘azablantirdi va yozuvchi hayotining so‘nggi yillari osoyishta o‘tmadi. 1699-yili vafot etadi.

«Andromaxa» (1667) pyesaning sujeti antik mifologiyadan olingan. Asarning bosh qahramoni Troya pahlavoni Gektorning xotini Andromaxadir. Uning yosh o‘g‘li (Astianaks) bilan Gektorni o‘ldirgan Axillesning o‘g‘li Pirr qo‘liga asir tushish voqealari tasvirlanadi. Pirrda Andromaxa muhabbat uyg‘otadi. Shoh Meneay va qizi Germiska Pirr Andromaxaga uylanishini eshitib, undan o‘ch olishni Orestga topshiradi. Nikoh rasmiyati o‘tkazilayotgan bir paytda Orest Pirrni o‘ldiradi. Bundan so‘ng Germiono ham o‘zini halok etadi.

Rasin qadimgi sujetni olib, unga yangi ma‘no kiritdi. Shoh, Pirr, Germiono va Orest obrazlari orqali davlat manfaatlarini unutgan, egoist hokimiyatni tanqid qildi. Burch va istak (his) orasidagi kurash tasvirlanadi. Fedra Tezeyning xotini, Ippolit uning o‘gay o‘g‘li bo‘ladi. Fedra Ipolitni sevib qoladi. Evripiddan farqli, Rasin asarga enaga obrazini kiritgan. Qahramonlarni ichki kurashini aniq ifodalaydi. Tragediyada qahramonlar sodir etadigan kichik xatolar, hatto jinoyat haqidagi o‘ylar ham o‘z jazosini oladi.

Kardinal Mazarini yaqinlari Rasin ustidan kulmoqchi bo‘lib, shoir Pradonga xuddi ana shu mavzuda pyesa yozishni talab etadi. Pradon pyesasi kuni teatr odam bilan to‘ladi. Rasinning «Fedrasi» kuni esa bo‘m-bo‘sh bo‘ladi. Rasin bundan qattiq achchiqlanib, bundan buyon pyesa yozmaslikka ahd qiladi.

12 yildan so‘ng Montenon xonimining talabiga ko‘ra (Lyudovik XIVning xotini) Pansion qizlari uchun «Esfir» pyesasini yozadi. 1690-yili Rasinning so‘nggi tragediyasi – «Ataliya» yaratiladi. Rasin ijodi davomida antik adabiyot mualliflariga murojaat etadi, ulardan o‘rganadi, zavqlanadi. U asarlarida Kornel kabi «yetuk» qahramonlarni emas, balki (ijtimoiy jihatdan ham, psixologik jihatdan ham)

o'rta tabaqa odamlarini, ularning ojiz tomonlarini aks ettiradi. Rasin umrini kambag'alchilikda o'tkazadi.

Fransuz milliy teatrining asoschisi, buyuk komediograf **Jan Baptist Molyer (1622–1673)**. Parijda savdogar oilasida tug'ildi. O'z familiyasi Pokler. Otasi Molyerni o'z ishini davom ettirishini istaydi.

1643-yil teatr guruhini yig'adi va unga «Yaltiroq teatr» deb nom qo'yadi. Guruh uzoq faoliyat olib bormaydi. Sababi mablag'ning yo'qligi, yangi pyesalar va iste'dodli aktyorlarning yetishmasligi edi. Do'stlari bilan ko'chib yuruvchi Provinsiya komendantlar guruhiga qo'shiladi va o'zi ham pyesalar yozishga kirishdi.

1655-yilda Lionda birinchi pyesalaridan biri «Telba»ni sahnaga qo'yadi.

Avvaliga mustaqil badiiy ijod haqida o'ylamagan, o'z guruhining repertuari kambag'illigi uchun qo'liga qalam olib Italiya farslarini fransuz muhitiga moslashtirgan Molyer, bora-bora original, mustaqil asarlar yarata boshlaydi. Fransiyaning buyuk komediyagrafi shunday dunyoga keladi.

1658-yilda truppa Parijda qirol oldida spektakl qo'yishadi. Truppani Parijda qolishiga ruxsat berishadi. (Pti Burbon Teatrida – haftada 3-marta). Truppa 1660-yilda Pale Royal teatridan joy oladi. Bino teatr talablariga javob bermaydi. Hatto bir asrdan so'ng ham Volter «Fransiyada yaxshi pyesalar bor, yaxshi teatr binolari esa Italiyada» – degan edi.

Molyer Parijdagi 14 yillik hayoti davomida 30 dan ortiq pyesa yozadi. U 52 yoshida, betob bo'lishiga qaramay, «Yolg'on kasal» pyesasida bosh rolni ijro etib, teatrdan vafot etadi.

Molyer fransuz xalq farsi traditsiyasi bilan Rim komediyalarining eng yaxshi namunalarini tanqidiy o'zlashtirish asosida fransuz klassik komediyasini yaratadi. U klassitsizm nazariyotchilarining tragediyani «yuqori», komediyani «tuban» janr deb ko'rsatishlariga qarshi chiqadi.

U teatrnı «jamiyat oynasi» deb ataydi. «Tartyuf» asariga yozilgan so'z boshida Molyer teatrning tarbiyaviy ahamiyatiga yuksak baho beradi. Komediyaning vazifasi kishilarni kuldirib turib, ulardagi

nuqsonlarni tuzatishdan iboratdir. Bu ikki vazifadan birining ado etilmasligi komediyaning ta'sir kuchini yo'qqa chiqaradi. Molyer komediyalarida uch birlik qonuniga hamma vaqt ham amal qilavermaydi.

1659-yilda birinchi original asari «Kulgili norzaninlar» ni yaratdi. Bunda yozuvchi o'z zamonasi ayollarini peretsioz adabiyotga juda ham mukkasidan ketganligini kulgiga oladi. Molyer «Tartyuf», «Don Juan», «Mizotrop», «Xasis», «Dvoreyanlikdagi meshchan», «Zo'raki tabib» kabi asarlari uni nomini mashhur qiladi. Uning eng mashhur asari – «Tartyuf» 1664-yilda yaratilgan. Molyer komediyalarini o'qimagan kishilarga ham Tartyuf ismi yaxshi tanish bo'lib, u ikkiyuzlamachilik timsoli sanaladi. Asar o'sha davr sharoitidan kelib chiqib, bir necha marta qayta ishlangan. Bu komediyada Molyer yuqori tabaqa vakillari ichida avj olgan riyokorlik va munofiqlik sifatlarini Tartyuf obrazi orqali ochib bergan. Asar savdogar Organning Tartyuf bilan ibodatxonada tanishuvi, uyiga olib ketishi voqealari bilan boshlanadi. Organning o'g'li Damis, Xizmatkor qiz Dorina, qizi Mariannalar bu odamni firibgar ekanligini sezishadi. Ammo otasi ularga so'z bermaydi. O'g'lini uyidan quvib, mol-mulkini Tartyufga xat qilib beradi. Asar oxirida Organ Tartyufni soxta taqvodor ekanini biladi va uyidan haydaydi, ammo bu uy unga tegishli ekanligini aytadi va Organni quvib chiqarish maqsadida sud chinovnigini aytib keladi. Biroq kutilmaganda «odil monax» buyrug'i bilan aldoqchining o'zi qamoqqa olinadi.

«Tartyuf» komediyasi klassitsizm xarakterlar komediyasining tipik namunasi bo'lib, Tartyufning ikkiyuzlamachiligi, Garponning xasisligi («Xasis») kabi mutlaq hirsdir. Yozuvchining diqqati inson xarakterini ochish emas, balki ilgaridan belgilab qo'yilgan Tartyuf xarakterining bir nuqtasini ko'rsatishga qaratilgan. Bu klassitsizm teatrining asosiy belgilaridan biri edi.

1665-yilda yaratilgan «Don Juan» komediyasi (ikki hafta ichida yozilgan) ham taqiqlanadi. Don Juan Tartyuf singari munofiq va axloqiy jihatdan buzilgan dvoryan edi.

«Don Juan» Molyerning klassitsizm qoidalari qobig'ini yorib chiqqan yirik realistik asari. Buni turmushning keng tasvirlanishida, uch birlikka rioya etmaslikda, qahramonlar xarakterining rivojlanib borishida ko'rishimiz mumkin, klassitsizm qoidasiga binoan, komediya she'riy yo'l bilan emas, balki prozada yozilishi kerak edi. Don Juan obrazining jahon adabiyotida yuzdan ortiq varianti bor.

«Dvoryanlikdagi meshchan» (1670) pyesasida Jurden obrazi orqali aristokratiya hayotiga taqlid qilib dvoryanlikka suqilib kiruvchi meshchan masxara qilinadi. U o'ziga musiqa, raqs, qilichbozlik, falsafa bo'yicha muallimlar yollaydi. Jurden aristokrat doirasidan chiqqan Dorant kabi kishilar bilan aloqa qilinayotgani uchun faxrlanadi. Dorant uchun u «sog'im sigir»ga aylanib qolgan edi. Yosh yigit Kleant Judenni qizi Lyusilni sevadi. Ammo ota yigitni dvoryan emasligi uchun qizini bermaydi. Komediya oxirida Kleant turkcha kiyinib, o'zini turk sultonining o'g'li deb tanishtiradi va Jurdenni boplab laqillatadi.

XVII asr fransuz adabiyotining yirik vakili, mashhur masalchi shoir **Jan Lafonten (1621–1695)**dir. Lafontenning adabiy faoliyati kech boshlanadi. U o'ttiz uch yoshida Terensiyning «Evnux» komediyasini qayta ishlaydi. Bu pyesa avtorning bundan so'nggi tanilishi va o'sishiga zamin yaratadi. Lafonten ijodining dastlabki davrida aristokratik pretsioz adabiyoti ta'sirida bo'ladi. Yunon mifologiyasidan foydalanib yaratgan «Adonis» (1658) dostonida Adonisning ma'buda Veneraga bo'lgan muhabbatini tasvirlaydi.

Lafonten o'z masallari bilan katta shuhrat qozondi. Masal janri mutlaq hokimiyat, shuningdek, aristokratik reaksiyaga karshi keng demokratik guruhlarining noroziligini qulay va tushunarli qilib bayon etish quroli edi. Lafontenning xalqchillik g'oyalari faqat uning masallaridagina ochiq namoyon bo'ladi. Shoir masallarining birinchi olti kitobi 1668-yilda, ikkinchi besh kitobi 1678–1679-yillarda nashr etiladi. Lafontenning masallari o'zining demokratik ruhi va satirik kuchining o'tkirligi bilan shoir ijodining cho'qqisi hisoblanadi. Ezop davridan beri masal quyi tabaqalarning manfaatlarini ifodalab kelgan edi. Shuning uchun ham klassitsizm estetikasi masalni badiiy

adabiyotning quyi turlariga kiritib keldi. Lafontenning klassitsizm estetikasining adabiy me'yorlari doirasidan chiqib, original asar yaratishdagi mahoratini «O'tinchi va o'lim» masalida yaqqol ko'rish mumkin. Lafonten antik davr masalchisi Ezopdagi bir sujetdan foydalangan. (Og'ir mehnat va turmush mashaqqatidan tinkasi qurigan o'tinchi dehqon bu dunyo bilan xayrlashmoq maqsadida o'z oldiga Azroilni chaqiradi. Azroil o'tinchidan nimani istashini so'raganda, undan qo'rqib ketgan dehqon bir bog'lam o'tinni ko'rsatib, uni yelkasiga olib qo'yishni iltimos qiladi).

Lafonten bu masalda oddiy insonning mashaqqatlarni yengish uchun zo'r ishonch bilan yashashini ochiq-oydin tasvirlaydi. Dehqonning qashshoqlanishiga sabab bo'lgan ijtimoiy illatlar, o'rab olgan muhitning yaramasligini ifodalash bu masalning asosiy g'oyasini tashkil etadi.

Yozuvchining dastlabki kitobida aristokratiyaning mag'rurligini masxara qilgan «Dub va qamish», burjuaziyaning qo'rqoqligini ko'rsatgan «Kalamushlar kengashi», saroy tekinxo'rlarini qoralagan «Pashsha bilan chumoli», adolatsiz sudni tanqid qilgan «Maymunlar sudida tulkiga qarshi shikoyat bilan chiquvchi bo'ri», masallari diqqatga sazovordir. Ijtimoiy ziddiyatlar inson tabiatida azaldan mavjud bo'lgan kamchiliklar deb ko'rsatiladi («Bo'ri bilan qo'zichoq»).

«Yirtqich hayvonlar o'lati» masalida ham yomonlik va zulm manbai-saroy, qirol va uning yordamchilari qoralanadi. Ularning hayoti zo'ravonlikka, kambag'allarni eksplutatsiya qilishga asoslangan, shuning uchun hukmdorlardan yaxshilik, shafqat kutish mumkin emas, degan xulosa masalning asosiy g'oyasini ifodalaydi.

Shoirning ikkinchi to'plamiga kirgan masallarida sotsial satira keskinlashadi. Pul hukmronligi va uning halokatli ta'sirini («Etikdo'z va ulgurji savdogar»), sudning sotqinligini («Mushuk, laycha va quyon») qirollik hukumati va din ahillarining yovuzliklarini («Arslon, bo'ri va tulki»), «Ona arslonni ko'mish marosimi», «Ruhoniy va murda») masallarida katta badiiy kuch bilan aks ettiradi.

Lafontenning dastlabki masallari tasviriga xos kinoya va kuzatuvchilik o'rnini, endi, 70-yillarning oxiriga kelib, aniq sotsial satirik

va realistik tasvir egallaydi. Hayvonlarning allegorik figurasi o'rniga inson obrazi paydo bo'ladi. («Dunaylik dehqon», «Savdogar, dvor-yan, cho'pon va shoh o'g'li»).

Lafonten antik dunyo, o'rta asrlar va Uyg'onish davri masalchilik traditsiyalarini o'rganib, ularga favqulodda realistik xarakter va satirik ruh kiritadi, bu janrni yangi badiiy yuksaklikka ko'taradi. Uning masallari soddaligi va o'z davri ijtimoiy hayotini keng qamrab olishi, mehnatkash omma manfaatlarini qizg'in himoya qilib chiqishi bilan qimmatlidir. XVII asr fransuz adabiyoti va xususan, masalchilik jan-ri-ning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Xullas, klassitsizm XVII asr G'arbiy Ovrupa madaniyatining muhim bosqichi sifatida jahon adabiyoti tarixida o'z o'rniga ega. Mazkur yo'nalish doirasida ijod qilgan yozuvchilar asarlarining ak-sariyati hozirgi kunda ham g'oyaviy mazmun va badiiy qimmatini saqlab kelmoqda.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Klassitsizmning ijtimoiy va nazariy asoslari.
2. Uch birlik qonuni nimani anglatadi?
3. Barokko oqimining asosiy belgilari haqida nimalarni bilasiz?
4. Fransiyadagi klassitsizm adabiyotining o'ziga xosligi nima-larda ko'rinadi?
5. Molyer komediyalarining mavzular doirasi.

Adabiyotlar

1. Introduction to Literature. Miller Gilbert. Williams John. 1995 The McGraw-Hill. P.1148.
2. Каюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1987.
3. Артамонов С. История зарубежной литературы, XVII-XVIII в.в. – М.: 1988.
4. Обломовский Д. Французский классицизм. – М.: 1968.
5. Қуроноф Д. Мамажоноф З. Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010.

MA'RIFATCHILIK ADABIYOTI

REJA:

1. **Ma'rifatchilik adabiyotining ijtimoiy-falsafiy asoslari.**
2. **Angliya adabiyoti:**
 - a) **D.Defo ijodi;**
 - b) **J.Svift ijodi.**
3. **Fransuz ma'rifatchilik adabiyoti:**
 - a) **Volter ijodi;**
 - b) **Bomarshe ijodi;**
4. **Nemis adabiyoti:**
 - a) **Shiller ijodi;**
 - b) **Gyote ijodi.**

Tayanch iboralar: Ma'rifatchilik, Angliyada ma'rifatchilik; D.Defo; «Robinzon Kruzo»; J.Svift, «Gulliverning sayyohatlari»; Volter; Bomarshe; «Sevilyalik sartarosh»; «Bo'ron va tazyiq»; Shiller; Gyote; «Faust».

Ma'rifatchilik adabiyotining ijtimoiy-falsafiy asoslari

XVIII asrga kelib G'arbiy Ovrupa davlatlari turlicha siyosiy tuzumga ega edilar. Angliyada mutlaq hokimiyat o'z umrini yashab bo'ldi. Qirollik hokimiyati siyosatiga ta'sir o'tkazmaydigan hokimiyatga aylandi. (1648—49 burjuaziya inqilobi).

Fransiyada hali mutlaq hokimiyat yashamoqda edi. Germaniya mayda knyazlik, gersogliklarga bo'linib ketgan edi. Italiyada ham Germaniya singari mayda davlatlarga bo'linish yuz bergan, shimoli esa Avstriya mustamlakachiligi azoblarini tortmoqda edi.

Ovrupa ilg'or kuchlarining siyosiy kurashlari, asosan, antifeodal xarakterda bo'lgani uchun, XVIII asr adabiyoti ham, asosan, anti-feodal yoki ma'rifatchilik ruhida edi.

«Ma’rifat» so’zi, keng ma’noda xalqni bilimli, ma’rifatli qilish ma’nosida qo’lansa, tor ma’noda burjuaziyaning feodalizmga qarshi kurashi avj olgan davrdagi aqliy harakatni ifoda etadi.

Ma’rifatchilik adabiyoti – feodal asoslarga qarshi o’laroq maydonga chiqib, XVII-XVIII asrlarda G’arbiy Ovrupa mamlakatlari va Shimoliy Amerikada keng yoyilgan g’oyaviy-mafkuraviy harakat; shu harakat g’oyalarini o’ziga singdirgan va targ’ib etgan adabiyot. Ovrupaning turli mamlakatlarida ma’rifatchilikning maydonga kelishi vaqt jihatidan farqlanadi: u dastlab Angliyada yuzaga kelgan bo’lsa, ijtimoiy shart-sharoitlarning yetilishi barobarida qit’aning boshqa mamlakatlariga yoyilgan va ularning har birida konkret shart-sharoitlar bilan bog’liq tarzda kechgan. Jumladan, Rossiyada Ma’rifatparvarlik ancha kech – XVIII asrning ikkinchi yarmida maydonga chiqqan; shuningdek, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qator Sharq mamlakatlari, jumladan, Rossiya tarkibidagi turkiy xalqlar yashovchi mintaqalar (Qrim, Tatariston, Ozarbayjon, Turkiston) da kuzatilgan Ma’rifatchilik harakatlari ham Ovrupa Ma’rifatparvarlari bilan ko’plab mushtarak jihatlarga egadir.²³

Ma’rifatparvarlar uchun aql-idrok bosh masaladir. Ular insonning aqliy faoliyatiga, odamiylik fazilatlariga yuqori baho berganlar. Shu bilan birga, ma’rifatparvarchilik g’oyasiga yuqori baho berishadi. Ma’lumki, Ovrupa XVIII asr ma’rifatchilarining aksariyati “ma’rifatli hukmdor” g’oyasini ilgari surgan edilar. Fransuz ma’rifatchisi Golbax “Tabiat tizimi” va “Tabiiy siyosat” kabi asarlarida Fransiya erishishi mumkin bo’lgan siyosiy tizim sifatida konstitutsiyaviy monarxiya haqida fikr yuritib, uning boshida ma’rifatli hukmdor turishi lozimligini ta’kidlaydi. “Ta’qdir taqazosi bilan taxtga ma’rifatli, adolatli, mard, xushaxloq hukmdorlar o’tirishlari mumkin va ular inson boshiga yog’ilgan balolarning asl sababini bilib, aql ko’rsatmalari bo’yicha bartaraf etishga harakat qiladilar”.

Badiiy adabiyotda ham o’z ifodasini topgan bunday g’oyalarni Volter (“Kandid yoki optimizm”), Monteskyo (“Fors nomalari”),

²³ Quronov D, Mamajonov Z, SHeralieva M. Adabiyotshunoslik lug’ati, Toshkent : “Akademnashr”, 2010. – B.164.

J.Swift ("Gulliverning sayohatlari"), Deni Didro ("Rohiba"), I.V.Gyote ("Faust", "Gets fon Berlixingen") va boshqa ma'rifatparvar yozuvchilar ijodida ko'plab uchratish mumkin.

Ma'rifatparvarlar «tabiiy inson haqidagi» konsepsiyasini ilgari surdilar. Ularning fikricha, inson tabiatan go'zal va yaxshi xulqli, uni faqatgina hayot, yashash sharoiti buzadi.

Jon Lokk falsafasi ma'rifatchilarga katta ta'sir o'tkazdi. Uning «Inson aqli haqida tajriba» (1690) kitobi. Uning fikricha, inson olayotgan barcha bilimlar aql-idrok orqali keladi.

Jamiyat hayotida katta o'zgarishlar kechayotgan davrda esa, ma'lumki, yangicha fikrlaydigan kishilarni tarbiyalash masalasi birinchi o'ringa chiqadi. Shu bois Ovrupa ma'rifatchilari ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Ingliz faylasufi Jon Lokkning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari ("Aql borasidagi tajriba") XVIII asr ma'rifatchilarining inson va uning tarbiyasi haqidagi fikrlariga jiddiy ta'sir o'tkazdi. Ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan J.J.Russoning "Emil yoki tarbiya" singari asarlari maydonga keldi.

Angliya adabiyoti

Angliya ma'rifatchiligini 3 ta davrga bo'lish mumkin:

1) 1688–1730-yil – ilk ma'rifatchilik. (Jurnalistika rivoji, yangi dramatik janrlarning paydo bo'lishi);

2) 1730–1750-yillar – ma'rifatchilik romanining paydo bo'lishi va gullab-yashnashi;

3) 1750–1790 (89)-yillar – ma'rifatchilik mafkurasida tushkunlik alomatlarining paydo bo'lishi, sentimentalizm va predromantizmining paydo bo'lishi.

Angliya ma'rifatchiligining atoqli namoyandalaridan biri **Daniel Defo (1660–1731)**. Savdogar oilasida tug'ildi. Otasi uni Puritan diniy akademiyasiga o'qishga berdi. Ammo Defo savdo ishiga qiziqib umrining oxirigacha yirik tijoratchi bo'lib qoldi. U jurnalist ham bo'lgan, satirik pamfletlar, romanlar, traktatlar yozgan. Ko'p sonli

maqola va pamfletlarida feodal-aristokratlar bilan cherkov reaksiyasini fosh qiladi.

«Robinzo Kruzo» romani (1719).

Defo davri kitobxonlari adabiyotga, xususan, nasrga shunday talblar qo'yadilar: hikoya ajabtovur narsalar haqida bo'lishi, boshqalardan ajralib turishi va shu bilan bir qatorda to'qima bo'lmasligi kerak. Defo o'z asarida ana shu 2 talabni bajaradi. Uning romanini hozirda hujjatli nasr namunasi sifatida qabul qilish mumkin bo'lar edi. Romanni hujjatligini Robinzonning proobrazi – real odam shotlandiyalik matros Selkirk ekanligi ham tasdiqlaydi. U kimsasiz orolda 4 yil-u 4 oy yashaydi. Romanning birinchi qismidan so'ng ikkinchi va uchinchi qismlarini yozadi. Ammo asarning birinchi qismi katta shuhrat qozonadi. Romanning asosiy qismi yolg'iz insonning kimsasiz orolda yovuz tabiat kuchlari bilan yuzma-yuz olishuviga bag'ishlangan.

D.Defo adabiyotda birinchilardan bo'lib yaratuvchanlik mehnati mavzusini ko'tardi. Mehnat Robinzonni odam bo'lib qolishiga yordam berdi.

Voqealarning sodda, qiziqarli tilda hikoya qilinishi asarning o'qimishli bo'lishini ta'minlagan. «Robinzo Kruzo» romani keyingi davr adabiyotiga katta ta'sir o'tkazdi.

Jonatan Svift (1667–1745). Irlandiya poytaxti Dublinda ruhoniylar oilasida tug'ilgan. Yirik ingliz amaldori Vilyam Templ saroyida kotib bo'lib ishlagan. Vilyam boy kutubxonasidan foydalangan. Jurnalist sifatida tanilib «Kitoblar janggi», «Bochka haqida ertak» (1704) va boshqa hajviy asarlari bosilib chiqqan.

«Kitoblar janggi» pamfletida XVII asr oxirida Fransiyada 2 xil lager, ya'ni eski antik adabiyoti tarafdorlari va yangi, zamonaviy adabiyot tarafdorlari o'rtasidagi katta tortishuvlar haqida satirik uslubda hikoya qilinadi. Birinchi lagerdan Bualo («Poeziya san'ati») o'rin egallagan bo'lsa, ikkinchi tomonda aka-uka Perrolar (3 aka-uka) joy olgan. Asosiy vazifa «Qizil qalpoqcha», «Zolushka», «Uyqudagi go'zal» ertaklari muallifi, badiiy ertak asoschisi Sharl Perroga yukla-

tilgan. Templ hali qadimiy adabiyot tarafdori edi. Kutubxonada yangi avtorlar kitobiga polkadan yaxshi joylar, qadimiy mualliflar kitobiga esa qorong‘i burchakdan joy ajratilgan edi. Xafa bo‘lgan qadimiy mualliflar qo‘zg‘olon qiladi. Otiqlarni Homer va Pindar, qurollilarni Aristotel hamda Platon va boshqalar boshqarib, g‘alaba qozonadi.

Swift – siyosiy yozuvchi. Uni, asosan, ijtimoiy masalalar qiziqtiradi. Yozuvchi o‘z asarlarida dunyo sirlari, go‘zallik, chuqur psixologizmga emas, jamiyat nuqsonlariga e‘tiborini qaratadi. 1726-yilda yaratilgan “Gulliverning sayyohatlari” romani qahramoni – afsonaviy mamlakatlardan Liliputiya, ulkan odamlar mamalakatiga, Brobdingnegga, aqlli otlar mamlakatiga (Guinginiya) va boshqa yerlarga sayohat qilgan shaxs. Sayohatchining maqsadi insonlarni ma‘rifatli qilish (yaxshi va yomon misollar orqali) edi. Shuning uchun Svift fantaziyasi ostida falsafiy tagma‘no yotadi. Roman 4 qismdan iborat. 1-qism Liliputlar mamlakati haqida. Ular oddiy odamlardan 12 baravar kichik. (Bu Angliya). Amaldorlari ham xalq manfaatidan ko‘ra o‘z foydasini ko‘proq o‘ylaydi. Angliya kabi bu yerda 2 partiya bor: baland poshnalilar va vichilar partiyasi.

Defoning romani yaratilishida ikki turdagi badiiy janr (Defo singari): sayohat va utopiya janri namuna rolini o‘ynagan. (Tomas Mor “Utopiya”, Komponella “Quyosh shahri”) Svift ironik tarzda hikoya qilish ustasi. Agar u “olijanob”, “har narsaga qodir” deb tasvirlasa, demak, buning aksi bo‘lib chiqadi.

XVIII asr Fransuz ma‘rifatchilik adabiyoti. XVIII asrda Fransiya ma‘rifatchilik harakati keng qulochoy yozdi. Fransiya jahonga ma‘rifatchilik adabiyotining tipik namunalarini berdi. Butun asr davomida Angliya va Fransiya o‘rtasida dengiz va quruqlikda birinchilik uchun kurash bordi. Asr boshida Fransiya Amerikadagi bir qancha koloniyalardan ajraldi. Yetti yillik urush (1756–1763) dan so‘ng Kanada, Hindistondagi koloniyalar Angliya ixtiyoriga o‘tdi.

Fransiyada absolutizm (mutlaq hokimiyat)ning va, umuman, feodalizmga qarshi kurash, yemirilish davri Lyudovik XIV hokimligining so‘nggi davrlaridan boshlanadi va uning vorislari paytida

yanada zo'rayadi. Materialist Golbahning: «Taqdir taqozosi bilan taxtga ma'rifatli, adolatli, dono monarxlar o'tirishi mumkin va xalq o'tkazayotgan azob-uqubatlarni tushunib, ularni aqlli ko'rsatmalari bilan bartaraf etadi» degan "orzusi"ga ma'rifatchilar juda ham ishonishar edi.

Teatr ma'rifatchilar minbariga aylandi. Volter 60 yil davomida teatr uchun asarlar yozdi. Uning tragediya va komediyalari Ovrupaning deyarli barcha teatrlari sahnasida (XVIII asrda) ko'rsatildi. Ma'rifatchilar teatr sohasida islohot qildilar: ijtimoiy hayotning real konfliktlari va qahramonlari tasvirlandi. (uchinchi qatlam odamlari).

Ular badiiy publitsistik prozaning yangi janri – falsafiy roman va qissani yaratdilar. (Monteskepe – «Fors xatlari», Russo – «Emil», «Yangi Eloiza», Didro «Romanning jiyani». Volter «Kandid»).

Fransua Mari Arue Volter (1694–1778). Volterni fransuz ma'rifatchilarining yetakchisi deyish mumkin. Parijda amaldor oilasida tug'ilgan. Kollejda o'qish paytida she'r yoza boshlagan va mashhur bo'lib ketgan. Ammo amaldorlardan biri de Roganga yoq-maganligi uchun kaltaklanib Bastiliya qamoqxonasiga tashlangan. 3 yil mobaynida Angliyada yashadi.

Umrining so'nggi yillarini Fransiya va Shveysariya chegarasida-gi Ferney degan joyda o'tkazadi. «Ferney patriarxi»ni ziyorat qilish uchun turli mamlakatlardan juda ko'plab kishilar kelib turardi. 1778-yilda Parijda vafot etdi.

Volter–badiiy so'z ustasi. Barcha ma'rifatchilar singari inson ongiga, aql-zakovatiga san'at orqali ta'sir ko'rsatishni bosh vazifa deb bildi.

Klassitsistlar estetikasiga qarshi chiqqan Volter Rasin va Kornel ijodiga yuksak baho beradi. Shekspirni Fransiyadagi birinchi targ'ibotchisiga aylanadi. «Shekspir buyuk daho, ammo u qo'pol, dag'al asrda yashadi va uning pyesalarida ana shu dag'alliklar ta'sirini ko'rish mumkin», degan fikrni bildirgan.

Volter ijodi ko'p qirrali bo'lib, (epik, falsafiy dostonlar, odalar, satira, she'riy novellalar) 52 ta pyesa yozdi. (24 tasi tragediya).

1718-yilda birinchi tragediyasi «Edip»ni yozadi. Bundan tashqari, yana 4 ta tragediyasida u antik davr mavzusiga murojaat qiladi va yana 5 tasida («Brut», «Sezarning o'limi» va boshqalar) Rim tarixi sujetlariga murojaat qiladi. Volter tragediya oldiga yangi vazifalar qo'yadi. (tarbiyaviy ahamiyati). U pyesalarni ma'rifatchilik g'oyalarini targ'ib qiluvchi qurol vazifasini o'taydi, deb hisoblaydi.

«Edip»da u Sofoklga xos bo'lgan taqdir oldida tiz cho'kishini ko'rmaymiz. Kohinlar xalqni soddaligidan foydalanuvchi yolg'onchilar sifatida ko'rsatiladi.

Agar Kornel ana shu mavzudagi pyesasida «O'z qiroli uchun jon bergan xalq baxtlidir» degan fikrni ilgari surgan bo'lsa, Volter «o'z yurti uchun jon berish – qirollar burchi», degan xulosa chiqaradi.

«Brut», «Zaira», «Muhammad» tragediyalari juda katta shuhrat qozongan. Qadimgi Rim tarixi. «Zaira» xristian qizi Zaira va Misr sultoni Orosman o'rtasidagi muhabbat. Nereston – Zairani akasi. Orosman Zairani rashk tufayli o'ldiradi.

Volter «Genriada» epik dostoni haqida. U o'z ijodidagi shu turdagi yagona asarni yaratar ekan, o'z oldiga ikki vazifani qo'yadi: Fransiya milliy epos namunasini berish, (Vergiliy, Tasso singari) va shu bilan birga aql-idrokni, ideal hukmronni madh etish. Asarda olim ma'budlarni o'rmini nizo, fanatizm alvastisi singari figuralar egallagan. Dante qahramoni singari Genrix IV do'zaxga va osmon-u falakka – taqdirlar qasriga sayohat qildi.

«Orlean qizi» dostonida 1431-yil o'tda yondirilgan qahramon qiz Janna D'Ark nomi bilan bog'liq cherkov safsatalarini fosh qiladi. Falsafiy qissalarida Volter zulm, adolatsizlik, diniy jaholat, inson erki masalalariga to'xtaldi.

«Kandid yoki optimizmi» (1758) qissasi qahramoni Kandid sofdil, aqlli yigit. Uning ustozlari faylasuf Panglos dunyodagi barcha narsalar ezgulikka olib boradi deb bilim beradi. Avvaliga bu falsafaga ishongan Kandid ongida (bir qancha davlatlar kezib chiqqandan so'ng) Panglos falsafasiga ishonch yo'qoladi. U har holda dunyoda qandaydir aqlga muvofiq keladigan narsa bo'lishi kerak, deb

o'ylaydi. Qahramon yer yuzida shunday yerni – sarobni axtaradi.

Shunday tuzum deb Volter Eldorado mamlakatini tasvirlaydi. Bu yurtda tilla-yu javohirlarning hisobi yo'q. Qirol olijanob, insonparvar. Sud qilish, jazolash kabi hodisalar yo'q. Ammo Eldoradoga olib boradigan yo'l tog'lar, baland qoyalar bilan to'silib yotadi. Amalda unga borish mumkin emas.

Muallif asar oxirida qahramon mehnat qilish kerak, degan xulosa keladi. "Mehnat bizni uch xil falokatdan: zerikish, nuqson va muhtojlikdan xalos qiladi".

Pyer Ogyusten Karon Bomarshe (1732–1799). Bomarshe haqida Melnxor Grimm (Bomarshe zamondoshi): Volter, Russo va boshqalar asarlarining ta'sir kuchi ortiq, ammo ularni xalq kam o'qirdi. Lekin Bomarsheining "Figaroning uylanishi" va "Sevilyalik sartarosh" asarlarini Fransiyada deyarli barcha bilar edi, degan fikrni bayon etganda haq edi.

Bomarshe professional yozuvchi emas. U yozishicha, muhtojlik sabab murojaat qilgan. «Agar ishlarim oshib yotsa, adabiyot bilan shug'illanib o'taversin, ammo ishdan bo'sh bo'lsam, qo'limga qalam olaman degan edi u.

Bomarshe soatsoz farzandi bo'lib, o'zi ham Parijda ko'zga ko'ringan soatsozlardan biri edi. Dvoryanlik unvoniga ega bo'lib (Karon ismini de Bomarshega almashtirgan), yirik Bankir Pari Dyuverne bilan yaqinlashib katta boylikka erishadi. Dyuverne vafotidan keyin kichik meros masalasida sudlashadi va sud Bomarshe ziyoniga hukm chiqaradi. U sud sistemasini poraxo'rligini fosh etuvchi «Memuar» (xotira)larni yozadi va butun Ovrupaga taniladi.

Bomarshe dramaturg sifatida «Sevilyalik sartarosh» (1775) va «Figaroning to'yi» (1784) komediyalari bilan jahon adabiyotida qoldi. Bosh qahramon Figaro haqidagi trilogiyaning birinchi qismi – «Sevilyalik sartarosh» komediyasi hisoblanadi. Asar voqealari Ispaniyada kechadi. Figaro-epchil, aqlli yigit. U turli ishlarni qilib ko'radi. Nihoyat, Seviliyaga kelib sartaroshlik qiladi. Komediyaning har bir sahnasida Figaroning ishbilarmonligi, chaqqon, xalqqa

yaqinligi sezilib turadi. Uning yordamida graf Alpmaviva sevgan qizi Rozinaga uylanadi. Muallif uchinchi tabaqadan chiqqan qahramonni boshqalardan ustunligini ko'rsatadi. 9 yildan so'ng «Figaroning to'yi» komediyasini yozdi. Komediya butun Ovrupaga mashhur bo'lgan (1785-yilning o'zida Germaniyada asarining 12 turdagi tarjimai amalga oshirildi).

Endi Figaro grafning ishonchli xizmatkori. U uy xizmatchisi Syuzannani sevadi. Ammo graf Syuzannani o'ziga tobe qilib olmoqchi. Figaro buni sezib unga qarshi kurash olib boradi. Bu kurash graf va xizmatkor to'qnashuvi emas, balki ijtimoiy kurash tusini oladi.

Syuzanna, grafiniya va Figarolar graf Almamivani kirdikorlarini fosh qiladi. U sevgilisiga erishish uchun o'zidagi barcha kuch, tadbirlarni ishga soladi. Asar Figaro va Syuzanna to'yi bilan tugaydi.

Napoleon keyinchalik (inqilobdan keyin) «Figaroning to'yini» amalda inqilob deb ataydi.

Trilogiyaning so'nggi asari –«Jinoyatkor ona» shuhrat qozonmadi. Graf olijanob, rahmdil kishi sifatida, Figaro unga sodiq xizmatkor sifatida tasvirlanadi.

Nemis ma'rifatchilik adabiyoti

XVIII asrda Ovrupadagi bir necha davlatlarda (Fransiya, Angliya) markazlashgan mutlaq hokimiyat vujudga kelgan bo'lsa, Germaniya juda ko'p marta knyazlik, graflik, imperiya shaharlaridan iborat kichik davlatlarga parchalanib ketgan edi.

XVIII asrda Germaniya iqtisodiy qoloq, milliy siyosiy birlikdan mahrum, tarqoq mamlakat edi. Mamlakatni 300 dan ortiq katta va kichik hukmdorlar – knyazlar, gersoglar, graflar boshqarar edilar. Ular mustaqil siyosat o'tkazar va imperatorga bo'ysunmas, Germaniyaning birlashuviga asosiy g'ov bo'lardilar. Kasb-kor, savdo-sanoat ishlari va dehqonchilik nochor ahvolga tushib qolgan edi. Mamlakatda umum noroziligi hukmron edi.

Na maorif ishlari yo'lga qo'yilgan, na matbuot erkinligi va na afkor omma bor edi.

Germaniyaning ana shu ayanchli tarixiy sharoiti nemis ma'rifatchilari oldiga asosiy vazifa qilib, mamlakatni milliy jihatdan birlashtirish vazifasini qo'ydi. Aynan mana shunday og'ir davr nemis adabiyotining buyuk davri bo'ldi, chunki XVIII asrda shoirlardan Gyote va Shiller, Lessing va Gerder, faylasuflardan Kont va Fixte dunyoga keldilar.

Nemis ma'rifatchilari o'z rivojlanishida to'rt bosqichni bosib o'tdi:

1) XVIII asrning 20–50-yillarida klassitsizm hukmronlik qildi. Yozuvchilar, asosan, o'tmishga murojaat qildilar;

2) XVIII asrning 60-yillari – bu davrda tasvirning realistik uslubi ustun turdi. Lessing realizm nazariyasini yoqlab chiqdi, “Laokoon” risolasini va “Minna foy Barnxelm” komediyasini yozdi. Nemis adabiyoti o'zining yetuk davriga kirdi.

3) XVIII asrning 70–80-yillar adabiyoti “Bo‘ron va tazyiq” adabiy harakati yosh shoirlarning isyonkorlik ruhida yozilgan asarlari natijasida yuzaga keldi. Gyote va Shillerning ilk ijodi davri (Gyotening “Gyos fon Berlixingen” dramasi, Shillerning “Qaroqchilar”, “Makr va muhabbat” tragediyalari);

4) XVIII asrning 90-yillari Shillerning “Vallenshteyn” tragediyasi, “Fojiaviy san'at to'g'risida xatlar” nazariy asarlari yozildi. **Fransuz burjua inqilobining adabiyotga ta'siri.** Gyote bir qator balladalar (“Korinflik kelin”, “Xazina izlovchi”, “Afsungarning shogirdi”), “Vilgelm Meysterning o'quvchilik yillari” romanini, “Faust” ning I qismini yozib tugatdi.

XVIII asr nemis adabiyoti va madaniyati Lessing va Gotshid, Gellert va Vinkelman, Mendelson va Nikolay kabi shoir va yozuvchilarni, “Bo‘ron va tazyiq” adabiy harakatining ajoyib namoyandalari, Gyote bilan Shillerni, Motsart va Betxoven kabi kompozitorlarni yetishtirdi. XVIII asr nemis ma'rifatchilik adabiyoti o'z xalqiga milliy birlik, o'z kuchlariga ishonch, adolatga intilish kabi tuyg'ularni singdirdi.

Nemis ma'rifatchilarining asosiy vazifasi – mamlakatni milliy jihatdan birlashtirish. (Fransiyada inqilobga tayyorlash bo'lgan). Bu davrda falsafa juda ham ravnaq topadi. (Kant, Fixte, Gegel). Yozuvchilar o'z asarlarida falsafiy masalalarga keng o'rin berdi.

Gotxolpd Efrain Lessing (1729–1781). Germaniyaning 60-yillar adabiy hayotida Lessing yetakchi o'rin egallaydi. U zamonasi-ning ulug' mutafakkiri, iqtidorli tanqidchisi, adabiyot va san'at nazariyotchisi, shoir va dramaturgi edi. Lessing adabiyotni hayotga yaqinlashtirdi, unga ijtimoiy yo'nalish baxsh etdi. U yangi nemis adabiyotiga asos soldi, Shiller va Gyotelar Lessingning shogirdi edilar.

XVIII asrning 50-yillarida Lessing she'rlar, masallar va o'zining birinchi tragediyasi "Sara Sampson xonim" (1755) ni chop ettirdi.

Lessing "Laokoon" (1766) hamda "Gamburg dramaturgiyasi" (1769) nomli asarlarida xalqchil san'at estetikasining nazariyotchisi sifatida maydonga chiqdi. Muallifning bu har ikkala risolasi ma'rifatchilik san'atida realizm prinsplarini isbotlashga va barqaror qilishga qaratilgan. "Laokoon" risolasi bilan adib zamonasida juda ko'payib ketgan mazmunsiz tasvirlar she'riyatiga qarshi chiqdi. Asar klassitsizm adabiyotining asoslariga zarba berdi. Klassitsizm estetikasi, san'at asari faqat "go'zal tabiatni" tasvirlab berishi kerak, deb hisoblar edi. Bunga qarshi Lessing haqqoniy san'at hayotdagi xunuk, salbiy voqealarni ham yoritishi kerak, deb chiqdi.

Lessingning ko'plab teatr taqrizlari asos bo'lgan "Gamburg dramaturgiyasi" to'plami haqli ravishda nemis ma'rifatchilik harakatining dasturilamali bo'lib qoladi. To'plamda u san'atning tabiati, uning jamiyatda tutgan o'rni va vazifasiga, borliq harakati va san'at haqiqatiga oid masalalarni o'rta tashladi. Lessing san'at hayotni aks ettirsagina o'z vazifasini bajargan bo'ladi, deb qattiq ishonadi. Chinakam san'atning vazifasi faqat podshohlar va zodagonlar hayotini emas, balki oddiy kishilar hayotini ham aks ettirishdan iborat bo'lishi kerak. Lessing xalqchil san'at uchun kurashadi. "Saroy kishi tabiatini o'rganadigan joy emas", deb fransuz klassitsizmini rad qiladi. U dramaturgiyani Shekspirdan o'rganishga chaqiradi.

Lessingning fikricha, tragediyaning vazifasi kishilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash. Lessingning dramaturgik qarashlari “Sara Sampson xonim” tragediyasida o‘z ifodasini topdi.

Kemens shahrida dindor oilasida tug‘ildi. U avval Leytung universitetida, so‘ngra Berlin va Vittenburgda o‘z ma‘lumotini oshirdi. 1767–1769-yillarda Gamburgda yashaydi. Teatr tashkilotchilaridan biri. «Gamburg dramaturgiyasi» teatrida qo‘yilgan asarlar taqrizlardan iborat. 1770-yil moddiy qiyinchilikda gersoglik kutubxonasi mudiri bo‘lib ishlaydi. Yozuvchi 52 yoshida juda kambag‘allikda vafot etadi.

Lessingning «Gamburg dramaturgiyasi» asari nemis ma‘rifatchilar dasturiga aylandi.

Shiller (1759–1805). Ulug‘ nemis shoiri va dramaturgi Fridrix Shiller 1759-yili Marbah shahrida (Vyurtemberg gersogligi) harbiy feldsher oilasida tug‘ilgan. 1773-yili 14 yoshlik Shiller harbiy bilim yurtiga (keyinchalik harbiy akademiyaga) o‘qishga berildi. Vyurtemberg gersogi Karl Yevgeniy tashkil qilgan ushbu o‘quv yurtida bo‘lajak shoir nemis sharoitining qorong‘i tomonlari bilan to‘qnashgan edi. Harbiy akademiyada zobitlar, tibbiyot xodimlari va huquqshunoslar tayyorlanardi. Akademiyada Shiller o‘zining ilk ijodini boshladi. 1776-yili shoirning “Oqshom” she‘ri chop etildi, shu yerda birinchi dramatik asari “Qaroqchilar” ustida ish boshladi. Tragediya 1781-yili yozib tugatildi va tez orada Mangeym shahri teatrida sahnaga qo‘yildi va favqulodda muvaffaqiyat qozondi. Asar premyerasiga borgan Shillerni gersog Karl Yevgeniy ikki haftaga qamab qo‘yadi. Karl Yevgeniyning zulmidan qutulish uchun shoir Mangeymdan Leypsigga, Drezden shahriga kelib joylashadi. 1782-yili “Genuyadagi Fiesko fojiasi”, 1783-yili keyin “Makr va muhabbat” deb nomlangan “Luiza Miller” drammalarini yozdi. 1787-yili Shiller Veymarga kelib, Gyote bilan tanishadi. Gyote bilan hamkorlikda Veymar teatriga asarlar yozadi.

80–90-yillarda Shiller estetikaga oid bir qancha asarlar yozdi. “Zamonaviy nemis teatri haqida” (1782), “Teatr ma‘naviy muassasa

sifatida” kabi nazariy asarlarida erkinlik va go‘zallik tushunchalari orasidagi o‘zaro munosabatlar masalasini hal qilar ekan, Shiller inson kamoloti va jamiyatini qayta qurishda estetik tarbiyaning, go‘zallikning roliga muhim ahamiyat beradi. Adib tarix, qadimgi yunon san’ati bilan shug‘ullanib, odamlarni go‘zallik g‘oyasi bilan tarbiyalash mumkin, degan nazariy xulosaga keladi. U antik dunyo san’atida o‘z ideallarini ko‘radi. Shiller 46 yoshida, ayni ijodiy kuchga to‘lgan bir pallada vafot etadi.

“Makr va muhabbat” tragediyasi “Bo‘ron va tazyiq” dramaturgiyasining shoh asari bo‘lib qoldi. Asarda ilk bor nemis hayoti chuqur va ishonarli tasvirlangan bo‘lib, unda tasvirlangan voqea real sharoitdan olinib, hukm surayotgan axloqiy pastkashlik, gersog saroyining dabdabasi va buzuqligi ko‘rsatilgan. “Makr va muhabbat” pyesasida bir-biriga muhosasiz bo‘lgan ikki qarama-qarshi guruh vakillarining to‘qnashuvi aks ettiriladi. **“Makr va muhabbat”** tragediyasi bilan Shiller ijodining ilk, shtyurmerlik davri yakuniga yetdi. 1783-yildan 1787-yilgacha yozilgan “Don Karlos” fojiasi ustida ishlash jarayonida dramaturg bir qancha o‘zgartirishlar kiritdi. Asarda isyonkorlik ruhi yo‘qolib, mavjud tuzumni ma’rifat yo‘li bilan tuzatish mumkin, degan ishonch paydo bo‘ldi. “Don Karlos” tragediyasidan keyin Shiller deyarli 10 yil dramatik asar yozmadi. 80-yillarning o‘rtalarida u kam sonli she‘rlar yaratdi.

90-yillargacha kelib, Shiller tarixiy mavzuga murojaat qildi. O‘ttiz yillik urush davrini hikoya qilgan “Vallenshteyn” trilogiyasini (1797–1799) yozdi.

“Vilgel Tell” (1804) – Shillerning ijodiy yo‘lini yakunlovchi drama bo‘lib, unda yozuvchi o‘zining vatani, xalqi taqdiri haqidagi o‘y-fikrlarini bayon qiladi. Asar dramaturgning o‘ziga xos poetik vasiyati edi. 1803-yilning 18-avgustida yozgan maktubida Shiller quyidagilarni bayon qiladi: “hozir “Vilgelm Tell” bilan juda bandman... Mavzu juda qiziqarli va o‘zining xalqchilligi bilan teatrga juda mos”.

Dramaturg o'zining dramasi xalq afsonalaridan foydalanib, xalq ichidan chiqqan Vilgelm Tell obrazi orqali xalqning ozodlik, milliy birlik haqidagi orzu-istaklarini va unga erishish yo'lidagi mashaqqatlarini ko'rsatib beradi.

Shillerning "Makr va muhabbat" fojiasi 1936-yili Komil Yashin, 1939-yili Ma'ruf Hakim tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan, Asqad Muxtor esa 1954-yili "Qaroqchilar" tragediyasini o'zbekchalashtirgan. Har ikki asar Milliy Akademik drama teatrida sahnalashtirilib, zo'r muvaffaqiyat bilan namoyish qilindi.

1795-yilda «Kishini estetik jihatdan tarbiyalash to'g'risida xatlar» nazariy maqolasini yozadi. Uning fikricha, inson go'zallik ta'siri ostida, insonparvarlar haqqoniy bo'ladi va hayotdagi nuqsonlar bartaraf etiladi va aql-idrok, ozodlik, tenglik hukm suradi.

U yozuvchilarni o'z asri farzandi (quli emas) bo'lishiga, o'z davri ehtiyojiga qarab yozishga chaqiradi. «Qaroqchilar» (1781-yil) da Graf Maksimilian fon Moorning ikki o'g'li Karl (Lepsigda o'qiydi) va Frans (shuhratparast) bor. Karl qarzg'a botib, yordam so'rab yozgan xatlarini Frans qari otasiga buzib, soxtalashtirib o'qib beradi, akasiga tuhmat qiladi. Graf Karlidan voz kechadi. Ilojsiz Karl qaroqchilar guruhini tuzadi (Butun mamlakatga dahshat soladi). Otasi bundan xabar topadi. Frans bir kishini yollab, otasiga Karlning o'limi haqida yolg'on xabar beradi. Xasta graf olamdan o'tadi. Frans otasi o'rnini egallaydi va saroyda adolatsizlik o'rnatadi. Begona kishi qiyofasida saroyga kelgan Karl barchasidan xabar topadi. Sevgan qizi Amaliyani tutib olishib qaroqchilar huzuriga keltiradi. Ammo Karl sevgan bilan birga Amaliyaga xanjar uradi. O'zini hukumat qo'lga topshirmoqchi ekanini qaroqchilarga ma'lum qiladi. Qaroqchi Karl jamiyatni o'zgartirmoqchi bo'ladi.

Iongann Volpfgang Gyote (1749–1832). Frankfurt shahrida yurist oilasida tug'ildi. Laykuna universitetida (grafik) o'qib yurganda birinchi she'rlarini yozadi. Uning dunyoqarashiga Spinoza falsafasi-«Poetika» ta'siri katta bo'ladi. Studentlik yillari Ganpening

«Muhammadning hayoti» kitobidan ruhlanib, Muhammad haqida drama yozmoqchi bo'ladi (parchalar).

Gyote 1771-yilning 14-oktabrida buyuk ingliz dramaturgi V.Shekspirga bag'ishlangan kechada ma'ruza qildi. Ushbu ma'ruzasida u o'zining estetik dasturini bayon etadi. Ma'ruza Shekspir dahosiga aytilgan madhiya bo'lib, Gyote uni yangi adabiy oqimning bayrog'i deb e'lon qildi.

O'z hayoti davomida 1600 ga yaqin she'r yozadi. Juda ko'pchiligi xalq qo'shiqlariga aylanadi. «Gets fon Berlixingen» (1773) Gyote-ning nomini butun Germaniyaga mashhur qiladi. Dramada XVI asr voqealariga murojaat qilinadi. Bosh qahramoni Ges ritsor. U xalq orasida juda mashhur. Isyonkor shaxs taqdiri uni juda qiziqtiradi. Asar uning Shekspir bilan juda qiziqqan davrida yaratildi (Xronikalarda ruhida). Asar klassitsizm teatridan butunlay farq qiladi.

1774-yili «Yosh Verterning iztiroblari» romanini yozdi. Asar qahramoni Verter – byurger oilasidan chiqqan iste'dodli, nozik tabiat yosh yigit. U o'z davri uchun juda yaxshi ma'lumot olgan, klassik adabiyotni, ayniqsa, Gomer asarlarini sevib o'qiydi. Qalbi olijanob his-tuyg'ularga boy. Verter tabiatning erkin farzandi, u Russo ta'limotining ixlosmandi. Verter Sharlotta ismli qizni sevib qolgan. Ammo Sharlotta boshqa yigit – Albertga unashtirilgan edi. Shu sababli Verter qizni unutish maqsadida shaharga borib, diplomatiya idorasiga ishga kiradi. Ammo bu yerda uning ishi yurishmaydi. O'z xo'jayini graf saroyidagi ziyofatda hozir bo'lgan Verter yuqori tabaqa vakillariga yoqmaydi. Verterning xo'jayini mehmonlarning xohishini unga aytgach, yigit bu uydan chiqib ketadi. Ertasiga butun shaharga, go'yo Verter mehmondorchilikdan haydab yuborilganligi haqida be'mani tuhmat gaplar tarqaladi. Haqoratlangan Verter ariza berib ishdan bo'shaydi. Yana o'z sevgilisi yoniga qaytib boradi. Endi Sharlotta turmushga chiqqan, Verterning Sharlottalarnikiga kelishi bu oilani obro'sizlantirgan bo'lar edi. Chorasiz qolgan Verter o'zini o'zi o'ldiradi. Gyote zamondoshlari asarning bunday yechim bilan tugallanishiga salbiy munosabat bildirdi, hatto Lessing ham Verter-

ning o'z joniga qasd qilishini qahramonning irodasizligi, o'jizligiga yo'ydi. Garchi Gyote bu fikrlarga qo'shilmasa-da, romanning ikkinchi nashriga quyidagi she'riy misralarni epigraf qilib kiritdi:

* "Er bo'lg'in, men yurgan yo'ldan yurmagin". Gyote qahramoni ichki dunyosi boy sentimental obrazdir. XVIII asr yozuvchilari uchun, jumladan, Gyote uchun ham inson sezgilarining ifodasi o'sha zamon feodal tuzumida hukm surayotgan shafqatsizlik, toshbag'irlikka qarshi kurash ifodasini anglatar edi. Bu hol inson uchun uning har tomonlama kamoloti yo'lidagi kurashni bildiradi. XVIII asr insonparvarlari barcha qobiliyatlarini, qalbining boy his-tuyg'ulari to'la namoyon qilinishini istar edilar. Insonni tabiat bekam-u ko'st yaratadi, ammo adolatsiz jamiyat sharoiti undagi barcha illat va qusurlarni keltirib chiqaradi, deb hisoblaganlar.

Gyote lirikasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning she'riyati badiiy yetuk, serma'no va hayotiydir. Shoir o'z lirikasida xalq hayotiga, uning og'zaki ijodiga murojaat qilib, yana ana shu xalq folklyori xazinasini ajoyib durdonalar bilan boyitadi. Gyote she'riyati kishining murakkab ichki dunyosini ochib beradi. Xalq tili, uning ohang-rabo musiqiyliigi, quvnoq lapar ohanglari kitobxon qalbini junbushga keltirib, lirikaning sirli sehriga maftun qilib qo'yadi. Lirikasining asosiy mavzusi inson, uning sevgisi, uning tabiat bilan uyg'unlashib ketgan hayotiy, falsafiy go'zallik va ozodlik haqidagi olijanob orzularini tarannum qiladi. Gyote dunyo madaniyatining bir ildizi, bir asosi bor, bu ham bo'lsa, G'arbda, G'arb-madaniyat beshigi, degan noilmiy fikrga qarshi o'laroq, dunyo madaniyati yagona jarayon va qonuniyatlar asosida rivojlanishi, bu jarayonda Sharq hech qachon G'arbdan keyin qolmaganini, balki ko'p sohalarda undan ilgarilab ketganini ta'kidlaydi.

Aytish joizki, adibning Sharqqa hurmati, ehtiromi uning Hofiz Sheroziy ijodi ta'sirida yaratilgan "Devoni" da o'z ifodasini topdi:

*Hofiz, sen-la bellashmoqqa
Yo'l bo'lsin bizga!
Lochin kabi uchar yelkan
To'lqinlar uzra.
Yengil, epchil uchib borar
Intilib olg'a,
Agar to'fon ko'tarilsa,
Azobda darg'a!
Qo'shiqlarning ko'kka uchar
Olov qushiday,
Dengiz o'tga do'nsa agar
Men uchun qo'ymay!*

Shoirning sharq mavzusiga bo'lgan qiziqishi yangi hodisa emas edi. Bir qancha san'atkorlar o'z ijodlarida sharqqa murojaat qilganlar. Jumladan, Shekspir ("Otello"), Rasin ("Boyazid"), Monteske ("Fors maktublari"), Volter ("Muhammad"), Bayron ("Sharq dostonlari"), Viktor Gyugo ("Sharq motivlari") kabi misollarni aytib o'tish kifoya.

Gyote g'arb va sharq adabiyotlarining boyib, rivojlanishini bir-biri bilan yaqinlashuvida deb biladi. U sharq bilan g'arb, o'tmish bilan hozirgi zamon, ularning urf-odatlarini, muloqot va mushohadalarini, biri orqali ikkinchisini tushunishni maqsad qilib qo'yadi.

"Mag'rib-u mashriq devoni" da Gyote sharqning buyuk shoirlari Hofiz, Nizomiy, Firdavsiy hamda Sa'diy ijodini nozik talqin qilib, o'ziga xos falsafiy lirika javharlarini yaratadi. Shoirning "Devoni" sharq va g'arb she'riyati bir-biriga yaqin, umumbashariy adabiyot ekanligini isbotlaydi. "Mag'rib-u mashriq devoni" o'n ikki kitobga bo'linadi. Bular: "Qo'shiqchi kitobi", "Hofiz kitobi", "Sevgi kitobi", "Mushohada kitobi", "Qobus kitobi", "Soqi kitobi", "Norozilik kitobi", "Hikmat kitobi", "Zulayho kitobi", "Temur kitobi", "Masal kitobi" hamda "Jannat kitobi" dan iborat. Bu she'riy to'plamda shoirning hayot, insonlarning taqdiri, tinchlik haqidagi o'ylari o'z ifodasini topadi.

“Devon”da shoir timsollar, majozlar, qochiriqlar yo‘li bilan she‘riyat, ijodiyot, sharq madaniyatining xususiyatlari haqida fikr yuritadi. “Devon”ning “Hijrat” deb ataluvchi she‘ri to‘plamning muqaddimasi hisoblanadi. “Devon”ning tarixiy mazmuni shuki, unda 622-yilda Muhammad payg‘ambarning Makkadan Madinaga ko‘chib o‘tishi ko‘zda tutiladi. Ayni vaqtda “Hijrat” shoir Gyotening sharqqa yuz o‘girishini bildiradi. U g‘arbning bo‘g‘iq, diqqinafas muhitidan qochib, sharqning keng va sof havosidan to‘yib-to‘yib nafas olishga oshiqadi.

“Faust” Gyote ijodining yirik mahsuli bo‘lgan. Asar XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi choragida yozilgani (1773–1831yy.) uchun ana shu xilma-xil voqealarga boy bo‘lgan Ovrupa hayotini aks ettiradi. Asarda inson hayotiga, uning jamiyatda tutgan o‘rniga diqqat qaratilgan.

Tabiatning, koinotning qudratli kuchlarini inson irodasiga bo‘ysundirish, uning qonunlarini o‘rganish va bu sirlarni odamzod foydasiga xizmat qildirish ulug‘ mutafakkir olim Gyotening doimiy orzusi bo‘lib keldi. Uning buyuk qahramoni Faust ana shu orzuni amalga oshirishdek olijanob ishga bel bog‘laydi. Faust haqidagi afsona (XVI asr) nemis xalq she‘riyatida yaratilgan eng buyuk asar bo‘lib, Gyote qo‘liga qalam olgan kundan boshlab bu haqida asar yozishni orzu qilar edi. Ana shu afsonalarda Faust olim, sehrgar, shaytonlar bilan munosabatda bo‘lgan kishi sifatida talqin qilinadi. Arshi a‘loda shayton Mefistofel xudo bilan Faust to‘g‘risida munozara qiladi. Shaytonning fikricha, koinoti azimda inson ojiz bir narsa, u baxtsiz, abadul-abad azob-uqubatda yashaydi. Agar xudo unga aql ato qilmasa, inson yomon yashamagan bo‘lur edi. Buning ustiga Faust butun koinot va tabiat sirlarini ilm-u fan kuchi bilan bilib olmoqchi. Mefistofel Faustning bu intilishlariga ishonmaydi, unga shubha bilan qaraydi. Xudo esa, inson adashib bo‘lsa ham, izlash, qidirish natijasida kamolot cho‘qqisi tomon boradi, deb unga umid bildiradi. Bu umid Gyotening inonparvarlik qarashlarining natijasidir. Shayton: “men, albatta, Faustning nafsini qo‘zg‘ab, yo-

mon yo'llarga olib boraman, uning intilishlarini, orzularini puchga chiqaraman" deydi. Asarning asosiy konflikti va tuguni shu yerdan boshlanadi.

*Kim – erk, hayot deb jang qilolsa har kun,
Erk-u hayot uchun o'sha munosib.
Xuddi shunday mehnat, kurash va havas
Band aylasa yosh-u keksa – har kimni,
Shunday kunda ko'rsam edim bir nafas
Ozod diyorimni, ozod xalqimni.*

Faust tilidan aytilgan ushbu misralar u anglab yetgan haqiqatning, inson umrining mazmunini belgilab beradi. Gyote o'z tragediyasida bir-biriga zid bo'lgan ikki xil kuchlar to'qnashuvini ko'rsatadi. Bu kuchlarning biri Faust, u ilg'or dunyoqarash, yorug'lik timsoli. U buyuk olim, ijodkor inson, odamlar baxt-saodati uchun kurashadi. Faust ilmga tashna, ilm-ma'rifatning kuchi bilan kishilarga ezgulik qidiradi. O'z xalqini ma'rifatli qilish uchun Injilni tarjima qiladi. Shoir tinmay olg'a yurishni, to'xtovsiz harakat qilishni targ'ib qiladi, chunki u harakat insoniyat kelajagini munavvar qilishiga ishonadi. Gyotening asari zamondoshlarini o'rta asr uyqusidan uyg'otishga, o'z hayotini qurishga da'vat qiluvchi chaqiriq ham edi. Shoirning qahramoni davr munosabatlarini o'zida mujassamlashtirgan kishi. Asosiy qahramonlardan biri bo'lgan shayton Mefistofel o'zida shubha, inkor ham vayronalik kuchlarini mujassamlashtirgan. Shayton hamma vaqt Faustni yo'ldan ozdirishga, uning yuragida shubha qo'zg'ashga urinadi. Faustni olijanob intilishlardan chalg'itib, haqiqat, insoniyat oldidagi burchlarini unutishga undaydi.

Gyote asrining ikkinchi qismida qadimgi Yunoniston mavzusi asosiy o'rin oladi. Yelena antik dunyoning go'zallik timsoli sifatida gavdalanadi. Faust bilan Yelena o'rtasidagi nikoh ramziy ma'no kasb etadi. Faust qo'lida qolgan Yelenaning kiyimlari qadimiy san'atning olijanob tasviri, belgisidir. Gyotening fikricha, oltin davr o'tmishda emas, istiqbolda, kelajakda.

“Faust” asari XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi nemis adabiyotining falsafiy va badiiy yutug‘i bo‘ldi. Bu asar ustida Gyote 60 yil davomida ishladi. «Faust»ni yozish niyati unda studentlik yillaridan boshlangan edi.

Afsungar doktor Faust haqidagi afsonalar XVI asrda paydo bo‘lgan. 1592-yil. Kristofer Marlo «Doktor Faustning fojiiyaviy tarixi» sahna asarini yaratdi. XVII-XVIII asarda tabiat sirlarini o‘zlashtirgan doktor haqida Germaniyada turli kitoblar bosilib chiqqan edi. Demak, tragediyada bir-biriga zid bo‘lgan ikki xil kuchning to‘qnashuvi tasvirlanadi. Faust-ilg‘or dunyoqarash, yorug‘lik timsoli. To‘xtovsiz harakat, yaratish, bunyodkorlik uning asosiy shiori. U ilmga tashna, Injilni tarjima qilgan. Myefistofel shubha, inkor, vayronachilik kuchlarini mujassamlashtirgan. U Faustni yo‘ldan urmoqchi bo‘ladi.

Jahon adabiyotining shoh asarlaridan biri bo‘lgan “Faust” ni o‘zbek kitobxoni shoir Erkin Vohidov tarjimasida ona tilida o‘qimoqda. Gyotening buyuk “Faust” fojiasi bilan birga bir qancha she‘rlari o‘zbek tiliga M.Shayxzoda, Shukrullo, Erkin Vohidov, Sadridin Salimov tomonidan tarjima qilingan. “Yosh Verterning iztiroblari” romani Yanglish Egamova tarjimasida o‘zbek tiliga o‘girilgan.

Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:

1. Ma‘rifatchilik adabiyoti deganda nimani tushunasiz?
2. Angliyadagi romantizmning asosiy namoyandalari kimlar?
3. “Robinson Kruzo” romantizmida ma‘rifatparvarlik tomoyillarining aks etirilishi.
4. Fransuz ma‘rifatchilik adabiyotining asosiy vakillari kimlar?
5. “Odil podsho” g‘oyasining adabiyotdagi talqini.
6. “Bo‘ron va tazyiq” qanday adabiy harakat edi?
7. Shiller ijodida isyonkor qahramon.
8. Gyote va Sharq adabiyoti. Gyotening “Faust” tragediyasida ezgulik va razolat kurashi talqini.

Adabiyotlar

1. Introduction to Literature. Miller Gilbert. Williams John. 1995 The McGraw-Hill. P.1148
2. Азизов Қ., Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. – Т.: 1987.
3. Артомонов С. Зарубежная литература. XVII-XVIII, в.в. – М.: 1988.
4. Проблема просвещения в мировой литературе. – М.: 1970.
5. Неустроев В. Немецкая литература эпохи Просвещения. – М.: 1958.
6. Кассель Л. Гете и «Западно – восточный диван» – М.: 1974.
7. Свифт Ж. «Гулливернинг саёхатлари» – Т.: 1974.
8. Дефо Д. «Робинзон Крузо», – Т.: 1965.
9. Гёте И. «Вертернинг изтироблари». – Т.: 1975.
10. Гёте И. Фауст. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972–74.

ROMANTIZM ADABIYOTI

REJA:

1. **Romantizm adabiyotining ijtimoiy va nazariy asoslari va xususiyatlari.**
2. **Nemis romantizmi. Gofman ijodi.**
3. **Fransuz romantizmi: V.Gyugo ijodi.**
4. **Daniya romantizmi: H.Andersen ijodi.**
5. **Angliya romantizmi: Bayron ijodi.**

Tayanch iboralar: romantizm: fransuz inqilobi; romantik qahramon: tarixiylik, aka-uka Grimm ertaklari, Gofman, Bayron; shaxs erki: V.Skott; tarixiy roman: V.Gyugo, H.Andersen ertaklari,

Romantizm XVIII asr oxiri va XIX asr birinchi yarmida Ovrupa va Amerika adabiyotida tarqalgan yirik adabiy oqimlardan biridir.

“Romantizm” atamasining paydo bo‘lishini “roman” (roman) so‘zi bilan bog‘liq holda o‘rganish mumkin. XII asrdan boshlab Fransiyada boshqalardan ajralib turuvchi qahramonlar bilan sodir bo‘lgan ishqiy, jangovar sarguzashtlar bayon etilgan asarlar roman deb atalgan. Bunday asarlar antik romanlar singari lotinda emas, jonli roman (fransuz) tilida yozilgan. Sagalardan farqli ravishda romanda real voqealarga emas, muallif tomonidan xayolot olamiga tayanilgan. Shunday qilib, o‘rta asrlar (Tom, Kreten de Trua) romanlari o‘quvchi va tinglovchilarni qiziqarli sujet – muhabbat va shuhrat uchun qahramonliklar sodir etib, hatto insonga dushman bo‘lgan yovuz kuchlar ustidan ham g‘alaba qozonuvchi qahramonlar haqida hikoya qilishi bilan rom etgan. XVII asr o‘rtalariga kelib Angliyada paydo bo‘lgan romantik sifat aql bovar qilmaydigan qahramonliklarga asoslangan barokko romanlarining xususiyatini ko‘rsatish uchun xizmat qilgan. Shunday qilib, romantizm tushunchasi nafaqat

sarguzashtni, balki sirlilikni ham anglata boshlagan. Jan Jak Russo mazkur atamadan takrorlanmas Shvetsariya tabiatiga tavsif berishda foydalangan.

“Adabiyotshunoslik lug‘ati” da romantizm termini “etimologik jihatdan ispancha “romanse” so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, XVIII asrda kitoblardagina uchrashi mumkin bo‘lgan g‘ayritabiiy, ajabtovur, fantastik narsalarning bari shu so‘z bilan yuritilgan”²⁴. Romantizm mavjud voqelikdan qoniqmaslik, aniqrog‘i ma‘rifatchilikka xos bo‘lgan olamni aql bilan raso holga keltirish g‘oyasiga ishonchning yo‘qolishi natijasida paydo bo‘ldi. Lekin romantizm, romantik tafakkur ildizlariga qadim zamonlarga borib taqaladi. Romantizmga xos xususiyatlar Sharq adabiyoti, xususan, mumtoz o‘zbek adabiyotida ham chuqur ildiz otgan. Biroq adabiy yo‘nalish darajasiga ko‘tarilmagan edi.

Fransuz inqilobi (1789) Ovrupa va jahon adabiyotidagi kuchli yo‘nalish–romantizmning vujudga kelishiga zamin hozirlagan voqea bo‘ldi.

Shu bois fransuz yozuvchisi V.Gyugo XIX asr haqida: “XIX asrning buyuk onasi – fransuz inqilobi bor. Uning tomirlarida fransuz inqilobining tuganmas qoni jo‘sh urmoqda” degan edi.

Inqilob ijtimoiy-siyosiy sohada feodal ijtimoiy munosabatlarga barham berib «Ozodlik, tenglik, qardoshlik» deb ataluvchi shiori katta kuchga aylangani, qo‘shni mamlakatlarda ham inqilobiy kayfiyatni vujudga keltirgani bilan ahamiyatlidir.

XX asrda tadqiqotchilar nimani «Romantizm» deb atash to‘g‘risida bahs olib bordilar. (Fransuz olimi Surpe bu oqimga butunlay qarama-qarshi bo‘lgan naturalizmni ham romantizmga qo‘shadi. XX asrning 50-yillariga kelib sobiq Sovet ittifoqida paydo bo‘lgan konsepsiyaga ko‘ra romantizm yo‘nalishi o‘z badiiy uslubi bilan bir-biridan farq qiluvchi, ikki oqim – faol va passiv romantizmdan iborat deb xulosa qilingan.

²⁴ D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 258.

Lekin XX asrning 60–70-yillariga kelib bu borada (Iyen romantiklari: Gofman, Po va boshqalar ijodi tadqiqi asosida), yangi xulosaga kelindi. Bu romantiklar badiiy uslublarining birligi haqidagi xulosadir.

Romantiklar ijodi har bir mamlakatda o'z belgilariga ega. Bu davlatlarning milliy, tarixiy xususiyatlari bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, Ovrupa romantizmi o'z umumiy xususiyatlariga ham ega. Ular quyidagilar:

- * romantiklar paydo bo'lgan tarixiy sharoit;
- * uslub xususiyatlari;
- * qahramon xarakteri.

Ovrupa romantizmi uchun fransuz inqilobi tarixiy sharoit bo'lib xizmat qiladi. Romantiklar inqilob ilgari surgan inson ozodligi g'oyasini qabul qildilar. Lekin inqilob rahbarlaridan biri bo'lgan Sen-Jyust ta'riflagan "omma baxti uchun kurash" asnosida zo'ravonlik, zulm avj oldi. Natijada, inqilob g'oyalari g'oyalariga ishonch o'rni hafsalsizlik, umidsizlik egalladi. Romantiklar inson jamiyatda himoyasiz ekanligini, mulkchilik hissi barcha narsa ustidan ustunlikka erishayotganini his qildilar. Shuning uchun muhit oldidagi ojizlik, ikkilanish, qahramonlar taqdirining fojyaviyligi romantiklar dunyosining o'ziga xos jihatlari hisoblanadi.

Bir tomondan, shaxsga nisbatan alohida munosabat, uni atrofmuhit bilan aloqalari xarakteri, ikkinchi tomondan, real muhitga ideal dunyoqarashni qarshi qo'yish o'ziga xos badiiy uslub bo'lishini belgilab berdi. Romantiklarning vazifasi turmushni aniq va ravshan tasvirlash emas, balki turmush haqidagi orzu-umidlarni tasvirlashdir. Shunday yo'llar orqali ular o'z ideallarini aks ettiradilar.

Romantizm adabiyoti o'z qahramonini ham ilgari suradi. Romantik qahramon, asosan, yuksak va nozik his sohibi, boshqalar bo'ysunuvchi qonunlarga bo'ysunmaydigan mag'rur shaxsdir. Shuning uchun u doim boshqalardan ustun qo'yiladi va ajralib turadi. Bunday qahramon ko'pincha yolg'iz bo'ladi. Shu sababdan

yolg'izlik mavzusiga juda ko'p janrlarda, asosan, she'riyatda keng o'rin berilgan.

Romantiklarning shaxs ichki dunyosiga bo'lgan qiziqishi lirik va liro-epik janrlarning gullab-yashnashiga sabab bo'ldi.

Yangi tarixiy sharoitda Ovrupada, ma'rifatparvarlar kutgan va ishongan «Aql-idrok» mamlakati ro'yobga chiqmadi. Romantiklar muhitning ziddiyatli ekanligini aniqladilar. Ular adabiyotda tarixiylikni kashf etdilar. Ma'rifatparvarlar esa o'tmish to'g'risida antitarixiy mazmunda («yaxshi-yomon» deb) fikr yuritgan edilar. Klassitsizm tragediyalarining sujetini, asosan, tarixiy voqealar tashkil etsa-da, ularni tasvirlanayotgan davr xususiyatlari emas, burch va tuyg'u masalasining yechimi qiziqtirgan.

Romantiklar o'tmishda nafaqat inson xarakterlarini, balki o'z zamonasi ta'sirida shakllangan xarakterlarni ham ko'ra oldilar. Ma'rifatparvarlar yuksak ma'naviyat, aql-zakovat egalari bo'lgan ko'plab ijobiy obrazlarni yaratgan bo'lsalar, romantik qahramon ijobiy bo'lishi shart bo'lmay, u muallif idealini o'zida aks ettirishi lozim edi.

Romantiklar uchun badiiy reallik mavjud reallikdan haqqoniyroqdir. Real voqelikdagi tussizlikdan (bema'nilikdan) bezgan ijodkorlar, ko'pincha, o'tmishdan ma'ni izlashadi yoki voqea-hodisalar aksar uzoq, ekzotikaga boy yurtlarda kechadi.

Shu tariqa romantizm adabiy yo'nalish sifatida XVIII asr oxiriga kelib birdaniga bir necha mamlakatlarda paydo bo'la boshladi. Estetik manifest, traktatlari bilan Germaniyadan Iyen romantiklari, Fransiya Shatobrion va de Stal, Angliya "Ko'l maktabi" vakillari chiqdilar.

Ovrupa romantizmi taraqqiyoti uchta davrga bo'linadi:

- a) Ilk romantizm (XVIII asr oxiri XIX asr boshlari)
- b) Rivojlangan romantizm (XIX asrning 20–40-yillari)
- d) Kech romantizm (1848-yildan keyingi davr)

Ammo mazkur davriylashtirish barcha Ovrupa mamlakatlari uchun bir deb bo'lmaydi. Germaniyada ilk romantizm Yen roman-

tiklari (Novalis, aka-uka Shlegelar) nomi bilan bog'liq. Ikkinchi bosqichdagi Geydelberg romantiklari davri Napoleon okkupatsiyasi va milliy uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Xuddi shu paytda aka-uka Grimm ertaklari paydo bo'lgan.

20-yillarga kelib, Gofman vafotidan so'ng va yosh Heynening realizm an'alarini yoqlab chiqish munosabati bilan nemis romantizmi egallagan mavqeyini boy bera boshladi.

Angliyada esa Shelli (1822) va Bayron (1824) ning hayotdan ko'z yumishi romantizmni ikkinchi darajali adabiy yo'nalishga aylantirdi.

Romantizm Fransiyada 30-yillarga kelib to'la shakllandi. Bu paytda Angliya va Germaniyada romantizm o'z umrini yashab bo'lgandi, deyish mumkin. Fransiya romantiklari yangi drama uchun kurashdilar. (Ungacha klassitsizm teatri hukmron edi). Drama janrining islohotchisi sifatida V.Gyugo maydonga chiqdi.

Polshada romantizm haqidagi bahslar 1810-yillarga to'g'ri keladi. 20-yillarga kelib, A.Mitskevich ijodi bilan bog'liq holda shakllandi va o'zining asosiy o'rnini uzoq vaqt saqlab qoldi.

Nemis romantizmi

Germaniyada qo'shni Fransiyada bo'layotgan voqealarni zo'r qiziqish bilan kuzatib bordilar. Germaniyaning ilg'or vakillari ularning(o'zlarining) qoloq, o'nlab mustaqil knyazliklarga bo'lingan mamlakatida inqilobiy o'zgarishlar bo'lmasligiga ko'zlari yetdi. Shuning uchun ular ma'naviy sohada inqilob qilishga harakat qildilar.

Nemis romantiklari idealist Fixtning «O'z diqqat-e'tiboringni seni o'rab turgan atrof-olamga emas, balki o'zingga qarat», – degan falsafiy qarashlarini yoqlab chiqdilar.

Inson o'z xohish, intilish va harakatlari tufayli yanada yaxshiroq bo'lishi mumkin va kerak. Bunda unga yordam berish kerak. Nemis romantiklarining asosiy vazifa va maqsadi ana shundan iborat edi.

Nemis romantizmi tarixini 3 ta davrga bo'lish mumkin:

1) 1795–1805-yillar – Yen romantiklari F.Shlegel, Novalis, Tiklar davri;

2) 1806–1815-yillar – Geydelberg romantiklari K.Breyntano, A.Arnimlar nemis folklorini yig'ishga katta e'tibor berdi. Bu vaqtda aka-uka Grimmlar ham ana shular to'garagida edi.

3) 1815–1848-yillar – Napaleon inqirozidan so'ng romantiklarning harakat markazi Berlinga ko'chdi.

Bu yerda Gofman, Shamisso, Heyne (ilk ijodi) va Byuxerlar ijod qildi.

Nemis romantiklarining katta ishlaridan biri – xalq og'zaki ijodini o'rganishlari bo'ldi. Yakob (1785–1863) va Vilgelm (1786–1859) Grimmlar folklorning estetik qimmatini yuksak qadrlaganlardan edi: Ularning tarix, til tarixi, huquq va mifologiya bo'yicha bir qancha ilmiy maqolalari mavjud. Ammo ularga xalqdan yozib olingan 3 tomli va 200 ta ertakdan iborat «Bolalar va xonadon ertaklari» (1812–1822) katta shuhrat keltirdi. Ular ertaklarni butun Germaniya bo'ylab yurib turli toifa odamlardan yozib oladilar.

Ertaklarni 3 guruhga bo'lish mumkin: sehrli, hayvonlar haqidagi (Bo'ri va yetti echkicha), «Bremen muzikantlari») va maishiy ertaklar.

Barcha ertaklarda mehnatni sevuvchi, dono, sabr-toqatli qahramonlar doimo g'alaba qozonadilar.

A.S.Pushkin «Oltin baliq va baliqcha haqida»gi ertagida «Kambala baliq haqidagi ertak» epizodidan foydalangan.

Fridrix Shlegel (1772–1829). Avgust va Fridrix Shlegellar nemis adabiyotshunosligi faniga asos soldilar.

Antik madaniyatni chuqur his qilish, o'rta asr va Uyg'onish davri yodgorliklarini o'rganish, klassitsizm va ma'rifatparvarlik adabiyotiga tanqidiy yondashish ular uchun adabiyotga bo'lgan talablarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi.

Yunon va rimliklar merosining ahamiyati haqida fikrlar ekan, Fridrix Shlegel san'at o'zgaruvchan degan fikrga keladi. Shuning

uchun insoniyat rivojlanishidagi har bir yangi bosqich badiiy ijod oldiga yangi vazifalar qo'yadi.

Yangi san'atning asosini: "Fransuz inqilobi, Fixtning "Fan ta'limoti" va Gyotening "Meyster"i tashkil etadi", – deb yozadi Shlegel.

Nemis romantiklari san'atkorlarni odamlar orasidagi oliy mavjudot sifatida ulug'ladilar. "Odamlar yer yuzidagi boshqa mavjudotlardan qanchalik ustun bo'lsalar, san'atkorlar odamlardan shunchalik ustundirlar", – deb yozadi Shlegel.

Nemis romantiklarining asarlarida bu g'oya u yoki bu darajada o'z ifodasini topdi.

F.Shlegel adabiyotga romantik kinoya tushunchasini olib kirdi; romantik kinoya nafaqat nemis romantiklari, balki keyingi davr yozuvchilariga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Shamisso, Gofman, Gyote asarlarida romantik kinoya o'zining aniq ijtimoiy ifodasini topdi.

F.Shlegel o'zining nazariy qarashlarini 1799-yilda yozilgan "Lyo'sinda" povestida ifoda etdi. Asar sujeti zamondoshlarini lol qoldirdi, chunki Yuliy va Lyo'sinda (rassomlar) obrazlarida ular muallif va Doroteya Fetni tanidilar.

Romantik yozuvchi nuqtai nazaridan qahramon muallifning aksi bo'lib adabiyotga o'tishi, adabiyot o'z navbatida hayotga aylanishi kerak.

Ernst Teodor Amadey Gofman (1776–1822). Gofmanning fantastik novella va romanlari nemis romantizmining eng katta yutug'i hisoblanadi. U muhitni aql bovar qilmaydigan (iratsional) holda qabul qiladi, chunki shunday holda dunyoviy uyg'unlik (garmoniya) mumkin emas.

Gofman asarlarida, ko'pincha, personajlarning ikkiga ko'payish hollarini kuzatish mumkin. U XIX asr yozuvchilari orasida birinchi bo'lib, inson naturasining ikkiga ko'payishini ochdi. Ya'ni Gofman asarlarida insonning qarama-qarshi xislatlari alohida, aralashmagan holda maydonga chiqadi.

Bo'lajak yozuvchi Kyonisbergda tug'ildi. Huquq fakultetini bitirdi. Tirikchilik vajidan boy byurgerlarning qizlariga musiqadan saboq berdi. 1814-yildan to umrining oxirigacha Berlinda yashadi. Gofman umr bo'yi nochorlikda hayot kechirdi.

San'at va san'atkor mavzusi – Gofman ijodining asosini tashkil etadi. Uning asarlarida iqtidorli musiqachilar, san'atkorlar doimo Germaniyaning zerikarli, pastkash hayotida bo'g'iladilar, o'z ideal-lari va nemis hayoti o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni ko'rib azob chekadilar.

1809-yilda "Umumiy musiqa gazetasi"da "Kavler Glyuk" no-vellasi bosilib chiqdi. Shundan so'ng kompozitor Kreyslarga bag'ishlangan boshqa asarlari ham paydo bo'lgan va ularni "Kallo ruhidagi fantaziya" to'plamiga biriktiradi (1814–1815). (Jak Kallo – XVII asr fransuz rassomi). Ushbu to'plamdagi hikoyalar marka-zida musiqachi va kompozitor Iogan Kreysler turadi. Kreysler – dar-badar musiqachi. U juda ham iste'dodli bo'lsa-da, tirikchilik uchun ko'chada kezib yurishga majbur. U san'atni hayotdan ham ustun qo'yadi. Haqiqiy san'at ko'plab burjua-zodagonlar uchun tushunarli emas. Ushbu jamiyatda san'at ularning past, jirkanch, ma'naviyatdan uzoqdagi hayotini bezash, ovunish uchun xizmat qiladi xolos.

Gofmanning «Sinnober laqabli mitti Saxes» (1819) ertagidagi voqealar mitti nemis knyazligida yuz beradi. Romantik bo'yoqlarda tasvirlangan barcha voqealar Gofman yashagan davrning hajviy qi-yofasini ochib tashlaydi.

Saxes – kambag'al dehqon ayoli Lizaning xunuk o'g'li. Pari Rozabelverde (Rozenshen) bu ayanchli, bedavo bolaga uch dona tilla sochini sovg'a qiladi. Atrofdagilar ko'z oldida ajoyib mo'jiza sodir bo'ladi. Odamlar Saxesni haddan tashqari chiroyli, aqlli deb taniydilar. Uning yuqori tabaqadan kelib chiqqanligi va undagi ko'pdan-ko'p fazilatlar haqida gapiradilar. Saxes oliy zot darajasiga ko'tariladi va juda osonlik bilan katta lavozimlarga erishadi. Boshqa-lar hisobiga boyib, qudratli bo'lib ketadi. Kichkina Saxes ko'pdan-ko'p tahsin-u tasannolarga, mukofot va imtiyozlarga sazovor bo'ladi.

Bu mo'jizalarning barchasi knyaz Pafnutiy mamlakatida ro'y beradi. Bu knyaz maxsus farmon bilan o'z mamlakatida "ma'rifat" joriy qilgan. Mana shunday davlatda mitti Saxes saroyning birinchi ministri bo'ladi va knyazlik ishlarini hal qiluvchi qudratli kishiga aylanadi. Sinnoberning sehri bu knyazlikda yashovchi barcha odamlarni o'z domiga tortgan. Knyazlik baayni jinnixonaga aylanadi.

Ammo yolg'iz shoir yigit Baltazar bu sehr ta'siridan tashqarida. Baltazar romantik xayolparast kishi. U o'sha knyazlikdagi bema'ni tartiblarga she'riyat, shirin xayollar og'ushini qarama-qarshi qilib qo'yadi. Baltazar atrofdagilarni es-hushlarini yig'ishtirib olishga chaqirsa, uni hamma aqlidan ozgan deb hisoblaydi. Sinnober laqabli mitti Saxes Baltazar baxtiga ham g'ov bo'ladi. Baltazarning Kandida ismli sevgilisini tortib olib, unga uylanmoqchi bo'ladi.

Barcha sehrgarliklar, mo'jizalar sirini biladigan "ma'rifatli" knyazlikda ana shu ajoyib-g'aroyiblarni tarqatadigan doktor Prosper Alpanusning o'zi Baltazarga yordam qo'lini cho'zadi. Mitti davlatning mitti ministri Sinnoberning Kandida bilan nikohi oldidan Baltazar uning boshidan sehrli tilla soch tolalarini yulib oladi. Shunda sehrning hech qanday ta'siri qolmaydi.

Nemis romantiklari orasida Gofman kitobxonlarga juda yaqin edi. 20-yillardan boshlab uning asarlari ko'plab tillarga tarjima qilindi. Rus demokrat tanqidchisi V.G.Belinskiy Gofmanni Germaniyaning buyuk shoirlaridan biri deb, uni jahon adabiyotining yirik yozuvchilari bilan bir qatarga qo'yadi.

Gofman o'z hayotidagi qarama-qarshiliklarni «qora va yorug'» kuchlar kurashi sifatida tasvirlaydi. Qora kuchlar – boylik, mansabparastlik, egoistik ko'rinishlar. U bu kuchlarni chizishda grotesk va satiradan unumli foydalanadi. Ular ba'zida dahshatli kuchlar sifatida tasvirlanadi. Yorug' (sof) kuchlar esa insonning sof hislari va uning orzu xayollar dunyosidir.

Gofmanning «Magnitzor»da «Qo'rqinchli mehmon» novellalarida sevgi yirtqich instinkt sifatida tasvirlanadi. Birinchi novellada Alban ismli yigit baron xonadoniga keladi. Baronning Mariya ismli

qizi bo'lib, u Ippolit degan yigitga unashtirilgan edi. Alban Mariyani sevib qoladi va asta-sekin uni o'ziga bo'ysundirib, ixtiyorini o'ziga bog'lab qo'yadi. Ippolit bilan Mariyaga nikoh o'qilayotgan paytda qiz hushsiz yiqiladi. U endi Albansiz yashay olmas edi. Albanning yirtqichlarcha istagi Mariyani halok etadi.

Gofmanning «Mushuk Murning xotiralari» romani (1821) ham juda mashhurdir.

Fransuz romantizmi

1789–1794-yillarda sodir bo'lgan fransuz inqilobi natijasida paydo bo'lgan fransuz romantizmi adabiyoti ikki bosqichni bosib o'tdi. Birinchi bosqich 1800–1810-yillarni, ikkinchi bosqich 1820–40 yillarni o'z ichiga oladi. Lekin J.Sand, V.Gyugo singari romantiklar ijodi mazkur davriylashtirish chegarasidan chetga chiqadi. Tasviriy san'atda esa romantizm 1860-yillargacha saqlanib qoldi.

Birinchi bosqichda yaratilgan asarlarda keskin sujet kuzatilmaydi. Yozuvchilarning e'tibori kuchli his-tuyg'u, ehtirolarni tasvirlashga qaratiladi. Shu bois Ovrupa mamlakatlari romantiklarining sevimli yozuvchisi bo'lgan Shekspir Fransiyada ajabtovur vaziyat va o'xshashi yo'q tuyg'ular tasvirchisi sifatida talqin etilgan. 1796-yili Jermena de Stal "Tuyg'ularning alohida shaxslar va xalqlar soadatiga ta'siri" nomli traktatini e'lon qiladi. Bu davrda muhabbat mavzusidan tashqari ozodlik mavzusi ham muhim o'rin tutadi. Erkka intilish ham kuchli ehtiros darajasini olishi mumkin.

B.Konstanning "Adolf" romanlari Shatobrianning "Atala", "Rene" qissalari ana shu mavzuga bag'ishlangan.

Mavjud ijtimoiy tuzumni inkor etish va ozodlikka intilish tabiat, ayniqsa, yovvoyi tabiat tasviriga qiziqishning ortishiga olib keldi. Bu borada tabiat tasviri, sevgi va yolg'izlik mavzulari singari fransuz romantizmining asosiy jihatlariga aylandi. Amerikadagi hindu qabilalarining hayoti, ekzotik Sharq o'lkalaridagi mahalliy peyzaj tasviri nursiz real borliqqa qarshi qo'yiladi. Fransuz romantizmining

har ikki davri uchun ham xarakterli bo'lgan orientalizm (Sharq mavzusiga murojaat) paydo bo'ladi. Shu bilan birga, bu davrda san'at, ayollar erki mavzulari J.De Stalning "Korinni", "Delfina" romanlari orqali talqin etildi.

Ikkinchi bosqichda his-tuyg'ular, qahramon iztiroblari tahlili o'rnini o'tkir sujet egallaydi. 1830-yillardagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar dramatik turning rivoj topishiga sabab bo'lgan. V.Gyugo, Lamartin, Myusse lirikasida inson ruhiy olami tasviri asosiy o'rin egalladi. Mazkur bosqichda tarixiy roman va drama paydo bo'ldi. A.De Vinining "Sen-Mar", V.Gyugoning "Parij Bibi Mariyam ibodatxonasi", "Xo'rlanganlar", "Kulgich odam", "To'qson uchinchi yil" romanlari, V.Gyugo, A de Myusse va A.Dyuma (otasi) ning tarixiy dramalari ikkinchi bosqichda yaratilgan asarlardir. Fransuz romantizmidagi tarixiylik o'ziga xosdir. Ijodkorlar uchun tarixiy haqiqatdan ko'ra sodir bo'layotgan voqea-hodisaning ruhiy-ma'naviy mohiyati muhimdir.

Fransuz romantizmining ikkinchi bosqichida Ovrupa romantiklarining ko'plab asarlari tarjimalari paydo bo'ldi: Shlegelning "Dramatik san'at va adabiyot haqida ma'ruzalar"i, Bayron she'rlari, fransuz romanchiligiga katta ta'sir ko'rsatgan V.Skott romanlari, Gofman ertak va novellalari shular jumlasidandir. Aslida nemis adabiyoti va falsafasiga bo'lgan qiziqish birinchi bosqichda J.De Stalning "Germaniya haqida" (1813) kitobidan so'ng paydo bo'lgan.

Bu davr tasviriy san'atida David (1748–1825), Jeriko (1791–1824), E.Delakrua (1796–1863) singari rassomlar ijodida romantizm yo'nalishining eng sara asarlari yaratiladi.

Viktor Gyugo (1802–1885). Viktor Gyugo fransuz va Ovrupa romantizmining yirik vakili hisoblanadi. Fransuz romantizmida Viktor Gyugoga teng keladigan ijodkor topilmaydi. U shoir, dramaturg, romannavis, romantizm nazariyotchisi, siyosiy arbob, insonparvarlik g'oyalarining tolmas targ'ibotchisi sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Viktor Gyugo Bezonsen shahrida ofitser oilasida tug'ildi. Otasi Napoleon davrining generali, onasi esa aksincha, Burbonlar tarafdori edi.

Shoir o'zining birinchi she'rlarida burbonlarni madh etadi. Ijodiy faoliyatini she'rlar yozishdan boshlagan Viktor Gyugoning 1822-yili "Qasidalar", 1829-yilda "Qasida va balladalar" nomli she'riy to'plamlari chop etilgan. Dastlabki to'plamlarining nomlanishi yosh shoirning klassitsizm an'analari ta'sirida bo'lganligidan dalolat beradi.

Uchinchi she'riy to'plami "Sharqona" (1829) deb nomlanadi. To'plamga yozilgan so'zboshini yosh ijodkorning dasturi sifatida qabul qilish mumkin. Unda shoirning mavzu tanlashdagi erkinligi targ'ib etiladi.

1820-yillarda V.Gyugoning dunyoqarashi va ijod tamoyillari shakllandi. 1823-yilda "Valter Skott haqida" maqolasida V.Skott va Homer ijodiy "kashfiyotlari"ni uyg'unlashtirish bilan birga roman janrida drama imkoniyatlaridan unumli foydalanish haqida yozadi. Mazkur ijodiy g'oyalarini keyinchalik "Parij Bibi Mariyam ibodatxonasi" romanida mahorat bilan qo'llaydi.

1827-yili birinchi asari «Kromvel» (XVII asr Angliya burjuaziya inqilobi yetakchisi Kromvel haqida) dramasi yaratadi va unga kengaytirilgan so'zboshi yozadi. Ushbu so'zboshi Fransuz romantizmining manifestiga aylandi. Romantik dramalar Gyugogacha ham yaratilgan. Biroq klassitsizm hukmronligi davrida dramalar sahnalashtirilmagan. Ular "o'qish uchun yozilgan dramalar" deb atalar edi. Viktor Gyugo Shekspir tajribasidan foydalanib tragediya emas, romantik tarixiy drama yaratadi. U klassitsizm adabiyoti qonun-qoidalaridan voz kechishga (vaqt, makon, harakat birligi, yuqori va quyi janrlar) chaqiradi. Viktor Gyugo Shekspir ijodini ana shunday qonun-qoidalardan xoli deb biladi.

Mazkur so'zboshi romantik tarixiylik, grotesk usuli, borliqni tasvirlash tamoyillari hamda dramaning san'at asari sifatidagi xususiyatlari bayon etilganligi bilan ahamiyatlidir. V.Gyugo drama haqidagi nazariy qarashlarini 1829-yilda yaratilgan "Ernani" pyesasiga tatbiq etadi. Unda klassitsizmning uch birlik qoidasiga rioya etilmaydi. Asar voqealari turli joylarda bo'lib o'tadi. Klassitsizm tragediyasida

oliy darajadagi haqiqat hakami vazifasini qirol bajargan bo'lsa, mazkur asarda bu vazifani fuqarolik huquqlaridan mahrum bo'lgan qaroqchi Ernani ado etadi.

1831-yili «Parij Bibi Mariyam ibodatxonasi» romani yaratildi. Asar mavzusi XV asrdagi Fransiya tarixidan olingan.

V.Gyugo o'rta asr ibodatxonasi ustunlaridan birida «Ananke» so'zini o'qidi. (taqdir, qismat degani) Yozuvchi bu so'zga keng ma'no berdi. (Din anankesi, jamiyat anankesi va boshq). Asar sujeti quydagicha:

Ibodatxona ruhoniysi Klod Frollo – o'z umrini din yo'liga tikkan odam. U yoshi o'tib qolgan bo'lishiga qaramay Parij ko'chalarida o'yinga tushib tirikchilik o'tkazuvchi lo'li qiz Esmiraldani sevib qoladi. Qiz buni rad qiladi. Frollo kapitan Feb bilan Esmiraldani kuzatib yuradi. Qizni qirol armiyasi ofitseriga suiqasd qilishda ayblab, o'linga hukm qiladilar. Uni jazolash uchun olib ketayotganda Kvazimodo uni ibodatxonaga olib ketadi. U qashshoq odamlar bilan ibodatxonada yashaydi.

Frollo qizga o'z sevgisini majburlab o'tkazmoqchi bo'ladi, ammo bu befoйда. U qizni jallodlar qo'lga topshiradi. Qizni dorga osishadi. Kvazimoda Klod Frolloni o'ldiradi. O'zi ibodatxonani tark etib Esmiralda jasadi oldida jon beradi.

Asardagi ibodatxona – o'rta asrchilik, feodalizm, zulm, adolat-sizlik maskani sifatida tasvirlangan.

Viktor Gyugo 1862-yili «Xo'rlanganlar», 1869-yili «Kulgich odam», 1874-yili esa «93 yil» romanini yaratdi.

XIX asr Daniya romantizmi

Daniya romantizmi milliy adabiyot an'analari negizida paydo bo'ldi. Shu bilan birgalikda Daniya romantizmi rivojlanishiga nemis va ingliz romantiklari katta ta'sir ko'rsatdilar.

Daniya romantizmining boshlanishi shoir va dramaturg Adam Eleklegerning 1802-yili chop etilgan «Oltin shohlar» she'riy to'plami bilan bog'liq.

Daniya romantizmida afsona va ertaklar alohida o'rinda turadi. 1810–1820-yillar Daniya adabiyotida ertaklar davri deb ataladi. 1818-yilda Yu.Til «Daniya xalq rivoyatlari», S.Grundvich «Qadimgi Daniya rivoyatlari» (1854–1861), Vinter «Daniya xalq ertaklari» to'plamlarini chop ettirdilar.

1816-yili Elekleger «Turli xalqlar ertaklari» to'plamini nashr etdilar. Bu davrda adabiyotga buyuk daniya ertakchisi H.K.Andersen kirib keldi.

Hans Kristian Andersen (1805–1875). Buyuk ertakchi Odens shahrida, etikdo'z oilasida dunyoga keldi. 1819-yili Kopengagenga keladi. 1822-yili Andersen qadimgi skandinav sujeti asosida yozilgan, «Elflar qo'shig'i» asarlarini teatrga olib keldi. Katta qiyinchilik, muhtojlikda avval gimnaziyani, keyin esa universitetni tamomladi.

Andersen Kopengagenga kelishidan oldinroq she'rlar yoza boshlagan. Dramatik asarlardan 1 aktli «To'ng'ich» satirik pyesasi shuhrat qozondi. Andersen 6 ta romanning muallifi hisoblanadi. Uning «Improvizator», «Faqat skripkachi» romanlari mashhur bo'ldi. Andersen romanlari Daniya romantizmi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Uning romanlarini V.Skott va V.Gyugo asarlariga qiyoslashadi.

Lekin yozuvchiga umumjahon miqyosida shuhrat keltirgan asarlari – uning ertaklari bo'ldi. U 1835-yildan ertaklar yoza boshlagan. Adabiy ertaklardan ko'ra xalq ertaklariga yaqin turuvchi bu asarlar xalq orasida mashhur bo'ldi. 1835–1841-yillarda Andersenning «Bolalarga atalgan ertaklar» to'plami nashr etildi. Bu to'plamdan «Chaqmoqtosh», «Kichkina Klyaus va katta Klyaus», «Yo'ldosh», «Yovvoyi oqqushlar», «Cho'chqaboqar» kabi ertaklar o'rin oldi. Bu ertaklar xalq ertaklari asosida yozilgan. Ushbu to'plamda boshqa xalqlar asarlari asosida yozilgan badiiy ijod namunalari (asarlar) ham keltirilgan. «Qirmizi bo'ta Elfi» (Italiya qo'shig'i asosida), «Uchar sandiq» («1001 kecha» asosida) kabi ertaklar ham kiritilgan. Shunigdek bu to'plamga Andersenning o'zi to'qigan «Kichkina Idaning gullari», «Dyumchaxon», «Suv parisi», «Baxt kovushlari», «Jannat bog'i», «Ole Lukoye» ertaklari ham kiritilgan.

Andersenning ertaklari o'quvchilar va adabiyot tanqidchilarining e'tiborini o'ziga tortadi. Bolalarga atalgan bu ertaklar o'ziga xos edi. Andersen bolalarga o'z tengiga murojaat qilganday munosabatda bo'lib, pand-nasihatchi qilmay edi. Bu ertaklarda yaxshilik faol kurashadi, inson tabiatidagi haqiqat, chin sifatlar namoyon bo'ladi.

Andersenning eng go'zal, yorqin ertaklaridan biri «Suv parisi» ertagidir. Suv parisining insonga javobsiz sevgisi haqida yozuvchi ilgari ham yozgan edi. («Samse orolidan kelgan suv parisi»)

Bu ertakda Andersen insonning go'zal ruhiy olamini nafaqat hayajonli sujet orqali, balki qahramonning ruhiy olamini chuqur ochib beruvchi psixologizm orqali tasvirlaydi.

Angliya romantizm adabiyoti

XVIII asr oxirlaridan 1830-yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ilk romantik ijodkor Uilyam Bleyk (1757–1827) sanaladi. Angliya romantizmining birinchi davri “Ko'l maktabi” shoirlari U.Vordsvort, S.T.Kolridj va R.Sauti nomlari bilan bog'liqdir. Ular shahar muhitidan yiroqda Kezik ko'li yaqinida istiqomat qilganlari bois “leykistlar” yoki “ko'l maktabi” vakillari deb ataladi. Bu davr adabiyotida tabiat manzaralari fantastika, oddiy kishilar hayoti tasviri asosiy o'rin egallaydi. She'r va poemalari bilan adabiyotga kirib kelgan, 1810-yillardan keyin “tarixiy romanlar otasi” sifatida nom qozongan V.Skott faoliyatining boshlanishi ham shu davrga to'g'ri keladi. Ikkinchi davr Bayron va Shellining ijodga kirib kelishi bilan belgilanadi. Jamiyatda shakllangan tartiblarni qabul qila olmaslik, olamni satirik bo'yoqlarda tasvirlash, siyosiy lirikaning shakllanishi shu davrga xos xususiyatlar edi.

Angliya romantizmida “Darbadar melmot” falsafiy romani muallifi Charlz Metyurin (1870–1824) ijodi ham muhim o'rin tutadi.

Ingliz romantizmida otashin va hassos shoir **Jorj Gordon Noel Bayron (1788–1824)** ijodi muhim o'rin tutadi. U 1788-yil 22-yanvarda Londonda tug'ildi. Uning otasi Angliya aristokratiyasining

kambag'allashib qolgan tabaqasiga, onasi esa shotlandiyalik boy dvoryan oilasiga mansub edi.

Otasi 1791-yilda Fransiya da vafot etadi. Bayronning bolaligi Shotlandiyada – onasi yonida o'tadi. Bo'lg'usi shoir dunyoqarashining shakllanishida Shotlandiya tabiatiga bo'lgan chuqur muhabbat alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Bayron o'n yoshga to'lganda unga lordlik unvoni meros sifatida qoladi. Bayron jahon tarixining, Angliya hayotining shiddatli davrida yashadi, ijod qildi. U fransuz burjua inqilobi va xalq harakatining guvohi bo'ldi. Bu inqilobning maqsadi sanoat to'ntarishiga, Angliya ijtimoiy hayotini o'zgartirishga qaratilgan edi.

Bayron bolaligidan siyosat bilan qiziqdi. U maktabda o'qib yurgan paytlaridanoq notiqlik san'ati bilan tanishdi. Shu bilan birga o'qigan kitoblarining asosiy qismini tarixiy asarlar tashkil etar edi. Bayron Volter, Russo, Lokk, Gibbon asarlarini ham sevib o'qidi.

1807-yilning yozida nashr etilgan birinchi she'riy to'plam «Farog'at damlari»da yoshlik orzu-xayollari, ishq-u muhabbat, hayotning quvonch-u tashvishlari haqidagi she'rlardan iborat edi.

Bayron 1809–1811-yillarda chet el sayohatiga chiqadi. Bu sayohat yosh shoirning hayot voqeligini keng, atroflicha tushunishida katta yordam beradi. U sayohati davomida Napaleon intervensiyasiga qarshi qaqshatqich zarba bergan ispan partizanlari harakatining guvohi bo'ldi. U Gretsiyadagi milliy ozodlik qo'zg'olonining guvohi bo'ldi. U hatto Villington qomondonligidagi Britaniya armiyasida Napaleon qo'shinlariga qarshi kurashda qatnashdi. Shu bilan birga Maltada – O'rta dengiz harbiy bazasidagi harakatlarini ko'rib, Buyuk Britaniya reaksion hukumatining tashqi siyosatini qoraladi. Bayron bu davrda turk, yangi grek, alban va italyan tillarini hamda xalq og'zaki ijodini o'rgandi. 1816-yilda arman tilini o'rganishga kirishdi.

Bayron sayohatlarining mevasi sifatida 1812-yilda «Chayld Gorold» dostoni yaratiladi. Bu asar Bayron shuhratini Angliya va

uning tashqarisiga yoydi. Bu asarning ilk qo'shiqlarida Bayron she'riyatidagi demokratik ruhiyat ko'zga tashlanadi.

Bayron o'z ona yurtiga qaytganida Angliyada ishchilarning stixiyali norozilik to'liqlari ko'tarilgan, ozodlik harakatlari kuchaygan edi. Ammo reaksiya bu harakatni ayovsizlik bilan bostiradi. 1799–1800-yillarda ishchilar harakatiga qarshi qonunlar qabul qilinishi natijasida bu harakat 25 yil davomida yashirin faoliyat olib borishga majbur bo'ldi.

Bayron Lordlar palatalarida bir necha marotaba nutq so'zlad. U o'z nutqlarida luddachilik harakati deb nom olgan ishchilar harakatini yoqlab chiqadi:

Bayronning 1814–1815-yillar davomida «Yahudiy ohanglari» she'riy to'plami nashr etildi. Ma'lumki, Bayron bolaligidan «Injil»ni yaxshi bilgan. Bu she'riy turkumida shoir Injil obrazlariga murojaat qiladi.

Bayron sharq adabiyotining chinakam muxlisi bo'lgan. Firdavsiy, Shayx Sa'diy, Xo'ja Hofiz singari so'z san'atkorlarining asarlari bilan yaqindan tanishgan. Bu «Sharq dostonlari» turkumining paydo bo'lishiga turtki bo'lgan. Mazkur turkumga «Gyaur» (1813), «Abidos kelinchagi» (1813), «Korsar» (1814), «Lara» (1814), «Korinf qamali», «Parizod» (1816) kabi dostonlar kiradi.

Bayronning parlamentdagi dadil chiqishlari hamda siyosiy qarashlari uchun reaksiyon-romantizm vakillari o'ch olish rejasini tuzib qo'ygan edi. Ayniqsa, Bayronning o'z xotini bilan bo'lib o'tgan mojarolaridan reaksiyon guruhlar o'z maqsadlari yo'lida foydalanmoqchi bo'ladilar. Bayronga qarshi har qanday kuchlarni ishga soladilar. Matbuotda Bayron sha'niga mos kelmaydigan turli bo'hton axborotlar tarqatiladi. Shoir vatanini tark etishga majbur bo'ladi. 1816-yil 26-aprelda Bayron Angliyadan chiqib ketadi.

Bayron 1816-yil yozida Shvetsariyada bo'lishi, uning ruhiy tushkunlik davriga to'g'ri keldi. Bu ruhiy tushkunlik bir tomondan Vatandan ajralish bo'lsa, ikkinchi tomondan oilaviy bo'lib o'tgan ko'ngilsizliklar edi. U bu davr haqida «Mening qalbm qayg'uga

tutqun bo'lsa ham, ammo qayg'uning quli emas» deydi. Bayron romantizmidagi qarama-qarshiliklar bevosita shoirning Vatandan judolik, xalq ozodlik harakatidan ajralib qolishi, shaxsiy hayotidagi fojialar bilan bevosita bog'liqdir. Shu yili xalq qahramoni Bonivar jasoratiga bag'ishlangan "Shilon tutquni" dostonini yozadi. Asar yolg'iz isyonkor shaxs qiyofasini aks ettirishga bag'ishlangan edi. Bu doston Bayronning Shilon qal'asiga borganidagi taassurotlari asosida yozilgan edi. Shilon qal'asi Jeneva ko'lida joylashgan bo'lib, bu yerda 1530–1535-yillarda respublikachi, Shvetsariyaning mustaqilligi uchun tolmas kurashchi Fransua Bonivar qamoqda saqlangan. U gersog Savatskiy buyrug'i bilan qamoqqa olingan edi.

Shoir 1817–1823-yillarda Italiyada yashadi. Bu davrda yaratilgan "Tasso shikoyati" (1817), "Mazepa" (1818) dostonlari, "Manfred" (1817), "Kain" (1821) dramalarida kishilarni adolatsizlikka qarshi kurashga chaqiradi. Bu asarlarda "Olam va Odam muammosi" markaziy masala sifatida qo'yilgan va yuksak badiiyat bilan hal qilingan.²⁵

Bayron «Manfred» (1817) dostonida isyonkor shaxs obrazini aks ettirishni maqsad qilib qo'yadi. Manfred obrazi orqali yakkalanib qolgan shaxs iztiroblari va fojiasini aks ettiradi. Manfred jamiyat aqidalaridan yuqori turuvchi, o'ziga xos qarashlarga ega bo'lgan mag'rur shaxs. U jamiyat va hayot qonunlariga qarshi turgan shaxs. Mutelik unga yot narsa.

Italiyada Bayron ijodi gullab-yashnadi. Bu davrda Italiyada karabanariylar rahbarligidagi xalq ozodlik harakati Avstriya bosqinchilariga qarshi avj olgan edi. U ko'p o'tmay Italiya inqlobiy harakati-ning ishtirokchisiga aylandi. Boloniya, Rim, Venetsiya politsiyasi u va uning do'stlarini doimo nazorat ostida saqladi. Bayronning tarixiy tragediyasi «Marks Falpero» Neapalda yozildi. Bu yerda 1820-yilning revolyutsiyasi g'alaba qozongan edi.

1821-yilda yozilgan «Kain» dramasida ham shoir «Injil» mavzusiga murojaat qildi. Drama mifologik obrazlarni aks etgan bo'lsa-da,

²⁵ Ochilov E. Otashnafas shoir/Bayron. Ushalmagan orzular. – T.: "O'zbekiston". – B.4.

unda oddiy inson, uning hayotiy kechinmalari, huquqlari haqida fikr yuritiladi.

Bayron romantizmdan realizmga o'tishga ko'prik bo'lgan «Don Juan» she'riy romani ustida, Italiyada yashagan 1819–1824-yillar davomida ishladi. Bayron ijodining yuksak cho'qqisi bo'lgan «Don Juan» romani Ovrupa ijtimoiy hayotining satirik ensiklopediyasi bo'lib xizmat qildi. Asar yakunlanmagan.

Bayron 1924-yili Gretsiyaning qamaldagi Missolungi shahrida kurash maydonida halok bo'ldi. U o'z avlodlari xilxonasi Nyustedda dafn etildi.

Bayronning ijodiy faoliyati isyonkorlik ruhi bilan sug'orilgan. U inson shaxsiy kechinmalarini katta she'riy qudrat bilan ochib bergan ijodkordir.

Bayronning isyonkor, o'z mohiyati bilan to'lg'in ijtimoiy-siyosiy she'riyati ingliz jamiyatining reaksiyon doiralariga qarshi qaratilgan edi. Butun reaksiyon matbuot Bayronga qarshi ig'volar yog'dirdi.

O'liklar sharpasi bo'ronlar oshib,

Qulog'imga xuddi nidoday kelar.

Qahramonlar ruhi yurar adashib,

Ona yurt ko'ksiga shamolday yelar.

U umrini oxirigacha sobit kurashchi sifatida ijod qildi. Uni doimo ozodlik uchun kurash maydonlari o'ziga tortdi. 1823-yilning iyunida Bayron «Gerkules» kemasini o'z mablag'i hisobiga qurollantirdi. U Gretsiya milliy-ozodlik kurashining ilhomchilaridan biriga aylandi. Grek qo'zg'alonchilarini birlashtirishda fidokorona ishlar olib bordi. Zamondoshlari uning harbiy qo'mondon sifatidagi yuksak iqtidori haqida ham so'zlaydilar.

Bayronning eng yaxshi asarlari bugun ham katta kuchga egadir. V.Belinskiy ta'biri bilan aytganda, XIX asr Promiteyining ijodiyoti ozodlik va haqiqat jarchisi sifatida butun insoniyat uchun qadrlidir.

Bayron muhabbat mavzusiga bag'ishlangan she'rlarida ham davrning muhim siyosiy, ijtimoiy-falsafiy fikrlari o'z aksini topadi:

*Yo 'qol, ey, jimjimador adabiy inja so 'zlar,
 Tarqal yolg'omu yashiq, g'iybatlarning to 'dasi.
 Nurin sohib maftunkor nafisu shahlo ko 'zlar,
 Sarxush etadi meni sevgining ilk bo 'sasi.
 Xayol tasavvurga asir qofiyabozlar,
 Yetar chuchmal tuyg'ular va ohanglar chashmasi.
 Sovuq sonetlaringiz – bachkana ehtiroslar,
 Sizga tanishmas jonbaxsh sevgining ilk bo 'sasi.*

«Sevgining ilk bo'sasi» she'ridan olingan ushbu parchada lirik qahramon jamiyatning illatlarini tanqid ostiga oladi. Bachkana ehtiroslardan xoli bo'lgan porloq tuyg'ular jarchisiga aylanadi. Yoki «Bosh suyakdan qilingan kosadagi yozuv» she'ridagi ushbu satrlar inson umrining o'tkinchiligi haqidagi falsafiy fikrlarni ifodalashga intiladi.

*Qo'rqma: men oddiy suyakman, xolos,
 So'ngan qalbimni eslab, qilma xumori.
 Endi bu kosadan chiqolmas paqqos
 U tirik boshlarning shum kirdikori.
 Men senday yashadim, sevdim va ichdim,
 Endi-chi, jonsizman, to 'ldirib may quy!
 Mastlik jinniliging ranjitmas, kechdim,
 Qurtlar chaynagandan shu menga ma'qul.*

Xullas, Bayron she'riyati mavzu jihatdan g'oyat rang-barang. Unda mavjud tartiblarga qarshi isyonkorlik ruhi kuchli bo'lib, davrning shiddatkor voqeligini o'zida mujassamlashtiradi.

O'zidan keyingi jahon adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan Bayron o'zbek xalqi orasida ham mashhur. Uning qator she'r va dostonlari Hamid Olimjon, Shukrullo, Jumaniyoz Jabborov, Muhammad Ali, Maqsud Shayxzoda, Rauf Parfi, Abdulla Sher, Sulaymon Rahmon tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan.

Valter Skott (1771–1832) tarixiy roman otasi sifatida Ovrupa romantizm adabiyotida muhim o‘rin tutadi. Shotlandiyada tug‘ilib voyaga yetgan bo‘ljak yozuvchi Makfersonning “Ossian qo‘shiqlari” ta‘sirida xalqning qadimiy rivoyat va balladalarini to‘plash va qayta ishlash bilan shug‘ullangan. Keyinchalik o‘zi ham balladalar yoza boshlagan.

1805-yilda nashr etilgan “So‘nggi menestrel qo‘shig‘i” liro-epik dostoni uning nomini mashhur qildi.

XVI-XVII asr Shotlandiya tarixiga oid mazkur asardan so‘ng “Marmion” (1808), “Ko‘l parisi” (1810) dostonlari paydo bo‘ldi. “Ko‘l parisi” da Shotlandiya tabiati manzaralari mahorat bilan tasvirlanadi. Ana shu asar tasvirida Shotlandiyaning go‘zal manzaralarini tomosha qilish uchun keladigan sayyohlar soni keskin oshadi. Bundan keyingi dostonlari u qadar shuhrat qozonmaydi. Chunki bu davrda ingliz she‘riyatiga noyob iste’dod – Bayron kirib kelgan edi.

1814-yili adabiyotdagi birinchi tarixiy roman “Ueverli” paydo bo‘ldi. Nashrdan so‘ng katta qiziqishga sabab bo‘lgan asar muallifi 1827-yilgacha kitobxonlar uchun noma‘lum (roman “Ueverli muallifi” degan taxallus bilan chop etilgan edi) bo‘lib qoladi.

V.Skott tarixiy jarayonlarni emas, kitobxon uchun qiziq va dolzarb bo‘lgan davr va voqealarni tasvirlashni maqsad qilib qo‘yadi. Yozuvchining muhim badiiy kashfiyoti qahramon taqdirini tasvirlanayotgan davr xususiyatlari bilan uyg‘un holda tasvirlagani bilan belgilanadi. Asarning so‘nggi so‘zida muallif asosiy maqsadi “Vatanimizda yo‘qolib borayotgan axloqiy qadriyatlarni aks ettirish bo‘lganligini ta’kidlaydi. Shotlandiya tarixi mavzusi “Puritanlar” (1816), “Rob Roy” (1818) romanlarida ham davom ettirildi”.

1820-yili “Ayvengo” romani paydo bo‘ladi. O‘z davrida katta muvaffaqiyat qozongan asar hozirgacha V.Skottning eng ko‘p o‘qiladigan romani hisoblanadi. Asarda Angliyaning XII asrdagi tarixiga murojaat qilingan. Romanning 1930-yilgi nashrga yozilgan kirish so‘zini adabiyotda tarixiylikning mohiyati bo‘yicha yozuvchining dasturi sifatida qabul qilish mumkin.

Asardagi asosiy voqealar – norman va sakslar o'rtasidagi to'qnashuvlar fonida Ravekka, Ayvengo, Robin Gud singari eng yaxshi insoniy fazilatlar sohibi bo'lgan qahramonlar tasviriga keng o'rin ajratilgan. Asarda nafaqat tarixiy-qahramonlik muhitini aks ettirish, balki muhabbat, ezgulik, sadoqat, fidoyilik singari azaliy, hech qachon eskirmaydigan insoniy fazilatlarni yoritib berish muhimdir.

San'at asari mavzusi sifatiga XVIII asr oxirida predromantik oqim vakillari murojaat etganlar. Ular, asosan, o'rta asrlar tarixiga murojaat qilganlar. Romantiklar ana shu davrni sirli va jozibador muhit sifatida ma'rifatparvarlarning "aqlga muvofiq" jamiyatiga qarshi qo'yadilar. Romantiklar V.Skottgacha tarixni mufassal yoritishga urinmaganlar, o'tmish hozirgi davr haqidagi g'oya va mulohazalarni bayon etish uchun fon vazifasini o'tagan edi. Shuning uchun ham tarixiy ziddiyatlarni tasvirlash birinchi navbatdagi vazifa sifatida ko'rilmagan. V.Skott Shekspirning tarixiy xronikalaridan o'rgangan holda muallif o'tmish va hozirgi kunni bog'lovchi zanjir bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Shotland yozuvchisining tarixiy romanlari adabiyotda hodisa bo'lib qolmay, uning tarixida yangi sahifani ham ochdi. V.Skott ta'sirida XIX asr davomida tarixiy roman janri taraqqiy etdi. Uning ijodiy tajribasidan foydalangan izdoshlari orasida V.Gyugo, A.de Myusse singari romantizm vakillaridan tashqari F.Stendal, O.de Balzak, P.Merime, Ch.Dikkins, U.Tekkerey singari realizm namoyandalari ham bor. V.Skott ijodi Rossiyada tarixiy nasrning shakllanishida (A.S.Pushkinning "Kapitan qizi", N.V.Gogolning "Taras Bulba asarlari") muhim o'rin tutgan.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Romantizm atamasining paydo bo'lishi.
2. Romantizmning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-siyosiy omillar.
3. Romantik qahramonga ta'rif bering.
4. Nemis romantizmining asosiy xususiyatlari.

5. Gofman ijodida grotesk.
6. Aka-uka Grimmlarning nemis romantizmidagi oʻrni.
7. V.Gyugo – romantizm nazariyotchisi.
8. V.Gyugo ijodida ramziy obrazlar.
9. Bayron ijodida shaxs erki mavzusi.
10. Bayron ijodida Sharq mavzusi.
11. B.Skottning tarixiy roman janrining shakllanishidagi oʻrni.

Adabiyotlar

1. Азизов Қ, Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1982.
2. Храповицкая Г.Н., Коровин А.В. История зарубежной литературы: Западноевропейский и американский романтизм. – М.: Флинта: Наука, 2003.
3. Елизарова М. и др. История зарубежной литературы XIX века. – М.: 1972.
4. Жирмунский В.М. Байрон и Пушкин. – М.: 1978.
5. Виноградов А. «Байрон». – М.: 1985.
6. Bayron. Saylanma, sheʼrlar, dostonlar. – Т.: 1974.

REALIZM VA TANQIDIY REALIZM ADABIYOTI

REJA:

1. Adabiyotda realizm tushunchasi: tanqidiy realism.
2. Fransuz realizm adabiyoti:
 - a) F.Stendal ijodi;
 - b) O.Balzak ijodi;
 - s) P.Merime ijodi;
 - d) G.Floberning "Bovari xonim" romanida romantizm adabiyotiga munosabat.
3. Ingliz tanqidiy realizmi:
 - a) Ch.Dikkens ijodi;
 - b) U.Tekkerey ijodi.
4. Nemis realizm adabiyoti. H.Hayne ijodi.

Tayanch soʻz va iboralar: realizm: tanqidiy realizm; F.Stendal: "Qizil va qora"; Balzak: "Insoniyat komediyasi"; P.Merime: novella; G.Flober: "Bovari xonim"; Ch.Dikkens: satira; U.Tekkerey; H. Hayne.

Adabiyotda realizm tushunchasi

Borliqni, inson va uni oʻrab turgan dunyoning oʻziga xos tomonlarini aks ettiruvchi uslub sifatida realizmni ilk bor toshlarga oʻyilgan suratlarda, antik davr asarlarida uchratishimiz mumkin. Biz Uygʻonish davri, maʼrifatparvarlik davri realizmining oʻziga xos xususiyatlari toʻgʻrisida gapirishimiz mumkin, biroq realizm adabiy oqim sifatida XIX asrning 30–40-yillariga kelibgina toʻlaqonli shakllanadi.

"Realizm" (lot. *realis* – mavjud, haqiqiy) – adabiyotshunoslikda realizm termini tor va keng maʼnolarda qoʻllaniladi. Keng maʼnoda realizm terminining maʼnosi badiiy asar (unda tasvirlangan badi-

iy voqelik) bilan real voqelik munosabatidan kelib chiqadi. Ya'ni bu holda realizm umumestetik tushuncha bo'lib, hayotni reallikka muvofiq tasvirlashni, hayot haqiqatini bildiradi. Har qanday badiiy asarda voqelik u yoki bu tarzda aks etishi, voqelikni hayotga monand tarzda aks ettirish esa qadimdan mavjudligi e'tiborga olinsa, bu ma'nodagi realizmning ildizlari juda qadim zamonlarga taqalishi tabiiydir.

Tor ma'noda realizm hayotni haqiqatda mavjud narsa-hodisalar mohiyatiga muvofiq tarzda, voqelikda mavjud faktlarini *tipiklashtirish* asosida yaratilgan badiiy obrazlar orqali aks ettirishga asoslanuvchi ijodiy metod va ongli ravishda shu metodga tayangan *adabiy yo'nalishni* bildiradi. Ushbu metod(yo'nalish)ning maydonga chiqishi XIX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Realizm metodida adabiyotning *bilish funksiyasi* ustuvor ahamiyat kasb etadi, realist ijodkorlar adabiyotni olam va odamni (jumladan, o'zini) idrok etishning muhim va samarali vositasi deb biladilar. Shunga ko'ra, realizm hayotni butun murakkabligi bilan keng ko'lamda aks ettirishga intiladi.

XIX asrning o'rtalarida maydonga chiqqan realizm metod(yo'nalish)i sho'ro adabiyotshunosligida tanqidiy realizm deb, sho'ro adabiyotining metodi esa sotsialistik realizm deb yuritilgan. Har ikki terminning ilmiy muomalaga kirishi ham M.Gorkiy nomi bilan bog'liqdir. Bularidan birinchisini *tanqidiy* deb atarkan, M.Gorkiy bu davr realistik adabiyoti namunalarining aksariyati mavjud burjua tuzumdagi ijtimoiy munosabatlarni teran tahlil etishi va uning insoniylikka zid mohiyatini ochib berishi hamda g'oyaviy-badiiy inkor qilishidan kelib chiqadi".²⁶

XIX asr realizmini uning tahlil(tadqiqot)ga moyilligini (analitizm) hisobga olib «tanqidiy» yoki «klassik» deb ataydilar. Realizm shaxs va jamiyatni doimiy harakatda, dinamik aloqalarda aks ettiradi. Buning uchun badiiy tasvirning turli shakllaridan foydalaniladi.

Realizm adabiyoti faqat o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lgan holda, boshqa adabiy sistemalar "kashfiyotlaridan" ham

²⁶ D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. -- T.: "Akademnashr", 2010.

unumli foydalanadi, ularni to'ldiradi. Masalan, XIX asr boshlarida romantizmga xos bo'lgan tipiklashtirishning bir qancha xususiyatlarini qabul qilsa, asr oxirida naturalizm va simvolizm yutuqlaridan foydalanadi.

Shanflyori va Dyuranti boshchiligidagi bir guruh fransuz yozuvchilari "realizm" terminining paydo bo'lishiga sababchi bo'ldilar. Ular XIX asrning 50-yillarida ushbu termin bilan haqqoniy, muallif munosabatisiz, borliqni aks ettirilishini atadilar.

Realistik san'at o'z tadqiqotlarida fan kashfiyotlariga, avvalambor, jamiyat rivoji haqidagi fanlarga tayanadi. (Masalan, XIX asrning 20–30-yillarida Angliya va Fransiya tarix fanining rivojlanishi, buyuk ingliz iqtisodchisi Adam Smitning tannarx, jamiyatining sinfiy sutrukturasi haqidagi tadqiqotlari va b.). Realistik dunyoqarashining shakllanishida dunyoviy bilimlarda erishilgan kashfiyotlar ham katta ahamiyat kasb etdi. (XVIII asr o'rtalarida K.Linniy o'simliklar va hayvonot dunyosining birinchi klassifikatsiyasini tuzdi, J.Byufon barcha jonzorlar umumiyligi va ular turlarining muhit almashuviga qarab o'zgarishi, J.Kyuvening tirik organizm a'zolari orasidagi aloqa va ularning bir-biriga ta'siri haqidagi fikrlari va b.). Fransuz adibi O.de Balzak ham «Insoniyat komediyasi» so'zboshisida Kyuve va Sent-Ilerlarni tilga olib o'tadi.

Realizmning umumiy qonuniyatlarini ishlab chiqqan, milliy xususiyatlarini shakllantirgan yozuvchilar sirasiga Fransiya F.Stendal, O.Balzak, P.Merime, G.Flober, Sh.Bodler, P.J.Beranje; Angliyada – Ch.Dikens, U.Tekkerey, E.Gaskell, Sh.Bronte, J.Eliot; Amerikada – U.Uitmen, G.Bicher-Stou, romantizm ko'proq saqlanib turgan Germaniyada esa H.Hayne va Fontanelarni kiritish mumkin.

Fransuz realizm adabiyoti

Fransuz realizmining shakllanishi mamlakatdagi muhim siyosiy voqealar bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, 1830-yilning iyul oyida sodir bo'lgan inqilob, 1831–34-yillardagi qo'zg'olonning ta'siri

katta bo'ldi. Chunki bu tarixiy voqealar Fransiyaning siyosiy hayotidagi ulkan burilishlarga turtki bo'lib, qirol Lui Filipp monarxiyasini inqiroz holatga olib keldi.

1830–31-yillarda matbuotning nufuzi beqiyos darajada oshdiki, gazetalarda professional jurnalistlardan tortib talaba, etikdo'zgacha o'z maqolalari bilan ishtirok etdilar.

Fransuz adabiyotida tanqidiy realizm F.Stendalning “Qizil va qora” va “Parma ibodatxonasi” romanlari, Balzakning “Gorio ota”, “Gobsek”, “Yevgeniya Grande” asarlari, P.Merime novellalaridagi real voqelikka tanqidiy munosabatida ifodalanadi. Fransuz adabiyotida realizmning hukmronlik davrini ikki bosqichga bo'lish mumkin: 1) Realizmning paydo bo'lishi va tan olinishi (20-yillarning oxiri va 40-yillar) Beranje, Merime, Stendal, Balzak. 2) XIX asrning 50–70-yillar realizmi (1848-yildan keyingi adabiyot), Stendal va Balzak realizmining merosxo'ri va E.Zolya “naturalistik realizm” maktabining o'tmishdoshi G.Flober nomi bilan bog'liq. Fransuz realizmining gullab-yashnagan davri 30–40-yillarga to'g'ri keladi, ayni shu yillarda yuqorida ko'rsatib o'tilgan yozuvchilar o'zlarining salmoqli asarlarini yaratdilar. Yozuvchining jamiyatdagi o'rni haqida O.Balzak “Insoniyat komediyasi”da “Fransuz jamiyati o'ziga o'zi tarixchidir. Men esa uning tarixini tasvirllovchi oddiy kotibman”, – deb yozgan edi. Ta'kidlash joizki, XIX asrning ikkinchi yarmigacha “romantizm” va “realizm” terminlari o'rtasida ajralish bo'lmagan, realistlar – romantiklar deb atalgan. Faqat Stendal va Balzakning o'limidan keyin 1857-yili Shanfleri hamda Dyurantilar maxsus deklaratsiyalarida “realizm” terminini taklif qildilar.

Fransuz realizmining tarixi Beranjening qo'shiqqa oid ijodi bilan boshlanadi va bu tamoman tabiiy hamda obyektiv qonuniyatlarga asoslangan. Chunki, adabiyotning kichik janri bo'lgan qo'shiq, o'z zamonining barcha diqqatga sazovor hodisalariga o'z vaqtida va shiddatli javob qaytaradi. Realizmning shakllanish davrida u birinchilikni ijtimoiy romanga bo'shatadi. O'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan aynan shu janr, yozuvchiga voqelikni keng tasvirlash

va chuqur tahlil qilish uchun katta imkoniyatlarni yaratgani uchun, Stendal va Balzak o'zlarining asosiy ijodiy vazifasi – o'z ijodlarida Fransiyaning tirik siymosini to'laqonli aks ettira oldilar. Bu davrda novella janrining tengsiz namoyandasi P.Merimening hikoyalari romandan keyingi o'rinni egalladi.

Adabiy taxallusi **Stendal** bo'lgan Anri Mari Beyl(1783–1842) ning ijodi nafaqat fransuz, balki Ovrupa adabiyotida ham yangi davrni boshlab berdi. 1820-yillarning birinchi yarmida aynan Stendal realizmni shakllantirishga asos bo'lgan muhim qoidalarni nazariy jihatdan ishlab chiqdi va tez orada o'zining ajoyib badiiy durdonalarida hayotga tatbiq qildi. Bo'lajak adib Fransiyaning janubida joylashgan Grenobl shahrida advokat oilasida tug'ildi. Uning tarbiyasiga bobosi Anri Ganonning ta'siri samarali bo'ldi, u o'z davrining ma'lumotli kishisi bo'lib, nevarasini kitob o'qishga qiziqтира oldi. 1800-yili 17 yoshli Stendal Napoleon qo'shinlari safiga kirdi va bir qancha harbiy yurishlarda ishtirok etdi. Napoleon qulashi va Burbonlar qaytgandan so'ng, u Italiyaga ketishga majbur bo'ldi. Stendal 1799-yili Grenobl Markaziy maktabini muvaffaqiyatli tamomlagach, Parijdagi nafis san'at maktabiga o'qishga kirdi va shu yerda o'zining ilk asarlaridan biri "Selmur" komediyasini yozdi. 1800-yilning boshlarida u harbiy xizmatga kirib, Napoleon armiyasi bilan Italiyaga boradi, keyingi yili iste'foga chiqib, "Moler kabi shonshuhratga erishish uchun" Parijga qaytadi. Asosan, poytaxtda o'tgan 1802–1805-yillar bo'lajak yozuvchi dunyoqarashining kengayishi va estetik qarashlarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan "ta'lim olish" yillari bo'ldi. Uning bu yillarda yuritgan kundaliklari, yozishmalari va dramatik tajribalari – qizg'in aqliy, ma'naviy hayotidan dalolat beradi. 1806-yili Stendal yana harbiy xizmatga qaytadi va bu safar uning xizmati sakkiz yil davom etadi. Bu yillar unga boy hayotiy tajriba to'plash imkonini bergan yangi davrni boshlab berdi. Kitoblardan olingan bilimlari real voqelikda tekshirildi va aniqlashtirildi. 1805-yildan Napoleon to'xtovsiz urushlar olib boradi va Stendal harbiy harakatlarda qatnashadi. Ayni shu shaxsiy tajriba

keyinchalik "Parma ibodatxonasi" romanida tasvirlangan, Balzak va L.Tolstoylarni hayratlantirgan Vaterloo yaqinidagi jang tasviri sahnasini yaratishda qo'l keldi.

1814-yili Stendal Italiyaga ketadi va u yerda yetti yil yashaydi. 1815-yili uning ilk kitoblari "Gaydn, Motsart va Metastaziolarning tarjimai holi" (Lui-Aleksandr-Sezar Bombe taxallusi bilan), "Italiya tasviri san'ati tarixi" (1817) (M.B.A.A. taxallusi ostida), "Rim, Neapol va Florensiya" ocherklari (1817) (Kavaleriya zobiti baron de Stendal taxallusi ostida) nashrdan chiqdi.

1820-yillarda u Parijga qaytib kelib, "Rossining hayoti" (1823), "Rim, Neapol va Florensiya" (1826, yangi nashri), "Rim bo'ylab sayr" (1829) kitoblarini chiqardi, ingliz matbuotida Fransiyaning hayoti haqida ko'plab maqolalar e'lon qildi. 20-yillarning ikkinchi yarmida yozuvchining badiiy dasturiga aylangan "Rasin va Shekspir" adabiy risolasi ikki marta (1823; 1825) nashr ettirildi. Bunda ikki buyuk tragik shoir ijodi batafsil tahlil qilinib, san'atkor jamiyatni o'z ortidan ergashtira olsagina, o'z vazifasini uddalagan bo'ladi, deb xulosalanadi. Risola o'z ma'nosiga ko'ra realizm manifesti hisoblansa ham, Stendal o'zini romantik deb hisoblagan. «Romantizm san'atning barcha turlarida ham – qahramonlik davri odamlarini (bizdan yiroq bo'lgan va balki butunlay bo'lmagan) tasvirlash emas, balki zamonamiz kishilarini tasvirlashdir», – deyiladi risolada.

Stendalning ilk romani "Armans" (1827) bo'lib, asarda markiza de Bonnivening kambag'al jiyani rus qizi Armans Zoilova va boy zodagonlar farzandi bo'lgan Oktav de Maliverlarning fojiaiy sevgisi haqida hikoya qilinadi.

Yozuvchi 20-yillarda «Vanina Vanini» novellasini yozadi. Bunda italyan karbonariylarining inqilobiy harakatlari tarixidan bir lavha berilgan. Asar qahramoni – maxfiy tashkilotning rahbari yosh karbonar Petro Missirilli. Kunlarning birida politsiya ta'qibidan qochib, zodagon qiz Vanina Vanini xonadoniga yashirinadi. Ikki yosh bir-birini sevib qoladi va qiz yigitni inqilobiy faoliyatdan ajratish, uni tamomila o'ziga qaratib olish maqsadida maxfiy tashkilot

a'zolarini politsiyaga ma'lum qiladi. Bundan xabar topgan Petro qizni la'natlaydi, chunki u o'z shaxsiy baxtini xalq ozodligidan ustun qo'ya olmaydi.

1830-yili adibning "Qizil va qora" romani yozildi. Romandagi qizil sifati "erkinlik", "respublika" tushunchalarini anglatga, "qora" reaksion kuchlarni anglatadi. Roman sujeti 1827-yil gazetada bosilgan sud xronikasidan olingan. Antuan Berto ismli yigit o'zi o'qituvchilik qilgan xonadon bekasi Mishu xonimga suiqasd qilgan va buning uchun o'lim jazosiga hukm etilgan.

Romandagi qahramon biografiyasi zinasimon harakat sifatida tasvirlangan. Qahramon tarixi uning otasi – kambag'al duradgor xonadonidan boshlanadi. Bilimli va iqtidorli Sorelni jismoniy mehnatga unchalik uquvi yo'q. Shuning uchun unga otasi va akalari tekinko'r sifatida qarashadi. Keyingi bosqich – Verper shahri meri janob de Renal turmush o'rtog'i Luizaga muhabbati bu xonadonni tark etishga majbur qiladi.

Keyingi qadam – Bezanson seminariyasi. Sxolostik bilim berish usuli, har qadamda talabalarni ta'qib ostiga olish, ular ketidan josuslik qilish kabi seminariya tartiblari qahramonni qanoatlantirmaydi.

Nihoyat, Jyulen Parijda yirik zodagon markaz de Lya Mol saroyiga kotib va kutubxonachi bo'lib ishga kiradi. Qobiliyatli yigit tez orada ko'zga tashlanib qoladi. Markizning qizi Matilda uni sevib qolgach, qizning otasi yigitni avvalgi ish joyidan tavsifnoma so'raydi. Renal xonim katolik ruhoniysining tazyiqi ostida Sorelga salbiy tavsifnoma yozishga majbur bo'ladi. Bundan g'azablangan Sorel Renal xonimga o'q uzadi. Keyin esa qamoq va o'lim jazosi.

Romanning ikkinchi sarlavhasi "XIX asr yilnomasi" deb nomlanadi. Agar yozuvchi "Armans" romanida oqsuyaklar jamiyatidan faqatgina bir lavhani ko'rsatgan bo'lsa, "Qizil va qora"da teatr maydoni bo'lib butun Fransiya, uning asosiy ijtimoiy kuchlari xizmat qiladi: saroy amaldorlari(de La Molning dang'illama hovlisi), provinsiya dvoryanlari(de Renalning uyi), ruhoniylarning yuqori va o'rta qatlami(yepiskop Agdskiy, Bezanson diniy seminariya-

sining ruhoniylari, abbat Shelan), burjua vakillari(Valno), mayda tadbirkorlar(qahramonning do'sti Fuke) va dehqonlar(Sorellar xonadoni). Bu kuchlarning o'zaro aloqalarini o'rganar ekan, Stendal Fransiya ijtimoiy hayotining hayratlanarli darajada aniq manzarasini yaratadi. Stendalning shoh asari rasmiy tanqidchilik tomonidan e'tirof etilmadi. San'at olamida faqatgina uch kishi Gete, Balzak va Pushkin asarga munosib baho berdilar.

Shundan so'ng yozuvchi Italiyaning Chivita-Vekkiya shahriga konsul etib tayinlandi va umrining oxirigacha shu yerda yashab qoldi, faqat "ikki yoki uch kub yangi g'oyalardan nafas olish uchun" Rim yoki Parijga borib turdi. 30-yillarning birinchi yarmida u o'limidan keyin chop etilgan avtobiografik xarakterdagi "Xudbinning xotiralari" va "Anri Bryularning hayoti" asarlari, "Lyu-sen Leven"(ikkinchi nomi "Qizil va oq") romani ustida ishladi. 1836–1839-yillarni u uzoq muddatli xizmat ta'tili olishga erishib, vatani Fransiyada o'tkazadi. Bu davrda uning to'rtta qissasi "Vittoriya Akkoramboni", "Gersoginya di Palliano", "Chenchi", "Kastrolik abbatisa" bosmadan chiqdi. Ushbu asarlarning barchasi arxivlardan topilib, badiiy ishlov berilgan eski qo'lyozmalar bo'lib, ularda Uyg'onish davrida real sodir bo'lgan qonli va fojiaiy voqealar tasvirlangan. Ular "Vanina Vanini" bilan birgalikda Stendalning mashhur "Italyan yilnomalari" siklini tashkil qiladi.

Rim papasi Pavel III Farnezening sharmandali sevgi mojarolari haqidagi qadimgi qo'lyozmalardan birining mazmuni, Stendalning yana bir shoh asari "Parma ibodatxonasi"(1839) romani uchun manba bo'lib xizmat qildi. Asar hayratda qolarli darajada qisqa muddatda – atigi 53 kunda yozilgan. Bunda muallif nihoyat Italiya mavzusini – ehtirolar, insoniy faollik, o'z manfaatlaridan voz kechish mavzusini to'laqonli amalga oshirdi. "Parma ibodatxonasi" juda keng ekspozitsiyadan boshlanadi. Roman voqealari 1796-yilda bo'lib o'tadi va unda Bonapartning armiyasi avstriyaliklarning Lombardiyasiga olib kelgan tarixiy o'zgarishlar haqida hikoya qilinadi. Shundan keyin Italiyaning shimoliy qismidagi konsullik va Imperiya

davridagi voqealar, yosh Fabritsio del Dongo ishtirok etgan Vaterloo jangigacha tasvirlanadi. Aynan shu boblar haqida E.Xeminguey: “Stendal urushni ko‘rdi, va Napoleon uni yozishga o‘rgatdi. U o‘sha paytda ko‘plarni o‘qitdi, biroq boshqa hech kim o‘rgana olmadi”, – deb yozgan edi.

O‘zining so‘nggi romani “Lamel”ni tugatishga ulgurmagan Stendal 1842-yilning 22-martida apopleksiya oqibatida vafot etdi. Kunlardan birida Stendal g‘amgin istehzo bilan: “Men asosiy yutuq, asarlarimni 1935-yili o‘qishlari bo‘lgan, lotareya bileti olaman”, – deb ta’kidlagan edi. Darhaqiqat, unga yutuqli bilet nasib qilgan ekan, hozirda Stendal jahon adabiyotining eng ko‘p o‘qiladigan yozuvchilari qatoridan joy olgan.

Onore de Balzak ijodi (1799–1850) XIX asr Ovrupa realizm adabiyoti rivojlanishining cho‘qqisi hisoblanadi. Buyuk adib 1820–1840-yillar Fransiyasining adabiy tarixini yaratib, uni “Insoniyat komediyasi” deb nomladi. Roman-epopeyaning muallifi Ovrupalik deyarli barcha buyuk ijodkorlar – Rable va Shekspirdan tortib V.Skottgacha, fransuz romantiklaridan Stendalgacha o‘rgandi. Faqat badiiy va ilmiy tafakkurning turli-tuman tajribasini chuqur va uzviy bog‘lab o‘zlashtirish natijasida Balzakning betakror dahosi shakllandi.

Onore de Balzak 1799-yilning 20-may kuni Tur shahrida tug‘ilgan. Ota-onasining xohishiga ko‘ra huquq fakultetini tugatadi. U o‘z otasidan yozuvchi bo‘lishga qiziqishi orzu emasligini isbotlash uchun 2 yillik muhlat so‘raydi. Birinchi she’riy tragediyasi “Kromvel” muvaffaqiyatsiz chiqadi.

Balzak nomini yozuvchi sifatida tanitgan asar – “Shuanlar” romani (1829) hisoblanadi. Shundan so‘ng “Gobsek”, “Sag‘ri teri tilsimi”, “Polkovnik Shaber”, “Yevgeniya Grande”, “Gorio ota” va boshqa asarlari bosilib chiqdi. Dantening “Ilohiy komediya”sidan ruhlanib, o‘z asarlarini “Insoniyat komediyasi” degan umumiy nom ostiga birlashtirib, 3 qismga bo‘ladi.

1. "Xulqlar haqida etyudlar".
2. "Falsafiy etyudlar".
3. "Tahliliy etyudlar".

Balzakning rejasiga ko'ra birinchi qism 6 ta bo'limga ("Pravinsiya hayoti sahnalari", "Siyosiy hayot sahnalari", "Parij hayoti sahnalari", "Qishloq hayoti sahnalari", "Shaxsiy hayot sahnalari", "Gorio ota", "Gobsek", "Polkovnik Shaber" va b.) birlashtirilib, 111 asardan iborat bo'lishi kerak edi – aslida 72 tasi yozilgan.

Ikkinchi qism (bo'limlarga bo'linmaydi) tarkibiga 27 ta roman kiritilishi kerak bo'lgan bo'lsa, shulardan 22 tasi yozilgan.

Uchinchi qismga 5 ta asar kiritilishi kerak edi, shulardan 2 tasi («Nikoh fiziologiyasi», «Oilaviy hayot noxushliklari») yozilgan. Jami rejadagi 143 ta asardan 96 tasi yozilgan bo'lib, ularda 2 mingdan ortiq personaj qatnashadi.

Birinchi qism barcha tabaqalarning hayoti va axloqi haqida tasavvurni gavdalandirishi, ikkinchi qismga muallif dunyoqarashi va estetik qarashlarini ochib bergan asarlar kiritilishi kerak edi. Ular orasida "Sag'ri teri tilsimi"(1831) romani alohida e'tiborga loyiq. Muallif insonning hayotiy nuqtayi nazarini belgilovchi uchta asosiy sabablarni ko'rsatib o'tadi – istamoq, bajara olmoq va bilmoq. Yozuvchining ta'kidlashicha, "istamoq" va "bajara olmoq" odamni yondiradi va yemiradi, faqat "bilmoq" behuda vaqt sarflashning oldini oladi.

"Gobsek" (1830) qissasining bosh qahramoni millioner-sudxo'r, yangi Fransiyaning hukmdorlaridan biri Gobsek "Puling qancha ko'p bo'lsa, sen shuncha qudratli bo'lasan", degan falsafani o'zlashtirib olib, yoshligidan oltin, pul to'playdi. Pul jamiyat hayotining asosiy kuchi bo'lgan davrda u ishbilarmonlar, ministrlar, yozuvchi-yu, san'atkorlarni o'z qo'liga qaram qilib olgan. Ana shu odamlar hayoti, taqdiri uning qo'lida, u o'z shartlarini qo'yadi. Uning na qarindoshurug'lari va na do'stlari bor. Tilladan boshqa narsani tan olmaydigan bu chol: "Bordi-yu qirol mendan qarz bo'lganda va qarzini muddatida to'lolmaganda, men uni boshqa qarzdorlardan oldinroq sudga berardim", – deydi. Realistik asosga romantik elementlarni qo'shib

yuborish yozuvchi uslubiga xos. Gobsek irodasi kuchli, favqulodda va shu bilan birga ziddiyatli shaxs “Unda ikkita maxluq yashaydi: o‘taketgan ziqna va faylasuf, qabih maxluq va olijanoblik”, – deydi u haqida advokat Dervil.

“Gorio ota” qissasi qahramoni haqida: “Gorio ota – ajoyib odam – oilaviy pansion – 600 frank renta – har biri 50 ming frank rentasi bo‘lgan qizlari uchun bor-budini sarflaydi – itday xor bo‘lib o‘ladi”, deb yozilgan edi yozuvchining kundaligida. Ko‘rib turganimizdek, asarning xomaki rejasida faqat bitta qahramonning taqdiri haqida hikoya qilinishi kerak edi. Biroq asar yozishga 1834-yilning oxirlarida kirishgan Balzak, Gorioning tarixini ko‘plab qo‘shimcha sujet chiziqlari bilan “o‘raydi”. Ular orasida birinchi bo‘lib Parijda o‘qiyotgan talaba Ejen Rastinyakning sujet chizig‘i paydo bo‘ladi. Aynan u Gorio otaning hayoti va so‘nggi kunlari haqida so‘zlab beradi.

1833-yili Balzak ijodida yangi bosqichni boshlab bergan “Yevgeniya Grande” romani nashrdan chiqdi. Asar voqealari poytaxtdan olisda joylashgan Somyur shahrida bo‘lib o‘tadi. Roman personajlari o‘z kundalik tashvishlari, mayda-chuyda mojarolar, g‘iybatlarga o‘ralashib qolgan, pul ketidan quvgan, o‘z huzur-halovatini o‘ylaydigan somyurlik kishilar. Nafs balosi ularning hayotiga singib ketgan. Shahardagi ikki taniqli oila vakillari – Kryusho va Grassenlar, boy-badavlat Grandening qizi Yevgeniyani o‘zlariga kelin qilib olish uchun raqobatlashadi. Asarning bosh qahramoni Yevgeniyaning otasi Feliks Grande ko‘p jihatlar bilan Gobsekka yaqin turadi. U ham Gobsek kabi favqulodda, “nodir shaxs”. Lekin uning nodirligi Somyur aholisi doirasi bilan chegaralanadi, ya‘ni Grande ulardan aqlliroq, ayyorroq, chaqqonroq, ustomonroq bo‘lgani uchun omad ham unga doimiy hamroh. Biroq uning aqli pragmatizmga asoslangan, amaliyotchilik bilan cheklangan, unga Gobsekning keng va chuqur falsafiy mushohadasi, olam, hayot va odam haqida fikr yuritganda zakovat yetishmaydi. Agar Gobsekda boylikka sajda qilish falsafiy konsepsiya darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, Grande pulni

pul bo'lgani uchun yaxshi ko'radi. Boylik orttirishga o'chlik Feliks Grandeda mavjud bo'lgan insoniy his tuyg'ularni ham o'ldiradi va aynitadi. U hatto akasining o'limiga mutlaqo befarq qaraydi.

Yetim qolgan jiyanining taqdiriga achinmaydi va ortiqcha sig'indidan tezroq qutulish uchun Hindistonga jo'natib yuboradi. Bu qurumsoq xotini va qizining shifokorga berishi kerak bo'lgan pulni ham qizg'anadi. U bemor, o'lim to'shagida yotgan xotiniga munosabatini faqat, qizi uning qonuniy merosxo'ri bo'lishini bilgandan keyingina o'zgartiradi. Grande, kelajakda to'plangan boyliklarining saqlovchisi bo'lishi kerak bo'lgan, qizigagina mehribonlik ko'rsatadi. U o'limidan oldin qiziga: "Oltinlarni ehtiyot qilib saqla, asra! Sen u dunyoda menga javob berasan", – deydi. Feliks Grandening boylikka ruju qo'yishining kasriga oila a'zolari qoladi: xotini bevaqt vafot etadi, qizi o'zi sevgan yigitga turmushga chiqmay baxtsiz bo'ladi, Hindistonga jo'natib yuborilgan jiyan Sharl Grande katta boylik to'plab, ochko'z va shafqatsiz korchalonga aylanadi.

"Insoniyat komediyasi" ijodkorining kuchli organizmi nihoyatda zo'r mehnatga dosh bera olmadi. Balzak tom ma'noda mehnatda yonib ketdi va ellik yoshida vafot etdi, biroq undan "Insoniyat komediyasi"dek buyuk asar meros bo'lib qoldi.

Prosper Merime (1803–1870) – fransuz tanqidiy realizmining yorqin namoyandalaridan biri bo'lib, uning ijodi romantizm harakati bilan hamohang rivojlandi. Bo'lajak yozuvchi Parij shahrida, badavlat oilada tavallud topdi. Litseyni tugatgach, Parij universitetining huquqshunoslik fakultetiga o'qishga kirdi.

Yosh Merimening qiziqish doirasi va estetik qarashlari erta shakllandi. U yoshligidan katta qiziqish bilan Shekspir va Bayron asarlarini asliyatda o'qidi. Stendal ijodi yosh Merime dunyoqarashining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. O'n olti yoshida do'sti Jak Lui Amper (buyuk fizik olimning o'g'li) bilan hamkorlikda ingliz predromantizmining vakili D.Makfersonning "Ossianning qo'shig'i" asarini tarjima qildi.

Prosper Merimening birinchi nashr qilingan asari – “Klara Gusel teatri” (1825) to‘plami bo‘lib, u san’atning yangi tamoyillarini joriy qilib, klassitsizm qonun-qoidalariga qarshi qaratilgan. U adabiyotga dramaturg sifatida kirib keldi va klassitsizm san’atining tayanchi bo‘lgan teatrga daxl qildi. “Klara Gusel teatri” – yozuvchi erkin ijod qilishi, turg‘un bo‘lib qolgan qoidalarga rioya qilmasligi mumkinligini isbotlab berdi

P.Merimega dramaturgiyaning yangi turini yaratishda Uyg‘onish davri ispan teatri yordam berdi. “Ispanlar Daniyada” pyesasining muqaddimasida personajlardan biri sifatida tasvirlangan Klara Gusel klassitsizmga istehzoli tavsif berib, “Pyesa haqida fikr yuritganda, ba’zilar suiqasd uyushtirish uchun, ba’zilar qotilning qo‘lida halok bo‘lish uchun, yana birlari kimningdir murdasi yonida o‘z joniga qasd qilish uchun voqealar bir kunda sodir bo‘lyaptimi, barcha ishtirokchilar bitta joyda paydo bo‘lyaptimi, ularni bilish juda ham muhim emas”, – deydi. Shuning uchun to‘plamga kiritilgan pyesalarda hech qanday birliklarga rioya qilinmagan, ularda na besh aktli kompozitsiyalar va na ierarxiyaga rioya qilinadi. Pyesalarning erkin kompozitsion qurilishi klassitsizm dramalaridagi izchillikni buzdi; pyesalar she’rda emas, nasrda yozildi; personajlar mavhum abstrakt nasihatgo‘ylik bilan shug‘ullanmay, tom ma’noda harakatda bo‘ldilar; komediyalarning sujeti taqdir o‘yini bilan emas, balki insoniy his-tuyg‘ular, ular taqdirlarining to‘qnashuvi bilan belgilandi.

1827-yili chop etilgan “Gyuzla yoki Dalmatsiya, Bosniya, Xorvatiya va Gersegovinada yozib olingan Illiriy qo‘shiqlari to‘plami”da slavyan xalqlari hayoti haqqoniy yoritib berilgan. Bu kitob muallifdan qunt bilan ishlashni, filologiya, tarix va etnografiyaga oid bilimlarni talab qildi. To‘plamga kiritilgan prozaik qo‘shiqlar katta shuhrat qozondi. Ularning muallifi slavyan xalqlari ekaniga, Mitskevich va Pushkinlar ham ishonishdi (aslida qo‘shiqlarni Merimening o‘zi yozgan edi).

Tarix sinovlaridan mardonavor o‘tgan xalq mavzusiga yozuvchi “Jakeriya” (1828) dramatik solnomasida ham murojaat qildi. Drama

sujetiga 1358-yilgi dehqonlar qo'zg'aloni asos bo'ldi. Drama shunday qurilganki, unda bir vaqtning o'zida klassitsizm qoidalari bilan bahs-munozarani ham payqash mumkin (hodisalar joyi ko'p marta o'zgartiriladi: chuqur jarlik, gotika zali, qishloq maydoni, o'rmon chetidagi yo'llar, isyonchilarning ichkari hovlisi va h.k. zamon va harakat birligining yo'qligi, shuningdek, zodagonlar oilasidan bo'lgan ideal qahramonning bo'lmashligi).

Dramada romantik pyesalarda bo'lgani kabi, o'zining ichki va tashqi erki uchun kurashuvchi ideal qahramon yo'q. Uni na dehqonlar va na oqsuyaklar orasidan topib bo'lmaydi. Merimening dehqonlari – ijtimoiy munosabatlarda o'z o'rnini anglashga qodir bo'lmagan johil odamlar. Albatta, ular orasida ham jasur va olijanob odamlar topiladi, masalan, o'z singlisining o'limi uchun qasd olgan Reno, feodal Apremon garovga olgan begunoh odamlarni jazolamasligi uchun ixtiyoriy ravishda taslim bo'ladi.

Merime "Karl IX saltanatining yilnomasi"(1829) romanida yana bir bor fransuz milliy tarixidagi muhim davrga murojaat qiladi. Yozuvchi o'zining asosiy vazifasi o'tmish davr kishilarining xususiy hayotini ko'rsatish, "Bu davrning xulq-atvori, urf-odatlarini haqqoniy, ishonarli qilib tasvirlashda",—deb hisoblaydi. Uning fikricha, Varfolomey tunida sodir etilgan dahshatli fojيانing ildizlarini, avvalo, diniy mutaassiblik ruhida tarbiyalangan parijliklarning aql yo'nalishidan qidirish kerak. Muallifning ushbu konsepsiyasi asar personajlarini realistik tasvirlash, tarixiy manbani tanlash, romanining kompozitsion qurilishini belgilaydi.

O'z novellalarida Merime murakkab vazifani hal qiladi: birgina voqea orqali butun xalqning tarixini, o'zga davrlarni ko'rsatish. Uning "Mateo Falkone" (1829) hikoyasi novellestik mahoratning shoh asari hisoblanadi. Novellaning markaziy voqeasi – sotqinlik qilgan o'g'ilning ota tomonidan o'ldirilishi. Fortunatoga otasi tomonidan chiqarilgan hukm, Mateoning oila sha'ni haqidagi tasavvurining bo'rttirib ko'rsatilishi emas. Novellaning boshqa qahramonlari ham axloq qoidalarini shunday tushunishadi. Hattoki, qattiq qayg'u

tushgan Fortunatoning onasi Juzepa ham erini haq ekaniga ishonadi. Hikoyaning prozaik ohangi, korsikaliklarning urf-odatlari, irodali va jasur qahramonning fojidan oldingi hayoti – bularning hammasi o'ziga xos ma'naviy muhitni yaratadi. Korsikaliklar hayotiga bag'ishlangan "Kolomba" (1840) novellasida ham o'z o'lkasi va uning odatlari bilan aloqani uzmagan odamlar uchun vendetta (Korsika orolida qonga qon bilan o'ch olish) bo'lishi muqarrar va tabiiy tuyuladi.

Sevish va nafratlanishni biluvchi, kuchli va irodali (Kolomba, Mateo Falkone) qahramonlar Merimega yaqin. U ularning shafqatsizligi, nodonligi, tiyiqsizligi, sho'rtumshuqligini ko'rsatishi mumkin, biroq qoralamaydi. O'zlarini madaniyatdan bahramand bo'lganmiz, deb hisoblaydigan qahramonlar esa, aksincha, jozibasini yo'qotganday. "Tamango" (1829) novellasida ikki dunyo, ikki qahramon – qora tanli jangchi Tamango va kapitan Ledu qaramaqarshi qo'yiladi. Mohiyatan har ikkisi ham bir xil vazifa – "qora daraxtni" sotish bilan shug'ullanadi, biroq ularning obrazlari struktura jihatdan bir-biriga mos kelmaydi. Tamango o'z qabiladoshlariga nisbatan shafqatsizlarcha munosabatda bo'lsa-da, ular orasida qadimdan shakllangan urf-odatga mos keladi. Leduning xuddi shunday faoliyati esa axloq-odob doirasida "yuz chandon ortiqroq darajada jinoyatkorona", chunki uning shafqatsizligi zamirida faqatgina moddiy manfaat yotadi. Kapitan Ledu haqida gapirganda, Merimening sokin hikoya qilish ohangida achchiq kinoya seziladi. Axir aynan kapitan qora tanlilar uchun birinchi bo'lib qo'lkishan va zanjirlarning yangi sistemasini qo'llaydi, u palubalar orasidagi xonalarni faqatgina bir maqsadda – qullarni ko'proq joylashtirish uchun qayta jihozlaydi. Ledu boshqargan kemandagi romantik nomlanishi ("Umid"), insonparvarlik haqidagi balandparvoz safsatasi uning portret chizgilariga yakun yasaydi. Ovrupa madaniyati "shak-shubhasiz ustunlikka" erishdi, chunki u qora tanlilarga bo'yinbog' taqishni o'rganib oldi, deb qayd qiladi Merime.

Zodagonlarning ma'naviy qashshoq hayotiga bag'ishlangan novellalar orasida "Qo'shaloq xato" (1833) va "Arsena Giyo" (1844) alohida ajralib turadi. So'nggi novellada zodagon ayolga buzuq ayolni qarama-qarshi qo'yishga jur'at qiladi va Arsenaning ma'naviy afzalligini ko'rsatadi.

1830-yilgi inqilobdan keyin Merimening badiiy ijodga bo'lgan qiziqishi birmuncha so'nadi. Bu davrda u asosan tarix, arxeologiya, san'atshunoslikka oid asarlar yaratadi. 1848-yil inqilobidan keyin esa, deyarli hech narsa yozmaydi. O'limidan bir yil oldingina uning "Lokis" novellasi chop etildi.

Yangi davr realizmining xususiyatlari atqoli yozuvchi **G.Flober (1821–1880)**ning ijodida to'la namoyon bo'ldi – u XIX asr birinchi yarmidagi romantizm zaminida ulg'aygan Balzak davri realizmi bilan XIX asrning ikkinchi yarmidagi E.Zolya va uning maktabi vakillari tomonidan taqdim etilgan naturalizm davrini bog'lab turuvchi bo'g'in hisoblanadi. Gyustav Flober 1821-yilning 12-dekabrida Ruan shahrida, shifokor oilasida tug'ildi. 1840-yili u huquqshunoslikni o'rganish uchun Parijga keladi. Otasining o'limidan keyin Ruan yaqinidagi oilaga tegishli yer-mulkka kelib, umrining oxirigacha shu yerda yashadi. Parijga kelganda T.Gote, Gi de Mopassan, E.Gonkur, E.Zolya, I.S.Turgenevlar bilan uchrashib turdi, sayohat qilib Ispaniya, Italiya, Korsika oroli, Gretsiya, Misr, Kichik Osiyo, Jazoir va Tunisda bo'ldi. O'zining yoshlik yillarini eslar ekan, u "Meni ikki narsa – adabiyotni sevishim va burjuaga nafratim qo'llab turdi", – deb yozgan edi.

Jami uch jilddan iborat Floberning ilk asarlari (1835–1849), u o'z ijodini "eski romantik maktab" yo'lida boshlaganidan dalolat beradi. ("Biz to'la ma'noda bema'ni, ajoyib romantiklar edik", – deb yozgan edi u keyinchalik J.Sandga). Yozuvchining birinchi asarlari "Margarita Burgundskayaning o'limi", "Florensiyadagi vabo", "Taxtga ikki da'vogar" tarixiy novellalari, "Tentakning xotiralari" va "Noyabr" qissalari lirik romantizm yo'nalishida yozilgan edi.

1849-yilning sentabrida Flober "Avliyo Antoniyning vasvasasi" romanini yozib tugatdi. Asarni o'qib chiqqan do'stlari uni yoqib yuborishni va yarim fantastik qahramonlar emas, kundalik hayot haqida, shoshilmasdan, har bir epizodni maromiga yetkazib, har bir jumlaning ma'nodorligi va aniqligiga e'tibor berib, asar yozishni maslahat berdilar. 1850-yili Misr safaridan qaytib kelgan yozuvchi, jahon adabiyotining durdona asariga aylangan "Bovari xonim" romani ustida ish boshladi. Besh yil davomida yozilgan roman 1856-yili "Ruve de Paris" ("Parij jurnalida")da bosib chiqarildi. Hukumat asarni axloqsizlikda aybladi, lekin sud noshir va yozuvchini oqlab hukm chiqardi. Aksincha, romanning axloq (xulq) haqida ekaligini asar kompozitsiyasi ham tasdiqlaydi. Asar Sharl Bovari haqidagi hikoyadan boshlanib, aptekachi Ome haqidagi hikoya bilan tugaydi. Emma esa faqat 2-bobdan paydo bo'ladi. Uning o'limidan so'ng yana 3 bob davom etadi.

Yozuvchi o'z oldida juda murakkab vazifani: jamiyat illatlarini aniq va shu bilan birga sodda qilib tasvirlashni maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun u shu davrgacha tarkib topgan roman kompozitsiyasidan foydalanmaydi. Flober ekspozitsiyaga katta o'rin berdi – 260 bet, asosiy voqealarga –120–160 bet, Emmaning o'limi va Sharl iz-tiroblariga 60 bet – shunday qilib «tasvir» qismi 320 bet, ya'ni voqealar tasviridan 2 barobar ko'p.

Romanda oddiy va jo'n voqea tasvirlangan. Kollejni tamomlagan Sharl Bovari, onasining qarori bilan tibbiyot fakultetida o'qiydi. O'qishni tugatgach, u Normandiyaning Tost shaharchasida vrachlik qila boshlaydi. Birmuncha muddatdan keyin onasining sa'y-harakatlari bilan badavlat, qirq yoshlardan o'tib qolgan beva ayolga uylanadi. Kunlarning birida Sharl mahalliy fermerni davolash uchun uning uyiga boradi va Ruoning qizi Emma bilan tanishib qoladi.

Xotini vafot etgach, Emmalarning uyiga tez-tez borib turadi va uning qo'lini so'rashga jazm qiladi. Qizning otasi roziligini beradi va dabdaba bilan qizini uzatadi. Yoshligidan ko'plab romantik asar-

larni o'qigan, romantik orzularga berilgan qiz, boshqalardan ajralib turmaydigan oddiy qishloq doktoriga turmushga chiqadi va farzandli bo'ladi. Biroq yoshlar birga yashay boshlagandan keyin tez orada Emma Sharlni sevmasligini tushunib yetadi. Sharl esa, aksincha, Emma bilan yashayotganidan baxtiyor edi. Yashayotgan hayotidan qoniqmagan ayol, ikkita erkak bilan don olishib yuradi, keyin esa qarzga botib, turmush o'rtog'i uni shuncha yillardan buyon sidqidildan, sadoqat bilan sevishini xayoliga ham keltirmay, o'z joniga qasd qiladi. Bu oddiygina voqea yozuvchining yuksak iqtidori tufayli ayol qalbini chuqur psixologik tadqiq qilishga aylandi. Shu sababli roman kitob holida chop etilgandan keyin, Flober XIX asrning buyuk realist yozuvchisi sifatida e'tirof etila boshlandi.

Maktublarining birida Flober o'z romani qahramoni haqida: "U ma'lum darajada ma'naviy aynigan, poeziya haqida buzuvchi tasavvurga ega, his-tug'ulari buzilgan ayol", – deb yozadi. Emmaning tabiati "romantik tarbiya" oqibatida buzilgan. Uning asosi qizning monastirda o'sha paytlarda rusum bo'lgan romantik romanlarni mukkasidan ketib o'qigan yillari qo'yilgan bo'lib, romantik qoliplar Emma uchun haqiqiy sevgi va go'zallik mezoniga aylanadi. "U kitoblarda faqat ishq-muhabbat haqida yozilgan bo'lardi: o'ynashlar, ma'shuqalar, jazmani ko'p xotinlar, kimsasiz ayvonlarda o'zidan ketib qoladigan juvonlar, har bir bekatda o'ldirilgan kucherlar haqida yozilgan bo'lardi. Kitobning har bir sahifasi holdan toyib o'lgan otlar, qalin o'rmonlar, yurak dard-hasratlari, qasamyodlar, ko'z yoshlari, o'pichlar, oy yorug'i tushib turgan yengil qayiqchalar, chakalakzorlardagi bulbul navolari, sher kabi botir, qo'zichoqdek beozor qahramonlar, beqiyos saxovatli, bekam-ko'st kiyingan, ko'zlar daryo-daryo yoshlarga to'lib toshgan bo'lardi".

Ko'plab tanqidchilar qahramonning hayotdagi prototipi kim ekanligiga qiziqishib savol berganlarida, adib ularga yozgan maktubida: "Agar Bovari xonim bo'lsa, u menman", – deb yozgan edi. Garchi roman sujeti oddiy bo'lsa ham, uning haqiqiy qiymati – detallarda va ularni mohirlik bilan tasvirlashda. Flober asarlarini ideal

darajaga ko'tarishga, har doim kerakli va to'g'ri so'zlarni tanlashga intilgan yozuvchi sifatida tanildi.

Flober estetikasida asar uslubini mukuammal qilishga bo'lgan kuchli intilishni alohida ta'kidlash zarur. Bu intilish yozuvchi uchun uni "adoyi tamom qilib, ishini to'xtatib turuvchi", "haqiqiy kasallikka" aylangan edi (E.Zolya). Tanqidchilar Floberni "uslubning fanati" deb atar edilar. Ijodkorning eng iflos, qabih mavzularga ham murojaat qilish huquqini qattiq turib himoya qilgan Flober: "Poeziya, go'ng uyumini ham quyoshday tovlanishga majbur qiladi", deydi. Aynan shu "Bovari xonim"da ro'y beradi.

Gyustav Flober 1880-yilning 8-mayida insultdan vafot etdi.

Ingliz tanqidiy realizmi

XIX asrning 20–30-yillarida Bayron va Shelli, Kits va Skottlar olamdan o'tdilar. Romantizm bor imkoniyatlarini sarf qilib bo'lib, yangi nomlar paydo bo'lmadi. Ingliz adabiyoti rivojlanishida roman janri strukturasi yangi xususiyatlar bilan boyishi, ingliz tanqidiy realizmining gullab-yashnagan davri XIX asr 30–40-yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda zabardast realist yozuvchilar (Dikkens, Tekkerey, opa-singil Brontelar, E.Gaskell va chartist shoirlari Jons va Lintonlar) ijod qiladi.

Ch.Dikkensning «Dombi va o'g'li», Tekkereyning «Shuhratparastlik bozori», Sh.Brontening «Jeyn Eyr», E.Gaskellning «Meri Barton» kabi romanlari ana shu davr adabiyotining eng sara asarlaridan hisoblanadi.

XIX asr ingliz realizm adabiyotini uch davrga ajratish mumkin: Birinchi davr – 30-yillar; ikkinchi davr 40-yoki "och qirqinchi yillar"; uchinchisi 50–60-yillar.

30-yillarda adabiyotga yosh Dikkens va Tekkereylar kirib keldilar. "Oliver Twist" va "Ketrin" romanlari bu yozuvchilarning nyugeyt romanlariga o'ziga xos javoblari edi.

40-yillar ingliz adabiyoti rivojlanishida yangi, ikkinchi davrni boshlab berdi. Bu yillarda chartistlar harakati keng quloch yozdi, ular ishchilar hayotining, ayol mehnatkashlarning ayanchli ahvolini ko'rsatdilar, xalqning muhtojligini, mamlakatda islohotlar o'tkazishni talab qildilar.

Dizraeli, Kingsli, Bulver-Litton, Dikens va Tekkerey, opa-singil Brontening ijtimoiy romanlarida asrning g'oyalari ham, ijtimoiy harakatning ahvoli ham, davrning ma'naviy tamoyillari ham o'z ifodasini topdi. Ingliz romanchilarining bu ajoyib pleyadasi o'z asarlarida nafaqat real holatni, balki jamiyatdagi qarama-qarshiliklarni ham ko'rsatib berdilar va uning kamchiliklarini (snobizm, ortiqcha xudbinlik, shuhratparastlik) ochib tashladilar, shu bilan bir qatorda olijanob gumanistik ideallarni ham ilgari surdilar. Ular o'z ijodlari bilan ifoda vositalari majmuini, hikoya qilishning realistik tizimini ramziylik va metafora, teatr elementlari, parodiyalar, satira, pantomimalar bilan boyitdilar.

Charlz Dikens (1812–1870) Angliya janubida dengiz xizmatchisi oilasida tug'ildi. Yoshligida boshidan juda katta qiyinchiliklarni o'tkazdi, yaxshi bilim ola olmadi. O'zining mashaqqatlarga to'la yoshligini keyinchalik yozgan «David Kopperfeld» va «Mitti Dorrit» romanlarida hikoya qilib bergan.

Dikensning dunyoqarashi va estetik qarashlari XIX asrning 30-yillarda shakllandi. U chartistlar harakati tarafdori bo'lmasa-da, ijodida ishchilar sinfi va ezilgan xalq holatiga achinish kayfiyatini kuzatish mumkin.

Charlz Dikens jahon adabiyotiga yumor va satiraning ajoyib ustasi sifatida kirgan.

Uning ijodini 4 ta davrga bo'lish mumkin:

- 1) 1883–41-yillarda – asosan yumoristik asarlarini yaratdi: “Biz ocherklari” “Pikvik” klubining maktublari”, “Oliver Tvist”;
- 2) “Dombi va o'g'li”, “Martin Uezlvit”;
- 3) 1849–59-yillar – hajviy asarlar yaratdi: “Devid Kopperfeld”, “Sovuq uy”, “Mudhish zamonlar”, “Mitti Dorrit”;

4) 1860–70-yillar Dikpens qarashlarida umidsizlik kayfiyati ustunlik qilgan. “Ikki shahar haqida qissa”, “Katta umidlar”, “Bizning umumiy do‘stimiz”.

Birinchi chop etilgan asari “Biz ocherklari” (1836) hikoya va ocherklar to‘plamida muxbir bo‘lib ishlagan davridagi asarlari jamlangan. Ularda London va uning aholisi hayotining turli jihatlarini ochib berilgan.

1836–37-yillarda yozilgan birinchi romani “Pikvik klubining maktublari” asari chop etilgach, yozuvchi juda mashhur bo‘lib ketadi.

40-yillar ijodining eng yaxshi asari «Dombi va o‘g‘li» (1848) romani bo‘lib, asar markazida yirik kapitalist savdogar Dombi turadi. U o‘z korxonasining boyishi, rivojlanishidan bo‘lak hech narsani tan olmaydi. O‘g‘li tug‘ilganda farzand ko‘rgani uchun emas, balki korxona ishlarini davom ettiruvchi merosxo‘r tug‘ilganidan quvonadi. O‘g‘li 6 yoshda vafot etadi. Birinchi xotini o‘lgach, u Edit ismli ayolga uylanadi. Dombining odamlar bilan aloqasi savdo-sotiq munosabatlarini eslatadi (o‘ziga xotin sotib oladi. Editga uyni bezab turuvchi buyum sifatida qaraydi). Edit ish boshqaruvchi Karker bilan korxona pullarini o‘g‘irlab qochadi. Shundan so‘ng u qizi Florensini ham uyidan haydab chiqaradi. Qiz kambag‘al yigit Uolterga turmushga chiqadi. Bularning barchasi Dombi oilasining inqirozga yuz tutishiga olib keladi. Asar oxirida Dombi o‘zgarib, kuyovi, qizi bilan gaplashadigan, nabirasi Polni sevuvchi kishi sifatida tasvirlangan.

Charlz Dikpensning asarlari ingliz jamiyatining barcha tabaqalarida birdek sevib o‘qilgani bejiz emas. Chunki yozuvchi barchaga yaxshi tanish bo‘lgan narsalar: maishiy turmush, janjalkash xotinlar, qimorbozlar va qarzdorlar, yosh bolalarga zulm qiluvchilar, o‘z to‘rlariga go‘l erkaklarni ilashtiruvchi ayyor va uddaburon tul xotinlar haqida yozdi.

50-yillarda Dikpensning ta‘lim sohasi va kambag‘allarga yordam berish tizimidagi islohotlar bilan bog‘liq ijtimoiy qarashlari shakllandi. Do‘stlariga yozgan maktublarida u kambag‘allar uchun yak-

shanba maktablari ochishga erishmoqchiligi haqida yozdi, ularni ochilishini o'zi nazorat qildi va Bulver-Litton bilan birgalikda yosh yozuvchilarga yordam berdi. Bu davrda u o'zining eng yaxshi, o'ziga xos trilogiyani tashkil qilgan – “Sovuq uy”, “Mudhish zamonlar”, “Mitti Dorrit” ijtimoiy romanlarini chop ettirdi.

Dikkins tirikligidayoq shuhrat cho'qqisiga ko'tarildi. Yozuvchi Engus Uilson u haqida: “Dikkinsning abadiy merosi – romanlarining hayotbaxsh va betakror dunyosi bo'lib, u Dostoevskiy va Dode, Gissing va Shou, Prust va Kafka kabi bir-biriga o'xshamas yozuvchilarga ilhom baxsh etgan”, – degan edi.

Charlz Dikkinsning qahramonlari na fabulasi va na muallifning niyat-maqсадlariga bo'ysunmagan holda, o'zlarining mustaqil hayoti bilan yashaydi. Ular tarixan ham aniq – ularda davrning milliy va o'ziga xos xususiyatlari aks etgan. Shu bilan birga ular mangu yosh, mangu yangi, umuminsoniy, barcha tomondan birdek qabul qilingan.

Uilyam Meykpis Tekkerey (1811–1863) ingliz tanqidiy realizmining yirik vakillaridan biri. Garchi u Dikkinsga zamondosh bo'lib, u kabi iqtidorli bo'lsa ham, taqdiri uning taqdiridan farq qiladi. Yozuvchi sifatida Tekkerey Dikkins bilan yonma-yon tursa-da, mashhurlikda undan ancha ortda qolgan. Keyinchalik oliy hakam – vaqt uni Tolstoy, Filding, Shekspir kabi buyuk yozuvchilar qatoriga qo'shib qo'ydi.

Tekkerey Hindistonning Kalkutta shahrida tug'ildi. 6 yoshida onasining o'limidan so'ng oilasi bilan Angliyaga qaytib keladi. Bu yerda u mahalliy maktabda bilim olib, 2 yil Kembrij universitetida o'qiydi.

Tekkerey ijodida uch davrni ajratib ko'rsatish mumkin: birinchi davr – 30-yillarning oxiri 40-yillarning boshi; ikkinchisi – 40-yillar o'rtalari va uchinchi davr – 1848-yildan keyingi ijodi.

Adabiy faoliyatini 1840-yili jurnalist sifatida boshladi. Uning o'tkir ocherk, parodiya va karikaturalari “Panch» hajviy jurnalida bosildi. 30-yillardayoq Tekkereyning dunyoqarashi, siyosiy maslagi

shakllandi. Yozuvchining falsafiy-estetik qarashlarida sirtini yaltiratishga berilib ketishlik, ortiqcha mubolag'a, soxta ko'tarinkilik va haqiqatni buzib ko'rsatishga murosasizlik birinchi o'rinda turadi.

Shubhasiz, dunyoni o'tkir va kuzatuvchanlik bilan his qiluvchi san'atkor – Tekkerey yozuvchiga yordam beradi, ya'ni unga tasvirlanayotgan voqelikning muhitiga kirishga, eng muhimini ko'rishga, o'z qahramonlariga mustaqil bo'lishda yordam beradi.

Yosh Tekkerey qarashlarining shakllanishida, u muntazam ravishda romannavis yozuvchilarga bag'ishlangan ocherklarini ("Mashhur mualliflarning romanlari") chop ettirgan "Frezere megezin" bilan hamkorligi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu Bulver va Dizraeli romanlariga o'ziga xos parodiyalar edi. Ijodining birinchi davrida Tekkerey tomonidan uning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va estetik qarashlari aks etgan badiiy asarlar yaratildi. Bular "Katerina" (1839) romani, "Olijanob notavon" (1840) qissasi va "Barri Lindonning erishgan mavqeyi" parodiya (1844) asarlaridir.

U ijodining ikkinchi va uchinchi davrlarida ko'plab hajviy hikoya, qissalar va bir necha roman yozdi. "Snoblar kitobi" (1847), "Shuhratparastlik g'ulg'ulasi" (1848), "Pendonis" (1850), "Nyukomlar" (1855) shular jumlasidandir.

Tekkerey ijodida satira va ijtimoiy mavzular asosiy o'rinni egallaydi. Bu borada u Dikkensdan bir oz farq qiladi. Dikkens, ijodkorning vazifasi ijtimoiy hayotning faqatgina salbiy tomonlarini ochib tashlashdan iborat bo'lib qolmasligi kerak, u o'quvchiga o'sha il-latlar bilan qanday kurashish yo'llarini ham ko'rsatib berish kerak, — deb hisoblaydi. Tekkerey uchun muhimi — hech qanday pardozlarsiz hayotiy haqiqatni ochib tashlash. Uning realistik estetikasi asosini "Haqiqat har doim ham yoqimli bo'lavermaydi, lekin haqiqat barcha narsadan afzal", "Insonni tabiiy holda tasvirlamoq kerak" kabi tezislar tashkil etadi. Bu tezislar uning eng yaxshi asarlari uchun asos bo'ladi.

"Shuhratparastlik g'ulg'ulasi" romanida Angliyaning XIX asr 10–20-yillaridagi hayoti keng tasvirlanadi. Asardagi voqealar Ang-

liya poytaxti London atroflaridan Belgiya, Fransiya, Germaniya, Italiya davlatlariga ham ko'chadi. Qahramonlar esa turli tabaqa vakillari (zodagonlar, parlament a'zolari, chinovniklar, harbiylar, o'qituvchilar va boshqalar) bo'lib, bu davr ingliz jamiyati ramziy ma'noda "shuhratparastlik yarmarkasi" deb atalgan. Ular "g'ulg'ula" (yarmarka) qonunlari asosida yashadi. Bunda insonning qadr-qimmati pulining miqdori bilan o'lchanadi. Tekkerey o'z zamonasidagi Angliyani ham shunday yarmarkaga o'xshatadi. Asarga hatto qo'g'irchoq obrazi ham kiritilgan.

Bu muhitda yozuvchi asarda asosiy o'rinni egallovchi bosh qahramon topishga qiynaladi. Asarga "qahramonsiz roman" sarlavhasi qo'yilgan.

Tekkerey asarining bunday nomlanishiga XVII asr Angliya yozuvchisi Jon Benyanning «Ziyoratchining yo'li» (1678) asari turtki bo'ldi. Uning ushbu allegorik-falsafiy asarida bir sayyohning Shuhratparastlik (London) shahriga kelishi hikoya qilinadi. Bu shaharda payshanba kunlari barcha-barcha (uy, yer, mansab, mamlakatlar, bola-chaqa, ota-ona, hayot, oltin...) narsalar sotiluvchi yarmarka bo'ladi.

Romanda ikkita sujet chizig'i bo'lib, birinchisi, Emiliya Sedli taqdiri bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisida, Bekki Sharpning hayoti aks ettiriladi. Ularning hayotlari ba'zi-ba'zida kesishib turadi. Voqealar avvalida Emiliya ijobiy qahramon sifatida namoyon bo'ladi. U xushmuomala, rahmdil, yetim qolib oila mehriga mushtoq bo'lgan dugonasiga g'amxo'rliklar ko'rsatadi. Biroq o'z ota-onasini unutib yuborganligi, Emiliyani "moviy qahramon" sifatidagi nomiga dog'tushiradi. U hattoki erining o'limidan keyin ham Dobbinning olijanob harakatlariga e'tibor qilmaydi.

Bekki – Emiliyaning aksi. U ilk ko'rinishdayoq o'zining vahshiyona, o'tkir changali, izzattalabligi, ayyorona o'tkir aqli bilan hayron qoldiradi. U dilbar va xushmuomala, lekin uning ko'zlari va maftunkor tabassumi tajribasiz, g'o'r odamni aldashi mumkin.

Garchi Tekkerey ingliz adabiyoti tarixida “Shuhratparastlik g‘ul‘ulasi” va “Snoblar kitobi”, “Genri Esmondning sarguzashtlari” va “Nyukomlar” kabi asarlar muallifi sifatida nom qoldirgan bo‘lsa-da, uning boshqa asarlari ham diqqatga sazovor, chunki ularsiz yozuvchi ijodiga to‘laqonli baho berish mushkul.

Nemis tanqidiy realizm adabiyotining o‘ziga xosligi

XIX asrning 30–40-yillarida Germaniyada ijtimoiy-siyosiy yuksalish boshlandi. Mamlakat 18 ta feodal davlatga bo‘linishiga qaramay, mashinasozlik sanoati va qishloq xo‘jaligi jadal suratlar bilan rivojlandi. San’atda, jumladan, adabiyotda ham XIX asrning boshlarida yetakchilik qilgan romantizm o‘rnini realizm egallay boshladi (Hayne, Byuxner, Veert, Gerveg, Feyligrat).

30-yillarda “Yosh Germaniya” (Gutskov, Vinbarg, Laube, Kyune, Mundt) harakati shakllandi va ular tashkiliy birlashmagan bo‘lsa-da, “Yosh Germaniya”chilarni estetik qarashlari, mavjud tuzumga salbiy munosabatlari birlashtirib turar edi.

H.Hayne (1797–1856) ijodi. Buyuk nemis shoiri va mutafakkiri Hayne Dyusseldorf shahrida, yahudiy savdogar oilasida dunyoga keldi. Shahardagi litseyni tugatgach, 1819-yildan Bonn, Gettingen va Berlin universitetlarida o‘qidi. Huquqshunoslik diplomini olgan bo‘lsa-da, bu sohada ishlamadi. Shoirning ilk she’ri Gamburg shahridagi jurnalda chop etildi.

1827-yili Hayning ko‘p yillik mehnati samarasi bo‘lgan “Qo‘shiqlar kitobi” lirik she’rlar to‘plami nashrdan chiqdi. To‘plam: “Yoshlik iztiroblari”, “Lirik intermetso”, “Vatanga qaytish” hamda ikki qismli “Shimoliy dengiz” deb nomlangan besh qismdan iborat asarlarni o‘z ichiga oladi.

“Yoshlik iztiroblari”da shoir ma’shuqasining bevafoigidan chuqur iztirobda qolgan yosh yigit obrazi orqali nemis yoshlarining tipik vakilini tasvirlaydi.

*Ular meni qiynaydi rosa,
Qon qolmadi rang-ro'yimda,
Ba'zilar sevgandan bo'lsa,
Ba'zilar dushmanligidan.*

*Ular og'u qo'shdi oshimga,
Ular qo'shdi suvga ham zahar,
Ba'zisi do'st, keldi qoshimga,
Ba'zilar dushmanidan battar.*

*Lekin o'sha dilbarki-dilbar,
Sitamidan hanuz dil nolon,
Yomonlik ham qilmadi menga,
Ham sevmadi meni hech qachon.*

1830-yili shoirning ikkinchi yirik asari “Yo'l lavhalari” ocherklar to'plami bosib chiqarildi. Bu to'plam muallifning g'oyaviy-siyosiy jihatdan yetilib borayotganini ko'rsatdi. “Yo'l lavhalari” Germaniyaning Ovrupa davlatlariga nisbatan hali ham qoloq, tarqoq ekanini ta'kidladi.

Shoir Germaniya bo'ylab qilgan sayohatini ocherklar shaklida yozib, feodal tartiblarni keskin tanqid ostiga oladi. To'plamda xalq afsonalari, mubolag'a va romantik bo'yoqlardan keng foydalaniladi, Garsning go'zal manzarasi, nemis zaminining o'ziga xos milliy rang-barangligi katta mahorat bilan chizib beriladi.

1830-yili Fransiyada bo'lib o'tgan Iyul inqilobidan keyin Hayne Parijga keladi va umrining yigirma besh yilini (1831–1856) shu yerda o'tkazadi. 1833-yili uning “Romantik maktab” kitobi nashrdan chiqdi. Asar adabiyot muammolari va estetik qarashlarga bag'ishlangan bo'lib, Hayne nemis romantizmi manbalari, uning nazariyasi va amaliy qo'llanishi masalalarini tahlil qiladi. Muallifning fikricha, romantiklar o'rta asr adabiyoti an'analarini davom ettirdilar. XVIII va XIX asrlar nemis adabiyotini sharhlar ekan, u Shiller va Lessing

ijodini yuqori baholadi, chunki Shiller o'z asarlari bilan faol kurashga chorlagan bo'lsa, Lessing buyuk g'oyalarni madh etdi, "fikrlar Bastiliyasini vayron qilib, erk qasrini qurishda ishtirok etdi".

Haynening 1839-44-yillarda yozilgan she'rlari "Zamonaviy she'rlar"(1844) to'plamiga jamlandi. "Qo'shiqlar kitobi"dagi lirik ohanglar ushbu to'plamda jangovorlik ruhi bilan almashdi. Shoir o'zining "qasoskor qo'rg'oshinlarini" dushmanlarining "qappaygan razil qorinlariga" qaratdi, xalqni mavjud tuzumga qarshi murosasiz kurashga chaqirdi ("Tashlandiq bola", "Doktrina", "To'xta!"). "Tashlandiq bola" she'rida u prusslarning Gogensollern sulolasi vakilini haromzoda, pastkash, vahshiy deb ataydi:

*Gazandaning nomin aytish shart emas, -
U ablahni g'arq qil, yo o'tda yoq, gunoh bo'lmas!*

Tashlandiq Gogensollern umumlashma obraz bo'lib, unda nemis qirollarining barcha qusurlari o'z aksini topgan.

To'plamga kiritilgan "Teskari dunyo" she'rida shoir ironiya(kinoya)dan ustalik bilan foydalanib, xalq dushmanlarini fosh etadi:

*Oshpazlarni buzoqchalar pishirar,
Ayollarni govmishlar sog'ar;
Ilmu-fan, ziyo uchun, ey voh,
Nasroniy ukkilar janggohga borar.*

Haynening satirik she'rlari o'zining aniq yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. "Xitoy bog'dixon", "Yangi Aleksandr", "Siyo-siy shoir", "Tungi qorovulga" she'rlarida nemis knyazlari, liberal-lari tanqid qilinadi. Masalan, Xitoy imperatori obrazida zamon-doshlari pruss qiroli Fridrix Vilgelm Gogensollern IVni osongina tanidilar:

*Isyonkor ruh yo'qoldi butkul.
Hamma majbur qichqirar bardam:
"Bizga nechuk konstitutsiya?
Bizga kaltak, kerakdir kaltak".*

1844-yili Haynening "Germaniya. Qish ertagi" poemasi yaratildi. Shoirning o'zi uni "Siyosiy-romantik" janrda yozilgan deb aytgan. Asarda Germaniyaning 1848–1849-yillar arafasidagi vaziyati tasvirlanadi. Shoir ijodining yuqori cho'qqisi bo'lgan bu doston Vatan ozodligi, kelajagi haqida yozilgan. "Germaniya. Qish ertagi" chuqur umumlashmalar dostoni. Asarning mohiyati ikki majoziy obraz orqali ochib berilgan: birinchisi – "Jirkanch qush" pruss burguti, eski jamiyat ramzi bo'lsa, ikkinchisi, shoirning doimiy hamrohi bo'lgan "bolta ko'targan odam" ya'ni xalq ramzi. Asar chinakam xalqchillik ruhida yozilgan. Xalq afsonalari, tarixiy voqealar tavsifi birin-ketin almashib turadi. Shoir Vatani sarhadlariga qadam qo'yar ekan, o'z ona tilini eshitib ko'zlaridan o't chaqnaydi, xursandchilikdan yuragi to'lib-toshadi.

Doston alohida yo'l manzaralari tasvirlangan boblardan iborat bo'lsa ham, g'oyaviy-badiiy jihatdan butun asar. Barcha fragmentlar asosiy qahramon – sayyoh-shoirning lirik kechinmalari va tanqidiy mushohadalari bilan birlashtirilgan. Asarda lirika, epos va publitsistika uzviy bog'langan, unda uchraydigan ko'plab tabiat manzaralari tasviri ijtimoiy-siyosiy ma'noga ega.

H.Hayne uzoq davom etgan kasallikdan keyin 1856-yili Parijda vafot etdi. Hayne she'riyatining bir qismi o'zbek tiliga o'girilgan. Oybek, Mirtemir, Shukrullo, Xayriddin Saloh, Abdulla Sher kabi shoirlarimiz o'zbek kitobxonlarini buyuk nemis shoiri lirikasidan bahramand qilganlar.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Adabiyotda realizm metodining mazmun va mohiyati.
2. Realizm va tanqidiy realizm tushunchalarini sharhlab bering.

3. Fransuz tanqidiy realizm adabiyotining G'arb adabiyotidagi o'rni.
4. Stendalning "Qizil va qora" romanida romantizm va realizm an'alarining uyg'unligi.
5. Balzakning "Insoniyat komediyasi" kompozitsiyasi va mohiyati.
6. Ingliz tanqidiy realizmining o'ziga xosliklari.
7. H.Hayne ijodida realizm an'alari.

Adabiyotlar:

1. Азизов Қ., Қажумов О. Чет эл адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1982.
2. Храповицкая Г.Н. Реализм в зарубежной литературе (Франция, Англия, Германия, Норвегия, США). – М., "Академия". 2006.
3. История французский литературы. – М.: 1951. Т.2
4. Немис адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Фарғона: 2004.
5. Холбеков М. Оноре де Бальзак ва "Инсоният комедияси" // Jahon adabiyoti 2009. №1
6. Бальзак Оноре де. Гобсек, Сағри тери тилсими. – Т.: Адабиёт ва санъат 1981.
7. Бальзак Оноре де. Горио ота. – Т.: Адабиёт ва санъат. 1968.
8. Стендаль. Қизил ва қора. 1830-йил хроникаси. – Т.: Адаб ва санъат нашриёти, 1979.
9. Стендаль. Парма ибодатхонаси. – Т.: Медицина, 1990.

XIX ASR OXIRI VA XX ASR JAHON ADABIYOTI

REJA:

1. Geografiyasi, muammolari va o'ziga xosligi:
 - a) Adabiyotda yangi ijtimoiy muammolarning paydo bo'lishi;
 - b) O.Kont va I.Tenning pozitivizm falsafasi.
2. E.Zolya va aka-uka Gonkurlar naturalizmi:
 - a) Dekadentlik adabiyoti. Impressionizm. Simvolizm va uning vakillari;
 - b) B.Shou ijtimoiy dramalari.
3. Modernizm. Modernizm tarixi va taraqqiyot bosqichlari, yo'nalishlari:
 - a) M.Prust. Vaqt haqidagi doston;
 - b) Modernizm va F.Kafka ijodi;
 - s) J.Sartr va ekzistensializm.
4. A.Kamyu va absurd falsafasi.
5. A.Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asari.

Tayanch so'z va iboralar: O.Kont, I.Ten: pozitivizm falsafasi; E.Zolya: aka-uka Gonkurlar, dekadent, naturalizm, impressionizm, simvolizm, ijtimoiy drama, modernizm, F.Kafka, J.P.Sartr: ekzistensializm; A.Kamyu: absurd falsafasi; Sent –Ekzyuperi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida bir qancha G'arbiy Ovrupa mamlakatlari va Amerika Qo'shma Shtatlari yangi iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlarni boshidan o'tkazdi. Monopolistik birlashmalar paydo bo'la boshladi. Angliya, Fransiya, Germaniya va AQSH davlatlari Afrika, Osiyo va Tinch okeani havzasida bosqinchilik urush siyosatini olib bordi. Moliyaviy kapital salmog'i ortib bordi. Yetakchi kapitalistik davlatlar o'rtasidagi raqobat va ziddiyatlar oxir-oqibat

Birinchi jahon urushiga olib keldi. Shu bilan birga, bu davr sinfiy ziddiyatlarning kuchayishi, ishchilar harakatining jonlanishi, kasaba uyushmalarni tashkil etishga bo'lgan harakatlar bilan xarakterlanadi.

XX asr boshlaridagi adabiy jarayonlar ham murakkab sharoitda rivojlandi. Ko'plab G'arb mamlakatlari adabiyotida XIX asr oxiri XX asr boshlarida *tanqidiy realizm* asosiy yo'nalishlardan biri edi. Ushbu yo'nalish taraqqiyoti mamlakatlarning o'ziga xos rivojlanish yo'li, milliy xususiyatlari bilan belgilanadi. Fransiya, Angliya kabi mamlakatlarda tanqidiy realizm XIX asr adabiyotidagi klassik realizm an'analarini davom ettirgan bo'lsa, bir qator mamlakatlar, jumladan, AQSH va Lotin Amerikasi adabiyotida u romantizm negizida shakllandi. Realist yozuvchilar ijodida ijtimoiy tengsizlik, mavjud tuzumni tanqid qilish va ziyolilarning jamiyatdagi o'rni masalalari asosiy o'ringa ko'tarildi. Ular o'ziga xos tasvir usullaridan unumli foydalandilar. Masalan, Haynrix Mann ijodida hajv-grotesk kuchli bo'lsa, Marten dyu Gar, Tomas Mann asarlarida chuqur psixologik tasvir, Bernard Shou va Anatol Fransda esa kinoya, piching bo'rtib turadi. Tanqidiy realistlar ijtimoiy-psixologik roman, ijtimoiy-psixologik drama, ilmiy-fantastik, ijtimoiy-utopik, tarixiy roman, drama janrlarida barakali ijod qildilar.

Realistik adabiyot o'zida yangi, murakkab unsurlarni mujassamlashtirdi. Siyosiy g'oyalar T.Drayzer, E.Sinkler, B.Brext asarlari ijobiy qahramonlarining qiyofasi va badiiy tuzilmasiga o'z ta'sirini o'tkazgan bo'lsa, D.Dos Passos ijodida shakliy o'zgartirishga qaratilgan intilishlarning natijalari namoyon bo'ldi. G.Xauptman asarlarida simvolizm, neoromantizm va realizm unsurlari uyg'unlashib ketgan bo'lsa, S.Sveyg, L.Feyxtvangerlarga Z.Freyd falsafasi katta ta'sir ko'rsatdi. Ko'plab ijodkorlar ichki monologlardan keng foydalana boshlagan bo'lsa, ba'zilar bir asarda turli vaqt qatlamlarini mujassamlashtirdilar, ong oqimini qo'lladilar.

She'riyatda poetik lug'atni yangilash borasida izlanishlar davom ettirildi, psixologizm yanada chuqurlashtirildi, she'rga nasr unsurlarini olib kirish jarayoni namoyon bo'ldi. XIX asrning 60–70-yillarida

Fransiyada paydo bo'lgan **naturalizm** ("natura" lot. – tabiat) asr oxiri va XX asrning boshlaridagi adabiy jarayonga o'z ta'sirini o'tkazdi. Naturalizm negizida Ogyust Kont, Ippolit Ten, Gerbert Spenserning pozitivizm (pozitivizm falsafasida: hamma haqiqiy, pozitiv bilimlar aniq fanlarning mahsulidir, falsafa esa bunday bilimlarni bera olmaydi, shuning uchun uning keragi yo'q, degan g'oyaga asoslangan subyektiv idealistik oqim) falsafasi va estetikasi yotadi. Kont pozitivizm falsafasi yordamida fan yutuqlarini o'rganishga, uni hamma narsadan yuqori qo'yishga intilgan va faktlarga suyangan holda ijodkor oldida turgan asosiy masala faqat voqealarni qayd etishdan iborat, deb ko'rsatgan. Uning "ijtimoiy hodisa insoniy hodisa sifatida, fiziologik hodisa qatoriga qo'shilishi kerak" degan tezisi, fiziologik omilni ustun qilib qo'yadi. Ippolit Tenning "irq, muhit va vaqt" tezisi ham Kont ta'limotiga asoslangan. Kont pozitivizmi zamonning tarixiy, badiiy-estetik qarashlariga, ayniqsa, naturalizm adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Fransiyada aka-uka Edmon (1822–1896) va Jyul (1830–1870) Gonkurlar, E.Zolya, K.Gyuisman singari vakillari bo'lgan ushbu adabiy yo'nalish keyinchalik Germaniya, Angliya, AQSHda keng tarqaldi. Zolyaning fikricha, yozuvchi kuzatuvchi, ya'ni tajribachidir. San'atkor asosiy diqqat e'tiborini turmush qanday bo'lsa, uni o'sha holatda berishga, ya'ni olim sifatida dalillarni o'rganish va ularni tasvirlashga, ayniqsa, inson xulq-atvorini patologiya bilan bog'liq holda tadqiq etishga qaratishi kerak. Gonkurlarning "Jermini Lyaserte", "Aka-uka Zemganno", Zolyaning "Tuzoq", "Hamal" romanlarida naturalizm estetikasi o'z amaliy ifodasini topdi.

Naturalistlar tabiat qonuniyatlarini insonlar jamiyatiga tatbiq etib, insonlar va boshqa tirik organizmlar o'rtasida hech qanday farq yo'q, degan g'oyani ilgari surdilar. Hayotda hamma yashash uchun kurash olib boradi, shunday ekan, hayvonlar o'rtasidagi tabiiy tanlash qonuniyatiga insonlar ham bo'ysunadilar. Naturalistlar insonning shakllanishida muhit va irsiyatning ta'siri katta deb bilib, inson hayot oqimiga qarshi turishga ojiz, degan xulosaga keladilar. Pozi-

tivistlar adabiyot, san'at, ijtimoiy fanlar, matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi aniq fanlardan farqlanmaydi, shuning uchun ularni o'rganishda bir xil mezonlardan, ya'ni ilmiy uslub, tajribalardan foydalanish zarur, degan fikrda bo'lganlar. Emil Zolya (1840–1902) adabiyotda naturalizm nazariyasini ishlab chiqdi ("Eksperimental roman", 1879).

Neoromantizm vakillari jamiyat qonun-qoidalarini, uning rivojlanish yo'llarini rad etdilar. Bu yo'nalish, asosan, Angliya va Germaniyada tarqaldi. Angliyada Stivenson, Konrad, Xaggard, Konon-Doyl, Chesterton va Germaniyadan Gofmanstal, Gaupman, Gazekklever singari adiblar ushbu yo'nalishning yirik namoyandalari sanaladi. Neoromantiklar zamonaviy jamiyat qadriyatlarini rad etar ekan, o'z o'quvchilarini uzoq o'tmishga yoki sivilizatsiya ta'siridan yiroq ekzotik o'lkalarga (Afrika, Osiyo, Janubiy Amerika) olib boradilar. Ularning favqulodda kuchli, romantik qahramonlarini yorqin, bo'yoqlarga boy, g'aroyib sayohatlar bilan to'la dunyoda faoliyat ko'rsatadi.

XIX asr so'nggi choragida bo'y ko'rsatgan yana bir adabiy oqim estetizm bo'lib, uning yorqin namoyandasi ingliz yozuvchisi **Oskar Uayld (1854–1900)** sanaladi. Mazkur oqimning paydo bo'lishida tanikli faylasuf, antik va uyg'onish davrlari san'ati bilimdoni J.Ryoskin hamda adabiy tanqidchi Uolter Peytarning ta'siri katta bo'lgan. Estetizm tarafdorlari barcha narsadan go'zallikni yuqori qo'yadilar. O.Uayldning "Yolg'onning qulashi" (1889) essesinde san'at hayotdan ustun turishi, ijodkor real hayotga emas, aksincha, hayot san'atga taqlid qilishi lozimligini "San'at san'at uchun" tamoyili asosida targ'ib etib san'atning tarbiyaviy ahamiyatini inkor etadi. 1891-yilda yaratilgan "Dorian Greyning portreti" romanida san'at va san'atkor mavzusi o'ziga xos tarzda talqin etiladi.

XIX asr ikkinchi yarmida "yangi drama" asoschisi, drama janri islohotchisi norvegiyalik **Hyenrik Ibsen (1828–1906)** pyesalarida ("Brand", "Per Gyunt", "Qo'g'irchoq uyi") romantizm va realizm an'analari sintezini kuzatish mumkin. Muallif doimo ramzlarga mu-

rojaat qiladi. Har bir pyesa g'oyalar haqidagi bahslardan tashkil topgan bo'lib, intellektual dramaning klassik namunalari hisoblanadi. H.Ibsi ijodi XIX asr oxiri va XX asr G'arb dramaturgiyasiga salmoqli ta'sir o'tkazdi.

XX asr adabiyoti taraqqiyotiga ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatgan yo'nalishlar sirasiga **dekadentlik** adabiyoti ham kiradi. Dekadentlik XIX asrning 80-yillarida Fransiya jamiyatdagi ziddiyatlar kuchayib borayotgan bir sharoitda paydo bo'ldi. Shaxsiyatparastlik, umidsizlik, sirli voqealar, oxiratga murojaat etish, bu adabiyotning asosiy belgilari sanaladi. Romantik shoir Teofil Gote dekadans (frans. *decadence* – tushkunlik) iborasini birinchi bo'lib qo'llagan. Keyinchalik dekadentlik atamasi san'at va adabiyotdagi barcha xasta hodisalarni ifodalovchi so'z bo'lib qoldi. Turli adabiy oqimlarga mansub bo'lgan parnaschi, simvolist, XX asr boshlaridagi modernistlar, hatto naturalistlar ham dekadentlar deb atala boshlandi.

XIX asrning 50-yillarida Fransiya maydonga kelgan "Parnas" (Qadimgi Yunonistonda muzalar, ya'ni san'at, adabiyot va fan ilohalari yashagan tog') guruhi (Lekont de Lil, Teodor de Banvil, Joze-Maria Eredia) "sof san'at" g'oyasini targ'ib qildilar. Ularning fikricha, san'at davlat homiyligidan ozod bo'lishi lozim. San'at maqsadsiz bo'lib, undan faqatgina real muhit tashvishlaridan uzoqlashtiruvchi ovunchoq sifatida foydalanish mumkin. Parnaschilar shaklga katta ahamiyat berdilar, shakl asar go'zalligini yuzaga keltiradi. Teodor de Banvil qofiyaga she'rni bezaydigan "oltin mix" deb baho beradi. Uning fikricha, san'at go'yoki bekorchilik mahsulidir. Narsa yoki buyum foydali bo'lib qolganda o'z go'zalligini yo'qotadi. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik, musiqa hech narsaga xizmat qilmaydi, parnaschilarning asosiy estetik tamoyillari ana shundan iborat.

Nemis faylasuflari Artur Shopengauer va Fridrix Nitsshe g'oyalari dekadentlik adabiyotining falsafiy negizini tashkil etadi.

Impressionizm (fr. *Impression* – taassurot) – san'atda rassomning, san'atkorning o'z subyektiv mushohadasi, his-tuyg'u va taassurotlarini aks ettirishga qaratilgan oqim bo'lib, 1860–1870-yillarda

bir guruh rassomlar: K.Mone, E.Mane, E.Dega, K.Pissarro, O.Renuar, A.Sisleylar ijodida namoyon bo'ldi. Adabiyotdagi impressionizm – bu musiqiylik, ishoralar, yarim pardalar, qalqib turgan kayfiyatlar, mubham imo-ishoralar, noaniq sharpalar poetikasidir. Taniqli rus shoiri V.Bryusov, impressionizmda o'ziga xos “hayot yaratish” sodir bo'ladi va bu maktabda har bir so'zning o'zi ham, so'z birikmasida kelganda ham – muayyan taassurot qoldiradi, deb yozgan edi.

Ba'zan simvolizm va impressionizm stilistikasini ajratish qiyin. Ular bir-biri bilan botiniy bog'liq, ba'zida esa ularni ajratib bo'lmaydi. V.Gyugo Stefan Mallarmeni impressionist shoir deb atagan. Impressionizmning xususiyatlarini simvolist shoirlar A.Rembo va P.Verlen, E.Zolya va ayniqsa, G. De Mopassan asarlarida uchtarish mumkin. Impressionistik uslub A.Fransning tanqidiy maqolalari uchun xos, bu an'analar keyinroq A.Chexov, I.Bunin, S.Kreyn, Sh.Anderson, E.Xemingueylarning kichik prozasida kuzatiladi.

Simvolizm adabiy yo'nalish sifatida XIX asrning 70–80-yillarida Fransiyada shakllandi. Keyinchalik Belgiya, Germaniya, Avstriya, Rossiya singari mamlakatlarda ham simvolizm maktablari paydo bo'ldi. Simvolizm atamasining paydo bo'lishi narsa-hodisalarni aniq nomlanishiga qaratilgan shartli ravishdagi ishorani anglatuvchi simvol(ramz) so'zi bilan belgilanadi.

Simvolistlar ramzni umumlashtirgan realistik yoki romantik ma'noda emas, balki yozuvchining atrof-olamga bo'lgan subyektiv munosabatining talqini sifatida tushunadilar. Bu yo'nalishning Fransiyada P.Verlen, A.Rembo, S.Mallarme, Belgiyada M.Meterlink va E.Verxarn, Germaniyada Xauptman, Avstriyada Rilke va Gofmanstal singari vakillari bor. Simvolizm negizida Shopengauer, Nitsshe va Bergsonning idealistik falsafasi yotadi. Simvolistlarning tutgan yo'li parnaschilarning g'oyaviy nuqtayi nazaridan kam farqlanadi. Ularda ham dekadentlarga xos kayfiyat – yolg'izlik, umidsizlik, g'am-g'ussa, mavhum obrazlar hukmdor. Simvolistlar ifoda qilib bo'lmaydigan narsalarni musiqiy ramzlar yordamida ko'rsatishga intildilar. Ular narsa, hodisa haqida hikoya qilmaydilar, balki

imo-ishora bilan cheklanadilar. Simvolistlar she'ning musiqaviy bo'lishiga katta e'tibor qaratishib, bu borada birmuncha yutuqlarga erishdilar. Masalan, shoir Pol Verlen "Kuzgi qo'shiq" she'rida mazmunni ochishga emas, balki tovushlarning bir-biriga ohangdosh bo'lib kelishiga erishgan. Uning "Poeziya san'ati" she'ri esa simvolistlarning adabiy dasturiga aylandi.

B.Shou ijtimoiy dramalari. Bernard Shou (1856–1950) Angliya ijtimoiy dramasi otasidir. U Angliya dramaturgiyasi an'analarini, Ibsen va Chexov teatri tajribalarini davom ettirgan holda XX asr dramaturgiyasida yangi sahifani ochib berdi.

B.Shou Irlandiya poytaxti Dublinda kichik xizmatchi oilasida dunyoga keldi. 1876-yildan Londonga keldi. Hayot Shou uchun maktab vazifasini o'tadi. U tinmay mutolaa qilish bilan o'z bilimini kengaytirdi va 70-yillarning oxiri hamda 80-yillarda bir nechta romanlarni yozdi. Ijtimoiy mavzudagi ushbu asarlar badiiy jihatdan nomukammalligi vajidan shuhrat qozonmadi («Nomatlub nikoh», «Artistlar muhabbati», «Keshel Bayronning kasbi» va boshqalar).

Shouga dramatik asarlari katta shuhrat keltirdi. U Ibsen dramaturgiyasining asosiy mohiyatini targ'ib qildi. Shouning Ibsen ijodi bo'yicha o'qigan ma'ruzalari asosida «Ibsenizmning kvint-essensiyasi» (1891) asari dunyoga keldi. Ushbu kitob Shou ijodining dasturiga aylandi. «Ibsenizmning kvint-essensiyasi har qanday formuladan voz kechishdir», deydi dramaturg. Ibsen faqat biznigina ko'rsatib qolmaydi, u bizni, o'zimizning holatlarimizda namoyon etadi. Uning sahna qahramonlaridagi holat bizda ham ro'y beradi. Buning natijasida, Shou pyesalari Shekspir asarlaridan ko'ra ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Shouning ingliz teatriga kiritgan novatorligi uning yangi tipdagi pyesa-intellektual drama yaratishi bilan xarakterlanadi. Bu tipdagi dramada intriga va jiddiy sujet emas, balki keskin munozara asosiy rol o'ynaydi.

Shouning dramatik faoliyati 1891-yilda Londonda rejissyor Tomas Greyn tomonidan tomoshabinlarni zamonaviy dramaturgiya

bilan tanishtirish maqsadida tashkil etilgan «Mustaqil teatr» bilan bog'liq. Ushbu teatrdan Ibsen, Chexov, Gorkiy singari dramaturglarning mashhur asarlari sahnalashtirildi. B.Shou yaratgan dastlabki pyesalar «Yoqimsiz pyesalar» nomi bilan ataluvchi turkumni tashkil etadi. Bunga «Bevaning hujralari» (1892), «Sansolarlik» (1893), «Uorren xonimning kasbi» (1893–94) pyesalari kiradi. Ularda katta boylikka ega, tinch hayot kechiruvchi, sirtidan ancha insofli va salobatli ko'rinsa ham, aslida boylik to'plashga hirs qo'ygan, insoniy histuyg'ulardan mahrum kishilarning tipik obrazlari namoyon bo'ladi.

«Uorren xonimning kasbi» pyesasida kambag'al kishilarning fojiali hayotini an'anaviy boylikka hirs qo'ygan mulkdorlarning ishlarida ochiq ko'rsatiladi. Uorren sobiq fohisha bo'lib, ushbu «kasb» orqali anchagina boyigan ayol. U Ovrupaning katta shaharlari – Berlin, Bryussel, Budapeshtda xotin-qizlar saqlanadigan bir qancha maxsus uylarni boshqaradi. Uorren xonim o'z opalarining qismatini o'ziga ravo ko'rmaydi. Opalarining biri 12 soatlab ishlab, oxir-oqibat, salomatligi yomonlashib hayotdan ko'z yumgan bo'lsa, ikkinchisi ham kichik chinovnikka turmushga chiqqanligiga qaramay, muhtojlikda yashab vafot etgan edi.

«Yoqimsiz pyesalar»da Shouning sahna asarini o'qishga mo'ljallangan pyesaga aylantirish tendensiyasi ko'zga tashlana boshlaydi. Asarga nafaqat holatni ko'rsatuvchi, balki qahramonlarga xarakteristika beruvchi katta-katta remarkalar kiritiladi. Shou pyesalarining ikkinchi turkumi «Yoqimtoy pyesalar» bo'lib, unga «Qurol va inson» (1894), «Kandida» (1895), «Taqdir bandasi» (1898) komediyalari kiradi. Bu asarlarda satirik tasvir uslubi o'zgaradi. «Yoqimsiz pyesalar»da muallif ijtimoiy tuzumning jirkanch tomonlarini ochiq-oydin tasvirlagan va birinchi navbatda ijtimoiy muammolarga murojaat etgan bo'lsa, «Yoqimtoy pyesalar»da asosiy e'tiborni axloqiy masalalarga qaratadi.

«Qurol va inson» pyesasida urush haqidagi soxta qarashlar, romantik xayollar, shovinistlarning targ'ibotlari ta'sirida inglizlarda tug'ilgan urushqoqlik kayfiyatlari tanqid qilinadi.

1897–1899-yillarda 3 ta pyesadan iborat «Puritanbop pyesalar» yaratildi.

1914–1918-yillari Shou ijodida qarama-qarshiliklar, izlanishlar davri bo‘ldi. Bu yillarda u Fabian ta’limoti, idealistik falsafasining «hayotiy qudrat» konsepsiyasi tarafdori bo‘ldi. («Inson va komil inson» pyesasi, 1903) 1912-yilda yaratilgan «Pigmalion» komediya-sida B.Shou demokratik qarashlari o‘z ifodasini topdi.

Birinchi jahon urushi davrida yaratilgan eng yetuk asar «Yuraklarni tilka-pora etguvchi xonadon» pyesasi bo‘lib, u 1919-yilda nashr etildi. Asarda urush arafasidagi Angliya hayotining keng manzarasi aks ettirildi. Ijtimoiy tanqid pyesada Angliya ziyolilari vakillari bo‘lgan qahramonlar ruhiy olamini chuqur tahlil qilish bilan uyg‘unlashib ketgan. Sobiq, dengizchi Shotoverning kema shaklida qurilgan uyi. Angliya jamiyatining ramzi sifatida tasvirlangan bo‘lib, bu uy, bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarni kutayotgan yo‘lovchilarni yodga soladi.

Pyesada aniq, sujet chizig‘i ko‘zga tashlanmaydi. Muallifni asosan qahramonlarning kayfiyati, atrof-olamni qanday qabul qilishlari qiziqtiradi. Ularda aniq bir maqsad, harakat va, eng asosiysi, idealning o‘zi yo‘q. Shuning uchun asar finali ham ramziy xarakterga ega: urush boshlandi, dushman samolyotlari bomba tashlamoqda, kapitan Shotover xonadonining a‘zolari uchuvchilarni jalb qilish maqsadida barcha xonalardagi chiroqlarni yoqib qo‘yishadi. Ellining «Bu uyga o‘t quying!»-degan xitobi qalblari majruh kishilar bilan to‘la xonadonlarda istiqomat qiluvchi barcha insonlarga tegishlidir.

20–30-yillarda yaratilgan asarlar orasida «Avliyo Janna» (1923), «Olma ortilgan arava» (1929), «Achchiq, lekin haqiqat» (1932) pyesalari alohida o‘rin tutadi. B.Shou mumtoz teatr an‘analarini boyitgan novator sifatida adabiyot tarixidan joy oldi.

Modernizm. XX asr boshlarida simvolizm o‘rnida futurizm, ekspressionizm, imajinizm, dadaizm, kubizm, abstraksionizm, syurrealizm singari oqimlar faoliyat ko‘rsatdi. Ular modernistik yoki avangard oqimlar deb atala boshlandi. Yangi asrning 20-yillarigacha

– avangard adabiy maktab va oqimlarining shakllanish davri bo‘ldi. Bular qatoriga *futurizm*, *imajizm*, *dadaizm*, *syurrealizm* va boshqa oqimlar kiradi. Adabiyotshunoslikda modernizm atamasi turlicha talqin etiladi. Ba’zi adabiyotshunoslar modernizm va dekadansga bir xil hodisa, deb ta’rif beradilar. Boshqa tadqiqotchilarning qarashlariga ko‘ra modernizm dekadansga nisbatan ancha keyingi adabiy hodisadir. Modernizmning dekadans bilan umumiy tomonlari bo‘lishiga qaramay, u dekadansdan keyin paydo bo‘lgan va undan ko‘p jihatdan farq qiluvchi yo‘nalishdir. Yana bir ta’rifga ko‘ra yangi davrdagi barcha avangard oqimlarni modernizm deb atash mumkin.

Shunday qilib, modernizm dekadansdan keyin paydo bo‘lgan, biroq o‘ziga xos jihatlariga ega bo‘lgan jarayon. Modernistlar ko‘p tomonlari bilan dekadentlarga hamfikir ekanligini inkor etib bo‘lmaydi. Idealistik falsafaga tayanish, shaxsiyatparastlikni ulug‘lash va boshqa jihatlar ularni bir-biriga yaqinlashtirsa-da, modernchilar o‘zlarini dekadent deb atamaydilar. Aksincha, ular dekadentlik va simvolizmga qarshi kurashayotganini e’tirof etganlar. Simvolizm she’riyatiga xos bo‘lgan mavhumlik, poetikadagi tashbeh va ishora modernistlarni qanoatlantirmaydi. Ular butunlay yangi, zamonaviy, avangard san’atni yaratayotganliklarini qayd etadilar. Shuning uchun ham “modernizm”, “avangardizm” atamaları “dekadans” atamasi singari vaqt o’tishi bilan keng ma’noda qo‘llanilib, estetika, tasviriy san’at, musiqa va me’morchilik sohalariga tatbiq etila boshlandi.

Bir qancha modernchilar Anri Bergson(1859–1941) falsafasiga tayanadilar. Faylasuf o‘zining “Materiya va xotira”(1896), “Ijodiy evolutsiya”(1907) asarlarida intuitizm falsafasining asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Unga ko‘ra intuitiv anglash his-tuyg‘ularning, mantiqiy fikrlashning ishtirokisiz ro‘y beradi. Intuitsiyani borliqdagi barcha narsani yaratgan o‘ziga xos kuch – “hayotiy intilish” boshqaradi. Vaqt obyektiv borliq sifatida mavjud emas, vaqtни faqatgina subyektiv qabul qilish mavjud. Bergsonning fikricha, san’at intuitiv anglashdir. Intellect negizida intuitsiya yotadi. Yana boshqa bir

guruh modernistlarga Zigmund Freyd (1856–1939) ta’limotining ta’siri katta bo’ldi.

Ekspressionizm (fr.expression – ifodalash, ma’nodor qilib aniq ifodalash). Birinchi jahon urushidan sal avval Ovrupa mamlakatlari kuzatilgan inqiroz natijasida kelib chiqqan oqim bo’lib, ular san’atkorning vazifasi tashqi dunyo haqidagi subyektiv-individualistik kayfiyatlarni aniq, ta’sirli ifodalashdan iborat deb hisoblaganlar.

Ekspressionist ijodkorlarning asarlarida ijtimoiy-tanqidiy jo’shqinlik yetakchilik qilgan, ular millionlab oilalarning boshiga azob-uqubatlar keltirgan jahon urushi, ijtimoiy adolatsizlik, shaxs erkinligini bo’g’ilishini tanqid qildilar.

Futurizm (lot.futurum – kelajak) – yetakchi avangard oqimlardan biri bo’lib, Italiya va Rossiyada rivojlandi. Uning tamoyillari ni italiyalik yozuvchi F.Marinetti (1876–1944) shaxsiyatparastlik, isyon ruhi bilan sug’orilgan “Futurizm manifesti” (1909)da asosladi. Uning tezislari orasida quyidagilar ham bor edi: “Kurashsiz go’zallik yo’q. Tajovuzkorliksiz durdona yo’q”; “Biz muzeylar, kutubxonalarni vayron qilmoqchi, nasihatgoylik, feminizm (ayollarining teng huquqli bo’lishi uchun kurashish) va boshqa tubanliklarga qarshi kurashmoqchimiz”.

Marinetti texnika yangiliklari, mashinalar, motorlar kabi urbanistik sivilizatsiyaning ajralmas qismlarini kuylovchi “kelajakning dinamik adabiyoti” kelganini e’lon qildi. U o’zining bir qator manifestlarida (1909–1915) futuristik stilistikaga oid asosiy talabni ishlab chiqdi, bu: an’anaviy sintaksisni tubdan o’zgartirish va deyarli to’liq otlardan iborat bo’lgan, fe’l va sifatlardan esa juda kam foydalanuvchi o’ziga xos “telegraf tilidan” foydalanish.

“Qisqacha aytilsa, futurizm namoyandalari jamiyatdagi taraqqiyot tendensiyalaridan kelib chiqqan holda, uning ertasini, ertangi inson va insoniy munosabatlarni o’zlaricha tasavvur qiladilar va shunga mos adabiyotni yaratish da’vosi bilan maydonga chiqadilar. Ya’ni futurizm asrlar davomida shakllangan an’anaviy madaniyatga ilmiy-texnik taraqqiyot va urbanizatsiyalashuv davri madaniyatini

qarshi qo'yadi. Kelajak haqidagi tasavvur esa mazkur jarayonlar bilan bog'liq holda kishilar dunyoqarashi, axloqi, turmush tarzi va shu kabilarda yuz berayotgan o'zgarishlarni mutlaqlashtirish asosida amalga oshiradi."²⁷

Rossiyada futurizm deyarli mustaqil shakllandi va V.Xlebnikov, D.Burlyuk, V.Kamenskiy, A.Kruchenix va V.Mayakovskiy ijodida namoyon bo'ldi.

Imajizm. 1910-yillarda ingliz-Amerika adabiyotida paydo bo'lgan imajizm(ing. Image – obraz, qiyofa) oqimi 1917-yilga kelib o'z faoliyatini tugatdi. AQSHda imajizm "poetik Renesans" davrida(1912–1925) qisqa muddat gullab-yashnadi. Imajistlar estetikasi T.E.Xyumning(1883–1917) tanqidiy maqolalari va E.Paundning(1885–1972) she'riy tajribasiga asoslandi. Imajistlar tasvirda lirik subyektivlik va ruhiy kechinmalardan ozod bo'lgan aniqlikni va "xom obrazning sof" bo'lishini talab qildilar. Ular bir necha she'riy antologiyalar chop ettirdilar hamda yangi vazn va shakllarning, erkin tematika, qisqalik va aniqlik tarafdorlari edi. Yirik inglizzabon shoir, ulkan iqtidor sohibi Ezra Paund imajinizmning ilk davrida ularga yo'lboshchilik qildi. 1910–1920-yillarda Rossiyada imajizmga yaqin bo'lgan **imajinizm** oqimi shakllandi. Bu oqimning eng yirik namoyandalari S.Yesenin, V.Shershenovich, A.Mariengoflar san'atni siyosiylashtirishga qarshi chiqdilar.

Ekspressionizm badiiy-g'oyaviy oqim bo'lib, u madaniyatning turli sohalarida(adabiyot, tasviriy san'at, teatr, musiqa, haykaltaroshlik) namoyon bo'ldi. U yo'nalish sifatida Birinchi jahon urushi arafasida paydo bo'lib, 20-yillarning o'rtalarida adabiyot sahnasidan tushdi. Bu yo'nalishning ko'zga ko'ringan vakillari sifatida I.Bexer, V.Volf, L.Rubiner, G.Kayzer, V.Gazenklever, E.Toller, L.Franklarni ko'rsatish mumkin. Insoniy qadriyatlarni himoya qilib chiqqan ekspressionistlar militarizm va ulug' millatchilik g'oyasiga qarshi chiqdilar.

²⁷ D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: "Akademnashr". 2010. – B.347.

Dadaizm (fr. dada – yog‘ochdan ishlangan o‘yinchoq ot, ko‘chma ma’noda bolalarga xos betartib nutq) – Birinchi jahon urushi davrida Syurix(Shveytsariya)da paydo bo‘lib, 1920-yillar boshida tarqab ketgan nigilistik xarakterdagi oqim. O‘z safiga T.Tsara(rumin), R.Gyulzenbek(nemis), A.Breton, L.Aragon, P.Elyuar(fransuzlar) singari ijodkorlarni birlashtirgan guruh a‘zolari alogizmgaga tayan-gan holda, so‘zlarni ma‘lum tartibda qo‘llash hisobiga real borliqqa o‘xshamaydigan o‘ziga xos dunyoni yaratishga harakat qildilar. “Dadaizm mohiyat e’tibori bilan urushga, jahon urushi keltirib chiqargan muhitga qarshi isyon edi. Ularning isyoni mavjud tartibotlarni inkor qilish, ularni ma’nisiz(absurd) deb hisoblashda, anarxizmni bunday sharoitda eng maqbul mavqe deb bilishda namoyon bo‘ladi. Shulardan kelib chiqib, dadaizmning san’at va adabiyotdagi isyonkorlik mavqeyi belgilangan: ular badiiy ijodda irratsionalizm tarafdori bo‘lganlar, adabiy-badiiy an’analarga nisbatan nigilistik antiestetizm mavqeyini egallaganlar”²⁸.

XX asrning 20-yillarida Fransuz she’riyatida **syurrealizm**(o‘ta realizm) deb ataluvchi oqim vujudga keldi. Sobiq dadaistlar A.Breton, L.Aragon, P.Elyuar ushbu guruh tashkilotchilaridan edilar. O‘z faoliyatida A.Bergson va Z.Freyd falsafasiga tayangan ushbu oqim vakillari real borliqdan yuqoriga ko‘tarilishni targ‘ib qildilar. Syurrealistlar o‘z she’rlarida inson ongidagi o‘y-fikrlar va tasavvurlar oqimini aks ettirishga urindilar va bu borada birmuncha natijalarga erishdilar. 30-yillarga kelib syurrealizm inqirozga yuz tutdi. L.Aragon, P.Elyuar singari iqtidorli yozuvchilar ushbu oqim bilan aloqani uzdilar.

Marsel Prust(1873–1922). XX asr fransuz adabiyotining asosiy namoyandalari haqida so‘z ketsa, M.Prust nomi birinchilardan bo‘lib tilga olinadi. U jahon adabiyotiga modernistik psixologik roman janrining asoschisi sifatida kirgan va XX asr dunyo adabiy jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan ijodkordir.

²⁸ D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: “Akademnashr”. 2010.-B.87.

M.Prustning bosh asari – “Boy berilgan vaqtni qidirib” 1913–1927-yillarda chop etilgan. Roman 7 ta kitobdan (fransuzcha nashrda 15 jild) iborat bo‘lib, so‘nggi kitob – “Qaytarib olingan vaqt” yozuvchi vafotidan keyin chop etilgan. Ushbu asargacha M.Prustning novellalardan tashkil topgan “Ovunchlar va kunlar” to‘plami nashr etilgan edi. Davosiz dardga chalinib, hayoti asta-sekin tugab borayotganini sezgan ijodkor, tashqi olamdan uzilgan holda kun kechira boshlaydi. Kunduzi dam olib, tunda u o‘zining romanlari bilan mashg‘ul bo‘lar edi. “Boy berilgan vaqtni qidirib” 1906-yilning kuzidan e‘tiboran Parijda yozila boshlandi va 1912-yilga kelib asarning dastlabki qoralama nusxasi tayyor bo‘ldi. Shundan so‘ng 1922-yilgacha – yozuvchi vafotigacha matn ustida ishlash, qayta ko‘chirish ishlari bir zum ham to‘xtatilmadi.

1918-yilda romanning ikkinchi kitobi “Qizlarning balog‘at davri” nashr etilgandan so‘ng, M.Prust yozuvchi sifatida shuhrat qozondi. Ko‘plab modernchilarning tom ma‘nodagi “otasi”ga aylandi.

“Boy berilgan vaqt”da tashqi dunyo aniq reallikdan holi tarzda tasvirlangan. Asarda tilga olingan mulkdor va zodagonlar hayoti real ko‘rinishlarda emas, balki bosh qahramon Marsel Svan tafakkuri va xotirasidagi ko‘rinishlar, tasavvurlar tarzida ifodalanadi. Doimiy harakatdagi tashqi olam ba‘zi jihatlar bilan avtobiografik ko‘rinishga ega bo‘lgan bosh qahramonning “ong oqimi”da namoyon bo‘ladi. Voqealarning bunday tasvirlanishi asar kompozitsiyasi va uslubiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Romanda tilga olingan voqealar vaqti aniq tartibda emasligi, bosh qahramonning o‘tmishga murojaat etishi, goh ilgari ketishi asarning qabul qilinishini birmuncha murakkablashtiradi. Assotsiatsiyalar oqimi voqealarni uzviy birin-ketinlikda qayd etishga xalaqit qiladi. Muallif ataylab shunday tasvir uslubini tanlaydi, chunki u fikrlar tizimiga bo‘ysunadi, inson fikri esa tabiiy ravishda doimo o‘z yo‘nalishini o‘zgartirib turadi.

M.Prust asarida aniq sana haqida to‘xtalmasa ham, undagi voqealar yarim asrdan ziyodroq muddatni, ya‘ni 1840-yildan to 1915-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olganligini taxmin qilishimiz mum-

kin. Romanda tilga olingan ishtirokchilar 200dan ortiq bo‘lib, asarining ingliz tilidagi nusxasi 4000 sahifadan iborat yoki bir yarim millionga yaqin so‘zdan tashkil topgan. Adib asarida “kashf etilgan” jamiyat, taxminan XX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi.

Romanda sujet deyarli yo‘q, chunki muallif hayot mazmunini voqealarda, deb bilmaydi. Yozuvchi inson hayotidagi muhim voqealarga, masalan, Svanning uylanishi, o‘limi yoki Jilbertaning turmushga chiqishi va boshqalarga yo‘l-yo‘lakay to‘xtaladi. Kitobxon uchun o‘ta muhim bo‘lib hisoblangan hodisa-qarashlar, imo-ishoralar birinchi planga olib chiqilgan. Asarda o‘tmishni xotirlash ongli tarzda ro‘y bermaydi. Bo‘lib o‘tgan voqea va holatlarni qahramonga his-tuyg‘ular eslatadi. Ong esa ikkinchi darajali vazifani o‘taydi. Xususan, pechenia ta‘mi qahramon(Svan)ga bolalik yillarini yodga soladi. “Uzoq o‘tmishdan hech narsa qolmagan taqdirda ham, juda nozik, lekin yashovchan, uzoq saqlanuvchi, ma‘lum hid va ta‘mlar ko‘p vaqtgacha o‘zi haqida eslatib turadi” – deydi Prust.

Demak, Prust uchun his qilish va kechinmalar real voqealardan ko‘ra muhimdir. Bu holat A.Bergson ta‘limotiga xos bo‘lib, unga ko‘ra insonlar va narsalarning haqiqiy mazmuni ular haqidagi taassurot orqali paydo bo‘ladi. Ushbu tamoyil impressionizm asosini tashkil etadi. “Boy berilgan vaqtni qidirib” romani ushbu g‘oyaning badiiy ifodasi sanaladi.

Marsel Prustning badiiy uslubi ham o‘ziga xos bo‘lib, yozuvchi ma‘lum bir vaziyat, holatni tadqiq etishni o‘zining bosh vazifasi deb biladi. U go‘yoki ruhiy holatlarni sekinlashtirib tasvirga tushurganday taassurot uyg‘otadi (masalan, Odettaning tashqi portreti, muhabbat tuyg‘usi tahlili va boshqalar). Yozuvchining xulosasiga ko‘ra, narsa, hodisa va hislarni batafsil tahlil qilinganda, ular bizning tasavvurlarimizdan ko‘ra boshqacha, ba‘zan butunlay qarama-qarshi bo‘lib chiqadi.

Xullas, real borliq Prustning fikricha, boy berilgan muhlatdir. Haqiqiy hayot tushda, shirin orzu-istaklarda va xayolot olamidagina mujassamlashgan.

Fransuz va boshqa G'arb adiblari Marsel Irust ijodiga yuksak baho berganlar. Andre Morua "Boy berilgan vaqtни qidirib"ni faqat san'at yordamida qaytarish mumkin bo'lgan vaqt haqidagi doston" – deb atagan.

Jeyms Joys(1882–1941) haqli ravishda Prust va Kafka singari XX asr modernistik adabiyotining "ota"laridan biridir. Akademik D.S.Lixachev u haqida: "... Joys adabiy hodisa, endi u takrorlanmaydi, u mutlaqo benazir", degan fikrni aytgan bo'lsa, buyuk psixolog olim Karl Yung: "Jeyms uslubining sira aql bovar qilmas ko'pqiyofaligi, odamga gipnozday ta'sir ko'rsatadi... Kitobxon o'quvchi og'zini ochgancha qoladi", deydi, taniqli adabiyotshunos, Joys asarlari tarjimoni I.G'afurov: "Joysni o'qish kishiga cheksiz bir maroq bag'ishlaydi. Joysni mutolaa qilishga kirishgan kitobxon ahdida qattiq turib, kitobni oxirigacha o'qishi kerak", deb yozadi.²⁹

Joys Irlandiya poytaxti Dublinda dunyoga keldi. Iuzit kollejlari-da ta'lim olgan Joys 1899-yili Dublin universitetiga o'qishga kiradi va tillar hamda falsafa bilan shug'ullanadi. Bo'ljak yozuvchining yoshlik yillari Irlandiyaning o'z mustaqilligi uchun kurashishi yillariga to'g'ri keladi. Mamlakatdagi milliy ozodlik harakati "Irlandiya uyg'onishi" nomini oldi. Joys voqealarga befarq bo'lmasa-da, ushbu harakatning ishtirokchisi bo'lishdan o'zini tiydi. Universitetni tamomlagach, Irlandiyani tark etib, Shveysariyada, 1920–1939-yillarda esa Fransiyada yashab, ingliz tilidan dars berib kun kechirdi. Ko'p yillar ko'z kasalligidan shikoyat qilib yurgan yozuvchi hayotining so'nggi yillari umuman ko'rmay qoldi va 1941-yili Syurixda vafot etdi.

Adabiyotga XIX asr oxiri XX asr boshlarida kirib kelgan Joys realistik an'analardan voz kechdi va o'z iste'dodini an'anaviy romanlardan o'zgacha, hech bir badiiy asarga o'xshamaydigan asar yaratishga sarfladi. Bunday asar Joys nomini dunyoga tanitgan "Uliss" romani(1922) edi. Ushbu roman Joysning ko'p yillik izlanishlari, yoshlik yillaridagi maqolalari, hikoyalari va "Mo'yqalam sohibi-

²⁹ Лихачёв Д. Слово к читателю.// Иностран.лит.-ра. 1988.№ 1.

ning yoshlikdagi surati”(1914) deb ataluvchi romanini yaratish orqali shakllangan qarashlari hamda ijodiy tamoyillarining mevasidir.

Joys ijodining dastlabki davri 1899–1914-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda uning bir qancha badiiy-tanqidiy maqolalari, xususan, “Drama va hayot”(1900), “Ibsen yangi dramasi”(1901), “Oskar Uayld”, “Sulaymon shoiri”(1909), “Bernard Shouning sensor bilan kurashi”(1909) va boshqalar yozildi. Bundan tashqari, “Kamer musiqasi” she’riy to‘plami, “Dublinliklar” hikoyalar to‘plami(1903–1905-yillarda yozilib, 1914-yilda chop etilgan), “Mo‘yqalam sohibining yoshlikdagi surati”(1904–1914-yillarda yozilib, 1916-yilda nashr etilgan) romani ham mana shu davrda yozilgan.

Joys yoshligidan teatrga muhabbat qo‘ydi. Ibsen va Gaupman dramalaridan tashqari Nitsshe va Shopengauer falsafasi, simvolizm estetikasi(P.Verlen va M.Meterlinkdan tarjimalar qilgan) va Angliyadagi estetizm harakatining ta’siri uning maqolalari hamda badiiy asarlari yo‘nalishini belgilab berdi.

“Drama va hayot” maqolasini yozuvchining badiiy manifesti deyish mumkin. Bunda dramaga “san’atning oliy shakli”, deb baho beriladi. Joys haqiqiy ijodkorning vazifasiga hayotiy inson xarakterlarini yaratish kirmasligi haqida yozadi. Shuning uchun ham u Shekspir asarlariga haqiqiy drama emas, balki “dialogdan tuzilgan adabiyot”, deb baho beradi. Joys ko‘proq simvolizm va shartlilikka asoslangan M.Meterlink pyesalarini yoqlab chiqadi. Uning fikricha, haqiqiy san’at asosiy qonuniyatlarni, ularning asl mohiyatini ochiq-oydin, qattiq tartibda ko‘rsatishi kerak. Ushbu qonuniyatlarining kimlar orqali namoyish etilishi ikkinchi o‘rindagi masaladir. Individual ko‘rinishlar, ya’ni ma’lum shaxs bilan bog‘liq bo‘lgan va muhit hamda davr ta’sirida shakllangan jihatlar haqiqiy ijodkor e’tibori uchun loyiq emas.

Jeyms Bernard Shouga “tug‘ma va’zxon” – deb baho berib, uning pyesalarini “dialoglardan iborat romanga yaqin bo‘lgan yangi dramatik shakl” – deb ataydi. U dramani janr nuqtayi nazaridan tahlil qilmaydi. Chunki janridan qat’i nazar, har qanday asar ham “tuyg‘ular

aloqalarining asosiy qonuniyatlarini” yetkazib bergan taqdirda dramaga, ya’ni san’atning oliy formasiga aylanishi mumkin.

Joys ijodining birinchi davridagi so’nggi asari – “Mo’yqalam sohibining yoshlikdagi surati” romani bo’lib, u avtobiografik xarakterga ega. Asarda Stiven Dedalus ismli ijodkor tafakkurining shakllanish jarayoni haqida so’z boradi. Asar qahramoni go’zallik yaratish ishtiyoqida o’z vatanini ham tark etadi. U ijodkor hayotining mazmuni mufassal estetik shakllarni yaratishda, asosiy vazifasi esa o’z xayolotlarini aks ettirishda deb biladi. Joys ijodining keyingi davrida “Uliss” va tugallanmagan “Finnegan ta’ziyasi” romanlarini yaratildi.

XX asrning eng mashhur asari, “ong oqimi” uslubi birinchi marta tugal ko’rinishda qo’llanilgan “Uliss” 1914–1921-yillarda yozilgan bo’lib, romandan parchalar 1918–1920-yillarda AQSHda “Litl rivyu” jurnalida chop etildi. Asar 700 sahifani, 260 ming so’zni tashkil etadi, lug’at boyligi 30 ming so’zdan iborat.

“Uliss” zamonaviy “Odisseya” sifatida o’ylangan bo’lib, uning bosh mavzusini jahongashtalik, darbadarlik tashkil qiladi. Homerning dostoni Joys asariga nomini, tashqi tuzilmasini taqdim etadi. Bosh qahramonlar va ba’zi ikkinchi darajali qahramonlar ham Gomer qahramonlariga “egizak”: Blum – Odissey, Stiven – Telemax, Molli – Penelopa, Mayls Krou – Eol, Gerti – Nivsikaya, Bella Koen – Sirseya. Biroq Joys qahramonning harakatlarini emas, “tafakkur oqimi”ni qog’ozga tushiradi. “Uliss”da va umuman Joys nasrida an’anaviy sujet, kompozitsion qurilishlar, xronologik mutanosiblik asosida hikoya qilinuvchi voqea-hodisalar silsilasi, an’anaviy tasvir usullarini uchratmaymiz. Aksincha, uning nasri o’ta murakkab bo’lib, bu yuksak iqtidor sohibining fikrlash tarzi, tafakkuri mevasidir.

“Uliss”dagi voqealar aniq – 1904-yilning 16-iyun payshanba – Blumsdey – Blum kunida sodir bo’ladi. Bu kun “Ivning telegraf” gazetasi reklama bo’limi xodimi Leopold Blumning bir kuni tarzida qayta jonlantiriladi. Roman markazida uch asosiy qahramon-

ning – Leopold Blum, uning xotini qovoqxona qo‘shiqchisi Merion, an’anaviy tarix muallimi Stiven Dedalusning bir kunlik hayoti, xususan, ertalab soat sakkizdan tungi uchgacha kechgan tashqi va ichki hayoti tasvirlanadi. Ularning ma’lum paytdagi holati, mashg‘uloti, uchrashuvlari tafsilotlari katta ahamiyat kasb etmaydi, yozuvchi diqqat markazida har birining ong oqimi, ichki monolog va dialoglari turadi.

Joys “Uliss”da umuman insonlar hayotini aks ettirishni maqsad qilib olgan. Shuning uchun asar qahramonlari aniq shaxslar bo‘lsa-da, muallif ularga universallik, umumiylik baxsh etadi. Lekin nima uchun Joys aynan 1904-yilning 16-iyunini asarga asos qilib oldi, degan savol tug‘iladi. Tadqiqotchi Richard Keynning ta’kidlashicha, shu kuni Joys bo‘ljak qallig‘i Nora Barnaklga ko‘ngil qo‘ygan edi. Onasining o‘limi bilan bog‘liq xotiralar va qayg‘u-iztiroblarga ma’lum ma’noda shu muhabbat malham bo‘lgan.

Roman 18 epizoddan tashkil topgan. Mazkur epizodlar romanda uch qismga bo‘lingan bo‘lib, yozuvchi dastlabki 1–3 epizodlarni “Telemaxnoma”, 4–5 epizodlarni “Odissey” va 16–18 epizodlarni “NOSTOS” deb atagan.

Joys o‘z asarini Homerning dostoni asosiga qurgan bo‘lsa-da, ushbu ikki asar o‘rtasida faqat ramziy o‘xshashlikkina mavjud. Joys kitobxon ko‘z o‘ngida olam va inson haqidagi o‘z tasavvurlari modelini yaratgan ijodkor sifatida gavdalanadi. Yozuvchi inson tabiatiga xos azaliylikni ochmoqchi bo‘ladi. Inson tabiatining o‘zgarmasligi Joysga Blum, Dedalus, Merionni Homer dostoni va qadimgi Rim afsonalari bilan taqqoslash imkonini beradi.

“Uliss”ning qurilishi mozaikani eslatadi. Joys g‘oyat sinchkovlik bilan fakt to‘plab, tabiiy aniqlik bilan yon daftarini to‘ldirib borgan edi. Romanning har bir epizodi ko‘plab parchalar yig‘indisidir. Yozuvchi kino san’atiga xos montaj vositasidan unumli foydalangan. Irland yozuvchisi qahramonlarning ichki monologlarini aniqlik bilan ifodalay oladi. Bunda u fikrning uzilishi va birvarakayiga turli fikrlar oqimi rivojlanishi usullaridan samarali foydalanadi. Masalan, Blum

do'kon vitrinasi oldidan o'tayotib ipakdan to'qilgan mato – poplin, Angliyaga gugenotlar tomonidan olib kelinganini eslaydi. Shu bilan birga uning ichki monologida parallel ravishda ikki mavzu – Meyerberning “Gugenotlar” operasidagi xor va poplin haqidagi o'ylari o'tadi: “Tarara. Ajoyib xor. Tara. Yomg'ir suvida yuvish. Meyerber. Tara bom. Bom-bom”.

Umuman, Joys butun hayotini “Uliss”ni o'qishga, o'rganishga, anglashga sarf etadigan fidoyi o'quvchini orzu qilgan. Chunki asar murakkab, mavhum va shu bilan birga jozibador hamda sirli. Akademik D.S.Lixachevning iborasi bilan aytganda, “Joysning maktabi bo'lmasligi mumkin, biroq uning butun dunyo madaniyati va adabiyotida tutgan mavqeyi beqiyos”³⁰.

Modernizm va Kafka ijodi (1883–1924). F.Kafka XX asr jahon adabiyoti rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan yozuvchilardan biri hisoblanadi. Vafot etganiga 90 yildan ko'proq vaqt o'tgan bo'lishiga qaramay, uning asarlari yuzasidan olib borilayotgan bahslar hali-hanuz tugagani yo'q. Ba'zilar uning asarlarini so'zsiz qabul qilsalar, boshqalar ana shunday qat'iyat bilan rad qiladilar. Ba'zilar uni otashin insonparvar deb e'lon qilgan bo'lsalar, boshqalar buning aksi ekanini isbot qilmoqchi bo'ladilar. Uning ijodini ekspressionizm, syurrealizm, naturalizm estetikasi bilan bog'lashga harakat qiladilar.

Millati – yahudiy, yashash joyi Praga, tili va madaniyati nemischa bo'lgan Kafkaning tarjimai holi voqealarga boy emas. O'rtahol yahudiy oilasida tug'ilgan Frans nemis gimnaziyasini tamomlagach, 1901–1905-yillarda san'at tarixi va germanistika bo'yicha ma'ruzalar tingladi. 1906–1907-yillarda Praga advokatlik idorasida ish o'rgandi. Huquqshunoslik bo'yicha doktorlik darajasiga ega bo'lishiga qaramay, katta mansablarga erisha olmadi. 1917-yili sil bilan kasallangach, tanaffuslar bilan 1922-yilgacha ishladi. 1923-yili Berlinga keldi va o'zining qolgan umrini adabiyotga bag'ishlashga qaror qildi. Yozuvchi 1924-yilning 3-iyunida Praga yaqinidagi Kirling sihatgohida vafot etdi. F.Kafka 1915-yildayoq adabiyot

³⁰ Лихачёв Д.С. Слово к читателю.// Иностран.лит.-ра. 1988.№ 1.

sohasidagi mukofotga sazovor bo'lganligiga qaramay, mashhurlik unga o'limidan keyin keldi.

Kafka o'z asarlarini chop ettirishga qiyinchilik bilan rozilik bergan. Shu sababli, hayotligida uning faqat quyidagi asarlari nashrdan chiqqan, xolos: 1905-yili "Bir kurash bayoni" novellasidan ikkita parcha, 1908-yili asarlaridan sakkizta parcha, 1913-yilda birinchi hikoyalar to'plami va "Amerika" romanining birinchi bobi, 1916-yilda "Hukm" va "Evrilish" novellalari, 1917-yili "Qishloq vrachi" to'plami va "Axloq tuzatish koloniyasida" novellasi. Kafkaning tugallanmagan 3 romani "Jarayon"(1925), "Qasr"(1926), "Amerika"(1927) o'limidan keyin chop etildi. Hozirgi paytga kelib yozuvchining adabiy merosi 10 jildni tashkil etadi.

Yozuvchi "Amerika" romani ustida 1911–1916-yillarda ishladi. Asarda ota-onasi tomonidan o'n olti yoshida Amerikaga jo'natib yuborilgan Karl Rossman haqida hikoya qilinadi. O'ta kamtar, sodda, ishonuvchan, oqko'ngil, hammaga doimo yordam berishga tayyor Karl hayotda ko'p qiyinchiliklarga uchraydi. Kemada suzib ketayotganidayoq u loqaydlik va adolatsizlikka duch keladi. Amerikaga kelgach, yigitcha birmuncha muddat taqdirning siyloviga sazovor bo'lganday bo'ladi. Ikki oyga yaqin u qandaydir badavlat amakisining uyida yashaydi, lekin amakisi hech qanday sababsiz Karlni ko'chaga haydab yuboradi. Ko'chada u ikki daydi – Delyamarsh va Robinson bilan tanishadi, ular bilan birgalikda mamlakatni kezib chiqadi.

"Oksidental" mehmonxonasining katta oshpazi Karlni ishga joylashtirishga yordam beradi, unga har tomonlama homiylik qiladi. Mast bo'lib kelgan Robinsonga achinib, unga yordam qo'lini cho'zgan qahramon 2–3 daqiqaga postini tashlab ketadi. Buning uchun Karl oberkelner, oberporte tomonidan qattiq so'roqqa tutiladi. Hatto yigitchaga har doim iltifot ko'rsatib kelgan oshpaz ayol ham uni jinoyatchi deb hisoblaydi. Bu qanchalik kulguli, mantiqsiz bo'lsada, u ishdan haydaladi. Ko'chada Karl yana Delyamarshning "tuzog'iga" tushadi. Roman qahramonning ochlik, turli

xo‘rlanishlariga to‘la hayotining tugashi bilan uzilib qolgan(Roman qahramoni qandaydir sirli Oklaxoma teatriga ishga qabul qilinadi. Ishga qabul qilinayotganlar “tanlov komissiyasi” tomonidan juda qattiq tekshiriladi, lekin oxir-oqibat hamma ishga qabul qilinadi). Nemis tadqiqotchisi K.Xerasdorfning fikricha, roman bosh qahramon o‘limi bilan yakunlanishi kerak edi. Aksincha, Kafkaning yaqin do‘sti, yozuvchi Maks Brod esa asar “happy end” bilan, ya’ni Karl Oklaxomada ota-onasini uchratib baxtli, sokin hayotga qaytishi bilan o‘z nihoyasiga yetishi kerak edi, degan fikrni ilgari surgan. Ushbu romanda inson unga begona va dushman bo‘lgan dunyoga qarama-qarshi qo‘yilgan(Bunday holat Kafkaning deyarli barcha asarlariga xosdir). Yozuvchining fikricha, Karl shaxs sifatida hurmatga sazovor inson. Boshqa vaziyatda u hayot uchun bo‘lgan kurashda g‘alaba qozonishi, o‘z hayotini orzu qilganidek qurishi mumkin edi. U har qanday “pollunder” va “delyamarsh”lardan ijobiyroq, lekin afsuski, ulardan kuchsiz. Shuning uchun Karl jinoyatchi sifatida emas, balki taqdir qurboni sifatida halok bo‘lishi kerak. Yozuvchiga Karlning prototipi bo‘lganmi? – degan savol berilganda u quyidagicha javob qaytargan: “Men odamlarni chizmayman. Bular obrazlar, faqat obrazlar”.

“Jarayon”(1925). Yirik bankning xodimi Yozef K. kunlarining birida qandaydir maxfiy sud vakillari tomonidan hibsga olinadi. Ushbu sud(u chordoqda joylashgan) norasmiy bo‘lsa-da, juda qudratlidir(u barcha uylarning chordog‘ida mavjud). Tekshiruv-surishtiruv ishlari maxfiy olib boriladi va ayblov xulosalari ovoza qilinmaydi. Sudlanuvchi esa hukm ijrosi amalga oshirilishiga qadar ozodlikda qoladi. Bu sud uchun aybsizlarning o‘zi yo‘q, ertami-kechmi sudlanuvchi ustidan, albatta, hukm chiqariladi.

Hech qanday gunohi yo‘qligiga ishongan Yozef K. bu o‘ta yumshoq, deyarli his qilib bo‘lmaydigan zo‘ravonlikka qarshilik ko‘rsatmoqchi bo‘lib, avval advokatga murojaat qiladi, so‘ngra o‘ziga yaqin ayollardan yordam so‘raydi, sud rassomi Titorelli huzuriga boradi. Ta’qibdan qutulishning eng oddiy yo‘lini rad

etadi(amakisining qishlog'ida yashirinish). Va nihoyat Yozef K. o'zini hech narsa ro'y bermaganday tutishi, ya'ni so'roqqa bormasligi mumkin edi. Chunki u bilan suhbatlashgan ruhoniylar(sud hay'atining a'zosi) sudga undan hech narsa kerak emasligi, sud u o'zi kelganida qabul qilishi, ketmoqchi bo'lganda esa, qo'yib yuborishini uqtiradi. Lekin Yozef K. taqdirdan yashirinmaydi. Aksincha, u taqdirga qarshi chiqadi va borgan sari uning to'rlarida ko'proq o'ralashib qolaveradi.

Uning sud bilan bo'lgan bunday munosabatiga tayanib ba'zi adabiyotshunoslar, aslida hech qanday sud jarayoni bo'lmagan, hamma narsa qahramonning xayolida, ongida bo'lgan, degan xulosaga keladilar. Masalan, amerikalik tadqiqotchi Ingeborg Xenelning yozishi-cha, "Kafkada insonning o'zi barcha azob-uqubatlarning bosh aybdoridir. Inson o'zini o'zi oqlash uchun faqat o'ziga ko'rinadigan olamni yaratadi".

Roman davomida qahramon ikki xil hayot kechiradi: birida u ta'qib qilinayotgan, quvilayotgan "oddiy" odam bo'lsa, ikkinchisida har qanday hodisa-yu noxushliklardan himoya qilingan yirik amaldor. Hibsga olingandan so'ng Yozef K. frau Grubaxga: "bankda men bilan bunday voqea ro'y bermas edi", deydi, chunki bankda u doimo hushyor, sergak turadi. Demak, qahramonning o'zi unga shaxs sifatida dushman bo'lgan dunyoning bir bo'lagidir. Aynan shu dunyoga aloqadorlik Yozef K.ni o'zini ko'z o'ngida "gunohkor" ko'rsatadi. Aynan shu "gunohkorlik" tuyg'usi uni sudga borishga majbur qiladi, shuning uchun u suddan keta olmaydi. Shu sababdan uni qatl qilgani olib ketishayotganda hech kimni yordamga chaqirmaydi, hech qanday qarshilik ko'rsatmaydi.

Yozef K. shaxs sifatida o'zidagi "amaldor" ustidan hukm chiqaradi, shu bilan birgalikda amaldor Yozef K.ga "quyib qo'ygandek" o'xshash amaldorlar uni shaxs sifatida o'ldiradilar. Asar qahramoni hibsga olinganidan bir yil o'tgach qatl qilinadi, chunki u adolatsiz qonunlarga bo'ysunishni xohlamaydi, "bo'riday uvillash"dan bosh tortadi. Shunga qaramay o'zligini saqlab qolgan Yozef K. dunyoga

emas, birinchi navbatda o'z-o'ziga boqadi, o'zi orqali dunyoga nazar tashlaydi. "Jarayon"ning dunyosi subyektiv bo'yoq berilgan dunyo bo'lib, o'z iztiroblari, kuchsizligi va gunohkorlik hissi orqali ko'rsatilgan dunyodir.

F.Kafkaning eng mashhur asarlaridan hisoblangan "Evrilish" hikoyasi 1912-yilning kuzida yozilib, 1915-yilning oktabrida Leypsigda chop etildi. Asar qahramoni badavlat bo'lmagan xonadon farzandi bo'lib, otasi besh yil avval singanidan keyin tijorat ishlari bilan shug'ullana boshlagan. Keyinchalik otasi ishni tashlagan. Onasi – xasta, singlisi Greta esa yosh bo'lganligi sababli oilani boqish Gregorning zimmasiga tushadi. Voqea Pragada, 1912-yilda sodir bo'ladi. Doimo safarlarda bo'lgan Gregor navbatdagi xizmat safari oldidan uyda tunab qoladi. Ertalab uyg'ongach, u qandaydir bahaybat, jirkanch qo'ng'izga aylanib qolganini anglaydi. Hali inson aqlini yo'qotmagan Gregor-qo'ng'iz kech qolayotganini, narsalarini tezroq yig'ishtirib stansiyaga yetib borish haqida o'ylaydi. Uyidagilar allaqachon bir necha bor eshikni taqillatishga ulgurдилar. Gapirishi tobora qiyinlashib borayotgan Gregor ularga javob ham qaytaradi. Juda katta qiyinchilik bilan eshikni ochishni ham uddalaydi. Eshik ochilgach, oila a'zolari ham, qahramon ishlaydigan firma vakili ham dahshatga tushadilar.

Oradan bir qancha vaqt o'tsa ham Gregor asl holiga qaytmaydi. U qo'ng'izga aylangach undan faqatgina singlisi xabar olar, shunda ham ovqat qoldiqlarini tashlab, tezroq chiqib ketishga harakat qilalar, qo'ng'izdan jirkanayotganini yashirmas edi. Bu narsa Gregorga ruhiy azob beradi, chunki unda hali inson yuragi saqlanib qolgan edi. Qattiq lat yegan qo'ng'iz bir necha oydan keyin o'ladi. Oila a'zolari uni keraksiz narsani tashlaganday tashqariga chiqarib tashlaydilar. Shu kuni oilaga yana tinch va osuda hayot qaytib keladi. Qo'ng'iz qiyofasidagi inson – Gregor vafot etdi, odam qiyofasidagi qo'ng'izlar esa yashashda davom etadilar.

Kafka ijodini tatqiq etgan olimlarning aksariyat qismi uning uslubiga xos bo'lgan tasvirning realistik usuli bilan markaziy voqealar-

ning mutlaqo haqiqatan yiroqligini ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, fantastik, ishonish qiyin bo'lgan voqealar haqida bunchalik ehtirossiz va sokin ohangda yozgan adibni topish amri mahol.

"Evrilish" hikoyasining qahramoni Gregor Zamzaning qo'ng'izga aylanishi ana shunday ohangda yozilgan. Qahramon, u bilan birgalikda muallifning o'zi ham qahr-g'azab, tushkunlikka tushish u yoqda tursin hatto ajablanmaydilar. Dunyo ostin-ustun bo'lgani yo'q: xona xonaligicha turibdi; mato namunalari stol ustida yotibdi; devorda osilgan arzungina narxga olingan rasm ham o'z joyida. Aynan mana shunday osuda, lekin shafqatsiz uslub Kafkaga xosdir.

F.Kafkaning o'limidan keyin Maks Brod tomonidan chop ettirilgan romanlari, novella va hikoyalari, xatlari va deyarli tayyor ko'plab badiiy matnlar mavjud bo'lgan kundaliklari chop ettirilgach, yozuvchining butun ijodini yaxlit bir matn sifatida qabul qilish kerakligiga amin bo'lamiz.

Bu ma'noda uning ilk yirik asari "Bir kurash bayoni" (1903–1904-yillarda yozilib, muallif tomonidan nashr ettirilmagan) namuna bo'lib xizmat qiladi, chunki unda Kafka hayoti davomida yozganlari ixcham, siqiq holda berilgan. Adib yaxlit matndan bir nechta parchalarni ajratib olib, mustaqil asar sifatida turli turkumlar tarkibida chop ettiradi. Quyida keltirilgan "Bir kurash bayoni"ga kiritilgan "Daraxtlar" hikoyati(pritcha) ana shunday parchaga yorqin misol bo'ladi:

"Illo, biz qishda kesilgan daraxtlar misolimiz. Go'yo ular qorga shunchaki sirpanib tushgan-u, yengilgina turtib yuborilsa, ular o'rnidan qo'zg'aladigandek. Yo'q, ularni qo'zg'atib bo'lmaydi, ular muzlab yerga mahkam yopishib qolgan. Biroq taassufki, bu shunday tuyuladi, xolos" (S.Xo'jayev tarjimai).

Asar boshlanishi go'yo undan oldin qandaydir mulohazalar aytilgan-u, endi undagi fikr davom ettirilayotganday tasavvur uyg'otadi: "Illo, biz qishda kesilgan daraxtlar misolimiz. "Biz – daraxtlar" hikoyatga xos bo'lgan istioradir. Biroq obraz shu darajada mavhumki, agar paydo bo'ladigan so'niq, tushkunlik kayfiyati e'tiborga

olinmasa(“qishda”, “kesilgan”), fikr hech qanday mazmun kasb etmaydi.

Bu yo‘nalish ikkinchi jumlada topilganday bo‘ladi: “Go‘yo ular qorga shunchaki sirpanib tushgan-u, yengilgina turtib yuborilsa, ular o‘rnidan qo‘zg‘aladigandek”. Aniq-ravshan ko‘rinib turibdiki, iboraning o‘zida uning mantiqiy davomi mavjud: agar tuyulsa, demak, uni qo‘zg‘atib bo‘lmaydi. Nima uchun? Eng oddiy taxmin: “Yo‘q, ularni qo‘zg‘atib bo‘lmaydi, ular muzlab yerga mahkam yopishib qolgan”. Agar birinchi va ikkinchi iboralar bir-biriga mantiqan bog‘langan bo‘lsa, ikkinchi va uchinchi iboralar bir-biriga sabab-oqibat aloqasi bilan uzviy bog‘lanadi.

Shu sababli uchinchi ibora kiritilgandek: “Yo‘q, ularni qo‘zg‘atib bo‘lmaydi, ular muzlab yerga mahkam yopishib qolgan”. Uning o‘z qonuniy joyida paydo bo‘lishi muayyan istiorani tahlil qilishdan ko‘ra kengroq fikrni talab etadi: hech qachon narsalarning tashqi ko‘rinishiga qarab baho berish kerak emas, ularning mohiyati, sababini aniqlash kerak. XIX asr realistlari ana shunday fikrlar, pozitivistlar esa bunda falsafaning mohiyatini ko‘rardilar. Aslida gap daraxtlar haqida emas, biz haqimizda.

Kafka to‘rtinchi iborani qo‘shadi: “Biroq taassufki, bu shunday tuyuladi, xolos” va unda biz adibning jahon madaniyatiga qo‘shgan hissasini, ya’ni yangicha tafakkurni ko‘ramiz. Yozuvchi barcha tomonidan qabul qilingan tafakkur qoidalariga zid qarash – paradoks yaratadi. Agar Oskar Uayld yoki Bernard Shou paradokslarini qiyinchilik bilan bo‘lsa-da “mag‘izini chaqish” mumkin bo‘lsa, Kafkada umuman boshqacha paradoksni ko‘ramiz. Ehtimol unga Tertullianning quyidagi mashhur fikri namuna bo‘lib xizmat qilgandir: “Iso Masih chormixga tortildi – uyat emas, illo, bu uyatsizlik. Va Iso Masih o‘ldi – bu butunlay aniq, shubhasiz, illo, bu safsata, tuturiqsizlik. Dafn qilingan bo‘lsa-da, u tirildi – bu rost, illo, mumkin emas”.

Kafkada buyuk fransuz modernist yozuvchisi Marsel Prustdan farqli o‘laroq, alohida ajratib olingan jumla matnning kichik bir

zarrasi emas. Oldingi uch jumboqli jumlasiz to'rtinchi jumboqli jumlaning tushunib bo'lmaydi – bu adib uchun xos jihatdir.

Frans Kafkaning ijodi, shaxsi, dunyoqarashi XX asrda eng ko'p bahslarga, tortishuvlarga sabab bo'lishidan qat'i nazar adabiyotda o'zining munosib o'rniga ega bo'ldi.

Jan-Pol Sartr (1905–1980) va ekzistensializm. XX asr fransuz adabiyotining taniqli namoyandasi, faylasuf va yozuvchi, ekzistensiyachilik ta'limotining asoschisi Jan-Pol Sartr 1905-yil 21-iyun kuni Parijda tug'ildi. La-Roshel va Parijdagi litseylarda o'qib, keyinchalik oliy maktabni tamomlagach, Gavr, Lion, Parij litseylarida falsafadan dars berdi. 1933–1934-yillarda Germaniyada chet el va nemis ekzistensiyachilik nazariyasini, Edmund Gusserl fenomenologiyasi va Xaydegger ontologiyasini chuqur o'rgandi. Sartrning ilk falsafiy asarlari “Tasavvur” va “Hayajonlar nazariyasiga chizgilar” 1936–1940-yillarda yozdi. Aynan shu davrda uning birinchi adabiy asarlari “Behuzurlik”(1938) va “Devor”(1939) ham bosmadan chiqdi.

Sartr 1943–1949-yillarda yozilgan “Ozodlikning yo'llari”, “Pashshalar”(1943), “Yopiq eshik ortida”(1945), “Ko'milmagan mayyitlar”(1946), “Iflos qo'llar”(1946), “Iblis va Xudo”(1951), “Nekrasov”(1956) kabi badiiy asarlarida, “Bodler”(1947), “Avliyo Jene”(1952) asarlarida esa tanqidiy fikrlarini bayon qildi. “Holatlar”(1947–1956) asarida uning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-tanqidiy fikrlari o'z ifodasini topgan.

“Ekzistensiyachilik, bu – hayotbaxshilik, harakat haqidagi ta'limotdir”, – deb yozadi Sartr. Ekzistensializm – bu kun ko'rish falsafasi. Kun ko'rishning asosi. – kechinma. Shaxs o'zining borliq – olamdagi mavjudligini kechinmalari orqali idrok etadi. Shunga ko'ra shaxsning ongi doim boshqa bir narsalarga qaratilgan. Boshqa narsalar hamisha uni o'ziga tortib mashg'ul qilib turadi, kechinmalarni uyg'otadi, qo'zg'atadi, ularga yo'nalish beradi.

“Behuzurlik” romani ekzistensiyachilik g'oyasini bilish uchun o'ziga xos darslik vazifasini bajarishi mumkin. Asar kundalik

shaklida yozilgan bo'lsa-da, o'ziga xos turi: u individum(har bir mustaqil tirik organizm)ning kundaligi emas, individ(shaxs)ning kundaligi. "Sizga kundalikni o'qish jarayonida ham, uni tugatgandan keyin ham muallifi haqida hech narsa ma'lum bo'lmaydi. Bu shaxsning kundaligi emas, zotning kundaligi", – deb yozgan edi Antuan Arkanten. Odam daf'atan, hech bir sababsiz atrofidagi olamga va jumladan, o'ziga ham o'zgacha qaray boshlaydi. U hamma qatori odatiy hayot kechiradi va to'satdan olam parchalanib ketayotgani, odat bo'lib qolgan narsalar noodatiy bo'la boshlayotganini his qilayotganini sezib qoladi. Tushunib olish maqsadida kundalik yozishni boshlashga qaror qiladi. U o'z fikrlarini yozib borar ekan, qo'qqisdan bu dunyodagi barcha narsalar, jumladan, uning o'zi ham shunchaki yashayotganini, tasodifan ekanini anglaydi. Juda chiroyli manzara: quyosh nurlari tushib turgan oppoq devor, did bilan kiyingan yigit va qiz peshvoz yurib kelmoqda, hamma ularning uchrashishi va bir-biridan bo'sa olishlarini kutmoqda, biroq ular... to'xtamay o'tib ketadilar. Bu uning xayolida yaratilgan manzara. (Sartrning turmush o'rtog'i adiba Simona Dyubuaning "Dilbar odam"(yoki "Go'zal manzaralar") romanining qahramoni dekoratsiya ishlovchi rassom, dizayner, u ba'zi alohida predmetlardan yaxlit surat yasash ustida ishlaydi. Ayol vitrinalar yonidan o'tib borar ekan, qo'lqoplarni ko'rib qolib, juda ham sotib olmoqchi bo'ladi, sotib olgach, uyiga kelganida qo'lqopni tomosha qilib, nima sababdan sotib olganini tushunmaydi. Biroq u o'z kasbining ustasi, shuning uchun qo'lqop, go'zal manzarani yaratish uchun kerakli va yetishmayotgan detal ekanini anglaydi). Sartrda ham shunga o'xshash vaziyat yuzaga keladi. Unga olamning manzarasi bo'lmasligi ma'lum bo'ladi. Uning o'rnida xaos(turli elementlarning tartibsiz joylashishi) mavjud bo'lib, odam uning oldida yalang'och va sarpoychang, u qabul qilishi yoki rad etishi mumkin. Asar qahramoni Rokanten tanlash payti kelganda, oldinga qadam tashlaydi va erkinlikni his qiladi. U "daraxt" deb ataluvchi predmetni, predmet turi ma'nosida emas, balki qandaydir noyob narsa ma'nosida ko'radi. Qahramon qandaydir

nodir narsani ko'rgandek, bu po'stloqni, uning g'adir-budurliklarini, har bir yaproqni, bu novdalarni, bu ildizlarni ko'radi, u o'zini shu daraxt deb sezadi, bu betakror, ajoyib daraxtning hayotini his qiladi. Muallifning fikricha, mana shu holat reallikdir.

Rokanten o'zining yozuvchilik, tadqiqotchilikka iqtidori borligini his qiladi. U o'z ichki dunyosi va u orqali tashqi olam narsahodisalarini to'xtovsiz kuzatadi, ular ustida o'y suradi. U mushohada odami. Ko'zi tushgan narsalarga uzoq tikiladi. Tikilib turganida goho kutilmaganda bir qo'rqinch paydo bo'ladi. Ba'zan kuzatayotgan narsalari unda intihosiz nafrat qo'zg'atadi. Nafrati behuzurlikka aylanadi. Lekin uning mushohadalari o'tkir va juda nafis. U o'zida fikr paydo bo'lishini shunday kuzatadi: *"Fikrlarim so'z libosiga burkanmaydi, ko'pincha ular tuman parchalariga aylanadi, g'alati, noayon shakllarga kiradi, biri uzra boshqasi qalashadi va men ularni o'sha zahoti unutaman..."*

Sartnning "Behuzurlik" romani ekzistensializm falsafasi mohiyatini o'zida to'la mujassam etgan asaridir.

Yozuvchining "Pashshalar", "Yopiq eshik ortida" pyesalari hamda "Hayot va o'lim" falsafiy asari Ikkinchi jahon urushi yillari yozildi.

"Pashshalar" pyesasida odamlar uchun dunyoda obyektiv ma'naviyat mavjud emas va ular o'zlariga ma'qul bo'lgan tanlovni qabul qilishga haqlidirlar, degan g'oya yotadi. Antik davr sujeti asosida yozilgan pyesa qahramoni Orest Zevs oldida otasiga xiyonat qilgan o'z onasini o'ldirgani uchun kechirim so'rashdan bosh tortadi. Fransiya fashistlar Germaniyasi tomonidan istilo qilingan bir davrda asarda ozodlik va erkinlikka ehtirosli chaqiriq bor edi.

"Yopiq eshik ortida" pyesasi do'zaxga loyiq topilgan uch personajning suhbatidan iborat bo'lib, ekzistensializm iborasi bilan aytilganda, mavjudlik mohiyatdan oldinda, insonning xarakteri muayyan harakatlarni bajarganda shakllanadi, hal qiluvchi daqiqada qahramon cho'chisa, u mohiyatan qo'rqqoq bo'ladi. Sartnning fikricha, ko'pgina odamlar o'zlarini atrofdagilar qanday baholasalar, shunday deb qabul qiladilar.

“Hayot va o‘lim” falsafiy asarida Sartr, “ong o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, tashqi olamni, atrofimizdagi narsalarni anglash bor”, – degan fikrni ilgari suradi. Odamlar o‘z qilmishlari uchun o‘zlarining oldida javob beradilar, umuman, kishilar buning uchun hisob beradilarmi-bermaydilarmi, har qanday harakat qandaydir qiymat kasb etadi, deydi muallif³¹.

Sartrning estetikasi ko‘proq amaliy xarakterga ega: u butun ijodining uzviy qismini tashkil qilib, falsafiy va badiiy ijodga bog‘lanadi. Uning estetikasida muayyan tizimning o‘zi yo‘q, biroq asosiy estetik g‘oya va tamoyillarni ko‘rish mumkin. U o‘zining “Adabiyot nima?” risolasida zamonaviy jamiyatdagi san’atkor va adabiyotning mavqeyi haqida fikr yuritib, yozuvchilarni so‘zlardan foydalanuvchi odam, u anglatadi, isbotlaydi, ishonтиради, ishora qiladi desa, shoirlarni so‘zdan foydalanishni inkor qiluvchi odamlar, ular uchun so‘zlar tabiiy narsalar deydi. “Nasr reallik bilan, she’riyat tasavvur bilan bog‘liq. Nasrda ijod ongli ixtiyor, mas’uliyat va muallifning axloqi bilan shartlanadi, she’riyatda esa ijod – muallifning anglab yetmagan dunyosi, anglab yetmagan tajribasi mahsuli: “Nosir o‘z suratini chizgan bir paytda, deydi Sartr, – she’riyat inson haqida afsona yaratadi”³².

Sartrning faoliyatida adabiy ijod va san’atga katta o‘rin ajratilgan. Yozuvchi hamma ijodkorlar kabi, umuman, barcha narsa haqida so‘zlashi kerak, shuningdek, subyektiv va obyektiv dunyo haqida ham. Inson hayotidagi hech qanday muammo uning uchun qorong‘i yoki begona bo‘lishi mumkin emas. Insoniyat hamda inson dunyosiga tegishli hamma narsa yozuvchi va ijodkorning ijodiy qarashlari sohasiga tegishlidir.

Faylasufning tushunchasida nasr bu – muhim ramz, nishonalarni yaratadigan idrok quroli kabi semantik tildir. She’riyat – assementik til. U tasvir va kuy kabi hissiy hamda tuyg‘un,

³¹ Ermatov H. Nobel mukofoti sovrindorlari. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2011-y.

³² Долгов К. Эстетика Жан-Поля Сартра. – М.: “Знание”, 1990.

jo'shqin narsalarning xususiyatlari va ma'nosini ochib beradi³³.

1964-yili "erkinlik ruhi bilan sug'orilgan va mohiyatni izlagan g'oyalarga boy, davrimizga ulkan ta'sir ko'rsatgan ijodi uchun" Sartre xalqaro Nobel mukofoti berildi, biroq u mukofotdan voz kechib, o'z qarorini mukofotning shuhrati uning siyosiy faoliyatiga to'sqinlik qilishi mumkinligi bilan izohladi. Jan-Pol Sartre 1980-yili Parijda vafot etdi.

Alber Kamyu(1913–1960) va absurd falsafasi. Atoqli adib, publitsist va faylasuf bo'lgan Alber Kamyu hayoti va ijodiga qiziqish doimo yuqori bo'lgan.

A.Kamyu 1913-yilning 7-noyabrida Jazoirning uncha katta bo'lmagan Mondovi shaharchasida, qishloq xo'jaligi ishchisi oilasida dunyoga keldi. Otasi Lyusen Kamyu Birinchi jahon urushida halok bo'lgan. 1924-yili Belkurdagi boshlang'ich maktabni tugatgan Alber litseyga o'qishga kiradi. Litseyini tugatgach, mahalliy universitetning falsafa-tarix fakultetiga o'qishga kiradi.

U 1935-yilda tashkil etilgan ko'chma Mehnat teatrini tashkil etilishiga bosh-qosh bo'ldi. Bu yerda Kamyuning aktyorlik va rejissyorlik iqtidori namoyon bo'ldi. 30-yillarning oxirlarida "Ekip" teatr truppasi bilan butun Jazoirni kezib chiqadi. U sahnada rollar ijro etish bilan birga badiiy ijod bilan shug'ullanishni ham davom ettirdi. "Jazoir Respublikasi" gazetasida muxbir va muharrir vazifalarida ham ishladi, bir necha esse, onasi, buvisi va bobosi haqidagi xotiralardan tarkib topgan ilk kitobi "Ichki tomon va qiyofa" bosilib chiqdi, "Kaligula" pyesasining dastlabki chizgilari, ilk nashriy to'plamlar paydo bo'ldi, "Saodatli o'lim" romani yozildi, lekin nashrga berilmadi. Bu davrda "Sizif haqida asotir" falsafiy essesi ustida ish boshlandi. 1938-yilda ikkinchi kitobi – "Nikoh" bosmadan chiqqach, 1940-yildan Parijda yashay boshladi. O'sha yilning yozida "G'aroyib urush" Fransiyaning mag'lubiyati bilan tugagach, Kamyu Lionga va u yerdan Jazoirga keladi. Bir qancha muddat

³³ Anvar SHer. Jan-Pol Sartre va badiiy ijod estetikasi// Jahon adabiyoti. 2014 y. №4. -b. 189–193.

o'qituvchilik bilan shug'ullanadi. 1942-yili Kamyu Fransiya qaytadi Qarshilik harakatining "Komba" deb ataluvchi guruhiga a'zo bo'ladi. 1944-yilda "Anglashilmovchilik", 1945-yilda esa "Kaligula" asarlari sahnalashtirildi.

Urush yillarida yaratilgan asarlaridan ikkitasi – "Begona" va "Sizif haqida asotir" yozuvchiga katta shuhrat keltirdi. 1947-yilda nashr etilgan "Vabo" romani muallif nomini yanada mashhur qildi. 50-yillarning o'rtalari va oxirida Kamyu yana teatrqa qaytib, o'zining hamda boshqa mualliflar (Dostoevskiy, Folkner)ning asarlarini sahnalashtirdi. 1951-yilda nashr etilgan "Isyonkor odam" pamfleti Kamyuning bu turdagi so'nggi yirik asari edi. 1957-yili Nobel mukofoti berilishi bilan qilingan ma'ruzasi mashhur bo'ldi. O'zining bunday yuksak mukofotga loyiq deb topilganini bilgan 44-yoshli adib: "... Men sarosimaga tushdim, ichimda bir hayajon uyg'ondi. O'zimni tinchlantirish uchun menga bunchalik saxiylik qilgan qismat bilan hisob-kitob qilishga to'g'ri keldi. Va men o'z xizmatlarim bilangina unga loyiqman, deb hisoblay olmaganimdan, butun hayotim davomida turli vaziyatlarda madad bergan bir narsaga tayandim. Bu – san'at va yozuvchining roli haqidagi tasavvurim edi..." – degan edi.

1960-yilning 4-yanvarida Rojdestvo bayramini o'tkazib Parijga qaytayotgan Kamyu o'z mashinasida avtohalokatga uchrab halok bo'ladi. U bu davrda "Birinchi odam" romani ustida ishlayotgan edi. Asar yozuvchining o'limidan o'ttiz to'rt yil keyin chop etildi va katta shuhrat qozondiki, adabiyotshunoslar Kamyuning hayotligida e'lon qilingan bironta asari bu qadar mashhur bo'lmaganini e'tirof etishdi.

Kamyu falsafiy qarashlarining tadriji tarixiy sharoit bilan bog'liqdir. Muallifning o'zi ham asarlarining ikki turkumga bo'linishi haqida gapiradi. Dastlabki – absurd mavzusiga "Sizif haqida asotir" essesi, "Begona" qissasi va "Kaligula" pyesasi kiradi. Isyon mavzusiga esa "Isyonkor odam" essesi va "Vabo" romanini kiritish mumkin.

A.Kamyuning “Sizif haqida asotir” asarida absurd tushunchasi ekzistensializmning asosiy tamoyili ekanligi tadqiq etilgan. Adib inson hayotining be’mani ekanligini Sizifning afsonaviy obrazi orqali gavdalandiradi. Makkorligi uchun narigi dunyoda abadiy jazoga hukm etilgan Sizif ulkan xarsangtoshni tog’ cho’qqisiga olib chiqdim, degan chog’da tosh pastga qulaydi va bu harakat to’xtovsiz takrorlana beradi. Inson bunday absurdga chiday olmay “isyon” ko’taradi. Ana shundan beri vaqti-vaqti bilan “isyonlar” ko’tarilib, ulardan inson o’zining Sizifga xos ahvolidan qutulish uchun stixiyali ravishda najot izlaydi. Yoki borliqning absurd mohiyati insonni hayotdagi xatti-harakatini belgilash, ya’ni absurdga bo’yin egish yoki u bilan kelishmay yashashni taqozo etadi.

“Begona” qissasining qahramoni Merso taqdirdan ro’shnolik ko’rmaydi. U ishdan haydalmaydi, boshliqdan dashnom eshitmaydi, hamkasblari bilan sen-menga bormagan. Lekin jamiyat o’ziga o’xshamagani, hamma rioya qilib kelgan axloq normalariga uyg’un harakat qilmagani uchun Mersoni begona deb biladi. U ikkita arabni affekt holatida otib o’ldirgani uchun emas, balki onasining o’limi kuni yig’lamagani, shu kuni eski tanishi – Mari degan qiz bilan birga bo’lgani uchun sud qilinayotgandek ko’rinadi. Sudda uning qalbi jinoyatchi deb topiladi va jazo og’ir ko’rinish oladi – o’lim.

“Begona”da umrning bebaholigi, har qanday inson qismatining omonatligi haqidagi badiiy haqiqat mavjud. Mana shu “fazilati” uchun ham ba’zilar uni yoqtirmaydi”³⁴.

Mersoning ziddiyatli qalbini tushunish uchun unga barcha liboslarni yechib, inson o’laroq yaqinlashish kerak. Savol tug’iladi: madaniy, axloqiy va diniy qadriyatlarsiz inson insonmi? Insonga yaqinlashar ekanmiz, qadriyatlarni bosh mezon qilib olamiz, ularga suyanamiz. Mana shu ma’noda Merso hech qanday qadriyatga orqa qilmaydi. Libos kiymaydi.

Birinchi turkumga kirgan “Begona” qissasidagi bosh qahramon tabiati va ruhiyatining tasviri nafaqat fransuz adabiyoti, balki jahon

³⁴ Ermatov H. Nobel mukofoti sovrindorlari. – T.: G’G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2011-y.

adabiyotidagi ko‘plab asarlardan butunlay farq qiladi. Yozuvchi bir qarashda bemehr, loqayd va odam o‘ldirgan jinoyatchi yigit Mersoni qoralash yo‘lini tutmaydi. Aksincha, uni inson sifatida kashf etish, tushunish va anglab yetishga harakat qiladi.

Biz ko‘pincha badiiy qahramon tahlilida asosiy mezon qilib olganimiz singari Mersoni muhit, jamiyat, siyosat bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hodisa sifatida qabul qilishimiz mumkin emas. U doimo haqiqatan qochib, ikkiyuzlamachilik asosida yashashga asoslangan insonlar jamiyati uchun begona. Kamyuning o‘zi ta’kidlaganidek, “uni atrofdagilar o‘yiniga qo‘shilmagani uchun jazolashadi... U yolg‘on gapirishdan bosh tortadi... jamiyat esa bundan o‘zini xavf ostida qolganday sezadi”³⁵. Bema’ni, absurd dunyoda yashashga mahkum insonni ilohiy xususiyatlar sohibi bo‘lgan g‘aroyib mavjudot sifatida tushunib yetishga intilish ekzistensializm adabiyoti va-killarining asosiy vazifalaridan biri edi.

A.Kamyuning o‘zi “faylasuf bo‘lishni istasang romanlar yozish kerak” degan fikrni qayd etadi. Shundan bo‘lsa kerak, uning uchun badiiy asarlar va ulardagi qahramonlar falsafiy qarashlarni bayon etishda muhim vosita sanalgan. Masalan, “Vabo” romanining asosiy qahramonlari muallif shaxsining ba’zi qirralarini namoyon etishi barobarida Kamyu falsafiy dunyoqarashini ham aks ettiradi. “Sizif haqida asotir”dagi absurd olam muhitida keyinchalik “Begona”, “Anglashilmovchilik”, “Kaligula” singari qissa va pyesalarning qahramonlari ham yashaydilar.

“Vabo” romani Kamyu Qarshilik harakatiga a’zo bo‘lgan va “Komba” gazetasiga muharrirlik qilgan paytida yozila boshlagan va 1947-yilda chop etilgan. Asar ustida ishlayotib adib kundaligiga shunday deb yozadi: “Vabo” yordamida u tarqalgan paytda biz zaharlangan atmosfera va ayriliqdan qattiq azob chekkanligimizni aytmoqchimiz. Shu bilan birga men bu izohni borliqqa bir butun qilib kengaytirmoqchiman”. Vabo nafaqat kasallik – yovuz kuch, ayovsiz

³⁵ Великовский С. Проклятые вопросы Камю. Камю А. Избранное. – М.: Правда, 1990.

qamchi va nafaqat urush, shuningdek, jamiyat va gunohsiz bolalarining o'limidir. Vabo moslashuvchan bo'lib, uning mikroblari hamma joyga in quradi. Har bir ehtiyotsiz qadamlarni poylab turadi. Vabo falokat – sukunatda jim turadi, ba'zan esa portlab ketadi, lekin hech qachon yo'qolib ketmaydi. Shunday kun keladiki, u odamlarni g'am-anduhga ko'mib, shahardagi barcha kalamushlarni uyg'otib, ularni osoyishta shaharning ko'chalarini o'pirib tashlashga jo'natadi.

Kamyuning asaridagi voqealar ham xuddi shu tarzda boshlanadi. Doktor Rie yashaydigan Oran shahriga o'lat epidemiyasi tarqaydi. Shahardan chiqish va unga kirish taqiqlab qo'yiladi. Shahar ahli, uning mehmonlari bunday ayriliqdan tushkunlikka tushib umidsiz ahvolda qolishadi. Shahar qabristonlari son-sanoqsiz qurbonlarga to'lib toshadi. Aholi ehtiyotkorlikdan tinkasi qurib bir-birlariga shubha bilan nigoh tashlaydilar. Butun shahar aholisi kelajakka umidsizlik bilan qaray boshlaydi. Asar qahramoni doktor Riening aytishicha: "Vaboni tushunish – bu uni qabul qilish degani emas. Uni tushunish uchun telba yoki ko'r, sodda qilib aytganda, ahmoq bo'lish kerak. Ming afsuski, vabo bilan kelishishga to'g'ri keladi".

Umuman, asarda insonning yolg'izligi haqidagi fikr oldinga suriladi. Inson atrof-muhitga qarama-qarshi qo'yiladi, lekin u tashqi muhit doirasidan chiqib keta olmaydi, dunyoni anglab yetishda ojizlik qiladi.

Kamyu o'zining har bir asarida inson va uning hayotdagi o'rni, o'limning haq ekanligi, hayotning mazmuni haqida fikr yuritadi va ana shu savollarga javob izlaydi. Amerikalik tadqiqotchi Syuzan Zontag: "Kamyuning asarlarida asosiy o'rin bosh qahramonlar hayotiga emas, balki gunohkorlik va begunohlik masalalariga bag'ishlangan. Uning ijodi yuksak san'ati yoki chuqur ma'nosi bilangina emas, balki mutlaqo boshqa tomondan, ya'ni axloqiy go'zalligi bilan ham ajralib turadi"³⁶, – deya ta'rif beradi.

Alber Kamyuning merosi XX asr adabiyotining takrorlanmas sahifalaridan sanaladi. Yana bir fransuz gumanist adibi *Antuan de*

³⁶ Ermatov H. Nobel mukofoti sovrindorlari. – T.: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2011-y.

Sent-Ekzyuperi (1900–1944) Malro, Sartr, Kamyu singari fransuz adabiyotida o'ziga xos o'ringa va ovozga ega bo'lgan ijodkorlar sirasiga kiradi.

Sent-Ekzyuperi 1900-yilning 29-iyunida Lion shahrida ildizi qadimiy, vaqt o'tib qashshoqlashib qolgan zodagonlar oilasida dunyoga keldi. Ekzyuperi 12 yoshga to'lganda birinchi bor havoga ko'tarilgan: o'sha paytdagi mashhur fransuz o'quvchisi Vedren uni Ambore shaharchasi yaqinidagi aerodromdan birga olib osmonga uchadi. Parvoz ishq i mana shu lahzadan boshlab yosh Antuanning hayotdagi asosiy, bir umrlik maqsadi bo'lib qoldi.

Aviatsiya Sent-Ekzyuperi uchun birinchi navbatda dunyoni o'rganish, uni kashf etish, insondagi nodir fazilatlarni tarbiyalovchi, odamlar va mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikka, birodarlikka yo'l ochuvchi vosita edi. U o'zini hech qachon professional yozuvchi, deb hisoblamagan edi. «Yozishdan avval yashash kerak» – bu so'zlar Sent-Ekzyuperining bir umrlik shioriga aylandi. U chetdan turib kuzatishdan, voqelikdan uzoq mulohazalar chiqarishdan ko'ra, sodir bo'layotgan voqealarning faol ishtirokchisi bo'lishni ma'qul ko'radi. Ispaniyada grajdanlar urushi boshlanishi bilan «Pari suar» gazetasining muxbiri sifatida bu mamlakatga jo'naydi.

Sent-Ekzyuperining ijodiy merosi «Janubiy pochta» (1928), «Tungi uchish» (1931), «Bashar sayyorasi» (1939), «Harbiy uchuvchi» (1942) «Kichkina shahzoda» (1942) asarlari va tugallanmagan «Qala» falsafiy romanidan iborat.

1930-yilda Buenos-Ayresda yozilgan «Tungi uchish» asari 1931-yili Fransiyadagi Gollemar nashriyotida chop etildi va o'sha yiliyoq, «Femina» adabiy mukofoti bilan taqdirlandi. Adabiyotshunoslar ushbu romanni, “ular yashayotgan jamiyatdagi xudbinlikka qarshi yozilgan burchning go'zalligi va ulug'vorligi haqida hikoya qiluvchi asar”, – deb baholadilar. «Harbiy uchuvchi» asari esa o'z shakli bilan bir kunlik voqealar haqidagi reportajni eslatadi.

Yozuvchi nemislar qurshovida bo'lgan Arras shahri tomon uchayotgan fransuz razvedkachi samolyotining parvozi haqida hikoya

qiladi. «Bashar sayyorasi»da ta'kidlangan insonlar birdamligi g'oyasi bu asarda yana ham kengayadi. Asar Ekzyuperining Ispaniya voqealariga bag'ishlab yozgan gazeta ocherklarini yodga soladi. «Harbiy uchuvchi»da yozuvchi qarashlari, uy-fikrlari abstrakt xarakterda bayon etilgani, uni Fransiyada nemis harbiy senzurasini chalg'itib bosilib chiqishida muhim rol uynaydi. Asar o'quvchini asta-sekin chulg'ab oluvchi tashvish va qayg'u ruhi bilan yo'g'rilgan. Shundan bo'lsa, kerak, adabiyotshunos M.Vaksmaxer «Harbiy uchuvchi»ni insonlarni qo'lga kiritilmagan baxtiga yozilgan elegiya deb ataydi. Yozuvchi asarda inson ma'naviy hayotining oydin yo'llari va boshi berk ko'chalari haqida falsafa yurgizadi. XVIII asr ma'rifatchilik falsafasi bilan bog'liq bo'lgan insonparvarlik g'oyalari Ekzyuperi uchun juda ham qadrlı bo'lib, bu ideallar toptalmoqda edi. Eng achinarlisi inson unutildi, kamsitildi va tahqirlandi. Shuning uchun yozuvchi insonlarni so'zdan amaliy ishga o'tishga undaydi. Yozuvchining fikricha buning faqat bitta yo'li bor, u ham bo'lsa – faoliyat ko'rsatish.

Sent-Ekzyuperi ijodidagi muhim asarlardan biri «Kichkina shahzoda» falsafiy ertagi 1942-yilda yozuvchi Nyu-Yorkda yashagan paytida yozildi. Ushbu asar janr va kompozitsiya bo'yicha avvalgilardan farq qiladi. Dunyoning yuzlab tillariga tarjima qilingan ushbu asar fransuz yozuvchisining eng mashhur asari sifatida tan olingan.

Sent-Ekzyuperi o'z qahramoniga 5–6 yoshdagi bola ruhiyatiga xos xususiyatlarni ato etgan. Asar davomida bolalik dunyosi kattalar dunyosiga qarama-qarshi qo'yiladi. Kattalarning hayotni bezab turuvchi romantika va go'zallikni his qilish kabi hislardan yiroq, ekanligi bolani hayratga soladi. Shuning uchun ham kattalar shahzoda chizgan filni tiriklay yutib yuborgan bo'g'ma ilon rasmini «shlyapa» deb ataydilar. Bola esa o'sha kattalar ko'ra olmaydigan quticha ichidagi qo'zichoqni ko'ra oladi. Umuman shahzoda hali kattalar qadami yetmagani soflik sayyorasining sohibidir. Bosh qahramon ism-siz – Kichkina shahzoda deb atalishi ham shundan.

Sent-Ekzyuperi asardagi Baobab obrazi orqali insoniyatga xavf solayotgan fashizmni va inson ma'naviy barkamolligining asosiy «kushanda»si hisoblangan loqaydlikni tasvirlagan: «— Bizda shunday bir qoida bor, — dedi Kichkina shahzoda keyinchalik menga. — Ertalab uyqudan turib yuz-qo'limni yuvgach, uyoq-buyoqni yig'ishtirgandan so'ng darhol sayyorangni tozalashga kirishmog'ing lozim. Baobablarni har kuni, qanday qilmay yo'q qilib turish kerak. Ammo ularni gul ko'chatidan ajrata bilish kerak: ikkkalasining niholi bir-biriga judayam o'xshaydi. Bu haddan tashqari zerikarli ish, lekin sirayam qiyin emas».

Sent-Ekzyuperi ertak va rivoyatlarning an'anaviy qahramonlarini noan'anaviy va favqulodda holatlarda tasvirlaydi. Masalan, birinchi sayyorada yashovchi qirolning boshqa qirollardan farqi shundaki, u yolgiz (sayyorasidagi yagona kalamushni hisobga olmaganda) yashaydi. Juda ham kichkina sayyorada umr kechiruvchi bu qirol faqat «Oqilona farmoyishlar berish» bilan chegaralanadi. Yozuvchi ertakda abstrakt romantik obrazlarni oddiy maishiy obrazlar bilan qo'shib yuboradi. Tulkining ovchi va tovuqlar haqidagi mulohazalari fikrimizning dalili bo'la oladi. «Kichkina shahzoda»da asotir va marosimlarga borib taqaluvchi qadimiy sehrli ertak semantikasi qayta jonlantirilgan: shahzoda sayyorama-sayyora kezib, bir qancha sinovlardan o'tganday bo'ladi va oxir-oqibat yerda u haqda yangi bilimlarga ega bo'ladi.

Yerda bolaga birinchi to'qnash kelgan jonzot — ilon. Bu jonzot bolaga odamlar tomon yo'l ko'rsatadi va o'z zahri bilan uni yana o'z sayyorasiga qaytishiga yordam berishini va'da qiladi. Ilon bolaga insonlar haqidagi *achchiq* haqiqatni ochadi.

— «Odamlar qayoqda, odamlar? — deb tag'in so'radi nihoyat Kichkina shahzoda» — sahroda, har qalay, o'zingni yolgiz sezarkan-san kishi... — Odamlar orasida ham o'zingni yolg'iz sezaverasan, — deb qo'ydi ilon.

Sent-Ekzyuperi ijodining asosiy fazilati — insondagi yorug' mehr va iroda qudratiga bo'lgan ishonch kitobxon ko'nglini yoritadi.

U insonlarni doimo yagona maqsad yo'lida – insoniylikni saqlab qolish uchun birlashishga chaqirdi. Yozuvchi yaratgan qahramonlar irodali, fidoiy, ezgulik yo'lida halok bo'lishga tayyor insonlar. Uning fikricha inson bo'lish – bu mas'uliyatli bo'lish deganidir. U butun ijodi davomida ana shu g'oyani ilgari surdi.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. San'at va adabiyotning asosiy vazifasi.
2. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning san'at va adabiyotga ta'siri.
3. Badiiy adabiyotda an'anaviy realizm va novatorlik.
4. Naturalizmning falsafiy asoslari haqida ma'lumot bering.
5. E.Zolya va aka-uka Gonkurlar naturalizmi.
6. Dekadentlik adabiyotining ijtimoiy asoslari va o'ziga xosliklari.
7. Simvolizm va uning vakillari.
8. Badiiy ijodda modernizm tushunchasi.
9. Modernizm yo'nalishlari (ekspressionizm, dadaizm, kubizm, futurizm, abstraksionizm, syurrealizm) ning o'ziga xosliklari.
10. M.Prust ijodida "ong oqimi" masalasi.
11. J.Joysning "Ulis" romani –jahon adabiy hodisasi sifatida.
12. Modernizmning Kafka ijodida namoyon bo'lishi.
13. Ekzistensializmning ijtimoiy-falsafiy asoslari.
14. Kamyu ijodida absurd falsafasi badiiy talqini.

Adabiyotlar:

1. Азизов Қ. Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1982.
2. История французской литературы. – М.: 1951. Т.2
3. Храповицкая Г.Н. Реализм в зарубежной литературе (Франция, Англия, Германия, Норвегия, США). – М.: "Академия". 2006.

4. Б.А.Гиленсон. История зарубежной литературы конца XIX – начала XX века. – М.: Академия, 2008.
5. Қосимов А., Хўжаев С. XX аср чет эл адабиёти. Ўқув қўлланма. – Фарғона: 2004.
6. Хўжаев С. Немис адабиёти тарихи.. О'қув қўлланма. Ўқув қўлланма. – Фарғона: 2004
7. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Т.: Akademnashr, 2010
8. Долгов К. Эстетика Жан-Поля Сартра. – М.: Знание, 1990.
9. Анвар Шер. Жан-Поль Сартр ва бадиий ижод эстетикаси// Jahon adabiyoti. 2014, №4.
10. Эрматов Ҳ. Нобель мукофоти совриндорлари. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.
11. Жойс Ж. Улис саргузаштлари. – Т.: Ўзбекистон. 2013.

MODERNIZM

REJA:

1. Modernizm va dekadans.
2. Modernizmning paydo bo'lishi va tarixi.
3. Modernizmning o'ziga xos xususiyatlari, yo'nalishlari.
4. Modernizm haqida G'arb va o'zbek olimlarining qarashlari.
5. Modernizmning uch buyuk namoyandasi: Joys, Kafka, Kamyu.
6. Modernizm va o'zbek adabiyoti.

Tayanch so'z va iboralar: modernizm, dekadans, XX asrning yetakchi oqimi, elitar (xos) san'at, "san'at san'at uchun" g'oyasi, modernizm ildizlari, modernizm yo'nalishlari: ekspressionizm, dadaizm, kubizm, futurizm, abstraksionizm, syurealizm va h.k., modernizm va yangi o'zbek adabiyoti.

Modernizm juda rang-barang va murakkab falsafiy-estetik hodisa bo'lib, u inson (ijodkor) ijtimoiy, siyosiy, psixologik, falsafiy, badiiy-estetik tafakkur tarzidagi jiddiy o'zgarishlar negizida maydonga kelgan. O'zgarishlarning salmog'i g'oyat og'ir tosh bosadi. U badiiy tafakkur shaklidagi o'zigacha mavjud bo'lgan an'anaviy qarashlarni inkor qiladi. Modernizm haqida prof. D. Quronov (va boshq.) tayyorlagan lug'atda shunday deyiladi: "MODERNIZM (fr. moderne – eng yangi, zamonaviy) – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ommalashgan termin, san'at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi... M. o'tgan asr oxirlaridan boshlab maydonga chiqqan, ijodiy dasturlari va ijod amaliyoti jihatidan turli-tuman adabiy maktab va yo'nalishlar (*ekspressionizm, impressionizm, simvolizm, akmeizm* va b.) o'ziga asos bilgan estetik tizim, ijodiy metod sifa-

tida tushuniladi. M. doirasidagi maktab va oqimlar nechog'li turfa bo'lmasin, ularni umumlashtiruvchi qator nuqtalar mavjud. Avvalo, dunyoqarash jihatidan ular nafaqat XIX asrda ommalashgan pozitivizm, balki asrlar davomida shakllangan an'anaviy xristian dunyoqarashidan ham deyarli uzilib, F.Nitshe, Z.Freyd, A.Bergson, U.Jeyms kabi mutafakkirlar qarashlaridan oziqlanadi. Shunga mos tarzda M. yo'nalishidagi maktab va oqimlarning aksariyati adabiy-madaniy an'analarni ham turli darajada inkor qiladi va yangi davrga mos yangi adabiyot yaratish da'vosini olg'a suradi... M.ga xos umumiy xususiyatlardan biri shuki, u obyektiv voqelikning tasviri o'rniga uning ijodkor tasavvuridagi badiiy modelini yaratishni maqsad qiladi. Ya'ni bu o'rinda voqelikni aks ettirish emas, ijodkorning o'z-o'zini ifodalashi (*ekspressionizm*) ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ijodda subyektivlikning oldingi o'ringa chiqarilishi, mantiqiy bilishdan intiutiv bilishning yuqori qo'yilishi, inson ichki olamida kechuvchi tizginsiz evrilishlarga ayricha e'tibor berilishi (*ong oqimi*), ijodkor shaxs ijodiy tajayyuli va u aks ettirgan voqelikning betakror hodisa sifatida tushunilishi, o'z o'y-hislarini hech qanday (ma'naviy, axloqiy, siyosiy va h.) cheklovlarsiz ifodalash huquqining e'tirof etilishi ham M.ga xos xususiyatlardandir. Ijodiy erkinlik nafaqat g'oyaviy-mazmuniy, balki shakliy izlanishlarda ham mutlaqo daxlsiz. M. asrlar davomida shakllangan adabiy kanonlarni inkor qiladi va har qanday normativlikka qarshi (*futurizm*) turadi. Bu hol M.dagi badiiy obraz strukturasini, asarning subyektiv va obyektiv tashkillanishi, bayon tarzi, sujet-kompozitsion qurilishi, til xususiyatlari – xullas, adabiy asarning barcha sathlarida shakliy o'ziga xosliklarni yuzaga keltiradi"³⁷.

Manbalar (masalan, "Madaniyatshunoslik" o'quv qo'llanmasi) aytadiki, modern istilohining paydo bo'lganiga 1000 (ming) yildan ko'proq vaqt bo'lgan. Modern so'zi "...ilk bor milodiy V asrda qo'llangan bo'lib, rasmiy maqom egallab borayotgan zamonaviy masihiylikni o'tmishdagi majusiy Rimdan ajratish uchun qo'llana

³⁷ Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2010.

boshlagan. Zotan, masihiylik oqimi Rim uchun tamomila yangilik edi, chunki Yahudiya uzoq yillar garchi Rim imperiyasi tarkibida bo'lsa ham, masihiylikka ashaddiy qarshilik qilib keldi. Ammo masihiylik majusiylikka nisbatan ilg'or, o'z davridagi progressiv oqim bo'lgani uchun barcha qarshiliklar behuda bo'lib qoldi"³⁸.

Modernizmning asosiy darakchilari deya Dostoevskiy ("Jinoyat va jazo", "Aka-uka Karamazovlar"), Uitmen ("Maysalar yaproqlari"), Bodler ("Yovuzlik chechaklari"), Rembo ("Dil yorishishi") va Stringberg (so'ngi pyesalari) kabi yozuvchi, shoir va dramaturglar esga olinadi. Ijodkorlarga kuchli ta'sir qilgan faylasuf va ruhshunoslardan Fridrix Nitsshe, Anri Bergson, Zigmund Freyd, Uilyam Jeyms va boshqalar nomini sanash mumkin.

Sho'ro davrida modernizmga taqiq qo'yildi. Bu ishning o'ziga yarasha arzigulik sabablari bo'lsa-da (chunonchi, modernizm mutlaq individualizmni yoqlaydi, axloqiy chegara tanimaydi, har qanday an'anani inkor qiladi, Ovrupa madaniyatini boshqa madaniyatlardan ustun qo'yadi va h.), oqimning dunyo tan olgan, jahon adabiyotida alohida mavqyega ega bo'lgan vakillari bor ediki, ularning asarlarini man qilish insonni yaxshi bilmaslik, uning badiiy tafakkur tadrijini mensimaslik bilan teng edi. Zero, modernizmni bilishga intilish insonni bilishga, uning botinidagi puchmoqlarga bo'ylashga, ichkari-dagi ziddiyatlardan boxabar bo'lishga intilishdir, buning mahliyolik yoki g'arbparastlik bilan aslo aloqasi yo'q. Insonning san'atu adabiyotdagi har bir hodisaning tub ildizlariga sog'lom nazar sola bilishi alaloqibat uning dunyoqarashi butunligini ta'min etibgina qolmay, ma'naviy immunitetini ham chiniqtiradi. "Modernizm nima?" degan savolga dunyo va o'zbek olimlari ko'pdan beri javob berib kelishadi, haligacha bu masala ustida bahslar yakunlangani yo'q. Modernizm, o'zbek olimi prof. Ozod Sharafiddinov ta'kidlab aytganidek, "jo'n hodisa" emas. O'zbek adabiyotshunosligida, ayniqsa, Istiqlol yillarida modernizm atrofida qizg'in bahslar bo'ldi. Bahslarda modernizmni o'zbek mentalitetiga butunlay yot mafkura yoki aksincha,

³⁸ Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2010.

modernizm insoniyat badiiy-tafakkur tadrijining bir bosqichi, uni o'qib-o'rganishning hech bir zarari yo'q, degan qarash aytiladi. Chunonchi, filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqov "Absurd ma'nisizlikdir"³⁹ maqolasida modernizm oqimlaridan biri – absurdni keskin tanqid ostiga oladi, uni "inqiroz", ekzistensializm oqimini esa "subutsiz" deb ataydi. Bu qarashga javoban filologiya fanlari doktori, professor Umarali Normatov o'z qarashlarini ilgari surib, absurd va ekzistensializm yo'nalishidagi asarlarga san'at hodisasi sifatida qarash kerakligini aytadi: "B. Sarimsoqovning absurd va ekzistensializmga bergan bahosi o'ta munozarali. San'at hodisasi sifatida absurd tushunchasi bu so'zning lug'aviy ma'nosidan o'zgacharoqdir. Absurd, B. Sarimsoqov da'vo qilganidek, aslo ma'nisizlik emas, balki, aksincha, teran ma'noga ega. Absurd adabiyot, san'atda adashgan, aldangan, behuda, samarasiz mehnat-faoliyatga, ma'nisiz qismatga muhtalo etilgan shaxsning fojiasini ochib berish, kutilmagan tomonlardan o'ziga xos tarzda badiiy tahlil etishdan iborat"⁴⁰. Ko'rinib turganidek, qarashlar har xil, ziddiyatli. Bahsu munozaralar hali-hanuz davom etmoqda. Talaba yoshlar bu bahsda qaysi fikr jo'yaliroq ekanini bilish uchun esa modernizm va uning yo'nalishlari mohiyatini teranroq o'rganib chiqishlari lozim bo'ladi. Demak, yana o'sha savol: modernizm nima? Modernizm XIX asr so'nggi choragida dastlab kayfiyat dunyoqarashda, so'ng tasviriy san'atda, keyinchalik adabiyotda Ovrupada paydo bo'lgan san'at yo'nalishi hisoblanadi. Modernizmning yana bir nomi "dekadans" bo'lib, buhron, inqiroz ma'nolarini anglatadi. Bu narsa burjua tuzumining ich-ichidan buhronga yuz tutishi bilan bog'liq. Ya'ni avval burjua jamiyatida inqiroz yuz berdi, so'ngra san'atu adabiyotda modernistik oqim tug'ildi. Modernizmning aniq paydo bo'lish vaqtini har xil ko'rsatishadi. Ayniqsa, uning ijodkor badiiy-tafakkuriga ta'siri jahon urushlaridan keyin keskin kuchayib borgan. Chunki inson nomi va sha'niga munosib kelajak qurish orzusi bi-

³⁹ Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M., Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016. – B. 377.

⁴⁰ O'z AS, 2002, 28 iyun.

lan yashayotgan insoniyat jahon urushlari vaqtida million-million begunoh turdoshining yostig'i quriganini o'z ko'zi bilan ko'radi. Natijada u *bu dunyoni tadbirlar bilan tuzatib bo'lmaydi deb, butun e'tiborni botinga qaratadi. Inson real hayotda emas, balki xayolida-gina baxtli bo'la oladi*, degan qarash modernizmning paydo bo'lishi va rivojlanishiga katta turtki bo'ldi, deyiladi ayrim fundamental manbalarda. Ispan esteti va faylasufi O.I.Gasset yangi san'at, ya'ni modern san'ati odamlarni ikkiga bo'lib tashladi – uni tushunadiganlar va tushunmaydiganlarga. Tushunadiganlar kamchilikni tashkil qiladi, tushunmaydiganlar esa yangi san'atni yomon ko'radi, deydi. Uning fikricha, bu san'atning mohiyati inson e'tiborini tashqaridan olib, 180 S ga burib, o'z ichki olamiga qaratdi,⁴¹ deydi. Ilgari adabiyot tashqarini erinmay ta'riflab chiqardi, bugun esa u qiziq bo'lmay qoldi, inson uchun uning o'z ko'ngli qiziq.

Realizm borliqni aks ettirsa, modernizm yangi reallik yarata-man, deydi. Chunki mavjud reallikni tuzatib bo'lmaydi, deb hisoblaydi. Modernizm olamni xaos deb bildi va undan qochdi. Tashqi dunyoda go'zallik yo'q, uni botindan qidirish kerak, deb bildi. Shu bilan birga, antroposentrik gumanizmni, ya'ni insonga muhabbatni yoqlab chiqdi. Demak, modernizm deganimiz to'qlikka sho'xlikdan atayin o'ylab topilgan metod bo'lmay, bashariyatning uzun taraqqiyot yo'lida tarixiy-siyosiy evrilishlar natijasida inson ko'nglida paydo bo'lgan ruhiy-ma'naviy inqiroz bilan bog'liq hol – kayfiyat bo'lib, bu hol o'zgaruvchidir. Binobarin, modernizmni sig'inarchasiga ko'klarga ko'tarishning, unga muhtalo bo'lishning ham hech bir ma'nosi yo'q. Zero, bugungi kun insoni ko'nglida ertaga tamomila o'zgacha hollar paydo bo'lishi tabiiy. Masalan, modernizmdan so'ng maydonga postmodernizm tushdi. Boz ustiga, postmodernizmning ham umri sob bo'lgani haqida dunyo olimlari jiddiy bir tarzda mulohaza yuritishmoqda⁴². Hatto san'atu adabiyot allaqachon "astro davri"ga qadam bosgan dunyoda yangi yo'l qidira-

⁴¹ Normatov U., Hamdam U. Dunyoni yangicha ko'rish ehtiyoji. Suhbat. – T.: Jahon adabiyoti, 2001.

⁴² Гассет О. Дегуманизация искусства. – М.: Радуга, 1991.

yapti, degan fikrlar o'rtaga tashlanmoqda. Rus olimi, akademik Yu. Borev bo'lsa, insoniyat birinchi marta yo'lsiz, paradigmasiz qoldi, degan fikrni o'rtaga tashladi. Endi bu vaqt masalasidir. Voqelikni hamma joyda bir xil idrok etish mumkin emas. Chunki tarixiy-ijtimoiy formatsiyalar hamma joyda har xil kechadi. Uning davri ham, sifat darajasi ham farqlanadi. Shu ma'noda dunyoda hech bir olim modernizmni "insoniyatning doimiy kayfiyatidir", degan iddao bilan chiqa olmaydi. Modernizm ham tug'ildi va hamma oqimlar kabi o'z o'rnini insoniyatning navbatdagi dunyoqarashiyu kayfiyatini ifodalovchi yo'nalishga bo'shatib ber(a)di. Ko'rinadiki, "izm"lar jamiyatlarning o'zgarib-almashib turuvchi kayfiyatlarining san'atu adabiyotdagi aksi ekan.

Modernizm haqida gap ketganda, ta'kidlab aytish joizki, u nafaqat adabiy hodisa, ayni paytda, inson faoliyatining juda ko'p qiralarini qamrab olgan bo'lib, rassomchilik, haykaltaroshlik, arxitektura, dizayn kabi sohalarida ham o'zini namoyish etdi. Hatto modernizmnining san'atdagi ilk qadamlari tasviriy san'at bilan bog'liq. Rus olimi Aleksandr Genisning "XX asrning yetakchi uslubi"⁴³ nomli maqolasi va ulkan ruhiyatshunos olim K. G. Yungning "Pikasso"⁴⁴ deb atalgan essesidan modernizm haqidagi savollarning ayrimlariga javob topish mumkin. Genis yozadi: "Tarix vaqt bilan hisoblashmaydi, biroq bizlar solnomaga nazar solmay ish yurita olmaymiz. Ortga nazar tashlar ekanmiz, modernizm tarixning qaysi pallasidan boshlanganini bilib olamiz. Londondagi mashhur ikki badiiy muzey jamoasi yaqinda ana shunday muammoga duch keldi. Ular o'z xazinalaridagi san'at asarlarini o'zaro taqsimlab olishlariga to'g'ri keldi: natijada Milliy galereyaga mumtoz tasviriy san'at asarlari, Teyt galereyasiga esa zamonaviy ijodkorlarning asarlari nasib etdi. Bu borada 1900-yil chegara chizig'i vazifasini o'tadi. Bu chegara chizig'i har qancha bahsli va shartli bo'lmasin, nafaqat taqvimiy,

⁴³ Bu haqda Rossiyaning "Литературная газета"sida qator bahslar uyushtirildi (2012).

⁴⁴ XX asrning yetakchi uslubi. Jahon adabiyoti. – T.: 2001-yil, noyabr.

balki mantiqiy haqiqatga yaqinligi bilan ham e'tiborni tortadi. Biz modernizmni o'tgan asr bilan tengdosh hisoblay turib, ham tarixan, ham badiiy jihatdan adolatli ish tutgan bo'lamiz".

Modernizmning mohiyati haqida fikr yuritarkan, olim modernizmga san'atda vositalargina o'zgartirib kelingan bo'lsa, modernizm "tadqiq qilinaётган obyektning o'zini tamomila yangilagani"ni ta'kidlaydi. "Nitsshening "hech qanday faktlar mavjud emas, balki ularning talqini, in'ikosigina bor" degan aqidasini dastak qilib olgan modernizm muallifning tasavvuridagina mavjud voqelikning turli talqinlari, dunyoni turli sub'ektivizmlarning kurash maydoni sifatida aks ettira boshladi", deb yozadi yana A. Genis.

Yung esa, modernistik san'at mohiyatida ruhiy xastalikni ko'radi. U bunday xastalikka chalingan kishilarni ikki guruhga ajratadi: «Bular nevrotiklar va shizofreniklar. Birinchi guruhga mansub (kishilar) sintetik xarakterdagi kuchli va yaxlit tuyg'uga yo'g'rilgan suratlar chizishadi... Ikkinchi guruh, aksincha, shunday suratlar chizadiki, bu suratlar ularning mualliflariga hissiyot begona ekanini ko'rsatib turadi. Ular har qanday hollarda yaxlit uyg'un tuyg'uni emas, balki, aksincha, qarama-qarshi kechinmalarni yoki ularning umuman yo'qligini ifodalaydi. Bu suratlarning badiiy shaklida esa sinq chiziqlarda aks etgan tanazzul, inqiroz kayfiyati ustuvorlik qiladi va bu o'z navbatida ijodkorning ruhan bo'linganini, ya'ni o'zini boshqa odam, deb fahmlashini bildiradi. Suratlar tamoshabinga yoqmaydi yoki aqlga to'g'ri kelmaydi, tajovuzkor ruhdaligi va beo'xshov nosamimiyligi bilan unda qo'rqinchli taassurot qoldiradi. Pikasso ana shu ruhiy (psixologik) tipga mansub»⁴⁵.

Bunday qarash modernizmning kelib chiqishida ijtimoiy-psixologik faktorning dominant mohiyatiga urg'u beradi. Chindanam, XX asrga kelib insonning turmush tarzi sivilizatsiya natijasida misli ko'rilmagan darajada o'zgardi, murakkablashdi, odamlarning o'zaro ruhiy-ma'naviy muloqotda bo'lishiga putur yetdi – kamaydi, bunday ehtiyoj – ruhiy muloqot ehtiyoji insonning ichiga hibs etildi.

⁴⁵ O'sha manba.

Tashqaridan kutilgan baxt, najot ikkita Jahon urushi oqibatida sarobga aylandi. Natijada inson o'z ehtiyojlari bilan yolg'iz qoldi. Modernizmning ruhiy-psixologik asosi shu nuqtadan boshlanadi.

Darhaqiqat, insoniyat hayotiga modern ruhning kirib kelishi asrlar davomida shakllanib-turg'unlashib qolgan dunyoqarashni ostitin-ustin qilib yubordi. Modernizm shunday mohiyatga ega ediki, u eng an'anaviy, eng mumtoz shakllar, tushunchalar bag'riga ham hech tortinmay, ikkilanmay yorib kirdi. Ularni inkor etib, o'zining yangi qadriyatlarini ilgari surdi. Modernizm bu – XX asrga kelib, insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'naviy sohadagi yoppa taraqqiyoti tufayli onglarda sodir bo'lgan ulkan o'zgarish – tafakkur tarzdagi yangi bosqich. U ma'lum muddat davrning umumiy, universal kayfiyati darajasiga chiqdi. U realizmga qarshi emas, balki realizm zaminida (materialida) barpo etilgan zamonaviylikning yangi qasri bo'lib dunyoga keldi, yashadi.

Modernizm haqida so'z borganda, uning o'zak muammolarini qam-rab olgan quyidagi masalalar mazmun-mohiyatini tushunib olish lozim bo'ladi. Modernizm va mifologiya munosabatlari, modernizm yo'nalishlari hisoblangan ekspressionizm, dadaizm, kubizm, futurizm, abstraksionizm, syurrealizm kabi oqimlar, elitar(xos) san'at, "san'at san'at uchun" tamoyili, Joys, Kafka, Prust, Bekket kabi g'arb yozuvchi va dramaturglarining ijodi, Sartr ekzistensializmi, Kamyu absurd falsafasi, modernizm va XX asr Sharq adabiyoti kabi masalalar mohiyatini anglash modernizm haqidagi tushunchalarimizni ancha tiniqlashtiradi. Quyida ana shu masalalarning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz:

Elitar (xos) san'at tushunchasining mohiyati shundan iboratki, modern adabiyot hamma uchun, ayniqsa, omma uchun mo'ljallangan bo'lmay, uni tushunishga qodir kamsonli o'quvchilar darajasi hisobga olinib yaratiladi. Chunonchi, asarlari modernchilarning falsafiy poydevorlaridan biri bo'lib xizmat qilgan olmon faylasufi F. Nitsshe o'zining "Zardusht tavallosi" kitobiga "Hamma uchun mo'ljallanmagan kitob" deb yozib-qo'ygan edi.

San'at san'at uchun. Bu fraza ilk bor 1933-yilda Fransiyada paydo bo'ldi. San'at san'at uchun konsepsiyasi asarning mazmuniga emas, shakliga e'tibor qaratdi, estetik jihatdan go'zal bo'lishini yoqlab chiqdi. Realizm va uning prinsiplarini inkor qildi, sof san'at g'oyasni ilohiylashtirdi. Go'zallikni reallikdan tashqarida, deb bildi. XIX asr oxiriga kelib, bu konsepsiya inqirozga yuz tutdi. Lekin uning estetizm prinsiplari formal maktabning rivojiga ta'sir qildi.

Ekspressionizm (fr. ifodalash). XX asr birinchi choragida nemis adabiyotida shakllanib, so'ng boshqa milliy adabiyotlarga tarqalgan adabiy yo'nalish bo'lib, u adabiyot va san'atda obyektiv voqelik emas, balki ijodkor meni ustuvor bo'lishi kerak, degan g'oyani ilgari suradi. U voqelikni tasvirlash emas, ijodkor menini, qalbini ifodalash muhim, deb biladi. Yo'nalish nomi ham shu yerdan kelib chiqqan. Ifodani tasvirdan, intuitsiyani mantiqdan ustun, deb qaraydi.

Dadaizm (fr. "dada" – yog'ochdan ishlangan o'yinchoq ot, ko'chma ma'noda – bolalarga xos betartib nutq) birinchi jahon urushi vaqtida urushga qarshi isyon kayfiyatidan Ovrupada paydo bo'lgan avangardistik oqim. Dadaizm mavjud tartibotni absurd deb bildi va hamma narsani inkor qildi. An'analarga nigilistik munosabatda bo'lib, isyonkorlikni bayroq qilib olganlar. Adabiyotda ma'nosiz so'z va tovushlarni ishlatish, tasviriy san'atda esa narsalarni ma'nosiz tarzda birga chizish kabilar bo'lgan. Haqiqiy adabiyot ijtimoiylikdan xoli bo'ladi, degan aqidani ilgari surganlar.

Antirroman (fr. *Antirroman*) – shartli istiloh bo'lib, "yangi roman" istilohi bilan bir qatorda ishlatiladi. XX asr o'rtalaridagi fransuz modernizmi nasriga nisbatan ham qo'llaniladi. Ilk bor termin 1633-yilda Shard Sorelning "Ekstravagant Berger" romanining qo'shimcha nomi sifatida ishlatilgan. 1948-yilda J. P. Sartr tomonidan qayta iste'molga kiritilgan.

Bunda roman janrining klassik elementlaridan voz kechiladi. Mas., izchil sujetdan, qahramonlar obrazlaridagi butunlikdan. Konformizm va begonalashuv bilan bog'liq alohida situatsiyalarni

tahlil qiladi. Vaqt me'yorlariga rioya qilinmaydi, tilda yangilikka e'tibor qaratiladi, chunonchi, punktuatsiya, grammatika va b.larda erkin harakat qilinadi. Aloqasi bo'lmagan rasmlar matnga kirib qoladi, sahifalar bo'sh tashlab ketiladi va h.k...

Antiomanga misol sifatida V.V.Nabokov "Rangsiz olov" deb nomlangan 999 misradan iborat dostonini keltirish mumkin. Doston ko'plab adabiy allyuziyalar bilan to'ldirilgan. Yoki Xulio Kortasarning "Mumtozlik o'yini" romani alohida strukturasi bilan ajralib turadi. Muallif so'zboshisida kitobda "ko'p kitob" borligi bayon qilinadi. Ya'ni kamida ikki xil o'qish kerakligi uqtiriladi. Birinchisi oddiy o'qish bo'lib, bunga romanning ikki dastlabki qismi kiradi: "U tomondan" va "Bu tomondan". Ikkinchisi, maxsus o'qish hisoblanib, bunda yana qo'shimcha ravishda romanning "Narigi tomondarlardan" deyilgan qismlarini o'qish tavsiya etiladi.

Antidrama. (Absurd teatri). 1950-yildan, E. Ioneskoning "Ta-qirbosh qo'shiqchi ayol" pyesasi sahnaga qo'yilgan vaqtdan boshlangan. E. Ionesko va S. Bekketlar dramaturgiyasini har xil baholash bor: absurd dramasi, paradoks dramasi va antidrama. Chunki aynan shularga kelib dramaning an'anaviy ko'rinishi buzildi: janr, sujet, voqeaning psixologik rivojida tamoman boshqa o'zgarishlar sodir bo'ldi. Antidrama hayotni mantiqsiz deya qaraydi. Lekin ekzistensialistlar Sartr va Kamyudan farq qilib, Bekket va Ionesko falsafa va mafkurani inkor qiladi. Ular o'z teatrlarini mavzuga qarshi, mafkurga qarshi, reallikka qarshi deb bilishadi. Inson tushgan holatlarni be'mani deb ataydi: masalan, "Godoni kutish"da asar personajlari Vladimir va Estrogan qandaydir Godoni kutishaveradi. Ioneskoda esa odamlar to'ng'izga aylanib qoladi ("To'ng'izlar" asarida). Antidrama tushuntirmaydi, tahlil qilmaydi, balki tamoshabinni umidsiz va bema'ni kayfiyatga tortqilab ketadigan tarzda faqat ko'rsatadi. Dunyo ko'pdan-ko'p versiyalar makoni sifatida talqin etiladi. Unga san'atni o'yinga aylantirish xos. Pyesadagi dialoglar bir-biri bilan uzviy bog'lanmagan (modernizmdan ko'ra postmodernizmga yaqin holatlar). Hech kim hech kimni eshitmaydi, hamma o'zi haqida ga-

piradi. Hayotda ko‘p qaytariladigan, siyqasi chiqqan frazalarni qolip sifatida takrorlash orqali turmushning bir xilligiga urg‘u beriladi.

Nima uchun roman va drama so‘zlari oldiga “anti” affiksi qo‘shilgan, degan savol tug‘iladi. Chunki Anri Bergson, Shopen-gauer, Nitsshelar hayotni aql bilan tushunib bo‘lmaydi, uni faqat his qilish mumkin, haqiqatga his orqali yetiladi, reallikdan voz kechib, irratsionallikka e‘tibor berish kerak, aql bu yo‘lda faqat xalaqit beradi, deb bilishgan. Shu uchun ham aql bilan yaratilgan hamma jan-riy kanonlarni buzib tashlash kerak, deb qarashgan. “Anti” affiksi shu bois paydo bo‘lgan. Bu falsafa Ikkinchi jahon urushidan keyin tug‘ilgani uchun ham tushkun kayfiyat urfurib turadi.

Modernizmning ko‘plab oqimlari bo‘lib, ularning aksari uzoq yashamagan, aksincha, jamiyat kayfiyatining u yoki bu qirrasini ifoda qilib, bir necha o‘n, hatto bir necha yil yashab, so‘ng o‘rnini boshqa yo‘nalishga bo‘shatib beravergan. Shulardan syurealizm tush va voqelik uyg‘unligini, impressionizm lahzalik taassurotni, futurizm insonning kelajak bilan bog‘liq qarashlarini ifoda qilgan. Avangardizm esa modernizmning o‘ta radikal oqimlarining (syu-realizm, dadaizm, futurizm kabi) umumiy nomi sifatida tushuni-ladi. Avangardizm adabiyotning reallik bilan aloqasini inkor qiladi, an’anani tan olmaydi, butunlay yangi shakllarni yaratish g‘oyasini o‘rtaga tashlaydi. Avangardizm ba‘zan modernizm ma’nosida ham ishlatiladi.

Modernizmning Joys, Kafka, Kamyu, Bekket, Prust, Vulf, Folkner, Eliot kabi yirik namoyandalari bor bo‘lib, ijodkor sifatida ularning har biri alohida-alohida qiyofaga ega. Chunonchi, irland yozuvchisi Jeyms Joys (1882–1941) “Ulyss”, “Musavvirning yosh-likdagi suvrati ” kabi romanlari, qator hikoyalari mashhur. Badiiy adabiyotdagi ong oqimi degan tushuncha yozuvchining hikoya qi-lish uslubida ko‘rinadi. Ong oqimi tushunchasi dastlab amerikalik ruhshunos Uilyam Jeyms(1842–1910)ning “Psixologiya asoslari”⁴⁶

⁴⁶ Джеймс У. Поток сознания. В кн.: Психология. – М.: Педагогика, 1991. С.54–80.

nomli tadqiqotida ko'tarilgan. Ong oqimi Jeyms Joysning "Uliss" nomli ko'pdan ko'p bahsu munozaralarga sabab bo'lgan romanida yaqqol aks etgan. Roman katta hajmga ega bo'lib, qahramonlar o'z ongi oqimiga o'zligini topshiradi: o'tmishi, buguni, ertasi, hayoti, odamlar, umuman hamma narsa haqidagi o'y va fikrlari birin-sirin tasvir etilaveradi. Bu yerda ketma-ketlik, izchillik yo'q. Asar voqealari (aslida, so'zlab berish mumkin bo'lgan tuzukroq voqeaning o'zi yo'q) ana shu oqimdan bino bo'ladi, ularda xronologik tartib, ko'nikilgan mantiq intizomi buzilgan. Chunonchi, qahramonlardan birining xayoli 45 bet sahifani egallagan bo'lib, nuqta, vergulsiz davom etadi. Yozuvchi bu o'rinda ong oqimining naturalistik tasvirini beradi. Ya'ni qahramon xayollari modelini so'z bilan chizadi. Qisqasi, mazkur modernistik romanning mazmun-mohiyati qahramonlar ruhiy kechinmalari, o'y va xayollari tasviri orqali ochiladi.

Chexiyada tug'ilgan, yahudiy millatiga mansub, olmon tilida ijod qilgan Frans Kafka (1883–1924) o'zining qisqa hayoti mobaynida "Jarayon" degan roman, "Evrilish", "Jazo koloniyasi" kabi bir qancha hikoyalar hamda "Otamga maktublar", "Milenaga maktublar" kabi epistolyar janrdagi xatlari bilan adabiyot tarixida mustahkam o'rin egallagan yozuvchidir. Uning badiiy asarlari dunyoni bosib kelayotgan fashizm kabi xavfdan ramziy yo'sinda ogohlantiradi. U bu xavf qarshisida qo'rquvga tushadi. Qo'rquvni adabiyotga olib kiradi. Mavjud voqelik oldida oddiy insonning nihoyatda ojiz va haqir holini juda yorqin obrazlar yordamida tasvirlaydi. Chunonchi, "Jazo koloniyasi" hikoyasida bir zobit jazo mashinasini yaratadi. Bu mashina aslida qahramonni o'rab turgan muhit. Vaqti kelib uni yaratuvchisining o'zi ham shu mashinaga yem bo'ladi.

Nobel mukofoti sohibi fransuz yozuvchisi Alber Kamyu (1913–1960) o'zining "Begona", "Vabo" kabi romanlari, "Kaligula"dek dramatik asarlari, "Sizif haqida afsona", "Isyon qilayotgan inson" singari esselari bilan mashhur. Asarlarida ilgari surib, himoya qilgan g'oyalari tufayli Kamyuni "Ovrupaning vijdoni" deyishadi. "Begona" romani orqali Kamyu jamiyat va inson o'rtasidagi mu-

rakkab munosabatni, ularning o'zaro bir-biridan begonalashuvini aks ettiradi. Avvalo, shuni ta'kidlab aytish joizki, Merso (asar qahramoni) bir firma xodimi aslida, ma'naviy-ruhiy darajasi va kayfiyatiga ko'ra murosasiz faylasufdir. Uni tushunish uchun masalaga, avvalo, shu nuqtayi nazardan yondashmoq kerak. Merso o'zining kayfiyati va yashash tarzi bilan, o'y-xayol va amallari bilan, nazarimda, kasbi koridan qat'i nazar, XX asr Ovrupasi ziyolisini, umuman, fikrlovchi inson ma'naviy qiyofasini yodga soladi. Mersoning zohirida aks etib turgan sovuqqonligiga sira aldanib qolish kerak emas. U, aslida, dunyoga kelib-ketish, tiriklik, inson hayoti mazmun-mohiyatini tit-pitini chiqarib o'ylaydigan kamyob odamlarning o'ziga xos obrazi. Muttasil fikrlash orqali o'zining – insonning chegaralarini teran anglagan, his qilgan, ayni chog'da, odamlar undan kutgan, talab qilgan turmush haqidagi jaydari falsafayu muomaladagi zohiriy mulozamatga ko'nmagan va ko'nikmagan, qaytaga, ularga nisbatan yuragida bitmas-tuganmas isyon olovi bilan yashashga mahkum etilgan jabrdiyda inson obrazidir Merso. Uni qiynoqqa solgan narsa bu – insonlik qismati.

Merso turlanmaydi, u nimani o'ylasa va his qilsa, shuni gapiradi, ko'zbo'yamachilikni o'ziga – insonga ep ko'rmaydi. Biroq bu dunyoda – odamlar orasida samimiy bo'lish behad tahlikali bo'lib chiqadi. Merso o'z samimiyati uchun dorga osilishga hukm etiladi. Samimiyati uchun jamiyat ichra begona deb topiladi. Savol tug'iladi: xo'sh, begona kim o'zi? Nahotki, o'z vijdoni oldida buqalamundek turlanmagan Merso bo'lsa? Yoki u dili boshqayu tili boshqa qolganlarmi – Mersoning atrofidagi odamlarmi, jamiyatmi? Yozuvchi o'quvchini ana shunday dilemmaning chiqish mushkul bo'lgan cho'higa uloqtirib yuboradi.

Modernizm va o'zbek adabiyoti. Istiqlol davri o'zbek adabiyoti bu yangilangan adabiyotdir. Zero, u ozod tafakkur mevasi o'laroq maydonga tusha boshladi. Ammo u yo'q yerda paydo bo'lmadi. Cho'lponning XX asr avvalida "bir xil, bir xil... ko'ngil yangilik qidiradir" deganidayoq yangilikka intilish tug'ilib bo'lgandi. Shu

ma'noda, muayyan an'ana, tajriba bor edi. Demak, Istiqlol davri yangi o'zbek asarlarining asosiylari, albatta, an'anadan uzilgan g'uddalar emas, aksincha, o'sha silsilaning davomi o'laroq dunyoga keldilar, kelmoqdalar. Shu bilan birga, erkin badiiy tafakkur mahsuli sifatida o'zini (olam ichra olam, ya'ni bir butun tizim o'laroq) namoyon qilayotgani kishini behad quvontiradi. Bugun yurtimiz ijodkori o'z nuqtayi nazarini, qadim Sharq adabiyotida bo'lgani kabi, olami sug'ro – mukarram Insonga, uning qalbiga qaratgan. Hamda bo'tindagi murakkab jarayonlarni bayonchilik yo'li bilangina emas (chunki bunday usul bor, bo'ladi va bu g'oyat tabiiydir), ayni paytda, umuminsoniy va umumzamoniy mezonlarga suyangan holda majoz vositasida ham qog'ozga tushirmoqdalar, san'atga aylantirmoqdalar.

Biroq yo'nalishlar haqida gap ketganda, masalaning nazariy jihatiga oid bir gapni alohida ta'kidlab aytishga ehtiyoj tug'iladi. U ham bo'lsa, adabiyot, ayrim avangard oqimlar da'vo qilayotganidek, boshqotirma o'yinlardangina iborat emas. To'g'ri, unda o'yinlik xususiyati bor, lekin "o'yin" adabiyotning o'nlab sifatlaridan bittasi, xolos. Chinakam adabiyot hamisha odamlar bilan birga bo'ladi, odamlarning quvonchu tashvishini tarannum etadi va shu tarzda ularga yelkadosh, taqdirdosh, dildosh bo'ladi, bo'lishi kerak.

Kecha – sho'rolar zamonida adabiyotda shakl mazmun (g'oya)ga qurbon qilinayozgan edi. Modernizm da esa, ko'pincha, buning teskarisiga duch kelamiz: shakl ketidan quvilib, mazmun boy beriladi (yoki shunchalar chuqur berkitiladiki, natijada muallifning o'zi ham qayta o'qiganda o'z asari mohiyatiga yetib borolmasligi mumkin). Aslida, har ikkovi o'rtasidagi zargarona mutanosiblik hamda buning oqibatida kelib chiqadigan buzilmas muvozanat badiiy asarning yaroqliligi va zavq ila o'qishlilikini ta'min etadi. Bunday asarlarga davrlar va ulardagi o'zgarishlar juda kam ta'sir qiladi. Mumtoz adabiyot namunalari bir davr chegaralarini oshib o'tib, barcha davrlarga xizmat qiladi. Shuning uchun ham u mumtoz hisoblanadi. Tafakkur erkinligi bois, Istiqlol davri o'zbek ijodkori ham xuddi shun-

day asarlar yozish imkoniyatiga ega bo'lib turibdi. Endi ijodkorning ijod maydoni ikki daryo oralig'i emas, balki ikki qutbdir.

Mo'tadil iqlim, uyg'un muhit bo'lmasa, ko'chirib keltirganingiz bilan ko'chat tomir otmaydi. Shu ma'noda bugungi o'zbek adabiyotidagi yangi izlanishlarni o'tgan asrning birinchi yarmida Ovrupada tug'ilgan modernistik oqimning g'arib taqlidi deb bo'lmaydi. Bir-biriga monand ijtimoiy-tarixiy davrlar o'xshash kayfiyatli adabiyotlarni vujudga keltiradi. Chunonchi, dunyo folklorida qanchadan qancha bir-biriga mengzaydigan qahramonlar mavjud. Lekin bu, ular bir-birlaridan ko'chirib olishgan, degan ma'noga kelmaydi. Ijodiy ta'sirlanishning yonida o'sha millatlar o'tmishidagi siyosiy-ijtimoiy-madaniy va psixologik muhit o'xshashligi omilini aslo yoddan chiqarmaslik kerak. Zero, o'xshash muhitlar o'xshash adabiy qahramonlarni ularning bir-biriga monand kayfiyatlarini dunyoga keltiradi. Demak, Ovrupaning modernistik adabiyoti bu ovrupanikidir va bu adabiyot o'z davrida o'z vazifasini o'tab, asosan o'sha yerda qoldi. O'zbek adabiyotidagi yangi (modernnoma) adabiyot kayfiyatiga Ovrupa modern adabiyotining oz-moz ijodiy ta'siri (ko'proq shakli ma'noda) bor albatta, lekin u mohiyat-e'tibori bilan Sharq, xususan, o'zbek insoni dunyoqarashidagi ijtimoiy-psixologik o'zgarishlar negizida tug'ildi. Shunga ko'ra, yangi (modern) o'zbek adabiyoti milliy zaminda ildiz otgan bo'lib, u Ovrupa modern adabiyotidan ko'chirilgan nusxa yoki unga taqlid emas, deya qarash mumkin. XX asr o'zbek adabiyoti "Yangi o'zbek adabiyoti" deb nomlanadi. Chunki ham nasr, ham nazmda tubdan o'zgarishlar yuz bergan, ilk dramatik asarlar vujudga kelgan va bu chinakamiga yangi hodisa, yangi adabiyot bo'lgan edi. Adabiy shakllar asosan tashqaridan – o'zga xalqlar adabiyotlaridan qabul qilingani ham haqiqat: roman, drama va yangicha she'r shakllari shular jumlasidan. XX asr adog'i va XXI asr boshi o'zbek ijodkori badiiy-estetik tafakkur tarzidagi yangilanishlar esa bir qadar boshqacha tabiatga ega. Bunda shakl va mohiyatning o'zi ichkaridan yorib chiqdi. Demak, tashqaridagi adabiyotga ergashishning hissasi o'ta salmoqli bo'lmagan. Shunga

ko'ra, uni tom ma'noda o'zbek modern adabiyoti deyish ham biroz bahstlab bo'lib, bu boradagi izlanishlarning asosiysi hali oldinda.

Xullas, Istiqlol davrida yangilangan badiiy tafakkur Erkin A'zamning "Stupka", Xurshid Do'stmuhammadning "Qichqiriq", Nazar Eshonqulning "Bahouddinning iti", Rahimjon Rahmatning "Adashvoy", Isajon Sultonning "Suvdagi kosa", Ulug'bek Hamdamning "Bir piyola suv" kabi hikoyalarini berdi. Nomlari zikr etilgan va yana Omon Muxtor, Ahmad A'zam, Olim Otaxon, Murod Karim kabi nosirlar, Bahrom Ro'zimuhammad, Tursun Ali, Faxriyor, Aziz Said, Shermurod Subhon, Go'zal Begim singari shoirlarning izlanishlari yangi (modern) o'zbek nasri va nazmining o'ziga xos namunalarini hisoblanadi.

Xullas, modernizm garchi "dunyo madaniyati markazida Ovrupa madaniyati (ovrupasentrizm) turadi", desa-da, u bilan bog'liq butun boshli qarashlar tizimi, bu tizim vujudga keltirgan san'at-u adabiyot o'rganilishi lozim. Chunki u bashariyatning ming yillar mobaynida bosib o'tib kelayotgan falsafiy, badiiy-estetik tafakkur yo'lining bitta bosqichi sifatida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Modernizm nima? Uning mazmun-mohiyati haqida so'zlab bering.

2. Modernizm nima uchun an'anaviy adabiyot prinsiplarini inkor qildi?

3. Modernizm yo'nalishlari to'g'risida tushuncha bering.

4. Xorijiy va o'zbek olimlarining modernizm haqidagi qarashlariga munosabatingizni bildiring.

5. Jahon va o'zbek adabiyotidagi ayrim modernistik asarlarni tahlil qiling.

6. Modernizm va Istiqlol davri o'zbek adabiyoti haqida so'zlang.

Adabiyotlar

1. Модернизм (Сборник). – Москва: Искусство, 1987.
2. Гассет. О. Дегуманизация искусства. – Москва: Радуга, 1991.
3. Боров Ю. Эстетика. – Москва: Политическая литература, 1981.
4. Затонский Д. Модернизм и постмодернизм. – Харьков: Фолио, 2000.
5. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2014.
6. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016.
7. Куронов Д. ва бошқ., Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Akademnashr, 2010.
8. Норматов У., Ҳамдам У. Дунёни янгича кўриш эҳтиёжи. – Тошкент: Жаҳон адабиёти жур., 2006.
9. Долгов К. От Киркегора до Камю. – Москва: Искусство, 1990.
10. Самосознание Европейской культуры XX века. Сборник. – Москва: Политическая литература, 1991.
11. Фромм Э., Душа человека. – Москва: Республика, 1992.
12. Ницше Ф. и др. Сумерки богов. – Москва: Политическая литература, 1990.
13. Эшонкул Н. Мендан менгача. – Тошкент: Akademnashr, 2014.
14. Ҳамдам У. Рухни уйғотгувчи сўз. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017.
15. Жўраев Т. Онг оқими модерн. – Фарғона: Фарғона нашриёти, 2009.

POSTMODERNIZM

REJA:

1. Postmodernizm va uning paydo bo'lish omillari.
2. Postmodern adabiyotning mazmun mohiyati, namoyandalari.
3. Postmodernizmning modernizmdan farqi.
4. Universal gumanizm (jami tirik mavjudodga teng qarash).
5. Ikkiyoqlama kodlashtirish tamoyili (xos va avom adabiyoti o'rtasidagi chegaraning olib tashlanishi).
6. Janrlar mutatsiyasi, ijodda individ rolini inkor qilish, "muallif o'limi" konsepsiyasi, intertekstuallik.
7. U. Ekoning "Atirgul ismi" romani – postmodernizmning manifesti.
8. Postmodernizm va bugungi o'zbek adabiyoti manzarasi.

Tayanch so'z va iboralar: postmodernizmga oid tushunchalar, murakab va ziddiyatli oqim, ommaviy didsizlashuv, dizaynlashuv, universal gumanizm, ikkiyoqlama kodlashtirish, intertekstual o'yin, janrlar mutatsiyasi, "muallif o'limi", logotsentrizm, an'anaviy qadriyatlar, o'zbek adabiyotida postmodernizm.

XX va XXI asrlar shiddatli o'zgarishlar davri bo'lib, bu asrlarda inson va jamiyat kayfiyati bot-bot turlandi. Natijada badiiy adabiyot uchun uslub, oqim va yo'nalishlar xilma-xilligi oddiy holga, romantiklikdan ko'ra realistik ruh badiiy adabiyotning yetakchi kayfiyatiga aylandi. Jamiyat va inson hayotiga bo'lgan e'tibor, badiiylilikdan ko'ra g'oyaviylikka urg'u berish (publitsistik ruhning ortishi), qahramon psixologiyasiga kirish, uning faol hayotiy pozitsiyasini aniqlash ko'pchilik zamonaviy asarlarga xos bo'lib bordi. Ushbu zamonaviy yo'nalish ilmda postmodernizm nomini oldi. Postmo-

dern nasrning asosiy prinsiplari italyan Umberto Eko (1932–2016), Italo Kalvino (1923–1985), amerikalik Djon Bart (1930), olmon Patrik Zyuskand (1949), chex Milana Kundera (1925) va serb Milorad Pavich (1929–2009) asarlarida ko‘rinadi.

Postmodernizm modernizmdan keyin kelgan bo‘lib (“post” – keyin), o‘ta murakkab va serqirra adabiy oqimdir. Adabiy oqim deyil-sa-da, postmodernizm xuddi modernizm kabi inson dunyoqarashiga ta’sir qilgan, keng tarmoqli va g‘oyat ziddiyatli hodisadir. U haqdagi qarashlar hali tugallanib, xulosalanmagan. Chunki hodisaning o‘zi davom etmoqda. Qayerdagi, kaos bor ekan, u yerda postmodernizm ham bor, deya qaraladi.

O‘zbek adabiyotshunosi – prof. D. Quronov (va boshq.) ning “Adabiyotshunoslik lug‘ati” kitobida postmodernizm haqida quyidagicha ta’rif beriladi: “POSTMODERNIZM (fr. *postmodernisme* – modernizmdan keyingi) – o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab adabiyot va san’atda, umuman, ijtimoiy-gumanitar sohalarida kuzatila boshlagan oqim, ijodiy metod. Fransuz poststrukturalizmining dekonstruksiya (J.Derrida), postfreйдizmning “shizozanaliz” va “ongsizlik tili” (Lakan, J.Delyoz, F.Gattari) ta’limotlari hamda semiotikadagi kinoyaviylik konsepsiyasi (U.Eko) P.ning falsafiy asosini tashkil qiladi. P.ning yuzaga kelish vaqti, o‘ziga xosligi masalasida turlicha fikrlar mavjud. Ayrim mutaxassislar P. 40-yillarda, J.Joysning “Finnegan ma’rakasi” (1939) asari bilan boshlangan desa, boshqalari o‘tgan asrning o‘rtalarini, yana bir xillari 70 – 80-yillarini ko‘rsatadilar. Holbuki, P. termini ancha avval paydo bo‘lgan: ilk bor P.Vinnitsning “Ovrupa madaniyati inqirozi”(1917) asarida ishlatilgan bo‘lsa, Toynbining “Tarixni o‘rganish”(1947) asarida termin kulturologik ma’noda, jahon madaniyatida ovrupasentrizmning barham topishi ma’nosida qo‘llanadi. Adabiyotshunoslikda ham P. termini XX asrning 20-yillaridanoq ishlatilgan bo‘lib, u adabiy jarayondagi *modernizmga* aks ta’sir hodisalarini, 60 – 70-yillar amerika adabiy tanqidchiligida esa ultramodernistik ijodiy tajribalarni anglatgan...”⁴⁷

⁴⁷ Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – B.227.

Postmodernizmga modernizmning davomi sifatida ham, undan alohida, hatto uning inkori, aksi sifatida talqin qilishlar ham ilmda bor. Bu ikki oqim mazmun-mohiyatini, ularning bir-biridan ajratib turuvchi xususiyatlarini yaxshiroq tasavvur qilish uchun quyidagi jadvalga⁴⁸ nazar tashlaymiz:

Modernizm	Postmodernizm
Yangi adabiyot va san'atni yaratish da'vosi, an'analarni inkor qilish	An'analarni o'ziga singdirish va ularga kinoyaviy munosabatda bo'lish
Olamni xaos deb bilish, undan qochish	Xaos deb bilingan olamni qabul qilish, uni o'yin tariqasida o'zlashtirish
Go'zallikni reallikdan tashqaridan izlash	Go'zallikni reallikdan izlash
Antroposentrik gumanizm: inson-ga muhabbat	Universal gumanizm, uning obyekti jami tirik mavjudot, tabiat, koinot – butun OLAM
Madaniyatda ovrupasentrizm, yevropa xalqlari madaniyatini umumbashariy madaniyat asosi deb bilish	Sharq, Lotin Amerikasi, Afrika, Okeaniya xalqlari madaniyatiga kuchli qiziqish, barcha madaniyatlarni qimmat jihatidan teng bilish
Elitar san'at	Elitar va ommaviy san'at orasida chegaraning yo'qolishi, asarda elita va ommaga mo'ljallangan qatlamlar mavjud bo'lishi – ikkiyoqlama kodlash-tirish
Semantika, mazmun muhim	Ritorika, mazmunni yetkazish shakli muhim
Janrlar, ular orasida aniq chegaralar mavjud	Janrlar mutatsiyasi
Ijodiy jarayonning natijasi –tugal asar muhim	Ijodiy jarayonning o'zi muhim
Ijodni individual hodisa deb bilish, ijodkor faolligini va uning mazmunni shakllantiruvchi markaz ekanini e'tirof etish	Ijodda individ rolini inkor qilish, "muallif o'limi"konsepsiyasi
va boshqalar	

⁴⁸ O'sha manba. B. 228–229.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, postmodernizmning modernizmdan anchagina ildizli farqlari mavjud bo‘lib, ularni bir hodisa ostida birlashtirish masala mohiyatini chalkashtirib yuborishga olib keladi. Chunki keyingi ikki asrda insoniyat juda azim evrilishlarni boshidan kechirdi, natijada dunyoqarashda, dunyoni badiiy estetik va falsafiy idrok etishda misli ko‘rilmagan sur‘at va ko‘lamlarga duch keldi, kelmoqda. Chunonchi, postmodernizmni maydonga chiqargan ko‘pdan-ko‘p omillarning bir nechasiga e‘tibor beramiz:

1. Dunyo madaniyatlarining qorishuvi. Bunga elektron axborot vositalarida ro‘y bergan tezkorlik, masalan, televidenie va internetni asosiy sabablardan biri sifatida ko‘rsatish mumkin. Natijada turfa xil madaniyatlar ilgari hech qachon ko‘rilmagan, kuzatilmagan darajada bir-biriga ta‘sir qildi, bir-biriga qorishdi. Turmushdagi bu hol (eklektiklik) san‘at va adabiyotga ham ko‘chib o‘tdi. Turli san‘atlar o‘zaro bir-biriga “aralashdi”.

2. Ommaviy didsizlashuv. Bunga sabab qilib olimlar badiiy asar qimmatini uning qancha ko‘p foyda keltirganligi bilan o‘lchanishini ko‘rsatishadi. Natijada badiiy asarga san‘at asari deb emas, balki tovar o‘laroq qaraldi va shunday “ishlab chiqara” boshlandi. Uslublar, janrlar qorishdi, mutatsiyaga uchradi. Chinakam san‘at asari bilan ommaviy asar o‘rtasidagi chegara buzildi. Sanat asari dizaynlashdi, ya‘ni faqat uning tashqi bezagiga e‘tibor kuchaydi, sotiladigan tovarga aylantirildi. Bularning hammasi bir bo‘lib ommaviy didsizlashuvga yo‘l ochdi.

3. Dunyo holining doimiy o‘zgarib turishini falsafiy, badiiy-estetik idrok qilish natijasida umidsizlik, ertangi kunga ishonchning yo‘qolishi va h.k... Bu kabi boshqa sabablar postmodernizmning paydo bo‘lishiga omil bo‘lib xizmat qilgan.

Realistik san‘at olamni tushunish va tushuntirishga uringan metarivoyatlar yaratgan bo‘lsa, postmodernizm ularni bekor sanaydi, o‘rniga butun olam haqida emas, balki uning parchalari haqida tasavvur beradigan kichik hikoyatlar yaratadi. Chunki faqat parchalargagina ishonish mumkin deb biladi. Mutaxassislarning fikricha,

ayni shu xusus postmodernizmni modernizmdan ajratib turuvchi asosiy farqdir. Chunki modernizm ham xuddi realizm kabi dunyoni yaxlit ko‘radi, voqelikni badiiy idrok etish mumkin emas deb bilsada, uning yaxlit, butun modelini yaratishga urinadi. Postmodernizm esa voqelikni parcha-parcha holida ko‘radi va ifodalaydi. Postmodernizm uchun ijodning, asarning o‘zi jarayon, maqsaddir. Uningcha, badiiy asar tashqaridagi olamni tushuntirib berishga qodir emas, shuning uchun ijod jarayonining o‘zi qadriyat. Zero, dunyoni anglab bo‘lmaydi, uning o‘zi ma’ni (logos) dan xoli, deb biladi. Postmodernizm an’anaviy madaniyat negizidagi logotsentrizmni inkor qiladi. Bas, shunday ekan, dunyo haqida u yoki bu ma’noga suyangan konsepsiyani ilgari surayotgan muallifning o‘zi ham qadrini yo‘qotadi. Chunki postmodernizmga ko‘ra, muallifni qadrli qilayotgan logos (ma’ni) o‘z ahamiyatini yo‘qotgandir. Modomiki, dunyoni ma’no yordamida tushuntirib bo‘lmas ekan, uni tushuntirmoqchi bo‘lgan muallifning ham o‘rni bo‘lmaydi. “Muallif o‘limi” konsepsiyasi shunday vujudga kelgan. Dunyoni uzuq-yuluq rivoyatlargina tushuntirishi mumkin deydi postmodernizm. Darhaqiqat, XVIII asrdan e’tiboran insonning dunyoni o‘zgartiruvchilik rolining sekin-asta pasayib kelishi va nihoyat, yo‘qolishi adabiyotdagi subyekt rolining tushib ketishiga olib keldi. Bu esa, “muallif o‘limi”ni paydo qildi. Natijada, adabiyotga yakka shaxsning maqsadli yo‘naltirilgan yaratuvchilik faoliyati deb emas, balki negizida jamoa ijod mahsuli bo‘lgan “intertekstual o‘yin” deb qarala boshlandi. Avvaliga, (XX asr ibtidosida) Nitshe “Xudo o‘ldi” deb jar solgan edi, XX-asrning ikkinchi yarmida esa “muallif o‘limi” e’lon qilindi. Inson ham matndan, koddan iborat, uning butun umri davomida aytgan har bir fikri, so‘zi, xatti-harakati – kod. Hammasini u ajdodlardan meros qilib olgan. Uning o‘ziga tegishli hech narsasi yo‘q. Insoniyat madaniyati ham butun boshli bir intermatn. Inson tomonidan yozilayotgan har qanday asar ham ana shu intermatndan olinadi (intertekstuallik)) va bu matn ijokdorning kodlangan subyeksi, xolos. Demak, muallif ham yo‘q, u o‘lgan (Fuko va Bart tadqiqotlariga qarang) deyishdi.

Postmodernizmning bir qancha o'ziga xos tushunchalari borki, ularning mag'zini chaqib olish ushbu murakkab adabiy oqim mohiyatini bir qadar tiniqroq anglashga yordam beradi.

1. Muallif o'limi. Faqat matn bor, muallif esa asarda "o'lgan", chunki u yozgan matn uning o'ziniki emas, umummatndan olingan nusxalar, kodlardir, degan qarashni bildiradi. Fransuz adabiyotshunosi R. Bart muallif istilohi o'rniga *skriptorni* kiritadi. Skriptor hisobsiz lug'at boyligidan matn yasaydi. Asarni esa muallif emas, o'quvchi yaratadi. Qanday qilib? Asarga o'z mazmunini yuklab yaratadi. Shuning uchun ham postmodernizm o'quvchi darajasini muhim hisoblaydi. O'quvchi qancha o'qimishli bo'lsa, asarga yashirilgan "madaniy kod"larni shuncha ko'p topadi, deydi.

1. Intertekstuallik (lotincha so'z bo'lib, "inter" – aro, "textum" – to'qima, mato, matn) har qanday matn o'zidan oldingi matndan olingan matn ma'nosini bildiradi. Ya'ni har qanday matn qo'shtirmoqsiz iqtibos. Chunki har qanday matn o'zigacha yaratilgan matndan kelib chiqadi, unda boshqa matnlarning izlari bor, degan qarashni ilgari suradi.

2. Simulyakr – asl san'at o'rniga kelgan soxta estetik asarlar. Simulyakrlar ("*simulo*" lotincha so'z bo'lib, "yo'q narsani bor o'laroq ko'rsatish", ma'nosida keladi) nusxalardir. Yo'q reallikni bor qilib ifodalash, moboda, reallik bo'lsa-da, u nomigagina "ishtirok etadi". Ular baland va past didlar o'rtasidasidagi chegaralarni yuvib tashlashga xizmat qiladi.

3. Dekonstruksiya – mavjud butunlikni buzish va parchalardan yangini yaratish.

4. Ramziylik – dunyodagi hamma narsaning majoziy ma'nosi bor deb qarash.

5. Artefakt – kutilmagan joyda, xuddi tasodif kabi yaratilib qolinadigan badiiy asar.

6. Interaktivlik – ijodkor va o'quvchi sherikligi asosida badiiy asarning yuzaga kelishi.

7. Universalizm – hamma narsaning qorishib, ommaviylashib ketishi.

8. Gedonistik vosita, ya'ni san'at asariga o'quvchiga lazzat beruvchi matoh deb qaralishi.

Ha, postmodern bugungi davr kayfiyatini o'zida aks ettirmoqda. Lekin ilg'or jamiyatlarda postmodernizm o'z umrini yashab bo'ldi, degan fikrlar ham aytilmoqda. Darhaqiqat, keyingi vaqtlarda inson dunyoqarashi va tafakkuri koinotni anglash bilan birga kechmoqda. Bu harakat har doim bo'lganu zamonaviy dunyoning imkonlari negizida koinotga teran kirib borish, uni tadqiq etish kuchaygani bor gap. Shuning uchun ham astro davri degan istilohlar paydo bo'lgandir. "Yangi paradigma yo'q. Na Sharq va na G'arb buni bera olmayapti", qabilida fikr aytadi rus akademigi Yu. Borev. Ehtimol, astro davri o'sha paradigmani tug'ib berar, buni vaqt ko'rsatadi.

Badiiy tafakkurda olamshumul evrilishlar yuz bergani va hamon ushbu jarayonning davom etayotganini keyingi qator yillar mobaynida yaratilayotgan turli janrlardagi asarlardan ham bilsa bo'ladi. Natijada san'atu adabiyotimiz maydonlarida avvalgilarga o'xshaganu o'xshamagan asarlar paydo bo'la boshladi. Albatta, ularning barchasini birdek durdona, deb hisoblab bo'lmaydi. Ular hali vaqtning, davrlarning, shu davrlar tarbiyalab yetishtiradigan o'quvchilarning sinovu ehtiyojlariga javob berishi kerak. Durdonalik maqomi shundagina nasib etishi mumkin. Lekin hozir gap bunda emas. Gap dunyoni badiiy-estetik qabul qilish mezonlarimizning juda tez o'zgarayotganligida.

Yangilanayotgan badiiy tafakkur mahsullari ba'zan go'yo hamma narsa yoki hech narsa haqida kabi taassurot qoldiradi o'quvchida. Chunki unda go'yo hamma narsa bor, ammo aniq hech nima yo'q. Ha, yangi san'at o'zini shunday tutadi, shunday tutmoqda ham. Yangi san'at bugunga kelib, mohiyatni shunday ifoda qilmoqqa kirishdiki, natijada, bir qarashda, uning badiiy zavqi an'anaviy yo'llarda shakllangan o'quvchi bilan sirayam ishi yo'qdek tuyuladi. "Mana, men shundayman, xohla qabul qil, xohla yo'q", deyayotgandek o'zini namoyon qiladi u. Ko'rinadiki, yangilanayotgan badiiy tafakkur mahsullari mohiyatining ochilishi uchun o'quvchi tayyorgarligi va ishtiroki zarur bo'lib bormoqda ekan. Endi o'quvchining kitob-

xonlik darajasi asarga ayricha bir mazmun bag'ishlaydi. Zero, yangi san'at namunasi har bir o'quvchi bilan yuzlashganda o'zgacha tovlanadi. Ya'ni o'quvchining badiiy-estetik darajasiga qarab turlanadi u. Albatta, bu o'rinda modernizm uchun muallif darajasi muhim bo'lsa, postmodernizm uchun muallif yo'q. Matn egasi – skriptor.

Modern va postmodern adabiyoti namunalari, ayni paytda, dunyoni ramziy tafakkur qilish hosilasidir. Ularni ishoralar asari desa ham bo'ladi. (O'rni kelganda qayd etish kerakka o'xshaydi: bir-biriga unchalik bog'lanmagan ma'nolarga ishora qilib o'tish san'ati adabiyotda bir-muncha yengil yo'lni paydo qilishi mumkin. Chunki yangi san'at, modernizm, postmodernizm niqobi ortiga berkinayotganlarning talay bir qismi, aslida, mutlaqo iste'dodsiz odamlar ekanligiga hayot va adabiyot sahnalarida tez-tez duch kelinmoqda. Gap shundaki, ular o'z shig'irlarini "yangicha san'at namunasi" deya taqdim etishga o'rganib borishmoqda. Qizig'i shundaki, modernizmdan farq qilib, postmodernizm aynan shu jihatni qo'llab-quvvatlaydi. Faqat tanlab olingan alohida iste'dod egasi hisoblanmish ijodkorlargina emas, balki hammani san'at asari yaratishi mumkin deb biladi). U aniq bir narsa aytmaydi, buni maqsad ham qilmaydi, aksincha, faqat ishora qiladi. O'quvchi ana shu ishora qilingan tomonga boradi. Albatta, o'zi emas, balki qalbi va tafakkuri elchilarini yuboradi u yerga. Elchilar muloqotidan so'ng anglashilgan (ko'pincha, payqalgan, sezilgan, fahmlangan...) narsa, agar u chindan bor bo'lsa, o'quvchi botinida akslanadi. Mana shu aksning salmog'i asar mazmun-qiyo-fasini belgilaydi.

Aslida, har qanday badiiy asar o'ziga xos yo'l hisoblanadi. Ya'ni yo'l (voqelik) dan yo'l (asar) ga kelinyapti. Harakatlanuvchi kuch, modernizmga ko'ra – muallif, postmodernizmga ko'ra esa – skriptor. (So'ngra teskari akt, ya'ni asar (yo'l) dan voqelik (yo'l) ga yurish boshlanadi. Bunda harakatlanuvchi personal – o'quvchi). Asarni o'qigan o'quvchi go'yo shu yo'ldan (muallif yoki skriptor yo'lidan) yurishga taklif etiladi. Bu o'rinda gid – muallif yoki skriptor. U o'quvchiga atrofni tamosha qildiradi. Ammo vaqt tig'iz bo'lgani bois (butun insoniyat bosib o'tgan yo'l bilan yakka inson bosib

o'tgan yo'l o'rtasida zamoniylar va makoniylar tafovut bor. Go'yo ummon va tomchi o'rtasidagi hajm farqi yanglig', bas, tomchi (mual-lif, skriptor) yana bir tomchiga (o'quvchiga) ummon (basha'r ahli) haqida, uning uzun yo'li haqida nimalarnidir uqtirarkan, ana shu tafovut taqozosiga ko'ra ham majoziiy fikrlashga mahkum. Uning boshqa iloji yo'q. Chunki ramz — kalavalangan mushtdek ip. Uni yechib cho'zganingiz sari yer sharini quchoqlab oladigan imkonlari ochiladi. Yo'qsa, u sirini o'z ichiga qamab, bir musht, nari borsa, bitta koptokdek bo'lib yotaveradi) hamma narsani batafsil tushuntirib berishning imkoni ham, bunga alohida istak ham yo'q. Ummun olganda, kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, "eniga va bo'yiga kengayib " turlanayotgan, axborotga ko'milib ketgan dunyo mazmun-mohiyatini qamrab olish tobora qiyinlashib borayotganini hisobga olsak, bundan buyon inson badiiiy tafakkur tarzida ishoraviy, ya'ni ramziy san'at o'rnining behad ortishiga shubha yo'q. Chunki ramz va tashbehda shunday bir ichki qudrat borki, ana o'sha behudud olamning hadsiz-hisobsiz tovlanishlarini o'z bag'riga sig'dira oladi. Boshqacha aytganda, ramziy san'at Alovuddinining sehrli chirog'iga o'xshaydi, kerakli kalit-duosini topib o'qisangiz, bas, qarshingizda qo'lingizga dunyolarni olib berishga qodir Jin janoblari paydo bo'ladi. Shu ma'noda san'atning azaliy ajralmas qismi bo'lgan ramziylik modernizmga ham, hatto postmodernizmga ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Juda ko'p qadriyatlar, ayniqsa, postmodernizmga inkor qilindi, lekin adabiyotning dunyoni ramziy-majoziiy qabul qilish xususiyati yashab qoldi, yashab kelyapti. Bunday ramziylik, goho, kimgadir, nimagadir, qandaydir ma'noga ishora tarzida o'zini namoyon qiladi. Ishora esa o'z navbatida sirni, sirlikni keltirib chiqaradi. Mana shu yerda esa o'quvchi, Gasset aytmoqchi, naq ikki — badiiiy asarni tushunganlar va tushunmaganlar toifasiga bo'linadi. Mavlono Rumiiy qarashicha, sirdan xabardor bo'lgan kishi indallosidanoq gapning mohiyatini darhol anglaydi, g'o'fillar esa yo'q. Ularga ming tushuntirilsin, so'zlar suvlarga oqadi — ketadi. Bu hol modernizmga ham, postmodernizmga ham u yoki bu darajada xos xususiyatdir.

Umuman, kunimizning jiddiy ijodkorlari tobora ko‘proq sirli bo‘lib “turish”ga urinayotganligini qayd etish joiz. Ayni damda e‘tibor bermoq kerakki, badiiyat olamida chinakam sirli durdona asar bilan “boshqotirma”, ya‘ni “krassvord” adabiyot o‘rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Ammo xuddi muhabbat va nafrat (daholik va tel-balik) kabi bir-birlariga juda-juda yaqin joylashganidan (bor-yo‘g‘i bir qadam), hatto mutaxassislar ham ularni ko‘pincha chalkashtirib yurishadi. Oqibatda, bor-yo‘g‘i o‘rtamiyona boshqotirma bir asarni bebaho durdona deya taqdim etishgacha borib yetiladi yoki aksincha. Bu xusus, ayniqsa, postmodernizmga xos.

Postmodern adabiyot o‘z mazmun-kayfiyatiga ko‘ra, ko‘pincha, quramalardan ham iborat bo‘ladi. Shuning uchun ham uni o‘qigan kishi ma’nolarning tariqdek sohib yuborilganini ko‘radi. Yaxlitlik, butunlikni topmaydi. Bu – tabiiy. Chunki aslida ham ko‘z bilan ko‘rsa, qo‘l bilan ushlasa bo‘ladigan butunlikka da’vo qilmaydi postmodern adabiyot. Zero, voqyelikni o‘zida yo‘q deb hisoblaydi u butunlikni. Ammo mozaikaning har bir parchasida fikrlovchi o‘quvchini yana va yana tafakkur qilishga, insoniyat tarixiga sayohatga chorlash orqali uni o‘z botiniga safar qilishga undash yashaydi. Asarni birlashtiruvchi kuchi bor bo‘lsa, shu yerda mujassam.

Postmodernizm falsafasi o‘tgan asrning 80-yillarida shakllangan. U jamiyatda yuz bergan o‘zgarishlarni aks ettirib, dunyoni qabul qilish va his etishda paradigma maqomini oldi. Hozirda dunyoning mana shunday holini to‘la-to‘kis o‘zida mujassamlatirgan paradigmaning yo‘qligi haqida rus olimi, akademik Yu. Borev bong ur-yaptiki, bunday fikrlar postmodernizm ham qaysidir ma’noda o‘z imkoniyatini sarf qilib bo‘layozganidan dalolat. Ammo dunyoda xaos kayfiyati hukm surayapti. Ma’lumki, posmodernizm xaosdan oziqlanadi, uni ifoda qiladi. Dunyo ertasining noaniqligi, insonning global o‘zgarishlar va texnogen buhronlar ichida qolib esankirashi, oxirzamonni kutish, ayni paytda, kommunikativ texnologiyaning jadal rivojlanishi, kompyuter va internetning paydo bo‘lishi, dunyo hamjamiyatining madaniy tolerantligi (bag‘rikengligi)ning oldinga qarab ketishi postmodernizmni paydo qilgan asosiy sabablardan,

deya ko'rsatiladi ayrim manbalarda. Fransuz faylasufi Jak Derrida ⁴⁹postmodernizm davrini "Oxirzamon kelmasdan burungi (dunyoning) mutlaq ostin-ustin bo'lishi" deb ataydi. Xuddi shunga uyg'un fikrni ukrainalik olim Dmitriy Zatonskiy "Postmodern davr termoyadroviy oxirzamon (olim buni "Termoyaderniy Apokalipsis", ya'ni termoyadro urushi tufayli sodir bo'ladigan oxirzamon, deb ataydi) sodir bo'lmagandan keyin boshlandi. Biz dunyoning tubiga nazar soldik, ammo hayotda yashab qoldik. Albatta, buning uchun E'tiqod, Umid, Muhabbat bilan to'lov to'ladik"⁵⁰. Mana, nima uchun postmodernizmga noaniqlik, parchalanish, "men"ning, kanonlarning yo'qolishi, noturg'unlik xosdir. Shuning uchun ham postmodernchilar "abadiy qadriyatlar"dan voz kechdi. Doimo qalqib, turlanib turgan olamda kimgadir yoki nimagadir suyanib bo'lmaydi, deyishdi ular. Bu esa postmodernizmga oid juda muhim jihat hisoblanadi.

Postmodernchilar hatto badiiy asar tushunchasini matn tushunchasi bilan almashtirishdi. "Matnlar dialogi" ma'nosini beruvchi intertekstuallik tushunchasi keng istifoda etiladi. Bunda reallik va san'at o'rtasidagi chegara buziladi. Hech qanday individual asar yo'q. Har qanday asar bu jamoaviydir. Chunki asar umummadaniyat negizida paydo bo'ladi, deyishadi. Masalan, fransuz yozuvchisi Jak Rive qalamiga mansub "A.lik xonimlar" romani 408 muallif asaridan olingan 750 iqtibosdan iborat.

Postmodernchilar haqiqat, xarakter kabi tushunchalardan voz kechishadi. Chunki haqiqatning mavjudligini inkor qilishadi, hech qanday hodisa bir xil tarzda ifoda qilinishi mumkin emas, uning cheksiz talqinlari bor, xarakter ham inson shakllanishining muayyan shartlari mahsulidir, deb bilishadi.

Postmodernizm odamlarning begonalashuvini keltirib chiqargan postindustrial jamiyatda paydo bo'ladi. Begonalashgan inson illyuzion dunyoda yashaydi, o'zinikini va begonanikini farqlay olmay qoladi, begona til, begona madaniyatni o'zniki kabi qabul qiladi va ularga suyanan holda o'z olamini yaratadi.

⁴⁹ Qarang: Jak Derrida. (Internet materiallari).

⁵⁰ Затонский Д.В. Модернизм и постмодернизм. – Харьков: Фолио, 2000.

Postmodern matnda hamma narsa shartli, unda kinoya va parodiya ustun mavqeda turadi. Bu oqimning mumtoz namoyandalaridan Umberto Eko: "Postmodernizm modernizmga javobdir: madomiki, o'tmishni yo'q qilib bo'lmaz, zero, o'tmishni yo'q qilish soqovlikka olib kelar ekan, demak, soddadillikni yig'ishtirib qo'ygan ko'yi uni kinoya bilan qayta ko'rib chiqish kerak" deydi. Uning postmodernizmning mumtoz asari deb tan olingan "Atigul ismi" (1980) romani bosh qahramonlarining ismlari yozuvchi Konan Doyl qahramonlari ismlarini yodga soladi. Bu falsafiy detektiv roman bo'lib, voqealar o'rta asrlar monastirida ro'y beradi. Bosh qahramon Vilgelm Baskervilskiy qo'lyozmalarni o'qib, kimga, nimaga oidligini aniqlashtirish bilan shug'ullanadi. Asar nomidagi "Atirgul ismi" so'z birikmasi shunchalar ko'p ramziy ma'nolarga to'lib ketganki, u asl ma'nosini yo'qotib ham qo'ygan. Yozuvchi romanni lotincha iqtibos bilan yakunlaydi. Unda "atirgul so'ldi, lekin atigul so'zi (ismi) hali hamon yashayapti," deyilgan. Roman ikki qatlamdan iborat bo'lib, birinchi qatlam oddiy o'quvchiga, ikkinchi qatlam esa xos o'quvchiga mo'ljallangan. Oddiy o'quvchi asarning detektiv o'laroq qabul qiladi va qiziqib o'qiydi. Xos o'quvchi esa roman qatlariga yashirilgan ramzlarni kashf qilib badiiy zavq tuyadi. Binobarin, "Atirgul ismi" tarixiy va detektiv romanning, adabiy va madaniy assotsiatsiyaning hamda falsafiy masal va mistifikatsiyaning qorishmasidan paydo bo'lgan murakkab asardir. Bunday yo'l tutish postmodernizm asarlarida xos va avom saviyasi o'quvchi o'rtasidagi chegarani buzib tashladi. Natijada, elitar va ommaviy san'at bir-biriga yaqinlashadi.

Postmodern yozuvchilar, jumladan, R. Bax, P. Zyuskind, P. Koelo, X. Murakami kabi ijodkorlar zamonaviy tamaddunning eng og'riqli masalalariga e'tibor qaratishdi. Olmon adabiyotining zabardast namoyandasi Patrik Zyuskind "Ifor" (1985) romanida bir shaxs siymosida ham daho, ham yovuz maxluq jo bo'lgan aktor (atir yaratuvchi) hayotidan hikoya qiladi. Asarning yuza qismi o'ta qiziqarli detektiv ruhida bo'lsada, uning tagma'nosi jiddiy mushohadaga undaydi: romanda hid obraz darajasiga ko'tarilgan. Bu obrazning ortida butun boshli zamonaviy dunyoning ma'naviy hayoti yashirilgan. O'sha daho

va maxluq tomonidan ixtiro qilingan atir hidiga bandi, unga yetishish uchun, uni hidlash uchun hamma narsaga, hatto hayvon qiyofasiga kirib ketishga tayyor odamlarning ruhoniylari olami fosh etiladi. Ayni shu xusus romanni tarixiy-detektiv, psixologik drama va yoki qiziqarli afsona degan yorliqlar qolipini parchalab tashlaganini bildiradi.

Amerikalik yozuvchi Richard Bax "Jonatan Livingston nomli chayka" (1970) romanida qahramonlar qushlar obrazlarida tasvirlanadi. Parvoz yozuvchi asarlarida falsafiy ramz ma'nosida kelib, bu bilan u insonlarni o'zlarini erkin tutishga, o'z qiyofasini ehtiyoq qilishga, dunyoning shafqatsizligi va adolatsizligiga qarshi turishga undaydi.

Braziliyalik yozuvchi Paulo Koeloning "Alkimyogar" asari ham postmodern adabiyotning yorqin namunasi. U roman-masal holiga keltirilgan asar bo'lib, unda "Agar sen biron nimani chin dildan istasang, butun koinot o'sha orzuingga yetishingga ko'makdosh bo'ladi" kabi aforizm darajasidagi fikrlar ko'p uchraydiki, bular o'ta shiddadkor, o'zgaruvchan, shafqatsiz zamonaviy dunyoda nafas olayotgan o'quvchi uchun ayni muddaodir. Garchi mutaxassislar Koelo asarlarini, jumladan, "Alkimyogar"ni postmodernizmga mansub etsalarda, ko'pgina jihatlari (umidning, yorug'likning mavjudligi) ga ko'ra, masalan, "Alkimyogar" oqim taqozo etgan qoidalarga to'liq tushmaydi. Balki roman mag'zida Sharq ruhining, jumladan, Rumiylar asarlari ruhining g'oya o'laroq mavjud ekanligi bilan izohlanar bu hol.

Zamonaviy yapon yozuvchisi Xaruki Murakamini vatanida G'arb kishisi deb bilishadi. Sababi, yozuvchi o'z ijodi bilan yaponlarning asrlar mobaynida shakllangan an'anaviy hamda zamonaviy qadriyatlarini buzib kelmoqda. Chunonchi, tabiat bilan uyg'un yashash, muhit shart-sharoitlarini qabul qilish, mansab pog'onalaridan ko'tarilishga qaratilgan va shunga o'xshash boshqa qarashlar uning asarlarida inkor etiladi. Murakami o'z vataniga, undagi qadriyatlariga ovrupalikning ko'zi bilan qaramoqchi bo'ladi. Uning qahramonlari tizim ichida bir murvat bo'lishga moslashmagan. Chora – o'z olamiga, g'ayrushuuriga ketib, odamlarga xizmat qilish. Uning ham

postmodernizm qoliplariga tushmaydigan qirralari mavjud. Chunonchi, Murakami ezgulikning kuchiga ishonuvchi romantik, deya talqin qilinadi.

Yana jahon adabiyotida Italo Kalvino, Milan Kundera, Milorad Pavich kabi postmodern oqimining yirik vakillari borki, ularning asarlari ham qaysi bir jihatlariga bilan bugungi zamon nafasini o'zida yorqin aks ettiradi, fikrlashga, mulohaza yuritishga chorlaydi.

Bundan tashqari, fantastikadan o'zining ayrim jihatlariga ko'ra farqlanib turuvchi *fentezi* janrida ham qorishiq zamon ruhini aks ettiruvchi talay asarlar bitildi. Bularning eng mashhurlaridan biri Joann Rouling qalamiga mansub "Garri Poter" sikl romanlaridir.

Xulosa shuki, postmodernizm jahon adabiyoti XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi, kechirmoqda. Shu bilan birga, uchinchi ming yillik adabiyotining tug'ilishiga o'ziga xos zamin tayyorladi. Zamonaviy jahon adabiyoti g'oyat xilma-xil, qorishiq va murakkab hodisaki, u va uning kelajagi haqidagi bahsu munozaralar hali-hanuz davom etmoqda.

O'zbek adabiyotida postmodern izlanishlar, ayniqsa, nasrda bo'y ko'rsatayapti. O. Muxtor, X. Do'stmuhammad, N.Eshonqul, R. Rahmat, I. Sulton, M. Karim, U. Hamdam kabi yozuvchilar ijodida postmodernizmning turli ko'rinishlari uchraydi. Chunonchi, X. Do'stmuhammadning "Jimitxonaga yo'l" hikoyasi D. Butssatin-ing "Yettinchi qavat" hikoyasiga nazira yo'lida yozilib, G'arb hikoyasida aks etgan g'arbonsa qarash o'zbek yozuvchisi asarida sharqona ruhda qayta ishlanadi. O. Muxtorning qator romanlaridagi tushkunlik, parokandalik, tushuniksizlik postmodern kayfiyatni aks ettiradi. M. Karimning "Hech" deb nomlangan qissasi hamma narsa va ayni damda, hech narsa haqidadir. X. Do'stmuhammad, N. Eshonqul va I. Sulton kabi yozuvchilar ijodidagi qator asarlarda ("Sizif", "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Go'ro'g'li", "Og'riq muojalasi", "Boqiy darbadar") jahon adabiyotidagi birmuncha mashhur asarlar sujeti, sujet chiziqlari yoki g'oyasi olinib, qayta ishlanadi. Yana bir o'zbek adabiyoti namunasi "Yolg'izlik" qissasida esa qahramon ruhiyati batamom parchalangan holda tasvir etiladi. U shu holida

ortidan ergashish mumkin bo'lgan na biron g'oya, na dardiga hamdard bo'lgulik biron inson topolmay arosatda tentiraydi. Hatto qissaning sujetida butunlik yo'q, u toshga urilib parchalangan oyna bo'laklariga o'xshaydi. (Voqealarni ana shu siniqlarda ko'rishingiz mumkin). Najotni hech qayerdan topolmagan qahramon, alaloqibat, o'z ruhiy olamiga hibs etiladi. Shunday bo'lsa-da, asar oxirida qahramon o'tirgan xona eshigi ochiq qoladi. Bu – ramz. Qissaning ismsiz qahramoni bugungi tafakkur ahlining o'ziga xos umumlashtiruvchi obrazidek taassurot qoldiradi. Akademik Yuriy Borev bugun bashar ahli yangi paradigмага, ya'ni yo'lga muhtoj deganini yodga olib, bu holni “Yolg'izlik” qissasi qahramonining so'ng holi bilan qiyos etsak, yuqoridagi ma'no (umumlashtiruvchi obraz) kelib chiqadi. Ammo o'zbek yozuvchisining asarida baribir eshik ochiq qoladi. Demak, u Sharq farzandi sifatida umiddan voz kechmagan. Bu esa uning postmodernizmning “oltin qoidalari”ga to'la tushmayotganidan dalolat.

Hozirgi o'zbek she'riyati kechagi she'riyat emas. U o'zining ko'pgina, xususan, shakliy-mazmuniy mundarijasiga ko'ra o'zgardi. Shu bilan birga, ta'kidlash o'rinliki, bugungi she'riyat kechagi she'riyatdan uzilib qolgan alohida hodisa ham emas. Ular o'rtasida vorisiylik, uzviylik hamon davom etib kelmoqda. Bugungi o'zbek she'riyati kechagi o'zbek she'riyatining eng yaxshi an'analari davom ettirgani holda, jahon adabiyoti buloqlaridan ham suv ichyapti. Kecha dunyoga sotsialistik realizm tuynugi orqali qargan bo'lsa, bugun uning tafakkuri erkin. Aynan mana shu tafakkur erkinligi hozirgi zamon o'zbek poeziyasini – yangilangan o'zbek she'riyatini vujudga keltirayotgan bosh omildir. Shunga ko'ra, har tomonlama boy she'riyatimizga nazar tashlab, uning bag'rida barcha yashovchan tamoyillarning izini ko'ra olasiz: realizm, modernizm va postmodernizm adabiy oqimlarining turfa yo'llarida yaratilayotgan bugungi o'zbek she'riyati shoir tafakkurining yagona mafkuraviy iskanjadan xoli ekanligidan, boshqacha aytganda, erkinligidan dalolat. Yana, shoirning qaysi yo'nalishda qalam tebratishi emas, qanday iste'dod bilan yozayotganligi hamda azaliy muhoraba – ezgulik va

yovuzlik jangida oldingisining yonida tura bilishining muhimligi to-bora ko'proq ayon bo'lib borayotir.

Bugun o'zbek she'riyati ifoda usuliga ko'ra taxminan quyidagi-cha ko'rinishga ega: 1. An'anaviy. 2. Xalqona. 3. Modern. 4. Aruz. 5. Sinkretik. Ammo ta'kidlab aytish joizki, dunyoqarashda asosan ikki kuchning musobaqasini kuzatish mumkin. U ham bo'lsa, an'anaviy va modern (shu jumladan, postmodern) oqimlari o'rtasidagi muso-baqa. Aslida, bunday musobaqa hamisha bo'lgan va u yaqin tarixi-mizda "an'ana va novatorlik" deb atalgan.

2012-yil fevral oylaridan e'tiboran Rossiyaning "Literaturna-ya gazeta"sida postmodernizm haqida qizg'in bahs boshlanib, yil davomida har xil qarashlar o'rta tashlandi. Unda bir xil olim-lar "postmodernizm Rossiyada o'z o'rnini topmadi", desa, boshqa birlari "yo'q, hali bunday deyishga juda erta, jamiyatda xaos bor ekan, postmodern bor bo'laveradi", degan fikrni ilgari surishdi. Xuddi shunga o'xshash munozara o'zbek adabiyoti ilmi maydonida ham yuz berib turibdi. Bir tomon "modernizm degan unsur nafaqat o'zbek adabiyotiga, balki umuman Sharq adabiyotiga, Sharq tafak-kur tarziga yot, u Ovrupadan sun'iy ravishda keltirilgan usul" desa, boshqa birovleri "u jamiyatning yashash tarzi, kayfiyati", demoqda. Mayli, bahs-munozara o'z yo'liga, ammo she'riyatning o'zgarib-yangilanib borayotgani fakt. Undan ko'z yumib bo'lmaydi. Keyingi 20–25 yil mobaynida jamiyatda yuz bergan o'zgarishlar zamonaviy o'zbek she'riyati qiyofasini belgilab berayotgani bor gap. "Haqiqiy adabiyot, chinakam she'r bu yuksak san'atdir", degan shior ostida ijod qiluvchilar soni ko'payib bormoqda. Bu ham ma'lum ma'noda she'riyatning ziyoli-ijodkorlar, mutaxassislar va torroq qiziquvchi-lar doirasidagina o'qilishiga olib keldi. Bugun Tursun Ali, Bahrom Ro'zimuhammad, Aziz Said, Faxriyor, Muhammad G'affor, Sher-murod Subhon, Go'zal Begim kabi o'zbek shoirlari (dunyoqarash-lari, iste'dodlari va uslublaridagi jiddiy farqlarga qaramay) qāysidir ma'noda shu umumiy yo'nalishlar (modernizm va postmodernizm) ning ko'zga ko'ringan vakillaridir.

Postmodernizm dunyoni tushunish va tushuntirishning bir yo'li. Lekin u oxirgi yo'l degani emas. Insonlar, jamiyatlar bor ekan, ularning kayfiyatlari, dunyoqarashlari, orzu intilishlariyu ehtiyojlari ham bir joyda to'xtab qolmaydi. Bas, shunday ekan, inson doimo yangi yo'l qidiradi. U hayot ekan, izlanish ham hamisha barhayotdir.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Postmodernizmning paydo bo'lishi va mazmun-mohiyati haqida gapiring.
2. Nima uchun postmodernizm murakkab oqim hisoblanadi?
3. Postmodernizmni modernizmdan ajratib turuvchi xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Ommaviy madaniyat, ommaviy didsizlashuv va postmodernizm munosabatlarini tushuntirib bering.
5. Postmodernizmning asosiy tushunchalari haqida so'zlang.
6. Postmodernizm namunalarini tahlil qilib bering.
7. Postmodernizm va Istiqlol davri o'zbek adabiyoti haqida so'zlang.

Adabiyotlar

1. Затонский Д. Модернизм и постмодернизм. — Харьков: Фолио, 2000.
2. Модернизм. — Москва: Искусство, 1987.
3. Гассет О. Дегуманизация искусства. — Москва: Радуга, 1991.
4. Боров Ю. Эстетика. — Москва: Политическая литература, 1981.
5. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. — Тошкент: Камалак, 2016.
6. Куронов Д. ва бошқ., Адабиётшунослик лугати. — Тошкент: Akademnashr, 2010.
7. Internet materiallari: Postmodernizm, jumladan, <http://iEs-sav.ru> sayti.

AVSTRALIYA, OKEANIYA, AFRIKA, KANADA MAMLAKATLARI ADABIYOTI

REJA:

1. Avstraliya adabiyoti: kecha va bugun.
2. Okeaniya mamlakatlari adabiyoti manzaralari.
3. Afrika adabiyotiga chizgilar.
4. Kanada adabiyotining umumiy xarakteristikasi.

Tayanch soʻz va birikmalar: xalq ogʻzaki ijodi, janrlari, yozma adabiyot, oʻtmish adabiyoti, zamonaviy adabiyot, sintez adabiyot, adabiyot davrlari, qoʻshiqlar, miflar, ertaklar, afsonalar.

Avstraliya adabiyoti

Avstraliya adabiyoti, asosan, ingliz tilidagi adabiyotdir. Uni yana sintez adabiyoti ham deyishadi. Chunki taxminan XVIII asrgacha mahalliy aborigenlarning ogʻzaki adabiyoti mavjud boʻlgan. Bu vaqtdan eʼtiboran esa, qitʼaga inglizlar kelishdi hamda sekin-asta oʻz adabiyotlarini barpo etishdi. Qolaversa, qitʼaga boshqa xalq vakillari ham koʻchib kela boshlashdi. Natijada, Avstraliya adabiyoti koʻplab xalqlar adabiyotidan tashkil topgan sintez adabiyotga aylandi. Shunga qaramay, ingliz tilidagi adabiyot yetakchi mavqega ega.

Demak, 200 yildan ortiqroq vaqt davom etib kelayotgan qitʼa adabiyotini quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. Kolonial yoki ingliz-avstraliya davri (1788–1880).
2. Milliy davr (1880–1920).
3. Zamonaviy davr (1920-yillardan hozirgacha).

Avstraliyaning dastlabki adabiy yodgorliklari deya qitʼaga kelgan kema zobitlari boʻlgan Ison Uayt (1756–1832), Uotkin Tench (1758–1833) va Devid Kollinzlarning (1756–1810) memuarlari va yoʻl qaydnomalari aytiladi. Ilk sheʼriy asarlarning mazmuni Angli-

yadan qochib kelgan yo surgun qilinganlarning erkin hayot haqida bo'lib, ballada janrida yozilgan. Charlz Tompson (1806–1883), Charlz Ventvortlar (1790–1872) dastlabki lirik shoirlar hisoblanadi. Charlz Garpur (1813–1868) esa, davrning ulug' shoiri sifatida tan olinadi.

Shundan keyin Avstraliya adabiyotining milliy davri boshlandi. Bunga sabab esa odamlar qit'aga o'rgandilar, uni sevdilar, o'zinikidek his qildilar. Natijada adabiyot Angliya adabiyoti ta'siridan chiqishga, o'z mavzularini o'z yo'llarida kuylashga intildi. Adabiyotining milliy davri Jyul Fransua Archibald va Jon Xayns-lar asos solgan "Byulleten" haftaligidagi chiqishlardan boshlangan. Avstraliyadagi hayot, qishloq manzaralari, do'stlik, mardlik va insonlar o'rtasidagi tenglikni kuylash Banjo taxallusli Endryu Barton Patterson (1864–1941), Genri Louson (1867–1922), Charlz Brennan va Nilson singari shoirlarni yurtga tanitdi.

Zamonaviy davr Avstraliya adabiyoti Amerika, Angliya va Irlandiya adabiyotining muayyan darajadagi ta'sirida bo'ldi. Nasr, nazm, dramaturgiya rivojlandi. Qit'a aboriginlarining hayoti va xalq og'zaki ijodiga e'tibor berildi, ular qayta baholandi. Shu bilan birga, sekin-asta Avstraliya adabiyoti o'z ovozigacha ega bo'lishga talpindi. Yozuvchi Patrik Uayt 1973-yilda adabiyot bo'yicha Nobel mukofotiga munosib deb topildi. Kristofer Kox, Geyl Parter singari nosirlar ijodida avstraliyacha shakl va mazmun yaqqol aks etdi.

Natal'ya Krofts bugungi Avstraliya adabiyotida rus va ingliz til-larida ijod qiluvchi zamondosh ijodkorlar sirasiga kiradi. 1976-yilda Ukrainada tug'ilgan. Moskva davlat (Rossiya) va Oksford (Angliya) universitetlarining mumtoz filologiya fakultetini tamomlagan. Sidney (Avstraliya)da yashaydi. Yozuvchi, shoir, tarjimon. U ilg'or tafakkurli zamonaviy ijodkorlar vakili bo'lib, dunyo kezadi (60 dan ortiq mamakatlarda yashagan), turfa xalqlar adabiyoti bilan yaqindan tanishadi, ular haqida maqolalar, suhbatlar uyushtiradi. Ijodkor 2013-yilda O'zbekistonga ham tashrif buyuradi. Yozuvchi va adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam bilan "Bepoyon olam" nomli suhbat

“Zvezda Vostoka” jurnalida e’lon qilinadi⁵¹. Suhbatda Avstraliya adabiyoti, uning ko’zga ko’ringan vakillari haqida so’z yuritib N. Krofts: “Ingliz tilidagi adabiyot bilan qiziquvchilar Piter Keri, Nobel sohibi Patrik Uayt, shoir Genri Lousonni yaxshi bilishadi, yaqinda nomi chiqqan Aravinda Adiguning “Oq yo’lbars”i menga juda manzur. Avstraliyadagi rus adabiyoti esa, 1911–1912-yillarda, qit’aga K. Balmont, A. Usov, S. Alimovlar kelgandan boshlangan. Ulardan faqat oxirgisi bu yerda qoldi” deydi, bundan ham Avstraliya adabiyoti ko’plab millatlarning sintez adabiyoti ekani ayon bo’ladi.

Endi kashf qilinganda, Avstraliya qit’asi Angliya jinoyatchilari surgun qilinadigan joy bo’lib xizmat qilgan. Vaqtlar o’tib esa, bu yerga kelganlarning ko’pchiligi Angliyaga qaytib ketishmay, Avstraliyani o’z vatanlari deb bilishdi. Adabiyot shaklan ingliz va irland adabiyoti ta’sirida bo’lsa-da, Avstraliya qit’asi voqeligini aks ettirdi.

Okeaniya mamlakatlari adabiyoti

Katta-kichik minglab orollardan tarkib topgan Okeaniya mamlakatlari hisoblanmish Malayziya, Indoneziya va Singapurning o’ziga xos tarixi, adabiyoti mavjud. Bu davlatlarning chor tomoni ochiq dengizlar bilan qurshalgan bo’lib, hozirgi kunda jahon e’tiborini o’ziga tortadigan darajada (asosan, Ikkinchi jahon urushidan keyin) taraqqiy topib bormoqda. Ammo o’tmishda bu mamlakatlar ko’plab urushlarni, to’qnashuvlarni, xunrezliklarni boshidan kechirganki, ularning hammasi ularning tarixi va adabiyotida u yoki bu darajada aks etgan. Geografik joylashuviga ko’ra, Hindiston va Xitoyga yaqin bo’lganliklari uchun ham adabiyotda hind va xitoy xalqlarining dunyoqarashi va adabiyoti ta’sirini ko’rish mumkin.

Malayziya adabiyoti. Yozuv kirib kelishdan oldin Malayziyada hind dostonlari ta’siridagi xalq og’zaki ijodi rivoj topgan edi. XV – XVI asrlarda Okeaniya orollariga islom dinining kelishi bilan esa, bu yerlarda ham arab alifbosi asosidagi yozuv paydo bo’ldi va

⁵¹ Мир без границ. – Ташкент: Звезда Востока, 2013.

vaziyat o'zgardi. Taxt tepasiga kelgan har bir sulton xalq og'zaki ijodiga yo'g'rilgan o'z adabiy an'anasini yaratishga urindi. "Sultonlar sulolasi" ("Sulalatus salatin"), "Rajit Pasay tarixi" ("Hikaya Rajit Pasay") XV asrda yozilgan deb qaraladi. "Hang Tuah tarixi" ("Hikaya Hang Tuah") deb nomlangan davrining mashhur asarida sultonga sadoqatli jangchi Hang Tuah hayoti va jasoratlari hikoya qilinadi. Qahramonliklari tufayli Hang Tuah ismini hozirgacha unutilmagan. Hatto zamonaviy yozuvchilar bu ismni o'z asarlarida yodga olib turishadi.

Qator qissalar, jumladan, "Abdulloh qissasi" asari (1849) muallifi Munshiy Abdulloh (1796–1854) malay adabiyotining otasi sanaladi. XX asrda ro'y bergan olamshumul o'zgarishlar Malayziya adabiyoti janrlarini yangilab yubordi. Nazm, nasr, dramaturgiya, esse kabi janrlarda ko'p asarlar yozgan Usmon Avang zamonaviy malay adabiyotining asoschisi, deb e'tirof etiladi. Anvar Ridvan, Rahimiddin Zohiriy, Abdussamad Said, Muhammad Hoji Solih kabi ijodkorlar hozirgi malay adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyandaligidir.

1971-yildan e'tiboran malay tilida yaratilayotgan adabiyot uch guruhga ajratilib qaraladigan bo'ldi: 1. Malayziya milliy adabiyoti. 2. Mintaqaviy adabiyot (mamlakatdagi boshqa tillardagi adabiyot). 3. Yasama adabiyot (yot tillardagi adabiyot).

XX asrda xitoy tilidagi adabiyotning mavqei ko'tarilib, hindiy tilidagisi birmuncha tushdi. Ingliz tili esa, Malayziyada umumiy adabiy til bo'lib qoldi.

Indoneziya adabiyoti. Indonez xalqining adabiyoti XIX asr oxiri, XX asr boshlarida vujudga kelgan, yangi adabiyot hisoblanadi. Adabiyotning ibtidosi bu yerda ham xalq og'zaki ijodidir. Indoneziya o'z mustaqilligini 1945-yilda qo'lga kiritgan. O'sha vaqtdan buyon indonez tilidan tashqari, xitoy, golland kabi tillarda ham badiiy asarlar yozildi hamda indonez xalqi muammolarini jahonga, o'z navbatida, jahon adabiyotini indonezlarga tanitishda katta ahamiyat kasb etdi.

Amir Hamzah, Sitor Situmoran, Hayril Anvar kabilar indonez xalqining zabardast shoirlaridan sanaladi. 1945-yilgi inqilob xalq tarixida ulkan rol o'ynadi. Davr adabiy oqimi "45-yil avlodi" degan nom bilan tarixda qoldi. Oqimni shoir va tarjimon Hayril Anvar boshqargan. U asarlarida xalq tili shevalaridan unumli foydalangan va indonez tili mavqeini yuksaltirgan.

Indoneziya yozuvchisi Marah Ruslining (1889–1968) tarixiy "Sitti Nurbaya" romani (1922) shoir va tarjimon Abdulhamid Par-dayev tomonidan o'zbekchaga o'girilgan va chop etilgan.

Singapur adabiyoti. Singapur ham ana shu mingorollarda joylashgan, jadal rivojlanib borayotgan Okeaniya mamlakatidan biri bo'lib, adabiyoti dunyodagi eng yosh adabiyotlardan hisoblanadi. Shuning uchun ham Singapur milliy adabiyoti deb atalishga munosib adabiyot hali oldinda. Siril Vong, Eng I-Shen, Elvin Pang kabilar Singapurning taniqli ijodkorlaridan. Elvin Pang Singapur adabiyoti antologiyasini tayyorlab, nashr qilgan. Antologiyalardan biri "Tima-sik" deb ataladi va Singapurda adabiyot ixlosmandlari orasida shuhrat qozongan. Sinnatambi Rajaratnam (1915–2006) ning "Yo'lbars" hikoyasi o'zbek tiliga tarjima qilinib, "Jahon adabiyoti" jurnalida e'lon qilingan.⁵²

Afrika adabiyoti

Afrika qit'asidagi ko'plab mamlakatlarning o'ziga xos, ayni paytda, bir-biriga o'xshash hamda noo'xshash og'zaki va yozma adabiyotlari mavjud. Afrika qit'asida joylashgan Misr mamlakati adabiyoti o'zining qadimiyligi jihatidan shumer, xitoy, hind, yunon adabiyotlari bilan bir qatorda turadi. Zamonaviy Misr adabiyoti ham dunyo o'quvchilari e'tiborini o'ziga jalb qila bilgan. Uning bag'rida Najib Mahfuzdek Nobel mukofoti sovrindorlari yetishib chiqqan. Lekin Afrikada Misrdan boshqa yana o'nlab mamlakatlar mavjud bo'lib, quyida asosan shular haqida so'z yuritiladi.

⁵² Мир без границ. – Ташкент: Звезда Востока, 2013.

Avvalo shuni aytish joizki, Afrika mamlakatlari adabiyoti Ovrupa adabiyotidan o'zining asosiy qismi og'zaki adabiyot bo'lishi bilan farqlanib turadi. Yana Ovrupa adabiyotida shakl va mazmun bir-biridan keskin ajraladi. Afrika adabiyotida esa, ularni bir-biridan ajratish mahol. Ifodaning go'zalligiga shakl go'zalligi uchun emas, balki tinglovchini ko'proq jalb qilish, dialog uchun ahamiyat beriladi.

Xalq og'zaki adabiyoti. Afrikada istiqomat qilayotgan hamma xalqlarning xalq og'zaki adabiyoti mavjud. Janrlari har xil: ertak, mif, qo'shiq, topishmoq, masal (va h.k.) lar ham nasrda, ham nazmda ifoda qilinadi. JAR, Gambi, Zimbaba, Beninda janrlar boy, Nubiy, Jibut va Janubiy Sudanda o'ziga xoslik nihoyatda kuchli. Folklor asarlarini professional darajada mahorat bilan kuylovchi oqinlar bor.

Afrika xalq og'zaki ijodining qadimiy janri – bu hayvonlar haqidagi ertaklar bo'lib, aksariyat hollarda quyon, toshbaqa va o'rgimchak ayyor qahramon rolini bajaradi. Bu ertaklarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ularda axloqiylashtirish yo'q. Ammo yaqin asrlarga qadar Afrika og'zaki adabiyoti namunalari yozib olinmagan. Ilk yozib olish XVII-XVIII asrlarga to'g'ri keladi. Bu paytda Afrika koloniyaga aylantirilayotgan edi, yozib olish ham kolonizatorlar tomonidan amalga oshirilgan. Og'zaki adabiyotning yirik namunalari qatoriga eposlar kiradi. Maliga oid "Silamaka va Pullori Fulba", "Sundyata Mandingo", Markaziy Afrikaga oid "Mvindo Nyanga haqida rivoyat", Sudanga oid epik poetik bitiklar bor.

Yozma adabiyot. Yozma adabiyot ilk bor Afrikaning shimolida paydo bo'ldi. Qadimiy yozma adabiy yodgorliklar Misrga tegishli bo'lib, m.a. 3000-yillikka borib taqaladi. Bundan tashqari, adabiy matnlar yunon, lotin va finik tillarida yaratilgan. Keyingi yozma adabiyotda arab adabiyoti ta'siri kuchli bo'lganini qayd etish kerak. Ko'plab Afrika mamlakatlarida yozma adabiyot XX asrda, ular o'z mustaqilligini e'lon qilgandan so'ng paydo bo'ldi, deyish mumkin. Misr adabiyotidan tashqari yozma adabiyot Efiopiyada IV-VII asrlar oralig'ida paydo bo'lgan Aksum podshohligi davrida yaratilgan. Yana Mali va Madagaskarda ham qadimiy adabiy matnlar bor. Sudan

“Sennar xronikasi” va “Tabakat” deb nomlangan qadimiy lug‘atlarga ega. XII asrda asos solingan Tombuktudagi universitet adabiyotning yirik markazi bo‘lgan. Shimoliy Afrikada, xususan, Mali, Chad, Sudanda adabiyot arab-islom madaniyatining bir qismi sifatida rivojlangan. Tanzani va Madagaskarda arab yozuvi qo‘llanilgan.

Zamonaviy adabiyot. Zamonaviy Afrika adabiyoti mustamlaka davrida, kontinentga Ovrupa tillari va lotin alifbosi kirib kelishi bilan shakllana boshladi. Masalan, JARda lotin alifbosi XIX asrdan beri mahalliy tillarda yaratilgan matnlarni yozishda ishlatila boshlandi. Yozuvning keng tarqalishini ta‘minlagan asosiy kuch nasroniylik bo‘ldi. Missionerlar Injil va boshqa muqaddas matnlarni Afrika mahalliy tillariga tarjima qila boshladi. Lekin ko‘pgina mamlakatlarda o‘z milliy adabiyotining paydo bo‘lishi XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Hatto Reyunon orolida mahalliy tilda ilk asarlar 1990-yillarda yozildi.

Kanada adabiyoti

Kanadada ikki – ingliz va fransuz tillari davlat tili hisoblanadi. Shuning uchun ham Kanada adabiyoti ikki katta – ingliz Kanadasi va fransuz Kanadasi adabiyotiga bo‘linadi. Ayni paytda, keyingi vaqtlarda xalqaro immigratsiyaning ko‘payishi hisobiga adabiy rang-baranglik ham ko‘zga tashlanmoqda. Shuningdek, Kanadaning tubjoy aholisining o‘z adabiyoti ham bor. XVIII asrgacha Kanada adabiyotida tubjoyga mansub hindu, inuit va eskimoslarning og‘zaki ijodi, dunyo va koinotning yaralishi haqidagi afsonalari, an‘anaviy folklor qo‘shiqlari mavjud bo‘lgan. XVI-XVII asrlar mobaynida fransuz va ingliz mustamlakachilarining Kanadaga kirib kelishi bilan Kanada adabiyoti yangi davrga qadam qo‘ydi. Shu davrdan e‘tiboran, asarlar fransuz va ingliz mumtoz adabiyoti an‘analari ta‘sirida yozila boshladi. Ya‘ni shaklan ovrupacha, mazmunan esa Kanada voqeligi ifodalangan asarlar paydo bo‘ldi. Demak, Kanada adabiyoti har jihatdan, jumladan, mavzular diapazoni jihatidan ham kengayib, teranlashib bordi.

XIX asr fransuz Kanadasi nazmi taraqqiyotida Kvebek va Monreal deb atalgan romantik yoʻnalishdagi sheʼriyat maktablari muhim rol oʻynadi. Emil Nelligan, Deni Garno, Gyustav Freshett, Fransua Kasave, Sharl Jil, Alber Lazo singari shoirlar oʻz ijodlarida avvalgi taqlidchilikdan xalos boʻlib, oʻz yoʻllarini topishga urinishdi. “Millat shoiri” deb tan olingan Oktav Kremazi sheʼriy merosi fransuz Kanadasi adabiyotining yorqin sahifasi hisoblanadi. Bu shoir oʻz sheʼrlarida shaxsiy hissiyotlarni ifoda qilishdan ham koʻra jamiyat va millat tafakkurini uygʻotishga, inson orzu-xayollarini aks ettirishga harakat qildi. U 1862-yili “Kanada oqshomlari” nomli ilk adabiy jurnalni nashr qilib, unda oʻz davri ijodkorlarining asarlaridan parchalar berib bordi. Shunga qaramay, bu davrda nasrda voqea boʻlgulik asarlar yaratilmadi. Chunki jamiyatda hali-hanuz cherkovning taʼsiri kuchli boʻlib, ruhoniylar asarlar yozish va chop etishga tish-tirnoqlari bilan qarshilik qilib kelishardi. A.Emmonning oddiy fransuzlar hayotidan hikoya qiluvchi “Mariya Shapdelen” romanini aytmaganda, tadqiqotchilar mazkur davrni “yoʻqotilgan imkoniyatlar va yozilmagan kitoblar davri”, deyishadi.

Ingliz Kanadasi adabiyotida maʼrifatparvarlik gʻoyalari yetakchilik qiladi. Shuningdek, mustabidlikka qarshi kurash, Ontario kengliklari, inson va tabiat mavzulari baland pardalarda kuylanadi. Tomas Xambertonning “Soatsoz”i Kanada adabiyotida yaratilgan ilk mashhur va yetuk asar hisoblanadi. Adibning yana “Attashe” degan esse yoʻlida yozilgan asari ham bor boʻlib, bularda jamiyatdagi muammolar tanqid ostiga olinadi. Shuning uchun ham Tomas Xambertonni “satira otasi” deb nomlashadi. Chunonchi, adib Sem obrazi orqali ayrimlarga xos boʻlgan manmanlik, tovlamachilik, firibgarlik, oddiy odamlarga nisbatan bepisandlik kabi illatlarni ochib tashlaydi. Xambertonning “Soatsoz”i Amerika, Angliya, Fransiya, Olmoniya kabi mamlakatlarda qayta-qayta chop etiladi. Asar keyinchalik jahonning yana qator tillariga tarjima qilinadi. Opa-singil Katrina Treytl va Syuzanna Mudi hikoyalarida esa Kanadaning injiq tabiati, qahraton sovuqlarda ovrupaliklarning hayot uchun

kurashi, tubjoylik hindu-inuitlar bilan munosabatlari aks ettiriladi. Ingliz Kanadasi adabiyotining ko'zga ko'ringan yana bir vakili J. Richardsondir. Ijodkorning "Tekulis – G'arb kurashchisi" poemasi, "Vakusta", "Kanadada sakkiz yil", "Tugallanmagan 1812-yil urushi" romanlarida kanadalik hindularning amerikalik bosqinchilarga qarshi kurashlari aks ettirilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelganda Kanada adabiyotida alohida kayfiyat paydo bo'ladi. Har ikki adabiyot – franko-kanada va anglo-kanada ijodkorlari asarlarida milliylik uchun kurash, o'zlikni yagona millat sifatida anglash, go'zal Kanada tabiatini, vatanparvarlikni kuylash ustuvor mavqe kasb etadi. Bu davrga kelib, ingliz Kanadasi she'riyatida Charlz Mer, Aleksandr Maklachlan, Izabella Krounford, Bliss Karmen, Charlz Robertson kabi shoirlar alohida e'tibor qozonishadi. Archibald Lampmen Kanada tabiati kuychisi sifatida o'z davrining eng iqtidorli shoiri, deb e'tirof etiladi. Asl hinducha ismi Texaki Onveyk bo'lgan Pomena Jonson poemalari va she'rlarida qadim hindular qo'shiqlariga jo qiligan erk va ozodlik haqidagi orzu armonlar, ona tabiat manzaralari baland pardalarda kuylanadi.

XX asr Kanada adabiyotida yanada o'zgacha mavzular yuzaga keladi. Xususan, kanadalik inglizlar va kanadalik fransuzlarning ziddiyatli munosabatlari, qarama-qarshiliklari, fermerlarning, qishloq hayotining qiyinchiliklari, tabiat injiqliklari mavzulari qalamga olinadi. Xyu Maklenan, Fridrix Fillip Grov, Jak Godbu, Timoti Findley, Ryujan Dyusharm asarlarida mana shu mavzular har tomonlama keng va teran yoritib berilgan.

Adabiyotshunoslar tomonidan Robertson Devisning "Deptfor trilogiyasi" XX asr Kanada adabiyotining eng mukammal asari, deb e'tirof etiladi. TIFF (Timoti Irvin Frederik) ning "Urushlar" romani Kanada general-gubernatorining Oliy mukofotiga noil bo'lgan. Kanada yozuvchilari asarlari asosida badiiy filmlar yaratiladi. Chunnonchi, Maykl Ondatjening "Angliyalik patsient" filmi "Oskar" mukofoti bilan taqdirlanadi. Bularning hammasi bir bo'lib esa, Kanada adabiyotining jahonga tanilishiga olib keladi.

Poeziya ham bu davrda gullab yashnadi. Margaret Etvud, Fillis Vebb, Gvedolin Mak Yuin kabi zamonaviy shoirlar o'ziga xos mavzu va uslubiy rang-baranglik bilan elga, yurtga, dunyoga tanildilar. Adabiyotda har xil tajribalar amalga oshirildi. Chunonchi, Jo Rozenblat she'r shaklida, Leonard Koen esa dunyoni badiiy-estetik qabul qilish va aks ettirishda syurrealistik eksperimentlar o'tkazdi.

Bu vaqtga kelib, adabiyotning millat taqdiridagi ahamiyatiga e'tibor qaratgan Kanada hukumati bu borada qator xayrli ishlarga qo'l urdi. Jumladan, odamlarning badiiy-estetik ongini shakllantirishga yo'naltirilgan dasturlar ishlab chiqilib, jamiyatga tatbiq etildi. Masalan, hukumatning "She'riyat tarbiyasi" dasturi 7-12 yoshli bolalarning badiiy ijodga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, mamlakatdagi mash'hur shoirlarni boshlang'ich va o'rta maktablarga biriktirib qo'yildi. Natijada, shoirlar ustoz maqomida turib, murg'ak qalb va onglarga she'riyatning sehrli olamidani saboq berdilar. Navbatdagi bosqichda esa talabalar, hukumat idoralari va boshqa ko'plab sohalar xodimlarining adabiyotga qiziqishlarini oshirish, ularda estetik tuyg'uni tarbiyalash uchun yozuvchi va shoirlar ishtirokidagi domiy tadbirlar o'tkazildi. Bundan tashqari, 1990-yillarda "Kanada shoirlari ligasi" tashkil etilib, adabiyotga bag'ishlangan festivallar, tanlovlar uyushtiriladi, bolalar va kattalar ijodidan namunalar saylanib, nashr qilinadi, butun mamlakat bo'ylab targ'ibot ishlari olib boriladi. Mazkur liganing muhim vazifalardan yana biri shu ediki, u chet mamlakatlarda Kanada yozuvchilarining kitob yarmarkalarini tashkil etadi hamda dunyodagi e'tiborli adabiyot markazlariga Kanada ijodkorlarining yangi asarlari haqida axborot tarqatadi. Bunday sa'y-harakatlar o'z mevasini berdi: 2013-yilda 82 yoshli yozuvchi Elis Manro ("Zamonaviy hikoyalar ustasi") adabiyot bo'yicha Nobel mukofotiga loyiq deb topildi va bu xabar Kanada adabiyoti shuhratini jahonga yoydi.

Bugungi kunda ko'pmillatli mamlakatda Kanada yozuvchilar uyushmasi, Kanada she'riyat assotsiatsiyasi, Shoirlar ligasi, Kanada mualliflar assotsiatsiyasi, Yozuvchilar bolalar uchun, Kanada san'ati

konfederatsiyasi kabi tashkilotlar faoliyat yuritib, Kanada adabiyotining rivojiga xizmat qilib kelmoqda.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Nima uchun Avstraliya, Okeaniya, Afrika va Kanada kabi mamlakatlar adabiyoti o'rganilishi kerak?
2. Avstraliya adabiyotining umumiy manzarasi haqida tushuncha bering.
3. Okeaniya mamlakatlari adabiyotining o'tmishi va bugungi holi haqida so'zlang.
4. Afrika mamlakatlari adabiyotining Ovrupa adabiyotidan qaysi jihatlariga ko'ra ajralib turadi?
5. Kanada adabiyoti qaysi xalqlar adabiyotidan tashkil topgan va ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Adabiyotlar:

1. Internet materiallari: [www. Vikipediya](http://www.Vikipediya).
2. Jahon adabiyoti. 2014, № 1; 2014, № 8.
3. Hamdam U. Ruhni uyg'otguvchi so'z. (Avstraliya yozuvchisi Natalya Krofts bilan suhbat). – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.

REJA:

1. AQSH adabiyoti:
 - a) T.Drayzer ijodi;
 - b) U.Folkner ijodi;
 - c) E. Xeminguey ijodi;
 - d) R.Ellison, J.Selinjer, U.Stayron ijodi.
2. Lotin Amerikasi adabiyoti:
 - a) X.Borxes ijodi;
 - b) P. Neruda ijodi;
 - c) X.Kortasar ijodi;
 - d) G.Markes ijodi;
 - e) P.Koelo ijodi.

Tayanch soʻz va iboralar: T.Drayzer: "Amerika fojiasi"; U.Folkner; E.Xeminguey: "yoʻqotilgan avlod", "Chol va dengiz", J.Selinjer, R. Ellison, U.Stayron, X.Borxes, P.Neruda, X.Kortasar, G.Markes: "Yolgʻizlikning yuz yili", "maftunkor realizm", P.Koelo: "Alkimyogar".

AQSH adabiyoti

XX asr Gʻarb adabiyoti ikki asosiy bosqichni bosib oʻtdi. Birinchi bosqich imperializmning soʻnggi davrlariga mos keladi. Bu asrning birinchi yarmi, aniqrogʻi 1945-yilgacha boʻlgan davri boʻlib, ilm-fanning rivojlanishi natijasida madaniyatning yangi shakllari – radio va kinematograf paydo boʻldi. Ikkinchi bosqich – 1945-yildan keyingi davr boʻlib, burjua jamiyatida chuqur qayta qurilishlar sodir boʻldi: radikal demokratiyaning zamonaviy tizimlari paydo boʻldi, "isteʼmolchilar jamiyati" shakllandi, jahon iqtisodiyotida globallashish jarayonlari jadallashdi.

XX asrda adabiy jarayon ham tezlashdi, ko'plab yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi, dabdabali murojaatnomalar qabul qilindi, yangi maktablar paydo bo'ldi.

XX asr Amerika adabiyoti boy, rang-barang, shu bilan birga, ziddiyatli va murakkabdir. Dunyodagi eng yosh adabiyotlardan biri bo'lgan AQSH adabiyotining tarixi 400 yildan oshmaydi. Ushbu holat bu adabiyotni o'ziga xos tarzda rivojlanishiga ta'sirini o'tkazdi. Ovrupa adabiyotiga nisbatan XIX asrda ancha ortda qolish va XX asrda jadal sur'atda rivojlanish, romantizm maktabining kech rivoj topishi va realizmning jadal rivojlanishi Amerika adabiyotigagina xos xususiyatlardir

XX asrning birinchi yarmida AQSH adabiyotida katta umumlashmalarga intilish kuchaydi, buni T.Drayzerning "Amerika fojiasi" romani misolida kuzatish mumkin. Tanqidiy realizm yo'nalishida G.Spenser falsafiy qarashlarining ta'siri sezilarli ekanligi ko'zga tashlandi. Spenser evolutionsizmining ta'siri T.Drayzerning "Istak trilogiyasi" va J.Londonning bir qancha asarlarida o'z aksini topdi.

AQSH adabiyotida novella janri XIX asrdagi mavqeyini yo'qotdi. Uning o'rnini realistik roman egalladi. Shu bilan birga, bir qator yozuvchilar faqat novella janrida ijod qildi. Shunday yozuvchilardan biri O.Genri (Uilyam Sidni Porter) edi. U Amerika adabiyotida "happy end"ning asoschisi bo'ldi va novella janrining yangi yo'nalishini belgilab berdi.

1900-yili T.Drayzerning "Baxtiqaro Kerri" romani nashrdan chiqdi. Yozuvchining bu yillarda yaratilgan boshqa romanlari kabi ushbu asar ham naturalizm ta'sirida edi. "Yo'qotilgan avlod" yozuvchilari (E.Xeminguey, F.S.Fitjerald, G.Stayn, J.Steynbek) yaqin bo'lgan naturalizm bilan bir vaqtda Amerikaga Ovrupa modernizmi ham kirib keldi, bu yo'nalishning vakillari qatoriga Tomas Eliotni kiritish mumkin. U Birinchi jahon urushi davrida adabiyotda yangi she'riy yo'nalishni ochdi. Shoirning 1917-yilda chop etilgan "Alfred Prufrokning sevgi qo'shig'i" to'plami modernizmning manifesti sifatida e'tirof etildi.

Yigirmanchi yillardan boshlab hikoya tanqidchilar tomonidan Amerika adabiyotiga xos janr sifatida qabul qilina boshlandi, uning rivojlanishida jurnallarning ahamiyati beqiyos bo'ldi.

XX asrda o'nta amerikalik yozuvchi adabiyot sohasidagi Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. 1918-yildan boshlab Nyu-Yorkda, "kat-ta adabiyotdagi" eng nufuzli mukofotlardan biriga aylangan badiiy kitob uchun Pulitser mukofoti topshirib kelinmoqda.

Bolalar adabiyoti rivojlanishda davom etdi. Bolalar adabiyotining klassigi L.Frenk Baumning asarlari butun dunyoda nashr ettirildi. Detektiv janrida ijod qilgan adiblardan Deshil Xammet, Reymond Chandler, Jeyms Keynlarning asarlari mashhur bo'ldi. 1949-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan U.Folkner, XX asrning birinchi yarmida ijod qilgan AQSHning eng yirik yozuvchilaridan biri edi.

50-yillar adabiyotida Jerom Selinjerning "Javdardagi tik jarlik us-tida" romani alohida o'ringa ega. 1951-yili chop etilgan bu asar, ay-niqsa yoshlar o'rtasida mashhur bo'ldi. Kitoblarda ilgari taqiqlangan mavzular ko'tarib chiqila boshlandi (taniqli shoira Elizabet Bishop, yozuvchi Trumen Kapote). 50-yillar AQSH dramaturgiyasida Artur Miller va Tennessi Uilyamlarning pyesalari ajralib turgan bo'lsa, 60-yillarda Edvard Olbining pyesalari ("Zooparkdagi hodisa", "Bes-si Smitning o'limi", "Kim Virjiniya Vulfdan qo'rqadi?", "Barchasi bog'da") teatr sahnalaridan tushmadi.

Amerika adabiyotidagi rang-baranglik bir yo'nalishni ikkin-chi yo'nalish tomonidan to'liq siqib chiqarishga yo'l qo'ymaydi, 50–60-yillarda barakali ijod qilgan Jek Keruak, Lourens Ferlingetti, Gregori Korso, Allen Ginzberglar o'rnini, postmodernizm vakillari (masalan, Pol Olster, Tomas Pinchon) egalladilar. Keyingi yillarda postmodernchi adib Don Delilloning asarlari mashhur bo'ldi.

AQSHda ilmiy fantastika (bu yo'nalishning birinchi to'lqini va-killari Edgar Rays, Berrouz, Myurrey Leynster, Edmond Gamilton, Genri Katter asarlarida asosan kosmosga yetib borgan ilk sayyohlarn-ing sarguzashtlari haqida hikoya qilingan), asr o'rtalariga kelib murakkabroq fantastika ustunlik qila boshladi. Amerikalik fantast-yozuvchilar Rey Bredberi, Robert Xaylayn, Frenk Xerbert, Ayzek

Azimov, Andre Norton, Klifford Saymak, Robert Sheklilarning nomi butun dunyoga ma'lum. XX asrning ikkinchi yarmidan esa fentezi adabiyoti keng rivojlandi. Amerika fentezisining gullab-yashnashi 1930-yillarda Robert Govardning ijodi bilan boshlandi. XX asrning ikkinchi yarmida bu janr Rodjer Jelyazni, Pol Uilyam Anderson, Ursula Le Guin kabi yozuvchilar tomonidan rivojlantirildi. Fentezi yo'nalishining XXI asrdagi eng taniqli vakili Jorj R.R.Martin bo'lib, u xayolida yaratgan o'rta asrlar haqidagi "Taxtlar o'yini" kvazirealistik tarixiy romanining muallifi.

XX asrning so'nggi choragi – jahon adabiyoti tarixida yetarli darajada murakkab davr: bir tomondan ko'plab yozuvchilar bizning zamondoshlarimiz bo'lib, adabiy oqim "guruchni kurmakdan" ajratgani yo'q, qaysi asarlar adabiyotning oltin fondiga kiradi, qay birlari "o'tkinchi" bo'lib, tez orada unutilib ketadi, buni vaqt sinovdan o'tkazadi.

Teodor Drayzer (1871–1945). Drayzer ijodi – XX asrning birinchi yarmi Amerika adabiyoti va tanqidiy realizmning cho'qqisidir. Drayzer AQSH hayotidagi fojiaiviylikni ko'rsata olgan yirik san'atkordir.

Amerikaning mashhur yozuvchisi Folkner "rus adabiyoti Gogolning "Shinelidan" chiqqani kabi, bizlarning barchamiz ham Drayzerning romanlaridan chiqqanmiz. Bizlarning barchamiz – bu uning o'zi ham, Folkner ham, Fitjerald, Xeminguey ham...", – deb aytgan edi.

Drayzer Indiana shtatidagi kichik bir joyda kambag'al ishchi oilasida tug'ildi. Qashshoqlik yoshlikdan bo'lg'usi yozuvchini mehnat qilishga majbur etdi. U ish qidirib Chikagoga boradi, restoranda idish-tovoq yuvadi, tovar stansiyasida nazoratchi bo'lib ishlaydi, kir yuvish ustaxonasida mexaniklik qiladi. 1883-yilda Drayzer Indiana universitetiga kirib, bir yil o'qidi. O'qish vaqtida buyuk rus adibi Lev Tolstoy ijodi bilan tanishadi. Uning asarlari yosh Drayzerga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bilimga tashna Drayzer o'sha vaqtda keng tarqalgan Gerbert Spenser falsafasini qiziqib o'rgandi. Spenser "xalqning og'ir ah-

voliga hukumat ham, jamiyat ham aybdor emas. Bunga hayotning biologik qonunlari aybdor”, degan g‘oyani ilgari suradi. Uning qarashlari Drayzerni ijtimoiy voqealarni biologik qonunlar asosida tasvirlashga, turmushni noto‘g‘ri talqin etishga olib boradi.

Drayzer muxbir bo‘lib Chikago, Nyu-York kabi shaharlarda ishlay boshlaydi. Xalqning og‘ir ahvoli bilan tanishadi. Lekin Spenser qarashlarining asossizligini tushunib yetmaydi. Dastlabki hikoyalari-dagi umidsizlik kayfiyatlari, turmushni to‘g‘ri anglamaslik oqibatida kelib chiqadi.

Drayzer XIX asrning 90-yillarida Nyu-Yorkda yashab, turli jurnallarda muharrirlik qiladi, maqola va ocherklar yozadi. Xalqning ahvoli bilan yaqindan tanishishi uning kelajakdagi ijodiga ko‘plab ma‘lumotlar to‘plashiga xizmat qildi. Adibning ijodi 1900-yildan boshlandi, shu yili uning birinchi romani “Baxtiqaro Kerri” bosmadan chiqdi va juda qattiq tanqidga uchradi. Faqat 1911-yilda Drayzerning ikkinchi romani “Jenni Gerxard”, shundan so‘ng ketma-ket “Moliyachi”, “Titan”, “Daho” romanlari yuzaga keladi. Birinchi jahon urushidan so‘ng, 20-yillar o‘rtasida ikki jildli “Amerika fojiasi” nashrdan chiqqach, adib yirik tanqidiy realist sifatida butun dunyoga taniladi.

Drayzer ijodining birinchi davrida (1900–1917) yirik realistik asarlar yozish bilan bir qatorda, Spenser falsafasiga berilishi unda ziddiyatli fikrlar tug‘ilishiga va yangi xulosalar chiqarishga olib bordi.

“Baxtiqaro Kerri” (1900) romanining qahramoni kambag‘al fermer qizi Karolina Miberni oilada erkalatib «jajji Kerri» deb atashadi. Kerri esli-xushli bo‘lsa ham, lekin hayotiy tajribasi yo‘q, yoshlik orzulari bilan yashovchi ko‘rgan narsalaridan tegishli xulosalar chiqarishga zaif edi. Xudbinlik uning tabiatiga “monand” bo‘lib, u bilimga emas, balki ne‘matlarga intilar edi. Kerrining chekka qishloqdan Chikagodagi opasinikiga borishi ham shular oqibatidadir.

Asarning asosiy g‘oyasi Amerikada barcha uchun barobar imkoniyatlar mavjud, degan soxta tasavvurni fosh etishda ko‘rinadi. Kerrining orzu-istaklari kapitalistik illatlar avj olgan shaharda

amalgam oshishi qiyin edi. U sarson-sargardonlikda haftalab ish axtaradi. Poyabzal fabrikasidan oddiy ish topib, og'ir sharoitda ishlay boshlaydi. Lekin ko'p o'tmay kasalga chalilib ishga bormagach, ishdan bo'shatiladi. Opasining uyida yashashga imkoniyat topa olmay, uyiga qaytishni ma'qul ko'rmay, boshqalarga "beg'araz" yordam ko'rsata boshlaydi. Dastlab Kerri savdo firmasining xizmatchisi, olifta yigit Charlz Druening yaxshi kiyinishi va chiroyli gaplariga uchadi. So'ngra bu "oshiq"ning o'rnini mayxona boshqaruvchisi, puldor va oilali Gerstvod egallaydi. Kerri Drueni tashlab, Gerstvod bilan Nyu-Yorkka qochib ketadi. Gerstvod asta-sekin bor boyligidan ajralib, ishsiz qoladi. Butun kunni sadaqa beriladigan non navbatlarida o'tkazadi. Kerri esa faqat o'zini o'ylab, uni ham tashlab ketadi va teatrga ishga kiradi. Og'ir ahvolda qolgan Gerstvod gazdan zaharlanib o'ladi, Kerri esa o'sha muhitga moslashib oladi. Yozuvchi Kerrining muvaffaqiyatga erishishini tasodifiy hol, Amerikada dollarning halokatli ta'siri natijasi, deb ko'rsatadi.

"Baxtiqaro Kerri" romanining qimmatli kapitalistik jamiyatdagi xalq ommasining og'ir turmush sharoiti, Kerrining yuztuban ketishi evaziga ko'tarilishi, burjua Gerstvod oilasidagi munofiqlik, boy kvartal Brodveydagi dabdabali hayot, tramvay ishchilarining ish tashlashlari tasviri, ishsizlik natijasida ko'chaga chiqarib tashlangan son-sanoqsiz kambag'allarning och-yalang'och tentirab yurishlarining haqqoniy aks ettirilishida ochiq ko'rinadi.

«Jenni Gerxard» (1911) romanida ham kambag'al oiladan chiqqan qizning burjua jamiyatidagi fojiasi ko'rsatilgan. Asarning g'oyaviy yo'nalishi oddiy qizning axloqiy pokizaligi, uning buzilgan burjua axloqiga qarshi qo'yilishida namoyon bo'ladi. Romaning asosiy sujet yo'li ishchi qizi Jennining fojiasi, u bilan millionerning o'g'li Lester Keyn o'rtasidagi sevgi tarixida ochiq ko'rinadi. Kambag'al Jenni boy yigit Keyn o'rtasidagi sevgi tarixida shu manzara namoyon bo'ladiki, o'sha jamiyat urf-odatlarini, ijtimoiy adolatsizliklar, bu yoshlarning tabiiy sevgilariga to'sqinlik qiladi va oxir-oqibatda ular turmush qurolmaydi.

Drayzer oddiy qizning odobi, vafodorligi, qalbining musaffoligini ko'rsatish orqali xalqning kuch-qudratiga ishonchini ifodalaydi. Jenni o'zining eng yaqin kishilari – otasi-onasi, qizi Vesta, nihoyat sevgan kishisi, Lesterdan ajraladi. Lekin bunday og'ir yo'qotishlar uni umidsizlikka tushirmaydi. U yetim bolalarni asrab oladi va bundan keyingi hayotini ularning tarbiyasiga bag'ishlaydi.

Drayzerning «Amerika fojiasi» (1925) asari Birinchi jahon urushidan so'ng yozilgan monumental ikki tomli romandir. Asarning bosh qahramoni burjua-meshchan oilasidan chiqqan-bola Klayd Grifitsdir. Klayd burjua jamiyatiga xos yuzsizlik, boyish yo'lida har qanday vositalardan foydalanish kabi yaramas illatlarni o'zlashtira boradi. U tushgan mashina bir qizni bosib ketgach, Klayd bu yerni tashlab, boy amakisi yashaydigan shaharga boradi va uning fabrikasida ishga joylashadi. Bu yerda u qishloqdan kelib, xizmat qilayotgan kambag'al qiz Roberta Olden bilan tanishadi va unga uylanmoqchi bo'ladi. Lekin boylikka, mavqega erishish maqsadida u badavlat oiladan bo'lgan Sondra Finchlini olishga intiladi. Klaydning aybi bilan Roberta halok bo'lgach, sud jarayonida fojiali voqeaning siri ochiladi va u o'lim jazosiga mahkum qilinadi.

Romanda Klayd Grifitsda tug'ilgan xudbinlik Amerika burjua jamiyati va uning zo'ravonlikka asoslangan vahshiy qonun-qoidalarining oqibati ekani ko'rsatiladi. Undagi individualistik hirs Roberta Olden, shuningdek, Sondra Finchliga bo'lgan munosabatda ham ko'zga tashlanib turadi. Sondra yosh va chiroyli qiz, lekin Klaydni uning go'zalligi emas, balki boyligi qiziqtiradi. Burjua dunyosining axloqi, boylikka sig'inish kishining tabiiy his-tuyg'ularini barbod etadi. Bu narsa oddiy amerikalik yigit Klayd shaxsiyatida ochiq ko'rinadi.

Amerikacha orzu mehnat qilishga undovchi omil emas, qotillikka yetaklovchi omilga aylanadi. Romanda Drayzer uch bora vaziyatni takrorlaydi:

1. Klaydning o'zi.
2. (Klayd tomonidan o'ldirilgan) Roberta – fabrika xo'jayini-ning jiyan bo'lgan Klayd orqali yuqoriga ko'tarilmoqchi bo'ladi.

Bunda yozuvchi vaziyatni soddalashtirishga harakat qilmaydi: Klayd Sondrani sevadi, shu bilan birga unga uylanish yuqoriga ko'tarilishga yordam beradi, Klaydni sevuvchi Roberta ham xuddi shunday holatga tushadi.

3. Prokuror Meysonning tarixi. U yuqoriga ko'tarilish qay darajada murakkab ekanini biladi. U ayblovchi hukm chiqarishdan manfaatdor, chunki bunga erishsa shtat prokurorligiga nomzodini qo'yishi mumkin. Meyson Klaydning hal qiluvchi zarbani bermaganligini, bevosita jinoiy harakat qilmaganini bilsa-da, yordamchisiga dalillarni qalbakilashtirishga xalaqit qilmaydi.

Klayd obrazi Drayzer ilgari yaratgan Kerri, Kauervud va Vitli obrazlariga o'xshamaydi. Ular kabi favqulodda kuchga ega bo'lgan qudratli shaxslardan ham emas, balki oddiy amerikalikdir. Voqealar tasvirida ham o'zgarish bor. Ilgarigi asarlarida ijtimoiy omillar bilan birga, biologik omillar ma'lum darajada o'rin egallagan edi. Bu romanda esa, ijtimoiy voqealarning mohiyati to'g'ri talqin etiladi va real ko'rsatiladi.

"Amerika fojiasi" voqelikning keng qamrab olishi, ko'tarilgan g'oya va tanqidiy fikrning chuqurligi, badiiy mahoratning yuksakligi bilan jahon adabiyotining eng yaxshi realistik asarlari qatoridan joy oladi. Yozuvchining "Istak tri'logiyasi" Amerika adabiyotida tanqidiy realizmning eng yaxshi namunasidir. Kaupervard Balzak yaratgan pulga uch, yuzsiz, oltin asosiga qurilgan dunyoning bosqinchilikdan iborat xarakterini aks etgan tipik obrazni eslatadi.

Uilyam Folkner (1897–1962). XX asr AQSH adabiyotining yirik namoyandalaridan biri. U "Nurafshon avgust", "Shovqin va qahr", "Shahar", "Qo'rg'on", "Qishloq", "Ayiqlik", "Xoku turobni bulg'ovchi", "Sahro", "O'lim to'shagida", "Sartoris", "Avessalom, Avessalom", "Rohibaga marsiya", "Hikoyalar majmuasi" singari jahonga mashhur asarlar muallifi.

"Rivoyat", "O'g'rilar" romanlariga Amerikaning "Pulitzer" mukofoti berilgan. 1950-yilda uning asarlari Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Folkner dunyoning o'ziga xos, betakror, eng keskin uslubli adiblaridan biri. U inson fojialarini eng yuksak gumanizm nuqtai

nazaridan yorita oldi. XIX–XX asr Amerika hayoti, tarixi realliklarini, tang vaziyatlarni haqqoniy, qiziqarli tasvirlaydi. O‘ziga xos “tang” uslubda yozadi. Uning barcha asarlari, ularning voqealari, qahramonlari o‘zaro chambarchas bog‘lanib ketadi. Va yaxlit san‘at diyori gavdalanadi. Realizm, naturalizm, modernizm uning asarlarida yorqin, ta’sirchan adabiy-badiiy hodisa kabi hayratga soladi. Agar Xemingueyning tashqi ko‘rinishi, fe‘l-atvori, adabiyotdagi uslubi modaga kirgan bo‘lsa, Folkner Amerika va jahon adabiyotiga real chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Xeminguey jahon urushlari (Birinchi va Ikkinchi), turli mamlakatlar va odamlar haqida yozgan bo‘lsa, Folkner o‘zining aksariyat asarlarida AQSHning Mississipi shtatining Yoknapatof okrugi haqida yozdi.

Umuman olganda, mazkur okrug AQSHning agrar hududi bo‘lib, bu yerda sanoat, ishlab chiqarish munosabatlari yetarli darajada rivojlanmagan, irqiy munosabatlarda muammolar yetarli darajada. Tabiiy rivojlanish to‘xtatilganda, hatto odamlar xotirasida ham ko‘p narsalar yo‘q bo‘lib ketadi, tarix afsonaga aylanadi.

Bu afsona hozirga qadar yashab keladi. Adabiyot u bilan chambarchas bog‘liq. Bu afsona janubliklarga o‘z ma’naviy mustaqilligini saqlab qolishga yordam beradi. AQSHda hozir regional adabiyot deyarli yo‘q, garchi Gottornni Yangi Angliyasiz, Mark Tvernni esa Yovvoyi G‘arbsiz tasavvur qilish qiyin bo‘lsa ham. Shuningdek, janubiy romanchilik maktabi haqida ham gapiriladi. Bu janubliklar yo‘qolib ketmaganliklaridan dalolat beradi. Folkner bu afsonaning mohiyatini juda aniq, yorqin bo‘yoqlarda aks ettiradi.

Adibning 1924-yili nashr ettirilgan “Marmar favn” she’riy to‘plami muvaffaqiyat keltirmadi. 1925-yili u taniqli yozuvchi Shervud Anderson bilan tanishdi, aynan u Folknerga she’riyat bilan emas, nasr bilan shug‘ullanishni, o‘zi yaxshi bilan Janub va janubliklar haqida yozishni maslahat beradi. 1926-yili uning “Askar mukofoti” romani chop ettirildi. Adib urushdan qaytib kelib, tinch hayotga moslasha olmagan, jismoniy va ruhiy majruh kishilarning fojiasini tasvirlaydi. 1927-yili “Moskitlar”, 1929-yili esa “Sartoris”, “Shovqin va qahr” romanlari e‘lon qilindi. Shundan keyin Folkner

o‘zini to‘liq adabiyotga bag‘ishlashga qaror qildi. Zo‘ravonlik va qotillikka bag‘ishlangan “Ibodatxona” (1931) romani katta shovshuvga sabab bo‘ldi.

30-yillarda Folkner gotika uslubida “O‘lim to‘shagida”, “Sartoris”, “Avessalom, Avessalom” romanlarini yozdi. 1942-yili yozuvchi o‘zining eng mashhur qissalaridan biri “Ayiqlar”ni chop ettirdi. 1948-yilda rasizm muammosi bilan bog‘liq, muhim ijtimoiy romani “Xoku turobni bulg‘ovchi” yozdi. 40–50 yillarda yozuvchining Janublik zodagonlarning fojiali taqdiriga bag‘ishlangan “Shahar”, “Qo‘rg‘on”, “Qishloq” romanlaridan iborat eng yaxshi trilogiyasi nashrdan chiqdi. 1949-yili Folkner zamonaviy roman janrini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi.

I.G‘ofurov “Uosh”, “Emili uchun atirgullar”, “Qora musiqa”, “To‘zonli sentyabr”, “O‘t qo‘yuvchi”, “Qorong‘i tushganda”, “Alvon yaproqlar”, “Karkasson” hikoyalarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan

Ernest Xeminguey(1899–1961). XX asr tengdoshi bo‘lgan Ernest Xeminguey davrning asosiy voqealariga guvoh bo‘ldi. U o‘z davri va o‘zi bilgan odamlar haqida yozdi, yozganda ham haqqoniy, aniq, hayron qolarli darajada lo‘nda, sodda va teran yozdi. Uning mahorati ham aynan shunda edi. Hayotlik paytidayoq u Amerika klassigi sifatida tan olingan edi.

“Yozuvchining vazifasi o‘zgarmasdir, – deydi Xeminguey. – Uning o‘zi o‘zgarishi mumkin, biroq vazifasi muqimligicha qoladi. Ya’ni haqqoniy yozish kerak va haqiqatni anglagach, uni shunday bayon qilish kerakki, u o‘quvchining ongiga o‘z tajribasining ajralmas qismi sifatida singsin”⁵³.

Ernest Xeminguey Ouk-Park shahrida shifokor oilasida tug‘iladi. U maktabni bitirgandan so‘ng, kichik bir gazetada ishlaydi. Ovrupaga boradi: avval Fransiyada, keyin Italiyada joylashgan Amerika sanitar qismlarida turib, Birinchi jahon urushida qatnashadi. Urushdan so‘ng u Amerika gazetalarining muxbiri sifatida o‘z mamlakatiga qaytib, Florida sohillarida istiqomat qiladi.

⁵³ Хемингуэй Э. Писатель и война: Речь на 2 Конгрессе американских писателей // Писатели США о литературе: В 2-х т. – М., 1982. – С. 90.

Xeminguey Ispaniya respublikachilarining fashist fitnachilariga qarshi olib borgan kurashlarida faol qatnashgan va bu haqda ko'p asarlar yozgan, Ikkinchi jahon urush yillarida aviatsiya qismlarida muxbir bo'lib ishlagan. Ittifoqchilar armiyasining Fransiya bostirib kirishlarida ishtirok etgan.

Xeminguey ijodining boshlanishi Birinchi jahon urushidan keyingi yillarga to'g'ri keladi. « Bizning zamonda» (1925) kitobiga kirgan hikoyalarida yozuvchi, birinchidan asarning lirik qahramoni Nik Adamsning yoshligi, o'smirlik yillari, sevgisi va oilasi haqida hikoya qilsa, ikkinchidan tinch hayot haqidagi xayollarga qonli urush voqealarini qarama-qarshi qo'yadi. Individualistik xarakterda bo'lsa ham, asarda urushga qarshi qahramonning noroziligi bayon etiladi.

Imperializm keltirib chiqargan bosqinchilik urushlarini nafratlashga bag'ishlangan «Alvido, qurol!» (1929) romani yozuvchi ijodida muhim bosqichni tashkil etadi. Asarda Birinchi jahon urushi yillarida Avstriya frontida ro'y bergan voqealar hikoya qilinadi. Sanitar xizmati leytenanti amerikalik Genri urushning butun dahshatlari – ocharchilik, ifloslik, o'zaro qon to'kish va son-sanoqsiz begunoh kishilarning o'lib ketayotganligini ko'rib, urush haqidagi fikrlarining puch xayoldan iborat ekanini biladi va umidsizlikka beriladi. Italyan soldat, ofitserlari bilan samimiy suhbat va aloqalar uni milliy xudbinlik va mag'rurlikdan xoli qiladi. Shuning uchun leytenant Genri urushdan yuz o'girib, qurolini tashlab, betaraf mamlakat – Shveytsariya o'tib ketadi. Yozuvchi urush qabohatlariga shaxsiy hayotni qarshi qo'yadi. Genri Ketrin Berkliga bo'lgan sevgisi bilan urush dahshatlaridan ham tashqi, dunyo mashaqqatlaridan ham qutulishga intiladi. Lekin u shaxsiy hayot va muhabbatdan ham baxt topa olmaydi. Ketrin tug'ruqxonada o'lganidan so'ng Genri butunlay umidsizlikka tushib qoladi. «Alvido, qurol!» romanida Birinchi jahon urushi va umuman urush qoralanadi. Biroq unda bayon etilgan norozilik shaxsiy yo'sindadir.

Bu kitobning muallifi, – deb yozadi Xeminguey asar boshida, – ongli suratda shu fikrga keldiki, urushlarda jang qilayotgan odamlar

dunyodagi eng ajoyib odamlardir, frontning qizg'in janglar olib borayotgan qismlariga kirib borganing sari bunday ajoyib kishilarga ko'proq duch kela boshlaysan. Lekin urushni boshlaganlar, uning oloviga yana olov tashlab turganlar, iqtisodiy raqobatdan, foyda undirishdan boshqa narsani o'ylamaydigan to'ng'izlardir... Men urush olovini yoqqanlar ... otib tashlanmog'i zarur, deb hisoblayman.

Xemingueyning 30-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan asarlarida u, tashqi dunyoga munosabatida ziddiyatli va individualist ijodkorligicha qoladi. O'sha yillari ocherk shaklida yozgan "Tushdan keyingi o'lim" (1932) kitobida o'lim mavzusi yana ham ochiq ko'rinadi. Asarda buqalar jangi va unga bog'liq qoidalar batafsil beriladi. Buqalarni o'ldiruvchi matadorlar yoki matadorlarni halok etuvchi buqalar, otlarning yorilib ketgan qornidan otilib chiqayotgan qonlar fojia ustiga fojia va, ayniqsa, jarohatlangan odamning o'limi oldidan kechirgan azoblari umidsizlik ruhida tasvirlanadi.

"Afrikaning yashil tepaliklari"da (1935) ham yuqoridagi kitobiga xos bo'lgan o'lim masalasi ko'tariladi. Agar "Tushdan keyingi o'lim" matador bilan buqa o'rtasidagi olishuvda ikkalasidan birini halok etishi bilan tugasa, bunda ovchi haqida gapiriladi va, albatta, voqea ovchining g'alabasi hamda hayvonning o'limi bilan yakunlanadi.

Yolg'izlik, umidsizlik yozuvchining boshqa hikoyalarida ham aks etadi. Masalan, "Toza va yorug' joyda" (1936) kitobi qahramoni kecha va qorong'ulikdan vahimaga tushadi, uning uchun yagona makon toza va yorug' mayxona bo'lib qoladi. 30-yillarning o'rtalarida Xeminguey ijtimoiy voqealarga murojaat qiladi. Shu davrga xos romani "Hayot yoki mamot" (1937) qahramoni Garri Morgan o'z oilasini boqish yo'lida tinmay ishlaydi Garri yashashga bo'lgan tabiiy ehtiyojini qondirish maqsadida burjua jamiyatining vahshiylikka asoslangan qonunlariga tayanib o'zini ham ayamaydi, boshqalarga ham shafqat qilmaydi. Hatto odam o'ldirishgacha borib yetadi. U faqat o'zining shaxsiy kuchiga ishonadi. Kuba anarxistlari bilan to'qnash kelgan va jarohatlangan Garri Morgan o'limi oldidan, "yolg'iz odam hech narsa qila olmaydi", — degan fikrga keladi. Qah-

ramonning fojiali halokati yozuvchidagi individualistik qarashlarning samarasizligini ko'rsatadi.

“Daryoning narigi tomonidagi daraxtlar soyasida” (1950) asarida ijtimoiy hayotdan chetda turuvchi yakka qahramon paydo bo'ladi. Bu ikki urushda qatnashgan amerikalik polkovnik Richard Kentuell-dir. Asar qahramoniga xos narsa shuki, u hamma vaqt o'lim xayoli bilan yashaydi, bu esa qissaning g'amgin ruhini ko'rsatadi.

Xeminguey so'nggi «Chol va dengiz» (1952) qissasi uchun Nobel mukofotini olgan. Asar qahramoni kubalik qari Santyago baliq oviga chiqqaniga ancha kunlar bo'lsa ham, lekin ishi yurishmaydi. Uning yelkaniga “ko'p yamoq tushgan” qayiqqa qanday qilib ham baliq ilinsin. Santyago kekxa bo'lsa ham, lekin o'zi tetik. Shuning uchun yozuvchi bu odam “taslim bo'lmaydi” – deb uqtiradi.

Chol to'riga katta baliq tushganida cheksiz quvonadi. “Baliq, – deb chaqirdi u sekingina, – o'lsam o'lamanki, sendan ajralmayman». Chol butun kuch g'ayratini ishga solib, baliq bilan olishadi va uni yengadi. “Uning: “Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni bo'ysundirish mumkin emas”, degan so'zlari inson qudratiga yozuvchining cheksiz ishonchini ko'rsatadi.

Santyago uchun umidsizlik gunohdir. Kitobxon ko'zi o'ngida mag'lubiyatni bilmaydigan, irodali inson timsolida namoyon bo'ladi. Santyago shu jihatdan yozuvchining oldingi asarlari qahramonlaridan farq qiladi. Uni qirg'oqda kutib olgan bola navbatdagi baliq ovida chol bilan birga borishni va undan ko'p narsa o'rganish zarurligini aytadiki, bu – Santyagoning yolg'iz emasligiga ishoradir. Xemingueyning har qanday hikoyasini tahlil qilish-murakkab vazifa. Hatto juda nozik did bilan yondoshilganda ham asarning yaxlitligini, emotsional ta'sirini buzib yuborish mumkin. Bu ma'noda Xeminguey asarlariga A.Qahhor hikoyalari yaqin turadi. Ularning asarlarida muallif ohang(intonatsiya)i va tagma'no muhim. Hikoyalarda qahramonlarning kayfiyati va his-tuyg'ularidagi nozik o'zgarishlar ifodalanadi. Ular haqida to'g'ridan-to'g'ri aytilmaydi, voqealar bayoni yo'q, yozuvchi ular haqida hikoya qilmaydi, u qahramon hayotining qaysidir bir lahzasini tasvirlaydi, go'yo muhim

bo‘lmagan detallarini eslatadi, ammo bularning barchasidan olam va vaqt obrazini barpo qiladi.

Matnda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanmagan, biroq detallar va replikalardan, ohangdan, bayon qilishning muomalasidan tushunarli bo‘ladigan tagma’no muhim ahamiyatga ega. Xeminguey badiiy usulining bu o‘ziga xos ko‘rinishi “aysberg prinsipi” nomini olgan. Barcha narsalar haqida qisqa, aniq, lo‘nda aytiladi, biroq tagma’noning tubida ko‘p narsalar yashiringan: azob-uqubat, umidsizlik, ishonch, befarqlik.

“Yomg‘irda qolgan mushuk” hikoyasi ixcham bo‘lib, atigi uch sahifadan iborat. Hikoyada tashqi hodisalarning kamligi diqqatni tortadi. Ko‘rinib turibdiki, gap ularda emas, balki qahramonlarning kayfiyatidagi harakat va o‘zgarishlarda, nozik ruhiy tafovutlarni ifodalashida. Bayonning siqqligi, tavsifning lo‘ndaligi oxirgi chegaraga yetkazilgan. Hikoyada ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya va yechim mavjud. Asarning har bir tarkibiy qismi uchun atigi ikki-uch ibora ishlatilgan. “Otelda amerikaliklardan faqatgina ikki kishi bor edi. Ular o‘z xonalariga ko‘tarilayotganda zinapoyada uchraganlarning hech birini tanimas edilar”. Hikoya mana shu ikki ibora bilan boshlanadi. Ular vatanidan yiroqda bo‘lgan insonning yolg‘izligini his qilgan, turmush o‘rtog‘i bilan ajralish arafasida bo‘lgan, o‘z uyining taftini sog‘ingan ayol haqidagi hikoyaning ekspozitsiyasi bo‘lib xizmat qiladi. Hikoyaning ikki asosiy qahramoni o‘rtasidagi begonalashuvlik ortib boradi.

Tugun ham lo‘nda va qisqa: “Amerikalik ayol deraza oldida turib bog‘ni kuzatardi. Xona derazalarining shundoqqina ostida, yomg‘ir suvlari tomchilab turgan yashil skameyka ostida bir mushuk yashirinib olgandi.

– Men pastga tushib miyovxonni olib kelaman, – dedi amerikalik ayol. Mushukni samarasiz qidirishlardan keyin, vestibulda ketayotib va unga ta‘zim qilgan mehmonxona xo‘jayinini chetlab o‘tib, ayol “ichida nimadir beixtiyor yumaloqlanib junjikib ketgandek bo‘ldi”. Mana shu qisqa ibora – hikoyaning kulminatsiyasi. Bundan keyingilari ilgari jilovlanib kelingan his-tuyg‘ularning qo‘qqisidan

yuzaga chiqqan oqimidir. Ayol o'z orzulari haqida uni tinglamayotgan va tinglashni ham istamayotgan, uning gapini bor yo'g'i ikki marta luqma tashlab, noaniq g'o'ldirab, jim bo'lib kitob o'qish haqidagi maslahat bilan bo'lgan odamga gapiradi. Jorjga berilgan oxirgi savol javobsiz qoladi: "Agar uzun soch mumkin bo'lmasa, hech bo'lmaganda vaqtni ko'ngilli o'tkazish uchun mushuk mumkindir?" – "Jorj eshitmasdi. U kitob o'qiyotgandi".

Hikoyaning yechimi – xonada "katta olachipor mushukni" bag'riga bosgan oqsochning paydo bo'lishi va uning "Buni padrone sinoraga berib yubordi" degan so'zlari.

Hikoyada an'anaviy portret chizgilari yo'q. Ayolning tashqi ko'rinishi haqida erining bir necha gapidan: "Sen bugun juda chiroyli" – va boshini ko'tarib uning "o'g'il bolalarnikiga o'xshash sochlari kalta qirqilgan gardanini ko'rdi" tasavvur qilish mumkin xolos. Boshqa hech narsa deyilmagan. Hatto ismi ham berilmagan. U shunchaki amerikalik ayol.

"Yomg'irda qolgan mushuk" sarlavhasi poetikasida katta ma'no yotadi. Xonadon tafti va shinamligining ramzi bo'lgan mushuk yomg'irda qoladi. Ayolning mushukka va o'ziga rahmi keladi.

Xemingueyning birinchi kitobiga kirgan boshqa hikoyalari kabi "Yomg'irda qolgan mushuk" ham urushni ko'rgan, uning asoratlari his qilib turgan insonlarga bag'ishlangan. Yozuvchi, adabiy tanqidchi, adabiyotshunos **Ralf Uoldo Ellison (1914–1994)** – o'zining yagona yakuniga yetkazilgan "Ko'rinmas odam" (1952) romani bilan nom qozondi. Bo'lajak yozuvchi AQSHning Oklaxoma shtatidagi Oklaxoma-Siti shahrida tug'ildi.

1933-yili u Alabamadagi Taksigi universitetiga o'qishga kirdi. Bu yerda u modernistik adabiyot bilan jiddiy qiziqib qoldi. O'qishni tugatish uchun mablag' yetishmaganligi bois, uch yildan keyin o'qishni tashlab, Nyu-York shahriga keladi. Bu yerda u rassom Romare Barden va yozuvchi Richard Rayt bilan tanishadi. Rayt unga o'z kuchini yozuvchilikda sinab ko'rishni maslahat beradi va tez orada Ellison o'zining birinchi hikoyasi "Hymie's Bull"ni chop ettiradi. 1937–1944-yillarda u muntazam ravishda Nyu-York jurnallarida

hikoya va tanqidiy maqolalari bilan ishtirok etadi. 49-yillarning oxirlaridan Ellison “Ko‘rinmas odam” romani ustida ishlay boshladi.

Roman XX asrning 40-yillarida Nyu-York shahrida istiqomat qiluvchi, ismsiz afroamerikalikning nomidan yozilgan bo‘lib, tabulangan mavzularga ham to‘xtalib o‘tadi. Asar katta muvaffaqiyat qozondi hamda muallifga nufuzli “Milliy kitob” mukofoti topshirildi.

1955–1958-yillarda Ellison Ovrupada bo‘lib, bir necha muddat Rimda yashadi. Keyin u Qo‘shma shtatlarga qaytib, Bard shahridagi kollejda Amerika va rus adabiyotidan dars bera boshladi. 1964-yildan Rutger va Yel universitetlarida ishladi. 1964-yili uning “Ta’qib qil va harakat qil” (*Shadow And Act*), esselar to‘plami chop etildi. Bu yillarda Ellison tugatishga ulgurmagan “19-iyun” (*Juneteeth*) romani ustida ishladi. Uning yozishicha, roman qo‘lyozmasining asosiy qismi yozuvchining Massachusetts shtati Pleynfild shahridagi uyida 1967-yili sodir bo‘lgan yong‘in paytida nobud bo‘lgan.

1985-yili yozuvchining o‘n yettita essedan iborat “Hududga ketayotib” (*Going to the Territory*) to‘plami nashr ettirildi. To‘plamga mashhur yozuvchi Uilyam Folkner va yirik afroamerikalik ijodkor Richard Raytlar ijodi, shuningdek, afroamerikaliklarning AQSh madaniyatiga qo‘shgan hissasi tadqiq qilingan esselar ham kiritilgan. 1970-yili Ellison Fransiyaning san’at va adabiyot Ordeni bilan taqdirlandi va Nyu-York universiteti o‘qituvchilarining tarkibiga doimiy a’zo qilib tayinlandi.

Ellison 1994-yilning 16-aprelida vafot etdi. O‘limidan keyin uning chop etilmagan qo‘lyozmalari topildi. 1996-yili “Uyga uchib ketayotib va boshqa hikoyalar” (*Flying Home: And Other Stories*) kitobi, 1999-yili esa adibning professor Jon F.Kallaxan tahriri ostida 368 sahifadan iborat tugallanmagan “19-iyun” (*Juneteeth*) romani nashrdan chiqarildi.

Amerikalik yozuvchi **Jerom Devid Selinjer** (1919–2010)ning asarlari 1940-yillarning ikkinchi yarmi va 50-yillarda *The New Yorker* jurnalida nashr etila boshlandi.

Selinjer 1919-yilning 1-yanvarida Nyu-Yorkda yahudiy oilasida tavallud topdi. U 1936-yili Velli-Forj shahridagi harbiy bilim yurtini tamomladi. 1937-yili Jerom Nyu-York universitetida ma'ruzalar tingladi. 1939-yilda Kolumbiya universitetiga o'qishga kirdi va "Stori" jurnalining muharriri U.Bernettning qisqa hikoyalar haqidagi ma'ruzalarini tingladi.

Selinjer Manxettenda ulg'aydi va maktabda o'qib yurgan yillari hikoyalar yoza boshladi. Uning ilk asari bo'lgan "Yoshlar" hikoyasi Ikkinchi jahon urushidan oldin, 1940-yili "Stori" jurnalida chop etildi. 1941-yildan «The New Yorker» jurnali bilan hamkorlik qila boshladi va bir nechta hikoyalarini chop ettirdi. Urush boshlanganda ko'ngilli bo'lib frontga ketdi. 1944-yili serjant Selinjer Normandiya, Ardenna va Xyurtgendagi janglarda qatnashdi. Urushda u harbiy muxbir Ernest Xeminguey bilan uchrashdi. Frontda tutgan kundaligiga: "Men kerakli vaqtda kerakli joyda ekanligimni his qilmoqdaman, chunki bu yerda butun insoniyatning kelajagi uchun jang ketmoqda", deb yozib qo'ygan edi.

1948-yilda yozilgan "Bananka – balig'i yaxshi ovlanmoqda" hikoyasi uning birinchi jiddiy muvaffaqiyati bo'ldi.

1940-yillarni ikkinchi yarmida Selinjer Amerika novellistikasining eng mohir muallifi sifatida nom qozondi. Birinchi hikoyasi chop etilgandan o'n bir yil o'tgach, 1951-yilning 16-iyulida yozuvchining "Javdardagi tik jarlik ustida" romani bosmadan chiqdi va juda katta muvaffaqiyat qozondi, tanqidchilarning e'tiboriga tushdi. Yuqori sinf o'quvchilari va talaba yoshlarning bir necha avlodi asar qahramoni, voyaga yetayotgan Xolden Kolfildning bolalikdagi orzu-umidlari, tasavvurlarini birin-ketin yo'qolib borishini achinib, xayrixohlik bilan kuzatib bordi. Qisqa muddatda kitob 60 million nusxada sotildi va hozirgi vaqtda ham har yili 250 000 nusxada sotilmoqda.

Selinjer asarlarining aksariyat qahramonlari o'n yetti yoshgacha bo'lgan o'smir yoshlar. Biroq uni "bolalar" yozuvchisi deyish to'g'ri emas. Selinjer o'z asarlarida (birinchi navbatda "Javdardagi tik jarlik ustida" romani) o'smir-qahramonlarning ularni o'rab turgan "kattalarning" qabih va shafqatsiz dunyosiga qarama-qarshiligi

mavzusini ko'tarib chiqadi. Yozuvchi adabiyot vositalari yordamida intuitiv ravishda 1980–90-yillarda fransuz faylasuflari Jan-Lyuk Nansi va F.Laku-Labartlar “inkor qiluvchi, rad etuvchi” deb atagan subyektning obrazini yaratdi.

1965-yildan keyin yozuvchi o'z asarlarini chop ettirmay qo'ydi va uzlatda yashay boshladi. O'zining so'nggi intervyusini 1980-yili berdi. Hayotining so'nggi yillarida u tashqi olam bilan aloqani uzib, deyarli hech kim bilan muloqot qilmadi. Selinjer 2010-yilning 27-yanvarida 91 yoshda vafot etdi.

Amerika yozuvchisi **Uilyam Stayron** (1925–2006) adabiyot sohasidagi ko'plab mukofotlar, jumladan, Pulitser mukofoti (1968) sohibi, nosir, dramaturg, essenavis. Virginiya shtatida tug'ilgan Uilyam, Shimoliy Karolina shtatidagi Devidson kollejini tamomladi va Ikkinchi jahon urushi so'ngida harbiy xizmatda bo'ldi. Urushdan keyin Dyuk universitetida o'qib, 1947-yili ingliz tili bo'yicha bakalavr darajasini oldi.

Stayronning ilk romani “Zulmatga ket” 1951-yilda nashr etildi, unda o'z joniga qasd qilgan yosh ayol taqdiri, otasining tilidan bayon qilinadi. Asar tanqidchilar tomonidan ijobiy baholandi.

1967-yili nashrdan chiqqan “Nat Tyornerning iqrori” romani o'tkir bahs-munozara, tortishuvlarga sabab bo'ldi, yozuvchiga Pulitser mukofotini taqdim etdi. Asar qayta-qayta nashr qilindi, dunyoning yigirmadan ortiq tillariga tarjima qilindi. Roman asosida 1831-yilgi baptist-targ'ibotchi Nat Tyorner boshchiligidagi qora tanli qullarning isyoniga asoslangan tarixiy voqealar yotadi. Tyornerning o'limidan oldin istig'for keltirishi 50 ga yaqin oq tanli erkaklar, ayollar va bolalarning o'limiga sabab bo'lgan. Romanning bosh qahramoni diniy mutaassib odam sifatida tasvirlanadi. 18 yoshli oq tanli go'zal qiz Margaretni sevib qolgan Tyornerni shahvoniy his-tuyg'ular ta'qib qiladi. Qizni o'ldirgan ruhoniylar vijdon azobida qiy-naladi, o'zining to'g'ri yo'l tutganiga shubhalana boshlaydi.

Kitob chiqqandan keyin qora tanli yozuvchilar muallifni tanqid qilib, rasizmda aybladilar.

Stayronning keyingi yirik romani “Sofining tanlovi” (1979) ham shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, yahudiylar turlicha munosabat bildirdilar. Asarda natsizm azoblarini Osvensim konslagerida boshidan o‘tkazgan polshalik Sofi va yahudiy yigit Natanning sevgi fojiasi tasvirlanadi. Natan o‘z sevgilisini tirik qolgani uchun ayblaydi. 1983-yili roman asosida badiiy film yaratilib, bosh rol ijrochisi “Oskar” mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Yozuvchining o‘n yil davomida yozilgan so‘nggi romani “Jangchining yo‘li” o‘limidan keyin 2010-yili nashrdan chiqdi. Stayron 2006-yilning 1-noyabrda 81 yoshida vafot etdi.

Lotin Amerikasi adabiyoti

XX asrning ikkinchi yarmi jahon adabiyotiga yevrotsentrik madaniyat tamoyillari va me‘yorlaridan voz kechish xos bo‘ldi. Bu davrda o‘quvchilar e‘tibori aksariyat hollarda “eski” – Ovrupa adabiyotiga emas, balki “yangi” adabiyotlarga qaratildi. XX asr adabiyotini gvatemalalik M.A.Asturias, A.Karpanter, argentinalik X.L.Borxes, X.Kortasar, braziliyalik J.Amadu, meksikalik K.Fuentes, kolumbiyalik G.G.Markes, chililik P.Neruda nomlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

XX asr Lotin Amerikasi adabiyoti ham o‘ziga xos tarzda rivojlandi. 20–40 yillar adabiyotida realizm an‘analari keng ommalashdi. Kolumbiyalik X.E.Riveraning “Girdob” (1925), ekvadorlik X.Ikasaning “Uasipungo” (1934), venesuelalik R.Galegosaning “Donya Barbara” (1929) romanlari mashhur bo‘lib ketdi. 20-yillari iste’dodli chililik shoira Gabriela Mistral nomi adabiyot olamiga kirib keldi. O‘z she‘rlarida dehqon va hunarmandlar, to‘quvchi va o‘rmonchilarni kuylagan shoira 1945-yili adabiyot sohasidagi Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Lotin Amerikasi adabiyoti doimo rivojlanish, izlanish yo‘lidan bordi. U ma‘lum bir davrda Ovrupa adabiyoti an‘analari ta‘siridan ham bebahra qolmadi. Lekin Lotin Amerikasi adabiyoti namoyandalari asarlarida milliy ruh, folklor manbalari, har bir ijodkorning

individual uslubiga xos ravishda qayta ishlangan, sayqallangan er-tak, afsona unsurlari keng o'rin egallay boshladi. Bu yerda Lotin Amerikasi adabiyotiga katta ta'sir o'tkazgan ikki muhim manba – qachonlardir Afrikadan qul qilib olib kelingan qora tanlilarning adabiy merosi(kubalik N.Gilen, braziliyalik Jorji Amadu, puerto-rikalik Manuel del Kabaral ijodida yorqin namoyon bo'lgan) hamda hindularning qadim milliy an'analari (X.E.Riveraning "Girdob" ro-manida, O.Kirogi, A.Varela asarlarida) haqida bilish lozim bo'ladi.

Argentina, Chili, Braziliya singari mamlakatlarda yirik shahar-larning paydo bo'lishi, sanoatning rivojlanishi natijasida ushbu mamlakatlar adabiyotida urbanistik elementlar muhim rol o'ynay boshladi. Lotin Amerikasidagi sinfiy, milliy-ozodlik kurashi ushbu qit'a adabiyotining 20–40-yillardan boshlab ijtimoiy xarakter kasb etishini belgilab berdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda janubiy amerikaliklarda bashariyat taqdiri, dunyo madaniyati uchun mas'ullik hissi yanada yuqori darajaga ko'tarildi. Ushbu vaziyat san'at va madaniyatda ham o'z aksini topdi. 50–90-yillar Lotin Amerikasi nasri Asturias, Kartenter, Rulfo, Fuentes, Argades, Varges Losa, Garsiya Markes, Kortasar, Paolo Koelo nomlari bilan uzviy bog'liqdir. Ko'p yillar davomida hukm surgan naturalistik nasrga xos unsurlar – mahalliy muammolardan chetga chiqmaslik, etnografizm, faktografiya, bay-onchilik va publitsistikaga moyillikdan voz kechish birdaniga ro'y bermadi, albatta. Asta-sekin Lotin Amerikasi adiblarining ijodiy yutuqlari haqida Ovrupa, AQSH adabiyotshunoslari o'z fikrlarini bildi-ra boshladilar. 1967-yili adabiyot sohasidagi ulkan yutuqlari uchun Migel Anxel Asturias(1899–1974) Gvatemala adabiyotini dunyo miqyosiga olib chiqdi. Uning Lotin Amerikasi nasrida yangi davrni boshlab bergan "Janob Prezident" romani ko'p yillar ilgari yozila boshlangan bo'lsa-da, faqat 1946-yili nashr etildi. Hech qanday ism-siz janob Prezident nafaqat Gvatemalaning sobiq diktatori, balki Lo-tin Amerikasi diktatorlarining ramziy obrazi sanaladi.

Yana bir taniqli adib Alexo Karpanter (1904–1980) romanlari-dagi voqealar turli tarixiy davrlarda nafaqat Lotin Amerikasi, balki

Ovrupada ham bo‘lib o‘tadi. Kubalik adibning “Yo‘qotilgan izlar”, “Ma‘rifatparvarlik asri”, “Barokko konserti” singari asarlarida faqat Karpanterga xos o‘zgacha uslub yorqin namoyon bo‘ladi (epitet, aniqlovchi, mufassal tasvirlarga boy bo‘lgan murakkab gap qurilmalaridan keng foydalanish). Asturias va Karpanter XX asr ikkinchi yarmi Lotin Amerikasi adabiyotidagi o‘ziga xos oqim – “maftunkor realizm”ning darg‘alaridan hisoblanadi. “Maftunkor realizm” uchun boy mifologik meros, o‘ziga xos tabiiyligini saqlab qolgan tabiat manzaralari tasvir obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Shu o‘rinda har ikki adib ham hayotining ma‘lum bir qismini Ovrupada o‘tkazgani, u yerdagi turli adabiy yo‘nalishlar, xususan syurrealizm ta‘siridan bebahra qolmaganini ham ta‘kidlash lozim bo‘ladi.

Braziliyalik adib Paolo Koelo (1944-yilda tug‘ilgan)ning 1990-yilda nashr etilgan “Alkimyogar” romani hozirgacha dunyoning 120 ga yaqin mamlakatida chop etildi. Romanda insonning umri mobaynida amalga oshiradigan ishlari nimalardan iborat, o‘z taqdiri yo‘lidan borib, ko‘nglidagi orzu-umidlarni amalga oshirish uchun nima zarur degan falsafiy, mohiyatan esa, oddiy insoniy masalalar haqida fikr yuritiladi. Bosh qahramoni 16–17 yoshlardagi cho‘pon yigit bo‘lgan ushbu asarda realizm, sarguzasht, mistika, detektiv va didaktika an‘analari uyg‘unlashib ketgan.

Lotin Amerikasi adabiyotida oltmishinchi yillarda sodir bo‘lgan kuchli “portlash”(uning tub mohiyati tanqidchilar tomonidan turlicha baholanmoqda) ning aks-sadosi dunyodagi deyarli barcha adabiyotlarda o‘z aksini topdi.

Umuman, XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib Lotin Amerikasi adabiyoti betakrorligi va o‘ziga xosligi bilan jahon adabiy jarayonining muhim bir bo‘lagiga aylandi.

Argentinalik buyuk yozuvchi *X.L.Borxes (1899–1986)* hayotlik chog‘idayoq ko‘plab adabiy mukofotlar, faxriy unvonlar (Servantes va “Formentor” mukofotlari sovrindori, Britaniya imperiyasining “Buyuk xizmatlari uchun” va Ispaniyaning “Dono Alfons xochi” ordenlari sohibi, Italiya respublikasi Kommendatori, “Adabiyot va san‘at sohasidagi xizmatlari uchun” Faxriy legioni Komandori, Sor-

bonna, Oksford va Kolumbiya universitetlari “gonoris kauza” doktori)ga sazovor bo‘lgan.

Borxes Buenos-Ayres shahrida huquqshunos oilasida dunyoga keldi. Psixologiya professori bo‘lgan otasi o‘g‘lida yoshligidan inglizzabon adabiyotga mehr uyg‘ota oldi. Borxes 8 yoshida O.Uayldning «Baxtli shahzoda» asarini ingliz tilidan ispanchaga o‘girdi.

1914-yili betob otasi iste’foga chiqib, Borxeslar oilasi Shveytsariyaga ko‘chib o‘tgandan so‘ng bo‘lajak yozuvchi Jeneva litseyida ta’lim oldi. Bu yerda u Vergiliydan boshlab Kafka asarlarigacha o‘qib chiqdi, nemis ekspressionistlari ta’sirida ilk she’rlarini yozdi.

1919-yili yozuvchi oilasi bilan Ispaniyaga ko‘chib o‘tdi. 20-yillarda Borxes modernistlarning “Gretsiya”, “Kosmopolis”, “Ultra” jurnallarida she’rlarini chop ettirdi, neobarokko shoirlari guruhi bilan yaqinlashdi. Ushbu guruh a’zolari metaforani asosiy element sifatida qabul qilib, she’riyatning bosh maqsadi deb e’lon qilgan edilar. Ultrachilarning metaforalari deyarli vizual (ilg‘ab bo‘lmas) xarakterga ega bo‘lib, Borxesning 1921-yilda Argentinaga qaytib kelib chop ettirgan ilk she’riy to‘plamlarida o‘zining yorqin ifodasini topdi. («Buenos-Ayresga ehtiros(1923y), «Ro‘paradagi oy»(1925y), «San-Martin daftarchasi»(1929y)).

She’riyatda o‘z ovozi va o‘rnini topa olmagan Borxes nasriy asarlar yoza boshlaydi. Natijada 1925-yil «Tergovlar», 1915-yili «Umid makoni» va 1928-yili «Argentaliklar tili» esselar to‘plamlarini nashrdan chiqaradi. 1935-yili yozuvchining «Razillikning jahon tarixi» kitobi chop etiladi, shundan so‘ng «Abadiylik tarixi» (1936-yil), «Uydirmalar» (1944-yil), «Yangi tergovlar» (1952-yil), «Broudi xabari» (1970-yil), «Qush kitobi» (1975-yil) kabi kitoblari yozildi.

Prozaga o‘tgan Borxes mohiyatan shoirligicha qoldi. U ko‘p marta hikoyalarining “ommaviy poetik ta’siri” va “poetik g‘oyasi” haqida gapirib, asosiy e’tiborini uslubga emas, so‘zga qaratganligini, uni turli kontekstlarda qo‘llab, ma’nosini boyitganligini ta’kidlagan.

Rasman Borxes prozasining poetikasi postmodernizmga yaqinligi qayd etiladi. Yozuvchi asarlarining matn tuzilishida postmodern-

izm qonun-qoidalariga xos iqtiboslar, tasniflar, soʻz oʻyinlariga katta eʼtibor qaratganligini kuzatish mumkin.

Uning novellalariga fabula (voqea+zanjiri)ning kuchsizligi yoki, umuman, yoʻqligi xos boʻlib, adib boshlangʻich asos sifatida koʻpincha favquloddā toʻqnashuv yoki nogahoniy farazni qoʻllaydi, shunda u yoki bu holat, fakt, nuqtayi nazarning maʼno maydonini kengaytirish imkoniyati paydo boʻladi. Voqealar rivojini esa yechim yoki oxirgi nuqtaga olib bormaydi. Matndagi «men» – bu matn magʻzini chaqqanning «meni»dir.

Borxesning usuli, uni oʻqish strategiyasining asosiy tamoyili shundan iboratki, unga koʻra “xususiylikda umumiylikni” koʻra bilish kerak. Borxes oʻzini birinchi navbatda kitobxon deb atab, kitobxon-Borxes, yozuvchi-Borxesdan qiziqarliroq ekanini taʼkidlaydi. Yozuvchi uchun har doim “umumiy makon”ni, “xilma-xillikda bir xillikni” izlash muhim edi. Uni yagona til, cheksiz kitob, universal kutubxona maʼno chegarasining obrazi sifatida oʻziga jalb qilgan. “Xususiylikda umumiylikni”anglab yetish – “sening olamingni boshqa olamga daxldorligini” koʻzda tutadi. (Borxes uchun oʻlim nuqtasi – bu hayot nuqtasidir).

Olamni anglashga intilayotgan inson uchun bu qadamdan chetlashish, uni ortib boruvchi va shaffof boʻshliq labirintiga kirib qolib, kuzatuvchiga aylanib qolishga olib kelishi mumkin. Borxesda labirint (ayrilib, tarqalib ketuvchi soʻqmoqchalar bogʻi) dunyoning turgʻun obrazi sifatida talqin etiladi. Koʻplikdagi umumiy birlikning obrazli talqini sifatida qaysidir birlamchi nuqta xizmat qilishi mumkin, xatti-harakatlarimizda yaxlitlik mavjud boʻlsagina u maʼno kasb etadi («Alef»).

Alohida zavq-shavq bilan antologiya⁵⁴lar tuzgan Borxes doʻstlari bilan hamkorlikda quyidagilarni chop ettirdi: «Fantastik adabiyot antologiyasi» (1940-yil), «German adabiyoti antologiyasi» (1951-yil), «Qisqa va favqulodda voqealar» (1955-yil).

⁵⁴ Antologiya-turli mualliflarning saylanma asarlari, koʻpincha sheʼrlar toʻplami.

Ingliz tilidan tashqari nemis, fransuz, italyan, portugal, lotin, shved, qadimgi ingliz va qadimgi island tillarini bilgan Borxes Kipling, J. Joys, Folkner, V. Flor asarlarini tarjima qildi.

XX asrning buyuk yozuvchilaridan biri bo'lgan Xorxe Luis Borxes, zamonaviy adabiy jarayonga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

Nafaqat Chili xalqining, balki butun Janubiy Amerikaning yirik shoiri va jamoat arbobi, xalqaro Nobel mukofoti sovrindori **Pablo Neruda (Naftali Rikardo Reyes) (1904–1973)** Chili janubidagi Par-ral shaharchasida temir yo'l xizmatchisi oilasida tug'ildi. U yosh-ligidanoq she'rlar mashq qila boshlagan va dastlabki she'rlarini 20-yillarning boshlarida nashr ettirgan. Chex shoiri Yan Neruda she'riyatidan ruhlangan Rikardo Pablo Neruda taxallusi bilan ijod qila boshlagan. Shoir o'z ijodida G'arb she'riyati an'alaridan keng foydalandi va o'ziga xos uslub yaratdi. Shoirning o'zi ta'kidlagandek, "Gongorasiz Ruben Dario, Rembosiz Appoliner, Lamartinsiz Bodler bo'lmaganidek, ularning barchasisiz Pablo Neru-da bo'lmasligi mumkin edi".

1934-yildan Madridda diplomatik xizmatda bo'lgan P. Neruda is-pan xalqining fashist general Franko qo'shinlariga qarshi olib borgan kurashining guvohi bo'ldi. U respublika himoyachilariga katta xay-rixohlik bilan qaraydi. Chili hukumatining buyrug'i bilan 1937-yil-ning kuzida Ispaniyadan chiqib ketadi va "Qalbdagi Ispaniya" (1938) she'riy turkumini yaratadi. Fashistlarga nafrat bilan to'lgan bu asar tez orada ko'plab tillarga tarjima qilindi.

Shoir mazkur she'rlarida Ispaniyani qonga botirgan xoinlarni g'azab bilan la'natlash barobarida og'ir ahvolga tushib qolgan Ispaniya xalqi haqida qayg'uradi, ozodlikni sevuvchi mehnatkash-larning kelajagiga ishonch bilan qaraydi ("Nafrat", "Boylar aybi bi-lan kambag'allashgan Ispaniya", "Haqoratlangan zamin" she'rlari).

Ikkinchi jahon urushi vaqtida P. Neruda "Stalingradga muhab-bat qo'shig'i" (1942) va "Stalingradga yangi muhabbat qo'shig'i" (1943) dostonlarini yaratdi. Bu dostonlar nemis fashist bosqinchi-lariga qarshi qahramonona jang qilayotgan insonlarning madhiyasi bo'lib jaranglaydi.

Prezident Gonsalos Vidalaning xoinligini fosh etgan va politsiya ta'qibi ostida bo'lgan Pablo Nerudaning oddiy odamlarga bag'ishlab yozgan "Bashariyat qo'shig'i" (1950) epopeyasida Amerikaning eng qadimgi davridan tortib to hozirgi kungacha bo'lgan tarixi aks etgan.

Epopeya 15 bobdan iborat bo'lib, uning birinchi bobi ("Yer nuri") da Amerikaning tabiati – o'simliklar dunyosi, hayvonlari, qushlari, yer osti va yer usti boyliklari hamda bu yerda istiqomat qiluvchi qabilalar haqida hikoya qilinadi. "Istilochilar" deb atalgan uchinchi bobda Markaziy va Janubiy Amerikani zabt etib, xalqlarini qirib tashlagan va qul qilgan ispan fotihlari haqida gapiriladi. Epopeyaning to'rtinchi bobi – "Xaloskorlar"da chet el bosqinchilari zulmiga qarshi otlangan mahalliy xalqlarning ozodlik urushi tasvirlangan. Bunday kurashga Kuauteomon (Meksika), Lautro (Chili), Tupok Amaru (Peru) boshchilik qildilar.

Epopeyaning "Qochoq"(X), "Punitaka gullari" (XI), "Qo'shiq mavjlari" (XII), "Qayg'uli vatanga yangi yil madhiyasi" (XIII), "Buyuk ummon" (XIV) kabi so'nggi boblarda shoirning turli mam-lakatlardagi darbadar kezishlari, oddiy kishilar haqidagi taassurot-lari aks etgan.

"Bashariyat qo'shig'i" epopeyasi "O'zim haqimda"gi (XV) bob bilan tugaydi. Bu qismdagi she'rlarda ("Uy", "Yo'ldagi do'stlar", "Sayohatchi", "Uzoq yerlarda", "Urush", "Sevgi", "Meksika", "Qay-tish", "Hayot", "Men kelajakman") shoirning hayot mashaqqatlari haqidagi qarashlar ifodalanadi.

Neruda hayotining so'nggi 13 yili ijodiy kamolot yillari bo'ldi, deyish mumkin. Ushbu davr mobaynida shoir tomonidan yigirmaga yaqin she'riy to'plam yaratildi. 1967-yili XIX asr o'rtalarida Ka-liforniyada "oltin vasvasasi" davrida adolat uchun kurashgan, asli Chililik bo'lgan adolatparvar qaroqchi haqida "Xoakin Mureta-niing yulduzi va o'limi" deb ataluvchi she'riy dramasi paydo bo'ldi. Shoirning "Chili qushlar" (1966), "Osmon toshlari" (1970), "Qishki bog'" (1973), "Dengiz va qo'ng'iroq" (1973), "Sariq yurak" singari she'riy to'plamlarida erkin she'r imkoniyatlaridan keng foydalanil-gan.

Xulio Florensio Kortasar(1914–1984) Belgiyaning Bryussel shahrida tavallud topgan argentinalik yozuvchi. Uning yoshlik yillari Buenos-Ayres shahrida oʻtdi. Maktabni tamomlagach, Xulio poytaxtdagi universitetning adabiyot va falsafa fakultetiga oʻqishga kiradi, biroq mablagʻ yetishmaganligi sabab oʻqishni tashlab, yetti yil qishloq maktabida oʻqituvchilik qiladi. 1944-yili u Mendosa shahridagi universitetda ishlay boshladi. 1951-yili adabiy yoʻnalishdagi stipendiyani qoʻlga kiritib, Ovrupaga ketadi va uzoq yillar davomida YuNESKO tashkilotida tarjimonlik qilib, umrining oxirigacha Fransiyada yashadi.

Adabiy faoliyatini simvolist-shoir sifatida boshlab, 1938-yili ilk “Hozirlik” sheʼriy toʻplamini chop ettirdi. Butun umri davomida sheʼrlar yozgan boʻlsa-da, ularni nashrga bermagan. Yozuvchining birinchi “Ishgʻol qilingan uy” hikoyasi ustози Borxes tomonidan chiqariluvchi jurnalda 1946-yili chop ettirildi.

Kortasar ijodidagi alohida jihat shundaki, uning oʻzi tayyorlab nashrga topshirgan hikoyalar har gal har xil holatda nashr ettirilgan. Ular har gal qayta ishlangan, boyitilgan, sujet qobigʻida turli munosabat qavatları paydo boʻla borgan. Bu esa uning asarlari haqidagi adabiy qarashlarning, tarjimalarning uzluksiz oʻzgarib borishiga olib keladi. Yillar davomida eʼlon qilingan “Imtihon” (1945-yili yozilgan, 1986-yili nashr qilingan), “Yutuqlar” (1969), “Klassiklar oʻyini” (1963), “Yigʻish uchun anda-za” (1968) romanlari, “Bestiariy” (1951) va “Oʻyinning tugashi” (1956–1964) hikoyalar toʻplamlarida oʻqish va yaratish birdek davom etadi. Gʻoya ichida gʻoya, sujet ichida sujet, obraz ichida obraz va ular yuzaga keltirayotgan matn ichida matnlar oʻquvchi shuurini doimiy band qilib turadi, oxiri yoʻq voqealarining yakunini oʻzi yaratishga majbur qiladi. Qayta-qayta oʻqish, har safar oʻqilganda turlicha tushunish, tushunishning oʻquvchi dunyoqarashiga mos ravishda kengayib va torayib borishi asarni oʻqishdagi asosiy jarayonga aylanadi. Bir qahramonni turli qiyofada ikkilantirish, uchlantirish va ularni harakatning umumiy oqimida uchrashtirish kabi poetikaning yangi oʻyinlari rebusni

yechgandagi huzurni beradi, o'quvchilarda yangi adabiy ehtiyojni tug'diradi va bu ehtiyojni uning o'zi qondiradi.

"O'yinning tugashi" hikoyasida ichki qiyofaning o'yinda, niqobda, tashqi olamda namoyon bo'lishi ifodalangan. Tashqi olam kasalmand qizning asl holatini yoqtirmadi va u yashashning yangi shaklida – o'yin ichida, niqobda harakatni boshladi. Simvolika, tabiiy psixologizm, oddiy sujetning tig'iz va murakkab qavatlarida asarda "sehrli" kuch yashirilib yotgandek tasavvur uyg'otadi.

"Roman ochkolar bo'yicha yutsa, hikoya nokautlar bilan g'olib keladi" – (R.Arlt) deb hisoblagan, Kortasar novella janrini yuqori cho'qqilarga olib chiqdi va "Xronoplar va famlar" (1962), "Hamma olovlar – olovdur" (1966), "Bu yerda aylanib yurgan kimsa" (1977), "Qandaydir Lukas" (1979), "Biz Glendani shunday sevamizki..." (1980), "Vaqtdan tashqarida" (1982) novellalar to'plamlarini chop ettirdi.

1967-yili XX asr ikkinchi yarmi Lotin Amerikasi adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotidagi eng mashhur asarlardan biri paydo bo'ldi. Ana shu mashhur "Yolg'izlikning yuz yili" romanining muallifi kolumbiyalik yozuvchi *Gabriel Garsia Markes*(1928–2014) edi.

Gabriel Markes 1928-yili Kolumbiyaning Arakataka shaharchasida tug'ildi. Uning bobosi iste'fodagi polkovnik Nikolos bola hayotida o'chmas iz qoldirdi. Bobosi va buvisi ertaklari og'ushida katta bo'lgan Gabriel keyinchalik ular haqida quyidagicha xotirlaydi: "Bobom va buvim jinlar bilan to'lib ketgan eski uyda yashar edilar. Ularning har ikkisi ham irimchi bo'lib, g'aroyib tasavvurga ega bo'lganlar".

Markesning bolalik kezlari uning ongiga singib ketgan shu va shunga o'xshash xotiralar, keyinchalik, uning ijodidagi realistik tasvir bilan fantastik unsurlarni birikib ketish tamoyilini belgilab berdi.

1948-yilda Bogotada bo'lib o'tgan qonli voqealar Garsiya Markes huquqshunoslik fakultetida ta'lim oluvchi universitetning yopilishiga sabab bo'ldi. U Kartaxenda o'qishni davom ettirmoqchi bo'ladi. Biroq, jurnalistikaga bo'lgan qiziqish o'qishni tugallashga imkon bermadi.

Uning dastavval provinsiyada, keyinchalik poytaxtda, so'ngra esa Rim, Parij va Karakasda muxbir sifatida faoliyat ko'rsatishi, Markesning keyingi badiiy ijodiga ijobiy ta'sir o'tkazdi. Muallifning o'zi keyinchalik tan olishicha, uning 1947–1948-yillarda vaqtli matbuotda e'lon qilingan dastlabki hikoyalari, Kafka asarlari ta'sirida yaratilgan.

Keyinchalik uning "Polkovnikka Hech kim yozmaydi" (1958), "Katta onaning o'limi" (1962) singari asarlari nashr yuzini ko'rdi. Ular Markesning 1972-yili Romulo Galegos mukofotiga sazovor bo'lgan eng mashhur asari "Yolg'izlikning yuz yili"ning yaratilishi uchun muhim bosqich vazifasini o'tadi. Ushbu roman XX asrgacha bo'lgan adabiy merosning ko'plab usullari, G'arb-u Sharq an'alarini o'zida mujassam etgan. Asar yolg'izlik – zavolga giritfor bo'lgan bir oilaning fojiali taqdiri orqali insoniyat tarixining yuz yilida sodir bo'lgan manzaralarni aks ettiradi.

Xose Arkadio Buendia va uning umr yo'ldoshi Ursula Iguaran asos solgan Makondo shaharchasi nafaqat bu yerda sodir bo'ladigan voqealarning foni, balki Ikkinchi jahon urushidan keyingi Lotin Amerikasi tarixining umumlashgan va tipik tasviridir. "Yolg'izlikning yuz yili"da sehrli ertak, afsona, naql unsurlari obyektiv tarixiy hikoya bilan shu qadar uyg'unlashib ketganki, ba'zan real voqeani fantastik hodisadan ajratib olish qiyinchilik tug'diradi, umuman, ularni ajratishning keragi ham yo'q, go'yo. Ushbu unsurlar asarda teng holda bo'lib, Rablega xos giperbola realistik lavhalar bilan birikib ketgan. Romanda yolg'izlik kishining ma'naviy jihatdan qashshoqlashuvi, atrof olamdan uzilib qolishigina emas, odamning o'ziga-o'zi begonalashuvi sifatida ham talqin qilinadi. Asar azaliy an'analar, ona-bolalik, qarindosh-urug'chilik, og'a-inilik munosabatlari hamda muqaddas diniy aqidalarning yemirilishi oqibatida paydo bo'luvchi ommaviy loqaydlik va yolg'izlik nazarda tutilgan.

"Yolg'izlikning yuz yili"dan so'ng Markes bolalar uchun bir qancha hikoyalar to'plami hamda "Mening baxtli va taniqli bo'lmagan davrim haqida" deb ataluvchi avtobiografik reportajlar turkumini nashrdan chiqardi. 1975-yilda yozuvchining ko'pdan buyon amalga

oshirishni istagan rejasi "Patriarxning kuzi" romani orqali ro'yobga chiqdi. Lotin Amerikasi xalqlari uchun dolzarb bo'lgan mavzu – diktatorlar mavzusidagi ushbu asarda yozuvchining uslub borasidagi izlanishlari ko'zga tashlanadi. Asarning tili "Yolg'izlikning yuz yili"ga nisbatan ancha murakkabdir.

Romanning qisqacha mazmuni quyidagicha: Diktator Nikonor Alvarado shu qadar cheksiz hokimiyatga ega bo'lganki, uning uchun endi boshqarishning keragi ham yo'q. U ta'rifsiz qudratga ega ekanligidan kar bo'lib qolgan. Uning sayroqi qushlar saqlanuvchi qafaslar to'la saroyida sigirlar ham bemalol yuraveradi. Diktator 16 yoshli go'zal qizga oshiq bo'lib qoladi. Ushbu muhabbat uni shu qadar umidsizlikka tushiradiki, natijada, bir tunning o'zida uch ming-ta siyosiy mahbusni qatl ettirishni buyuradi. Asar voqealari hikoya qilinayotgan paytda diktator 123 yoshga to'lgan edi. U necha yildan buyon hokimiyat tepasida ekanligini ham eslay olmaydi. Eshitish qobiliyatini yo'q bo'lganligini ham sezmaydi, uning uchun kanareykalar sayramay qo'ygandek tuyuladi. U butunlay eshitish qobiliyatidan mahrum bo'lganda hayotidagi ulug' orzusi ro'yobga chiqadi: dengizdan 500 chaqirim uzoqda yashashiga qaramay, kecha-yu kunduz dengiz shovqinini eshita boshlaydi. Diktator bir necha marotaba qayta tirilishlardan so'ng 200 yosh atrofida vafot etadi. U yoshligida Xristofor Kolumb bilan suhbatlashgan bo'lsa, keksayganda AQSh elchilari bilan muloqotda bo'ladi; tushlik paytida favoritlaridan birini yeb qo'yadi. Muqaddam muttaham va fohisha bo'lgan onasining xotirasini abadiylashtirmoqchi, ya'ni avliyolar qatoriga qo'shmoqchi bo'ladi.

Markesning 1981-yilda yozilgan "Oshkora qotillik qissasi" qisqa, aniq va deyarli bayonnoma ruhidagi nasrning namunasi sanaladi. Qissa sujeti asosida Kolumbiyaning Sukre shaharchasida haqiqatda bo'lib o'tgan voqea yotsa-da, unda sodir etilgan qotillikka nisbatan shaharcha ahlining munosabatida insoniyatning bir-biriga nisbatan loqaydligi, e'tiborsizligi ularni katta falokatlarga giriftor etishi mumkinligi haqidagi g'oya ifodalangan.

Umuman, Gabriel Garsia Markes ijodi XX–XXI asr jahon adabi-

yotining yorqin sahifalaridan biri bo'lib, u adabiy jarayonga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Buyuk yozuvchi 2014-yilning 17-aprelida 88 yoshda Mexikoda vafot etdi.

Zamonaviy Lotin amerikasi adabiyotining taniqli ijodkorlaridan biri braziliyalik yozuvchi va shoir **Paolo Koelo (1947-yili tug'ilgan)** sanaladi. U poytaxt Rio-de-Janeyro shahrida tug'ilgan. Jami yigirmadan ortiq kitoblar – romanlar, antologiyalar, hikoyalar to'plamlari muallifi. "Alkimyogar" romani uzoq vaqt eng ko'p o'qiladigan kitoblar o'ngligida bo'ldi. Dunyo tillarida chop etilgan asarlarining adadi 300 milliondan oshib ketgan.

Bo'lajak yozuvchi yetti yoshida Avliyo Ignatij Loyola iezuit maktabiga o'qishga yuborildi, bu yerda u ilk marta hikoyalar yozishni boshladi. Maktabni tugatgach, Rio-de-Janeyro universitetining huquqshunoslik fakultetiga o'qishga kirdi, lekin tez orada o'qishni tashlab, jurnalistika bilan shug'ullana boshladi.

1970-yili Meksika, Peru, Boliviya, Chili, Ovrupa mamlakatlari va Shimoliy Afrikaga sayohat qildi.

P.Koeloning nomini butun dunyoga mashhur qilgan, 1990-yilda nashr etilgan "Alkimyogar" romani hozirgacha dunyoning 120 dan ziyod mamlakatida chop etildi (jumladan, o'zbek tilida asarning uchta tarjimasi mavjud). Romanda insonning umri mobaynida amalga oshiradigan ishlari nimalardan iborat, o'z taqdiri yo'lidan borib, ko'nglidagi orzu-umidlarni amalga oshirish uchun nima zarur degan falsafiy, mohiyatan esa oddiy insoniy masalalar haqida fikr yuritiladi. Bosh qahramoni 16–17 yoshlardagi cho'pon yigit bo'lgan ushbu asarda realizm, sarguzasht, mistika, detektiv va didaktika an'analari uyg'unlashib ketgan.

Hozirda P.Koelo Braziliyaning Rio-de-Janeyro va Fransiyaning Tarbe shahrida istiqomat qiladi.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. XX asr AQSH adabiyotida ijod qilgan yozuvchilarni sanab o'ting.
2. Teodor Drayzer ijodida asosan qanday muammolar ko'tarilgan?

3. «Yo‘qotilgan avlod» mavzusi deganda nimani tushunasiz?
4. E.Xemingueyning «Chol va dengiz» asarining asosiy g‘oyasi nimadan iborat?
5. XX asrning so‘nggi choragi AQSH adabiyotida shaxs va jamiyat muammolari.
6. XX asrning ikkinchi yarmida Lotin Amerikasi adabiyotida ro‘y bergan “portlash effekti” ning ijtimoiy-siyosiy asoslari.
7. Pablo Neruda she‘riyatining o‘ziga xosliklari.
8. Gabriel Markes ijodida “maftunkor realizm”ning namoyon bo‘lishi.

Adabiyotlar:

1. Highlights of American Literature. Dean Curry 1988 Washington USA P.288
2. Introduction to Latin American literature . Jack Child.1994. UPA
3. Андреева Л. История зарубежной литературы XX века. 1917–1945гг. – М.: Высший школа, 1980.
4. Елизарова М., Михальская Н. Курс лекций по истории зарубежной литературе. – М.: Высший школа, 1965.
5. История зарубежной литературы XX века. 1917–1945гг. – М.: Просвещение, 1984.
6. Қосимов А., Хўжаев С. XX аср чет эл адабиёти. Ўқув қўлланма. – Фарғона: 2003.

JAHON ADABIYOTINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

REJA:

1. Globalizm va adabiyot.
2. Adabiyotning kelajagi masalasi.
3. Internet adabiyoti.
4. Zamonaviy adabiyot va tarjima masalasi.
5. Yoshlar va sog'lom adabiyot targ'iboti.

Tayanch so'z va iboralar: Globalizm va adabiyot, yangi izlanishlar adabiyoti, internet adabiyoti, zamonaviy jahon adabiyoti muammolari haqida olimlar, adabiyotning kelajagi, zamonaviy adabiyot va tarjima masalalari, sog'lom adabiyot targ'ibi.

Globalizm va adabiyot

Texnikaning rivoji, umumiy taraqqiyot, ilmiy kashfiyotlar keyingi davr adabiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. XIX asrda Hindistonga inglizlar temir yo'l qura boshlaganda braxmanlar norozi bo'lib, bu bizning ruhiy-ma'naviy dunyomizga daxl qilishdir, deya jon-jahdlari bilan qarshilik qilishgan edi. Shunga qaramay, dunyoda umumiy taraqqiyotni to'xtatib bo'lmaydi. Dunyoning holi ham shunga ko'ra o'zgardi, o'zgarmoqda. Olamni badiiy-estetik qabul qilishda ham jiddiy evrilishlar yuz berdi. Ovrupada realizm, tanqidiy realizm o'rniga modernizm, postmodernizm kirib keldi. Nigohlar, ispan es-teti va faylasufi O. Gasset aytmogchi, 180 gradusga burildi. Voqealar tasviridan inson botini(ruhiyati)ning tasviriga o'tildi. XIX asrning ikkinchi yarmidan to shu kungacha realizm, tanqidiy realizm, estetizm, modernizm, postmodernizm oqimlari bir-birining o'rmini olib, biri ikkinchisiga xamirturush bo'lib keldi. Nihoyat, bugungi dunyo qorishiq kayfiyatlar maydoniga aylangan. Unda ko'pgina izmlarning nafasi seziladi. Shunga qaramay, keyingi bir necha o'n yilliklarda jahonni o'z domiga tortgan umumiy kayfiyatni globalizm

deb atashmoqda. Globalizm adabiy oqim emas. Lekin u adabiy oqimlarga jiddiy ta'sir qiladi. Shuning ta'sirida dunyoni badiiy-estetik qabul qilish sathida azim o'zgarishlarning yuz berishi muqarrardir.

Globalizm nima? Lotincha globus, ya'ni shar so'zdan olingan bo'lib, dunyo miqyosidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy jihatdan o'zaro ta'sirlashuv jarayonidir. Unda dunyo xo'jalik tizimi o'zgarib boradi. Bozor munosabatlari, mehnat taqsimoti, xalqaro aloqalar, madaniy munosabatlar, dunyoqarashlar o'zaro integratsiyalashuv oqibatida jiddiy evrilishga yuz tutadi. Ayni damda, siyosiy va iqtisodiy globalashuv farqlanadi. Tarixchilar globalizmni kapitalizmning bitta davri deb qarasa, kulturologlar madaniyatning sharqlashuvi oqibati, deydi. Bu so'z ilk bor K. Marksning F. Engelsga yozgan xatida (1850-y.) uchraydi: "Endi dunyo bozori haqiqatdan ham bor. Kaliforniya va Yaponiyaning dunyo bozoriga qo'shilishi bilan globalashuv sodir bo'ldi".

Globalizm domiga tortilgan dunyoda adabiyot o'z mahallasi kayfiyatini kuylab xotirjam bo'lolmaydi. O'zbek shoiri "Ikki daryo oralig'ida Qolib ketdi mening ovozim" (Abdulla Oripov) deb yozgandi. Endi insonni qiziqtiradigan, uning hayotiga ta'sir qiladigan maydon ikki qutb o'rtasidir. Bugun shoir butun dunyo muammolarini kuylashga mahkum va majbur. Buni u atay qilmaydi, balki tabiiy ravishda ado etadi. Bugun dunyo siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik, psixologik jihatdan yaxlit arenaga aylanib ulgurgan. Natijada inson badiiy tafakkurida ham o'zgarishlar sur'ati misli ko'rilmagan darajalarda tezlashmoqda. Adabiyotdagi "izm"lar ham shunga ko'ra tez-tez yangilanib bormoqda. Chunki jamiyat kayfiyati yangilanmoqda. Jamiyat kayfiyati esa adabiyot yangilanishini taqozo etadi. Yangilanish adabiyotning tarzini, yo'nalishlarini o'zgartiradi, demakki, uning qarshisida yangidan yangi muammolarni paydo qiladi.

Zamonaviy adabiyot muammolari o'zgargan, o'zgarishda shiddat bilan davom etayotgan dunyoning muammolari bilan bog'liq. Moskvada o'tkazilgan dunyo kongressida mashhur yozuvchi Ch. Aytmatovga jurnalist N.Boltyanskaya quyidagicha savol beradi: "Forum yozuvchilarning muhim masalalaridan biri dunyo adabi-

yoti muammosidir. Zamonaviy jahon adabiyotining bosh muammosi nimada, deb o'ylaysiz?". Ch. Aytmatov: "Bu savolga javob berish judayam qiyin. Qo'lida qalami bor har bir yozuvchi inson hayoti-ning eng muhim qismini, yuragini nishonga olyapman, deb o'ylaydi. Nazarimda, inson juda katta sinovlar arafasida turibdi. Bu sinovlar dunyoviy konfliktlar, urushlar va shu kabilar bilan bog'liqdir. Sinovlarda inson o'zini qanday ko'rsata oladi? Ehtimol, shu narsa (adabiyotdagi – U. H.) eng muhim masaladir. Ammo judayam og'ir masala..." deya javob beradi. M. Peshkovaning yozuvchiga qarata: "Sizning ma'ruzangiz nima haqida bo'ladi?" degan savoliga Ch. Aytmatov javob beradi: "Ekologiya va so'z. Bunday so'z birikmasi ajoyib, a! Nahotki, ekologiya so'zga bog'liq bo'lsa?.. Bog'liq. Mening nazarimda yer yuzidagi hamma narsa – ezgulik va yovuzlik birinchi navbatda so'zdan bino bo'ladi. So'z bu, avvalo, bizning fikrlarimiz, niyatlarimiz, harakatlarimiz, amallarimiz va hokazolardir. Buni ekologiya rakursida olib qarasak, zamindagi ekologiya ko'p jihatdan insonning o'zini qanday tutishiga bog'liq"⁵⁵.

Demak, zamonaviy jahon adabiyoti muammolarini yozuvchi Chingiz Aytmatov shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda insonning o'zini qanday tutishida ko'radi. Ya'ni bu yerda birlamchi bo'lgan narsa – munosabat. Atrof-javonibda sodir bo'layotgan olamshumul voqea-hodisalarga zamonaviy inson qanday qaraydi va qanday munosabatda bo'ladi, degan savol nafaqat dunyoning, ayni damda, adabiyotning ham taqdirini hal qilishi to'g'risida so'z bormoqda.

Adabiyotning kelajagi masalasi

Umumjahon forumda bo'lib o'tgan suhbatda ishtirok etgan adabiyotshunos T. Venslova: "Qisqa aytganda, fransuz she'riyati o'ldi" deya xitob qiladi". Vaqtida xuddi shu gapni Bulat Okudjava rus she'riyati haqida aytgan edi. Bunday taxminlar, bashoratomuz fikrlar doim aytilgan. Masalan, 90-yillarda o'zbek yozuv-

⁵⁵ Moskvada o'tkazilgan xalqaro kongressdagi suhbat. <http://echo.msk.ru> (U. Hamdamov tarjimasi).

chisi Sh. Xolmirzayev ham “Adabiyot o‘ladimi?” degan maqola bilan chiqqan edi. Albatta, maqola so‘nggida yozuvchi adabiyot o‘lmaydi, degan xulosaga keladi. Gap shundaki, vaqti-vaqti bilan jamiyat (ma‘naviy-ruhoniylar buhronlar davrida) ana shunday kayfiyatlarga tushib turadi. Bu narsa albatta mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy, psixologik evrilishlar bilan bog‘liq holda ro‘y beradi. XX asrning 70-yillar avlodidan keyin o‘zbek adabiyoti, xususan, o‘zbek she‘riyati o‘ldi, degan bashoratlar ham puch edi. Holbuki, bugun o‘zbek o‘quvchisi qadim ildizlardan suv ichib, zamon kayfiyatidan nafas olgan tamomila yangilangan Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti bilan yuzma-yuz turibdi. Bularning siri esa o‘zgarishlar negizida yashirin. Jamiyatda yangilanishlar shabadasi esib qolganda, maydon markaziga har doim shamol yo‘nalishini to‘g‘ri fahmlab, o‘z asarlarida aks ettira olguvchi ijodkorlar tushadi. Ammo davrlar tinimsiz almashib, o‘zgarib turadi. Har bir davr o‘z ijodkorini yaratadi. Bu haqiqatdan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Barcha zamonlar hadisini to‘g‘ri anglagan va ularni yuksak san‘atkorlik bilan asarlariga ko‘chira olgan ijodkorgina mumtozlik maqomiga erisha oladi.

Internet adabiyoti

XXI asr avvalidanoq internet keng yoyildi. Sekin-asta esa internet adabiyoti paydo bo‘lib, u ma‘lum ma‘noda an‘anaviy, qog‘oz shaklidagi adabiyot o‘rnini egallay boshladi. 100–120 yil davomida doimiy chiqib kelgan gazeta-jurnallar jahonning ko‘pgina yirik mamlakatlarida XXI asrning ilk choragiga kelib yopila boshladi. Odamlarning qiziqishlari, ehtiyojlarida inqilobiy burilishlar sodir bo‘ldi. Natijada ma‘lum muddat adabiyot va san‘atga e‘tibor susaydi. Ammo bu hodisalar birdaniga yuz bermadi, aksincha, uning kurtaklari o‘tgan asrning ikkinchi yarmida insonlar dunyoqarashidagi siljishlar bag‘rida nish urgan edi. Xususan, ana shu evrilishlarni boshidan kechirgan Fransiyada XX asrning 70-yillaridan keyin “she‘riyat o‘ldi” deya ovoza qilishdi. Xuddi shunday e‘tiroflar sobiq Ittifoq territoriyasiga XX asrning oxirgi 10 yilligi va yangi (XXI) asrning avvalida tilga tushdi. Masalan, internet adabiyoti portalla-

rida shunday rasm paydo bo'ldiki, u dunyoning adabiyotga bo'lgan bitta kayfiyatini qisman o'zida aks ettirar edi: qabriston, qabr toshiga "Stixi RU"⁵⁶ deb yozilib, gul, aroq va gazak qo'yilgan. Lekin bu surat dunyodagi xilma xil kayfiyatlarning hammasini to'la qamrab ololmaydi. Chunki olam keng va u turfa axborot, turfa kayfiyatlar quchog'ida nafas oladi. Yer yuzining qayeridadir adabiyot so'lib borsa, qayeridadir u qaddini tiklashi, yaproq yozib, meva tugishi mumkin. Shunga qaramay, zamonaviy dunyo bugun umumiy adabiy buhronni o'z boshidan kechirayotganligidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Shuning uchun ham XX va XXI asr o'zbek shoirasi Zebo Mirzo "Gul davrlar meniki emas, Mening uyim ko'krak qafasim" deb yozadi. Bu misralar tagzaminidagi ma'no XX va XXI asr she'riyatiga bitta o'zak chiziq bo'lib tortiladi. Ya'ni inson (shoir) tashqaridan ichkari(botin)ga kirdi va u yerdan turib atrofni kuzata boshladi. Bungacha esa shoir tashqarida, u yerdagi umum ish bilan band edi. Nafaqat parchalanib ketgan sobiq Ittifoq territoriyasida, balki butun dunyo mamlakatlarida umumiy ahvol shunday edi. Ovrupada "ichkariga yurish" biroz oldinroq (Ikkinchi jahon urushidan keyin) sodir bo'lgandi. Modernizm hodisasi shundan keyin kuchaydi. Ispan esteti va faylasufi X.O. Gasset XX asrga kelib inson o'z e'tiborini ichkariga qaratganini aytadi. Uning shu fikri⁵⁷ butun boshli jahon adabiyotidagi tub o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini yetarlicha ochib bera oladi.

Bir tomondan qog'oz shaklidagi adabiyotga talab ozayib bor-yapti, ikkinchi yoqdan esa, she'riyatning internet sahifalarida omalashib borayotganligi kuzatilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar vositasida targ'ib qilinayotgan adabiy janrlar orasida she'riyat peshqadam. Masalan, ayrim jahon shoirlarining instagramda 100.000 dan ziyod obunachilari bor. Obunachilar shoirlarning ham xuddi artistlar kabi shoular tashkil etishlarini yoqlab chiqishmoqda. Shu orqali shaharlar aro kezib, auditoriya to'plab, o'z she'rlarini jonli o'qib berishmoq-

⁵⁶ Moskvada o'tkazilgan xalqaro kongressdagi suhbat. <http://echo.msk.ru> (U. Hamdamov tarjimasi).

⁵⁷ Rus she'riyati.

da. Buning uchun esa shoirlar o'z ijodlarini internet orqali targ'ib qilishadi. Internetda ayol she'riyati ham ommalashib bormoqda.

Zamonaviy adabiyot va tarjima masalasi

Tarjima zamonaviy dunyo uchun bag'oyat muhim masala. Chunki tarjima – muloqotning eng ta'sirchan va uzoq yashovchan shakllaridan biri, u nafaqat bir insonning o'zga bir inson bilan, balki butun boshli bir millatning boshqa bir millat bilan diydor ko'rishuvidir. Bugungi axborot asrida, har tomonlama integratsiyalashuv tig'izlashgan, tezlashgan zamonda madaniyatlararo muloqotsiz ol-dinga xotirjam bir odim ham qo'yib bo'lmasligini tobora chuqurroq tushunib borilayotgani – haqiqat. Jahon adabiyoti ham tarjima bilan tirik. Faqat har qanday tarjima emas, balki millat ko'nglining, millat botiniy qiyofasining tarjimasigina o'zini oqlaydi. "Har bir odamning yuragida o'z xalqining jajji qiyofasi yashaydi", degan edi A. Freytag. Millat guli hisoblanmish ijodkor ziyolilar faoliyatida esa (ya'ni ijodlarida) bu qiyofa o'zining butun qirralari bilan, ayniqsa, to'liqroq namoyon bo'ladi. Bu qiyofa, avvalombor, millatning o'zgarmas, barqaror tabiatini, har bir xalqning o'zigagina xos o'zak xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Tarjima orqali mana shu o'zlikni tanitish kerak bo'ladi. Bunday tanishuv esa o'zga tillarga tarjimasiz, xorijiy tillarni mukammal bilishsiz mumkin emas. Zero, "Til robitai vositai olamiyondir". Mana, nima uchun tarjima bugun hayotu mamot masalasiga aylanib borayapti ekan. Aksi taqdirda, o'z javharidan, turlanmaydigan asos-mohiyatidan mahrum bo'lgan millat qiyofasiz bir holga tushib, globalizmning ayovsiz girdobiga tortiladi-da, o'z ildizidan, bora-bora esa o'zligidan ham ayrilib, o'zi bor-u, nomi va shoni yo'q odamlar to'dasiga aylanadi. Bunday qismatni hech bir xalq aslo o'ziga ravo ko'rmaydi. Demak, jahonga so'z bilan o'zlikni namoyon qilishning birdan bir yo'li – baland saviyali, asliyatga muqobil badiiy tarjima yo'lidir.

Biroq tarjimada ham tarjima bor. Tarjima bor – asliyatning "panjasiga panja uradi", tarjima bor – asliyat mohiyatini to'la yetkazib berolmaydi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, dunyoda har bir

katta ijodkorning o'z tarjimoni bo'ladi. Ana o'sha tarjimon paydo bo'lmaguncha ijodkor o'zga millat uchun noma'lumligicha qolaveradi. Hatto uning yuzlab tarjimonlari bo'lib, har yili bittadan kitobi o'nlab tillarga tarjima qilinsa ham, foydasi kam bo'ladi. Aksincha, nomarg'ub tarjima ijodkor haqidagi tasavvurni buzib, o'quvchining nazaridan tushiradi. Demak, munosib tarjimoni paydo bo'lmaguncha ijodkor "hech kim". Uning faqat nomigina davralarda-yu kitoblardagi sanoqlarda aylanishi mumkin. Lekin hech qachon tarjima etilgan millat vakillarining yuraklariga kirib, onglarida e'zoz topmaydi. Shu ma'noda rassom yoki bastakorga havas qilish mumkin. Chunki ularning biri rang, boshqasi esa ohang tilida ijod qilishadi. Rang va ohang tili esa universal tillar hisoblanib, hamma davrlarda va barcha ellar uchun tushunarli bo'lib qolaveradi. Ya'ni bu "til"lar tarjimaga ehtiyoj sezmaydi. Bu "til"lar tarjima hodisasidan ustun hodisalardir. (Harakat san'ati – ayrim dramatik asarlar ham shunday. Ya'ni, masalan, so'zsiz, mimika asosiga qurilgan spektakllarni oling). So'z san'ati esa ayni shu yerda yuqoridagi san'atlar bilan bellasha olmay qoladi. Ayni shu yerda adabiyotning hududiga chegara uriladi. U tarjima bo'lgandan so'nggina "bojxona"dan chet mamlakat hududiga o'tishi mumkin. Biroq u endi kattaroq boshqa bir dovonga duch keladiki, uning ismi o'zga tilli, boshqa tafakkurli o'quvchidir. So'z san'ati namunasi muvaffaqiyat bilan tarjima etilgandagina o'zga mamlakat o'quvchisining yuraklariga kirishi mumkin. Shu ma'noda, asliyatda hatto har tomonlama durdona hisoblangan asar ham tarjimadagi o'z muvaffaqiyatini yuzlab yillar kutishi mumkin. Ungacha esa u "yopiqlik qozon"dek sirini ichida yashirib turaveradi.

Tarjima og'ir yumush. O'zbek shoiri Erkin Vohidov yozadi:

*Oy o'rtanar, ko'zlarida yosh,
Ko'ksi dog'u yuragi qiyma:
"Ey falak, men edim quyosh,
Nega meni qilding tarjima?"*

Tarjima qilingan asarlar mohiyatini juda teran bir tarzda ochib beradigan to'rtlik bu. Chunki oy bir paytlar quyosh edi, tarjima qilingandan so'ng oy darajasiga tushib qoldi, ya'ni kichrayib, nuri ozaydi. Demak, har qanday asar tarjimadan so'ng bir daraja quyi-ga qarab ketadi, degan xulosa yashiringan yuqoridagi to'rt qator she'rda. Darhaqiqat, ko'pincha shunday bo'ladi. Lekin o'z ishi-ning ustasi bo'lgan haqiqiy tarjimon asliyatga muqobil tarjima us-tida o'ylaydi, izlanadi. Zero, tarjimadan keyin quyoshning quyosh, oyning oy bo'lib qolishi eng mukammal tarjima natijasi hisoblanadi. Quyoshni oy darajasiga tushirgan va yoki, aksincha, oyni quyosh darajasiga ko'tarib qo'ygan tarjima ham mukammal sanalmasligi lozim. Chunki to'g'ri va baland tarjima asliyat ruhini saqlab qola olgan tarjimadir.

Tarjimon asar ruhiga kira olib, asar mag'zini "o'ziniki"ga aylan-tirib olsagina uning o'girmalari muvaffaqiyatga erishadi. Shunday muvaffaqiyatli tarjimalardan biri o'zbek shoiri Usmon Nosirga te-gishli bo'lib, u rus shoiri Mixail Lermontovning "Demon" dostonini yuksak darajada o'zbekchaga o'giran. Tarjimon doston mazmunini "o'ziniki"ga aylantirib olgan. Asar xuddi o'zbekchada bitilgan kabi, ravon, haroratli o'qiladi. Ayni chog'da aytish joizki, tarjimada "Far-moningga yig'lab cho'kay tiz" degan "ortiqcha" misra paydo bo'lib qolgan. Bu misra Usmon Nosirda bor-u, Lermontovda yo'q. Xo'sh, nega? Tarjimonning bunga nechog'li haqqi bor? Nazariyaga qara-sangiz, haqqi yo'q. Asliyat va tarjimani qiyoslagandan keyin esa ang-lashiladiki, tarjimon doston ruhiga shu darajada chuqur kirganki, go'yo uning ijodkoriga aylangan. Xuddi Lermontov kabi. Hamda ijodkor ruh kayfiyatini qog'ozga to'kkan:

*Dengizlarning tublarin quchay,
Bulutlardan balandga uchay.
Yer ne'matin senga tutay qiz,
Farmoningga yig'lab cho'kay tiz,
Sevgin meni!..*

Darhaqiqat, go‘zal, haroratli misralar! Aynan shu misra mamlakatning eng baland tog‘i cho‘qqisiga tikilgan bayroqqa o‘xshaydi. Bu o‘rinda bayroq o‘sha mamlakatning borligiga, kuch-qudratiga yo‘naltirilgan bir ramz bo‘lgani yanglig‘, “Farmoningga yig‘lab cho‘kay tiz” misrasi ham oshiqning sevgilisiga bo‘lgan cheksiz ishqidan bir dalil, nishon. Aynan shu misrada uning ma’shuqasi uchun har narsaga tayyor ekanligi ayonlashadi. Qolaversa, aynan shu misra “Usmon Nosir” deb atalgan tarjimon, ayni paytda, shoir mamlakat qudratini ham ko‘z-ko‘z qilguvchi bayroqdir. Birgina shu bayroqqa qaraboq tarjimonning yuksak iste’dodiga guvoh bo‘lish, undan hayratlanish mumkin. Bu misralar asliyatda quyidagicha:

*Я опускаюсь на дно морское,
Я полечу за облако.
Я дам тебе все, все земное –
Люби меня!..*

Tarjimadagi ijodkorlik (“Farmoningga yig‘lab cho‘kay tiz”) ni qofiya (“qiz – tiz”) taqozosi deb ham talqin qilish mumkindir, ehtimol. Lekin gap faqat bunda emas. Asliyat qofiyasiga e’tibor berilsa, u yo‘q (“Morskoe – zemnoe” qofiya emas). Bu borada (ya’ni qofiya masalasida) tarjima varianti ustun ekanligini e’tirof etmoq kerak. Lekin asliyat o‘zicha go‘zal. U shu darajada go‘zalki, hatto qofiya muhtoj emas. “Я опускаюсь на дно морское, Я полечу за облако” misralarining ma’no, ya’ni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjimasi “Dengizlarning tubiga tushaman (tushay), Bulutlarning ortiga uchaman (uchay)” bo‘lar edi. Usmon Nosir Lermontov chizgan manzarani Lermontov taklif qilgan badiiy gap konstruksiyasiga ko‘ra emas, balki o‘z so‘zlari bilan qayta yozadiki, natijada “Dengizlarning tublarin quchay, Bulutlardan balandga uchay” kabi oltin misralar, chinakam ijod, asliyatga tengma-teng ijod namunasi dunyoga keladi. Chunki dengizning tubiga tushish bilan uni quchish, bulutlarning ortiga uchish bilan ulardan balandga uchish o‘rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Xuddi oddiy gap bilan she’riy misra orasidagi tafovut kabi.

Tarjima tarixiga nazar tashlasak, asosan, ikki xili koʻzga yaqqol tashlanib turadi. Biri – taglamali (подстрочный) tarjima, ikkinchisi – mazmun tarjimasi. Aslida, badiiy tarjima necha xili boʻlishiga qaramay, eng muhimi, asar ruhi toʻgʻri tarjima etilmogʻi shart. Shu ruh berildimi, qolgani katta-kichik tahrirlar bilan tuzatilishi mumkin. Ruh berilmasa-chi, barchasi bekor: chiroyli soʻzlar, silliq gap konstruksiyalari, hikmatli soʻzlarning oʻrinli ekvivalentlari, qoʻyingki, butun “toat-ibodat” suvga oqadi-ketadi.

Tarjima muhim. Shu darajada muhimki, u asar taqdirini yo bor qiladi, yo yoʻq. Hozirgi zamonga kelib esa jahon adabiyoti va tarjima qarshisida talay muammolar paydo boʻldi. Xususan, Moskvada oʻtkazilgan davra suhbatida tarjimon va jurnalist Irina Kuznetsova aytadi: “Tahririyatga fransuzcha sheʼrlar oqib keladi. Ular, asosan, Rembo, Verlen, Mallarme sheʼrlaridir. XX asrning ikkinchi yarmiga oid sheʼrlardan juda kam yuborishadi. Yuborishsa ham turgan-bitgani dahshat! Ular tarjimasini hech kim uddalay olmaydi, axir!.. Gap shundaki, 50–60-yillarda fransuz adabiyotida navbatdagi inqilob sodir boʻldi. Nazarimda, xuddi shundan Fransiyada zamonaviy poeziya boshlandi. Yangi avlod “reallikni boshdan oyoq ramzlashtirgan” syurealizm merosiga qarshi bosh koʻtarishgan edi. Syurealizm estetikasini Fransis Ponj “romantik-lirik saraton ishigʻi”, deb atagan. Xullas, lirika maʼnosini ohanjamadan xoli qilaman, deya novatorlar oshirib yuborishdi: axlat uyumiga nafaqat qofiya va poetik koʻchimlarni chiqarib tashlashdi, balki sheʼriyatning barcha vositalarini gumdon qilishlariga sal qoldi. Ularning uslublarida sheʼrga joy qolmadi. Bir fransuz tanqidchisi bu davrni “muzlash davri” deb nomlagandi, adashmasam. Nihoyat, mana yaqindagina “erish” boshlandi. “Muzlash davri”ning sheʼrlari ikki-uchta, bir-biri bilan hatto grammatik jihatdan bogʻlanmagan soʻzlardan iborat edi. 70-yillarning oxirlarida fransuz shoirlari bizga (Rossiyaga) kelganda soʻradik: “Har bir soʻzingizning ortida nima turibdi? Ular ortidagi boʻshliqni nima bilandir toʻldirishimiz kerak, axir!..” Chunki, masalan, xitoy va yapon sheʼrlarining ortida anʼana, oʻqilishi bilan maʼrifatli inson qalbida tugʻiladigan koʻplab assotsiatsiya turadi. Bu yerda esa

urushdan keyingi manzara yodingizga tushadi". Bu fikrga javoban forumning yana bir ishtirokchisi Yevgeniy Bunimovich quyidagicha fikr bildiradi: "Zamonaviy fransuz she'riyatini zamonaviy tarjimonlar tarjima qilishi kerak. Men boy madaniy kontekst faqat yaponlarda bor, degan fikrga qo'shilmayman. O'qimishli fransuz uchun o'z konteksti ortida ko'p narsa turgan bo'lishi, uni ruschaga oddiy so'zlar bilan tarjima qilganimizda u sezilmasligi mumkin. Chunki ruschada u kontekst yo'q..." Davra suhbatining yana bir ishtirokchisi Mark Freydkin aytadi: "Mening qiziqishim XIX va XX asrning birinchi yarmi, deylik. 30 yoshlilarni 30 yoshlilar va hatto undan ham yoshlar tarjima qilishi kerak. Ayniqsa, bugungi she'riyat shaklan butunlay boshqa, yangi qiyofaga kirib borayotganda. Men ba'zan ingliz tilida qanday yozishayotganiga qiziqib internetga kiraman. Aytish kerakki, kaminaning an'anaviy qarashlari bilan hamohangligi yo'q internetdagi she'rlarning. Shu uchun menga katta gonorar taklif qilishsa-da, men ularni tarjima qilmayman. Bu ularning rasvologiyoki yozishni eplay olmaganidan emas. Yo'q, ular bor-yo'g'i boshqa tilda yozishyapti, ular qo'llagan badiiy priyomlar menga notanish. Boshqa auditoriyaga mo'ljallangan she'riyat bu"⁵⁸.

Bu munozaradan ham ko'rinib turibdiki, tarjimada, tarjimonda gap ko'p. Tarjimon hammani tarjima qila olmaydi. Tarjimon o'z ruhi, o'z dunyoqarashi, o'z didi va o'z yo'nalishiga muvofiq tushgan asarnigina qoyillatib tarjima qilishi mumkin. Qolaversa, bir xil tizilgan so'zlar zimnida ikki millat ijodkori ham, o'quvchisi ham tamomila boshqa-boshqa ma'nolarni tushunishi mumkin. Ularning bir-biriga muvofiq tushishi uchun ikki millat vakilining yashash sharoitlari, shartlari va boshidan kechirganlari o'rtasida talay mushtarak jihatlar bo'lmog'i lozim.

Yoshlar va sog'lom adabiyot targ'iboti

Dunyo shiddat bilan o'zgarib borayapti. Xuddi shunday evrilishlar maydonida qolgan adabiyot o'zini qanday tutadi? U olam

⁵⁸ U. Hamdamov tarjimasi.

ravishiga ta'sir qila oladimi? Jahonga mashhur akademik olim Yuriy Borev hozir dunyoni yo'naltiruvchi yo'lning yo'qligiga urg'u berib yozadi: "Bashar ahlini chulg'ab olgan buhron ikkita urush va boshqa musibatlarni boshidan kechirgan dunyoning o'ta xatarli va terrorga moyil bo'lib qolayotganida o'zini yaqqol namoyon etmoqda. Sovuq urushdan keyin maydonga kelgan yangi davr insoniyat tarixida ilk bor borliq haqida hech qanaqa formulaga ega bo'lmay turibdi. Qarshimizda olamshumul qora tuynuk paydo bo'lgan. Binobarin, hokimiyatlarda strategiya yo'q, faqatgina pishib kelayotgan muammoni hal qiluvchi amaliy qarorlarga mavjud"⁵⁹. Shu ma'noda o'zgarib, ming tusga kirib chiqayotgan dunyo qarshisida sovuq aql bilan qilni qirq yoradigan G'arb ham, o'z hikmatlari bilan adashgan ruhga yo'l ko'rsatguvchi Sharq ham taraddudda. Xuddi shu o'rinda adabiyot o'zini qanday tutadi? Fahsh, ur-sur, zulm, oldi-qochdi mavzular botqog'iga botib, o'z ortidan insoniyatni tortib ketishga urinadimi va yoki do'ppini olib qo'yib, yetti o'lchab bir kesadimi – tegrasini zulmat qoplab borayotgan insoniyat ko'zlariga bir qatim ziyo bag'ishlaydimi? Zero, bugungi dunyo avvalgi dunyo emas, u – har qachongidan ham himoyaga muhtoj dunyo. Umidbaxsh adabiyot, yorug' san'at insoniyatga shuning uchun ham lozim.

Ruhshunoslarning aytishicha, hayotsevar odam yarim piyola suvni ko'rib, "piyolaning yarmida suv bor" degani holda, tushkun kishi xuddi shu idishga qarab, "uning yarmi bo'sh", der ekan. Chunki birinchi holda inson piyoladagi suvni, ikkinchisida esa piyolaning bo'sh joyini ko'rarkan. Nekbinlik yoki tushkunlik qayerdan tug'iladi? Inson hayotdan qanday (musbat yoki manfiy) ta'sirlansa, sekin-asta dunyoqarashi ham shunga moyil bo'lib shakllanishini hisobga olsak, nekbin yoki tushkun kayfiyat inson yashayotgan muhit negizida tug'ilishi ayon bo'ladi. Ya'ni inson miyasi go'yo bir fotoapparat: u har kuni atrofidagi voqelik parchalarini chiqillatib suratga oladi. Miyada yig'ilgan suratlar esa, uning olam haqidagi tasavvurini, tasavvur esa, o'z navbatida, inson dunyoqarashi va kayfiyatini, optimist yoki

⁵⁹ Боров Ю. Инсоният ҳаётининг олий мақсади ва маъноси. -Тошкент: Шарк юлдузи, 2011, № 4.

pessimist bo'lib yetishishiga omil bo'ladi. Demak, nimani suratga olish o'sha insonning hayotga munosabatidagi darajani – nekbinlik yoki tushkunlik miqyosini belgilab beradi. Daraja va miqyos esa, o'z o'rnida, inson hayoti ma'nosini keltirib chiqaradi. Qissadan hissa shuki, adabiyot hayot aksi, voqelik modeli bo'lgani bois, o'quvchini yorug'lik yoki zulmat sari yetaklashi, uning ongu qalbini u yoki bu mazmun-kayfiyat bilan emlab turishi inkor etib bo'lmaz haqiqatdir. Bas, shunday ekan, ijodkorning, umuman, insonning kurashayotgan ikki qadim kuch (ezgulik va yovuzlik) ning birinchisi tomonida tura olishida adabiyot ko'makdosh bo'lmog'i kerak.

Inson tug'ilibdiki, ziyoga intiladi. Hayotning ibtidosi quyosh nuri bo'lib ona sayyoraga ingan yorug'lik va iliqlik qo'ynida yashirin. Binobarin, yorug'likka intilish maxluqot javhariga joylashtirilgan eng kuchli ehtiyoj. Adabiyotning oydinlikka talpinishi ham, aslida, ana shu ildizdan suv ichadi. Ko'rinadiki, zulmat, yovuzlik, buzg'unchilikka mag'lub bo'lish va pirovardida ularni targ'ib-u tashviq qilish asllikka, sog'lomlikka, mohiyatga, javharning tabiatiga zid harakat. Zero, nur o'z yo'lida uchragan zulmatni yengish uchun bor etilgan. Aslida, olam ham cheksiz koinot zulmatiga basma-bas yaratilgan. Zulmatning bag'ri chok-chokidan so'kilib, ichidan nur oqib chiqqani kabi asl adabiyot ham alaloqibat yorug'likka, hayotga ovoz bermog'i, bashar ahliga, yiqilganda yuzini yerga urib olishidan saqlaydigan tirgak – qo'l, turganda esa olg'a ketishini ta'minlaydigan oyoq bo'lmog'i shart. Modomiki, shunday ekan, bu zahmatli, ammo sharaflı Vazifani faqat Yorug', Hayotparast, Nekbin va Kuchli Adabiyotgina uddalay oladi. Bugun insoniyat mana shunday adabiyotga har doimgidan-da ko'proq ehtiyojmand.

Rus yozuvchisi F.M.Dostoevskiy "Telba" romani qahramoni knyaz Mishkin tili bilan "Dunyoni go'zallik qutqaradi", deydi. Agar go'zallik o'z holicha dunyoni qutqaradigan bo'lsa, unda nima uchun go'zal Yelena (Homerning "Iliada" asari qahramonlaridan biri)ning husn-u jamoli yoki Amir Umarxon kanizagining tillarda doston chiroyi butun boshli mamlakatlarning qon ichida suzishiga sabab bo'ldi, degan savol tug'iladi. Nega bu misollarda go'zallik xalos-

korlikka emas, halokatga olib keldi? Hozir ham alohida vaziyatlar uchun "Dunyoni go'zallik qutqaradi" deya aytish joizdir, balki. Lekin butun boshli kurrai zamindagi hayotni, avvalo, ma'naviy, so'ngra esa jismoniy halokatdan qutqarib qolish uchun ushbu shior-gagina rioya qilib yashash kutilgan natijalarga olib bormasligi bugun kundek ravshan haqiqat. Gap shundaki, oradan talay suvlar oqib o'tdi (roman qariyb 150 yil muqaddam yozilgan). Dunyo bir emas, bir necha o'n marta dumaladi, turlandi, murakkablashdi. Nihoyat, zamonamizga kelib, u tamomila boshqa kayfiyat quchog'ida nafas olayapti. Binobarin, dunyo bugun butunlay boshqa qutqaruv halqasiga ehtiyojmand bo'lib turibdi. Demak, go'zallikni ko'rish va uni nozik his qilish bilan unga qanday munosabatda bo'lish boshqa-boshqa narsalar ekan. Zero, go'zallikni ko'rib, his qilish ortidan unga egalik qilish xurujiga muhtalo bo'lish barcha muammolarning ibtidosi hisoblanadi. Insoniyat hayotida go'zallik (estetika kategoriyasi)dan boshqa ezgulik, adolat, haqiqat (etika kategoriyalari) degan tushunchalar ham bor bo'lib, bular ham inson ehtiyojlari hosilasidir. Go'zallikka munosabatda inson axloq normalarini chetlab yoki buzib o'tdimi, demak, qalbdagi ego (xudbinlik) zulmatidan oziqlangan yovuzlik tug'ilib keladi. Bunday vaqtlarda hatto go'zallik shaydosidan ham himoyalaniş kerak bo'ladi.

Shuning uchun ham insonga umid beruvchi asarlarga bo'lgan ehtiyoj bugun har doimgidan-da katta (ertaga kashfiyotchilik adabiyotiga shunday ehtiyoj sezishimiz mumkin. Xuddi bir vaqtlar sarguzasht asarlarga talpinganimiz kabi). Turmush va uning adoqsiz tashvishlari buramasi, globalizm, "ommaviy madaniyat" girdobi, yengil hayot tarzining targ'ib etilishi, e'tiqodning, burdning zaiflashuvi va hokazo sabablar natijasida inson ruhiy ildizdan uzoq tushib bormoqda. Jahon ommaviy axborot vositalari butun mohiyati iste'molchilikdan iborat Yangi Insonning paydo bo'layotgani haqida ovoza qilmoqda. Shuning uchun ham bugun bashar ahlining insonlik tarafini kuchaytiradigan yorug' va umidbaxsh asarlarga suv va havodek ehtiyoji bor. Fransuz dramaturgi Jan Dominik Bobbining "Skafandr va kapalak" nomli asari ana shunday umidga

yo'g'rilganligi bilan e'tibor tortadi. Ayni kuchga to'lgan, hayot va ijodda muvaffaqiyat qozonib kelayotgan dramaturg sira kutilmagan-da insultga chalinadi-da, to'shakka mixlanib qoladi. Lekin u taslim bo'lmaydi. Sog'lom miya va bittagina ko'z yordamida hayot uchun kurashadi. Chunki qolgan hamma a'zolar falaj holda edi: na qimir etadi, na gapiradi va na ovqat yeya oladi. Ishga yaroqli bittagina ko'zi bilan logoped yordamida asar yozadi. Buning uchun alfavit-dan foydalaniladi. Logoped bir chekkadan harflarni o'qib chiqadi, falaj dramaturg kerakli harfga kelganda yagona sog' ko'zini yumadi va shu tarzda bir necha daqiqada birgina so'z yoziladi. Nihoyat, mashaqqatlar, jasoratlar evaziga asar dunyoga keladi. Asar "Skafandr va kapalak" deb nomlanadi. Skafandr bu – suv ostiga tushish uchun kiyiladigan maxsus kiyim, lekin bu yerda ramziy ma'no kasb etib, inson tanasini, kapalak esa ruhini anglatadi. Dramaturg uzoq yashamaydi – o'ladi. Lekin odamlarga umid qoldirib ketishni ud-dalab o'ladi. Yozilishi inson jasorati va matonatining oliy ko'rinishi bo'lgan asarda umidbaxshlik mujassam edi. Yana bir fransuz adibi va faylasufi Alber Kamyu avtohalokatga uchrab o'lganda o'zining bosh – "Urush va tinchlik"dek asarini yozaman, deb yashayotgan edi. Mushohada qilib qaralsa, yozuvchining ana shu yaratuvchanlik ishtiyoqi yozilmay qolgan asaridan-da balandroq turadi.

Bas, shunday ekan, vaqti-vaqti bilan davr va uning ehtiyojidan kelib chiqqan holda, qanday badiiy asarlarga ko'proq ehtiyoj bor-ligini munaqqidlar-u ziyolilar tadqiq etib topishlari, topganlarini bildirishlari, o'z navbatida, jamoatchilik ham aytilganlarni e'tiborga olishi, masalan, ko'proq nashr etishi, darsliklarga kiritishi, targ'ib-u tashviq qilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, mamlakat va jamiyatlar rivoji o'qilgan asarlarning sifat va saviyasidan tashqari o'sha vaqt-dagi ruhiy-ma'naviy ehtiyojga keraklilik darajasiga ham bog'liq. Nobel mukofoti sovrindori Mario Vargas Losa "Adabiyot tufayli, adabiyot uyg'otgan tafakkur, intilish va istaklar tufayli, xayolot saltanatiga safar chog'i ko'ngilda bosh ko'targan kechinmalar tu-fayli bugungi sivilizatsiya odamiylashdi, najot topdi. Adabiyot ahli o'ylab topgan badiiy to'qima qumga singgan suvdek izsiz ketmadi,

bil'aks, toshga aylangan yuraklarni mumdek eritdi. Yaxshi kitoblar bo'lmaganida edi, insoniyatning bugungi holiga maymunlar yig'lagan bo'lardi, mustaqil fikrdan mahrum labbaychilar urchib ketardi, ko'ngil birligi yo'qolardi, mutelik kayfiyati keng tarqalib, o'z-o'zini anglash tuyg'usi – taraqqiyotning yetakchi omili yo'qolardi", deb yozadi. Zero, dunyoni zulmat bosganda yorug'lik haqida yozmaslik, ziyoni tarannum etmaslik insoniyat oldida jinoyat sodir qilish bilan barobardir.

Inson botinida qarama-qarshi, chunonchi, ezgulik va yovuzlikka moyil kuchlar yashaydi. Tomonlar har doim kurashib keladi. Muhim gap – insonning ana shu tomonlarining qay biriga yaqin yurishda. Fariddin Attorning "Ilohiynoma"sida keltirilgan rivoyatga ko'ra, zo'r berib ishlayotgan haqir chumoliga Sulaymon alayhissalom: "Agar senga Nuhning umri-yu Ayyubning sabrini ato etsa ham bu tepani yo'lingdan olib tashlash qo'lingdan kelmaydi, joningni jabborga berib kurashmog'ingdan maqsad ne?" desa, javoban u: "Tuproqni olib, do'ngni yer bilan bir etsam, uning ortida meni kutayotgan yorimga qovushaman", deydi. E'tibor berilsa, umri inson umriga qiyos qilinganda o'ta qisqa bo'lgan chumoli qarshisida turgan va o'zini yordan to'sib qo'ygan ulkan tuproq uyumini hech qachon olib tashlay olmasligini yaxshi biladi. Lekin yorga eltuvchi bu yo'ldan o'zgasiga rozi bo'lmaydi. Bas, umrini yor yo'liga tikadi, shu yo'lda qurbon bo'lishni o'zi uchun sharaf, hayotining eng oliy a'moli, mazmun-mohiyati deb ishonadi. Bu bilan chumoli Nur va Zulmat, Ezgulik va Yovuzlik, Yuksaklik va Tubanlik kurashida qaysi safda turishini ma'lum qilmoqda. Hech qachon yetolmasa-da, yorug' murod – yorning yo'llariga umrini baxshida aylamoqda. Chumolidan murod – inson. Yordan murod esa insonning kim ekanligini uning o'ziga anglatib sezdiradigan Borliq – Tilsimdir.

Azaldan beri kurashib kelayotgan kuchlar – Ezgulik va Yovuzlik, Nur va Zulmatning qaysi birini tanlash ko'p jihatdan har bir insonning o'ziga bog'liq bo'ladi. Adabiyot, umidbaxsh adabiyot bu mushkul tanlov qarshisida ertak qahramonlaridek turib qolgan zamondosh insonning to'g'ri yo'lni tanlashida ishonchli ko'makdoshdir.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Globalizm ma'nosini tushuntirib bering.
2. Hozirgi zamonda adabiyotning o'rnini va vazifalari haqida gapiring.
3. Qog'oz shaklidagi adabiyot va internet adabiyoti to'g'risida so'zlang. Ularning yutuq va kamchiliklari nimalarda ko'rinadi?
4. Jahon adabiyotida tarjimaning o'rnini va muammolari haqida tushuncha bering.
5. Inson ma'naviy olamining shakllanishida adabiyotning o'rnini nimalarda deb bilasiz?

Адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир / Халқ сўзи. 2017. 4 авг.
2. Интернет материаллари. <http://echo.msk.ru>.
3. Мусурмонов Э. Эртак ва ҳақиқат қоришган адабиёт. – Тошкент: Шарқ юлдузи, 2014, № 4.
4. Боров Ю. Инсоният ҳаётининг олий мақсади ва маъноси. – Тошкент: Шарқ юлдузи, 2011, № 4.

I. IJTIMOIIY-SIYOSIIY ADABIYOTLAR:

Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир / Халқ сўзи, 2017, 4 август.

II. O'ZBEK VA RUS TILIDAGI ADABIYOTLAR:

1. Авесто. – Тошкент: Гафур Ғулом нашриёти, 2015.
2. Азизов К., Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987.
3. Алимухамедов А. Антик адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
4. Англия шеърляти. Халқ балладалари. – Тошкент: Jahon adabiyoti, 2014, №5.
5. Анвар Ш. Жан-Поль Сартр ва бадиий ижод эстетикаси. – Тошкент: Jahon adabiyoti, 2014, №4.
6. Артамонов С. История зарубежной литературы, XVII-XVIII в.в. – Москва, 1988.
7. Байрон. Сайланма. – Тошкент, 1974.
8. Бальзак О. “Гобсек. Сағри тери тилсими”. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.
9. Болтабоев Ҳ., Маҳмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. I ва II жилдлар. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2012–2013.
10. Борев Ю. Эстетика. – Москва: Политическая литература, 1981.
11. Виноградов А. Байрон. – Москва, 1985.
12. Гассет О. Дегуманизация искусства. – Москва: Радуга, 1991.
13. Гёте И. Ёш Вертернинг изтироблари. – Тошкент: 1975.
14. Гёте И. Фауст. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972–1974.
15. Дефо Д. Робинзон Крузо. – Тошкент, 1965.
16. Долгов К. От Киркегора до Камю. – Москва: Искусство, 1990.

17. Дунёнинг буюк романлари. Мигел де Сервантеснинг “Дон Кихот” романи ҳақида. // *Jahon adabiyoti*, 2016, № 3.
18. Елизарова М. и др. История зарубежной литературы XIX века. – Москва, 1972.
19. Жирмунский В. “Байрон и Пушкин”. – Москва, 1978.
20. Жойс Ж. Улис саргузаштлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013.
21. Затонский Д. Модернизм и постмодернизм. – Харьков: Фолио, 2000.
22. Зиётов З. Шумерлар ва Турон қавмлари. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2012.
23. История французский литературы. – Москва, 1951.
24. Калила ва Димна. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 2012.
25. Крамер С. История начинается в Шумере. – Москва: Наука, 1991.
26. Кун Н. Қадимги юнон афсона ва ривоятлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013.
27. Лосев А. Философия. Мифология. Культура. – Москва: Политическая литература, 1991.
28. Луков В. История литературы (Зарубежная литература от истоков до наших дней). – Москва: Академия, 2008.
29. Мир без границ. – Звезда Востока, Ташкент, 2014. №1.
30. Модернизм (Сборник). – Москва: Искусство, 1987.
31. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. – Тошкент: Фан, 2000.
32. Немис адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Фарғона, 2004.
33. Неустраев В. Немецкая литература эпохи Просвещения. – Москва, 1958.
34. Ницше Ф. и др. Сумерки богов. – Москва: Политическая литература, 1990.
35. Норматов У., Ҳамдам У. Дунёни янгича кўриш эҳтиёжи. – Тошкент: Жаҳон адабиёти, 2006.
36. Normatova Sh. *Jahon adabiyoti*. – Toshkent: Choʻlpon, 2008.

37. Обломовский Д. Французский классицизм. – Москва, 1968.
38. Плутарх. Сайланма. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2006.
39. Саидов У. Шарқ ва Ғарб: маданиятлар туташган манзиллар. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2009.
40. Рабле Ф. Гаргантюа ва Пантагрюэл. – Тошкент: Ёш гвардия, 1970.
41. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
42. Свифт. Гулливернинг саёҳатлари. – Тошкент, 1974.
43. Софокл. Шоҳ Эдип. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979.
44. Стендаль. Қизил ва қора. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
45. Самосознание Европейской культуры XX века. Сборник. – Москва, Политическая литература, 1991.
46. Тронский И. История античной литературы. – Москва, Высшая школа, 1988.
47. Фрезер Ж. Золотая ветвь. – Москва. Политическая литература, 1980.
48. Фромм Э. Душа человека. – Москва: Республика, 1992.
49. Храповицкая Г., Коровин А. История зарубежной литературы: западноевропейский и американский романтизм. – Москва: Наука, 2003.
50. Холбеков М. Оноре де Бальзак ва “Инсоният комедияси”. – Тошкент: Jahon adabiyoti, 2009. №1.
51. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2014.
52. Гомер. Илиада. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1998.
53. Хўжаев С. Немис адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Фарғона, 2004.
54. Шекспир У. Танланган асарлар. Беш жилдлик. – Тошкент, 2008.
55. Эзоп. Масаллар. – Тошкент: Akademnashr, 2011.
56. Эсхил. Занжирбанд Прометей. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976.

57. Эрматов Ҳ. Нобель мукофоти совриндорлари. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.

58. Эшонкул Н. Мендан менгача. – Тошкент: Akademnashr, 2014

59. Эргашев Ш. Қадимги цивилизациялар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.

60. Эфти Т. Шумерсы и этруски – древние турки у истоков человеческой цивилизации. – Ташкент: “Нисо полиграф”, 2013.

61. Qosimov A., Xo‘jayev S. Jahon adabiyoti: Antik davrdan XVII asrgacha. – Farg‘ona, 2016.

62. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Akademnashr, 2010.

63. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари. – Тошкент: Фан, 2008.

64. Ҳамдам У. Рухни уйғотгувчи сўз. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017.

III. INTERNET VA INGLIZ TILIDAGI ADABIYOTLAR:

1. The History of Ancient Greek literature. Gilbert Murray. 2008. D.Appleton and company. P.460

2. European literature and the Latin Middle Ages. Ernst Robert Curtius 2013, Princeton University Press. P.662

3. Highlights of American Literature. Dean Curry 1988, Washington USIA. P.288

4. Introduction to Literature. Miller Gilbert. Williams John. 1995 The McGraw-Hill. P.1148

5. Internet materiallari: <http://iEssay.ru>, Википедия, Все поэты В Контакте, МУ стихи.

6. The Renaissance. Walter Pater. 2000. The Modern library. P.249.

MUNDARIJA

1. Kirish.	3
2. Qadimgi Sharq adabiyoti.	6
3. Mif va badiiy ijod.	28
4. Antik davr yunon adabiyoti.	42
5. Rim adabiyoti.	70
6. O'rta asrlar G'arb adabiyoti.	90
7. G'arb Uyg'onish adabiyoti.	104
8. Klassitsizm adabiyoti (XVII asr G'arbiy Ovrupa adabiyoti).	125
9. Ma'rifatchilik adabiyoti (XVIII asr G'arb ma'rifatchiligi).	140
10. Romantizm adabiyoti.	161
11. Realizm va tanqidiy realizm adabiyoti.	184
12. XIX asr oxiri va XX asr jahon adabiyoti.	213
13. Modernizm.	253
14. Postmodernizm.	270
15. Avstraliya, Okeaniya, Afrika, Kanada mamlakatlari adabiyoti.	287
16. XX asr AQSh va Lotin Amerikasi adabiyoti.	298
17. Jahon adabiyotining zamonaviy muammolari.	329
18. Foydalanilgan adabiyotlar.	346

Mualliflar haqida:

Abdug‘opir Qosimov 1967-yilda tug‘ilgan. Farg‘ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori. G‘arb adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik bo‘yicha mutaxassis. 6 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma, shu jumladan, S.Xo‘jayev bilan hammualliflikda «XX asr chet el adabiyoti tarixi»(2003-yil), «XX asr g‘arb adabiyotidan amaliy mashg‘ulotlar»(2011-yil), «Jahon adabiyoti»(2016-yil)nomli o‘quv-qo‘llanmalar muallifi.

Ulug‘bek Hamdamov 1968-yilda tug‘ilgan. Yozuvchi, shoir, tarjimon va adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori. “Badiiy tafakkur tadriji” (2002), “Yangilanish ehtiyoji” (2007), “Yangi o‘zbek she‘riyati” (2013), “Istiqlol. Adabiyot. Tanqid” (hammualliflikda, 2015), “Ruhni uyg‘otguvchi so‘z” (2017) kabi monografiyalar va ilmiy maqolalar to‘plamlari muallifi. Qator romanlari, she‘riy to‘plamlari va tarjima asarlari o‘zbek va xorij o‘quvchilariga yaxshi tanish.

**ULUG'BEK HAMDAMOV,
ABDUG'OPIR QOSIMOV**

JA'HON ADABIYOTI

(O'quv qo'llanma)

Toshkent – «Barkamol fayz media» – 2017

Muharrir: D.Vahidova
Tex.muhammad: F.Tishaboyev
Musavvir: D.Azizov
Musahhiha: Sh.Rahimova
Kompyuterda
sahifalovchi: A.Kuchkarov

E-mail: Barkamolfayz@mail.ru

Nashr.lits. AL№ 284, 12.02.16. Bosishga ruxsat etildi: 20.12.2017.

Bichimi 60x84 1/16. «Times New Roman» garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 21,75.

Nashriyot bosma tabog'i 22,0. Tiraji 500. Buyurtma №8.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi»da chop etildi.

100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.

ISBN 978-9943-5142-0-1



9 789943 514201